


94
P63

N.T. Polvonov

**O'ZBEKISTON
TARIXIDAN
XRESTOMATIYA**



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI

MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

N.T. Polvonov

O‘ZBEKISTON TARIXIDAN XRESTOMATIYA

O‘quv qo‘llanma

1-kitob

Toshkent
«Info Capital Group»
2018

UDK: 94(575.1)
KBK: 63.3(50')
P63

Mas'ul muharrir: R.H. Murtazayeva – t.f.d., prof.

Taqrizchilar: Sh.H. Vohidov – t.f.d., prof.;
B.J. Eshov – t.f.d., prof.

Polvonov, Ne'matjon

P63 O'zbekiston tarixidan xrestomatiya: O'quv qo'llanma.
1-kitob. N.T.Polvonov; O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universiteti. – T.: Info Capital Group, 2018., 400 b.

Barkamol avlodni tarbiyalashda manbalarga asoslangan haqqoniy tarixni o'rganish va o'rgatish nihoyatda muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur xrestomatiyada O'zbekiston tarixi fani bo'yicha mavjud dastur asosida ish olib borilib, bakalavriyat ta'limi uchun tasdiqlangan har bir mavzuga oid manbalar guruhi aniqlangan. Ushbu xrestomatiya bu yo'nalishdagi dastlabki tajriba bo'lib, unga, asosan, o'zbek tilida nashr etilgan eng muhim yozma manbalardan parchalar kiritilgan.

Mazkur o'quv qo'llanma O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining Oliy ta'lim muassasalarini zamonaviy darsliklar va o'quv-metodik qo'llanmalar bilan ta'minlashni yaxshilashning 2011–2013-yillarga mo'ljallangan rejasi asosida tayyorlangan va Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti o'quv-uslubiy kengashi tomonidan nashrga tavsiya qilingan.

ISBN 978-9943-5444-3-7

© N.T. Polvonov, 2018
© Info Capital Group, 2018

KIRISH

Tarix fanini o'qitishdan asosiy maqsad o'zligini anglagan, o'z fikri va mulohazasiga ega, yuksak qobiliyat egalari bo'lgan barkamol yoshlarni tarbiyalashdir. Ularni yuqori saviyada tarbiyalashda haqqoniylik, xolislik bilan yoritilgan tarix darsliklari, ayniqsa, manbalarning o'rni nihoyatda beqiyosdir. Chunki manbalar bilan bevosita tanishish, har bir manbaning imkon qadar aslini ko'rish, asl manbalarni o'qish hodisa va voqealar haqida erkin, aniq, mustaqil fikr yuritishga imkon beradi. Zero, o'zining mustaqil fikriga ega bo'lgan mutaxassis kadrlar mustaqilligimizni mustahkamlashda faol ishtirok etadilar, mamlakat taraqqiyoti va xalq farovonligi uchun fidoyilik ko'rsatib, haqqoniy xizmat ko'rsatadilar. Aynan shuning uchun ham Vatanimiz haqqoniy tarixini yoritishdagi bebaho boyligimiz bo'lgan turli davrlarga oid yozma manbalardan tegishli parchalarni to'plab xrestomatiya yaratish maqsadga muvofiq, deb topildi.

Ma'lumki, dastavval yozuvning, keyinroq esa qo'lyozma va bosma kitoblarning paydo bo'lishi insoniyat madaniyati taraqqiyotiga katta ta'sir ko'rsatgan kashfiyotlardan biridir. Turli tarixiy davrlarda, asrlar davomida vujudga kelgan yozma manbalar inson bilimlarining asosiy manbayi bo'lib keldi va fan-texnika rivojlangan hozirgi zamonda ham barcha fanlarning fundamental asosi bo'lib hisoblanadi. Shuni ham inobatga olish kerakki, yozma manbalardan faqatgina darsni bezash va o'quvchilarni qiziqtirish uchun emas, balki ularni uzoq tarixni anglay olish xususiyatlarini shakllantirishga, ya'ni darsning ta'limiy hamda tarbiyaviy vazifalarini to'laqonli bajarish uchun ham foydalaniladi. Oldiga to'g'ri maqsad qo'ya olgan va metodik hamda texnologik jihatdan yaxshi ishlab chiqilgan dars tarix fanini o'rganishda o'quvchilar uchun juda ko'p qulayliklar yaratadi,

ularning fanga bo'lgan qiziqishini oshiradi, o'qituvchi harakatlarning natijasini kafolatlaydi. Zero, Y.A.Komenskiy o'zining «Buyuk didaktika» asarida: «Barcha mumkin bo'lgan imkoniyatlardan foydalangan holda o'quvchilarda bilishga va o'qishga bo'lgan harakatni rivojlantirish mumkin», – deb bejiz aytmagan.

Barcha madaniy jamiyatlarda hamma vaqt kitoblarning qadri bebaho, ayniqsa, sharq xalqlarini o'zaro bog'lab, ularning tillari rivojiga beqiyos hissa qo'shgan Sharq qo'lyozmasi, ular jahon madaniyati xazinalarining umri boqiyliigi, davomiyligini ta'minlab kelmoqda. Sharq qo'lyozma manbalarini o'rganish Markaziy Osiyo xalqlarining o'tmish hayotining tarixiy manzaralarini tiklashga, o'sha xalqlarning jahon madaniyatiga qanday hissa qo'shganligini aniqlashga yordam beradi. Qo'lyozma kitoblar tadqiqotchisi L.I.Kiselevaning fikricha, «Qo'lyozma manbalar o'tmishni tushunish va kelajak haqida o'ylashga da'vat etadi. Qo'lyozma kitoblarni bilim koni va estetik lazzat manbayi sifatida ko'rsatayotgan odamning hissiyotini kashf etuvchi odamning zavqiga tenglashtirish mumkin». Zero, I.A.Karimov ta'kidlaganidek, «Ajodlarimiz tafakkuri va dahosi bilan yaratilgan eng qadimgi toshyozuv va bitiklar, xalq og'zaki ijodi na'munalaridan tortib, bugungi kunda kutubxonalarimiz xazinasida saqlanayotgan ming-minglab qo'lyozmalar, ularda mujassamlashgan tarix, adabiyot, san'at, siyosat, axloq ... va boshqa sohalarga oid qimmatbaho asarlar bizning buyuk ma'naviy boyligimizdir». Yozma manbalardan tegishli mavzularni oydinlashtirish va qo'shimcha ma'lumotlar to'plash bazasi sifatida foydalanish ko'nikmalarini rivojlantirish hozirgi tarix fanining eng dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi. Bu esa o'quvchilarni mavzu yuzasidan erkin fikrlay olish va o'z mustaqil qarashlarini shakllantirishga yordam beradi.

Tarix fanini yozma manbalar yordamida o'qitishda o'rganilayotgan har bir manbaning o'ziga xos xususiyatini ajratib ko'rsatib berish juda muhimdir. Chunki har bir asar yozilish maqsadi, qay turdagi voqeani o'ziga xos yo'l bilan bayon etishi

kabi jihatlari bilan boshqa asarlardan farqlanib turadi. Va albatta, o'quvchilarga manba haqida ma'lumot berishda uning boshqa tarixiy asarlarga o'xshashligi, shu bilan bir qatorda ulardan farqlanuvchi jihatlari va qanday manbalardan foydalanib yozilganligiga alohida e'tibor qaratish lozim.

Bugungi kunda Vatan tarixiga oid eng asosiy manbalardan iborat xrestomatiya yaratishga ehtiyoj sezilganligi bois, tuzuvchi bu ishni amalga oshirishga harakat qildi. Bunda asosiy e'tibor O'zbekiston tarixi fani bo'yicha tuzilgan dasturlarga qaratilib, har bir mavzuga oid asosiy manbalar guruhlarini aniqlandi. Xrestomatiyada manbalar nomi tarixiy nomlar bilan, ba'zan muoammoli ma'ruzaga mos mavzu tanlab yozildi. Manbani qaysi nashrdan olinganligi va sahifalari parcha oxirida berildi, ko'p hollarda esa sahifa parcha ichida qavs bilan yozildi. Dastlabki tajriba sifatida ushbu kunga qadar o'zbek tilida, asosan, kirill yozuvida nashr qilingan manbalardan har bir mavzu bo'yicha parchalar xrestomatiyaga kiritildi.

ITD-3-004 raqamli «Ta'lim tizimida O'zbekiston tarixi fanini o'qitishni takomillashtirishning yangi resurslar majmuasini yaratish va uni amaliyotga tatbiq etish» mavzusidagi ilmiy grant rahbariyatining bevosita maslahatlari bilan grant doirasida ushbu materiallar tayyorlandi. Xrestomatiyadan R.Murtazayeva, B.Eshov, M.Tojiev, B.Joldasov, N.Polvonov, X.Yunusova, A.Odilov va boshqalar hammuallifligida 2003 yilda «Yangi asr avlodi»da nashr qilingan «O'zbekiston tarixi» darsligi bilan birgalikda foydalanish tavsiya qilinadi. Ushbu qo'llanmani tayyorlashda yaqindan yordam bergan A.A.Odilov, J.A.Polvonov, M.M.Hasanov, H.A.Polvonov, J.N.Polvonov, D.O.Tolipov, U.M.Mirzayeva hamda kitob nashriga bevosita va beg'araz hissa qo'shgan universitet rahbariyatiga chin dildan tashakkur bildiramiz. Mazkur xrestomatiya ushbu yo'nalishdagi dastlabki tajriba bo'lganligi bois u haqda o'z fikr-mulohazalarini bildirgan hamkasblarga oldindan minnatdorchilik bildiramiz.

BIRINCHI BO‘LIM

O‘ZBEKISTON TARIXI FANINING PREDMETI, NAZARIY–METODOLOGIK ASOSLARI, MANBALARI VA AHAMIYATI

Bu bo‘limda o‘quvchining tarix fani to‘g‘risidagi qarashlarini kengaytirish, uni o‘rganishning maqsad va vazifalari haqidagi fikrlarini boyitish, tarix fanini o‘rganishning ijtimoiy – siyosiy ahamiyatini ochib beruvchi, tarixiy xotira jamiyat taraqqiyotini belgilovchi omil ekanligini ko‘rsatuvchi, tarixni o‘rganishning davlat siyosatidagi o‘rnini aniqlashtiruvchi asarlardan parchalar keltirildi.

HAQQONIY TARIX YOZISH USULI

Tarix millatlarning o‘tmishini, tarqiyoti va tanazzulining sabablarini o‘rganadigan ilmdir.

Abdurauf Fitrat¹

Adiblardan biri mendan (turli) xalqlar haqidagi tarixlar, ularning boshlanishlari va shaxobchalari, ya‘ni oylar va yillari ustida u tarix egalarining ixtiloflari va bu ixtiloflar sabablari, mashhur bayramlar, turli vaqtlar va (har xil) yumushlar uchun belgilangan kunlar, millatlarning ba‘zisi amal qilib, ba‘zisi amal qilmaydigan boshqa [marosimlar] haqida so‘radi va meni imkon boricha ularni

¹ Abdurauf Fitrat – asl ism-sharifi Abdurauf Abdurahim o‘g‘li (1886, Buxoro – 1938, Toshkent) bo‘lib, jadidchilik harakati namoyandalaridan biri, yozuvchi, tarixchi, adabiyotshunos, tilshunos, san‘atshunos va siyosatshunos olim, davlat va jamoat arbobidir. Birinchi o‘zbek professori hisoblanadi (1926).

juda ravshan bayon etib, o'quvchi fahmlaydigan, [turli] kitoblarni axtarish va u kitob egalarini surishtirishga ehtiyoj qoldirmaydigan darajada [bir asar yozishga] da'vat etdi. Bu ishning [yetishish] qiyin va olinadigan [manbayi] uzoq ekanini va uni yaxshi bilgan odam qalbida shubha qolmaydigan aniq, fanlar qatoriga qo'y-moqchi bo'lgan kishiga bo'ysunmasligini bildim.

...oliy davlatidan quvvat olib, [butun] kuchimni yig'ib, [bor] imkoniyatni ishga solib, goh eshitish, goh ko'rish va qiyos qilish orqali, bilimim yetganicha, u narsalarni bayon etishga bel bog'ladim.

...Asarni yozishga [kirisha] boshlab aytamanki, mendan so'ralgan narsaga yetkazuvchi vositalarning eng muhimi – qadimgi millatlar haqidagi rivoyatlar, o'tmish avlodlar to'g'risidagi xabarlarini bilishdir. Chunki bularning ko'pchiligi u millatlar avlodidan va ularning rasmu rusum va qoidalaridan iboratdir. Aqliy [narsalardan] dalil keltirish, kuzatilgan [narsalarga] qiyos qilish yo'li bilan u xabarlarini bilib bo'lmaydi. Buni faqat «kitob ahllari» va turli din arboblari, shu [e'tiqodlarga] amal qiluvchi har xil maslak va ishonch egalariga ergashish, ularning tushunchalarini hamisha asos tutish bilan bilinadi. So'ngra buni ko'pchilik kishilarning tabiatini pastkashlashtiradigan yomon axloqdan, haqiqatni ko'rishga imkon bermaydigan omillardan o'zni tozalagandan keyin, ularning isbot uchun keltirgan so'z va e'tiqodlarini bir-biriga solishtirish bilan bilinadi. Ana shu aytib o'tganim haqiqiy maqsadga yetkazuvchi eng yaxshi yo'l va bunga dog' tushiruvchi shak-shubhani yuvib tashlash uchun eng kuchli yordamchidir. (40) (4) Garchi qattiq urinib zo'r mashaqqat cheksak ham, o'shandan boshqa yo'l bilan maqsadga erisholmaymiz.

Shu bilan birga, men tutgan yo'l va belgilagan usul oson emas (5), balki uzoq va qiyin yo'l. Xabar va rivoyatlarga ko'plab kirib qolgan yolg'on so'zlarning hammasi ham ravshan emas. Boshqa dalillar bo'lmaganda ba'zilarining yolg'onligini

bilib bo'lmadi. Odamlar hozir ham, o'tgan zamonlarda ham Shunday tabiiy hodisalarga duch kelgan, agar o'shanday hodisalar uzoq zamonlarda [yuz bergan deb] hikoya qilinsa, albatta biz unga ishonmas edik. Xalqlardan biriga [tegishli] xabarlar [ning hammasi] ni aniqlab bilishga inson umri kifoya qilmaydi-yu, hamma millatlar [haqidagi] xabarlarni bilishga qanday kifoya etsin? Bu mumkin emas!

Ish shu yo'ldan boradigan bo'lgach, u rivoyatlarning davrimizga eng yaqin va eng mashhurini, so'ngra yaqinroq va mashhurrog'ini [birin-ketin] olishimiz lozim. Ularning [ba'zilarini] o'z arboblari qabul qilib, tuzatish mumkin bo'lganini tuzatamiz, boshqalarini o'z holida qoldiramiz. Shunda biz keltirgan rivoyatlar haqiqatni qidiruvchi va hikmatni sezuvchining boshqa rivoyatlar ustida ish yurgizishiga yordamchi va bizga muayassar bo'lmagan narsalarga erishishi uchun yo'llovchi bo'ladi.

Biror o'tib ketgan yilning avvalidan hisobga olinadigan ma'lum bir muddatga **tarix** deyiladi. O'sha yilda turli alomatlar va dalillar bilan [qandaydir] payg'ambar dunyoga kelgan yoki qudratli, sha'ni ulug' bir podshoh bosh ko'targan yoki xarob qiluvchi umumiy to'fon, zilzila va halokatli yer yutish, halok etuvchi vabo va qattiq qahatchilik natijasida biror millat halokatga uchragan, yoki davlat va hukmdorlik bir xonadondan boshqasiga o'tgan yoki biror din ikkinchisiga almashgan, yoki osmon hodisalaridan va yerning mashhur alomatlaridan biron muhim narsa yuz bergan bo'lishi kerak, bular uzoq asrlar va ko'p zamonlarsiz paydo bo'lmaydi. Bunday hodisalar orqali ma'lum vaqtlar tarixlar aniqlanadi, dunyo va dinga oid barcha [ishlar]da bunga ehtiyoj seziladi.

Barcha mamlakatlarga tarqalgan xalqlardan har birining alohida tarixi bor, uning podshohlari, payg'ambarlari, davlatlari yoki men yuqorida aytgan hodisalarning biridan hisoblaydi. Shu tarix yordami bilan muomala ishlarida hamda vaqtlarni bilish

xususida kerakli [muddatlarni] belgilaydi va bu tarix ularni boshqa xalqlardan ajratadi.

Qadimgi tarixlarning eng avvalgisi va eng mashhuri basha-riyatning boshlanishidir. (41)

Abu Rayhon Beruniy.² Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar. Fan, 1968.

TARIXIY XOTIRASIZ KELAJAK YO‘Q

Mustaqillikka erishganimizdan keyin xalqimizning o‘z yurti, tili, madaniyati, qadriyatlarini tarixini bilishga, o‘zligini anglashga qiziqishi ortib bormoqda. Bu tabiiy hol. Odamzod borki, avlod-ajdodi kimligini, nasl-nasabini, o‘zi tug‘ilib voyaga etgan qish-loq, shahar, xullaski, Vatanining tarixini bilishni istaydi.

O‘zlikni anglash tarixni bilishdan boshlanadi. Isbottalab bo‘lmagan ushbu haqiqat davlat siyosati darajasiga ko‘tarilishi zarur.

Biz komil inson tarbiyasini davlat siyosatining ustivor sohasi deb e‘lon qilganmiz. Komil inson deganda biz, avvalo, ongi yuksak, mustaqil fikrlay oladigan, xulq-atvori bilan o‘zgalarga ibrat bo‘ladigan bilimli, ma‘rifatli kishilarni tushunamiz. Ongli, bilimli odamni oldi-qochdi gaplar bilan aldab bo‘lmaydi. U har bir narsani aql, mantiq tarozisiga solib ko‘radi. O‘z fikri-o‘yi, xulosasini mantiq asosida qurgan kishi yetuk odam bo‘ladi.(430) Ma‘naviyatini tiklashi, tug‘ilib o‘sgan yurtida o‘zini boshqalar-dan kam sezmay, boshini baland ko‘tarib yurish uchun insonga, albatta, tarixiy xotira kerak. (431)

Tarixiy xotirasi bor inson – irodali inson. Takror aytaman irodali insondir.

² Abu Rayhon Beruniy – 973-1048 yillarda yashab ijod etgan O‘rta Osiyolik qomusiy olim.

Kim bo'lishidan qat'iy nazar, jamiyatning har bir a'zosi o'z o'tmishini yaxshi bilsa, bunday odamlarni yo'ldan urish, har xil aqidalar ta'siriga olish mumkin emas. Tarix saboqlari insonni hushyorlikka o'rgatadi, irodasini mustahkamlaydi.

Inson uchun tarixdan judo bo'lish – hayotdan judo bo'lish demakdir.

Tarix – xalq ma'naviyatining asosidir. Har bir xalq o'z tarixini har xil ta'sir va tajovuzlardan asrashi kerak. Beparvo bo'lsangiz, turli, soxta homiylar, kuchlar borki, ular tarixni buzib ko'rsatadigan kitoblarni chiqaraveradi. Hatto chet elda ham chiqarishi mumkin. Biz biror ajdodimizning to'yini o'tkazsak, bunga uning millatimiz ravnaqi uchun qilgan ishlari, tariximizda tutgan o'rnini sabab bo'ladi. (438) Yurtimizda tarixiy shaxslar, shaharlar, madaniy yodgorliklarning yubiley va bayramlarini o'tkazish yaxshi an'anaga aylanib qoldi. Bu yerda gap tantanadagina emas, muhimi, biz ularning o'z davrida kelajak avlodlar uchun qoldirgan salmoqli merosi, ijobiy ishlari, kerak bo'lsa, umumjahon sivilizasiyasiga qo'shgan hissalarini qadrlaymiz. Albatta, har bir millat o'z ajdodlarini eslash, ularning hurmatini joyiga qo'yishga intiladi. Faqat bu kabi xayrli ishlar o'z mohiyati jihatidan xalqlarni yaqinlashtirishga, ularni hamjihat etishga xizmat qilsin.

Xoh o'tmishda, xoh bugun bo'lsin, boshqa millat, davlatni o'ziga qaram qilish niyatida harakat qilgan, qilayotgan kuchlar doimo bir siyosatni yuritganlar, yuritadilar ya'ni qaram xalqning ma'naviy, madaniy, tarixiy merosini yo'q qilish, undan judo etish.(439) Chor Rossiyasi generali Skobelev o'z imperatoriga murojaat qilib, shunday deb yozgan edi: «Mahalliy xalq biz o'ylagandan ko'ra madaniyatli ekan. Ularni bo'ysundira olmayapmiz... Bu xalqning o'tmishda yaratilgan barcha osori-atiqalarini, masjid, madrasalarini, diniy kitoblarini yer bilan yakson qilibgina, ularning ma'naviyatini so'ndiribgina o'z qanotimiz ostiga olishimiz mumkin».

Modomiki, o'z tarixini bilgan, undan ruhiy quvvat oladigan xalqni yengib bo'lmas ekan, biz haqqoniy tariximizni tiklashimiz, xalqimizni, millatimizni ana shu tarix bilan qurollantirishimiz zarur. Tarix bilan qurollantirish, yana bir bor qurollantirish zarur. Agar olimlarimizning ilmiy tadqiqot ishlari zamirida ana shu fikr, ana shu maqsad bo'lmasa, ularning sariq chaqalik ahamiyati yo'q. Tarix instituti, Fanlar akademiyasi haqqoniy tarixni yoritish mezonlarini, uning poydevorini, asosini belgilab berishi kerak. Bu masala bo'yicha fikrlar aniq va ilg'or bo'lishi lozim. Umuman, men fanni ilg'or, taraqqiyot, progress degan so'zlar bilan yonma-yon qabul qilaman. Fanning vazifasi kelajagimizning shakl-shamoyilini yaratib berish, er-tangi kunimizning yo'nalishlarini, tabiiy qonuniyatlarini, uning qanday bo'lishini ko'rsatib berishdan iborat, deb tushunaman. Odamlarga mustaqillikning afzalligini, mustaqil bo'lmagan millatning kelajagi yo'qligini, bu tabiiy bir qonuniyat ekanini isbotlab, tushuntirib berish kerak. Fan jamiyat taraqqiyotini olg'a siljituvchi kuch, vosita bo'lmog'i lozim. (440).

Tarix fani, uning bugungi ahvoli, istiqboli haqida gapirar ekanmiz, men yana bir masalaga e'tibor qaratishni istardim. Agar biz tarixchilarni taroziga solsak, bugungi kun nuqtayi nazaridan baholasak, talabga javob beradiganlari juda kamchilikni tashkil etadi. Shuning uchun tarixchi mutaxassislar tayyorlashni universitetlardan, ya'ni boshlang'ich nuqtasidan yaxshilash lozim, deb o'ylayman. Kerak bo'lsa, tarixga ixtisoslashgan maktablarni ochish lozim. Buning uchun esa avvalo mukammal darsliklar yaratish, ustozlarning o'zini qaytadan o'qitish kerak. Muhimi, yoshlarning orasiga kirish, ularning ichidan qobiliyatli, fidoiy-larini topish, ularning yuragini yondirish kerak. (441)

Haqqoniy tarixni bilmasdan turib esa o'zlikni anglash mumkin emas. (442)

I.A. Karimov. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q.

Ma'naviy yuksalish yo'lida. T.: O'zbekiston, 1998. B.429-442.

TARIXDAGI YOLG‘ONLAR HAQIDA

Iskandar³ning shuhratparstligiga moslangan tilyog‘lamalik yo‘lida juda ko‘p yolg‘onlarni yozib tashlashgan. Tanaid⁴ daryosi Osiyoni Yevropadan ajratib turishi, shuningdek, Osiyoning Girkan⁵ dengizi bilan Tanaid o‘rtasidagi katta qismini makedonlar zabt etmaganligiga hamma qo‘shilmadi. Shuning uchun tarixchilar Iskandar Osiyoning shu qismini hech bo‘lmasa ellararo mish-mishlarda «zabt etilganini» ta‘minlash uchun nayrang qilib, Tanaid quyiluvchi Meotida⁶ ko‘li bilan Kaspiy dengizini bitta havza, deb atayverganlar. Kaspiy dengizini ham ba‘zan ko‘l atab, bu ikkovi yaxlit bir narsaning ikki bo‘lagi, suvlari bir-biriga quyilib turadi, deyishgan. Poliklet⁷ hatto isbot uchun Kaspiy dengizida ilon bor, suvi chuchuk, degan misollarni keltiradi. Yana, Tanaid Kaspiyga quyiladi, degan misollarni keltirib, uni Meotidadan ayri emasligini isbotlaydi va davom etib, Ox⁸, Oks⁹lar kabi eng shimoldagi daryo hisoblanuvchi Yaksart¹⁰ ham hind tog‘laridan boshlanib xuddi boshqalardek Kaspiy dengiziga quyiladi, deb aytadi.

Strabon.¹¹ Geografiya, X I. 8, 1. (Qadimgi tarixchilar O‘rta Osiyo haqida. T.: Yurist-Media markazi, 2008. 124-bet.)

³ Iskandar – makedoniyalik Aleksandr (mil.avv. 356-323)ning Sharqdagi nomlanishi.

⁴ Tanaid daryosi – Sirdaryoning qadimgi nomlaridan biri.

⁵ Girkan dengizi – Kaspiy dengizining qadimgi nomlaridan biri.

⁶ Meotida ko‘li – Azov dengizining mil. avv. 7-a. — mil. 4-a.lardagi yunoncha nomi.

⁷ Poliklet – (mil. avv. 5-a. 2-yarmi), yunon haykaltaroshi va san‘at nazariyotchisi, klassikaning yetakchi namoyandalaridan biri.

⁸ Ox – Tajan daryosining qadimgi nomi.

⁹ Oks – Amudaryoning qadimgi yunon manbalaridagi nomlanishi.

¹⁰ Yaksart – Sirdaryoning qadimgi yunon manbalaridagi nomlanishi.

¹¹ Strabon – mil. av. 64/63 – mil. 23/24 yillarda yashagan yunon geografi va tarixchisi.

TARIX YOZISH MA'SULIYATI

Qazvinli Xo'ja Rashid¹² aytaturur: «Eronda Chingizxon¹³ avlodidin podshohlik qilg'an jamoatdin ul kishiki musulmon bo'ldi, Chingizxon o'g'li To'lixon¹⁴, aning o'g'li Xulaguxon¹⁵, aning o'g'li Abaqxon, aning o'g'li Arg'unxon, aning o'g'li G'ozonxon¹⁶ alayhirrahma erdi. Ul podshoh bo'lg'anidan so'ng Tabriz¹⁷ni poytaxt qildi. Meni chaqirib inoyat yuzina kelib vazir qildi. Tamom Eron mamlakatining ixtiyorini mening qo'limg'a berdi. Bir yil bo'lgandan so'ng, bir kun meni chaqirib aytdi, alhamdulillah biz musulmon bo'lduq. Bizning ulug' otamiz Xulaguxon Mo'g'ulistondan kelgandan beri ikki-uch orqa o'tdi. Endi bizdan so'ng dunyog'a kelganlar mo'g'ulning tilini, yo'sinini va yurtini (21a) va uruqlarini unitarlar. Bilmaslar Mo'g'ul yurtinda o'lturg'an el ko'p turur onlarning qaysisining so'nggi mo'g'ul turur va qaysisi mo'g'ul ermas. Munlarning barchasini bir yerga jam qilg'il, teb hukm qildi. Men arz qildim, bir kishining qo'lindin bir ish kelur. Menga ulug' hidmat buyurubsiz teb. Xon aytdi, bu ish sendin o'zga kishining qo'lindin kelmas. Bizda mo'g'ul tili birlan bitilgan kitoblar bor. Bitilmagan so'zlarni yod bilaturg'an kishilarimiz bor teb, besh-olti mo'g'ulning qari so'zini bilaturg'an kishilarni mening qotimda qo'ydilar. Taqi xonning bir ulug' begi bor erdi. Po'lod va laqabi Chingsang. Anga alohida buyurdilar kim bu vaqtda mo'g'ulning asl va nasabini sendin yaxshi bilur kishi yo'qtur ham mo'g'ulning tilin bilursen ham kitobni o'qursen teb hukm qilg'andin so'ng Po'lod Chingsang bahodir boshliq ul

¹² Xo'ja Rashid – Rashidindin Qazviniiy, tarixchi olim.

¹³ Chingizxon – asl ismi Temuchin bo'lib, 1206 yilda mo'g'ullar davlatiga asos solgan tarixiy shaxs (1155-1227).

¹⁴To'lixon – Chingizxonning to'rtinchi o'g'li.

¹⁵ Xulaguxon – 1258 yili Arab xalifaligiga barham bergan mo'g'ul xoni, Eronda hukmronlik qilgan Xulaguiylar (Elxonlar) sulolasi (1258-1353) asoschisi. Eronda 1265 yilgacha hukmronlik qilgan.

¹⁶ G'ozonxon – Qozonxon, (? -1347) – Chig'atoy ulusi xoni (1332-47).

¹⁷ Tabriz – Ozarbayjondagi shahar. Eron safaviylari davlati (1522-1736) ning ham poytaxti bo'lgan.

jamoat aytdilar, tarix hijriy yetti yuz taqi ikkida¹⁸ erdi, men bu tarixni bitdim va otini «Jami' ut-tavorix» qo'ydim». Shul tarix faqirning oldumda bor. Kitobning avvalinda ham aytib erdim. MUNDIN boshqa o'n yetti Chingiznoma hozir turub turur. Onlarning yuzindin biti tururman. Kotiblar tegan bemuruvvat ahmoqlar bu kitobning yuzindin ul kitobg'a biti biti, andiq beri uch yuz etmish ikki yil bo'lubtur, xudoy (21 b) bilur, yigirma nusxag'a bitilmish turur va yo o'ttuzg'a. Har nusxag'a o'tqazg'an sayin bir necha so'zni g'alat qila-qila tamom tarixlarning uchda birin, balki yarmini g'alat qilib tururlar. Tarixlarda bitilgan tog'larning va suvlarning va erlarning va kishilarning otlari mo'g'ul tili va yo turk (31) tili turur. Kitob aytg'an musanniflar, bititurg'an kotiblar ham tojik. Ne mo'g'ul tilin bilurlar va ne turk tilin. Mo'g'ulning ba'zi kishilarining otlarini bir tojikka agar o'n kun o'rgatib o'ltursang tili o'rgulmas. Ul nechuk bitisin bu faqir turkiy va forsiyning tilini va lug'atlarini va istilohlarini bilmaklikda xudoyi taolo ul miqdor nasib berib turur. Bu vaqtda turk va tojikda kerakkim faqirg'a berganicha bergan kishi bo'lmag'ay. Taqi bir nimarsa sabab bo'lib Qalmaqq'a borib, anda bir yil turdum. Mo'g'ulning tilini va rasmini va istilohlarini yaxshi o'rgandum. Bu tarixni yaxshi va yomon barchalari bilsun, teb turkiy tili birlan aytdum. Turkiyni ham andaq aytubmankim besh yashar o'g'lon tushunur. Bir kalima chig'atoy turkisindin va forsidin va arabiydin qo'shmayman ravshan bo'lsun, teb. Agar ajalning undovchisi unday kelmasa, ushbu kitobni forsiy tili birlan murassa' aytmaq ko'nglumda bor. Tangri yetkursa emdi ko'p so'zladuk. So'zlali teb boshlag'an so'zimizdin (22 a) qolmag'ali.

Abulg'oziy.¹⁹ Shajarayi turk. T.: Cho'lpon, 1992. 30-31-betlar.

¹⁸ Milodiy 1302-1303 yillar.

¹⁹ Abulg'oziy – Abulg'ozii Bahodirxon (1603-1664), shayboniylar sulolasidan bo'lgan Xiva xoni (1643-1664) hamda tarixchi olim va tabib.


MA'NAVİYAT YUKSALISHIDA TARIXNING ROLI

Agar biz dunyo tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, boshqa xalqlar ham ozodlik va mustaqillikni qo'lga kiritish, milliy tiklanish, o'z davlatchiligini, havas qilsa arziydigan fuqarolik jamiyatini mustahkamlash jarayonida ana shunday fazilatlarga tayanib va suyanib, barcha sohalarda – bu iqtisodiyot yoki ijtimoiy hayot bo'ladimi, madaniyat, ta'lim-tarbiya va ilm-fan bo'ladimi o'zining beqiyos ichki qobiliyat va salohiyatini ishga solish, uni ro'yobga chiqarish hisobidan taraqqiyotga erishganini ko'ramiz. Masalan, Yaponiya yoki Janubiy Koreyani olaylik. Bu mamlakatlarning Ikkinchi jahon urushidan keyin qanday og'ir ahvolga tushib qolganini hammamiz yaxshi bilamiz. Xo'sh, ular nimaning evaziga qisqa davr ichida bu qadar rivojlanishga erisha oldi? Axir, bu o'lkalarda mo'l-ko'l tabiiy xomashyo manbalari, mineral resurslar deyarli yo'q-ku! Albatta, bu borada o'sha paytda dunyoda mavjud bo'lgan siyosiy omillar, xalqaro vaziyatning ta'sirini inkor etib bo'lmaydi. Lekin yapon va koreys xalqi asrlar davomida shakllanib, katta bunyodkor kuchga aylangan o'ziga xos milliy ma'naviyati hisobidan ham rivojlangani bugungi kunda hech kimga sir emas. Shuning uchun «yapon mo'jizasi» yoki «koreys mo'jizasi» haqida gap ketganda, taniqli ekspert va mutaxassislar ham birinchi galda «yapon xarakteri», «koreys tabiati» degan iboralarni tilga oladi. Tabiiyki, ular bu o'rinda avvalo mazkur xalqlarga mansub ma'naviy fazilatlarni nazarda tutadi. Ya'ni, bu xalqlarning ichki dunyosi va irodasi ma'naviyat negizida yanada toblangan, kamolga yetgan. Bunday xulosaning tasdig'ini nafaqat mazkur ikki davlat, balki boshqa mamlakat va xalqlar misolida ham ko'rish qiyin emas. Bu hayotning shafqatsiz bir qonuniyati bor. Ya'ni, tarixning murakkab va hal qiluvchi burilish pallasida har qanday millat va elat o'z ahilligi va birdamligini saqlab, o'z milliy manfaatlari yo'lida qat'iyat bilan turmasa, mas'uliyat va hushyor-

ligini yo'qotadigan bo'lsa, oxir-oqibatda o'zining eng katta, tengsiz boyligi bo'lmish mustaqilligi va ozodligidan judo bo'lishi shubhasiz. Ming afsuski, ana shunday mash'um qismat Turkiston xalqlarini ham chetlab o'tmadi: XIX asrdagi chorizm istilosi ko'pgina sabablar bilan bir qatorda, avvalambor, o'sha paytda mavjud bo'lgan siyosiy boshboshdoqlik, hukmron kuchlarning uzoqni ko'rolmasligi, ma'naviy zaifligi oqibatida ro'y berganini tarixiy misollar isbotlab turibdi. Bu achchiq haqiqat barchamizga, ayniqsa, bugun hayotga katta umid va ishonch bilan kirib kelayotgan yoshlarimizga doimo saboq bo'lishi lozim. Shu nuqtai nazardan qaraganda, biz o'z tariximizni xolisona va haqqoniy baholab, ma'naviy merosimizni boyitish va rivojlantirishga o'z hissamizni qo'shishimiz, shu asosda bugungi jahon ilmu fani va madaniyatining yuksak cho'qqilarini egallashdek buyuk vazifaga har tomonlama munosib va qodir bo'lishimiz darkor (51-52).

...Tarix haqiqati shuni ko'rsatadiki, tomirida milliy g'urur, Vatan ishqini jo'sh urgan odamgina buyuk ishlarga qodir bo'ladi. Biz shunday ma'naviy muhit yaratishimiz kerakki, yurtimizning har bir burchagida, barcha shahar va qishloqlarimiz qiyofasida Vatandan faxrlanish hissi ko'zimizni, qalbimizni yashnatib tursin. Bu haqda gapirar ekanmiz, ayni vaqtda muhim bir masalaga alohida e'tibor qaratishimiz lozim. Yurtimizda yashayotgan har qaysi inson o'zini, eng avvalo, O'zbekiston fuqarosi deb, shundan keyingina muayyan bir hudud vakili, aytaylik, xorazmlik, samarqandlik yoki Farg'ona vodiysi farzandi deb his qilishi lozim. Tabiiyki, bu holat har birimiz mansub bo'lgan «mo'jaz vatan»ning, tug'ilib o'sgan shahar yoki qishloqning qadri va ahamiyatini aslo kamaytirmaydi. Biroq shuni esda tutish kerakki, haddan tashqari bo'rttirib yuborilgan mahalliy vatanparvarlik millatning, xalqning jipslashuviga xalaqit beradi. Biz Vatan tuyg'usini mana shunday yaxlit holda, ya'ni dunyoda yagona o'zbek millati bor, xorazmlik, farg'onalik, surxon-

daryolik o'rtasida hech qanday milliy farq yo'q, ularning barchasi o'zbek xalqining farzandi deb anglashimiz, yosh avlodimizni aynan shu ruhda tarbiyalashimiz zarur.(90-91) Ayni paytda shuni ham unutmaslik kerakki, dunyoviylik - bu dahriylik degani emas. Din va diniy e'tiqod butunlay rad etiladigan hayot qanday g'ayriinsoniy ko'rinishga ega ekanini biz kechagi tariximiz misolida yaxshi bilamiz. Bunday mafkuraning xatarli tomoni shundaki, u necha asrlar davomida din negizida shakllangan, xalq hayotining ajralmas qismiga aylanib ketgan qadriyatlar bu yozma yoki og'zaki, moddiy yoki ma'naviy meros bo'ladimi, axloq yoki an'analar bo'ladimi, milliy dunyoqarash yoki turmush tarzi bo'ladimi - bularning barchasini rad etadi. Natijada odamzot o'zining ichki dunyosi, his-tuyg'u va qarashlari, tayanib-suyanib turadigan poydevoridan mahrum bo'lib, «sho'ro dohiylari» aytganidek, ulkan davlat mashinasining «vintchasi»ga aylanadi. Oxir-oqibatda bunday odam o'tanasini ham, o'z millati, xalqi va Vatanini ham tanimaydigan ayanchli holatga tushib qoladi (93-94). Farzandlarimizga ana shu haqiqatlarni, ya'ni dunyoviy va diniy qadriyatlar o'rtasidagi nozik munosabatlarning mohiyatini har tomonlama to'g'ri tushuntirib berishimiz lozim. Tarix va hayot tajribasi shundan dalolat beradiki, dunyoviy va diniy qadriyatlar bir-birini to'ldirmas ekan, bugungi kunning og'ir va murakkab savollariga to'laqonli javob topish oson bo'lmaydi. Shu ma'noda, biz muqaddas dinimiz arkonlari va qadriyatlarini doimo ulug'lab, shu bilan birga, dunyoviy hayotga ham qat'iy ishonch bilan intilib yashagan taqdirdagina o'z ezgu maqsadlarimizga yeta olamiz. Har qaysi xalq milliy qadriyatlarini o'z maqsad-muddaolari, shu bilan birga, umumbashariy taraqqiyot yutuqlari asosida rivojlantirib, ma'naviy dunyosini yuksaltirib borishga intilar ekan, bu borada **tarixiy xotira** masalasi alohida ahamiyat kasb etadi. Ya'ni, tarixiy xotira tuyg'usi to'laqonli ravishda tiklangan, xalq bosib o'tgan yo'l o'zining barcha muvaffaqiyat va



zafarlari, yo'qotish va qurbonlari, quvonch va iztiroblari bilan xolis va haqqoniy o'rganilgan taqdirdagina chinakam tarix bo'ladi. (96-97)

Tarixchilar yaxshi biladi, odatda tepaliklar qa'rida tarixiy obidalar, butun bir shahar qoldiqlari yastangan bo'ladi. Sho'ro davrida, faqat tomlardagina paxta ekilmay qolgan bir paytda ana shunday qadimiy tepaliklarni ham tekislab, paxta dalasiga aylantirishdek bema'ni siyosat avj olgan edi. Bunday noma'qul ishga jasur olim Yahyo G'ulomov qarshi chiqqanini men yaxshi eslayman. Uning ana shu fazilati tufayli tazyiq ko'rganini ham eshitganman. Lekin bu inson o'zining qalbidagi ma'naviy jasorat hissi tufayli hayotiy va ilmiy qarashlarida sobit turganini madaniy jamoatchiligimiz yaxshi biladi. Men o'ylaymanki, adolatni hamma narsadan ustun deb biladigan, tarix va kelajak oldidagi mas'uliyatni his etadigan, haqiqiy vatanparvar odamgina shunday mardlikka qodir bo'ladi.

Islom Karimov. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. T.: Ma'naviyat, 2008. B. 26-166.

IKKINCHI BO'LIM

ENG QADIMGI DAVR

O'ZBEKISTON INSONIYAT SIVILIZASIYASINING QADIMGI O'CHOQLARIDAN BIRI

Ushbu mavzu dasturiga asosan antropogenez jarayoni va ibtidoiy davr tarixi haqida hikoya qilish rejalashtirilganligi, ammo bu masala hamda u davrlarga xos yozma yodgorliklar bo'lmaganligi sababli, lekin mavzuni kengroq o'rganmoq, talabalar fikrlarini boyitmoq uchun turli xil dunyoqarashlarga asos bo'lgan muqaddas kitoblardan hamda turli davrlarda aynan olam va odamning paydo bo'lishi to'g'risidagi tadqiqotlar olib borgan o'z davrining yetuk olimlari asarlaridan parchalar keltirildi.

YUKSAK MA'NAVIYAT – YENGILMAS KUCH

Albatta, har qaysi xalq yoki millatning ma'naviyatini uning tarixi, o'ziga xos urf-odat va an'analari, hayotiy qadriyatlaridan ayri holda tasavvur etib bo'lmaydi. Bu borada, tabiiyki, **ma'naviy meros, madaniy boyliklar, ko'hna tarixiy yodgorliklar** eng muhim omillardan biri bo'lib xizmat qiladi. Bizning qadimiy va go'zal diyorumiz nafaqat Sharq, balki jahon sivilizasiyasi beshiklaridan biri bo'lganini xalqaro jamoatchilik tan olmoqda va e'tirof etmoqda. Bu tabarruk zamindan ne-ne buyuk zotlar, olimu ulamolar, siyosatchi va sarkardalar yetishib chiqqani, umumbashariy sivilizasiya va madaniyatining uzviy qismiga aylanib ketgan dunyoviy va diniy ilmlarning, ayniqsa, islom dini

bilan bog'liq bilimlarning tarixan eng yuqori bosqichga ko'tarilishida ona yurtimizda tug'ilib kamolga yetgan ulug' allomalarning xizmatlari beqiyos ekani bizga ulkan g'urur va iftixor bag'ishlaydi. Ajdodlarimiz tafakkuri va dahosi bilan yaratilgan eng qadimgi toshyozuv va bitiklar, xalq og'zaki ijodi namunalaridan tortib, bugungi kunda kutubxonalarimiz xazinasida saqlanayotgan ming-minglab qo'lyozmalar, ularda mujassamlashgan tarix, adabiyot, san'at, siyosat, axloq, falsafa, tibbiyot, matematika, mineralogiya, kimyo, astronomiya, me'morlik, dehqonchilik va boshqa sohalarga oid qimmatbaho asarlar bizning buyuk ma'naviy boyligimizdir. Bunchalik katta merosga ega bo'lgan xalq dunyoda kamdan-kam topiladi. Ota-bobolarimizning asrlar davomida to'plagan hayotiy tajribasi, diniy, axloqiy, ilmiy, adabiy qarashlarini ifoda etadigan bu kabi tarixiy yodgorliklar orasida bundan qariyb uch ming yil muqaddam Xorazm vohasi hududida yaratilgan, «Avesto» deb atalgan bebaho ma'naviy obida alohida o'rin tutadi. Avvalambor, shuni aytish joizki, olis ota-bobolarimizning aql-zakovati, qalb qo'ri mahsuli bo'lmish bu noyob yodgorlikning zamon to'fonlaridan, qanchadan-qancha og'ir sinovlardan o'tib, bizning davrimizgacha yetib kelganining o'zida katta ma'no mujassam. Bunday o'lmas osori atiqalar bu ko'hna o'lkada, bugun biz yashab turgan tuproqda qadimdan buyuk madaniyat mavjud bo'lganidan guvohlik beradi. Ana shunday tarixiy yodgorlik namunalari bilan yaqindan tanishar ekanmiz, ularda ifoda etilgan teran fikr va g'oyalar, hayot falsafasi bizni bugun ham hayratda qoldirishiga yana bir karra amin bo'lamiz. Misol uchun, «Avesto»ning tub ma'no-mohiyatini belgilab beradigan «Ezgu fikr, ezgu so'z, ezgu amal» degan tamoyilni oladigan bo'lsak, unda hozirgi zamon uchun ham behad ibratli bo'lgan saboqlar borligini ko'rish mumkin. Ana shunday fikrlar, ya'ni, ezgu niyat, so'z va ish birligini jamiyat hayotining ustuvor g'oyasi sifatida talqin etish bizning bugungi ma'naviy

ideallarimiz bilan naqadar uzviy bog‘liq, nechog‘liq mustahkam hayotiy asosga ega ekani ayniqsa e‘tiborlidir. «Avesto»da borliqning yaxlitligi va bir butunligi, inson hayotining tabiat bilan uyg‘unligi masalasi odamning ruhiy olamiga chambarchas bog‘liq holda ko‘rsatilgani ko‘p narsani anglatadi. Bu holat insonning ma‘naviy dunyosini shakllantirishda atrof-muhit qadim zamonlardan buyon qanday kuchli ta‘sir o‘tkazib kelganiga yana bir bor e‘tiborimizni jalb qiladi. Bu ko‘hna tuproqda milodgacha bo‘lgan davrda va undan keyin qurilgan murakkab suv inshootlari, hali-hanuz o‘zining ko‘rku tarovatini saqlab kelayotgan osori atiqalarimiz qadim-qadimdan o‘lkamizda dehqonchilik va hunarmandchilik madaniyati, me‘morlik va shaharsozlik san‘ati yuksak darajada rivojlanganidan dalolat beradi. Mamlakatimiz hududida mavjud bo‘lgan to‘rt mingdan ziyod moddiy-ma‘naviy obida umumjahon merosining noyob namunasi sifatida YUNESKO²⁰ ro‘yxatiga kiritilgani ham bu fikrni tasdiqlaydi.

Islom Karimov. Yuksak ma‘naviyat – yengilmas kuch. T.: Ma‘naviyat, 2008. B. 166.

TARIXLAR MOHIYATI VA MILLATLARNING BU HAQDAGI IXTILOFLARI USTIDA SO‘Z

Kitob ahllari bo‘lmish yahudiylar²¹, xristianlar²², otashparastlar²³ va bularning [barcha] sinflarida bashariyatning boshlanishi va uning tarix boshi qilib olinishi xususida shunday ixtilof-

²⁰ YUNESKO – 1946 yilda tuzilgan BMTning maorif, fan va madaniyat sohalari bilan shug‘ullanadigan tashkiloti.

²¹ Yahudiylar – o‘zlarini yegudim, idn deb ataydigan xalq. Ularning tarixiy makoni Yaqin Sharqdir.

²² Xristianlar – Xristian diniga sig‘inuvchilar.

²³ Otashparastlar – Quyosh va olovni muqaddas biluvchilar, ularga topinuvchilar. Ko‘pincha, zardushtiylikni shunday atashadi.

lar mavjudki, tarixlar haqida bu kabi xilma-xillik bo'lishi mumkin emas.

Yaratilishning boshlanishi va o'tmish asrlar ahvoli orqali bilinadigan har bir narsa uydirma gaplar va afsonalar bilan qorishgandir, chunki bu ishlar juda uzoqda qolib, biz bilan ular orasida ko'p zamon o'tib ketgan; bunga e'tibor bermoqchi bo'lgan kishi u [voqealarni] esda saqlab turish va aniqlashdan o'jizdir.

[Xudoyi] taolo «Ularga o'zlaridan ilgarigilarning xabari yetib kelmadimi?», «Ularni xudodan boshqa hech kim bilmaydi», degan. Demak, ularning so'zlarini o'z holicha qabul etmay, bu so'zlarning to'g'riligini ishonchli bir kitob yoki ko'pchilik [ning] fikri asosida bizni ishontira oladigan biron xabar isbot etsa, shundagina qabul etamiz.

Avvalo, biz mana shu [bashariyatning boshlanish] tarixiga nazar solsak, bu haqda, u millatlar orasida ko'pgina ixtiloflarni uchratamiz. Ixtiloflar shularki, eroniylar va otashparastlar olamning umri burjlar va oylar soniga muvofiq o'n ikki ming yil, deb da'vo qilganlar. Ular shariatining asoschisi Zardusht²⁴ esa olam paydo bo'lishidan to o'zi yuzaga chiqqunicha chorak kunlar qo'shib uch ming yil o'tdi, deb da'vo qilgan. Shunda u chorak kunlar jihatidan hamisha yillarda uchratiladigan nuqsonni [topib], u choraklar qo'shib, yillar to'g'ri bo'lgunicha, hisoblashni o'z ustiga olgan.

Zardushtning yuzaga chiqishi bilan Iskandar erasining boshlanishi orasida ikki yuz ellik sakkiz yil bor. Demak, olam paydo bo'lishidan to Iskandargacha uch ming ikki yuz ellik sakkiz yil o'tgan bo'ladi. Lekin buni eronliklarda birinchi odam deb hisoblangan Qayumars²⁵ davrining boshlanishidan hisoblasak va undan keyingi har bir podshoh davrini unga qo'shsak, chunki eronliklarning podshohlilari uzilmay tutashib kelgan, bu sonlarning jami to Iskandargacha uch ming uch yuz ellik to'rt

²⁴ Zardusht – Zardushtiylik ta'limotining asoschisi.

²⁵ Qayumars – Forsiy xalqlar og'zaki ijodi va yozma adabiyotida keng tarqalgan afsonaviy obraz, yaratilgan birinchi odam.

yil bo‘ladi. Demak, u davrlarning alohida-alohida hisoblangani jamlab aytilganda muvofiq kelmaydi.

Shu bilan birga, Iskandardan keyingi davr haqida eronliklar va rumliklar bir-birlari bilan kelisha olmaydilar. Shundayki, Iskandar bilan Yazdigard²⁶ podshohligining boshlanishi orasida to‘qqiz yuz qirq ikki yil va ikki yuz ellik yetti kun o‘tgan. Agar bundan Yazdigard podshohligining boshlanishigacha cho‘zilgan Soson avlodining podshohlik davrlari²⁷ni kamaytirsak, bu, eronliklarning aytishlaricha, taxminan to‘rt yuz o‘n besh yilga yaqindir. Besh yuz yigirma sakkiz yil qoladi, bu – Iskandar va Muluk at-Tavoyifning podshohlik davrlari bo‘ladi. Agar ashkoniylardan har birining podshohlik muddatini eronliklar isbot etganiga muvofiq jam qilsak, ikki yuz sakson yil bo‘ladi. U podshohliklar [muddati] xususida eronliklarda ixtilof bo‘lsa ham, majmuyi uch yuz yildan oshmaydi. Bu ixtiloflarni kelgusida bir qadar tuzataman.

Eronliklardan bir guruhining [fikricha] yuqorida aytilgan uch ming yil Qayumars yaratilgandan keyin o‘tgan, undan oldin [esa] olti ming yil muddat o‘tgan. Bu muddatda falak harakat qilmagan, tabiat o‘zgarmagan, unsurlar bir-biriga qo‘shilmagan, ularda tuzilish va buzilish vujudga kelmagan, yer obod bo‘lmagan edi. [Falak] harakat ettirilgach, ekvatorda bo‘yining yarmi shimol tomonda va yarmi janub tomonda bo‘lgan birinchi odam paydo bo‘lgan. [Hayvon]lar vujudga kelib, biri-biridan tug‘ila boshlagan, inson nasl paydo qilib ko‘paya boshlagan. Tuzilish va buzilish natijasida unsur bo‘laklari bir-biriga qo‘shilib, dunyo obod bo‘lgan va olam tartibga tushgan.

Biz yuqorida aytib o‘tganimizdek, ikkala guruhdan [yahudiy va xristianlar] har biri shunday ma‘nodagi bir qancha da‘volarda bo‘lib, u da‘volarning to‘g‘riligiga harflar hisobidan chiqarilgan

²⁶ Yazdigard III (? – vafoti 651 yoxud 652 y. boshi) — sasoniylar sulolasining so‘nggi shohi (632 y.dan).

²⁷ 208 – 651 yillar.

turli va kuchsiz bo'yama gaplardan boshqa dalil keltirilmaydi. Agar ularning da'volariga diqqat bilan fikr yurituvchi bir kishi u dalillar bilan boshqa bir da'vo isbotlashni va ularning da'volarini o'zlariniki singari dalillar bilan rad etishni mo'ljallasa, bunga erishish u kishiga qiyin bo'lmaydi. Chunki yahudiylar podshohlik yahudo avlodida qoladi deb, podshohlikdan, quvg'indilar raisligi murod deydilar. Agar «podshohlik» ismini umumiy ma'no bilan shu xildagi raislikka ishlatish durust bo'lsa edi, otashparastlar, sobiylar va boshqalar ham yahudiylarga bu haqda albatta, sherik bo'lar edilar; bundan Bani Isroil²⁸ va qolgan boshqa xalq avlodlari ham mustasno bo'lmas edilar. Chunki odamlarning tuban [darajalisi] ham o'zidan tubanroq bo'lgan birovga egalik va raislik qilishdan xoli emas.

Agar biz Tavrot²⁹dagi «yashirinish» so'zi ifoda etgan adaddan Bani Isroilning Misrdan chiqish tarixi bilan Maryam o'g'li Iso zamoni o'rtasidagi muddat murod desak, bu mulohazamizda albatta, haqliroq bo'lamiz. Chunki yahudiylarning Misrdan chiqishlari bilan Iskandarning [taxtga] o'ltirishi o'rtasidagi muddat, yahudiylarning o'z so'zlariga qaraganda, ming yildir. Maryam o'g'li Iso esa Iskandar tarixining uch yuz to'rtinchi yilida tug'ilib, shu tarixning uch yuz o'ttiz oltinchi yilida xudo uni o'z tomoniga ko'targan. Demak, shu muddatda o'tgan yillar rosa bir ming uch yuz o'ttiz besh yil bo'ladi, bu Imron o'g'li Muso alayhissalom shariatining, to uni Maryam o'g'li Iso takomillashtirgunicha davom etgan muddatidir. Yahudiylar dalil qilib keltirgan Doniyolning ikkita gapiga kelsak agar u gaplarga boshqacha izoh berilsa, bu albatta mumkin edi. Balki ular bayon etgan yo'llarning birontasiga ham yo'yish durust bo'lmaydi, faqat o'sha zamonning boshlanishi u ikki gap aytilgan vaqtdan oldin bo'lgandagina durust bo'ladi.

²⁸ Bani Isroil – Yahudiylar yana shunday ataladilar.

²⁹ Tavrot –To'rt muqaddas kitobning biri bo'lib, Muso (a.s.)ga ilohiydan nozil bo'lgan kitobdir.

Buning izohi shuki, agar u ikki muddatning boshlanishi bir vaqtda – o'tgan zamonda yoki hozirgi, yohud kelgusi zamonda bo'lganda edi, aytilgan ikki vaqtning turlicha bo'lishida ma'no bo'lmasdi; u ikki vaqt o'rtasida tafovut bo'la turib, hech bir yo'l bilan u gaplarni to'g'ri yo'yib bo'lmaydi. Shu bilan birga, ikkinchi gapda sanalgan zamonning boshlanish muddati aytilish vaqtidan oldin bo'lib, tugalishi undan bir yil keyin yo kamroq, yoki ko'proq va shularga o'xshash bo'lishi ehtimol. Yana u zamonning boshlanishi [aytilgan] vaqtning xuddi o'zida yoki undan oz va ko'p bo'ladigan noma'lum bir muddat[dan] keyin bo'lishi ham ehtimol. [Biroq hodisada] uch turli zamon vaqtini ko'rsatish ehtimoli bo'lganda, uni aniq iborat yoki to'g'ri dalil va hujjat bo'lmasa, uch zamonning biriga yo'yib bo'lmaydi.

...Endi Tavrotning yahudiylardagi va ular inonadigan nusxasiga kelsak, bunda odamning jannatdan tushuvi bilan Nuh³⁰ zamonida vujudga kelgan to'fon o'rtasida odam bolalari yashagan barcha muddat ming olti yuz ellik olti yil deyiladi. Xristianlardagi nusxada u muddatning hammasi ikki ming ikki yuz qirq ikki yil deyiladi, somiriylardagi nusxada esa ming uch yuz yetti yil deyilgan.

Tarix yozuvchilarning biri bo'lgan Asnyus odam yaratilishi bilan to'fon boshlangan juma kechasi orasidagi muddat ikki ming ikki yuz yigirma olti yil, yigirma uch kun va to'rt soat degan. Buni Ibn al-Bozyor Asnyusdan ko'chirib, [«Burjlar] qo'shilishi kitobi» asarida hikoya qiladi. Bu xristianlarning gaplariga yaqinroqdir. Shu mulohaza yulduzlarga qarab hukm chiqaruvchi astrologlarning yo'llariga asoslangan deb xayolimga keladi, chunki uning bilmay aytilib, mayda bo'laklarga ham bo'linganligi ko'rinib turibdi.

³⁰ Nuh – To'fon davridagi pag'ambar. Afsonalarga ko'ra yer yuzidagi hozirgi odamlar Nuhning avlodlari hisoblanadi.

Bu masalada biz bayon etgan ixtilof bo'lgani va bir-biriga solishtirib, haqni nohaqdan ajratishga o'rin bo'lmaganidan keyin, kishi haqiqatni bilishni qayoqdan umid qiladi?

Nusxalarning [xilma-xilligi va] ko'pligi faqat Tavrotdagina emas, Injil³¹da ham shunday, chunki xristianlarda Injilning bitta kitob ichiga to'plangan to'rtta nusxasi bor. Ularning birinchisi Mattoniki, ikkinchisi Morqusniki, uchinchisi Luqoniki, to'rtinchisi Yuhannonikidir. [Iso] shogirdlarining har qaysisi o'z shahrida qilgan da'vatiga muvofiq Injil ta'lif etgan. Bu injillarning har biridagi Iso Masihning [shogirdlari aytgan] sifatlari, uning dinga da'vat qilgan kunlarda va dorga osilgan vaqtda aytgan gaplari ko'pincha boshqa nusxada aytilganlarga, hatto Isoning nasabida aytilganga ham muxolif chiqadi.

Marqiyun va Ibn Dayson maslakdoshlarining har birining o'z Injili bo'lib, ularning ba'zisi bu [yuqorida ko'rsatilgan] injillarning ba'zisiga muxolifdir. Moniy maslakdoshlarining ham alohida Injili bor. U avvalidan oxirigacha xristianlar [Injilidagi narsalar]ga qarshi gapiradi. Moniy yo'lida yuruvchilar shu Injilga ishonib, bu to'g'ri, buning mazmunini Iso Masih keltirgan va u amal qilgan Injil mazmunining o'zidir, bundan boshqasi noto'g'ri va unga amal qiluvchilar Masihga yolg'onchidirlar, deyдилar. Injilning «Yetmishlar Injili» deb ataladigan bir nusxasi bor. U [qandaydir] Balomisga nisbat beriladi. Uning boshida: «Sallom ibn Abdulloh ibn Sallom bu [Injilni] Salmon al-Forsiy tilidan yozgan», – deyilgan. Bunga nazar tashlagan kishiga u Injilning soxtaligi yashirin qolmaydi. Xristianlar va boshqalar bu Injilni inkor etadilar. Demak, na injillar va na payg'ambarlar orasida bironta ham ishonchlisi yo'q.

[Odamning vujudga kelishi tarixidan] keyingi tarix Nuh alayhissalom zamonida yuz bergan va hamma narsani g'arq etgan ulug' to'fon tarixi bo'lib, bu ham to'g'riligiga jazm qilib bo'lmaydigan va haqiqatini bilishga umid etilmaydigan darajada

³¹ Injil – Iso (a.s.)ga nozil bo'lgan to'rt muqaddas kitobning biri.

tafovutli, ixtilofli va noaniqdir. Chunki biz avvalda aytgandek, Odam tarixi bilan bu tarix orasidagi muddatda va kelgusida aytadiganimizdek, u bilan Iskandar erasi orasidagi muddatda ixtilof bor. Yahudiylar o'zlaridagi Tavrot va unga tobe kitoblardan bu tarix bilan Iskandar erasi o'rtasidagi muddatni ming yetti yuz to'qson ikki yil deb hisoblab chiqarganlar....

[Muhammad al-Balxiy] shunday deydi: «Qayumars jannatda uch ming yil turgan, bu Hamal, Savr, Javzo ming yilliklaridir. So'ngra yerga tushib, Axriman tufayli yomonliklar yuz berguncha, uch ming yil omon va tinch turgan. Bu Saraton, Asad va Sunbula ming yilliklaridir. Qayumarsning Girshoh deb atalishiga sabab shuki, «gir» pahlaviycha 100 «tog'» demakdir. Qayumars tog'larda istiqomat qilgan va ko'zi tushgan hayvonlar hayron qolib, o'zidan ketadigan darajada husnli bo'lgan. Axrimanning Hazura ismli o'g'li bor ekan, u Qayumarsga yomon qasd qilganida Qayumars uni o'ldirgan. Bu vaqtda Axriman xudoga Qayumarsdan shikoyat qilgan va xudo o'zi bilan Axriman o'rtasidagi ahdlarni saqlash maqsadida Qayumarsdan qasos olib bermoqchi bo'lgan. Xudo Qayumarsga avvalo bu dunyo hamda qiyomat oqibatlarini ko'rsatgan, nihoyat u o'limni orzu qilgan, so'ng xudo uni o'ldirgan. Bu vaqtda uning pushtidan Istaxrdagi Domdod tog'iga ikki tomchi tomgan va ulardan ikkita rovoch daraxti ko'karib chiqqan. To'qqizinchi oyning avvalida ikkovida a'zolar ko'ringanda [oyning] oxirida tugal bo'lib, ikkovi insonga aylangan, ular Misho va Mishonadirlar. Ular yeb-ichishmagan va hech narsadan aziyat tortmay, farovonchilikda ellik yil yashaganlar. Nihoyat ularga Axriman keksa kishi suratida ko'rinib, daraxtlardan mevalar yeyishni taklif etgan va [o'zi] yeyishni boshlab bergan va yoshligi unga [Axrimanga] qaytib kelgan, shunda ular ham yeyishgan va o'sha zahoti ikkovi balo va yomon hollarga giriftor bo'lganlar. Ularda ishtaha paydo bo'lib, oxir bir-biri bilan qo'shilganlar va ulardan bola tug'ilgan, qo'rqib bolani yeb

qo'yishgan. So'ngra xudo ularning dillariga mehribonlik solgan. Shundan keyin ulardan olti [marta] bola tug'ilgan, ularning ismlari Avesto kitobida ko'rsatilgandir. Yettinchisida Siyomaka va Farovak tug'ilib, bir-biri bilan qo'shilishgan va ulardan Ushanj tug'ilgan.

[Bu] odamlar shariatlar zohir bo'lishi va Budosaf yuzaga chiqishidan burun shamaniylar³² bo'lib, yerning sharq tomonida turar va butlarga sig'inar edilar. Ularning namoyandalari hozir Hindiston, Xitoy va to'g'uzg'uzlar orasida uchraydi. Ularni xurosonliklar «Shamanon» deb ataydilar. Shamaniylarning yodgorliklari – sanamlari uchun qurilgan otashxonalar va butxonalar Xurosonning Hindistonga tutashgan chegaralarida uchratiladi. Ular: «Olam qadimdan bor, ruhlar jasaddan-jasadga ko'chib yuradi, falak cheksiz bo'shliqqa tushirilgan, shuning uchun u aylanma harakat qiladi. Chunki yumaloq narsa o'rnidan tushirib yuborilganda yumalab tushadi», – deb gumon qiladilar. Ulardan ba'zilar olamning keyin paydo bo'lganiga iqror bo'ladilar va uning [borliq] umri ming marta ming yil bo'lib, bu to'rtga bo'lingan, deydilar. Birinchi bo'lagi to'rt yuz ming yil, bu tinchlik va yaxshilik zamon. Ikkinchisi uch yuz ming yil, bunda yaxshilik avvalgidagidan kamroq. Uchinchisi ikki yuz ming yil, bunda yaxshilik avvalgi ikkala qismdagidan kamroq. To'rtinchisi yuz ming yil, bu yomonlik va buzuvchilik zamonidir biz oxirgisida [yashaymiz]. Hijrat tarixining uch yuzinchi yiliga yaqin ta'lif etilgan kitoblarda: «Shu qismdan o'n ikki ming ikki yuz qirq yil o'tdi», – deyilgan.

...[Shamaniylarning] ba'zilar Odamning [barcha insonlar] otasi ekaniga iqror bo'ladi, ba'zilar esa [buni] inkor etib, har bir toifani alohida otaga nisbat beradilar. Ular: «Agar dastlab ota bitta bo'lganda, gavda tuzilishlar va ko'rinishlar albatta bir-

³² Shamaniylar – (yevenk tilida shaman – jazavaga tushish) ibtidoiy diniy e'tiqod shakllaridan biri. Yovuz va ezgu ruhlarga, ularning inson hayotiga ta'sir ko'rsatishiga ishonish Sh.ning asosini tashkil etadi. Sh.da uning ruhoniylari – shomonlar ruhlar bilan aloqa bog'lay oladigan, bo'lajak voqealarni oldindan aytib bera oladigan shaxslar deb, ularga sig'iniladi.

biriga o'xshash bo'lar, tillar va lug'atlar muvofiq kelar edi», – deydilar. Bu gapning qaysi dalilga asoslanganini bilmayman. Chunki [odamlar] tuzilishlarining rang, surat, tabiat va axloqda turlicha bo'lishi faqatgina nasablarning turlichaligidan emas, balki tuproq, suv, havo va yerning [odam] yashaydigan joylarining turlichaligidan hamdir. Tillarning turlicha bo'lishiga sabab odamlarning guruhlarga ajralib ketishi, bir-biridan uzoq turishi, ularning har birida turli xohishlarini ifodalash uchun [zarur] bo'lgan so'zlarga ehtiyoj tug'ilishidir. Uzoq zamonlar o'tishi bilan haligi iboralar ko'payib, yodda saqlangan va takrorlanish natijasida tarkib topib, tartibga tushgan.

Shamaniylar va hindlarning birinchi buddo va undan keyingi buddo haqidagi rivoyatlari orasida eshituvchini hayron qoldiradigan xabarlar bor. «[Go'yo] uning bosh tomonida nur birga borar, u yerdan bir qarich chamasi ko'tarilib, havoda yurar emish». Tug'ilish va o'lishdan qutulish, bundan tanosuxni ko'zda tutadilar, vositasi bo'lgan buddosaflikka va buddiylikka qanday qilib erishish to'g'risida ham ajoyib rivoyatlar bor.

Abu Rayhon Beruniy. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar. T.: Fan, 1968. 56-59 betlar.

ODAMNING YARATILISHI

«Ey insonlar, agar sizlar qayta tirilishdan shubhada bo'lsangizlar, u holda (qaranglar), Biz sizlarga (Ollohning qudratini) bayon qilish uchun sizlarni (ya'ni otangiz Odamni) tuproqdan, so'ngra (barcha jonzotni avvalo) nutfamaniydan, so'ngra laxta qondan, so'ngra yaralib bitgan-bitmagan (ya'ni inson suratida shakllanib bitgan yoki bitmagan) parcha go'shtdan yaratdik. Biz (sizlarni) o'zimiz xohlaganimizcha-muayyan muddatgacha (onalaringiz) qornida qoldirib, so'ngra chaqaloq holingizda

(yorug' olamga) chiqarurmiz, so'ngra voyaga yetgunlaringiz-gacha (ham o'zimiz tarbiya qilurmiz). Sizlardan (go'daklik, yoshlik yillaridayoq) vafot topadigan kishilar ham bo'lur, yana sizlardan (ko'p narsa-bilimlarni o'rganib) bilganidan so'ng hech narsani bilmay qolishi uchun eng tuban umrga (ya'ni qarib munkillab qolishga) qaytariladigan kishilar ham bo'lur. (Qayta tirilish haq ekanligining yana bir dalili ushbudir) - siz (lar) bu yerni quruq-o'lik holida ko'kursiz. Endi qachonki, biz uning ustidan suv-yomg'ir yog'dirsak u harakatga kelib ko'pchir va turli-tuman go'zal (nabotot) juftlarini undirur. Bunga sabab Olloh haq ekani va uning o'zi o'liklarga hayot berishi hamda u hamma narsaga qodir ekanligidir».

Qur'oni karim. «Haj» (22) surasi 5-6 oyat. T.: Cho'lpon, 1992.

* * *

«(Qasamki), Biz insonni (ya'ni Odam alayhissalomni) loyning mag'zidan yaratdik». Izoh «Loyning mag'zi»dan murod – loy - yer jinsidagi barcha moddalardir. Darvoqe, zamonaviy tibbiyot ham insonning vujudida yer jinsining barcha moddalari mavjud ekanini isbotlaydi. «So'ngra uni (ya'ni barcha insonlarni) avvalo mustahkam qarorgohdagi (ya'ni bachadondagi) nutfamaniy qildik. So'ngra bu nutfadan laxta qonni yaratib, laxta qondan parcha go'shtni yaratib, parcha go'shtdan suyaklarni yaratib, bu suyaklarga go'sht qopladik, so'ngra (unga jon kirgizib, avval boshdagi bir tomchi suv-nutfadan butunlay) boshqa bir jonzot holida paydo qildik. Bas eng go'zal yaratguvchi (ya'ni yo'qdan bor qilguvchi bo'lmish) Olloh barakotli-buyukdir».

Qur'oni karim. «Mo'minlar» (23) surasi 12 - 14 oyat. T.: Cho'lpon, 1992.

* * *

«U sizlarning (otangiz Odamni) tuproqdan, so'ngra (uning barcha avlodlarini) nutfadan, so'ngra laxta qondan yaratgan Zotdir. So'ngra U sizlarning (onalaringiz qornidan) chaqaloq holingizda (yorug' dunyoga) chiqarur, so'ngra (U Zot) sizlarni voyaga yetishlaringizga, so'ngra qarib-qartayishingizga (qo'yib berur). Sizlarning orangizda (voyaga yetishdan, yoki keksalik yoshidan) ilgari vafot topadigan kishilar ham bo'lur. (U Zot) sizlarni belgilangan ajalga yetishlaringizga (qo'yib berur). Shoyadki, aql yurgizsangizlar.

Qur'oni karim. «G'ofir» (40) surasi 67-oyat. T.: Cho'lpon, 1992.

DUNYONING YARATILISHI

Azalda Xudo osmon bilan yerni yaratdi. Yer hali shaklsiz va bo'm-bo'sh bo'lib, tubsizlik uzra qorong'ilik hukm surar edi. Xudoning Ruhi esa suv yuzida parvoz etar edi. Xudo: «Yorug'lik bo'lsin», – dedi va yorug'lik paydo bo'ldi. Xudo yorug'likning yaxshi ekanini ko'rib, uni qorong'ilikdan ajratdi. Shunday qilib, Xudo yorug'likni kunduz, qorong'ilikni esa tun deb atadi. Kech bo'ldi, erta bo'ldi – bu birinchi kun edi.

Yana Xudo: «Suvliklar o'rtasida ularni bir-biridan ajratib turadigan gumbaz paydo bo'lsin», – dedi. Shunday ham bo'ldi. Xudo bir gumbazni vujudga keltirib, gumbaz ostidagi suvni gumbaz ustidagi suvdan ajratdi. Ushbu gumbazni esa Xudo osmon deb atadi. Kech bo'ldi, erta bo'ldi – bu ikkinchi kun edi.

Yana Xudo: «Osmon ostidagi suv bir joyga to'plansin, quruqlik ko'rinsin», – dedi va shunday ham bo'ldi. Xudo quruqlikni yer deb atadi, suvlarning jamini esa dengizlar deb atadi. Bularning ham Xudo yaxshi ekanini ko'rdi. Yana Xudo: «Yer o'simlik ko'kartirsin: urug' beradigan o't-o'lanlar, mevasida urug'i bor turli-tuman mevali daraxtlar yer yuzida unib-o'ssin»,

– dedi va shunday ham bo‘ldi. Yer turiga ko‘ra o‘simliklarni: urug‘ beradigan o‘t-o‘lanlar hamda mevasida urug‘i bor mevali daraxtlarni undirdi. Xudo bularning ham yaxshi ekanini ko‘rdi. Kech bo‘ldi, erta bo‘ldi – bu uchinchi kun edi.

Yana Xudo: «Kunni tundan ajratish hamda fasllar, kunlar, yillarni belgilash uchun osmon gumbazida yoritqichlar paydo bo‘lsin. Bular yer yuzini yoritmoq uchun osmon gumbazida nur sohib tursin», – dedi va shunday ham bo‘ldi. Shunday qilib, Xudo ikkita katta yoritqichni: kunni boshqarish uchun kattaroq yoritqichni va tunni boshqarish uchun kichikroq yoritqichni, shuningdek, yulduzlarni ham vujudga keltirdi. Yer yuzini yoritib tursin va tun bilan kunni boshqarib, yorug‘likni qorong‘ulikdan ajratib tursin, deb Xudo bularni osmon gumbazida joylashtirdi. Bularning ham Xudo yaxshi ekanini ko‘rdi. Kech bo‘ldi, erta bo‘ldi – bu to‘rtinchi kun edi.

Yana Xudo: «Suv to‘da-to‘da jonivorlar bilan qaynasin, yer ustidagi osmon gumbazi bo‘ylab qushlar uchsин», – dedi. Xudo haybatli dengiz ajdarlarini, suvda qaynaydigan turli-tuman mayda jonivorlarni hamda qush-parrandalarni yaratdi. Bularning ham Xudo yaxshi ekanini ko‘rdi. Xudo ularni muborak qilib: «Barakali bo‘linglar, ko‘payinglar, dengiz suvlarini to‘lg‘azinglar. Yer yuzida esa parranda ko‘paysin», – dedi. Kech bo‘ldi, erta bo‘ldi – bu beshinchi kun edi.

Yana Xudo: «Yer turli-tuman tirik jonni: chorva, sudraluvchi hamda yovvoyi hayvon turlarini hosil qilsin», – dedi va shunday ham bo‘ldi. Xudo yerga xos turli-tuman yovvoyi hayvonlarni, chorvani, quruqlikda sudraluvchilarni vujudga keltirdi. Bularning ham Xudo yaxshi ekanini ko‘rdi. Yana Xudo: «O‘z suratimizga ko‘ra, o‘zimizga o‘xshash odamni yarataylik. U dengizdagi baliqlar, ko‘k yuzidagi parrandalar, chorvalar, ha, butun yer yuzi va yerda harakat qiluvchi barcha maxluqot ustidan hokimlik qilsin», – dedi. Shunday qilib, Xudo odamni o‘z suratida, ilohiy suratda yaratdi. Ularni erkak va xotin qilib

yaratdi. Xudo odamlarni muborak qilib, ularga: «Barakali bo'linglar, ko'payinglar. Yer yuzini to'lg'azib tobe qilinglar. Dengizdagi baliqlar, ko'k yuzidagi parrandalar hamda yer yuzida harakatlanuvchi barcha hayvonlar ustidan hokim bo'linglar», – dedi. Xudo davom etib: «Mana, Men sizlarga butun yer yuzidagi urug' beradigan o't-o'lanning va urug'li meva beradigan daraxtning hammasini berdim; sizlarga ovqat uchun yaraydi. Shuningdek, tirik joni bo'lgan butun yovvoyi hayvonlarga: ko'k yuzida uchib yuruvchi barcha parrandalarga va yer yuzida harakat qiluvchi barcha maxluqlarga ham yemish uchun ko'k o'tning har turli navini berdim», – dedi va shunday ham bo'ldi. Xudo butun Yaratganlariga qarab, hammasining juda yaxshi ekanini ko'rdi. Kech bo'ldi, erta bo'ldi – bu oltinchi kun edi.

Yaratilishning yettinchi kuni

Shu zaylda osmon bilan yer hamda ulardagi borliq mavjudot yaratilib bo'ldi. Xudo o'z faoliyatini yettinchi kunda tamomlab, u kunda barcha qilgan ishlaridan tindi. Xudo yettinchi kunni muborak va muqaddas qilib ayirdi, chunki ushbu kunda u o'zining butun yaratish faoliyatidan tingan edi. Osmon bilan yerning yaratilish tarixi mana shudir.

Muqaddas kitob Injil-Tavrot dan Muso payg'ambarning birinchi kitobi. Ibtido-Zabur. Stokgolm, 1993.

MADANIYATNING TARIXGACHA BO'LGAN BOSQICHLARI

Insoniyat tarixi bo'sag'asi davrini o'rganib, uni muayyan tarzda sistemalashtirishga uringan birinchi kishi Morgan bo'ldi va materialning anchagina kengayishi o'zgartishlar kiritishga

majbur etmaguncha, Morgan tomonidan taklif etilgan davrlarga bo'lish tartibi, albatta, o'z kuchida qoladi.

O'z-o'zidan ravshanki, Morgan³³ni uch asosiy davrdan-yovvoyilik, varvarlik, sivilizatsiya davrlaridan-faqat avvalgi ikkitasi va uchinchisiga o'tishgina qiziqtiradi. Morgan bu ikki davrning har birini, tirikchilik vositalari ishlab chiqarishning taraqqiy qilishiga qarab, quyi, o'rta va yuqori bosqichlarga bo'ladi. Chunki, deydi Morgan, - «tirikchilik vositalari ishlab chiqarishdagi san'at insoniyatning tabiatdan ustunligi va tabiat ustidan hukmronligi darajasi uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega; barcha jonivorlardan faqat insongina oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish ustidan deyarli cheksiz hukmron bo'lishga muvaffaq bo'ldi. Insoniyat taraqqiyotidagi buyuk davrlarning hammasi tirikchilik manbalarining kengayish davrlariga bir qadar bevosita mos keladi». Shu bilan bir qatorda oilaning rivojlanishi davom etadi, lekin oilaning rivojlanishi davrlarni bir-biridan farqlantirish uchun bunchalik yaqqol alomatlar bermaydi.

1. YOVOYILIK. a) Quyi bosqich. Odamzodning go'dakligi. Kishilar hali o'zlarining dastlabki joylarida, tropik yoki subtropik o'rmonlarda turganlar. Ular daraxtlar ustida yashaganlar; faqat ana shuning uchun ham ular yirik yirtqich hayvonlar orasida yashay olganlar deyish mumkin. Ularning ovqatlari mevalar, yong'oqlar, ildizlardan iborat bo'lgan; bu davrning eng asosiy yutug'i – ma'noli nutqning paydo bo'lganligidir. Tarixiy davrda nomi chiqqan barcha xalqlardan hech bittasi ham bunday ibtidoiy holatda emas edi. Garchi bu holat, ehtimol, ko'p ming yillar davom etgan bo'lsada, biz uning mavjud bo'lganligini bevosita dalillar asosida isbot eta olmaymiz; biroq odamzodning hayvonlar dunyosidan kelib chiqqanligini e'tirof qilganimizdan keyin bunday o'tish holati mavjud bo'lganligini faraz qilishimiz kerak.

³³ Morgan – mashhur etnolog.

b) O'rtta bosqich. Baliqni (qisqichbaqalar, mollyuskalar va boshqa suv hayvonlarini ham shunga qo'shamiz) ovqat tariqasida iste'mol qilishdan va olov ishlatishdan boshlanadi. Bularning har ikkisi ham bir-biri bilan bog'liq, chunki baliq olovda pishirilgan vaqtdagina kishiga ovqat bo'la oladi. Lekin bu yangi ovqat munosabati bilan kishilar iqlim va joyga bog'liq bo'lishdan qutuldilar; ular hatto yovvoyilik holatini kechirib turgan vaqtlarida ham daryolarning oqimi va dengiz qirg'oqlari bo'ylab yurib, yer yuzining ko'p qismiga o'rnamshib qola olganlar. Ilk tosh asri³⁴ning dag'al ishlangan, pardozlanmagan tosh qurollari – tamomila yoki ko'proq qismi mazkur davrga oid bo'lgan va paleolitik qurollar deb ataladigan tosh qurollar barcha qit'alariga tarqalgan bo'lib, kishilarning ana shu tariqa ko'chib yurganliklarini yaqqol isbot etadi. Yangi joylarga o'rnamshish va doimiy faol izlashlar ishqalash orqali olov hosil qilishni o'rganib olish bilan bir bo'lib, ovqatlanish uchun yangi xil ozuqalar berdi; chunonchi, qo'rda yoki o'ra qazib yasalgan tandirda (yer o'chog'ida) pishirilgan kraxmalli ildiz va tugunaklar; birinchi qurol – so'yil yoki nayza ixtiro qilinishi munosabati bilan qo'shimcha oziqqa aylangan va onda-sonda tutib olinadigan parrandalar ana shunday yangi xil ozuqalardandir. Kitoblarda tasvir etilganidek, faqat ovchilik bilan shug'ullanuvchi xalqlar hech vaqt bo'lmagan, ovchilikdan keladigan g'animatga ishonib yashash juda qiyin. Bu bosqichda, oziq-ovqat manbalari doimo topila bermasligi orqasida odamxo'rlik vujudga kelgan bo'lsa kerak va shu paytdan boshlab bu odamxo'rlik uzoq vaqtgacha saqlanib qolgan. Avstraliyaliklar va polineziyaliklarning ko'plari hozirgi vaqtda ham yovvoyilikning ana shu o'rtta bosqichida turadilar.

d) Yuqori bosqich. O'q-yoy ixtiro qilingan vaqtdan boshlanadi. O'q-yoyning ixtiro qilinishi orqasida parranda doimiy oziq-ovqatga aylandi, ovchilik bo'lsa – mehnatning oddiy sohalaridan

³⁴ Poleolit davri – qadimgi tosh davri (taxminan, mil. avv. 1 mln.-12 ming yilliklar).

biri bo'lib qoldi. Yoy, tanob va o'q juda ham murakkab quoldirki, bu asbobning ixtiro qilinishi uchun uzoq vaqt tajriba to'plangan bo'lishi, aqliy layoqat ko'proq rivojlangan bo'lishi va binobarin, ayni zamonda boshqa bir ko'p ixtirolar bilan ham tanishilgan bo'lishi kerak. O'q-yoy bilan tanish bo'lsalar-da, lekin hali kulollik san'ati bilan (Morgan buni varvarlikka o'tishning boshi deb hisoblaydi) tanish bo'lmagan xalqlarni bir-biri bilan taqqoslaganimizda, haqiqatan, qishloq-qishloq bo'lib joylashishning ba'zi bir kurtaklarini, tirikchilik vositalari ishlab chiqarishni egallash ma'lum darajaga yetganligini ko'ramiz: yog'och idish va asboblari, qo'lda (to'qimachilik dastgohini ishlatmasdan) daraxt po'stlog'i tolalaridan buyumlar to'qish, xom po'stloq yoki qamishdan to'qilgan savatlar, pardozlangan (neolitik) tosh qurollarni uchratamiz. Endilikda olov bilan toshbolta, odatda, butun bir daraxtdan qayiqalar yasashga va ba'zi joylarda uy solish uchun taxtalar hozirlashga imkoniyat beradigan bo'ldi. Biz bu muvaffaqiyatlarining hammasini, chunonchi, Amerikaning shimol-g'arbida yashaydigan hindilarda uchratamiz; ular o'q-yoy bilan tanish bo'lsalar-da, hali kulolchilik ishi bilan tanish bo'lmaganlar. Temir qilich varvarlik davrida va miltiq sivilizatsiya davrida eng kuchli qurol bo'lganidek, o'q-yoy ham yovvoyilik davrida eng kuchli qurol bo'lgan.

2. VARVARLIK. a). Quyi bosqich. Kulollik san'ati joriy qilinishidan boshlanadi. Ko'p hollarda va, balki, hamma yerda kulollik san'atining to'qilgan yoki yog'ochdan yasalgan idishlarni olovga bardosh beradigan qilish uchun loy bilan suvashdan kelib chiqqanligini isbot qilmoq mumkin. To'qilgan idishning yoki yog'och idishning ustini loy bilan suvamasdan, faqat loyning o'zidan idish yasagan vaqtda ham, uning shu maqsadga xizmat qilishini tez vaqt ichida payqab olganlar. Biz hozirgacha taraqqiyot jarayoniga tamomila umumiy bir ravishda muayyan davrda barcha xalqlar uchun, ularning qayerda turganliklaridan qat'iy nazar, bir xilda kuchga ega bo'lgan narsa deb qaragan edik. Lekin varvarlik boshlanishi bilan shunday bosqichga

erishdikki, bunda har ikki buyuk materikning tabiiy sharoitlari o'rtasidagi farq ahamiyat kasb etadi. Varvarlik davriga xos narsa – hayvonlarni qo'lga o'rgatish va urchitish hamda o'simliklarni ekib o'stirishdir. Lekin Eski dunyo deb ataladigan sharqiy materikda qo'lga o'rgatib bo'ladigan hayvonlarning hammasi deyarli mavjud edi va ekib ko'paytirish uchun yaraydigan donli o'simliklarning bittasidan boshqa hammasi bor edi; ammo g'arbiy materikda – Amerikada qo'lga o'rgatib bo'ladigan barcha sut emizuvchilardan faqat lama mavjud bo'lib, u ham janubning bir qismidagina bo'lar edi, ekib o'stiriladigan donli o'simliklardan faqat bittasi, lekin bitta bo'lsa ham eng yaxshisi – makkajo'xori mavjud edi. Tabiiy sharoitlar o'rtasida shunday farq bo'lishi orqasida har qaysi yarim shar aholisi shu vaqtdan buyon o'ziga xos yo'ldan boradi va taraqqiyotning ayrim bosqichlari o'rtasidagi chegara belgilari bu ikki yarim sharning har birida boshqacha tus oladi.

b). O'rta bosqich. Bu bosqich sharqda uy hayvonlarini qo'lga o'rgatishdan, g'arbda – ovqat bo'ladigan ekinlarni sug'orish vositasi bilan ekish, o'stirish va imoratlar uchun adob (oftobda quritilgan xom g'isht) hamda tosh ishlatishdan boshlanadi. Biz g'arbdan boshlaymiz, chunki g'arbning hech bir yerida, yevropaliklar Amerikani egallab olganlariga qadar, bu bosqichdan nariga o'tmaganlar.

Varvarlikning quyi bosqichida turgan hindilar (Missisipining sharqida yashaganlarning barchasi shularga mansub edi), ular kashf qilingan vaqtda, makkajo'xori va, ehtimol, qovoq, qovun va boshqa poliz ekinlari ekib yetishtirishning biron-bir usulini bilar edilar va bu ekinlar ularning ovqatlarining juda muhim qismini tashkil etar edi; ular tevaragi yog'och qoqib o'rab olingan qishloqlarda, yog'och uylarda yashaganlar. Shimol-g'arbda, ayniqsa, Kolumbiya havzasida yashagan qabilalar hali yovvoyilikning yuqori bosqichida turar va kulollik san'atini ham, biror o'simlikni ekib parvarish qilishni ham bilmas edilar.

Aksincha, Yangi Meksikada pueblo deb ataladiganlarga mansub bo'lgan hindilar, meksikaliklar, Markaziy Amerika aholilari va peruliklar istilo vaqtida varvarlikning o'rta bosqichida turar edilar: ular adob yoki toshdan qurilgan, qo'rg'onlarga o'xshash uylarda yashaganlar, sun'iy ravishda sug'oriladigan polizlarda o'zlarining asosiy oziq-ovqat manbalari bo'lgan makkajo'xori va turgan joylari hamda iqlimga qarab esa bo'ladigan boshqa ekinlar ekib o'stirganlar, hatto ba'zi bir hayvonlarni: meksikaliklar – kurka, peruliklar – lamani qo'lga ham o'rgatganlar. Bundan tashqari, ular metallarni ishlashni bilganlar, ammo temirni ishlashni bilmaganlar, shuning uchun ular toshdan yasalgan aslahasiz va quolsiz ish ko'ra olmaganlar. Ispaniyaliklar istilosi ularning bundan keyingi mustaqil taraqqiyotini butunlay to'xtatib qo'ygan.

Sharqda varvarlikning o'rta bosqichi sut va go'sht beradigan hayvonlarni qo'lga o'rgatishdan boshlangan, lekin bunda o'simliklarni ekib o'stirishni mazkur davr mobaynida juda uzoq vaqtgacha bilmagan bo'lsalar kerak, hayvonlarni qo'lga o'rgatish va urchitish hamda katta-katta podalar tashkil qilish, aftidan, oriylar bilan semitlarga boshqa varvarlardan ajralib chiqishga imkon bergan bo'lsa kerak. Yevropa va Osiyo oriylarida hayvonlarning nomlari hali bir xil bo'lgan, ammo ekib o'stiriladigan o'simliklarning nomlari deyarli hech qachon bir xil bo'lmagan.

Podalarning paydo bo'lishi cho'ponlik hayoti uchun yaroqli joylarda: semitlarda – Frot va Dajla³⁵ sohillaridagi o'tli tekisliklarda, oriylarda – Hindistondagi, shuningdek Oksus va Yaksart (Amudaryo va Sirdaryo), Don va Dnepr sohillaridagi xuddi shunday tekisliklarda cho'ponlik hayotiga olib keldi. Birinchi marta hayvonlarni ana shunday o'tloqlar doirasida qo'lga o'rgatishga erishilgan bo'lsa kerak. Shuning uchun so'ngroq vaqtlarda yashagan avlodlar, podachi xalqlarning kelib chiqqan joylari insoniyatning beshigi emas edi, aksincha, bu avlodlar-

³⁵ Frot va Dajla – Qadimgi Mesopatamiya va hozirgi Iroq hududida joylashgan daryolar.

ning yovvoyi ota-bobolari va, hattoki varvarlikning quyi bosqichida turgan kishilar ham yashay olmaydigan desa bo'ladigan joylar edi, deb faraz qiladilar. Aksincha, o'rta bosqichda turgan bu varvarlar cho'ponlik hayotiga o'rganganlaridan keyin, o'z xohishlari bilan, daryo vodiylaridagi o'tloqlardan ota-bobolari yashagan o'rmon rayonlariga qaytib kelishni hech vaqt xayollariga ham keltirgan emaslar. Va hatto semitlar bilan oriylar bundan nariroqda – shimol va g'arbga siqib chiqarilgan vaqtlarida ham, donli ekinlarni ekib o'stirish ularga ana shu qulayligi kamroq yerlarda o'z hayvonlarini, ayniqsa, qish paytida, to'ydirish uchun imkoniyat bermaguncha, ular G'arbiy Osiyo va Yevropaning o'rmonlik joylariga bora olmaganlar. Bu yerlarda donli ekinlarni ekib o'stirish, eng oldin, hayvonlar uchun yemxashakka muhtojlik orqasida kelib chiqqanligi va faqat keyinroq kishilarning ovqatlanishi uchun muhim manbaga aylanganligi haqiqat bo'lsa kerak.

Ehtimol, oriylar bilan semitlarning ko'zga yaqqol tashlanadigan darajada rivoj topganliklariga bu ikki irqning go'sht va sutni ko'p iste'mol qilganligi va go'sht bilan sut bolalarning o'sishiga juda yaxshi ta'sir qilganligi sabab bo'lgan deb bilishga to'g'ri kelar. Darhaqiqat, deyarli nuqul o'simlik ozuqa bilan ovqatlanishga majbur bo'lgan Yangi Meksika pueblosi hindilarining miyasi varvarlikning quyi bosqichida turgan va lekin go'sht bilan baliqni ko'proq yeydigan hindilarning miyasiga qaraganda kichikroq. Harholda, bu bosqichda odamxo'rlik sekin-asta yo'qoladi va faqat diniy akt yoki ma'no jihatdan bu bilan qariyb bir bo'lgan – jodugarlik marosimi tariqasida saqlanib qoladi.

d). Yuqori bosqich. Temir rudasini eritishdan boshlanib, harfli yozuvning ixtiro qilinishi va uning og'zaki ijodni yozib olish uchun qo'llanilishi natijasida sivilizasiyaga o'tadi. Yuqorida aytganimizdek, faqat sharqiy yarimsharda mustaqil suratda bosib o'tilgan bu bosqich, ishlab chiqarish sohasida erishilgan muvaffaqiyatlar jihatidan, o'zidan avvalgi bosqich-

larning hammasidan ko'ra boyroqdir. Qahramonlik davrida yashagan greklar, Rim barpo qilinishidan biroz oldin yashagan ital'yan qabilalari, Tasit germanlari, vikinglar zamonidagi normannlar shu bosqichga mansubdir. Biz bu bosqichda, eng oldin, uy hayvonlari kuchi bilan harakatga keltiriladigan temir tishli omochga duch kelamiz, temir tishli omoch orqasida keng miqyosda dehqonchilik ishi bilan shug'ullanilishi va shu bilan birga o'sha vaqtdagi sharoitlar uchun amaliy jihatdan cheksiz ravishda turmush mablag'larini ko'paytirish mumkin bo'ldi; keyin o'rmonni kundakov qilib, uni ekinzor va pichanzorga aylantirish mumkin bo'ldi, temir bolta va temir belkurak bo'lmagan taqdirda bu ishni ham keng miqyosda bajarish mumkin bo'lmas edi. Shu bilan birga aholi ham tez ko'paya boshladi va u kichik-kichik joylarda tig'iz bo'lib yashaydigan bo'ldi. Dalachilik vujudga kelishiga qadar yarim million kishini yagona markaziy rahbarlik qo'l ostiga birlashtira olish nihoyatda favqulodda sharoitlar tarkib topishi lozim edi, bunday hol hech qachon yuz bermagan bo'lsa kerak.

Varvarlikning yuqori bosqichi to'la-to'kis rivoj topib gullaganligini Gomer³⁶ning poemalarida, ayniqsa, «Iliada»da ko'ramiz. Takomillashtirilgan temir qurollar, temirchi bosqoni, qo'l tegirmoni, kulollik charxi, o'simlik yog'i tayyorlash va vinochilik, metallarni ishlashning rivojlanishi va uning nafis kasbga aylanishi, arava va jang aravasi, yog'och va taxtalardan kemalar yasash, arxitekturaning san'at sifatida dunyoga kela boshlashi, kungurali va minoralı devorlar bilan o'rab olingan shaharlar, Gomer eposi va barcha mifologiya – greklar tomonidan varvarlikdan sivilizasiyaga olib o'tilgan eng muhim meros ana shulardir. Gomerga zamondosh bo'lgan greklar madaniyatning quyiroq bosqichidan yuqoriroq bosqichiga o'tishga tayyorlanayotgan paytlarda germanlar shu quyiroq bosqichning boshlan-

³⁶ Gomer – yunon shoiri. Uning yashab o'tgan davri, tahminan, mil. av. 12-asr bilan 7-asr oralig'ida deb ko'rsatiladi.

g'ich davrida turar edilarki, Sezarning va hattoki Tasitning ham shu germanlarni tasvir etib bergan ma'lumotlarini mazkur meros bilan solishtirib qaraganimizda, varvarlikning yuqori bosqichida ishlab chiqarish juda ko'p taraqqiy qilganligini ko'ramiz.

K.Marks va F.Engels. Tanlangan asarlar. 3-jild. T.: O'zbekiston, 1981, B. 235-240.

ANTROPOGENEZ – ODAMNING PAYDO BO'LISHI VA RIVOJLANISHI

Olimlarning ilmiy farazlariga ko'ra, biz yashab turgan Ona Yer besh milliard yil muqaddam paydo bo'lib, dastlab unda hech qanday hayot bo'lmagan. Yer tarixi geologik jihatdan arxey, paleozoy, mezozoy va kaynozoy eralariga bo'linadi. Arxey erasi oxirida Yerda juda oddiy tirik mavjudotlar, paleozoyda suvda va quruqlikda yashovchi hayvonlar, mezozoyda sudralib yuruvchilar paydo bo'ladi. Yer tarixining kaynozoy erasida esa sut emizuvchi hayvonlar tarqaladi. Bu era, o'z navbatida, uchlamchi va to'rtlamchi bosqichlarga bo'linib, uchlamchi bosqich 50-60 million, to'rtlamchi bosqich 3- 3,5 million yilni o'z ichiga oladi.

Yer tarixidagi eng buyuk voqea hayvonot dunyosidan odamzodning ajralib chiqishidir. Olimlarning ilmiy farazlariga ko'ra, odamzod to'rtlamchi bosqich boshlarida paydo bo'lgan.

To'rtlamchi bosqich boshlarida iqlim hozirgiga nisbatan issiqroq bo'lib, Periney yarimorolidan Xitoygacha bo'lgan maydonlar subtropik, Osiyoning janubi va Afrikaning katta qismi esa tropik mintaqalar edi. Uchlamchi bosqichning oxiri va to'rtlamchi bosqichning boshlarida mazkur o'lkalarda maymunlarning xilma-xil turlari yashagan.

Ular orasida odamsimon maymunlar ham bo'lib, ular odamning eng qadimgi ajdodlari edi. Ular driopitek, ramapitek,

avstralopitek va boshqalar bo'lib, shulardan avstralopiteklar odamga ko'proq o'xshashligi bilan ajralib turardi. Avstralopitek miya qutisining hajmi 500-600 sm³ bo'lib, u ikki oyoqda tik yurgan, o'simlik va go'shtni ovqat sifatida iste'mol qilgan.

1859-1860 yillarda Sharqiy Afrikadagi Olduvoy darasida ingliz olimi L. Liki³⁷ avstralopitek'larga mansub bo'lgan mavjudod-zinjantrop va prezinjantrop – «ishbilarmon odam» qoldiqlarini, dara yonidan esa oddiy tosh qurollar topgan va ular bundan 1 750 000 yil muqaddam yashagan, degan fikrni bildirgan edi. L. Likining o'g'li Richard Liki³⁸ Keniya va Efiopiya territoriyasidan qidiruv ishlari natijasida avstralopitek va prezinjantrop singari mavjudotlarning juda ko'p suyak qoldiqlarini va mehnat qurollarini topishga muvaffaq bo'lgan. Efiopiya prezinjantrop'lari ham «ishbilarmon odamlar» deb atalib, bu mavjudodlar bundan 2,5–3 million yil muqaddam yashagan ekanlar. Bu «ishbilarmon odamlar» – arxantrop'lar (grekcha, arxayos – dastlabki, antropos – odam) toshdan mehnat qurollari yasash qobiliyatiga ega bo'lganlar. Tadqiqotchilarning mulohazalariga ko'ra, Afrika arxantrop'lari yer yuzidagi eng qadimgi qazilma odamlarning dastlabki vakillari hisoblanadi.

Agar shimpanze maymuni miya qutisining hajmi 350–400 sm³ ni tashkil etsa, «ishbilarmon odam» miya qutisining hajmi 670–680 sm³ ni tashkil etgan.

Odam hayvonot dunyosidan uzoq davom etgan rivojlanish jarayoni oqibatida ajralib chiqqan. Mashhur ingliz tabiatshunoslari Ch. Darvin³⁹ va T. Geksli⁴⁰ odamsimon maymunlar odam ajdodlari ekanini ta'kidlab, evolyusion jarayon natijasida odam huddi shu odamsimon maymundan kelib chiqqanini isbot qil-

³⁷ Luis Liki – arxeolog.

³⁸ Richard Liki – arxeolog.

³⁹ Charlz Darvin – ingliz tabiatshunosi (1809-1882), hayvon va o'simlik turlarining tabiiy tanlanish yo'li bilan kelib chiqqanligi haqidagi evolyutsion ta'limot asoschisi.

⁴⁰ Tomas Geksli – ingliz tabiatshunosi (1825- 1895). Ch. Darvin safdoshi va ta'limotining davomchisi.

ganlari holda – diniy afsonalarga qattiq zarba berdilar. Darvin maymunning odamga aylanishidagi asosiy omil jinsiy tanlanishdir, degan evolyusion ta’limotni yaratdi. Lekin u maymunning odamga aylanishi jarayonidagi buyuk sotsial omil – mehnatning o’zgartiruvchilik mohiyatini payqamagan edi. F. Engels⁴¹ «Maymunning odamga aylanishi jarayonida mehnatning roli» degan asarida Darvinning evolyusion nazariyasiga yuksak baho berdi, maymunning odamga aylanishida asosiy, bosh omil mehnat ekanligini ta’kidlab, o’zining olamshumul tarixiy ahamiyatga molik mehnat nazariyasini yaratdi. 1891 – 1892 yillarda gollandiyalik olim E. Dyubua⁴² Indoneziyadagi Yava orolidan pitekantrop (grekcha, pitekos – maymun, antropos – odam) maymun – odamning suyak qoldiqlarini topishga muvassar bo’ldi. Pitekantrop miya qutisining hajmi 800–900 sm³ bo’lib, olimlarning fikricha, bu mavjudod bundan 700–800 ming yil ilgari yashagan. 1950-1960 yillargacha olimlar uni mehnat qurollari yasay olish qobiliyatiga ega bo’lgan ilk odam deb hisoblab keldilar. Keyingi vaqtda Osiyo, Afrika va boshqa joylardan pitekantroplarning juda ko’p qoldiqlari topib o’rganildi. Endilikda pitekantrop Afrikaning «ishbilarmon odami» dan keyingi bosqichda turuvchi eng qadimgi odam ekanligi aniqlandi. Ulardan eng qadimgisining sanasi bundan 1,5-1,9 million yilga borib taqaladi.

1927 yilda Pekin shahri yaqinidan kanadalik olim D.Blek⁴³ topgan sinantrop ham eng qadimgi odamlar – arxantropolar hisoblanadi, degan fikrni tasdiqladi. Sinantropolar pitekantropolarga nisbatan ancha rivojlangan bo’lib, ular hozirgi davrimizdan 400 – 500 ming yil ilgari yashagan Xitoy olimi By⁴⁴ 1963 yilda Xuanxe daryosi o’rta oqimi havzasidagi Landyandan topgan qazilma odam qoldiqlarini ham arxantropolarga kiritish

⁴¹ Fridrix Engels – nemis mutafakkiri va jamoat arbobi, marksizm asoschilaridan biri (1820-1895).

⁴² E. Dyubua – arxeolog.

⁴³ D. Blek – arxeolog.

⁴⁴ Vu – Xitoy arxeologi.

mumkin. Olimlarning fikricha, Landyan arxantropi sinantropga qaraganda ham qadimiyroq ekan. Eng qadimgi qazilma odamlarning qoldiqlari Yevropada Germaniyaning Geydelberg, Vengriyaning Budapesht shaharlari yaqinidan ham topilgan. Olimlarning ta'kidlashicha, ular pitekantroparga ancha yaqin turgan. So'nggi vaqtda Osiyo, Afrika, Yevropaning ko'pgina joylaridan ham arxantropolar yashagan manzilgohlar ko'p'lab topilmoqda.

Uzluksiz mehnat jarayonida arxantropolar jismoniy jihatdan rivojlanib, qadimgi odamlar – neandertallarning shakllanishi uchun zamin hozirlaganlar.

Arxantropolardan keyingi bosqich kishilari fanda qadimgi odamlar nomi bilan mashhur bo'lib, tadqiqotchilarning fikricha, ular zamonamizdan 100 – 50 ming yil muqaddam yashaganlar.

Qadimgi odamlarning qazilma qoldiqlari dastlab 1948, 1964 yillarda Ispaniyaning Gibraltar bo'g'ozi rayonidan, so'ngra 1970 yilda Germaniyaning Neandertal vodiysidan topilgan. Joyning nomidan kelib chiqib, bu odamni neandertal deb atash rasm bo'lgan.

Neandertal tipidagi odamlarning qazilma qoldiqlari so'nggi vaqtda Yer yuzining turli burchaklaridan topildi va topilmoqda. Qadimgi odamlar jismonan ancha baquvvat bo'lib, ularning bo'yi o'rtacha 165 sm bo'lgan. Ular toshdan xilma-xil mehnat qurollari yasaganlar.

Neandertal qiyofadagi odamlarning qazilma qoldiqlari Afrikadan, O'rta dengizining sharqiy qirg'oqlaridan, O'rta Osiyo, Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlari territoriyasidan, Karib dengiz bo'ylaridan, Sharqiy Yevropadan va Osiyo yerlaridan ko'plab topilgan.

Neandertallarning tashqi qiyofasi va fikrlashida soddalik, maymunga xos belgilar saqlanib qolgan bo'lib, ularning bosh miyasi u qadar rivoj topmagan edi. Lekin ular arxantropolardan

juda uzoqlashib ketib, hozirgi qiyofadagi odamlarga juda yaqinlashib qolgan edilar.

Mehnat jarayonida inson tafakkurining rivojlanishi natijasida neandertal qiyofadagi odamlar hozirgi qiyofadagi kishilarga aylana bordilar. Ular ham aqliy, ham jismoniy jihatdan kamol topib, hozirgi qiyofadagi kishilar vujudga keldi, shu bilan antropogenez jarayoni nihoyasiga yetdi. Xuddi shu davrda yevropeoid, negroid va mo'g'il kabi dastlabki irqalar vujudga keldi. Insoniyat o'zining hozirgi qiyofasiga yetib kelgunicha 10-15 million yillik katta tarixiy davrni bosib o'tdi. Bu kishilar fanda *Homo sapiens*⁴⁵ – aql-idrokli odamlar, deb ataladi.

Odarning paydo bo'lishi yerdagi eng buyuk hodisalardan biri bo'lib, u dastlab toshdan oddiy cho'qmor yasagan bo'lsa, uzluksiz mehnat, intilish natijasida yuksak madaniyat yaratish darajasiga yetib keldi.

O'rta Osiyoning qulay geografik sharoiti ibtidoiy davrning ilk bosqichlaridanoq, kishilar diqqat-e'tiborini o'ziga jalb qilgan. Janubiy Qozog'istonning tog' va tog'oldi rayonlarida, Qirg'izistonning tog' vodiylarida, Tojikistonda, Turkmanistonning Kopedtog' etaklarida, Kaspiy dengizi bo'ylarida, Qizilqum va Qoraqum ichkarisidagi qadimgi ko'llar atrofida, O'zbekistondagi Ohangaron, Chirchiq, Qoraqamish daryolari vodiylarida, Ko'rator, Vaush tog'lari yonbag'rida, Zarafshon, Surxondaryo, Qashqadaryo vodiylari, Farg'ona vodiysi va uning tog'lik rayonlaridan ashel, levallua va muste, qadimgi tosh asrining o'rta va so'nggi bosqichi, mezolit va neolit, xullas, tosh asrining hamma bosqichlariga mansub yodgorliklar topildi. Bu topilmalar O'rta Osiyoni antropogenez jarayoni sodir bo'lgan rayonlarga qo'shish imkonini beradi.

⁴⁵ *Homo sapiens* – aql-idrokli odam, bu odam turiga Kromonyon odami kiradi (mil.avv. 40-12 ming yilliklar).

Hozirgi vaqtda olimlar odamzodning hayvonot olamidan birinchi bor qayerda ajralib chiqqani, ya'ni uning dastlabki vatani haqida yagona fikrda emaslar.

Ch. Darvin o'z vaqtida odamzodning beshigi Afrika qit'asi ekanligini aytib o'tgan edi. Ingliz olimlari Likilarning o'ttiz yil ichida olib borgan tadqiqotlar natijalari ko'p olimlarni shu fikrga moyil qilib qo'ydi. Lekin Sharqiy, Janubi-Sharqiy va Janubiy Osiyoda, Kavkaz, O'rta Osiyo, Markaziy va Janubiy Yevropa territoriyasidan topilgan ilk tosh asri yodgorliklari odamning vatani Afrikagina emas, balki Yevropaning katta qismi, Osiyo Sharqi, janubi, O'rta Osiyo va Kavkaz ham bo'lishi mumkinligini ko'rsatdi. Bu murakkab masalada hali bir to'xtamga kelinmagan.

Kabirov J., Sagdullaev A. O'rta Osiyo arxeologiyasi. T.: O'qituvchi, 1990.

UCHINCHI BO'LIM

O'ZBEK XALQINING SHAKLLANISHI

O'zbek xalqining shakllanish tarixini katta uch bosqichga bo'lish mumkin: eng qadimgi davrlardan mil. avv. III-II asrlar – hozirgi antropologik qiyofa shakllanishi davri; shu vaqtdan IX-XII asrlargacha – turkiy adabiy tillarning shakllanishi davri; XV-XVI asrlar – o'zbek atamasini olish davri. Hozirgi kunda yer yuzida sof millat bo'lmaganidek, xalqlarning kelib chiqishi haqida ham juda ko'plab tortishuvlar mavjud. Sababi antropologik materiallar tahlilida ham, yozma manbalarda ham doimo subyektiv qarashlar aks etganligidadir. Imkon qadar O'rta Osiyo qadimgi xalqlari haqidagi asosiy yozma ma'lumotlardan va ular asosidagi tadqiqotlardan parchalar keltirishga harakat qildik.

«AVESTO»⁴⁶DAN

«U mamlakatning jasur sardorlari ko'pdan-ko'p harbiy yurishlar qiladi, uning keng yaylovlarga ega, suvga serob tog'larida chorva tinch o'tlov va yemish bilan ta'minlangan, bu yerdagi chuqur sersuv ko'llar to'lqinlanib turadi, kema qatnaydigan keng daryolarning oqimi Poratudagi Iskata, Xarayvadagi Mouru, So'g'ddagi Gava va Xvarizam tomonga toshib intiladi».

« ..o Sipitama Zaratushtra, yashaydigan joylarga, bu yerlarda baxtlik qancha kam bo'lsa-da, tinchlik tortiq qildim. Birin-

⁴⁶ Avesto – mil.avv. 1-ming yillikda paydo bo'lgan zardushtiylik ta'limotining muqaddas kitobi.

chidan, odamlar yashashi uchun eng yaxshi mamlakatni, Vanxvi Daityo daryosidagi Aryonom Vayojjoga asos soldim.

Ikkinchidan, men, Ahuramazda, eng yaxshi mamlakatlar va o'lkalardan bo'lgan Gava So'g'da makoniga asos soldim.

Uchinchidan, men, Ahuramazda, eng yaxshi mamlakatlar va o'lkalardan qudratli Mouruga asos soldim.

To'rtinchidan, Axuramazda, eng yaxshi mamlakatlar va o'lkalardan bo'lgan, baland bayroqli go'zal Bahdiga asos soldim».

Sagdullaev A. Qadimgi O'zbekiston ilk yozma manbalarda. T.: O'qituvchi, 1996. B.21.

DORO I⁴⁷ NING BEHUSTUN YOZUVLARI⁴⁸

Shoh Doro ayturki: «Bu saklar Ahuramazdani qadrlaganlar, men Ahuramazdani ulug'layman. Ahuramazda irodasi va o'z xohishim bilan men ularni tinchitib qo'ydim».

«Men – Doro, ulug' shoh, shahanshoh, davlatlar podshosi, Vishtasp o'g'li, Ahamoniy». «Mana huzurimda bo'lgan podsholik: So'g'diyonaning narigi yog'idagi saklar yurtidan Efiopiyagacha, Hindistondan Midiyagacha – bu podsholikni menga Ahuramazda – xudolar o'rtasidagi ulug' xudo, tortiq qilgan». «Men – Doro, ulug' podsho, shahanshoh ko'p qabilali mamlakatlarning podshosi, keng sayxon yerlarning podshosi, Vishtasp o'g'li, Ahamoniy fors, forsning o'g'li, ariylar urug'idan kelib chiqqan ariy».

«Shoh Doro ayturki: Fors viloyatidan tashqari quyidagi mamlakatlarni men bo'ysundirganman, menga xiroj to'lovchi bo'lgan, mening so'zimni ijro etgan, mening qonunimga asos-

⁴⁷ Doro I – mil.avv. 522-486 yillarda hukronlik qilgan ahamoniylar sulolasidan bo'lgan qadimgi Fors podshohi.

⁴⁸ Behustun yozuvlari – Doro I buyrug'i bilan Kirmonshoh yaqinidagi qoyaga 3 tilda o'yib yozilgan yozuv. Behustun yozuvlarida Doro I tomonidan zabt etilgan mamlakatlar sanab o'tiladi.

lanib rivojlanayotgan: Midiya, Parfiya, Aryo, Baqtriya, So'g'diyona, Xorazm..., Saka Xauomarka, Saka Tigraxauda..., dengizdan narigi yerdagi saklar».

Sagdullaev A. Qadimgi O'zbekiston ilk yozma manbalarda. T.: O'qituvchi, 1996. B.30-32.

SUZA⁴⁹DAGI SAROY DEVORIDAGI YOZUV VA TASVIRLAR

«Suzadagi saroyni men bino qilganimda uning bezaklari uzoq yurtlardan olib kelingan. Uaka yog'ochi – Gandxaradan, oltin – Sard va Baqtriyadan, yaltiroq toshlar va lojuvart – So'g'diyonadan, firuza – Xorazmdan, kumush va bronza – Araxaziyanadan, tosh ustunlari – Elamdan yetkazib berilgan.»

Turli xalqlar qatorida so'g'diylar 8 guruhda ko'rsatilgan. Ular yetti kishidan iborat bo'lib, shohga idishlar, gazmol, noma'lum hayvon teri va ikki qo'yni yetaklab kelayotgani tasvirlangan.

O'n birinchi guruhda uzun cho'qqili qalpoqlardagi saklar ko'rsatilgan. Ular kiyim kechaklar ko'tarib va otni yetaklab bormoqdalar.

O'n beshinchi guruhda baqtriyaliklarning besh vakili idishlarni va tuyani olib borayotganligi tasvirlangan.

O'n yettinchi guruh xorazmliklar bo'lib, ularning dudama xanjar, harbiy bolta, bilaguzuk va otni olib kelayotgani ko'rsatilgan.

(34)»Ular Sharqda, quyosh chiqishi yo'nalishida, Araks daryosining narigi yog'ida joylashgan ... Araks daryosi Matiyona tog'laridan boshlab oqadi».

Sagdullaev A. Qadimgi O'zbekiston ilk yozma manbalarda. T.: O'qituvchi, 1996.

⁴⁹ Suza – hozirgi Eron hududidagi qadimgi Elam davlatining (mil.avv. 3-ming yillik) poytaxti, Ahamoniylar davlatining (mil.avv. 558-330) savdo markazlaridan biri bo'lgan.

GERODOT⁵⁰ O'RTA OSIYO XALQLARI HAQIDA. TARIX. I KITOB. (215), IV KITOB. (64,66,67)

Kiyim-kechagi, turmush tarzi jihatdan massagetlar skiflarga o'xshaydi. Otliq bo'lib-da, piyoda holida-da urushaveradilar, jangning ikkala uslubini-da biladilar; kamon otishu, nayza-bozlikni yaxshi uddalaydilar, odatda oyboltalari-da bo'ladi. Qurolu, anjomlari tilla bilan misdan yasalgan ya'ni nayza, kamon o'qi, oyboltalarining kesarlari misdan yasaladi; bosh kiyim, kamar, belbog', yengbog' va hokazolar oltin bilan bezatiladi. Otlarning ko'krak sovutlari misdan, jilov, suvliq, anjomdagi to'qalarini esa oltindan ishlashadi. Mamlakatlarida temir, kumush yo'qligi uchun ular bu metallarni umuman ishlatishmaydi. Lekin mis va oltin bu o'lkada juda serob. ...Barcha xudolardan massagetlar faqat quyoshga sig'inadilar, unga qurbonlik uchun otlar so'yadilar. Tezkorga tezkor atalmog'i kerak, degan niyatda bunday qilinadi...

...Baqtriyaliklarining bosh kiyimi midiyaliklarnikiga juda o'xshash. Ammo kamonlari o'ziga xos – baqtriyona bo'lib, qamishdan edi. Skif qabilasi bo'lmish saklarning qalpoqlari uchlik bo'lib, pishiq namatdan tikilgan va tik kiyilardi. Ishtonlari, kamonlari, oyboltalari o'ziga xos edi. Bundan tashqari kalta qilich, bilan qurollangan edilar, aslida sak deb amirgiya skiflarini atashardi. Saklar bilan baqtriyaliklarni Gistasp boshlab borardi. Gistasp–Doro bilan Kirning qizi Atossaning o'g'li edi.

Ariylarning kamonlari midiyacha, boshqa qurollari esa baqtriyaliklarnikiday. Ularning boshlig'i Sisampes Gidarn o'g'li edi. Parpilar, xorazmiylar, gandariylar, dadiklar, safarda baqtriyona qurollanardilar. Ularning boshlig'i–Artabaz Farnak o'g'li; so'g'dlarniki Azanes Artey o'g'li; gandariy dadiklarniki esa Artifiy Artabon o'g'li edi. Kaspiylar sisirna kiygandilar, qurollari

⁵⁰ Gerodot – taxminan, mil. avv. 490/480-425 yillarda yashab ijod qilgan qadimgi yunon tarixchisi. «Tarix otasi» nomi bilan shuhrat qozongan.

qamishdan qilingan mahalliy kamon va aqinak edi. Boshliqlari Artifiyning tug'ishgan qardoshi Ariomard edi.

Qadimgi tarixchilar O'rta Osiyo haqida. T.: Yurist-Media markazi, 2008. B.54, 72.

**STRABON⁵¹. GEOGRAFIYA,
II, 5. 58, XI, 6.2,8.2, 8,4. 11, 2. 3, XV. 2, 10.**

...Qadimgi ellin yozuvchilari barcha shimol xalqlarini skif va keltoskif deb umumiy bitta nomda ataganlar..... Kaspiy dengizining narigi tomonida yashovchi xalqlarning bittasini sak, ikkinchisini massaget ataganlaru, garchi Kirning massagetlar bilan urushganini hikoya qilsalarda, ular haqida aniq bir ma'lumot bermaganlar. Tarixchilarning yuzakilikka yo'l qo'ygani hamda cho'pchaklarga qiziqib ketganlari oqibatida, bu xalqlarni o'rganish borasida biror foydali ish qilinmagan.

...Bu yerdagi so'l tarafda, shimolning hammasini egallab skiflar bilan ko'chmanchilar yashaydi. Kaspiy dengizidan boshlab, skiflarning ko'pchiligi daylar deb ataladilar. Sharqroqdagilar esa massaget va saklardir. Qolgani esa, ularning nomi skif deb atalsa-da, yana har birining alohida oti bor. Skiflarning hammasi bo'lmasada, ko'pchiligi ko'chmanchidir.

...Qadimgi geograflar, Qrimning Tavr, Kavkaz tizmasi, Kopet-Dag', Hindikush va Pomir tog'lari bir-biriga uzluksiz bog'lanib, Osiyoni naqd ikkiga bo'lib turadi, deb o'ylashgan va bu ma'lumot ularning nazariyalarida asosiy tayanch nuqtasi edi. Bu tog'larning barini bitta Kavkaz tog'i deb, qolganlarini turli mahalliycha nom olgan qismlaridir, deb aytadilar.

⁵¹ Strabon – mil. avv. 64/63 – mil. 23/24 yillarda yashab ijod qilgan yunon geografi va tarixchisi.

Osiyo Tavr tog'lari bilan ikkiga bo'lingandir.... Tavrning bergi tomonida, Girkan sohillaridan to Imay tog'laridagi hind va skif yerlarigacha bo'lgan kengliklarda turli yurtlar bor.

Girkan dengizi ortidagi bu yurtlardan keyingi, hind yerlaridan va ulardan keyingi shimol yerlaridan ham so'ng joylashgan mamlakatlarga skiflar, girkanlar, parpilar, baqtriyaliklar, so'g'dlar egalik qilardilar.

Agar Girkon dengizidan sharqqa qarab yurilsa, o'ng tarafimizda to Hind okeanigacha cho'zilgan uzluksiz tog'lar yotadi. G'arbda qoluvchi Pamfiliya va Kilikiyadan boshlanib, to Hind dengizigacha turli nomlarda atalib cho'zilgan bu tog'larni ellinlar Tavr tog'lari deb ataydilar. Tog'larning shimoliy qismini birinchidan: gel, kadusiy, amardlar; keyin yuqorida aytganimizdek, girkanlarning ba'zi birlari egallaydilar; undan yana sharqqa Ox daryosi tomon yurilaversa, parpi, marg'iyon, ariy xalqlari yashaydi. Yana davom etilsa cho'l chiqadiki, bu cho'lni Girkaniyadan Sarniy daryosi ajratib turadi. Armaniyadan bu yergacha balki undan ham beriroqdan cho'zilib kelgan tog'-Parafra deb ataladi. Girkan dengizidan ariylargacha bo'lgan masofa 6000 stadiyga yaqin deb aytiladi. Undan keyin Baqtriyona, So'g'diyona va nihoyat ko'chmanchi skiflar yurti keladi. Ana shu tog' tizmalarini, ariylar yurtidan boshlab, makedonlar kavkaz tog'lari deb ataganlar. Biroq mahalliy xalqlarda ularning har bir bo'lagining o'ziga xos oti bor masalan, Parapamizning shimoliy cho'qqilari Emod, Imay deyiladi va yana boshqa-boshqa nomlar uchraydi.

...Eng mashhur ko'chmanchi ellinlardan Baqtriyonani tortib olganlari: aziy, pasian, toxar, sakaravllar edi. Ular Yaksartning narigi qirg'og'idan, sak va so'g'dlar yaqinidan kelishgandi. U qirg'oqqa saklar egalik qilishardi.

...Skiflar Baqtriyaga egalik qilardilar, Shuningdek, Armaniya hududlarining eng yaxshi yerlarinida olib, unga Sakasana deb ot qo'ygandilar.

...Ularning shaharlari ichida Zariaspa deb ham ataladigan Baqtra bor. Undan shu nomdagi daryo o'qib o'tib, Oksga quyiladi. Yana Adraspa va boshqa ko'p shaharlari bor-u shularning ichida podsho nomiga qo'yilgan Evkratidiya degani ham bor. Ellinlar bu yerlarni qo'lga kiritgach, ularni satrapiyalarga bo'lib chiqdilar. Parpilar Aspion va Turuva degan ikki satrapiyani Evkratiddan tortib oldilar. Ular Baqtriya sharqining teparog'ida joylashgan So'g'diyonaga-da egalik qilardilar. So'g'diyona Oks bilan Yaksart o'rtasida bo'lib, Oks uni Baqtriyadan, yaksart esa ko'chmanchilardan ajratib turardi.

...Qadimda so'g'd bilan baqtriyaliklar urf-odat va fe'l - atvorlari jihatidan nomadlardan farqlari juda kam bo'lgan. Garchi baqtriyaliklarning fe'llari biroz muloyimroq esa-da, One-sekrit ular haqida juda ko'p maqtovdan uzoq gaplarni aytgan.

...Parpilar Girkaniya, Baqtriya va bu yurtlarning yuqorisida yashovchi skiflar haqidagi bilimlarimizni ancha kengaytirdilar. Parpilar o'tmishdoshlarimizga bizga nisbatan kamroq ma'lum bo'lganlari uchun, biz bu ma'lumotlarni kengroq yoritish imkoniga egamiz.

Qadimgi tarixchilar O'rta Osiyo haqida. T.: Yurist-Media markazi, 2008. B.56,121,143,158,175.

ISKANDARIYALIK KLIMENT⁵². GILAMLAR, NASHR. IV, VIII, 62.

Nayrangli chekinib qochayotgan sak ayollari orqaga o'girilib kamon otadilarki, erkaklaridan qolishmasdilar.

Qadimgi tarixchilar O'rta Osiyo haqida. T.: Yurist-Media markazi, 2008. B.57.

⁵² Iskandriyalik Kliment – tarixchi.

EFOR⁵³. PARCHA. 76 VA 78.

Qo‘yboqar saklar-skif qabilaridan biridir. Ular don koni bo‘lmish Osiyoda yashab, haqiqatparvar chorvachilarga mansubdirlar.

Skiflar boylik ketidan quvmaydilar, bir-birlariga halol munosabatdalar, mol-mulk, ayollar, bolalar, butun oila ularda umumiydir. Ularga tashqaridan tajovuz xavf solmaydi, chunki bosib oladigan narsalari yo‘q. Aravalarda ko‘chib yuradilar va sut bilan oziqlanadilar. Shaxsiy mulk orttirishga yo‘l qo‘ymaydilar, mol-mulk va boshqa narsalarga umumlashib egalik qiladilar. Ulardan ba‘zilari Osiyoga ko‘chib joylashgan, u yerda ularni saklar deb atashadi.

Qadimgi tarixchilar O‘rta Osiyo haqida. T.: Yurist-Media markazi, 2008. B.58.

POMPEY TROG⁵⁴, FILIPPIYLAR TARIXI II, 1.

Eng boshida skiflar qudratlaridek atoqli edilar. Ular Parfiya, Baqtriya davlatlarini, ayollari esa amazonkalar podsholigini tuzishgan. Skiflar hamisha eng qadimiy xalq hisoblangan, qadimiylikda ular misrliklar-la bellashadilar.

Qadimgi tarixchilar O‘rta Osiyo haqida. T.: Yurist-Media markazi, 2008. B.94.

KVINT KURSIY RUF⁵⁵. ALEKSANDR MAKEDONSKIYNING ISHLARI HAQIDA, IV, 6,3.

Bu qabilalarning ichida baqtriyaliklar eng uddaburon, fe‘latvorlari shavfqatsiz, forslarning dabdaba va nazokatli hayotidan nafratlanadigan xalqdir. Jangovar, qaroqchilikdan kun

⁵³ Efor – tarixchi.

⁵⁴ Pompey Trog – tarixchi.

⁵⁵ Kvint Kursiy Ruf – milodiy I asrda yashab ijod qilgan qadimgi Rim tarixchisi, «Buyuk Aleksandr tarixi» asarining muallifi.

ko'radigan skiflarning qo'shnisi bo'lganlari uchun hamisha qurollangan holda yuradilar.

Qadimgi tarixchilar O'rta Osiyo haqida. T.: Yurist-Media markazi, 2008. B.94.

PLUTARX⁵⁶. ALEKSANR MAKEDONSKIY. XL V II.

Iskandar bir tomondan o'z turmush tarzini mahalliychaga moslashtirishni, ikkinchi tomondan mahalliy aholini makedoncha turmushga yaqinlashtirishni kuchaytirdi. Aralashtirish orqali o'z hokimiyatini kuch bilan emas, yaxshilik bilan mustahkamlayman deb hisoblardi. Shu maqsadda mahalliy bolalardan o'ttiz mingtasini tanlab olib, yunoncha bilimga va makedoncha qurol-yarog'ni ishlatishga o'rgata boshladi. Ularga ustozlikka juda ko'p odamlarni jalb etdi. Bir ko'rishdayoq sevib qolgan go'zal va sarvqomat Roksanani nikohiga olgani ham shu niyatlariga mos kelardi.

Qadimgi tarixchilar O'rta Osiyo haqida. T.: Yurist-Media markazi, 2008. B.116.

3.12. POLIBIY.⁵⁷ UMUMIY TARIX, X, 48.

Apasiaklar Oks va Yaksartning orasida yashaydilar.

Qadimgi tarixchilar O'rta Osiyo haqida. – T.: Yurist-Media markazi, 2008.-B.121.

⁵⁶ Plutarx –taxminan, 46-127 yillar – qadimgi yunon tarixchisi, faylasuf va yozuvchi. Platon akademiyasining ko'zga ko'ringan a'zolaridan biri sifatida platonizm g'oyalari targ'ib qilgan.

⁵⁷ Polibiy – (mil.avv taxm. 201 – 120 yy.) – yunon tarixchisi. 40 kitobdan iborat «Umumiy tarix» asari bilan mashhur. Asar Yunoniston, Makedoniya, Karfagen, Misr, Suriya va Rimning mil. av. 220–146 yillar orasidagi ijtimoiy-siyosiy tarixini o'z ichiga oladi.

AVRELIY VIKTOR. XV, 4.

Hindlar, baqtrlar, girkanlar imperatorning adolatparvar kishi ekanini eshitib elchilar yuborishardi.

Qadimgi tarixchilar O'rta Osiyo haqida. – T.: Yurist-Media markazi, 2008.-B.147.

EVSIVIY. IOVINIANGA RADDIYA. 2.7.

Girkanlar Yarim jon qariyalarni quzg'un va itlarga yeyish uchun tirikligicha qoldirsalar, kaspiylar o'ligini qoldiradilar.

Qadimgi tarixchilar O'rta Osiyo haqida. T.: Yurist-Media markazi, 2008. B.174.

POMPEY TROG. FILIPPIYLAR TARIXI, XI.

Parpilarda oddiy ko'mish marosimi murdaning it yoki qushlar tomonidan yeyilishidan iborat. Tozalangan suyaklarni esa yerga ko'mib saqlaydilar.

Qadimgi tarixchilar O'rta Osiyo haqida. T.: Yurist-Media markazi, 2008 B.174.

SITSERON.⁵⁸ TUSKULYANDAGI SUHBATLAR.

Mug'larning odati bo'yicha o'lganlar ko'milishidan avval hayvonlarga yem bo'ladilar. Girkaniyadagi oddiy xalq uchun jamoa tomonidan boqiladigan itlardan foydalanishsa, boylar uylarida maxsus boqiladigan zotdor itlarga yem bo'ladilar. Ya'ni har bir kimsa o'zining murdasini yeydigan itni o'zi yetishtiradi va bu ko'mishning oliy darajasi hisoblanadi.

Qadimgi tarixchilar O'rta Osiyo haqida. T.: Yurist-Media markazi, 2008.B.175.

⁵⁸ Sitseron – mil. avv. 106–43 yillar— Rim siyosiy arbobi, notiq, yozuvchi.

YOFAS IBN NUH⁵⁹ ...

(33) Yofas ibn Nuh alayhissalomni ba'zilar xilof (ta'rif) qilganlar. Aksar ulamo va kibor mashoyix rivoyatlariga qaraganda Payg'ambar mursal sahobalari so'ziga qaraganda, Haq Subxon va taolo unga 9 o'g'il ato qilgan: birinchisi Turk, ikkinchisi Dibroz, uchinchisi Saqlob, to'rtinchisi Rus, beshinchisi Munsak, oltinchisi Chin, yettinchisi Gumori, sakkizinchi Kimol, to'qqizinchi Mozux.

Ba'zilar Yofas alayhissalom sakkiz o'g'ilning otasi bo'lganini yozadilar: Kemol va Kimorini bir shaxs deb biladilarki, ikki nom bilan mashhur bo'lgan.

... rivoyat shundayki, butun yer yuzi Hazrati Nuhniki bo'lgandan keyin alayhissalom jahonni uch qismga(34)bo'ldi. Chunonchi, Mashriqdan Mag'ribgacha bo'lgan yerlarni, xatti ustuvodan shimol tomon yerlar: Bir bo'lak ma'mur orollarki, xatti ustuvonning janubida edi va Chin bahri bilan Hind bahri oralig'idagi yerlar, olamning rub'iki, hozir Babri Habasha nomi bilan mashhurdir, bilan tugagandi, Baxri Chin sohillaridan, (v. 12a) uchinchi iqlim uchdan birigacha cho'zilgan yerlar, kengligi to Mag'ribning Holidot orollarigacha, uzunligi beshinchi iqlim 1/3 gacha, odamlar yashaydigan o'rtalikning kengligicha (yerlar) Somga berilgan edi.

Yofas alayhissalomga Chin Mashriqining boshqa muhitlari, Qomarun tog'lari va rus yerlari oxirigacha cho'zilgan oq cho'qqilar va beshinchi iqlimning qolgan 1/3 qismi to ma'mur yerlarning oxirigacha va shimolning zulummotigacha yerlar baxsh etilgandi. Shunisi ravshandirki, bu barcha xaloyiq hozir olamda mavjuddirlar. Bu Hazrati Nuh alayhissalomning uch o'g'lonu avlodidandirlar. Aytadilarki, Turonzamin va Turkistonni Yofas alayhissalom o'ziga asrab qo'ygandi. Shu sababli uni

⁵⁹ Yofas ibn Nuh – Nuh payg'ambarning o'g'li, musulmon tarixchilarining kitoblarida barcha turkiy xalqlar Yofasdan tarqalgan, deb yoziladi.

Abut-turk deyishgan. Eronzamin yerlari va Ajam yerlari, Oxvoz Som alayhissalom ulushiga tushgandi. Shu jihatdan uni Abulajam deb ataganlar. Hinduston nohiyalari, Sudan mamlakati Hom ixtiyorida edi. Uni Abulhind ataganlar. Hazrati Nuhning to'ng'ich o'g'li Yofas edi, alayxumussalom. Haq taolo uni rasullik tashrifiga musharraf qildi.

...Mashoyixlar jumhuri kibor tavorix arboblari ga ko'ra, rivoyat qilishicha, Hazrati Yofas alayhissalom payg'ambari mursal bo'ldilar (v. 13 a). Ul xazratga nozil bo'lgan kitoblarda o'sha orada yada ilmi ham zikr etilgan edi. Chunonki, Hazrati Odam alayhissalom sifrida harflar, Hazrati Idris alayhissalom muqaddas kitobida ilmi nujum, Hazrati Ibrohim alayhissalom kitobida sanoq ilmi (ilmi a'dod), Muso alayhissalom Tavrotida ilmi san'at va tib, Hazrati Doniyol alayhissalom muqaddas kitobida ilmi ramali alo hindul-qiyos (bitilgandir). Bu eng qudratli so'zdir. Har taqdirda ham ilmi Yada moddasida Hazrati Yofas ibn Nuh, alayhissalom Mashriq mamlakatlarida shitob qilgandir. Sahronishinlar tariqida soqit (36) bo'ldi. Tahsinga loyiq husnu qoida rusumlarini o'z farzandlari orasida qoldirdi. Ajali mavhudi yetishgach, bu marhaladan ko'p ofatlar yo'qoldi va vafot etdi.

Uning buzrukvor avlodiki, har biri sayid qavm va mehtar bir guruh edilar, har biri padari amri va vasiyatiga ko'ra, taxti tasarruflarida bo'lgan tomonlarga tarqalib ketdilar va mamlakatdorlik asosini qo'yдилarki, bugungi kunda har biri xushsiyrat o'sha xalq nomi bilan bir viloyatga mansub bo'ldilar. Ota janozasini o'g'il va nabiralar izzat-ikrom bilan tuproqqa topshirishlari bilan kichik birodarlar o'z ulug' akalari Turk ibn Yofas alayhissalom uyiga kelib ta'ziyatni oxiriga yetkazdilar. Hammalari ittifoqlik ko'rgizib, Turk ibn Yofasni o'zlariga o'g'il sanadilar va Yofas o'g'lon deb atadilar..

TURK IBN YOFAS IBN NUH ALAYHISSALOM SULTONLIGI ZIKRI

Turkni uning tamomi xalqi Yofas o'g'lon deb atay boshlagach, o'zlariga mehtar va sardor qilib sayladilar. Turk otasi o'rniga qoimmaqom bo'ldi. Xush rasm-rusumlar, tahsinga loyiq tartiblarni o'z qavmi o'rtasida o'rnatdi. Aytadilarki, Turk ibn Yofas alayhissalom Qayumars zamondoshi bo'lgan. Qayumars fors mamlakatlari birinchi sultoni bo'lganidek, inchunin Turk Mashriq diyori xoqonlarining birinchi qoonidir.

Naql qilishlaricha, bag'oyat oqil va boadab va hunarmand bo'lgan. Keyin (o'zining) butun viloyatlarini sayr qilib, kezib chiqqan. Bag'oyat xush joyni topdiki, uni Joilgon deydilar. U yerda bir kichik daryo bo'lgan, uning suvi iliq, atrofida go'zal tog'liklar ko'p bo'lgan. Shirin suvli chashmalarga mo'l bo'lib, Turkning tab'iga juda xush yoqqan. Shu yerda yashay boshlagan. Xudoyi taolo asosdorlik (v. 13 b) ko'rgizib, Haqqa ibodat qilishni tark etmadi, xayru ehson qo'lini xaloyiqqa ochdi. Xonlik rasm-rusumi va jahondorlik qoidalarini birinchi bo'lib Mashriq mamlakatlarida ijro etdi. Aytadilarki, Chin mamlakati sarhadidanki, uni Xonju deb ataydilar, asosiy yerlar, masalan, Turkiston zamin mamlakati chegaralarigacha uning hukumati qo'li ostida edi. Hirgoh udumi uning ixtirolaridandir. Jami turklar orasida in'om qilish (odatini) o'rnatdi. Odil va komil, ko'ngilchan podshoh bo'lgan, deyishadi. Ra'iyat borasida ko'p rioyat qilgan. Chunonchi, shu narsa haqiqatki, Xudoyi taolo bandalari uning zamonida (37) ayni osoyishtalikda va tinchlikda yashaganlar. Uning besh o'g'li bo'lgan. Birinchisi Abilcha, ikkinchisi Tung, uchinchisi Chigil, to'rtinchisi Barsxor, beshinchisi Atloq. Taomga tuz solmoq Turkxon ibn Yofas alayhissalom davrida paydo bo'ldi. Shunday hikoya qiladilarki, bir kuni shikorgohda Tung ibn Turk ibn Yofas alayhissalom qo'lidan issiq kabob yerga tushib ketadi. O'sha joy tuz ma'dani edi. Sho'r yerda issiq kabobga tuz yopishadi. Tung u luqmani og'ziga solganda boshqacha lazzat berdi. Endi butun

kabobni o'sha tuzga oluda qilib edi. Inilari va otasini, arkoni davlat va hammani bu lazzatdan xabardor qildi. Shundan keyin hamma taomga qadg'o'lkifoya tuz soladigan bo'ldilar. Shuningdek, chorva va vahshiy hayvonlar terisidan libos tikib kiyish ham Turk hukmronligi davrida paydo bo'ldi. 240 yil umr ko'rgach, o'z otasi va ajdodidan ajralib oxirat shahristoniga ketdi..

O'G'UZXON⁶⁰...

(46) Olloh inoyati bilan O'g'uzxon podshohlik tojini kiygach, jahongirlik ilmi va mamlakat boshqaruvchiligi bayrog'ini ko'tardi. ...Bu mamlakatlarni ham istilo qildilar. Chunonchi, elu ulusi, mo'g'ulu totor barchasi noiloj va nochor O'g'uzxonga el bo'ldilar. O'g'uzxon tamomi Chin, Xito, Turkiston, Saqlab mamlakatlariga hokimu mustavlo bo'ldi. Talotin, Talosh, Salosi, Sayram shaharlari chegaralaridan to Buxoro, Samarqand sarhadlarigacha yerlarni taxti tasarrufiga kiritdi.

... Alqissa, O'g'uzxon, navvorollohu marqada, Chinu Mochin mamlakatlari sarhadidan to Rus dengizigacha, Oltoy va (50) Qonqoydan Jayhun daryosi bo'yigacha o'z zabti doirasiga va o'z tasarrufiga olgach, barchani xudoparastlik diniga kiritishga harakat qilgan edi. Bu diyorlar o'rtasida islom rivojiga va turklar holining barqarorligi va ular turmushi sharoitining qoyimligiga sabab bo'lgan bir necha qonunlar ishlab chiqdi. Aytadilarki, O'g'uzxon turk maliklari orasida misli Jamshid edi. Ajam maliklari orasida ham.

O'G'UZXONNING TURK QAVMLARIGA LAQAB QO'YGANI ZIKRI

Mazkur tarixda O'g'uzxon turklarning qavmlariga laqablar qo'yidiki, ular to hanuz o'sha ismu laqablar bilan mashhurdirlar.

⁶⁰ O'g'uzxon –turkiy xalqlarning afsonaviy yo'lboshchisi.

Jumladan, bir necha qavmning laqablari quyidagicha: misli uyg'ur, qonqli, qibchoq, qorluq, xalaj, chiyug'lar va hokazo. Ammo, uyg'urning ma'nosi (qo'shmoq) bog'lamoq, biri-biri bilan ahdu paymon bog'lamoq'dir. Bu toifa O'g'uzxonga bir jangda besabab madad bergandi. Shu boisdan ularga uyg'ur deb nom qo'ydi. Ammo, qonqli aqllilik, farosatlilik ma'nosidir. O'zi bir narsadan bir ma'no chiqarmoqdir. Chunonchi, bir jangda O'g'uzxon qo'lga juda ko'p boylik o'lja tushgan edi. G'animdan hushyor o'lja (v. 21 b) olib, uning qulfini ocha olmagandi. Lashkardagilarning to'g'ri fikr yurituvchi bir to'dasi urinib ko'rishdi. Batartib qildilar ul o'ljani osonlikcha ochib tashib, oldilar. O'z aqlu farosati bilan dunyo mushkullarini yecha olganliklari sababidan ularga qonqli deb nom qo'ydi.

Ammo qibchoq (nomi) qabuq, so'zidan olingan. Qabuq bir daraxtning nomidir. U daraxt tanasi ichi kovak bo'ladi. Po'stidan tashqarisida ko'klik yo'qdir. Yog'ochining ichi chirigan, g'ovak bo'lgan bo'ladi. Aytadilarki, janglarning birida O'g'uzxon lashkari shikast yeydi. O'g'uzxon odamlarining ko'pchiligi qatl etiladi. O'g'uzxonda dushmanga qarshi zarba berish quvvati qolmaydi. Nochor ahvolda qolib, chekinishga yuz tutadi. Sahroda ikki daryo oralig'ida otdan tushadi. Lashkarda bir xotinning qornida homilasi bor edi. Ul xotinning eri va otasi O'g'uzxon ko'zi o'ngida O'g'uzxon dushmani bilan bo'lgan jangda o'ldirilgan edilar. Ul xotinning dardi qo'zg'ab qoldi. Ilojsiz qolgan xotin yonidagi bir daraxtning kovagiga bir pana joy topolmay kirdi. U yerda undan bir o'g'il tug'ildi. O'g'uzxon bu voqeadan xabar topgach, ular holiga rahmu shafqat qilib, (51) dedi: otasi va bobosini, va otasi va eriniki biz tufayli o'ldirishdi. U yetim qoldi. O'sha o'g'il bolani farzandlikka qabul qildi va Qibchoq deb nom berdi. Bugungi kundagi qibchoq qavmini uning bir o'g'li naslidan deb biladilar.

Aytishlaricha, O'g'uzxonning o'sha jangida Eron voliysi Etbaroq hamroh edi. 17 yil o'tgach Etbaroq ustidan g'olib keldi

va Eronni istilo qildi. Bir necha muddat o'tib O'g'uzxon Turonga qaytganda eshitdiki, Yana uning dushmanlari bosh ko'taribdi. Farzandim deb atagan Qibchoqqa buyurdiki, o'ziga yaqin tobe odamlari bilan ular ustiga borgay va Momoq nohiyalarida chegara muhofazasi bilan shug'ullangay. O'g'uzxon farmoniga binoan u yo'lga tushdi va aytilgan joyga o'rnashdi va yashab qoldi.

Qorliq. O'g'uzxon G'o'r sarhadidan Turon zamin tomon yo'lga chiqqanda (v. 22 a) qish juda sovuq kelgan edi. Dashtu sahroni qor tamoman qoplab olgandi. U buyurdiki, hech kim lashkardan orqada qolib ketmasin. Ammo, qor ko'pligi va sovuqdan ba'zilar lashkardan orqada qolib ketdilar. O'g'uzxonga bu ma'lum bo'lgach, yana farmon berdi. Ularni topib keldilar. So'roqlaganlari bilan, baribir qolib ketganlar bo'ldi. Surishtirib, qolganlarga qorliq deb nom berdi.

Ammo Xalaj (to'g'risida) deydilarki, O'g'uzxon mamlakatlar taxiri uchun lashkar tortganda hukm qildiki, hech kim lashkardan qolib ketmasin. O'sha o'rtada bir kishi bo'lib xotini homilasidan qutulgan edi-yu; kam quvvatlikdan suti yo'q edi. Sahroda bir shag'olni ko'rdiki, tovuqni ovlab turgandi. Suti yo'q xotinning eri o'sha odam bir kaltakni olib shag'olga otdi. Tustovuqni undan qutqarish va uni xotinigga kabob qilib berish maqsadi edi. To ul xotinda sut paydo bo'lgay va farzandini sutdan to'ydirgay. O'sha xotin tustovuq kabobidan yegach, suti ko'paydi va farzandini sutdan to'ydirdi. O'g'uzxon ular ahvolidan voqif bo'lib, yo'l azobini tortgan ma'nosida bo'lgan Xalaj nomini ul o'g'ilga qo'ydi. Ma'nosi shul: qolib ketma, opajon.

Ammo, Chiyurg'a. Aytadilarki, O'g'uzxon safarlarining birida shabgirlik yuz berdi. Bir yerga yetgach, otdan tushdi va qarasa, bir to'da odamlari lashkardan ajrab orqada (52) qolib ketganlar. Qator orqasidan kela boshlaganlar. Shu sababdan ul odamlarni Chiyurg'onlar deb atadi.

Chiyurgon turkiyda qator ma'nosini beradi. Shahriyor shunday deb xitob qildi. O'g'uzxon turkiynajod qavmlariga shu

tarzda nom qo'ydi. Sen ularning barchasini turk deb bil, faqat nomlari turlicha bo'ldi.

Ulug'bek Mirzo. To'rt ulus tarixi. (B. Ahmedovning kirish so'zi, izohlari va tahririda) T.: Cho'lpon, 1993.B.50-51.

OLI USMON SULTONLARINING AJDODLARI BAYONI ZIKRIDAKI, O'G'UZXON NASLIDAN HISOBLAYDILAR

(58) Tarix va xabarlar muhaqqiqlari nazdida shul muqarrarki, O'g'uzxon Sulton Usmonxonning o'n beshinchi bobosidir. U oxirgi sultonlardan bo'lib, Chin ibn Yofas alayhissalom avlodlaridandir. Yuqorida mazkur bo'lgan O'g'uzxon qadimgi bobosi bo'lib, Turk ibn Yofas (59) alayhissalom avlodidandir. Usmonxon ajdodlari ismlari Hazrati Yofas alayhissalomgacha tubandagicha tartibdadir: Usmonxon ibn Erto'g'ul ibn Sulaymonxon ibn Kiyo Alpxon ibn Qizil bug'on ibn Boyindurxon ibn Oyqutlug'xon ibn Turg'orxon ibn To'qtemurxon ibn Bosuqxon ibn Ko'k albixon ibn O'g'uzxon ibn Boysubxon ibn Yalvojxon ibn Boybukxon ibn To'g'rulxon ibn Oytug'mishxon (v. 26 a) ibn Kujangxon ibn Ortuqxon ibn Qasorixon ibn Bektemirxon ibn Turimxon ibn Yamoqxon ibn Qizil bo'g'oxon ibn Yamoqxon ibn Boshbo'g'oxon ibn To'g'rulxon ibn Qoyixon ibn Jamumxon ibn Boysurxon ibn Tug'ralxon ibn Sevinchxon ibn Qurtilmishxon ibn Jorsug'oxon ibn Qarojorxon ibn Boychuqxon ibn Amudxon ibn Qumoshxon ibn Qorao'g'lonxon ibn Sulaymonxon ibn Qurchulxon ibn Qo'rbug'on ibn Boytemurxon ibn Quyxon ibn Makri Yumanishxon ibn Makri Quyxon ibn Mochinxon ibn Yofas alayhissalom ibn Nuh alayhissalom.

Oli Usmon sultonlari ajdodi bayoni shundan iboratki, 55 vositadan keyin Hazrati Nuh alayhissalomga yetadilar. Al ilmu indollohi valahda alo ar-rovi.

Ulug'bek, Mirzo. To'rt ulus tarixi. (B. Ahmedovning kirish so'zi, izohlari va tahririda) T.: Cho'lpon, 1993.

MO'G'ULNING VA O'ZGA URUQLARNING ZIKRI. ASLI NE VA OTLARI NE VA LAQABLARI NE ERDI

...Ul mo'g'uldin o'zga uruqlarning ancha bilganimizni aytali. Mo'g'ulni tangrim buyursa so'ng ayturimiz. O'g'uzxonning dostonida aytduq Turk elinda ul el otini ko'targan besh uruq turur teb, uyg'ur, qiniqli, qipchaq, qalach, qorluq. Qalach – O'g'uz o'g'lonlari turkmandin ayrilmay Movarounnahr va Xurosonga tushdilar.

Qipchaq – Tin va Atil va Yoyiq; bu aytilg'an suvlarning orosinda, o'lturdilar.

Qiniqli – Turkman birlan birga o'lturur erdilar. Turkman viloyatga tushgandin so'ng, Issiq ko'l va Chu va Talosh; bu – aytilg'an suvlarning yoqalarinda vatan qilib, ko'p yillar o'lturdilar....

Abulg'oziy. Shajarayi Turk. T.: Cho'lpon, 1992.

TEMUR TUZUKLARI

Movarounnahrda o'zbeklarning jabru zulmi ortib ketdi. Chunonchi, sayid va sayidzodalardan yetmish kishini asir olib band etdilar. Ilyosxo'ja⁶¹ bo'lsa davlat va siyosat ishlarida layoqatsiz bo'lgani tufayli ularning zulmu sitamiga barham berishga ojiz edi. Men bo'lsam o'z salobatim va haybatim bilan o'zbeklar ustidan g'alaba qildim va mazlumlarni zolimlar jabridan halos qildim. Bu Ilyosxo'ja amirlari va o'zbeklarning menga nisbatan dushmanlik qilishlariga sabab bo'ldi. Ular

⁶¹ Ilyosxo'ja – Mo'g'uliston xoni (1363-65). Tug'luq Temurning o'g'li. Ilyosxo'jaga Sharqiy Turkiston, Yettisuv, Tyanshan etaklari, Irtish va Emil daryolari atrofidagi yerlar qaragan. 1361 y. kuzida otasi Movarounnahrda zafarli yurish qilib, Ilyosxo'jaga Movarounnahr hukumatini boshqarib turishni topshirgan. Mo'g'ullarning Movarounnahrda hukmronligini saqlab qolish maqsadida bir necha marta Amir Temur va Husaynga qarshi jang qilgan.

Tug'luq-Temurxon⁶²ga xat yozib, «Temur bizga qarshi isyon to'rini ko'tardi», – dedilar. Xon bu yolg'on gaplarni chin bilib, meni o'ldirib, yo'qotish haqida yorlig' yubordi. Bu yorlig' mening qo'limga tushib qoldi. Undan o'limga hukm qilinganligimni bilib oldim. Buning ilojini qilib, quyidagi tadbirni ishlatdim. Barlos ulusining bahodir yigitlarini o'z atrofimga to'plab, ularni birlashtirdim. Menga bo'ysunib ko'makdosh bo'lmoqlik uchun rozilik bergan birinchi kishi – Iki Temur bo'ldi, ikkinchisi – amir Joku barlos⁶³ edi. Bulardan boshqa ulus bahodirlari ham jonu dillari bilan menga bo'ysunmoqchi [va xizmat qilmoqchi] ekanliklarini bildirdilar.

Movarounnahr aholisi mening bu ishimdan xabar topishi bilanoq, tezda o'zbeklarga hujum qilishim kerakligi haqida istak bildirdilar. Chunki ularning qalbi zolim o'zbeklar toifasidan butunlay bezigan edi. Movarounnahr aholisining kattayu kichigi menga birlashdi. Mamlakatning ulamo va mashoyixlari esa o'zbekiya toifasini yo'q qilish haqida fatvo yozib berdilar. Ulus amirlari va qo'shun boshliqlarining ba'zilari ham bu ishga qo'shilib, bizga birlashdilar. Bu to'g'rida yozilgan ahdnoma va fatvolarining nusxasi bu edi: «To'g'ri yo'llik xalifalar, Alloh taolo ularning jamisidan mamnun bo'lsin, tutgan yo'llariga va qilgan ishlariga muvofiq Movarounnahrdagi butun ahli islom, sipohu raiyat yoxud ulamoyu mashoyix bo'lsin, Amir Temurga izzatu ikrom ko'rsatib, uni Amir Temur Qutbi saltanati Oliy deb atasinlar va uni Allohning [yerdagi] qudrati-saltanat taxtiga loyiq ko'rsinlar. Musulmonlarning yeri, nomusi, mol-mulki hamda joniga zulm-sitam qo'lini cho'zgan o'zbeklar toifasini daf qilishda va umuman yo'qotishda Temurga [yordamlashish uchun] o'z mol va jonlarini ayamay, tirishib harakat qilsinlar. Biz o'z ahdu bay'atimizga sodiq qolurmiz. Agar bergan ahd-paymonimizdan

⁶² Tug'luq Temurxon – (? – vafoti 1363), Mo'g'uliston xoni (1348 yildan).

⁶³ Joku Barlos – to'liq ismi Jakubek ibn Muborak ibn To'g'on ibn Qodon ibn Shar'a ibn Qarochoir no'yon (?–vafoti 1384) – barlos urug'ining yirik beklaridan. Amir Temurning qarindoshi, safdoshi va qaynotasi, xos kishisi.

qaytsak, Allohning qudratiyu quvvati va yordamidan chiqib, shayton qudrati va yordami yo'liga kirgan bo'laylik».

Bu fatvoni menga ko'rsatganlaridan keyin jangu jadal bayrog'ini ko'tarib, o'zbeklar ustiga lashkar tortishga qaror qildim va mazlumlar haqini zolimlardan olmoqchi bo'ldim. Lekin bir necha razil kishilar bu sirni fosh qilib qo'ydilar. [Shundan keyin] o'ylanib qoldim, mabodo Samarqand shahri ichida o'zbeklarga qarshi urush boshlasamu, biroq Movarounnahr ahli [jang qilishdan] qo'l tortsa-chi? [Unda nima bo'ladi?] Shunday bo'lgach, yaxshisi, shahardan chiqib, Samarqand tog'larida joylashay, toki menga qo'shilishni istaganlar huzurimga kelsinlar. Shunda men katta sipoh to'plab, o'zbeklarga qarshi jangu jadalni boshlagayman deb qaror qildim. Samarqanddan chiqqanimda oltmish otliqdan boshqa bir kishi ham menga ergashmadi. Shunda bildimki o'ylagan kengashim xato bo'lmagan ekan.

TURONZAMINNI O'ZBEKLAR⁶⁴ TOIFASI QOLDIQLARIDAN TOZALASH UCHUN QILGAN KENGASHIM

Jete va Ilyosxo'ja lashkarini Movarounnahrardan quvib, Xo'jand daryosining narigi qirg'ogiga o'tkazib yuborgan bo'lsam ham, o'zbeklarning ba'zi favjlari Movarounnahr qal'alarida mustahkam joylashib olgan edilar. Avvaliga ularni bostirish uchun qo'shinim favjlarini yubormoqchi bo'ldim, biroq mabodo bu ish cho'zilib ketsa-chi, degan fikr meni tashvishga soldi. Shu orada menga o'zbeklar qal'alarga yashirinib olganlari haqida xabar keltirdilar. Lashkar favjlarini u yerga yuborish to'g'ri bo'lmas, deb o'ylanib qoldim va Ilyosxo'ja nomidan qal'adagilarga qarata yorlig' yozib, urushsiz topshirishlarini buyurdim. Yorliqni bir o'zbek qo'liga tutqazib, unga hamroh qilib lashkarimning bir

⁶⁴ O'zbeklar – bu yerda Dashti Qipchoqlik ko'chmanchi o'zbeklar nazarda tutilyapti.

favjini jo'natdim. Bu askarlarimga chang-to'zon ko'tarib, o'zlarini g'animga namoyon etishni amr qildim. Ilyosxo'janing talabi yozilgan yorlig' g'animlar qo'liga tekkach va lashkarlarim ko'targan chang-to'zonni ko'rishgach, tun qorong'usida qal'alarni tashlab qochdilar. Xullas, Movarounnahr tuprog'i meni o'ldirishga qasd qilgan o'sha zolimlardan tozalandi va mamlakat tamoman mening qo'limga o'tdi.

Temur tuzuklari.T.: G'.G'ulom, 1996. B.30-31,52.

O'ZBEK ELATINING ILK AJDODLARI (QISQA TARIXIY OCHERK)

(103) O'zbek xalqining etnik tarixi ilk ajdodlari yashagan hudud bilan bevosita bog'liq. O'zbek ajdodlari elat bo'lib O'rta Osiyoning markaziy viloyatlari Movarounnahrda (Farg'ona vodiysi ham shuning ichida) Xorazmda, Toshkent vohasida, Yettisuva, Sharqiy Turkistonning g'arbiy mintaqalarida shakllangan. Bu mintaqalar insoniyatning qadimgi madaniyat markazlaridan hisoblanadi. ...

(106)Antropologik materiallardan aniqlanishicha O'rta Osiyoda neolit davrida (miloddan oldingi VI-IV minginchi yillarda) qadimgi yevropoid irqining ikki ilk turi (tipi): shimoliy ilk yevropoid (protoyevropalik) va janubiy yevropoid (protoo'rta yer dengizlik) turlari mavjud bo'lgan.

Jez davriga oid antropologik turkumdagi yevropoid irqi asosan hozirgi Qozog'iston cho'llarida yashovchi ko'chmanchi chorvador xalqlarga mansub bo'lgan. Dehqonchilik bilan shug'ullangan ilk O'rtayer dengiz irqiy tipi esa Turkmanistonning janubida va Movarounnahrning janubiy mintaqalarida mavjud bo'lgan. Miloddan oldingi II minginchi yillarning ikkinchi yarmidan boshlab har ikkala antropologik turkumning tarqalish

chegarasi Movarounnahr hududida bir muncha kengayadi. Ammo ularning tarqalishi bir xilda (bir tekisda) bo'lmagan.

Antropologik materiallardan aniqlanishicha, hozirgi O'zbekiston zaminining janubida yashovchi, qadimda dehqonchilik bilan kun ko'rgan aholi O'rtayer dengizining sharqiy qismiga xos yevropoid irqiy tipiga bevosita aloqador bo'lgan. Bu antropologik turkum jez davrida Turkmanistonning janubiy, g'arbiy mintaqalarida va Tojikistonning ham bir qancha tumanlariga tarqalgan va kelib chiqishi bilan (genetik jihatdan) Old Osiyo aholisi bilan bevosita bog'liq bo'lgan. Bu fikr, yuqorida keltirilgan arxeologik ma'lumotlar bilan ham tasdiqlanadi.

(107)O'rta Osiyoning jez davridagi aholisini qaysi xalqqa taalluqli ekanligi (qaysi xalqdan bo'lganligi) oxirigacha aniqlangan emas. Bu masalada tadqiqotchilar tomonidan juda ko'p fikr mulohazalar aytilgan bularni tahlil qilish bizning vazifamizga kirmaydi. Ammo bu masalada ixtiloflar bo'lishidan qat'iy nazar, ko'pchilik tadqiqotchilarning fikrlari bir joydan chiqib, miloddan oldingi II minginchi yillarda O'rta Osiyoda ariy tilli (hindiariy) qabilalar⁶⁵ yashaganligi ta'kidlanadi.

Ariy tilli qabilalar janubdagi bo'yalgan sopol madaniyati (Anau madaniyati) bilan ovchilar va baliqchilik (108) hamda shimoliy Yevropadagi chorvachilik-dehqonchilik bilan shug'ullanib kelgan qabilalarning bir-birlari bilan yaqin aloqada bo'lganliklari natijasida shakllangan. Miloddan oldingi II minginchi yillarning o'rtalarida Tozabog'yob madaniyati bilan ma'lum bo'lgan qabilalarning Xorazmda paydo bo'lishi S. P. Tolstov⁶⁶-ning taxminicha hind yevropa, hindiariy yoki eron qabila-

⁶⁵ Ariy tilli qabilalar - «Ariy» so'zi qadimgi Eronzabon qabilalarning nomi bo'lib, «kelgindi», «begona», «boshqa yerlik» ma'nolarini bildirib, keyinchalik «xo'jayin», «aslzoda» ma'nosini anglatgan.

⁶⁶ Tolstov S.P. - (1907-1976), arxeolog va etnograf. O'rta Osiyo va Sharq mamlakatlari tarixi, etnologiyasi va arxeologiyasi bo'yicha mutaxassis, prof., SSSR FA muxbir a'zosi (1953), O'zbekiston FANing faxriy akad. (1956). O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan fan va texnika arbobi. Tojikiston va Qoraqalpog'iston Respublikalarida xizmat ko'rsatgan fan arbobi. Xorazm arxeologiya-etnografiya ekspeditsiyasining tashkilotchisi va rahbari (1937-69).

larining shimoli-g'arbdan bu o'lkaga kelishi bilan bevosita bog'liq.

Taxminan miloddan oldingi II minginchi yillarning o'rtalarida indoariy tilli qabilalar ikki asosiy tarmoqda: eron tilli guruh va hind tilli qabilalarga bo'linadi. Keyingi guruh, doimo janub tomonga siljib Afg'oniston orqali Hindistonga o'tib ketadi. Bu qabilalar asosida keyinchalik mavjud bo'lgan hind tillari va lahjalari hosil bo'lgan. Ariy tilli jamoadan ajralib chiqqan eron tilli qabilalar O'rta Osiyoda va unga tutashgan viloyatlarda qolgan edilar. Bu eron qabilalarining dialekti barcha eron til oilalardagi xalqlar tiliga asos bo'lgan. Shunday qilib, lingvistik ma'lumotlar, miloddan oldingi II minginchi yillarda O'rta Osiyo va unga tutashgan mintaqalarda eron tilli qabilalar mavjud ekanligidan dalolat beradi.

Keyinchalik (miloddan oldingi I minginchi yillarning birinchi choraklarida) temirdan qilingan mehnat qurollari paydo bo'lishi bilan O'rta Osiyoda sun'iy (109) sug'orishga asoslangan dehqonchilik madaniyati birmuncha taraqqiy etadi. Eng qadimgi yozma yodgorliklardan biri bo'lgan Avestoda (bu yodgorlikda miloddan oldingi VII-V asrlarga oid ma'lumotlar mavjud) bir qancha tarixiy viloyatlar eslatiladi, shularning ichida Marg'iyona (Marv vohasida), Parfiya (Kopettog'ning shimolida), Xorazm (Amudaryoning quyi oqimlarida), Baqtriya (Amudaryoning o'rta va yuqori oqimlarida) viloyatlari nomlari uchraydi. Farg'ona vodiysi ham o'sha davrlarda madaniyati taraqqiy etgan mintaqalardan bo'lgan. Yuqoridagi viloyatlarda yashovchi aholining asosiy mashg'uloti o'troq dehqonchilik bo'lgan. Ularning xo'jaligida chorvachilik ham muhim o'rin egallagan.

Miloddan oldingi VII-VI asrlarda o'troq aholining jamoa hayotida yirik o'zgarishlar ro'y beradi; ibtidoiy urug'chilik jamoasi yemiriladi; aholining dehqonchiligi bilan bir vaqtda xo'jaligining boshqa sohalari ham taraqqiy etishiga keng imkoniyat tug'iladi.

(113) Oʻrta Osiyo hududida joylashgan qabilalar uyushmasi haqida olimlar aniq bir fikrga kelganlaricha yoʻq. Bu masalada ular bilan bahslashib oʻtirmasdan, oʻquvchiga bu qabilalar haqida tasavvur hosil qilish uchun yirik qabila uyushmalarini ularning miloddan oldingi VI-IV asrlarda yashagan hududlarini taxminan boʻlsa ham koʻrsatib oʻtmoqchimiz.

Oʻrta Osiyo hududida yashagan yirik qabila uyushmalaridan biri xaumavarga saklari boʻlgan. Bular asosan Oʻrta Osiyoning shimoli-sharqiy qismida joylashgan boʻlgan, xaumavarga saklarini odatda Gerodotning amyurgiya skiflari bilan tenglashtiradilar. Xaumavarga saklari Murgʻob vodiysida, Amudaryoning yuqori oqimlarida, Oloy va Fargʻona vodiylarida hamda Sharqiy Turkistonda yashagan deb taxmin qilinadi.

Yirik qabilalardan yana biri tigraxauda saklari (choʻngʻoq qalpoqli saklar) boʻlgan. Bu qabila uyushmasining ikkinchi nomi (tigraxauda, yunonchasi ortokoribandiy) ularning bosh kiyimlariga (choʻqqi qalpoq kiyganlariga) nisbatan berilgan. Doro I qildirgan(114) Behistun bitigida ham «Choʻngʻoq qalpoq kiyuvchi saklar» deb aniq koʻrsatilgan. Oʻsha Behistun qoyasidagi rasmda Doro I tomonidan asirga olingan saklar sarkardasi Skunxa⁶⁷ baland choʻqqili qalpogʻi bilan tasvirlangan. Gerodotning asarlarida ham shu qalpoq eslatilgan. U «saklar skiflar boshlariga tik, usti choʻngʻoq qalpoq kiyar edilar» deb yozgan edi. Soʻzsiz bu yerda tarix fanining otasi tigraxauda saklarini nazarda tutgan.

Antik davr tarixchilari tigraxauda saklarini massagetlar bilan ham tenglashtirganlar. Bu qabila birligi miloddan oldingi VI-IV asrlarda Gʻarbiy Osiyoning juda katta hududida: Amudaryoning quyi oqimlaridan hamda Sirdaryoning oʻrta va quyi oqimlaridan to Orol dengizining shimoligacha boʻlgan bepoyon choʻllarda koʻchib yurganlar. Oʻsha davrlarda massaget saklari yirik qabila uyushmasi boʻlib, tarkibiga bir necha qabila

⁶⁷ Skunxa – Poliye saklarning bu yoʻlboshchisini Shiroq deb ataydi.

ittifoqlari, jumladan dahlar, derbeklar, sakarauklar, apasiaklar, assiylar (ya'ni) assian, augallar va boshqalar kirgan.

Tiaytaradaraya (dengiz orqasida, dengizning nari tomonida) yashovchi saklar ham qadimgi yirik qabila birlashmalaridan hisoblangan. Bu saklarning yashagan hududlari ham haligacha munozarali bo'lsada, lekin ko'pchilik tadqiqotchilar ularni Yevropa skiflari bilan (115) tenglashtiradilar. Tiaytaradaraya saklari ham genetik (kelib chiqishlari) jihatdan Kaspiy dengizining shimolida, Ural tog' oldi mintaqalarida yashovchi massaget qabilalaridan bo'lishi ehtimoldan uzoq bo'lmasa kerak.

So'g'diyona⁶⁸dan keyin, uning narigi tomonida yashovchi saklar qadimgi eron-fors tilli manbalarda qayd qilinishicha, Osiyo qit'asidagi yirik sak qabila birligi bo'lgan. Ular haqida antik davr tarixchi va geograflarining asarlarida ham ayrim ma'lumotlar uchraydi.

So'g'diyonadan narida yashovchi saklarning joylashgan hududi haqida olimlar tomonidan juda ko'p fikr-mulohazalar aytilgan. Bir guruh olimlar bu skiflarni Sirdaryoning shimoliy mintaqalarida yashovchi saklar (yaksartilar) bilan tenglashtiradilar. Bizningcha ham bu fikr haqiqatga yaqinroq bo'lsa kerak. Antik davr tarixchi va geograflari bu saklarni ham «skif» nomi bilan ataganlar. Shu bilan bir vaqtda, ularni eronliklar «sak» (shak) deb ataganliklaridan ham antik mualliflarining xabari bo'lgan. Bu haqda Pliney Starshiy (milodiy 23-97 yili) yozgan edi: «Forsiylar ularni (skiflarni, K.Sh.) o'zlariga yaqin yashovchi qabilalarining nomi bilan saklar deb ataydilar». Ptolemey ma'lumotlarida Sirdaryo yaqinida uning o'rta qismlarida yashovchi «Katta Yaksart» yoki «Kandar» deb ham atalgan. Ptolemeyning kandar deb nomlagan qabila kangarlar bo'lishi mumkin.

Ikki daryo (Amu va Sirdaryo) oralig'ida ham sak qabilalarining katta qismi yashagan. Bu saklar ham (116) antropologik

⁶⁸ So'g'diyona – Zarafshon daryosi vodiysida joylashgan hudud (hozirgi O'zbekiston va Tojikiston respublikalari hududi).

tuzilishi, tili va madaniyati jihatidan Sharqiy Yevropa, Sibir va Qozog'iston cho'llarida yashovchi skiflarga yaqin bo'lishi kerak. Barcha saklarning madaniyatida umumiylik mavjud bo'lganligi qadimgi manbalarda ham aks etgan. Masalan, Behistun qoyalari toshga o'yilib ishlangan rasmlarda so'g'diyonaliklar, baqtriyaliklar va xorazmliklarning kiyim-boshlari, urush qurollari tasvirlangan bo'lib, ular boshqa saklarnikiga o'xshab tasvirlangan. Qadimgi so'g'diyonalik va xorazmliklarning ham tillari bir-birlarinikiga yaqin bo'lgan. Yevropa skiflarning tili ham shu tip turkumidagi xalqlardan bo'lganligi tadqiqotchilar tomonidan qayd qilinadi. Ammo xo'jalik jihatidan bu etnik birliklar bir-biridan farq qilgan: etnik uyushmalardan biri dehqonchilik bilan, ikkinchisi ko'chmanchi chorvachilik bilan, uchinchisi - ovchilik, baliqchilik va boshqalar bilan shug'ullanib kelganlar.

...Markaziy Osiyo kengliklarida yashovchi ko'chmanchi qabilalari ham murakkab etnik jarayonni o'tayotgan edi. Bir regionda va unga tutashgan hududlarda yashovchi qabila uyushmalarining bir-birlari bilan yaqinlashish va etnos ichidagi qabilalarning qo'shib, aralashib borgan jarayoni mavjud edi. Bu jarayonlar natijasida xaumavarga, (117) sakaraka, tigraxauda saklarda va boshqa etnik (etnohudud) tizimi vujudga keladi.

Dehqonchilik bilan shug'ullanuvchi aholi ta'sirida ko'chmanchi qabilalarning ayrim guruhleri o'troqlashadi va shu yo'sinda ular son jihatidan tobora ko'payib boradi. Ayni bir vaqtda (miloddan oldingi I minginchi yillarning o'rtalarida) O'rta Osiyoning markaziy mintaqalarida, jumladan Zarafshon vodiysida Orol dengizining janubiy-g'arbiy va janubiy-sharqiy qismida Tangritog' va Olayda mo'g'ulsimon antropologik tipdagi etnik guruhlar paydo bo'lgan. Guruhlar asosan mo'g'ulsimon aralashmasi (andronovoliklar) tub yerli aholi hamda janubdan oldinroq kelib o'rnashgan O'rta yer dengizi antropologik tipi vujudga kelgan. Bu tipdagi antropologik guruhlar O'rta Osiyo-

ning Markaziy viloyatlarida mavjudligi miloddan oldingi asrning oxirlariga oid materiallarda aniqroq ko'rish mumkin.

Shunday qilib miloddan oldingi VI-IV asrlardagi o'troq aholi va ko'chmanchi sak, massaget qabilalari O'rta Osiyo aholisining keyingi asrlardagi etnik taraqqiyotiga zamin tayyorlab beradi.

Karim Shoniyozov. O'zbek xalqining shakllanish jarayoni. T.: Sharq, 2001.

O'ZBEK XALQI ETNOGRAFIYASI

(21) O'zbeklarning eng qadimiy ajdodlari to'g'risida ma'lumotlar juda kam. Sharq mustabidlari, ayniqsa, qadimgi Eron, Bobil, Ossuriya hukmdorlari o'zlarini ulug'lash maqsadida toshga bittirgan zafarnomalarida bosib olingan va bo'sundirilgan elat va xalqlarni tilga olganlar. Shular ichida O'rta Osiyoliklarning qadimiy ajdodlari to'g'risida ham ayrim ma'lumotlar mavjud.

Ilk yozma manbalardan qadimgi Yunoniston va Rim mualliflarining asarlarida Orol bo'yi va Oks (Amudaryo) hamda Yaksart (Sirdaryo), Movarounnahr va Baqtriyada (22) yashagan qabila va elatlar tilga olinadi. Masalan, antik davr mualliflaridan miletlik Gekatey, Strabon, Gerodot, Arrian, Ptolemey va Ktesiy, sisiliyalik Diodor, Pompey Trog, Tasitlar o'z asarlarida sak-massaget qabilalari, xorazmliklar, baqtriyaliklar, parfiyalik va so'g'diylar to'g'risida ayrim ma'lumotlar keltirganlar.

O'rta Osiyo xalqlarining eng qadimiy ajdodlari va ularning turar joylari, urf-odat va marosimlari to'g'risida noyob ma'lumotlarni bizgacha yetib kelgan zardushtiylik dinining muqaddas kitobi «Avesto»dan ham olish mumkin. Eramizdan avvalgi II-I asrlardan boshlab arab istilosigacha O'rta Osiyo xalqlariga tegishli ba'zi axborotlarni Eron mustabidlari solnomalarida, Xitoy sayyohlarining yozuvlarida uchratamiz. Jumladan qadimgi

Farg'ona va Xorazm aholisi to'g'risida eramizdan avvalgi II asrda bu yerga kelgan Xitoy elchisi va sayyohi Chjan Szyanning ma'lumotlari diqqatga sazovordir.

Arab hukmronligi o'rnatilgandan keyingi davrlarda o'rta asr (IX-XII asrlar) mualliflaridan mashhur geograf va sayyohlar ibn Xurdodbek al-Balxiy⁶⁹, al-Istaxriy⁷⁰, ibn Havqal⁷¹, Mas'udiy⁷², Yoqut⁷³lar o'z sayohatnomalarida zamondosh elatlar to'g'risida nisbatan boy ma'lumotlar yozib qoldirganlar. Masalan, Xurosonda yashagan atoqli geograf olim Abu Zayd Balxiy⁷⁴ 60ga yaqin asar yozgan. Uning asarlaridagi xaritalardan biri Buxorodagi somoniylar kutubxonasida saqlangan. Muallif mahalliy elatlar to'g'risida ma'lumotlar beradi. Eronlik geograf va sayyoh al-Istaxriy Balxiy bilan Samarqandda uchrashib, uning asarlarini o'rganib yangi ma'lumotlar bilan to'ldirgan. Iroqlik sayyoh ibn Havqal esa O'rta dengiz mamlakatlariga doir ma'lumotlarni kiritgan. Shunday qilib, Balxiy, Istaxriy, ibn Havqal asarlarida sharqdagi dastlabki ilmiy ma'lumotlar to'plangan va ularga ilova qilingan, dunyo va ayrim viloyatlar hamda elatlar ko'rsatilgan xaritalar yuzaga kelgan. Ammo ma'lum bo'lishicha, mazkur xaritalarning ba'zilar ilgari O'rta Osiyolik Muso al-Xorazmiy, Jayhoniy va boshqalar qo'li bilan chizilgan. X asrda Balxiy va

⁶⁹ Ibn Xurdodbek al-Balxiy – (820 – 913) – geograf va tarixchi. Eronda tug'ilgan, Bag'dodda ma'lumot olgan. Uning bizgacha arabcha ilk geografik bayoniy uslubdagi «Kitob al-masolik va-l-mamolik» («Yo'llar va mamlakatlar haqida kitob») asari yetib kelgan.

⁷⁰ Al-Istaxriy – (X asr), eronlik geograf olim, «Kitob masolik al-mamolik» («Mamlakatlarning yo'llari haqida kitob») nomli asari yetib kelgan.

⁷¹ Ibn Havqal – (X asr), Bag'dodda yashab ijod qilgan arab geograf olimi. Uning «Kitob surat ul-arz» nomli kitobi bizgacha yetib kelgan.

⁷² Mas'udiy – (IX asr oxiri – 956/7) – arab tarixchisi va sayyohi. Mas'udiyning asarlari Arab xalifaligi, X asrdagi Sharqiy Yevropa xalqlari, Kavkaz va O'rta Osiyo tarixi bo'yicha muhim manbadir.

⁷³ Yoqut Hamaviy – (1179 – 1229), mashhur sayyoh, geograf, adib va tarixchi. Uning «Mu'jam ul-buldon» («Mamlakatlar lug'ati»), «Mu'jam ul-udabo» («Adiblar lug'ati») asarlari bizgacha yetib kelgan.

⁷⁴ Abu Zayd Balxiy – (849/50 – 934), Arab xalifaligining siyosiy-ma'muriy bo'linishi yo'nalishida birinchi bo'lib asar yozgan geograf olimlardan. Uning «Iqlimlar surati» asari bizgacha yetib kelmagan.

uning muxlislari butun sharq xaritografiyasining samaralarini jam qilib, yaxlit bir asar shakliga solishgan. Ularning asarlarida yer yuzi 20 ta «iqlim»ga bo'lingan. Shartli ravishda (23) «iqlim» deb atalgan viloyatlar sharqdan g'arbga qarab ta'riflangan, har biridagi shaharlar, yo'llar, yetishtiriladigan mevalar, mahsulotlar hamda boshqa etnik ajoyibotlar ta'rifi berilgan. Atoqli olim Yoqub o'zining geografik lug'atida Balxiy ta'rifiga asoslanib Toshkent to'g'risida bunday deb yozadi: «Shosh yoz faslida bamisoli jannat. Kishini issiq ta'siridan qalqondek saqlaydi». Buxoroni esa Balxiy bunday tasvirlaydi: «Qo'rg'ondan tashqarisi sermanzaralikda Buxorodan chiroyliroq shaharni ko'rmadim... osmon gumbazi bilan ko'klamzorlar oralig'ida ko'ringan qasrlar osmondagi yulduzlarga o'xshaydi, ekinzorlar sathi tep-tekis. Buxoroliklarning ekinzorlari bepoyon va unga teng keladigan joy Xurosonda ham, Movarounnahrda ham topilmaydi».

O'rta Osiyoning buyuk mutafakkirlari - ajoyib ensiklopedist olim Muhammad al-Xorazmiy, faylasuf va musiqashunos Abu Nasr Forobiy, ulug' ensiklopedist olim Abu Rayhon Beruniy va buyuk tabib Abu Ali ibn Sino, geograf va tarixchi al-Farg'oniy, Abu Sa'd Abdul Karim, ibn Muhammad Sa'moniy kabilarning asarlarida o'zbeklar va boshqa O'rta Osiyolik xalqlarning bevosita ajdodlari, ularning maishiy turmushi va madaniyatining ayrim tomonlari ta'riflangan. Shu ma'noda tarixiy va etnografik jihatdan nihoyatda muhim manbalardan biri «Dada-Ko'rkut» qissasi ham diqqatga sazovordir.(27) Turkiy xalqlar, shu jumladan o'zbeklar etnografiyasi va etnik tarixini o'rganishda o'rta asrlar mualliflaridan Mahmud Qoshg'ariy⁷⁵ning «Devonu lug'atit-turk» nomli asari alohida o'rinni egallaydi. Bu asarda ayrim shahar va qishloqlar aholisining lingvistik va etnik tarkibi, ijtimoiy tuzumiga oid qisqacha ta'rifi, etnotoponimikasi

⁷⁵ Qoshg'ariy – XI asrda yashab o'tgan tilshunos va tarixchi olim. Uning eng mashhur «Devonu lug'at at-turk» («Turkiy so'zlar lug'ati») asarida turkiy zamon xalqlarning tillari va etnik tarkibi haqida muhim ma'lumotlar berilgan.

va ayrim qabila hamda urug'larning joylanishi to'g'risida noyob ma'lumotlar keltirilgan. Eng muhimi kitobda o'zbeklarning qadimiy ajdodlaridan chigil, yag'mo, qarluq, qipchoq, tuxsi va boshqa qabilalarning ijtimoiy va oilaviy turmushi, turli urf-odat va marosimlari, diniy e'tiqodlari va tasavvurlari kabi ayrim etnografik xususiyatlarni aniqlashga yordam beradigan izohlar mavjud. Mahmud Qoshg'ariy Jayxundan to quyi Chin (Xitoy) gacha bo'lgan qabilalarning hammasini chigil, deb atashning xato ekanligini, bu yerda juda ko'p qabilalar borligini alohida ko'rsatib bergan.

Mahalliy aholining ijtimoiy-siyosiy hayoti, etnotoponimiyasi, diniy e'tiqodlari va etnik qiyofasi, ayrim etnoslar (elat va qabilalar) ga oid etnografik materiallar noyob, ajoyib asar Narshaxiy⁷⁶ning «Buxoro tarixi»ga ham mansub. Ma'lumki, O'rta asrlarda Chingizxon va uning merosxo'rlari nihoyatda keng hududga tarqalgan imperiyani yaratgan edilar. Bunday qudratli davlatning qisqa muddat ichida paydo bo'lishi va uning (28) kuch-quvvati nimada ekanligini bilish Yevropa mustabidlari va Rim papasi uchun bir muammo bo'lib qoldi. Shuning uchun ular mazkur davlat bilan siyosiy, savdo va diplomatik munosabatlarni o'rnatishga intilib o'z elchilarini yuboradilar. Dastlab faol harakat qilgan Rim papasi Innokentiy IV 1245 yili Mo'g'ulistonga monax Plano Karpini⁷⁷ boshchiligida elchilarni jo'natadi. Undan keyin shu yo'l bilan flamandlik monax Villem Rubruk⁷⁸ sayohat qilgan va o'z taassurotlarini yozib qoldirgan. Mashhur

⁷⁶ Narshaxiy – (899-959), buxorolik tarixchi olim. Uning mashhur asari «Tarixi Buxoro»-dir.

⁷⁷ Plano Karpini – (1182-1252), italiyalik sayyoh va rohib. Mo'g'ullarning G'arbga qilgan istilosidan so'ng Rim papasi Innokentiy IV tomonidan josuslik maqsadida yuborilgan elchilarga bosh bo'lgan (1245–47). Liondan safarga chiqib, janubiy Rossiya, Xorazm, Yettisuv, Tarbag'atoy orqali xoqon o'rdasiga – Qoraqurumga kelgan.

⁷⁸ Villem Rubruk – (1215 va 1220 y.lar orasi – 1293), flamand sayyohi, rohib. 1253–55 yillarda fransuz qiroli Lyudovik IX tomonidan Mo'g'ulistonga yuborilgan elchilarga rahbarlik qilgan. R. Fransiyadan Falastinga yo'l olgan, so'ngra Konstantinopol, Qrim, Don dashtlari, O'rta Osiyo, Markaziy Mo'g'ulistondan o'tib, 1254 y. Qoraqurum shahriga yetib borgan.

sayyoh Marko Polo⁷⁹ ham Rim papasi topshirig'i bilan bir necha yil Xitoyga va qo'shni mamlakatlarga borib (u yo'l-yo'lakay O'rta Osiyoda ham bo'lgan) muhim etnografik ahamiyatga ega sayohatnoma yaratgan edi. O'sha davrda yashagan mahalliy mualliflardan tarixchi Rashididdin⁸⁰ (1247–1318) o'zining ajoyib solnomasida o'zbeklar tarkibiga kirgan ayrim turk va mo'g'ul qabilalari to'g'risida muhim tarixiy-etnografik ma'lumotlarni bizga yetkazgan. Uning O'rta Osiyo, Eron va qo'shni mamlakatlar tarixi va etnografiyasi haqidagi «Jome ut-tavorix» nomli kitobi juda qimmatli manba bo'lganligi tufayli ko'p olimlar uni sharhlagan, tahrir qilib qisqartirgan. Shunday olimlardan biri Ohangaron bo'yidagi Banokat shahridan chiqqan tarixchi va geograf Faxriddin Abu Sulaymon Banokatiy tomonidan asar qayta yozilib tarqalgan.

Iso Jabborov. O'zbek xaqi etnografiyasi. T.: O'qituvchi, 1994.

O'ZBEKLAR

(5) Shuni alohida qayd qilish lozimki, O'rta Osiyo va Qozog'iston xalqlari uzoq va murakkab, mashaqqatli tarixiy jarayonning mahsuli bo'libgina qolmay, ular ma'naviy madaniyat va hissiyot tuyg'ulari bilan ham nihoyatda chirmashib ketgan muayyan mintaqada shakllangan o'ziga xos etnoslardir. Bu xalqlarning etnik xususiyatlari va umumiy belgilarini aniqlash uchun dastavval tarixning ayrim sahifalarini varaqlash

⁷⁹ Marko Polo – (1254 – 1324), italiyalik sayyoh. M. P. 1271-75 yillarda venesiyalik savdogarlar bilan birga kemada Kichik Osiyo ya.o.ning jan.-Sharqiy sohillariga, u yerdan Bag'dod, Basra, Tabriz va Kermonga kelgan, so'ngra Balx, Qashqar, Xotan, Kampichu (Ganchjou) shaharlari va Gobi cho'lini kesib o'tib, Qoraqurumga Xubilayxon saroyiga yetib borgan. U Xitoyda 17 yil yashagan.

⁸⁰ Rashididdin – (1247–1318), Eron tarixchisi va davlat arbobi. Hulokuiylardan Abaqaxon davri (1265-82)da saroy xizmatida bo'lgan. Uning «Jome at-tavorix» asari Hulokuiylar davlati tarkibidagi mamakatlarning siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy tarixi, etnografiyasi, tili bo'yicha muhim manbadir.

zarur. Tarixiy ma'lumotlarga qaraganda, uzoq o'tmishda, 3- 4 ming yillar muqaddam O'rta Osiyoning saxovatli tuprog'idan g'arbdan sharqqa tomon qadimiy hind-yevropa tillarida gapiradigan turli qabilalar Oltoy va Mo'g'uliston tomon ko'chib o'tgan. Miloddan avvalgi I ming yillikning oxiridan boshlab Sharqdan G'arbgga tomon Buyuk dasht orqali katta ko'chish jarayoni ro'y beradi. Dastlab turkiy tilda gapiradigan qadimiy-qabilaviy birliklar o'tgan I ming yillikning o'rtalarigacha ko'chib o'tgan va ular etnik jihatdan sezilarli iz qoldirgan. Turkiy elatlarning besh-olti asr davom etgan ko'chishida ayrim mo'g'ul qabilalarining ko'chib o'tishi (migrasiyasi) ham ro'y bergan. O'sha vaqtlarning o'zida O'rta Osiyoda ilgaridan mo'g'ul qabilalarining mavjudligi diqqatga sazovordir. VII-VIII asrga kelib O'rta Osiyoni bosib olgan arablar etnik jarayonga ta'sir qilmasa-da, islom dini hukmronligini o'rnatgan.

Shuni ham qayd qilish lozimki, O'rta Osiyo va Qozog'istonga uzoq o'tmishda kelgan skif-sarmat va saklar, turklar, arablar va mo'g'ullar ilgaridan o'zlashtirilgan yerlar va qadimiy madaniyat yaratgan elatlar o'lkasiga kelib, mahalliy etnoslar bilan aralashib ketganlar. Shunisi qiziqki, qadimiy tub elatlarni yunonlar skiflar, saklar deb tilga oladilar, ba'zilar massagetlar deb nomlaydilar. Ularning G'arbiy Yevropa bilan, ya'ni hind-yevropaliklar bilan bog'liq, ekanliklarini isbotlash uchun hozirgi Bolgariya va Ruminiyada yashovchi qadimiy keltlarga o'xshashligini ko'rsatadilar. Ayrim tarixchi mutaxassislarning fikricha, haqiqatan ham saklarning qavmu qarindoshlari Bolqonda va Shimoliy Qora dengizning bepoyon dashtlarida yashagan qadimiy praskiflar shajarasi bilan bog'liq. Ma'lumki, antik zamonda Eron podsholarining katta qo'shinlari mazkur dashtlarda yashovchi ko'chmanchi qabilalarning zarbasiga uchrab ko'p qirilgan.

Uzoq vaqt davomida O'rta Osiyoga ko'chib kelgan elatlar sak-massaget (6) zaminida o'ziga xos jimjimador madaniy bel-

gilarni qoldirgan. Bu yerda I ming yillikning o'rtalarida ketma-ket ko'chib kela boshlagan skiflar, xionitlar, oq xunlar, eftalitlar, pachanaklar va boshqa turk elatlarining ko'plab ko'chib kelishi mahalliy xalqlarni turkiylashtirib yuborgan. Ammo aborigen (tub) aholi orasida ham apasiak, augasiylar deb nomlangan qadimiy turk elati ham bo'lgan. Bu elat rus solnomalarida ko'p tilga olingan pechenek (pachanak) lar degan fikr mavjud. Ayrim tadqiqotchilar taxminicha, augasiylarni keyinchalik «o'g'uz» nomi bilan mashhur bo'lgan turk elati desa bo'ladi.

X asrda Janubiy Sibir tomonidan O'rta Osiyoga til jihatdan pachanak va o'g'uzlarga yaqin qipchoqlar bostirib kirib, talon-taroj qilgan. Pachanaklarning bir qismi shimoli-g'arbiy tomonga, o'g'uzlarning ancha qismi janubi-g'arbiy tomonga ketishga majbur bo'lganlar. Oqibatda hozirgi Turkmanistonga tarqalgan o'g'uzlar turkman xalqi bilan, ikkinchi qismi Ozarbayjonni bosib olib, ozorlar bilan qo'shib ketgan, yana bir guruh o'g'uzlar G'arb va Janubga, ya'ni Turkiya va Eron tomon o'tib, mahalliy elatlar bilan aralashib ketgan.

Qadimiy ona yurti So'g'd va Xorazm tuprog'ida yashab kelgan har xil elat va qabilalar bilan aralashib ketgan o'zbek xalqi ham O'rta Osiyoning boshqa elatlari bilan tub qon-qarindosh. Ayniqsa, o'zbeklar bilan qozoqlarning deyarli barcha turkiy ajdodlari umumiy, ammo har bir xalqning qonida boshqa elat qoni mavjud. Masalan, antropologlarning ta'rificha, qozoqlarning irqiy tuzilishida mo'g'ul istilosidan yetti asr muqaddam mongoloid belgilari paydo bo'lgan, ya'ni mo'g'ullik ta'siri ilgariroq boshlangan, shuning uchun ham ularda mongoloid belgilari ko'proq. Tarixda birinchi qozoq davlati Chu daryosi vohasida paydo bo'lganda, uning o'zbek-qozoq davlati deb aytilishi diqqatga sazovordir.

Qirg'izlarning ham asli qadimiy saklar egallagan Tyanshan tog' bag'ri va etagidagi yevropoid aholi bilan aralashib, o'z ona turkiy tillarini bu yerga ko'chib kelishdan oldin shakllantiril-

ganligini tadqiqotchilar qayd qiladilar. Antropologik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, miloddan avvalgi I ming yilliklarda hozirgi qirg'izlarning qadimgi ajdodlari yevropoid irqida bo'lib, keyinchalik kelgindi mongoloid qabilalar ta'sirida o'zgargan.

Umumiy etnik ildizi bir bo'lgan tojik xalqi baland tog'lar tufayli g'arbiy, shimoliy va sharqiy qo'shnilardan, til va irq jihatdan turkiylashmagan va yevropoid belgilarni saqlab qolgan. Ammo kelgindi ko'chmanchilar tabiiy-geografik sharoit noqulay (7) bo'lganligi tufayli uncha uzoq turmaganlar. Shu sababdan tojiklar g'arbiy eroniy tillarga kirgan, o'z ona tillarini saqlab, irqiy jihatdan ham ancha sof yevropoidligicha qolgan.

Demak, butun O'rta Osiyo va Qozog'iston muayyan tarixiy-etnografik mintaqani tashkil qilgan. Ularning qadimiy ajdodlari bir, etnik zamini umumiy. Buning asosini nafaqat umumiy tabiiy-geografik sharoit, hatto an'anaviy xo'jalik-madaniy tiplari, kiyim-kechagi, moddiy va ma'naviy madaniyati, hatto dinlarining birligi va hokazo hozirgacha saqlanib qolgan juda ko'p umumiy unsurlar tashkil qiladi.

Jabborov Iso. O'zbeklar. T.: Sharq, 2008.

O'ZBEK URUG'LARI

1.Aramut. 2.Argu. 3.Arlat. 4.Arsan. 5.Afshar. 6.Az. 7.Adiz. 8.Barsgan. 9. Barlas. 10.Bulak. 11.Bulgar. 12.Basmil. 13.Bilkut. 14.Bashgirt. 15.Bayirku. 16.Barchakar. 17.Bukarak. 18.Baz. 19.Gala-xaya. 20.Ebgich. 21.Emuk. 22.Juz (yuz). 23.Jankara. 24.Jaloir. 25.Jumil. 26.Ishkil. 27.Izgil. 28.Kenagas. 29.Kalach (Xalach). 30.Kay. 31.Qarluq. 32.Qirgiz. 33.Kurikan. 34.Qiyat. 35.Qo'ng'irot. 36.Kornavuz. 37.Kaltatay. 38.Qauchin. 39.Qipchak. 40.Kanjak. 41.Kitani. 42.Kadirkan. 43.Kanchu. 44.Qalmik. 45.Qatagan. 46.Qarategini. 47.Musabzari. 48.Makarach. 49.Malandi. 50.Ming. 51. Idikut. 52.Nartuda.

53.Nugay. 54.Nanay. 55.Akar. 56.Alchin. 57.Patas. 58.Salgur.
59.Sugd. 60.Sulduz (Suldus). 61.Selkup. 62.Tuxsi. 63.Tulish.
64.Turkman (Kokturk). 65.Turchish. 66.Turk. 67.Tardush.
68.Tulis. 69.Turgash. 70.Tabgach. 71.Tarman. 72.Tagchi.
73.Tatar. 74.Tarxan. 75.Tulkichi. 76.Tatabi. 77.Uchrug.
78.Ugrak. 79.Uk. 80.Utukan. 81.Xotan. 82.Uygur. 83.Xungar.
84.Chigil. 85.Chamil. 86.Chik. 87.Chig'atay. 88.Chuvash.
89.Chivaldir. 90.Shaturchi. 91.Shurt. 92.Yag'ma.

O'G'UZ URUG'LARI

1.Bayat. 2.Bayundur. 3.Yiva. 4.Yazgir. 5.Yuragir. 6.Kaik.
7.Karnak. 8.Tutirka. 9. Tugar. 10.Ula. 11.Urachir. 12.Juji.

Материалы этнической истории тюркских народов Центральной Азии. Т.: Фан, 2003, С.203.

TO‘RTINCHI BO‘LIM

O‘ZBEK DAVLATCHILIGINING SHAKLLANISHI VA DASTLABKI TARAQQIYOT BOSQICHLARI

O‘rta Osiyo hududida ilk davlatchilikning shakllanish jarayoni uch bosqichga bo‘linadi. Birinchi bosqich: m.avv. II mingginchi yillar o‘rtalaridan mil. avv. I mingginchi yil boshlarigacha – urug‘ oqsoqollari kengashi, harbiy demokratiya ko‘rinishidagi boshqaruv; ikkinchi bosqich: mil.avv. X – VIII asrlar – yirik qabilaviy va hududiy birlashmalarning vujudga kelishi; uchinchi bosqich: mil.avv. VII – VI asrlar – Qadimgi Xorazm va Qadimgi Baqtriya davlatlarining vujudga kelishi. Abu Rayhon Beruniy aytganlaridek, o‘tmish tarixga oid (xabar va rivoyatlar) haqiqatni bilib bo‘lmaydigan darajada yashirin qolgan. Ya‘ni O‘rta Osiyodagi ilk davlatlar tarixi haqidagi mahalliy manbalar turli davrdagi chet el bosqinchilari tomonidan yo‘q qilingan. Shunday bo‘lsa ham arxeologik manbalar va Qadimgi Sharq xalqlari, Eron yozuvlari, «Avesto» kitobi, Yunon – Rim tarixchilari asarlaridagi ba‘zi ma‘lumotlar asosida qadimgi tarixni tiklash mumkin. Quyida asosan ana o‘sha yozma manbalardan parchalar keltirildi.

Xorazm davlati tarixini biz 2700 yillik tarix deb bilamiz. Lekin Rossiyaning xoh o‘tmishdagi, xoh bugungi ko‘zga ko‘ringan biror bir tarixchisidan so‘rab ko‘ringchi, shuni tan olarmikin? Tan olmaydi, bilmaydi, bilishni xohlamaydi ham. O‘jarlikning sababi bitta: basharti tan olgudek bo‘lishsa, tarixiy xulosalari chippakka chiqadi, ilmda soxta yo‘l bilan borganlari fosh bo‘ladi. Eng mo‘tabar, qadimgi qo‘lyozmamiz «Avesto»ning yaratilganiga 3000 yil bo‘lyapti. Bu nodir kitob bundan XXX asr

muqaddam ikki daryo oralig'ida, mana shu zaminda umrguzaronlik qilgan ajdodlarimizning biz avlodlarga qoldirgan ma'naviy, tarixiy merosidir. «Avesto» ayni zamonda bu qadim o'lkada buyuk davlat, buyuk ma'naviyat, buyuk madaniyat bo'lganidan guvohlik beruvchi tarixiy hujjatdirki, uni hech kim inkor etolmaydi. (432)

Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q // Ma'naviy yuksalish yo'lida, T.: O'zbekiston, 1998.

ZEND AVESTO 1-FARGARD

Men, Ahuramazda pok yaratgan birinchi baxtiyor va farovon maskan Yeriene-Vaedjo edi. Dunyodagi hech narsa ko'rkamlikda unga tenglasha olmas edi. Shunda, o'lim keltiruvchi Axriman, bu maskanni qondiradigan daryoda Devdan tarqagan buyuk ilon-qishni yaratdi. Oqibatda bu yerda qish oylari o'ntaga, yoz oylari ikkitaga aylandi. Qish – suv, yer va daraxtlarga sovuqni sochadi. Yeriene-Vaedjo markazida u, ayniqsa shafqatsizdir, biroq bu balo odamning foydasiga aylandi, qish kelishi bilan yer in'omlarining hosili juda ko'paydi.

Men, Ahuramazda yaratgan ikkinchi – o'ktam, chorva va odamlari serob o'lka Sogdo (So'g'd)edi. Bu yerda yovuz Axriman podaga o'lim keltiruvchi pashshani yaratdi. Men, Ahuramazda istiqomat uchun vujudga keltirgan uchinchi farovonlik maskani qudratli va muqaddas Muru bo'ldi. Keyin, palidlik koni Axriman keldi va palid gaplar yaratdi u yerda. Men, Ahuramazda yashash uchun yaratgan to'rtinchi buyuk ramzlar maskani pokiza Bagda bo'ldi. O'lim keltiruvchi Axriman paydo bo'lib, chumoli galasini mavjud qildi.

Men, Ahuramazda Yaratgan beshinchi farovonlik dargohi Muru va Bagdi orasidagi Nisoim bo'ldi. O'lim va yovuzlik koni Axriman keldi va battol shubhalarni tug'dirdi. Men, Ahuramaz-

da yaratgan baxtiyor oltinchi o'lka, aholisining ko'pligi bilan mashxur Xaroyu bo'ldi. O'lim tug'diruvchi Axriman keldi va tamomiy qashshoqlik kiritdi.

Ettinchisi – Vekeretem, sakkizinchisi – Oruan, to'qqizinchisi – Verkana, o'ninchisi – pokiza Xarakanti, o'n birinchisi – Xetumat, o'n ikkinchisi – Ragan, o'n uchinchisi - Chekre, o'n to'rtinchi baxtiyor o'lka, Zoxak ustidan g'alaba qozongan Faridunni dunyoga keltirgan to'rtburchak Verene edi; ammo o'lim koni Axriman keldi va bularning barida xotinlarda hayz ko'rishni mavjud qildi.

O'n beshinchi baxtiyor o'lka, yetti Hindiston ustidan hukmronlik qiladigan Xapta Hendu, o'n oltinchisi hukmdori bo'lman Rengay bo'ldi.

Qadimgi tarixchilar O'rta Osiyo haqida. T.:Yurist-Media markazi, 2008. B. 51-53.

KTESIY⁸¹

«Nin baqtriyaliklarga qarshi yurishni boshlagan. U Baqtriyaning qal'alari, aholisining ko'pligi va jasurligi haqida xabardor bo'lib, o'ziga bo'ysundirgan xalqlardan ko'p sonli qo'shinlarni yig'ib olgan. Shu qo'shinlarga sardor bo'lib Nin Baqtriya yurtiga bostirib kirgan, ammo viloyatdagi xilma-xil tog' daralari va yo'llar uni qo'shinlarini bir necha qismlarga bo'lishga majbur qilgan».

Baqtriyadagi ko'pdan-ko'p yirik shaharlar orasida bir mashhur Baqtra nomli shahar bo'lgan. Bu shahar mamlakatning markazi bo'lib, ko'p shaharlar o'rtasida, baland va mustahkam mudofaa devorlari bilan o'ralgan, unda podsho qal'asi alohida joylashgan.

Ktesiy. Persika (Sagdullaev A. Qadimgi O'zbekiston ilk yozma manbalarda.T.: O'qituvchi,1996.)

⁸¹ Ktesiy – (mil.avv. V asr oxiri–IV asrning 1-yarmi), yunon tarixchisi. U «Eron», «Hindiston», «Daryolar haqida», «Tog'lar haqida», «Osiyo atrofidagi dengiz sayohati» nomli asarlar muallifi.

DORO I NING BEHUSTUN YOZUVLARI

«Men-Doro, ulug' podsho, shahanshoh, mamlakatlar podshosi, Vishtasp o'g'li, Arshan nevarasi, Ahamoniy».

Shoh Doro ayturki: «Ahuramazda irodasi bilan quyidagi davlatlarni qo'limga kiritib, ularning podshosi bo'ldim: Fors, Elam, Bobil, Ossuriya, Arabiston, Misr, Lidiya, Moniya, Midiya, Armaniston, Kappadokiya, Parfiya, Darang'iyona, Aryo, Xorazm, Baqtriya, So'g'diyona, Gandxara, Saka, Sattagadiya, Araxoziya, Maka: hammasi bo'lib 23 davlat». ...Men Bobilda bo'lganimda, quyidagi davlatlar men (31)dan ajralib chiqib ketganlar: Fors, Elam, Midiya, Ossuriya, Misr, Parfiya, Marg'iyona, Sattagadiya, Saka.

...Shoh Doro ayturki: «Marg'iyona nomli davlat mendan ajralib chiqib ketdi. Marg'iyonalik Frada ismli bir odam o'zini viloyatning hokimi deb e'lon qildi. Keyin men, Baqtriya satrapi, bo'ysunuvchi odamim Dadarshishni chaqirib, unga gapirdim: «Menga bo'ysunmaganlarni tor-mor qilish kerak». Dadarshish qo'shinlari bilan o'tlanib, marg'iyonaliklar bilan jang qildi. Ahuramazda menga yordam ko'rsatdi. Ahuramazda irodasi bilan mening qo'shinlarim qo'zg'olonchilarni butunlay mag'lubiyatga uchratdi. Bu jang asiyadiy o'ying 23-kunida sodir bo'ldi. Shundan so'ng davlat mening qo'limga kirdi. Mana men Baqtriyada nimalarni qildim». ...Podsho Doro xabar qiladi: «Bundan so'ng men saklarga qarshi sak yurtiga bostirib bordim, ularning o'zlari cho'qqi qalpoq kiyib yuradilar. Men daryoga yetib keldim, daryoda kemalardan ko'prik qilib, saklarni tor-mor qildim. Ularning sardori Skunha ismli odamni tutib, mening huzurimga keltirdilar. Men o'z xohishim bilan saklar yurtiga yangi boshliq tayin qildim. Shundan so'ng mamlakat mening qo'l ostimga o'tdi».

Sagdullaev A. Qadimgi O'zbekiston ilk yozma manbalarda. T.: O'qituvchi, 1996. B.30-32.

GERODOT «TARIX»

III kitob, 92. «Baqtriyaliklardan egllargacha bo'lgan xalqlar 300 talant soliq to'laganlar. Bu – o'n ikkinchi o'lka». (III. 93.) «Saklar va kaspiylar 200 talant to'laganlar. Bu – o'n beshinchi o'lka. Parfiyaliklar, xorazmliklar, so'g'dlar va ariylar 300 talant to'laganlar. Bu – o'n oltinchi o'lka». Bir talant 33,655 kg. Kumushdir.

VII,66. «Parfiyaliklar, xorazmliklar, so'g'dlar, gandariylar va dadiklar baqtriyaliklarning quollariga o'xshagan yarog'-aslalari bilan harbiy yurishni boshlaganlar. Ularning yo'l boshchilari: parfiyaliklar va (36) xorazmliklarniki – Farnak o'g'li Artaboz; so'g'dlarniki - Artey o'g'li Azan bo'lgan».

VII,88. «Baqtriya chavandozlarining quollari piyoda askarlari quollariga o'xshagan».

I,201. «Shu xalqlarga ega bo'lgandan so'ng, Kir massagetlarni istilo qilish maqsadini o'z oldiga qo'ygan. Bu massagetlar jasur va behisob qabiladir. Ular sharqda, quyosh chiqishi yo'nalishida, Araks daryosining narigi yog'ida issedonlarga ro'para bo'lib joylashganlar. Ba'zilar ularni skif qabilasi, deb hisoblaganlar».

IX,113. «U o'g'illari bilan maslahatlashib, ular va o'zining tarafdorlari bilan birga Baqtraga yo'l oladi. Podshoni taxtdan ag'darish uchun u Baqtriya viloyatida qo'zg'olon ko'tarmoqchi bo'lgan. Agar u baqtriyaliklar va saklar oldiga o'z vaqtida yetib borganda, o'z oldiga qo'ygan maqsadni aniq bajarishi mumkin edi. Haqiqatdan ham bu xalqlar Masistni hurmat qilardi, u Baqtriya satrapi bo'lgan. Ammo Kserks Masistning niyatidan xabardor bo'lib, uning ketidan harbiylarni yuboradi, yo'lda quvib tutilgan Masist o'g'illari va tarafdorlari bilan birgalikda o'ldiriladi».

Sagdullaev A. Qadimgi O'zbekiston ilk yozma manbalarda. T.: O'qituvchi, 1996.

STRABON. «GEOGRAFIYA».

XI, 4. «Aytishlaricha, Iskandar Baqtriya va So'g'diyonada 8 ta shaharga asos solgan va ko'plarini vayron qilgan. Vayron qilganlari jumlasidan Baqtriyadagi Kariata (bu yerda Kallisfen qo'lga tushib qamoqqa olingan), So'g'diyonadagi Maroqanda va Kira – Yaksart daryosidagi Kir tomonidan qurilgan oxirgi shahar; bu fors davlatining chekkasi bo'lgan. Iskandar Kirni hurmat-izzat qilgan bo'lsa ham, bu shahar aholisining ko'pdan-ko'p qo'zg'olonlari sabablariga ko'ra, uni vayron qilishga buyruq bergan... »

XI, 5. «So'g'diyona ichidan oqayotgan daryoni, Aristovulning aytishicha, makedonlar Politimet deb atashgan (xuddi shunday ular boshqa ko'p nomlarni almashtirganlar va qisman o'zgartirganlar). Ariylar yeridan oqayotgan Ariy daryosiga o'xshab bu daryo davlat yerlarini sug'orib dasht va sahro viloyatiga intiladi va qumlar ichida yo'qolib ketadi».

Sagdullaev A. Qadimgi O'zbekiston ilk yozma manbalarda. T.: O'qituvchi, 1996.

* * *

XI. 8, 5 Kir saklar bilan jangda yengilib qochdi.

...O'z mo'ljalidaga masofagacha borib to'xtadi. Bu orada saklar kimsasiz qarorgohga bostirib kirdilar-da, forslardan qolgan mo'l-ko'l yemak-ichmakka o'zlarini urdilar. Kir qaytib keldi-da, me'yoridan ortiq yeb-ichganidan bo'kib, mast-alast, es-hushidan ayrilgan saklarni qira boshladi. Ba'zilar uxlab yotgan joylaridi, ba'zilar raqs tushayotgan joylarida, xullas birorta qurol-yarog'i bo'lmagan holda saklarning bu bo'linmasi deyarli bitta qolmay qirib tashlandi. Kir o'zining g'alabasini xudolarning inoyati, deb qabul qilib, shu kunni ajdodlarining xudolariga bag'ishladi va «Sakei» deb atadi.

X I. 11, 5. So'g'diyonadan oqib o'tadigan daryoni Aristobul Politemet deb ataydi. Aslida, bu yerdagi barcha narsalarga yangitdan ot to'qib chiqarganlaridek, bu nomni-da makedonlar

qo‘yganlar. Daryo yurtni sug‘orib o‘tib, cho‘l va sahroga kiradi-da, ariylar yurtidagi Ariy daryosiga o‘xshab qumga singib ketadi. Aytishlaricha, Ox daryosining bo‘ylarida yerkovlar yog‘li bu- loqlar topgan. Modomiki, bu o‘lkada ishqorli, asfaltli, yelimli, oltin gugurtli suvlar bor ekan, tabiiyki, yog‘ligi ham bo‘lishi kerak. Biroq bu narsaning kamdan-kamligi unga g‘aroyiblik tusini beradi. Birovlarning aytishicha, Ox daryosi Baqtriyona ichidan, yana boshqa birovlarning gapiga ko‘ra uning yonidan oqib o‘tadi. Yana shunday gaplardan biri: Ox dengizgacha janubroqdan, Oksga qo‘shilmay alohida bir o‘zi oqadi, keyin- chalik Oksga qo‘shilib, Girkan dengiziga quyiladi, deyishadi. Oksning kengligi aksariyat joylarda 6-7 stadiy kelarkan. Yaksart esa boshlanishidan to oxirigacha Oksga aloqasi bo‘lmagan alohida daryo bo‘lib, faqat quyilish uchun ikkovi bir dengizga boradi. Patrokol aytishicha, ikkovining quyilishlari orasidagi masofa sakson farsang kelarkan. Forslarning bir farsangi esa birovlarning aytishicha oltmish, ikkinchilarining aytishicha, o‘ttiz-qirq stadiyga teng ekan.

...Evdoks va boshqa mualliflarning Girkanিয়া g‘aroyibotlar haqida yozganlariga quyidagilarni misol etish mumkin. Dengiz bo‘yida tog‘lar bir necha qator devor bo‘lib uzanadi. Ularning bir nechadan g‘ori bor. Devorlar bilan dengiz o‘rtasida sohil bo‘yi tekisligi yotadi. Shiddat bilan kelgan daryo devordan oshib, sohilga tushmay to‘g‘ri dengizga yetib boradi. Pastdagi sohilda, tepadagi suv yopinchig‘i ostidan bemalol qo‘shin o‘tib yurishi mumkin. Mahalliy xalqlar ko‘pincha bayram va qurbonlik qilganlarida, bu yerga sayilgoh sifatida yig‘iladilar. Goh g‘orlarda o‘tiradilar, goh qirg‘oqda suv «tomining» ostida o‘yin – kulgi qiladilar, goh cho‘miladilar. Har kim ko‘ngliga kelgan ishni qiladi. Nam serobligidan sohil hamishi ko‘m-ko‘k o‘t va chechaklar bilan qoplangan bo‘ladi...

X I. 8,4. Eng mashhur ko‘chmanchi ellinlardan Baqtriyonani tortib olganlari: aziy, pasian, toxar, sakaravllar edi. Ular Yak-

sartning narigi qirg'og'idan, sak va so'g'dlar yaqinidan kelishgandi. U qirg'oqqa saklar egalik qilishardi...

Skiflar Baqtriyaga egalik qilardilar, Shuningdek, Aramaniya hududlarining eng yaxshi yerlarinida olib, unga Sakasana deb ot qo'ygandilar....

XI, 7,2. Girkaniya keng, yeri hosildor o'lkadir. Aksar qismi shaharlarga boy tekislikdan iborat. Talaoroka, Samariana, Karta va podshoning qo'nalg'asi bo'lmish Tapa shaharlari shular jumlasidandir. Tapa – dengizdan yuqoriroqda, Kaspiy darvozasidan 1400 stadiy narida joylashgan. O'lkaning boyligiga quyidagi misollar dalil bo'la oladi: tokning bir novdasidagi uzum bir metrit sharob, tut daraxtlari oltmish medimngacha hosil beradi. Bug'doy bulturgi boshqdan to'kilgan urug'dan o'sib chiqaveradi. Bol – daraxt barglaridan o'zi oqib tushadi. Biroq, mamlakat yerlari, mamlakat nomidagi dengizdan kerakligicha foydalanishmaydi, dengizda suzishmaydi, uning ne'matlarini iste'mol qilishmaydi... Dengizdagi orollar odam yashashi uchun qulay, aytishlaricha u yerda oltin ham bor. Girkanliklarga qadimdan varvarlar ya'ni, midiyaliklar, forslar, keyinroq esa bulardan ham qo'polroq, parpilar egalik qilgani – yurtdagi qarovsizlikning bosh sababidir. Buning ustiga qo'shni yurtlarda qaroqchilar, ko'chmanchilar ko'p, ba'zi joylar esa, kimsasiz cho'ldir. Qisqa muddat egalik qilgan makedonlarda, doimo urush bilan band bo'lganlaridan boshqaruv ishlariga vaqtlari yetmagan. Aristobulning-da aytishiga qaraganda, o'rmonga boy Girkaniya asosan emanzorlardan iborat. Qarag'ay, oq qarag'ay, qora qarag'aylar yo'q. Keyingi bu uch daraxtga Hindiston boy. Nesaya ham Girkaniya yerida-yu, biroq ba'zilar Nesayani Girkaniyaga qarashli emas, o'zi mustaqil yashaydi, deb aytadilar.

Qadimgi tarixchilar O'rta Osiyo haqida. T.: Yurist-Media markazi, 2008. B. 124-125, 127, 153, 174.

KVINT KURSIY RUF **«BUYUK ALEKSANDR TARIXI»**

VII. 6.17. «Iskander Maroqandaga yetib keladi. Uning mudofaa devorlarining uzunligi 70 stadiy; shahar qo'rg'oni ikkinchi devor bilan o'ralgan».

VII. I. 2. «Tanais ortidagi skif davlatining podshosi makedonlar tomonidan daryo bo'yida asos solingan shaharni qullik bo'yinturug'i bo'lishini sezib, uni vayron qilish va makedonlarni daryo qirg'og'idan uzoq masofaga quvib chiqarish uchun katta bir otliq qo'shin bilan birga o'z akasi Karatazis ismli yo'l boshchini yuboradi. Tanais baqtriylarni yevropalik skiflardan ajratadi»...

4. «Ular Istr daryosining narigi yoridagi boshqa bir viloyatni egallab, Osiyoning chegara yerlarida joylashgan Baqtriyaga ham qo'shni bo'ladilar. Ular joylashgan shimol yerlaridan nariroqda qalin o'rmonzorlar va aholi yo'q jim-jit sayhon yerlar boshlanadi; Tanais va Baqtriya bo'ylab joylashgan yerlar umumiy madaniy izlarga ega»..

X.I. «So'g'diyona – keng hududiy masofadagi dashtli davlatdan iborat, Cho'llarning kengligi 80 stadiyga yaqinlashadi. To'g'ri yo'nalishda – bu yirik davlatdir, mahalliy aholi tomonidan Politimet degan daryo mamlakat bo'ylab shiddatli oqadi. Qirg'oqlar suv yo'li o'zanini toraytirgandan so'ng daryo g'or ichiga oqadi va yerga singib ketadi».

4. «So'g'diyalar asirlaridan podshoga 30 ta kuchli yerlarni olib keladilar, ular podsho buyrug'iga binoan o'lim jazosiga berilishlarini eshitib, mag'rur holatda g'oyat xursand bo'lib kuylaydilar...» Podsho ularning mardligidan ajablanib, ortga qaytarishga buyruq beradi va o'lim oldidan ularning shodlanish sabablarini surishtiradi. Ular aytadilar-ki, agar o'zlariga boshqa birov o'lim jazosini berganda, qayg'ulanib o'lardilar, ammo o'z ajdodlarining yoniga ularni hamma qabilalar ustidan g'olib

chiqqan ulug' podsho yuborganligidan xursand bo'lib, o'z jonajon qo'shiqlarini aytdilar va butun jasurlar orzusi bo'lgan faxrli o'limni bayram qildilar».

Sagdullaev A. Qadimgi O'zbekiston ilk yozma manbalarda. T.: O'qituvchi, 1996.

ARRIYAN⁸² «ISKANDARNING HARBIY YURISHLARI»

III kitob, 27-bob, 9. «Iskandar yaqinlashib kelishi haqida eshitib, Bess Oks daryosidan kechib o'tadi va kemalarni yondirib, Nautaka-so'g'diylar yeriga yo'l oladi». 10. Spitaman va Oksiart bilan birga so'g'diylar chavandozlari hamda Tanais daylari unga ergashadilar. Baqtriya chavandozlari Bessning qochishidan xabar topib, har tomonlarga qarab o'z uylariga yo'l oladilar.

Iskandar Drapsaga yetib keladi, qo'shinlariga dam berib, ularni Baqtriyadagi eng yirik shaharlar – Aorn va Baqtra tomonga yurgizadi. Bu shaharlarni hujum qilib zabt etadi va Aorn qal'asida Androklning o'g'li Arxelay boshchiligidagi qo'riqchi qo'shin qoldiradi. Himoyasiz taslim bo'lgan boshqa baqtiriylarga hokim bo'lib fors Artaboz tayinlanadi».

2. «U o'zi Oks daryosiga qarab yo'l oladi. Oks Kavkaz tog'laridan boshlab oqadi; hind daryolaridan tashqari Iskandar Osiyoda ko'rgan daryolar ichida bu eng yirik daryodir: umuman eng yirik daryolar Hindistonda joylashgan. Oks Girkaniyadagi bir katta dengizga qo'shiladi».

III, 30,6. «Iskandar chavandoz qo'shinlarini mahalliy otlar bilan ta'minlab So'g'diyona poytaxti Maroqandaga yo'l oladi». 7. «Shu joydan Tanais daryosiga qarab yuradi. Tanais ham Kavkaz tog'laridan boshlanadi, Aristovul so'zlariga ko'ra, varvarlar (mahalliy aholi-A.S.) uni Orksant daryosi deydilar; bu daryo ham Girkan dengiziga qo'shiladi.»

⁸² Arriyan – milodiy II asrda yashagan yunon tarixchisi, «Aleksandrning harbiy yurishlari» asari muallifi.

10. «Shu yerda oziq-ovqatlar g'amlashga chiqqan makedonlar mahalliy aholi tomonidan qirib tashlandi, keyin ularning o'zlari tik va chiqib bo'lmaydigan qoyaga qochib bekinadilar. Ular 30 mingga yaqin bo'lgan».11.Makedonlar qoyaga chiqish uchun bir necha marta harakat qiladilar; dastlab ular varvarlar o'qlari ostida ortga chekinadilar; ko'p askarlar yarador bo'ladi; Iskandarning soniga o'q tegib, suyagining bir qismini ushatib qo'yadi. Shunga qaramasdan tog' hujum bilan olinadi. Makedonlar varvarlarning bir qismini joyida qirib tashlaydilar, ularning ko'plari o'zlarini qoyalardan tashlab halok bo'ladilar, shuning uchun ham 30000 dan 8000 kishi tirik qoladi.

IV, 5, 2. «Spitaman⁸³ o'z jangchilari bilan Maroqanda qal'asini qo'riqlayotgan makedonlarga hujum qiladi» ... 3. «Iskandar Maroqandaga yordamchi qo'shin yuborganidan xabar olib, Spitaman qal'a qamalini to'xtatib, So'g'diyonadagi basileya – podsho shahriga otlanadi. Farnux va uning lashkarboshilari Spitamanni davlatdan butunlay chiqarib yuborishga harakat qiladilar va So'g'diyona yerlariga yetib kelib, ko'chmanchi skiflarga hujum qiladilar».

4. «Spitaman yana 600 ta skif otliqlarini o'z qo'shiniga qo'shib oladi va skif ittifoqdoshligidan ko'ngli ko'tarilib, hujum qilayotgan makedonlarga qarshi jang qilishga qaror qildi. Skif dashtlarining tekisligida turib u dushmanning hujumini ham kutmadi, dushmanga hujum ham qilmadi; faqat uning chavandozlari piyoda makedonlarning atrofida ot qo'yib chopib yurdilar va ularga o'q otdilar».

5. «Farnuxning askarlaridan ular osonlik bilan qutildilar, Chunki ularning otlari chaqqonroq bo'lib, o'sha paytda hali charchamagan edi, Andromax qo'shinlaridagi otlar esa olis yo'llarda charchab, yemish kamligidan zaiflashgandi. Skiflar

⁸³ Spitaman – Spitamen, makedoniyalik Iskandarga qarshi mil.avv. 329-328 yillarda kurash olib borgan Sug'd qahramoni.

jang maydonida turgan va chekinayotgan makedonlarga g'ayrat bilan hujum qiladilar».

6. Ko'pdan-ko'p makedonlar yaralandi va halok bo'ldi; xullas askarlar to'rtburchak askarlar bir qator saflanib, Politemet daryosi tomonga chekindilar; bu yerda o'rmon bo'lib, o'rmondagi changalzorda varvarlarning o'qlariga to'siq bo'ladi va piyoda askarlarning harakatlariga ko'proq foyda keltiradi».

7. «Karan Gipparx (otliq qo'shinning yo'l boshchisi) Andromaxga xabar qilmasdan otliqlarni bekintirish uchun daryodan kechib boshlaydi; piyoda qo'shin ham otliqlar ortidan buyruqsiz yo'l oladi; umuman tartibsiz va qo'rquv holatida bo'lgan askarlar daryoga jarlik qirg'oqlaridan tushadilar». 8. «Makedonlarning xatolarini sezib qolgan otliq varvarlar har ikkala qirg'oqdan otlari bilan daryoga tashlanadilar... Ularning ba'zilari daryodan kechib o'tganlar va uzoqlashganlarning ortidan quvadilar, boshqa birlari daryoni kechib o'tayotganlarga ro'para bo'lib, ularni ortga, suvga uloqtiradilar yoki o'q otadilar yoki daryoga kelayotganlar ortidan hujum qiladilar. Og'ir ahvolga uchragan makedonlar daryo o'rtasidagi kichik orolga tashlanadilar. Spitaman askarlari ularni o'rab olib hammasini qirib tashlaydilar; Boshqa bir kichik qismini asirlikka olib hammasini o'ldiradilar».

IV.6.1. «Aristovul⁸⁴ning aytishicha, ko'pdan ko'p askarlar changalzorda yashirinib turgan skiflarning pistirmasiga qamalib halok bo'lgan, ular o'z panagohlaridan jang qizigan paytida makedonlarga hujum qilganlar. Varvarlar hovliqish va tartibsizlik vaziyatidan foydalanib, ularning hammasini qirib tashlaganlar. 40 ta otliq va 300 ta piyodalardan tashqari hech kim qutilib qolmagan».

3. «Shu mag'lubiyat haqida Iskandarga xabar yetib kelganda u askarlarining achchiq taqdirlaridan qayg'uga tushadi va Spitamanga qarshi shiddatli hujum qilishga qaror qiladi. U o'zi

⁸⁴ Aristovul – mil.avv. IV asrda yashagan yunon tarixchisi, makedoniyalik Aleksandring harbiy yurishlarida qatnashgan.

chavandozlar qo'shinining yarmiga, qalqonchilarning hammasiga, o'qchilarga, agrianlarga va tez yurar piyoda askarlarga yo'lboshchi bo'lib, Maroqandaga yo'l oladi, uning bilishicha, Spitaman shaharga qaytib qal'ani Yana qamal qilgan». 4 . «Uch kun davomida Iskandar 1500 stadiy masofadan o'tib, to'rtinchi kunning tongida shaharga yetib keladi. Spitaman Iskandar shaharga yaqinlashib kelishi haqida eshitib, uni kutmasdan qochib ketadi. 5. Iskandar uning izidan quvadi. Jang maydoniga yetib, u halok bo'lgan askarlarini dafn qiladi va chekinganlar ortidan sahrogacha quvib(61) boradi. Shu yerdan ortga qaytish yo'lida u davlatni xarob qiladi va unga xabar berishlaricha, makedonlarga hujum qilishda ishtirok etib, so'ng qal'alariga yashiringan varvarlarni qirib tashladi. U Politimet⁸⁵ daryosi suvlaridan foydalanuvchi butun mamlakat yerlaridan o'tdi».

IV. 7. 1. «Bu yerdagi ishlarni tugatib, Iskandar Zariasp⁸⁶ga yetib keladi. Bu joyda u qishni o'tkazishga qoladi...»

15.4. «Shu paytda Iskandarning oldiga bir yarim ming chavandozlarga yo'lboshchi bo'lib xorazmliklarning podshosi Farasmon⁸⁷ yetib keladi. U kolxlar va amazonka qabilalariga qo'shni bo'lib yashaganligi haqida hikoya qilib, Iskandarning amazonkalar, kolxlar va Eviksin dengizidagi qabilalarni istilo qilish istagi bo'lsa, yo'l ko'rsatuvchi bo'lishga va qo'shinlarining yurishi uchun barcha shart-sharoitlar yaratib berishga xayrixoh ekanligini bildiradi».

15.5. «Iskandar Farasmonga minnatdorlik bildiradi va do'stlik ittifoqchiligi haqida shartnoma tuzib, Pont dengizi tomonga yurishga hozir vaqt yo'q, deb javob beradi. U Farasmonni Baqtriya satrapi fors Artaboz huzuriga yuborib, vataniga jo'natadi».

⁸⁵ Politimet – Zarafshon daryosining qadimgi yunoncha nomi.

⁸⁶ Zariasp – Qadimgi Baqtriyaning poytaxti Baqtra shahrining yunoncha nomlanishi. Hozirgi Balxga to'g'ri keladi.

⁸⁷ Farasmon – (mil. avv. 4-a.), Xorazmshoh yohud uning elchisi . Mil. avv. 328 yili makedoniyalik Aleksandrning O'rta Osiyoga yurishi chog'ida Farasmon 1500 kishilik otliq qo'shini bilan Aleksandrning qarorgohi joylashgan Baqtra shahriga kelgan va u bilan ittifoqchilik bitimi tuzgan.

7. «U o‘zi Oks daryosiga yo‘l oladi. Juda ko‘p so‘g‘diylar istehkomlarida to‘planishib, ularga tayinlangan hokimga qarshi bo‘lib chiqadilar, bundan xabardor bo‘lgan Iskandar So‘g‘diyona tomonga yurishni maqsad qiladi».

1. «Iskandar askarlarining ma‘lum bir qismi bilan So‘g‘diyona yetib keladi, Poliperxont, Attal, Gorgiy va Meleagrlar Baqtriyada qoladi, ularga shu davlatga nazorat qilish bilan birga varvarlarning g‘alayonlar ko‘tarishiga yo‘l qo‘ymaslik va boshlangan qo‘zg‘olonlarni bostirish haqida buyruq beriladi». 2. «O‘z qo‘shinlarini u beshta ayrim qismga bo‘lib oladi. Birinchisi – Gefestion boshchiligida, ikkinchisi – Ptolemey Lag boshchiligida, uchinchisi – Perdikka boshchiligida, to‘rtinchisi – Ken va Artaboz boshchiligida, beshinchi qism bilan u o‘zi Maroqandaga otlanadi».

4. «Iskandar shu ishlar bilan band bo‘lgan paytda, Spitaman skif-massaget erlarida 600 ta otliq massagetlarga yo‘lboshchi bo‘lib, Baqtriyadagi bir qal‘aga yetib keladi. Qal‘a qo‘riqchilarining boshlig‘i Frurax va uning askarlari ham dushman tomonidan hujum xavfini kutmaganlar, askarlar qiriladi. Frurax asirlikka olinadi. Shu qal‘ani qo‘lga kiritishgandan ko‘ngillari ko‘tarilib, ular bir necha kundan so‘ng Zariaspga yetib keladilar, ammo shaharga hujum qilmadilar va katta o‘ljani qo‘lga olib ortga qaytishga qaror qildilar».

6. «Zariaspdada kasal bo‘lib qolgan bir necha otliq «do‘stlar» skiflarning hujumi haqida eshitib, ular Zariaspni qo‘riqlash uchun yollangan 80 ta chavandozga va ba‘zi bir «podsho yigitlari»ga boshliq bo‘lib massagetlar ortidan quvadilar. Hech narsani kutmagan skiflarga hujum qilib, birinchi jangda ulardan o‘ljasini tortib olib, juda ko‘p qaroqchilarni qirib tashlaydilar. Tartibsiz holda ortga qaytgan vaqtda ular Spitaman va skiflarning qo‘liga tushib, 7ta «do‘stlar» va 60 ta yollangan chavandozlardan ajraladilar».

17.1. «Krater bu haqda xabar olib, massagetlarga qarshi shiddatli yurish boshladi. Ular bundan xabardor bo'lib, cho'lga qochadilar. Krater Spitamanning izidan quvib, unga sahro chegaralarida yetib oladi; uning boshchiligida yana mingta otliq massagetlar bor edi. 2. Makedonlar va skiflar o'rtasidagi kuchli jangda makedonlar g'alaba qozonadilar. Skiflarning bir yuz ellikta chavandozlari halok bo'ladi. Boshqalari osonlik bilan cho'lga bekina-dilar; ularning ketidan quvish makedonlar uchun og'ir bo'ladi».

4. «Spitaman va uning tarafdorlari makedonlarning qo'riqchilari hamma joylarni to'sib olganliklarini ko'rib aniq bir joyga qochishga yo'l topmadilar, Ken qo'shinlariga hujum qilish va aynan shu jangda g'alaba qozonishga qaror qiladilar. Ular Gaba nomli so'g'diylar va skif-massagetlar chegaralaridagi joyga yetib keladilar va 3000 ko'chmanchi chavandozlarni So'g'diyona to-monga yurishga rozi qiladilar». 5. Bu skiflar juda ham qashshoq ahvolda yashaganlar; ularning shaharlari va o'troq makonlari yo'q edi; boyluk mulklaridan ajrab qolish uchun qo'rqinch sezgilari ham yo'q edi va shunga ko'ra ularni har qanday urushlarga rozi qilish hech narsa emasdi. Ken Spitaman yaqinlashib kelishini sezib unga qarshi chiqadi». 6. Shiddatli jang boshlanib, u makedonlar uchun g'alabali yakunlanadi; bu jangda dushmanlarning 800 ta otliqlari, Ken qo'shinidan esa 25 ta chavandoz va 12 ta piyoda askar halok bo'ladi. Ko'pchilik baktriyaliklar Spitamandan qochib, uni yakka qoldiradilar va Ken oldiga yetib kelib, asirga tushadilar. 7. Mag'lubiyatga uchragan skiflar va massagetlar yaqinda ular bilan birga jang qilgan baqtriylar va so'g'diylarning ot-aravalaridagi yuklarini talab, Spitaman bilan dasht ichiga qochadilar. Iskandar o'zi sahroga hujum qilishga tayyorgarlik ko'rayotganini eshitib va shu maqsadda uni qaytarib olish uchun ular Spitamanning boshini kesib Iskandarga yuboradilar».

Sagdullaev A. Qadimgi O'zbekiston ilk yozma manbalarda. T.: O'qituvchi, 1996.

POMPEY TROG FILIPPIYLAR TARIXI, XII. 3-5.

Baqtryianing narigi tarafi ila Hindiston o'lkalari avvalgi noiblarida qoldirildi... Gidasp bilan Ind orasidagi yerlar Taksilga, Parapamiz bilan Kavkaz tog'larining chegaralari Oksiartga, Baqtriya chek tashlash orqali Amintaga, drang ila ariylar Stanazorga, So'g'diyona – Sulisiy va Stagnorga, Parpiya – Filippga, Garkaniya – Fratafernga tegdi.

Qadimgi tarixchilar O'rta Osiyo haqida. T.: Yurist-Media markazi, 2008. B.126.

DIODOR⁸⁸ . TARIX KUTUBXONASI. 18, 78, 3.

Osiyoning o'ziga tegishli satrapiyalariga kelganda, hech narsani o'zgartirmay, kim qayerga boshliq bo'lsa o'shalarining o'zlarini qoldirishga qaror qilishdi. Bu satrapiyalarning qo'shnilari bo'lgan o'lkalar Taksil bilan o'sha o'lkalarning podsholariga qoldi. Parapamizadlar yurti sifatida dong chiqarib, Kavkazda joylashgan o'lka, qizi Roksanaga Iskandar uylangan Baqtryianing podshosi Oksiartga berildi... Soliylik Stanazorga Ariana bilan Drangiana, Filippga Baqtriya bilan So'g'diyona; Fratafernga Parpiya va Girkaniya; Antropatga Midiya tegdi. Taksil bilan Por o'z podsholiklarida qolishdi.

Qadimgi tarixchilar O'rta Osiyo haqida. T.: Yurist-Media markazi, 2008. B.127.

PLINIY.⁸⁹ TABIIY TARIX. VI,43, 45.

Burungi zamonlarda kardux, hozirda esa korduex va pratit deb ataladigan qabilalar Kaspiy darvozasiga egalik qiladilar. Ularning bir tomonida Parfiya Cho'llari bilan Sitep tog' tizmalari

⁸⁸ Diodor – (mil.av. tahm. 90–21), sitsiliyalik yunon tarixchisi. «Tarix kutubxonasi» asari muallifi.

⁸⁹ Pliniy – qadimgi Rim tarixchisi (milodiy I asr).

uzanadi. Undan so'ng esa Parfiyaning Xoara deb ataluvchi eng go'zal yeri boshlanadi. Parfiyada Midiyaga qarama-qarshi turgan Kalliopa bilan toqqa joylashgan Issatis degan shaharlari bor. Parfiyaning boshkenti Gekatompil esa Kaspiy darvozasidan 133000 qadam narida turadi. Darvozadan chiqaverishdagina dengizga o'z nomlarini bergan Kaspiy qabilasi yashaydi.

Qadimgi tarixchilar O'rta Osiyo haqida. T.: Yurist-Media markazi, 2008. B.150

QANG' DAVLATI

QANG'LI – qadimgi turkiy xalq. Qang'liklarning ilk ajdodlari Sirdaryo sohillarida yashagan saklar bo'lib, bular miloddan avvalgi III asrda yirik Qang' davlatini barpo qiladilar. Bu davlat kuchayib, miloddan avvalgi II-I va milodiy I-II asrlarda juda katta hududda (Toshkent vohasi, Qozog'istonning janubi-Sharqiy hududlari, Movarounnahr, Orol dengizining shimoli-g'arbiy mintaqalaridagi hududlarda) hukmronlik qiladilar. Saklarning xun, usun va boshqa turkiy xalqlar bilan aralashishi natijasida miloddan avvalgi II-I – milodiy I-II asrlar davomida Sirdaryoning o'rta oqimlarida Yangi xalq (elat) – qang'ar xalqi vujudga keladi. Qang'arlar Markaziy Osiyoda tashkil topgan eng qadimgi tub yerli turkiy qatlamni tashkil qilganlar. Ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi (xun, usun va boshq.) etnoslar bilan mahalliy aholi (sak) madaniyatining qo'shib borishi natijasida qang'ar madaniyati vujudga keladi. Arxeologlar bu madaniyatni Kangyuy madaniyati (xitoyliklar qang'arlarni kangyuy deb ataganlar) deb nomlaydilar. Bu madaniyat Sirdaryoning o'rta oqimlarida tashkil topgan bo'lib, miloddan avvalgi I – milodiy I-II asrlarda Markaziy Osiyoda (jumladan, Movarounnahrda) keng tarqalgan. V asr o'rtalarida eftaliylar qang'arlarga qattiq talofat yetkazadilar, Qang' davlati yemiriladi. Qang'arning talay qismi

Toshkent vohasida, Movarounnahrda o'rtog'lashib qoladilar. Ularning ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi guruhleri Sirdar-yoning quyi oqimlarida va Orol dengizi atrofida o'mashib, yangi qabila ittifoqini tashkil qiladilar va bular tarixiy manbalarda qang'li nomi bilan atalgan. Qang'lilarning keyingi avlodlari o'zbek, qozoq, qirg'iz, turkman, qoraqalpoq, boshqirdlar va Sibirda yashovchi turkiy xalqlarning (oltoyliklar, tuva va boshq.) tarkibiga kirib, ularga singib ketganlar. Ularning ayrim guruhleri shu xalqlar tarkibida bo'lib, hozirgacha o'z etnik nomlarini saqlab kelmoqdalar.

Shoniyozov K. Qarluq davlati va qarluqlar. T.: Sharq, 1999.

QADIMGI XALQLARDAN QOLGAN YODGORLIKLAR⁹⁰

[Eronliklar, so'g'dlik va xorazmlik]lar davlatlarining boshlanishida haftalarni ishlatmas edilar. Dastlab haftalarni ishlatganlar g'arb tomon aholisi, ayniqsa Shom va uning tevaragida yashovchilar bo'lgan. [Bunga] sabab, u tomonda payg'ambarlar yuzaga chiqib, Tavrotida aytilganidek, birinchi hafta va bu haftada olam paydo bo'lganligidan xabar berganlar. Keyin bu [odat] ulardan boshqa millatlarga tarqalgan. Mamlakatlari Shom aholisi mamlakatlariga qo'shni bo'lib, markazlari bir-biriga yaqin bo'lgani va Ismoil ibn Ibrohim alayhissalom arab bo'lgani sababli, haqiqiy arablar ham haftani ishlatganlar.

...Xorazmliklar ham shunday yo'l tutdilar. Ular Xorazmga odamlar joylasha boshlaganidan tarix olar edilar, bu Iskandardan to'qqiz yuz sakson yil ilgari bo'lgan edi. Undan keyin Siyovush ibn Kaykovusning Xorazmga kelishidan, Kayxusrav va uning naslining Xorazmda podshohlik qilishlaridan tarix oldilar. Shu vaqtda Qayxusrav Xorazmga ko'chib, turk podshohlari

⁹⁰ «Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar» – Beruniy asari. 1000 yili Jurjonda yozib tugallangan. Uning arabcha nomi – «Osor ul-boqiya an al-qurun al-holiya».

[ustidan] hukmronligini yurgizgan edi. Bu voqea Xorazmga odam joylashishidan to'qson ikki yil keyin bo'ldi.

So'ngra ular tarix olishda eronliklarga ergashib, Kayxusravning [Xorazm] shohlari deb ataluvchi naslidan bo'lgan har bir [podshoh davrining boshlanishidan] tarix oldilar. Nihoyat Kayxusrav naslidan Ofrig' podshohligi boshlandi. Eronliklar «gunohkor» Yazdijardni yomon xabar keltiruvchiga yo'yganlaridek, [xorazmliklar] Ofrig'ni shum xabar keltiruvchiga chiqardilar. Ofrig'dan keyin uning o'g'li podshoh bo'ldi. [Ofrig'] Iskandar tarixining olti yuz o'n oltinchi yilida al-Fir ustiga o'z qasrini qurdirdi. Keyin xorazmliklar Ofrig' va uning avlodi podshohlardan tarix oldilar.

Al-Fir Xorazm shahrining chekkasidagi loy va xom g'ishtdan qurilgan qal'a bo'lib, biri-birining ichiga joylashgan va balandlikda bir-biridan qolishmaydigan uch qavat qo'rg'on edi. Bu barcha qo'rg'onlar tepasida Yamandagi G'umdon singari podshohlarning qasrlari bor edi.

G'umdon – tabbalarning turar joylari bo'lib, San'a shahridagi Masjidi jome ro'parasidagi toshdan qurilgan qal'adir. Aytilishicha, u to'fondan keyin Som ibn Nuh qurgan binolardandir. Som qazigan quduq ham o'sha yerdadir. Ba'zilar esa, bu – Zahhok tomonidan Zuhra ismiga atab qurilgan haykal, deganlar. Al-Fir o'n milcha va undan ko'proq masofadan ko'rinar edi. Jayhun har yili uni buzib, yiqitib va parchalab olib keta berdi; nihoyat Iskandar tarixining ming uch yuz beshinchi yilida undan asar qolmadi.

Abu Rayhon Beruniy. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar. T.: Fan, 1968. B.84.

BESHINCHI BO'LIM

ANTIK DAVR DAVLATLARI. BUYUK IPAK YO'LI: SHAKLLANISHI, RIVOJLANISH BOSQICHLARI

Qadimgi yunon, rim, arab tarixchilarining asarlaridagi O'rta Osiyo hududida mavjud bo'lgan antik davr davlatlari va tarixiy geografik joylar haqidagi ma'lumotlardan parchalar keltirildi. Shu bilan birga Buyuk ipak yo'li mavzusini chuqurroq yoritish uchun O'rta Osiyodan o'tgan savdo yo'llarida turli davrlarda ahvol qanday bo'lganligini ko'rsatish uchun ham mahalliy tarixchilar asarlaridan foydalanildi.

YEVROPA – KAVKAZ – OSIYO (TRASEKA)

Gap Buyuk Ipak yo'lini tiklash haqida borar ekan, TRASEKA dasturini amalga oshirish biz uchun hayotiy ehtiyoj ekanligini alohida ta'kidlashni istardim. Bu yo'l 2000 yildan ortiqroq vaqt mobaynida Sharq bilan G'arbni savdo-iqtisodiy rishtalari bilan bog'ladi. Mazkur mintaqada yashovchi xalqlarning madaniy-ma'naviy aloqalarini mustahkamladi. Ipak yo'lini tiklash g'oyasi ayrim shaxslar faoliyatining mahsuli emas, balki, bu hayotiy zaruratdir. Dunyo taraqqiyoti talablari shuni taqozo etmoqda. Qadim-qadim zamonlardayoq hayot kishilarni faqatgina savdo-sotiq uchun emas, iqtisodiy, madaniy va ma'naviy aloqalarni mustahkamlash uchun ham eng yaqin yo'llarni izlashga majbur etgan.

Bugun dunyoviy jarayonlar globallashayotgan, turli davlatlar va butun-butun mintaqalarning o'zaro integrasiyalashuv jarayonlari tezlashayotgan bir davrda Yevropa va Osiyoni bog'lovchi

ko'priknı tiklash tashabbusı tabiiy holdir. 1996 yili Ozarboyjon Respublikası Gruziya, Turkmaniston va O'zbekiston Respublikalari o'rtasida Transkavkaz kommunikasiya yo'lagini barpo qilish haqida imzolangan Saraxs Shartnomasi va bitimi mazkur yo'nalishni tiklashda asosiy bosqıchlardan biri bo'ldi. Oradan hali ko'p vaqt o'tgani yo'q. Mazkur loyihaning asosiy shartlari va talablari esa bugungi kunda Yevropa Ittifoqi va boshqa xalqaro tashkilotlar shafeligi ostida o'zining amaliy ifodasini topmoqda.

Agar O'zbekistonning Transkavkaz yo'lagidan olib o'tilgan eksport-import yuklari hajmi 1996 yilda 140 ming, 1997 yilda 285 ming tonnani tashkil etgan bo'lsa, joriy yilning sakkiz oyi mobaynida bu ko'rsatkich 240 ming tonnadan oshib ketdi. Ushbu yo'l ochilgandan buyon birgina O'zbekiston bilan eksport-import operasiyalarini amalga oshirish bo'yicha hamkorlik doirasida 470 million AQSH dollari hajmidagi 660 ming tonna hayotiy muhim yuklar tashildi.

Karimov I.A. Yevropa – Kavkaz – Osiyo (TRASEKA) transport tarmog'ini rivojlantirishga bag'ishlangan xalqaro anjumanda so'zlangan nutq. 1998 yil 8 sentabr, Boku. // Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. 7-jild. T.: O'zbekiston, 1999. B.174-179.

ARIAN KITOBLARIDAN OLINGAN. ISKANDARNING VORISLARI HAQIDAGI MA'LUMOT. 6, 9, 34.

...Osiyoni quyidagicha taqsimlashdi... Parpiyani Filipp oldi; Stanazor drang ila ariylar hokimi bo'ldi, Soliylı Stanazor Baqtriya bilan So'g'diyonada qoldi, Agenor o'g'li Pitonga Hindistonning parapamizadlar bilan chegaradosh yerlari tegdi, Roksananing otasiga parapamizadlarni berishdi.

Qadimgi tarixchilar O'rta Osiyo haqida. T.: Yurist-Media markazi, 2008. B.126.

POLIBIY. UMUMIY TARIX.⁹¹ X, 28.

Arshak III⁹² – Antiox⁹³ni faqat shu davlatgacha kela oladi, bu qo‘shini bilan beridagi sahroga o‘tishga jazm qila olmaydi, deb o‘ylagan edi. Bu fikrda, Arshak asosan yerlardagi suvsizlik holatiga tayangan edi.

Antioxning sahroni bosib o‘tishga ahd qilganini ko‘rgach, quduqlarni ko‘mib, buzib tashlay boshladi. Bundan xabar topgan shoh Arshakka qarshi Nikomed boshchiligida ming kishilik otlq bo‘linmani yubordi. Qo‘shini bilan chekingan Arshakni bo‘linma topa olmadi-yu, biroq kanal teshiklarini ko‘mayotgan otlq to‘dani to‘zitib quvib yubordi-da, Antiox qoshiga qaytib keldi. Podsho sahroni o‘tib, Gekatompil deb ataluvchi shaharga yetib keldi. Bu shahar Parpiyonaning ichkarisida joylashgan bo‘lib, har tomondan keluvchi yo‘llar kesishgan joydaligi uchun shu nomni olgan edi.

Qadimgi tarixchilar O‘rta Osiyo haqida. T.: Yurist-Media markazi, 2008. B.135.

STRABON. GEOGRAFIYA.⁹⁴

XV.1,3.Parpiya tarixining muallifi Appalador, Salavk Nikator avlodlari bo‘lmish Suriya podsholaridan Baqtriyani tortib olgan ellinlarni birdan eslab qolib, ellinlar kuchayib ketib Hindistonga bostirib kirganlarini yozarkan, ilgaritdan ma‘lum narsalardan boshqa birorta yangilikdan bizni bahramand etmaydi. Ellinlar

⁹¹ Umumiy Tarix – 40 kitobdan iborat ushbu asarning bizgacha 1-5 kitoblarigina yetib kelgan.

⁹² Arshak III – Parfiya podsholigida mil.avv. 250 – milodiy 224 yillarda hukmronlik qilgan arshakiylar sulolasi vakili.

⁹³ Antiox – (mil. avv 324 - 261), Salavkiylar davlati hukmdori (mil.avv. 280-261).

⁹⁴ Geografiya – mil.avv. tahminan, 7-yilda yozilgan bo‘lib, u 17 kitobdan iborat. Strabonning bu kitobida qadimgi O‘rta Osiyo geografiyasi, unda yashagan qabilalar va ularning urf-odat, tili, Buyuk ipak yo‘li o‘tgan joylar haqida ham qimmatli ma‘lumotlar bor.

Hindistonga kirib borishda makedonlardan ham o'zib ketdilar, deyish bilan esa o'ziga – o'zi qarshi ham chiqadi. Evkredit o'z hukmini mingta shaharga o'tkazar edi.

Qadimgi tarixchilar O'rta Osiyo haqida. T.: Yurist-Media markazi, 2008. B.138.

PLINIY. TABIIY TARIX.

...VI, 16. 18. 46. Marg'iyona viloyati bor. U quyoshining issiqligi bilan mashhur. Bu yo'ldagi o'lkalarda uzum yetishtirishda yagonadir, atrofini gir o'ragan tog'larning uzunligi 1500 stadiy keladi. Marg'iyona tog'lari 120000 qadam kengligida qum sahrosi bilan o'rlanganligi uchun ham unga kirish qiyin. U Parpiyaning Iskandar o'zining Iskandariya shahrini qurgan qismiga qarama-qarshi joylashgan. Varvarlar shaharni buzib tashlaganlarida Antiox Salavk o'g'li xuddi shu Zotalga quyiladigan Marg'ning bo'yiga shahar tikladida, otini Antioxiya deb qo'yishni lozim topdi. Shaharning tegrasi 70 stadiy keladi. Parpiyonlar podshosi Orod Krassni mag'lub etganidan so'ng asirga tushgan rimliklarni shu yerga keltirgan. ..

VI, 25(112-113). Bari Parpiya podsholiklari o'n sakkiztadir. Janubdagi chegarasi Qizil dengiz, shimoldagisi Girkan Kaspiy dengizidir. Podsholiklar o'n bittasi Armaniya va Kaspiy dengizi hududlaridan boshlanib, skiflargacha yetib boradi. Parpilarga skiflargina bas kela oladi. Qolgan yettitasi quyi podsholiklar deb ataladi. Sharqda Parpiya ariylar bilan, g'arbda pratit midiyaliklari bilan, shimolda girkanlar bilan chegaradosh bo'lib, gir atrofi cho'lu sahrolar bilan o'ralgan. Narigi tarafidagi parpilarni ko'chmanchilar deyishadi.

Qadimgi tarixchilar O'rta Osiyo haqida. T.: Yurist-Media markazi, 2008. B.147-154.

PTOLAMEY⁹⁵. «GEOGRAFIYA» , VI, 11.

Baqtriya g'arbda – Marg'iyona, shimol va Sharqda So'g'diyonaning Oksga yaqin qismi, janubda Ariyaning bir bo'lagi va parapamazadlar bilan chegaradosh.

Qadimgi tarixchilar O'rta Osiyo haqida. T.: Yurist-Media markazi, 2008. B.158.

XORELIK MOISEY. ARMANISTON TARIXI

Aleksandar Makedonskiy o'limidan oltmish yil o'tgandan keyin parpiylarga Qo'rqmas Arshak podsho bo'ldi. Kushan yeridagi Aravatin - Balx uning boshkenti edi. Qaqshatqich urushlar orqali u barcha Sharq xalqlarini bo'ysundirdi; Bobildan makedonlarni quvdi; g'arbda va dengizda rimliklarning kuchayganini eshitib... Arshak shartnoma tuzishni taklif etib elchilar jo'natdi. Shartnomada rimliklar makedonlarga yordam berishdan voz kechishlari, o'zi esa, soliqlar emas, lekin har yili sovg'alar jo'natishi aytilgan edi.

Qadimgi tarixchilar O'rta Osiyo haqida. T.: Yurist-Media markazi, 2008. B.128.

POMPEY TROG. FILIPPIYLAR TARIXI, XIII. II, 1-2.

Parpiyonlar podshosi Mitridat o'limidan keyin taxtga o'tirgan o'g'li Fraat II, Antioxning Parpiyaga qilgan hujumi uchun ta'zirini bermoq qasdida Suriyaga yurish boshlayotgan paytida skiflar mojarosi paydo bo'ldi-da, uning niyati amalga

⁹⁵ Ptolamey – (taxm. 170 y. vafot etgan) – qadimgi yunon olimi. Uning bu asarida O'rta Osiyoning Buxoro, Samarqand, Ko'lob, Kat (Kos), Binket, Shosh, Zomin, Forob, Farg'ona kabi shahar va viloyatlarining geografik koordinatalari keltirilgan. Ptolamey asarlari Sharqda astronomiya, matematika va geografiyaning rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatgan. Beruniy «Qonuni Mas'udiy» asarini yozishda Ptolamey asarlariga asoslangan.

oshmay qoldi. Gap shundaki, Antiox Parpiyaga hujum qilganida skiflar yordamga yollanib chaqirilgandi. Biroq ular yetib kelganda, hujum qaytarilib, urush tugagandi. Skiflarning kechikib qolishini bahona qilib parpiyonlar ularga pul to'lashdan bosh tortdilar. Skiflar xarajatlarimizni to'laysanlar yoki yangi dushman topib berasanlar, deb turib olishdi. Kalondimog'lik bilan berilgan rad javobidan izzat-nafslari haqoratlanib, Parpiyani talon – taroj qilà boshladilar.

Fraat II Antiox bilan urushda asir tushgan va shavfqatsizlarcha muomala qilingan greklarni olib skiflarga qarshi yurdi. Jang boshlanishi oldidan parpi qo'shinidagi bir zumlik ikkilanishni ko'rib, greklar skif tarafiga o'tib, parpiyonlarni choptilar va Fraat II ni o'ldirdilar. Bu bilan asirlikda ko'rgan shafqatsiz muomala uchun qasos oldilar.

Fraat II o'rniga taxtga uning amakisi Artaban II o'tirdi. G'alabadan hamda ParpiYani talaganlaridan mamnun skiflar ulariga qaytib ketishdi. Artaban II esa toharlar bilan urushda Yaralandi va o'ldi. O'rniga o'g'li Mitridat II taxtga chiqdi. Mitridat II o'zining faoliyati uchun buyuk degan unvonga sazovor bo'lgan. Ota-bobolarining shonli ishlari jasoratlari izidan borib, o'zining keng qalbli fazilatlari bilan ulardan o'zib ketdi....

Qadimgi tarixchilar O'rta Osiyo haqida. T.: Yurist-Media markazi, 2008. B.141.

PLUTARX. DAVLATNI BOSHQARISH QOIDALARI. 821.

Menandr Baqtriyani adolat bilan boshqarib, harb yurishi vaqtida dalada o'ldi. Uni tantanali ko'mish marosimiga barcha viloyatlar to'plandi...

Qadimgi tarixchilar O'rta Osiyo haqida. T.: Yurist-Media markazi, 2008. 143.

KURSIY RUF BUYUK ALEKSANDR TARIXI

VII kitob, IV bob, 26. Baqtriyanning tabiati boy va turli-tumandir. Ba'zi joylarda ko'pdan-ko'p daraxtzorlar va tok novdasi shirin meva serob hosil qiladi; unumdor yerlarni ko'p sanoqli buloq-daryolar sug'oradilar; hosildor tuprog'ida bug'doy ekiladi; boshqa yerlar o'tloqlar uchun qoldiriladi. 27. Davlatning katta bir qismini hosilsiz dashtlar egallaydi; suvsizlik tufayli tashlab qo'yilgan viloyatlarda na odamlar, na mevalar bor. Pontdan esayotgan shamollar tekisliklarga qumlarni surib keltiradi; olis masofadan qum uyumlari katta tepaliklarga o'xshab ketadi; shu yerda burungi yo'llarning izlari yo'qolib qoladi. 28. Shuning uchun ham bu tekisliklardan o'tib yurganlar, huddi dengizchilarga o'xshab, o'z yo'llarini tundagi yulduzlar orqali topadilar.

V. I. Iskandar baqtriylar viloyatini Artaboz idorasiga topshirib, bu joydagi qo'riqchilar qo'shini bilan birga ot-arava yuklarini qoldiradi. O'zi esa harakatdagi qo'shinlarga yo'l-boshchi bo'lib, So'g'diyona sahrosiga yo'l oladi...

Sagdullaev A. Qadimgi O'zbekiston ilk yozma manbalarda. T.: O'qituvchi, 1996.

CHJAN SYAN'.⁹⁶ ILK XAN TARIXI [1; 2364-BET].

Janubiy yo'l Krurona (Loulan, Shanshan) orqali Qoraqurum (Kunlun) tog'larining shimoliy etagi bo'ylab g'arbga qarab ketadi, so'ng u Yorkentdan o'tib yana g'arbga qarab davom etadi, Pomir tog'larini (Sun'lin) kesib o'tib, Ulug' Ruzie (Dayueji) davlatiga boradi. Mazkur davlatdan o'tgandan so'ng yo'l Parfiya (An'si) davlatiga boradi. Shimoliy yo'l shimoliy

⁹⁶ Chjan Syan – (mil.avv. II asr), xitoylik diplomat va sayyoh. Chjan Syan tomonidan Xitoydan O'rta Osiyoga bosib o'tilgan yo'l keyinchalik Yevropada Buyuk ipak yo'li nomini olgan.

tog'ning shimolida joylashgan Turfon (Chyan-Cheshi) davlati markazidan o'tib, Torim daryosi bo'ylab davom qilib, Qashqarga boradi. Shimoliy yo'l Pomir tog'laridan o'tib yana g'arbgga qarab davom etib, Farg'ona, Kangkiya davlatlariga, so'ngra Alan davlatiga boradi.

Xo'jaev Ablat. Buyuk ipak yo'li. T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2007, B.80.

MOVAROUNNAHR⁹⁷ NOHIYATI VA UNDAGI SHAHARLAR HAQIDA SO'Z

Bu shunday nohiyatki, uning sharqiy hududi – Tibet hududiga tutash, janubi – Xuroson, g'arbi – G'uz va Xallux(Qarluq), shimoli ham Xallux hududi [bilan chegaradosh]. Bu katta va obodon nohiyat, noz-ne'matlari mo'l; Turkistonning eshigi va savdogarlar [gavjum] joy. [U yerdagi] odamlar jangovar, zafar qozonuvchi, mergan va pokdin. Bu adolat hukmron nohiyat erur. Uning tog'larida kumush va oltin konlari va qimmatbaho toshlar juda ko'p, turli ma'danlar, ruh kuporosi, margimushli oltingugurt, oltingugurt va navshodir (nashatir) ham tog'dan [qazib] olinadi.

Buxoro Movarounnahrdagi eng katta va obod shahar, mashriq podshosining poytaxti. [Havosi] nam joy, mevalar va oqar suvlar ko'p. Odamlari mergan va zafar qozonuvchi. U yerda yaxshi jun gilam-palos, sholcha va joynamoz tayyorlanadi, pashmin va sho'ra (ham) ishlab chiqariladi (va uni boshqa) joylarga olib ketadilar. Buxoro hududi o'n ikki farsangga o'n ikki

⁹⁷ Movarounnahr – (arabcha, daryoning narigi tomoni), o'rta asrlarda islom mamlakatlarida keng tarqalgan geografik atama. Uning xuddi shu ma'noni anglatgan fors tilidagi «Varorud» va «Varojayxun» shakllari ham mavjud bo'lib, ularning barchasi avval (XI asrgacha) Xuroson viloyatining davomi sifatida, XI asr boshidan e'tiboran esa Turkiston, ya'ni Qoraxoniylar davlati va undan keyingi turkiy davlatlar tarkibidagi ma'muriy birlik sifatida tushunilgan. XI asrda Evropa tarixshunosligida mazkur arab atamasining lotincha tarjimasi bo'lmish yangi «Transoksiana» yoki «Transoksaniya» atamalari muomalaga kiritilgan.

farsangdir va uning gir atrofi uzluksiz devor bilan o'rab olingan va uning hamma rabotlariyu qishloqlari ana shu devor ichkarisida. Mu'kon, Xujodiy, Dando'na, Bo'mikas, Madyomijkas, Jazg'ankas – Buxoro hududidagi minbarli shaharchalar va obodon joylardir, ekinzorlari ko'p. Farab – Jayhun [daryosi] bo'yidagi shaharcha, daryo mirining qarorgohi o'sha yerda, atrofi cho'l.

Baykand(Poykand) – shaharcha, uning mingga yaqin raboti bor, yeri yaxshi; u yerda Buxorodan keltirib dafn etilgan gurxonlarning qabr-sag'analari bor.

So'g'd – nohiyat, mashriq nohiyatlari ichida undan xurraroq joy yo'q. Oqar suvlar va daraxtlar ko'p, havosi sog'lom, odamlari mehmondo'st va quvnoq, noz-ne'mat farovon va obod joy; yumshoq tabiatli, diyonatli odamlar ko'p. Tavovis – Buxoroga qarashli shaharcha, So'g'd sarhadida; unda har yili bir kun bozor bo'ladi va ko'p xalq yig'iladi. Karmina, Dabusiy, Rabinjan – So'g'ddagi shaharchalar, [Buxorodan] Samarqandga boradigan yo'lda; obod [joylar], noz-ne'mat, oqar suvlar va daraxtlar [ko'p]. Kushoniy – So'g'ddagi eng obod shahar. Armon – Kushoniyga qarashli (joy). Ishtixan (Ishtixan)– xurram va obod joy, noz-ne'mat ko'p. Ganjkas, Farnkas – ikki shahar, (Zarafshon) daryosi bilan Ishtixan oraliq'ida joylashgan. Daron – mo'jazzgina ko'rkam shahar, Samarqandga tegishli.

Samarqand – katta shahar, obod, noz-ne'mat farovon va butun jahon savdogarlari [kelib-ketadigan] joy. Uning shahriston, kuhandiz va robodi bor. Bozorining tomi ustidan qalayidan [yasalgan] ariqdan suv oqadi; suv tog'dan keltirilgan. Unda monaviylarning [suv oladigan] hovuzlari bor; ul toifani nag'o'shoq ataydilar. Ul shaharda qog'oz ishlab chiqariladi, [uni] butun jahonga olib ketadilar, kanop (qunnab) ipi [ham] tayyorlanadi. Buxoro daryosi Samarqand shahri yaqinidan [oqib] o'tadi. Varag'sar, Banjikas (Panjikat) - ikkita shaharcha. Samarqandga qarashli, Buxoro daryosi bo'yida joylashgan, suv taqsimlash joyi ana shu Varag'sardadir.

Kash – iqlimi issiq shaharcha, unda yomg‘ir ko‘p yog‘adi, shahriston, kuhandiz va robodi bor. Shahar darvozasi oldidan ikkita daryo oqib o‘tadi, (suvi) ekinlarga ishlatiladi. Uning tog‘larida [har xil] minerallar bor, [jumladan] tarangubin va qizil tuz; uni butun jahonga olib ketadilar. Yaxshi tuyalar ko‘p boqiladi. Navqat - Quraysh – ekinzorlari ko‘p shaharcha.

Naxshab (Qarshi)–noz-ne‘matlar farovon, ekinzorlar ko‘p obod shahar. Uning bir daryosi bor, shaharning o‘rtasidan [oqib] o‘tadi. So‘nax – Naxshabga qarashli shaharcha. Sakifag‘n – shaharcha, ekinzorlari ko‘p. Bazda – shaharcha, aholisi kam, [biroq] ekinzorlari ko‘p; bir quruq o‘zani bor va unda yilning ma‘lum faslidagina suv oqadi, xolos. [Aholi] aksari holda quduq suvidan va do‘loblar [vositasida chiqarilgan suvdan foydalanadi]. Kasba – ekinzorlari ko‘p joy.

Tirmiz (Termiz) – ko‘rkam shahar, Jayhun daryosi bo‘yida, uning daryo bo‘yida joylashgan bir kuhandizi bor. Bu shahar Xutalon va Chag‘oniyonning markazidir. Unda yaxshi sovun, yashil bo‘yra va yelpig‘ich ishlab chiqariladi. Hoshumgird – shaharcha, qo‘y va chorvasi ko‘p. Jarmankon – shaharcha, ekinzorlari va oqar suvlari bor.

Chag‘oniyon – xarob nohiyat, [biroq] katta nohiyat, ekinzorlari ko‘p. Dehqonlari no‘noqroq, darveshlar joyi erur, lekin noz-ne‘matlari bisyordur. Odamlari jangovar va botir. Bu havosi sog‘lom, yeri hosildor va shirin suvlari bor. U yerda qisman yilqi [ham] boqiladi, chakmon, gilam-palos va ko‘plab za‘faron tayyorlanadi. Bu nohiyatning podshosi muxtoriyat [huquqiga ega] podshohlardan hisoblanadi va uni Chag‘oniyon amiri deydilar. Dorzangiy– shaharcha, aylanasiga handaq bilan o‘rab olingan, Chag‘oniyon hududida. U yerda paytava, gilam va sholcha tayyorlanadi. Chag‘oniyon – katta shahar, tog‘ etagida joylashgan, ushbu nohiyatning qasabasidir. Oqar suvlari bor va xush havoli joy erur, odamlari darvesh.

Bosund – shaharcha aholisi ko‘p, Buxoro va Samarqandga boradigan yo‘lda joylashgan. Mustahkam joy, odamlari jangovar. Zaynur – shaharcha, ekinzorlari ko‘p, [biroq] aholisi oz. Navjod – shaharcha, mustahkam qo‘rg‘oni bor. Digar– shaharcha, Nihom daryosi yaqinida joylashgan, havosi xush va noz-ne‘mati ko‘p. Hamvoron – shaharcha, Kasavon daryosi yaqinida joylashgan, aholisi kam. Shumon– mustahkam shahar, tog‘ yon bag‘rida joylashgan. Uning aylanasi bora bilan o‘rab olingan, tog‘ tepasiga qurilgan qo‘rg‘oni va qo‘rg‘on ichida katta buloq bor. Unda zafaron ko‘p etishtiriladi. Afrizon– aholisi kam bir shahar, tog‘lar orasida joylashgan. Vishgird – mustahkam shahar, tog‘ va dashtlikda joylashgan: Chag‘oniyon va Xutalon oralig‘ida. U yerda doim shamol esadi. Shams Balxiyning, uni Olloh rahmat qilsin, qabri o‘sha yerda. Unda za‘faron ko‘p etishtiriladi.

Sarushana (Ustrushona) – katta va obodon nohiyat, noz-ne‘mati, shahar va rustolari ko‘p. U yerda sharob ko‘plab tayyorlanadi, tog‘laridan temir [qazib] olinadi. Zomin – Ho‘jand – Farg‘ona yo‘lidagi shahar, Sarushana [nohiyati]ga qarashli. Unda mustahkam qo‘rg‘on bor; ekinzorlari ko‘p bir joy erur. Charqon – shaharcha, Sarushana [nohiyati]ga kiradi; obod joy.

Dizak (Jizzax) – shaharcha, unda oqar suv bor. Uning yaqinida Marsamanda degan joy bor, unda bir yilda bir kun bozor bo‘ladi va o‘sha kuni ul bozorda yuz ming dinor [miqdorida mol] savdo qilinadi, deydilar. Navinjkas – Sarushananing qasabasi va bu nohiyat amirining qarorgohidir. Aholisi ko‘p, obod, noz-ne‘mat farovon va oqar suvlari bor bir joydir. Fag‘kas, G‘arq, Sobot, Kurkas – Sarushana hududidagi shaharchalar, ekinzorlari va aholisi ko‘p. Butamon – tog‘-daralarda joylashgan nohiyat, Sarushana hududida. U uch qismdan iborat: Ichki Butamon, O‘rta Butamon va Tashqi Butamon. Bu ekinzorlari ko‘p bir nohiyatdir; darveshlar joyi. Uning qishloqlari va rustolari ko‘p. Tog‘larida navshodir konlari ko‘p erur. Barg‘ar – O‘rta Butamondagi nohiyat va Daryoja [ham]

uning tarkibiga kiradi. Buxoro daryosi Daryojadan oqib boradi, unga O'rtta Butamonda irmoqlar qo'shiladi.

Xo'jand – shahar, shu nomdagi nohiyatning qasabasi erur; ekinzorlari ko'p, odamlari muruvvatli, u yerda anor ko'p yetishtiriladi.

Farg'ona – katta va obod nohiyat, unda noz-ne'matlar farovon erur; tog'lar ko'p, dashtu shaharlari, oqar suvlari bor. Turkistonning eshigidir. U yerga ko'plab turk qullar keltiriladi. Tog'lari oltin, kumush, mis, qo'rg'oshin, navshodir, simob, yonartosh, poyzahr toshi, magnit toshi va [turli] minerallarga boy; u yerda tabarxun va antiqa dorilar tayyorlashda ishlatiladigan giyohlar bor. Qadimda Farg'ona podshohlari muxtoriyat [huquqiga ega] podshohlardan bo'lganlar va ularni dehqon deyishgan. Chadg'al – Farg'onadagi nohiyat, tog'-daralarda joylashgan; shaharchalari bor, qishloqlari ko'p. U yerda qo'rg'oshin qazib olinadi. Ma'danlar bor. Ko'plab qo'y boqiladi. Axsikat – Farg'onaning qasabasi, amir va mas'ul ayonlarning qarorgohi erur; katta shahar, Xashart daryosi bo'yida joylashgan; tog' etagida. Uning tog'larida kumush va oltin konlari ko'p. Odamlari musallasni ko'p ichadi.

Voskat – Xo'jand va Farg'ona [viloyatlari] o'rtasidagi chegara [joy]; ekinzorlari ko'p bir shaharcha. Yasho'x – shaharcha, u yerdan simob [qazib] olinadi. Tamoxas, Nomankoxas – ikkita shaharcha, tog' yon bag'rida joylashgan.

So'x – tog'da, Butamon va Farg'ona oralig'idagi chegarada joylashgan; uning oltmishta qishlog'i bor. Avol – tog' etagi, u yerda qishloqlar bor. Bag'askon – Avolga qarashli [joy]. Xavokand, Rishton, Zandaromash – gavjum shaharchalar, ekinzorlari ko'p. Qubo (Quva) – katta shahar, [bu] Farg'ona nohiyatidagi eng obod shahar erur. O'sh – obod joy, noz-ne'mat ko'p, odamlari jangovar erur; tog' etagida joylashgan. Bu tog'da qo'riqchilar qo'yilgan, ular kofir turklarni qaytarib turadi.

O'rasht, Xirsob – ikkita shaharcha, oqar suvlari, yalangliklari bor, noz-ne'mat bisyordur, havosi sog'lom.

O'zgand – Farg'ona bilan Turk[lar o'lkasi] oralig'idagi chegarada joylashgan shahar. Uning yaqinidan ikkita daryo [oqib] o'tadi: birini Tabog'ar daryosi deydilar, Tibatdan boshlanadi; boshqa birini Barsxon [daryosi] ataydilar, Xalluxdan oqib keladi. Xatlom – shaharcha, Xuroson amiri Nasr ibn Ahmad shu yerda tug'ilgan ekan. Kasho'kas, Pob – ikkita obod shaharcha, ekinzorlari ko'p. Mazkur shaharlar barchasi Farg'ona nohiyatiga mansub. Busht, Kalaskon, Yarkand, Ko'kas, Xushkob – bir-biriga yaqin joylashgan shaharchalar, ekinzorlari ko'p, odamlari darvesh.

Shalot – turklar joylashgan nohiyat.

Iloq – katta nohiyat, tog' va cho'l oralig'ida joylashgan. Aholisi ko'p, ekinzorlari bor, obod joy; odamlari oddiy. Unda shahar va rustolar ko'p. Rustolar aholisida ko'proq oq kiyimlilar odati bor, ular jangovar va qat'iyatli. Tog'larida kumush va oltin koni bor. Uning hududi Farg'ona, Jadj'al va Choch hamda Xashart daryosi bilan tutash. Bu nohiyat hokimlarini Iloq dehqoni ataydilar, qadimda bu nohiyatdagi dehqonlar muxtoriyat [huquqiga ega] hokimlar edi. Navkas – Iloqning qasabasi; shahristoni, qo'rg'oni va robodi bor. Ularning bir daryosi borkim, uni Iloq (daryosi) deydilar va Navkas uning bo'yida joylashgan. Ko'hisim – shaharcha, tog' yonbag'rida. Uning tog'ida kumush koni bor. Daxkas – shaharcha, uning tog'idan margimush [qazib] olinadi. Yamudlig', Abridg', Iytulax, Alaxjos – Farg'ona bilan Iloq chegarasida joylashgan shaharchalar. Somisibrak – ko'rkam va obod shaharcha. Barfaksum, Hanax, Xos – shaharchalar, ekinzorlari ko'p, aholisi kam. G'uzjand – ko'rkam va noz-ne'mat to'kin shaharcha. Tukas – shaharcha, unda to'kin-sochinlik erur. Kalashijak, Xambarak, Ardlonkas, Satbag'vo, Naxnoh – bir-biriga yaqin joylashgan shaharchalar, ekinzorlari va oqar suvlari ko'p. Ardlonkas ushbu shaharlarning

qasabasidir. Kurol, G'azak, Xayvol, Varzo'l, Kabariya, Bag'ra-vonak – bir-biriga yaqin joylashgan kichik-kichik shaharchalardir, ekinzorlari ko'p; u yerda yilqi boqiladi. Abradkas, Bag'vikas, Farnkas – bir-biriga yaqin joylashgan kichik-kichik obod shaharchalar, noz-ne'mat farovon erur. Jabg'o'kas – ko'rkam shaharcha, qadimda Chochning lashkargoxi bo'lgan. Shakokib, Yonjibos – ikkita shaharcha, ko'rkam va obod [joylardir], Iloq [vodiysi]da joylashgan. Tunkat-Buxornon – qasaba; uning Iloq, Jadg'al va Choch oralig'ida nohiyatlari, oqar suvlari bor; savdogarlar joyidir. Yoloqon – shaharcha, undan to Parak daryosi bo'yigacha [masofa bir] farsang; unda diram zarb qiladigan saroy bor.

Choch⁹⁸ – katta va obod nohiyat; odamlari botir, urushga shay va badavlat; noz-ne'mat mo'l. U yerda kamon, kamon o'qi va xalanj cho'pi ko'p tayyorlanadi. Qadimda uning podshohlari muxtoriyat [huquqiga ega] podshohlar bo'lganlar. Bikas – Choch [viloyati]ning qasabasi erur, katta shahar, obod va ko'rkam shahar, viloyat sultonining qarorgohi shu yerda joylashgan. Navijkas – shaharcha, Parak va Xashart daryolarida ishlovchi qayiq haydovchilar ushbu [shahar]dandirlar. Karjokas, Tarko's, Xotunkas, Dam'onkas – ikkita kichik va obod shaharcha; So'g'd va Samarqandning borgohi erur; Farg'ona va Iloqqa qarashli. Banokat – Xashart daryosi bo'yida joylashgan, ko'rkam va obod shaharcha. Xarsankat, Xarajkat (Chinachkat), Shturkas, Sabkas, Nujokat, Kankarol – Choch viloyatidagi shaharchalar, ularda chochiy kamonlar tayyorlanadi; ko'rkam, noz-ne'mat bisyor, obod joylardir.

Isbijob – musulmonlar va kofirlar [yashaydigan viloyatlar] chegarasida joylashgan nohiyat; Turkiston sarhadidagi katta va obodon joy; Turkiston hududida nimaiki ishlab chiqarilsa, o'sha yerga keltiriladi. Unda shaharlar, nohiyatlar va rustolar ancha-

⁹⁸ Choch – arablar bu shaharni Shosh deb atashgan. Chunki arab alifbosida «ch» harfi mavjud emas, arab tilida bu harf o'rniga «sh» harfi qo'llaniladi.

gina. U yerda kigiz tayyorlanadi va [ko'plab] qo'y [boqiladi]. Bu nohiyatning qasabasi Isbijob nomli shahardir. Bu katta va noz-ne'matlar bisyor shahar bo'lib, sultonning qarorgohi erur. Turli boylklari ko'p; butun dunyo savdogarlarining to'plangan joyi erur. Sonikas (Sobanikas) – ko'rkam, noz-ne'mat ko'p, boy shahar. Budahkas (Buzahkas) – ko'rkam va noz-ne'mat ko'p shaharcha. Sutkand – noz-ne'matli joy, daryo bo'yida joylashgan; odamlari jangovar. Unda sulh tuzgan turklar yashaydi, ularning kabilalaridan ko'plar musulmon bo'lishgan. Borob – noz-ne'matli nohiyat, uning qasabasini Kadir ataydilar. Odamlari jangovar va botir; savdogarlar joyi. Isbijob bilan daryo bo'yi oralig'i [dagi yerlar] Isbijobning, qisman esa Choch, Borob va Kunjdehning yaylovi sanaladi. U yerda ming o'tovdan iborat sulh tuzgan turklar yashaydi, ular musulmon bo'lganlar. Sahron (Sabron) – noz-ne'mat ko'p shahar, G'uz savdogarlarining [savdo qiladigan] joyi erur. Zarno'x – daryo bo'yida joylashgan shaharcha, obod, [biroq] aholisi kam. So'nox – Borobga qarashli shaharcha, noz-ne'mat ko'p; u yerda yaxshi kamonlar tayyorlanadi, [ma'lum qismini] boshqa joylarga [sotuvga ham] olib ketishadi. Shulhiy, Taror, Takonkas, Farunkas, Mirkiy, Navikas – kichik shaharlardir, ularda musulmonlar va turklar [yashaydi]; savdogarlar joyi. (Bu yerlar) Xallux [hududi]ning boshlanishi erur. Farunkas, Mirkiy va Navikasda turklar ko'p.

MOVAROUNNAHR HUDUDIDAGI NOHIYATLAR VA ULARNING SHAHARLARI HAQIDA SO'Z

Movarounnahr hududi tarqoq joylashgan nohiyatlardan iborat bo'lib, ba'zisi uning Sharqida [bo'lsa], ba'zi biri g'arbidadir. Movarounnahrning Sharqida Tibet hududi va Hinduston, janubida Xuroson hududi [yastangan]; uning g'arbida Chag'oniyon hududi va shimolida esa Sarushana hududi Movarounnahr tarkibiga kiradi.

Xuttalon – katta tog‘lar bag‘ridagi nohiyat, obod, ekinzorlari va aholisi ko‘p, noz-ne‘mat mo‘l; uning podshohi muhtoriyat [huquqiga ega] podshohlardan. Bu nohiyatning odamlari jangovar. Uning hududida Tibet tomondagi [qismida] vahshiy odamlar [yashaydi]. Cho‘llarida va tog‘larida kumush va oltin konlari bor; u yerda ko‘plab bedov otlar boqiladi. Hʻulbuk – Xutalonning qasabasi va podshoh (hokim) ning qarorgohi erur; bu shahar tog‘ etagida joylashgan, aholisi va rustolari ko‘p. Nuchoro – mustahkam shahar, ikki daryo oralig‘ida joylashgan: biri – Xarnob, ikkinchisi – Jayhun. Uning bir nohiyati bordurkim, to Badaxshon hududigacha cho‘zilgan va uni Rustobek ataydilar. Bu shaharning bir tomonidan Jayhun [oqadi], ikkinchi tomonida esa tog‘ [qad ko‘tarmish]; noz-ne‘matlar ko‘p joy, Xutalonning borgohi erur. Borg‘ar (Porg‘ar) – obod shahar, ekinzorlari va aholisi ko‘p. Borsorug‘, Munk, Namliyot – kichikroq shaharchalar, noz-ne‘mat mo‘l va obod; odamlari jangovar.

Vaxsh – obod nohiyat, Vaxshobning sohilida joylashgan. Halovard – Vaxsh[nohiyasi]ning qasabasi erur; ekinzorlari va rustolari ko‘p bir shahar bo‘lib, odamlari mergan va jangovardir. Livkand – Vaxshga qarashli; u yerda vaxshiy qo‘ylar boqiladi.

Josht – tog‘ va daralarda [joylashgan] nohiyat, Butamon va Xutalon oralig‘ida. Rustolari va ekinzorlari ko‘p. Bu nohiyatning ulug‘larini Josht dehqonlari deyishadi. Bir guruh odamlar bor, ularni kumijliklar deyishadi, Xutalon va Chag‘oniyon hududida yashaydilar, botir, jangovar va qaroqchisifat kishilardir; ularning [asosiy] boyligi qo‘y va qullardir. Qishloqlari va rustolari ko‘p, biroq bitta ham shahar yo‘q. Chag‘oniyon hududidagilari Shumon (Shug‘non) bilan Bishgird (Vishgird) oralig‘ida [joylashgan] Saylokon [deb] ataluvchi nohiyatda yashaydi; Xutalon hududidagilari esa Namliyot va Munk oralig‘ida, tog‘ etaklaridagi dashtlarda, oqar suvlari bor, yaxshi joylarda yashaydi. Har bir guruh o‘z nohiyatining amiriga bo‘ysunadi.

Xutalon va Chag'oniyon amirlari kezi kelganda ulardan yordam so'rab turishadi. Ganjina turklari – kichik guruh, Xutalon va Chag'oniyon oraliq'idagi tog'da joylashgan bir darada yashaydi; juda mustahkam joy. Ular o'g'rilikni kasb kilib olganlar, karvon talovchi, surbet va chinakam qaroqchilardir. Qaroqchilik qilish uchun o'z nohiyatlaridan o'ttiz va qirq farsang [uzoqqacha] borishadi. Ularning Xutalon hamda Chag'oniyon amirlari bilan aloqalari bor.

Dari Tibet (Tibat eshigi) – qishloq, u yerda tog' bag'riga o'rnatilgan bir eshik bor, unda musulmonlar [qorovul] turib bo'ladilar va yo'lni qo'riqlaydilar. Bu eshikdan chiqqan [kishi] Vaxon hududiga qadam qo'yadi. Raxtajab – Vaxondagi qishloq, unda otashparast vaxiyalar (vaxonliklar) yashaydi. Skoshim – shahar; [bu shahar joylashgan] nohiyatning qasabasi Vaxondir. Unda otashparastlar va musulmonlar yashaydi; Vaxon [viloyatining] podshosi o'sha yerda turadi. Uning hududida egar uchun jun yopinchiq va [kamon uchun] vaxoniy o'qlar tayyorlanadi. Xamdod – unda vaxiyalar (vaxonliklar)ning butxonalari mavjud va u yerda bir oz tibatliklar ham bor. Uning so'l tomonida bir qo'rg'on bor, unda tibatliklar yashaydi. Sanglinj – tog' etagida joylashgan; Badaxshon yoquti va la'li (konlari) ana shu tog'da. Kon yaqinida issiq suvli ko'l bor, suvi shunday issiqki, unga qo'l urib bo'lmaydi. Kondan to Tibatgacha bir yarim kunlik yo'ldir. Undan o'tganingdan so'ng bir nohiyat [bor], uning rustosini Malham ataydilar. Samarqandoq – katta qishloq, unda hindular, tibatliklar, vaxiyalar (vaxonliklar) va musulmonlar yashaydi. Bu yer sarhad va Movarounnahr hududining oxiri sanaladi.

Bulo'r – katta nohiyat; bu nohiyatning bir podshosi bor va u; «Biz quyosh farzandimiz», – deydi va to quyosh chiqmaguncha uyqudan turmaydi. «Farzand otadan ilgari turmasligi kerak», – deydi. Uni Bulo'r shohi atashadi. Bu nohiyatda tuz yo'q, uni Kashmirdan keltiradilar. Andaros – shahar, unda

tibatliklar va hindular yashaydi. U yerdan Kashmiringacha ikki kunlik yo'l. Surat (karta)da Ruxud va Mo'lton orasida ko'rsatilgan uylar hammasi qishloqlar va karvon manzilgohlaridir. Cho'llar quruq, ularda o't-o'lan oz.

Xorazm – Movarounnahrning g'arbiy [qismi] Xorazm hududidan iborat. Koj⁹⁹ – Xorazmning qasabasi, G'o'r Turkistonining eshigi erur; turklar, Turkiston, Movarounnahr va Xazarning borgohi hisoblanadi, savdogarlar [gavjum] joy. Uning podshosi muxtoriyat [huquqiga ega] podshohlardan va uni Xorazmshoh deydilar. Ul joyning odamlari botir va jangovar. Farovon shahardir. Unda yostiq jildi, qarokand, bo'z, kigiz, kamar va pishloq (yoki qimiz) tayyorlanadi. Xashmisan – shaharcha, savdogarlar [gavjum], to'kin-sochin joy. Navjobon – shahar; uning devori, temir darvozalari, oqar suvlari bor, aholisi ko'p. Gurganj (qo'hna Urganch)¹⁰⁰ – shahar, qadimda u Xorazmshohning mulki bo'lgan, hozir esa alohida podshosi bor va uning podshosini Gurgonj amiri deydilar. To'kin-sochin, boy shahar; Turkistonning eshigi va savdogarlar (gavjum) joy erur. U ikki shahardan iborat – ichki shahar va tashqi shahar; odamlari jangovarlik va merganlik bilan mashhur. Kardnozxos, Bazminiya, Deh-Qarolkin – uchta shaharcha, ularning aholisi kam, ekinzorlari bor. Kardar – aholisi gavjum shaharcha, ekinzorlari bor. Unda ko'plab [qorako'l] teri tayyorlanadi. Xiv(Xiva)¹⁰¹ – shaharcha, devorlari bor, Gurgonjga qarashli.

Jand, Xora, Dehinav – uchta shahar, Choch daryo (Sirdaryo)si bo'yida joylashgan; Xorazmdan o'n manzil va

⁹⁹ Koj – yozma manbalarda, shuningdek, Kas, Kat nomi bilan keladi. Afrig'iy Xorazmshohlar davlatining (305-995) poytaxti bo'lgan. Abu Rayhon Beruniy tug'ilgan shahar. Hozirgi kundagi Qoraqalpog'iston Respublikasidagi Beruniy shahrining o'rnida joylashgan tarixiy shahar.

¹⁰⁰ Gurganj (Ko'hna Urganch) –Anushtaginiy Xorazmshohlar davlatining (1097-1231) poytaxti bo'lgan. Arab manbalarida Jurjoniya deb nomlangan. 1646 yili Abulg'oz Bahodirxon Yangi Urganchga asos solgandan keyin bu shaharning nomi Ko'hna Urganch bo'lib qolgan. Hozirgi kunda Turkmaniston Respublikasida joylashgan.

¹⁰¹ Xiva – arxeologik ma'lumotlarga ko'ra, shahar mil. avv. V asrda barpo etilgan. 1570 yillardan Xiva xonligi (1511/2-1920) poytaxti bo'lgan.

Porobdan yigirma manzil masofada. G'uzlarning podshosi qishda ana shu Dehinavda yashaydi.

Hudud ul – olam. T.: O'zbekiston, 2008

BUYUK IPAK YO'LI ATAMASI HAQIDA

(75) «Ipak yo'li» atama sifatida ishlatila boshlanganiga ko'p vaqt bo'lgani yo'q. U ilk bor 1877 yilda nemis geograf olimi Ferdinand Paul Vilgelm (Vilgelm Rixtgofen)¹⁰² (1833–1905) tomonidan nashr etilgan «Xitoy» nomli kitobda uchraydi. Nemis tilida ushbu atama «Seyden strassen» (Seiden strassen) deb atalgan. Ingliz tilida chiqqan kitoblarda mazkur atama «Ze Silk Roud» (The Silk Road), keyinchalik rus tilida chiqqan kitoblarda esa «Velikiy shyolkovy put» deb nomlandi, Xitoy adabiyotida u «Sichou chjilu» deb yuritilgan. «Ipak yo'li» atamasi adabiyotga kirib kelishidan oldin har xil nomlarga ega bo'lgan. Qadimgi Xitoy manbalarida «dao» (yo'l), «Shiyuy dao» («G'arbiy mamlakatlar yo'li») deyilgan.

Vilgelm Rixtgofen «Ipak yo'li» atamasini ishlatar ekan, dastlab u Xitoy–Turkiston Hindiston yo'nalishidagi yo'lni ko'zda tutgan. Keyinchalik uning ishlarini davom ettirgan olimlar qadimgi savdo yo'llarini atroflicha tadqiq qilib, atamaning mazmuniga o'zgartirish kiritganlar. Xususan, Xitoyning qadimgi poytaxti Chang'an shahridan boshlab Xesi yo'lagi (Xeshi koridori), Taklamakon cho'li atrofi va Turkiston shaharlari orqali Yaqin Sharq, Afrika va Yevropa mamlakatlarini bog'lab turuvchi karvon yo'lini nazarda tutganlar.

So'nggi davrdagi asarlarda Sharq bilan G'arbni, ya'ni Osiyo, Yevropa va Afrika qit'alarini bog'lovchi yer yuzi va dengiz yo'llarini «Ipak yo'li» deb atash ham adabiyotga kirib keldi. Bunday misollarni rus va xitoy adabiyotida uchratish mumkin.

¹⁰² Vilgelm Rixtgofen – 1833-1905 yillarda yashagan nemis geograf olimi.

Ammo xitoy ilmiy adabiyotida mualliflar bir ovozdan qadimgi Chang'andan Taklamakon Cho'li atrofi, Pomir dovonlari, O'zbekiston, Turkmaniston, Eron va Turkiya shaharlari orqali Rimga borgan karvon yo'lini eng qadimiy «Buyuk ipak yo'li» («Da sidao») deb e'tirof etmoqdalar. Masalan, «So'zlar dengizi» («Sixay») ensiklopedik lug'atida ushbu yo'l quyidagicha ta'riflanadi: «Ipak yo'li» («Sichou chjilu») Osiyo qit'asining u chekkasidan bu chekkasigacha kesib o'tadigan qadimiy aloqalar yo'lidir. (76) Uning asosiy qismi Sharqda Veyxe daryosi bo'ylaridan boshlanib g'arbga qarab cho'zilgan. Xeshi yo'lagidan o'tgandan so'ng, ushbu yo'lning bir yo'nalishi Sharqiy Turkistondagi Torim daryosining shimoliy qirg'oqlari, Suli (Qashqar shahri), Pomir, Farg'ona vodiysi (Dayyuan, Davan), Kangkiya davlatining janubiy qismi (Samarqand atrofi) orqali, ikkinchi yo'nalishi Torim daryosining janubidagi Yorkend (hozirgi Shache nohiyasi) va Pomirdan o'tib hozirgi Amudaryoning yuqori va o'rta oqimi bo'ylaridagi shaharlar orqali g'arbga qarab ketgan. Shundan keyin bu yo'l Marv (Muley), Damxon (Damg'on), Aman (hozirgi Hamadon), Bag'dodning Sharqi-janubidagi viloyatlar va O'rta dengizning Sharqiy sohillari orqali Rimga yetib borgan. Mil. avv. II asrdan keyingi ming yil davomida Xitoydan ko'p miqdordagi ipak matolar mana shu yo'l orqali G'arbga olib ketilgan. Shu bois bu yo'l «ipak yo'li» deb nomlangan [125; 53-bet]. Aynan shu yo'l qadimgi katta karvon yo'li bo'lganligini Xitoy manbalari ham tasdiqlaydi.

Xo'jaev Ablat. Buyuk ipak yo'li. T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2007.

BUYUK IPAK YO'LI TARMOQLARI HAQIDA

VI-VII asr boshlariga taalluqli manbada, Xitoy geografi Pey Szyuyning «G'arbiy o'lkalar ta'rifi va xaritasi» (140) asarida

Buyuk ipak yo'lining Dunxuandan O'rta Yer dengizgacha bo'lgan uchta yo'nalish keltirilib o'tiladi:

1. Shimoliy yo'nalish: Hami – Borko'l – Issiqko'l – Janubiy Qozog'iston – Shimoliy Kavkaz – Vizantiya – O'rta Yer dengizi.

2. Markaziy yo'nalish: Turfon – Qorashar – Kuchu – Pomir tog' dovoni – Usturshona – Samarqand – Buxoro – Marv – Eron – O'rta Yer dengizi.

3. Janubiy yo'nalish: Dun'xuan – Lobnor ko'li – Taklamakon sahrosi – Vahon koridori – Tohariston – Eron – O'rta Yer dengizi.

Bu asosiy yo'nalishlarga ta'rif bergan Pey Szyuy bu yo'nalishlar bir-biri bilan kesib o'tuvchi yo'llar tarmog'i orqali bog'langanligini, ular orqali Buyuk ipak yo'lining barcha uchta yo'nalishi bir-biri bilan bog'langanligini ta'kidlab o'tadi (Rtveladze E.V., 1999, s.121).

Xo'jaev Ablat. Buyuk ipak yo'li. T: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2007.

YUNONLIK ISKANDAR¹⁰³ O'TGAN YO'LLAR

Yunonlik Iskandar ibn Filif bir qancha mulklarga bo'lingan Rum podshohligini qo'lga olgach, al-Mag'rib tomondagi podshohlarga qarshi yurish qilib, ularni zabt etdi, Yana oldinga bosib, Ko'k dengizgacha yetib bordi. Keyin Misrga qaytdi, Iskandariya [shahrini] bino etdi va uni o'z nomi bilan atadi. So'ngra Shom va undagi bani isroillardan bo'lgan kishilar tomon yo'l oldi. Baytul muqaddasga kelib, uning qurbongohida jonlik so'yib, qurbonliklar qildi. Keyin Armaniston va Bob al-Abvobga borib u yerlardan ham o'tib ketdi; qibtiylar, barbarlar va Yahudiylar unga bo'ysundilar. So'ngra u Buxtanassar va Bobil aholisining Shoh mamlakatida to'kilgan qonlarining o'chini

¹⁰³ Yunonlik Iskandar – makedoniyaik Aleksandr (mil.avv. 356-323) nazarda tutilyapti.

olish uchun Doro ibn Doro tomoniga otlandi. U bilan jang qilib, bir necha marta uni magʻlubiyatga uchratdi va shu janglarning birida oʻz posbonlarining boshligʻi Navjusanas ibn Ozarbaxt Doroni oʻldirdi va Iskandar Eron mamlakatini egalladi. Keyin Hindiston va Xitoyga yurish qildi, uzoq yerlardagi millatlar bilan jang qildi, qayerdan oʻtsa, gʻalaba qozondi. Soʻngra Xurosonga qaytib, u yerni ham egalladi va shaharlar bino qildi. Bundan Iroqqa qaytdi. Shahrizoʻrda kasal boʻlib, shu yerda vafot etdi.

Abu Rayhon Beruniy. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar. Tanlangan asarlar, 1- jild. T.: Fan, 1968.

YOʻL BOʻYIDAGI MANZILLAR

(14) Tehrondan Palashtgacha – 6 farsax, Palashtdan Iyvonkif (Iyvonakiy) gacha - 6 farsax, Iyvonkifdan Qishloqi Xorgacha – 6 farsax, Qishloqdan Podegacha – 4 farsax, Podedan Losgardgacha – 8 farsax, Losgarddan Semnongacha – 6 farsax.

Tehrondan Semnongacha – 36 farsax

Semnondan Ohuvongacha – 6 farsax, Ohuvondan Davlatobodgacha - 8 farsax, Davlatoboddan Domgʻongacha – 3 farsax, Domgʻondan Dehimullogacha – 6 farsax, Dehimullodan Shohrudgacha – 6 farsax, Shohruddan Mayomingacha – 9 farsax, Mayomindan Miyondashtgacha – 6 farsax, Miyondashtdan Abbosobodgacha – 5 farsax, Abbosoboddan Mazinongacha – 7 farsax, Mazinondan Mehrgacha – 5 farsax, Mehrdan Sabzovorgacha – 7 farsax.

Tehrondan Sabzovorgacha – 104 farsax

(15) Sabzovordan Zafaroniygacha – 6 farsax, Zafaroniydan Dastjerdgacha – 5 farsax, Dastjerddan Nishoburgacha – 6 farsax, Nishoburdan Qadamgohgacha – 4 farsax, Qadamgohdan Sharifobodgacha – 7 farsax, Sharifoboddan Arzi aqdas (Mashhad) gacha – 5 farsax.

Tehron dan Arzi aqdas (Mashhad) gacha – 137 farsax.

Arzi aqdasdan Qurqungacha – 4 farsax, Qurqundan Qorasuv bo‘yidagi – Chahorgunbadgacha 4 farsax, Chahorgunbaddan Mazdorongacha – 4 farsax. Mazduron Xurosonning chegarsidir. Mazduronidan Sho‘rluqqacha – 5 farsax, Sho‘rluqdan Alaqbobgacha – 6 farsax, Alaqbobodan Quchigacha – 4 farsax, Quchi Saraxs hududiga kiradi. Quchidan Havuzixongacha – 7 farsax, Havuzixonidan Havuzigallagacha – 7 farsax, (16) Havuzigalladan Marvgacha – 8 farsax.

Arzi aqdas (Mashhad) dan Marvgacha – 49 farsax

Marvdan Charo‘li qal‘agacha – 4 farsax, Charshli qal‘adan Yakkapargacha – 6 farsax, (17) Yakkapardan Yantoqligacha – 7 farsax, Yantoqlidan Satlandigacha – 6 farsax, Satlandidan Ayrigacha – 3 farsax, Ayridan Taxti Sulaymongacha – 8 farsax, Taxti Sulaymondan Jigarbandgacha – 8 farsax, (18) Jigarband Jayhun daryosi qirg‘og‘ida joylashgan. Jigarbanddan Dahanshirgacha – 6 farsax, Dahanshir Jayhun daryosi qirg‘og‘ida joylashgan. Dahanshirdan Ko‘karchingacha – 6 farsax, Ko‘kanchirdan Bobo Salimgacha – 8 farsax, Bobo Salimdan Shturgardangacha – 8 farsax, (19) Shturgarddan (Tuya mo‘yin) dan Pinnak (Pitnak) gacha – 2 farsax, Pinnak (Pitnak) dan Hazorasbgacha – 1 farsax, Hazoraspdan Beshariqqacha – 3 farsax, Beshariqdan Ostona-gacha – 3 farsax, Ostonadan Xivaq shahrigacha – 2 farsax, Marvdan Xivaq shahrigacha – 81 farsax.

Muhammad Ali G‘ofur va Rizoqulixon Hidoyat. Xorazm safari kundaliklari.

Muqaddima va izohlar mulliflari I.Bekchanov va N.Polvonov. T.: Yangi asr avlodi, 2009. B.236.

SO'NGGI O'RTA ASRLARDA KARVON YO'LLARIDAGI AHVOL

So'z xazonining javohirgustari va ma'ni qavofilining manzilshinos rahbari, ani qalami anbarinraqam bu yanglig' guharfishonlig' ko'rguzurkim, chun hamul yil (1240) jumodissoniy oyining avoxirida hazrat sohibqironi huroposbon umaro va sarkardalardin Ollosh biy va Suyun biy va Do'sim biy va Muhammadniyoz yasovulboshi va g'ayrihumni o'zbek va yavmut va chovdurdin sakkiz ming nafar cherik bila Buxoro chapovulig'a nomzad qildi. Ma'murlar farmoni vojibilizon mavjibi bila amal qilib, sur'ati tamom bila maqsad jonibig'a ozim bo'ldilar. Bu ahvol Hilolida xabar yettikim, O'rusdin ko'p korvon chiqib, Erdor yo'li bila Buxorog'a boradur. Bu maqol tavzihi ulkim, Buxorodin ko'p korvon savdo uchun O'rus viloyatig'a borib, ko'p muddatdin beri Xorazm sipohining tavahhumi turktozidin chiqa olmay yotib erdilar. Ul uchurda O'rus podshohi alarg'a o'z yurtidin ko'p korvon qo'shib va ko'p yig'inni bodolg'a uchun asbobi harb va oloti zarb bila mukammal va musallah qilib, to'pu to'pxonani ham alarg'a topshirib, korvon ahlining muhofizat va muhorisatig'a tayin etib, yurtidin chiqarib, Erdor yo'li bila Buxorog'a uzotdi. Bu xabar dargohi sipehrishtiboh mulozimlarig'a masmu bo'lg'och, mavqifi azzu jaloldin farmoni lozim al-imtisol izzi isdor toptikim, mazkur bo'lg'on sarkardalar Buxoro azimatin fasx qilib, korvon qasdig'a harakat ko'rguzgaylar va alarni Buxoro tarafig'a o'tkarmay yo qubbatilislom Xorazmg'a kelturgaylar va yo O'rus mamlakatig'a qaytarg'aylar. Va agar qabul qilmay, inod va sarkashlik ko'rguzsalar, muhoriba va muqotila amrida sa'yi mavfur va jahdi nomaqdur taqding'a yetkurgaylar. Chun farmoni lozimilizon mazkur bo'lg'on sarkardalarga varoi Omuda Ayritom mavzeig'a yetganda etushib, inon insirofin Erdor jonibig'a masruf tutib, jalodat yakronin sur'at maydonig'a surub, shayx Abdulloh Noranjoniyning Sharqiy

tarafidin o'tib, Pishikli va Mingbuloq va Qullar qal'asining usti bila qat'i manozil qilib, Erdor yo'lig'a yettilar. Ul yo'lda korvonni topmay, andin o'tib, Chopma yo'lig'a bordilar. Anda ham topmay o'tib, Quvbu yo'lg'a yettilar. Ul yo'lda karvonning izin ko'rib, ma'lum qildilarkim, alar bormasdin uch kun burun ul erdin o'tibdurlar. Ul yerda sakardalar va ahli sipoh asbobi harb va oloti zarb bila musallah va mukammal bo'lib, karvonning aqabidin ilg'or qilib, Butakoli-Beshto'pa degan mavzeda izidin yetib, urush soldilar. Karvon ahli alarg'a tobi muqovimat keltura olmay, bir baland to'paning ustiga chiqib, aroba va yuklaridin atrofig'a qal'a egirib qabaldilar. Va sipohi zafarpanoh atrof-javonibin ihota qilib, o'n uch kungacha qattig' muhosirag'a tuttilar. Va eshitildikim, ayyomi muhosirada karvon ahli o'tin-sizliqdin baqam va qog'az va qiymatbaho parchalarin o'tg'a yoqib, taom pishirib yebdurlar. Chun karvon ahli ko'rdilarkim, to'rt tarafdin lashkari feruziyasar qurshob, najot yo'li masdud-dur, oxir sulhg'a rozi bo'lib, O'rusning Sarkuska degan sarkardasin elchi qilib yubordilar. Va bu tarafning sarkardalari dag'i o'rta maydong'a uy tutdirib chiqtilar. Savol-javob, munozara va munoqishadin so'ng o'rus elchisi karvonni o'z yurtig'a olib qaytmoq va'dasi bila qaytti. Va tonglasikim, kavokib karvoni sahar sipohi mahobatidin adam shahristonig'a yuz qo'ydi, karvon ahli og'ir yuklarin tashlab, sur'ati tamom bila O'rus jonibig'a harakat ko'rguzdilar. Ul chog'da olomon ot solib, nihoyatsiz mol va o'ljag'a mutasarrif bo'ldilar. Va karvonning izidin to'rt kungacha yurub, O'rusg'a yovuq eltib, murojiat qildilar. Va manozili mutakosira qat'idin so'ng sha'bon oyining avoxirida ostoni davlatposbon mulozimatig'a musharraf bo'ldilar.

Munis va Ogahiy. Firdavs ul-iqbol. Arab yozuvidan tabdil etgan, kirish va izohlar mualliflari Sh.Vohidov, I.Bekchanov va N. Polvonov. T.: Yangi asr avlodi, 2010.

* * *

(261^a) Mazkur yil, ya'ni it yili sana ming ikki yuz yetmish to'qquzda Xorazm viloyatidin ko'p korvon har yili dag'i dastur bila o'rus viloyatig'a ko'p mol bila borib, savdosin butkarib qayttilar. Alarning bir bo'lakikim, ikki yuz o'n ikki tevaga yuklangan asl mato va pokiza qumosh erdi. Sirdaryo pasidin o'tg'andin so'ng ulug' korvondin ayrilib, ilgariroq ravon bo'ldilar. Jumodi us-soniy oyining avosati (1862 dekabr oyi oxirlari) Dutovqaro tengizining kanoridag'i elatg'a yovuq kelgan asnoda chovdar xalqikim, murdor tabiatlari sharorat va shaqovat loyidin taxmiz topmishdur. Hamul karvonning amvoli farovon bila kelaturg'anlarin ma'lum qilib, zoti sharoratlarining tomuru harakatga kirib, oqibat beaynlik ko'zin xotimat vahomatidin yumub, alardin sekiz yuz chog'li otlig' ittifoq bila bir kadik takapo'y urub, o'zlarin baloyi nogahoniy Yanglig' korvon xalqining ustig'a yetkurub, barcha amvol (261^b)va ashyosin g'orat va toroj qildilar. Korvon xalqi jon havlidin har tarafga mutafarriq va parishon bo'lub, sovuq shiddatidin maydonda o'lub, ba'zi yuz ming mashaqqat va mehnat chekib, o'lum holida o'zlarin el orasig'a yetkurdilar. Va chovdor korvon amvolig'a mutasarraf bo'lub, oralarida taqsim qilib, ubasig'a kelib, muonid livosin bir barpo qildilar.

* * *

Chun hazrat zillullohiyning sam'i humoyunig'a bu xabar yetib erdikim, Buxorodin ko'b karvon O'rus viloyatig'a borib bay'u sharo va jame savdosin butkorib, matoi farovon bila ganji ravon yanglig' o'rus qalamravidin chiqib, Erdor yo'lidin yana Buxorog'a ozimdurur. Ul hazrat mazkur safardin kelib, masnadi saltanatda mutamakkin bo'lg'ondin uch kun so'ngkim, zulqa'da oyining g'urrasi va juma kun erdi, dargohi olampanoh mulozimlaridin shijoatintimoy Xolmuhammadboyni bir guruh sipohi

muborazatpanoh bila mazkur bo'lg'on karvon qasdi uchun Erdor yo'lig'a nomzad qildi. Ma'murlar farmoni davlatnishon mujibi bila maqsad yo'lig'a ozim va manozil qat'ig'a jozim bo'lub, Erdor yo'lig'a yettilar va ul yo'lning yuqori va oshoqin ehtiyoti tamom bila nigomish qildilar. Karvondin nomu nishon topmadilar. Oxir Oqtom otlig' mavzedin o'tub, Buxoro tavobeidin Ma'murboy degan qazoqning elu ahshomig'a chapovul urub, benihoyat o'lja va asir dasti tasarrufig'a kirguzdilar. Ul olo-monning ba'zi bul chapovulg'a qanoat qilmay, ilg'or qilib, Buxoro elotidin Vardonzi tumanin chopib, usaroyi farovon va g'anoyimi bekaron bila solim va g'onim murojaat qilib, zulhijja oyining o'n birida qurbon iydining o'rta kuni atabai falak-martaba mulozamatig'a musharraf bo'ldilar. Alar kelmasdin burunroq, zulqa'da oyining o'n to'rtida chahorshanba kuni ul hazrat Xo'qand elchisi Qarobosh dodxohg'a (421^b) Bobobekni elchilik yo'suni bila qo'shub, muhabbatnoma bila Xo'qand viloyatig'a irsol qildi.

Ogahiy. Zubdat ut- tavorix.T.: O'zbekiston, 2008.

* * *

Tarix yozadurgan muarrixlar madhu ta'rif yozadurgon munshiy va mirzolardin bo'lmay, voqeyiy so'zlarni yozadur. Xulosayi kalom, Xudovandi olamning irodai azaliysi ilan bu Turkiston viloyati butun Dashti Qipchoq ilan Rusiya podshohining taxti tasarrufiga kirib, Buxoro va Xiva xonliklari Rusiya himoyasida va hududi doxiliyda bo'lub, ul xonlarning xorijiy ishlaridin boshqa doxiliy ishlari o'z ixtiyorlariga qolduruldi. [Oyati karimada aytilganidek] «Tu'ti-l-mulka man tashau va tanziu-l-mulka mim-man tashau va tu'izzu man tashau va tuzillu man tasha'» [«...sen istagan kishingga mulk ato qilursan va istagan kishingdan bu mulkni tortub olursan, istagan kishingni aziz qilursan va istagan kishingni xor qilursan»].

Xususan, Toshkand shahri va atrof-javonibi ilan Rusiya davlatiga tobe bo'lganiga ushbu 1915 nchi yil 15 iyunga ellik yil to'ldi, ya'ni yarim asr bo'ldi. Tarixning bu davri tamom boshqa davr boshladi.

Rusiya Toshkandni fath qilishdin ilgari Toshkand aholilari nihoyatda xarob va faqir va kambag'al edilar, sahrolarda ziroat kam edi. Zeroki, shahardin olisroq, sahroga chiqib, ziroat qilmak xavfli edi. Chunki, hakamlarimizning bequvvatligidin istifoda qilib, atrof-jonibidin elatiya qozoqlar dehqonlarning otuho'kizlarini, ekan ziroatlarini talon-toroj aylab va balki o'zlarini o'ldurub ketmoq xavfi ilan Toshkand shahrining atrofidin olisroq chiqolmas edilar. Tijorat bo'lsa mundin ham yomon darajada bo'lub, tujjorlarimiz yo'llarning xavfli va amniyatsizligidin olis shaharlarga borib, savdo-sotug' qilmas edilar. Toshkandning hosilotlaridan, chunonchi, paxta, o'ruk, yong'oq, mayiz va Shunga o'xshash ajnoslarni rusiya shaharlaridin Tviritiskiy (Tver') va O'runburg shahriga olib boradurgan bir jamoa savdogarlarimiz bor edi, mazkur tariqa mollarni tevaga yuklab bir yuz ikki yuz odam bir karvonboshiga tobe bo'lub, otlik, tevalik safar qilib, dashtu cho'llar, chunonchi, Sarisuv, Boyg'aro, Jambul, Badbaxtcho'l degan dashtu cho'llar ilan borib, ul shaharlardin olgan mollarini ham tevaga yuklab, kelturar edi.

Bu yo'llarda yuqorida bayon qilg'onlarimiz, qozoq to'ralar ul bechora savdogarlardin ba'zi vaqti zakot deb va ba'zi vaqt to'g'ri talon-toroj aylab, mollarini olur edi. Yo'llarning amniyatsiz va o'zimizning ilmsizligimizdin hech ishimizda ravnaq va rivojimiz yo'q edi. Eng katta mashhur boy deganlarimizda ming tillodan iborat to'rt ming so'm yo'q demakga mumkin edi. Ko'chalari-mizga tosh solinmagan va chiroq yo'q, arig'larimiz ko'pruk ko'rmag'an, qishlarda loydin va qorong'uda yurub bo'lmagan, shahrimiz bir xarobazordin iborat edi.

...Xulosai kalom, Kinasarixon Sarisuv, Chu, Xontog'iboy, Qorajambul, Badbaxtning Cho'li ila atrofini, bir taraf Olmati, bir taraf Oqmasjid dashti sahrolariga hukumat yurguzub, goh Rusiya tarafiga va Rusiyadin Turkistonga keladigan karvon savdogarlarini talon-toroj qilib, ko'p savdogarlar molu dunyolaridin ayrilib, dashtu sahroda sarson va sargardon bo'lgan erdilar. Bu voqealarni fahmlagan rusiyalar o'zlariga xon nom qo'ygan yo'lbosarlarni barham berib, sahrodagi elatiyalarni va ham ikki orada qatnaydurgon savdogarlarni tinch qilmoq mud-daosida Turkiston taraflariga askar yubormoqni lozim bildilar. Kinasarixon necha martaba Pashpak, Qumoq, Marki ustida Sarbog'ich degan qoraqirg'izlar ustiga kelib, chopib, mollarni haydab o'g'ul-qizlarini o'lja, asir qilib ketar edi. Ul to'ralarni zolim va xunxo'rliklarini shul tariqa naql qilgan edilarkim, qirg'izlardin asir tushgan bechoralarni qator qo'yub, kimning qilichi o'tkir deb bir-birlariga faxr qilishib, qator turgan qirg'izlardin ikki-uchtasini birdan bo'yniga chopib, kallasini uzub, o'ldurar ekan. Oxiri Kenasarixon Yana bir daf'a ko'p qozoq qo'shuni ilan Chu daryosini It kechuk va Qozuq qoqg'on degan mavzeyidan o'tub, Qurog' o'ti ilan yurub, qoraqirg'izlardin sulta sarbog'ishlarining ustiga kelgan vaqtda, qirg'izlar ham bor quvvatlarini ishga solib, alarning muqobiliga chiqib, urush qilib, oxirida Kenasarixon ilan oning birodarlari Navro'zboy to'ra va Erjon to'ra va bulardin boshqa ko'p qozoqiyalarning kattalari qirg'izlarga asirga tushub o'lgan va yarador bo'lub qolgandin, boshqa bir oz nafarlari Qurog' o'ti va Chu orqali qochib, halok bo'lubdur. Qirg'izlar Kinasarixon ilan ikki ukasini o'ldurub, qirg'izlarning o'zlari va boshqa xalqlar ham ul qozoq to'ralarning talon-torojidan xalos bo'ldilar.

Mirzo Olim Maxdum hoji. Tarixi Turkiston. T.: Yangi asr avlodi, 2008.

OLTINCHI BO'LIM

O'RTA ASRLAR DAVRI. EFTALITLAR, TURKIY XOQONLIK VA ARABLAR ISTILOSI DAVRIDA O'RTA OSIYO

Ilk o'rta arlar O'rta Osiyo tarixiga doir yozma manbalar juda ham kam saqlangan. Yetib kelgan ba'zi manbalar ham hali chuqur o'rganilmagan. O'rxun-Yenisey, Ko'kturk yozuvlari, so'g'd va Xorazm yozuvlaridagi topilgan ba'zi manbalar bu davr tarixi haqida keng ma'lumot bera olmaydi. Arablar bosqini arafasidagi O'rta Osiyodagi ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy hayotni o'rganishda Muhammad Narshaxiyning «Buxoro tarixi», Abu Rayhon Beruniyning «Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar» asarlari ancha ishonarli ma'lumotlar beradi. Shu bilan birgalikda bu davr tarixiga oid arxeologik manbalar ham muhim ahamiyat kasb etadi. Mavzuni o'rganish uchun Narshaxy, Beruniy, Munis, Ogahiy asarlaridan parchalar keltirildi.

PODSHOHLAR TURLARI VA BU PODSHOHLARGA XOS BO'LGAN LAQABLAR

Eronliklar yil hisoblarining birinchi qismida podshohlarning umri va ularning mashhur ishlari haqida eshitishdan dillar nafratlanadigan, quloqlar tortinadigan va aqlga sig'maydigan afsonalar bor. Lekin biz[ning vazifamiz] maqsad yo'lidagi xabarlarini tanqid qilish emas, eralarni aniqlashdir. Men eron olimlari, majus ulug'lari va donishmandlari aytganlarini ularning so'zlaridan olingan holatda keltiraman va boshqa xalqlar yil hisoblarida qabul etilgan tartibga muvofiq bo'lishi uchun ularni yuqoridagiday yo'sinda jadvallarga yig'aman. [Podshohlar] laqablarini ismlariga qo'shib keltiraman, Chunki [Eron] pod-

shohlari maxsus [laqablari] bilan o'zga podshohlardan [ajraladilar]. Garchi ulardan boshqa podshohlarda laqab uchratilsa ham, u butun tabaqaga umumiy bo'lib, bir podshoh o'rniga o'tirgan ikkinchisi ham o'sha laqabga sherik bo'laveradi.

Podshohlar turlari: Bu podshohlarga xos bo'lgan laqablar:

Eronning sasoniy podshohlari Shohanshoh va Kisro

Rum podshohlari Bosili, ya'ni Qaysar

Iskandariya podshohlari Batlimus

Yaman podshohlari Tubba

Xazar va to'qiz o'g'iz turklari podshohlari Xoqon

O'g'iz turklari podshohlari Xonuvta

Xitoy podshohlari Bag'pur

Hind podshohlari Balharo

Qannuj podshohlari Robii [Roja]

Habash podshohlari Najjoshiy

Nuba podshohlari Kobul

Sharqiy dengiz orollari podshohlari Maharoj

Tabariston tog'lari podshohlari Ispaxbad

Danbovand podshohlari Masmag'on

G'arjiston podshohlari Shor

Saraxs podshohlari Zoduya

Naso va Abivard podshohlari Bahmana

Kash podshohlari Nidun

Farg'ona podshohlari Ixshid

Ushrushana podshohlari Afshin

Shosh podshohlari Tudun

Marv podshohlari Mohu

Naysobur podshohlari Kanabor

Samarqand podshohlari Tarxun

Sarir podshohlari al-Xajjoj

Dihiston podshohlari Sul

Jurjon podshohlari Anohbad

Slovyan podshohlari Kinoz

Suryon podshohlari Nimrud
Qibt podshohlari Fir'avn
Bomiyon podshohlari Shiri bomiyon
Misr podshohlari Aziz
Kobul podshohlari Kobulshoh
Termiz podshohlari Termizshoh
Xorazm podshohlari Xorazmshoh
Shirvon podshohlari Shirvonshoh
Buxoro podshohlari Buxor xudot
Guzgonon podshohlari Guzgon xudot

XORAZMSHOH – AFRIG'IYLAR¹⁰⁴

Payg'ambar alayhissalom kelgan vaqtda, Xorazm shohlari-dan Arsamux ibn Buzgor ibn Xomgariy ibn Shovush Sixr ibn Azkojvor ibn Askajmuk ibn Saxxasak ibn Bag'ra ibn Ofrig' podshoh edi. Xorazm aholisi [islom dinidan] qaytgandan keyin, Qutayba ibn Muslim Xorazmni ikkinchi marta fath qilgach, xorazmliklarga Askajmuk ibn Azkojvor ibn Sabriy ibn Sixr ibn Arsamuxni podshoh qildi va uni podshohlikka ko'tardi. Xisravlar nasl qo'lidan viloyat ketib, ularda faqat shohlik nomi qoldi, Chunki shohlik ularga merosdek edi. Tarix, musulmonlar rasmiga muvofiq, hijriy [yilga] ko'chirildi.

Qutayba Xorazm xatini yaxshi biladigan, ularning xabar va rivoyatlarini o'rgangan va bilimni boshqalarga o'rgatadigan kishilarni halok etib, butkul yo'q qilib yuborgan edi. Shuning uchun u [xabar va rivoyatlar] islom davridan keyin, haqiqatni bilib bo'lmaydigan darajada yashirin qoldi. Mamlakat idorasi goho bu xonadonda bo'lib, goho boshqa qabilalar qo'llariga o'tib yurdi. Nihoyat, Shahid Abu Abdullo Muhammad ibn Ahmad ibn Muhammad ibn Iroq ibn Mansur ibn Abdullo ibn Turkasbosa ibn

¹⁰⁴ Afrig'iylar – milodiy 305 yildan 995 yilgacha Xorazmda hukmronlik qilgan mahalliy sulola vakillari (davlat poytaxti Kat shahri bo'lgan).

Shovushfir ibn Askajmuk ibn Azkojvor ibn Sabriy ibn Sixr ibn Arsamuxdan – buning zamonida payg‘ambar alayhissalomga payg‘ambarlik kelganini aytib o‘tdim – keyin viloyatlik ham, shohlik ham ular [qo‘li] dan chiqib ketdi.

Abu Rayhon Beruniy. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar. Tanlangan asarlar, 1- jild. T.: Fan, 1968. B.71-72.

KIDARIYLAR

Tarixdan ma‘lumki, miloddan avvalgi V-II asrlarda Jung‘oriyada yashovchi xalqlardan biri yuechji deb atalgan. Yuechji – bu ma‘lum bir xalqning xitoycha nomi, ammo ularning haqiqiy nomi, tili haqida haligacha aniq bir fikrga kelingan emas. Ayrim tadqiqotchilar ularni toxarlar bilan tenglashtiradilar. Xunlar, jujanlar, keyinchalik usunlar siqig‘iga bardosh berolmagan yuechjilarning bir qismi miloddan avvalgi II asr o‘rtalarida o‘z yerlarini tashlab, Baqtriyaga (Amudaryoning o‘rta va yuqori oqimlariga) kelib o‘rnashdilar. Bularning markaziy shahri Bolo (Nashebolo, Naxsheb) Qashqadaryoning quyi oqimlarida joylashgan. Baktriyaga kelib o‘rnashgan yuechjilar boshlig‘i Kidalo (Kidaro) nomli kishi edi, yuechjilarning bir qismi uning nomi bilan kidariylar deb atalgan. Baqtriyaning va Hindistonning shimoliy hududlarini egallagan yuechjilar milodiy I asr boshlarida Kushon davlatini barpo etganlar. Yuechjilarning kidariylar deb nomlangan qismi kuchayib, milodiy V asrning birinchi yarimlarida Toxariston hududida (hozirgi O‘zbekiston va Tojikistonning janubiy viloyatlari va Afg‘onistonning shimoli) Kidariylar davlatini tashkil qiladilar. Milodiy V asr 60-yillarning oxirlarida kidariylar eftaliylar tomonidan tobe etiladi. Kidariylar davlati tugatilib, eftaliylar davlati barpo qilinadi.

* * *

XIONIY – qadimgi qavmlardan birining nomi. Bularning paydo bo‘lishi haqida aniq bir fikrga kelingani yo‘q. Bir guruh olimlar xioniylarni Orol-Kaspiy dengizlarining shimoliy mintaqalarida yashovchi sarmat–alon yoki massagetlardan deydilar. Bularning fikricha, bu xioniylarning bir qismi III ásrda o‘sha yerlardan kelib So‘g‘diyoni (asosan uning markaziy hududi Zarafshon vohasini) egallaganlar. Ikkinchi bir guruh olimlar ularni kushonlarning bir qismi, eron tilli xalqlar bo‘lganligini ta’kidlaydilar. Uchinchi guruh olimlar xioniylarni xunlardan ajralib chiqqan etnik guruh deb qaraydilar. Xioniylarning bu guruhi III–IV asrlarda Yueban xunlaridan ajralib, Movarounnahrda kelib Zarafshon vohasini egallagan bo‘lishlari kerak. Bizningcha, keyingi guruh olimlarining fikrlari haqiqatga yaqin bo‘lishi kerak. Chunki qadimgi Hind va V asrga oid Xitoy solnomalarida Movarounnahrda yashovchi xioniylar «xun» atamasi bilan tilga olingan. Orol-Kaspiy dengizining shimoliy mintaqalaridagi xioniylar (kirma xionlar–qizil xionlar) ham III-IV asrlarda Yueban xunlaridan ajralib chiqqan etnik guruhlardan bo‘lishi mumkin. Yueban xunlarining bir qismi xioniy nomi bilan atalib g‘arbgga siljib, Orol-Kaspiy dengizining shimolidagi mintaqalariga borib o‘rnashdilar; bu yerlarda yashovchi xioniylar (kirma xionlar) yunon tarixchisi Feofanning asarida tilga olinadi. Movarounnahrda yashovchi xioniylar V asrda eftaliylar tasarrufida bo‘ladilar; bularning ayrim guruhlari V–VI asrlarda Afg‘oniston va Hindiston hududlariga borib, keyinchalik mahalliy aholiga qorishib, etnik nomlarini unutib yuboradilar.

* * *

EFTALIY (xaytal, eftal, abdal) – qadimgi turkiy xalq. Bularning ilk ajdodlari xunlardan bo‘lshi kerak. Miloddan avvalgi

VII asrda Xitoyning shimoli-g'arbida (Xesida) yashovchi mallasoch, ko'zi ko'k xunlarning bir qismi yashab turgan yerlarini tashlab, Pomirning tog'li viloyatlariga kelib yashaydilar. Keyinchalik bular mahalliy aholiga aralashib, tillari ham o'zgaradi; bular qadimgi eroniy tilida so'zlashganlar. Xunlarning boshqa bir guruhi Xun imperiyasi yemirilgach, Jung'oriyaga, Ila havzalariga kelib o'rnashadilar va bu yerda Yueban etnik uyushmasini tashkil qiladilar. Yueban etnik guruhidan yirik eftal etnik nomi bilan atalgan bir guruh ajralib, III asrda Movarounnahrda kelib o'rnashdi. Eftaliylarning yana bir guruhi g'arbg, Kaspiy dengizining shimoliy hududlarga borib o'rnashib, keyinchalik bu yerlardagi boshqa turkiy xalqlarga aralashib ketadilar. Eftaliylar V asrning ikkinchi yarimlarida kuchayib, Movarounnahrda yashovchi xioniy, kidariy va boshqa xalqlarni tobe etib davlat barpo etadilar. V asrda ular Qang'ar davlatini mag'lubiyatga uchratdilar. Xurosonning bir talay qismini egallaydilar. Xuroson yeri uchun eftaliylar Eron bilan qattiq urush olib boradilar. VI asr oxirlarida Eftaliy davlati inqirozga uchraydi. Turk xonligi Movarounnahrni egallaydi. Eftaliylarning jangovor qismi Afg'oniston va Hindistonning shimoliy mintaqalariga chekinib, ularning keyingi avlodlari shu yerdagi xalqlarga aralashib, ular bilan qorishib ketadilar. Eftaliylarning Markaziy Osiyoda qolgan qismlari keyinchalik o'zbek, turkman xalqlari tarkibiga kirib aralashib ketadilar. Turkmanlar tarkibida va anato'liyalik turklarning tarkibida abdal nomi bilan eftaliylarning keyingi avlodlari saqlanib qolgan.

* * *

TURKESH – turkiy qavm. VII asrgacha turkeshlar G'arbiy turk xoqonligi tarkibida bo'lib, keyin kuchayib alohida qabila ittifoqini tashkil qiladilar. VII asr oxiri – VIII asrning boshlarida

turkeshlar G'arbiy turk xoqonligidagi barcha qabilalarni tobe etib, Turkesh xonligini barpo etadilar. Turkeshlar «Sariq» va «Qora» guruhlariga bo'lingan. «sariqlar»–mukri etnik guruhidan, «qoralar» – abar etnik guruhidan tashkil topgan. Turkeshlarning etnik nomi ilk o'rta asrlarda boshqacharoq nom bilan atalgan bo'lishi kerak. «Turkesh» nomi bularga keyinroq berilgan. Tarixchi O.Prisakning aytishiga qaraganda, «turkesh» ikki so'zdan – «turk» va «esh» so'zlaridan tashkil topgan bo'lib, («esh» qisqartiruvchi qo'shimcha), «kichik turk» degan ma'noni anglatgan. Turkeshlar chiqib kelishlari ashina turklaridan bo'lmaganligi, ular bu turklarga keyin qo'shilganliklari uchun (turklarning kichigi hisoblanib), Ila daryosi sohillarida yashovchi turkiy qavmlar ularni shunday (kichik turk – turk – yosh) ataganlar, degan fikrga keladi turkolog L.N.Gumilyev. 776 yili turkeshlar qarluqlar zarbasidan inqirozga uchrab, bir necha guruhga bo'linib, keyinchalik o'zbek va Oltoy xalqlarining tarkibiga kirib, ularga aralashib ketadilar.

Shoniyozov K. Qarluq davlati va qarluqlar. T.: Sharq, 1999.

PAYG'AMBARLIK DA'VO QILGAN KISHILAR VA ULARNING ALDANGAN UMMATLARI – ULARGA OLAMLAR EGASINING LA'NATI BO'LSIN – TARIXLARI USTIDA SO'Z

Payg'ambarlik da'vo qilgan kishilar tarixi ustida so'zlaymiz. Biz [bu kitobda] keltirgan payg'ambarlar va podishohlar orasidagi [davrlarda] bir guruh soxta payg'ambarlar chiqqan. Ularning [hammasini] sanashga va ular haqidagi xabarlarni bayon etishga bu kitob qisqalik qiladi. Ularning ba'zilariga hech kim ergashmay halok bo'lgan va o'zidan keyin nomidan boshqa narsa qolmagan. Ba'zilariga esa ma'lum xalqlar ergashgan,

uning qonunlari shu odamlar o'rtasida saqlanib qolgan va bular uning tarixini ishlatganlar. Soxta payg'ambarlardan eng mashhurlarining eralarini bayon etishimiz kerak, chunki buning ular ahvolini bilishga ham foydasi bor.

Zikr qilingan [soxta payg'ambarlarning] avvalgisi Budosafdir. U Tahmuras podshohligidan bir yil o'tganda Hindiston zaminida yuzaga chiqdi va o'zi bilan fors tilida [bitilgan] kitob olib keldi. Budosaf sabiylik mazhabiga da'vat etdi va unga ko'pchilik xalq ergashdi. Peshdodiy podshohlari va Balxda turuvchi kayoniylarning ba'zilar to Bishtosf podshohligidan o'ttiz yil o'tib, Zardusht yuzaga chiqqan vaqtgacha, ikki yoritqichni; yulduzlar va barcha unsurlarni ulug'lar va muqaddas hisoblar edilar.

...Hirmis – Tavrotda Ixnux deyilgan. Idris nomi bilan ham ataladi, ba'zilar aytishicha, Budosaf – bu Hirmisdir. Ba'zilar aytishicha, o'sha harroniyalar haqiqatda sobiylar emas, balki ular kitoblarda «xunafu» va «vasaniya» deb ataluvchilardir. [Go'yo] sobiylar Bobilda qolib, Kursh davrida va Artaxshast zamonida Baytulmuqaddasga qarab harakat qilgan [Yahudiy] qabilalaridandir. Ular majusiy shariatiga moyil bo'ldilar va Buxtanassar diniga o'tib, Suriyadagi somiriylar singari majusiylik va yahudiylik qorishgan bir mazhabni tutdilar.

...Keyin ozarbayjonlik Zardusht ibn Safid Tumon¹⁰⁵ yuzaga chiqdi. U Manuchehr podshoh naslidan, mug'lar xonadonidan, ularning ko'zga ko'ringan kishilari va ulug'laridan edi. Bu [hodisa] Bishtosf podshohligidan o'ttiz yil o'tgandan [keyin] ro'y berdi. [Zardusht] ikki yoki – o'ng va so'li qirqilgan ko'ynak kiygan, beliga xurmo po'stlog'idan zunnor bog'lagan, og'ziga sholdan suzg'ich tutgan, yozuvlari o'chib ketgan bir varaqni-qog'ozni qo'lga ushlab, ko'kragiga qo'ygan holda yuzaga chiqdi. Majusiylar gumonicha, Zardusht osmondan kunduz yarmida

¹⁰⁵ Zardusht ibn Safid Tumon – zardushtiylik ta'limotining asoschisi (mil.avv. 1-ming yillik boshlari).

Balxdagi bir ayvon tomiga tushgan. Tom yorilib, Bishtosf kunduzgi uyqudan uygʻonib ketgan. Zardusht uni majusiylikka, tangriga imon keltirib, uni pok va muqaddas bilishga, shaytonga ibodat qilmaslikka, podshohlarga boʻysunishga, oʻz tabiatini isloh etishga va eng yaqin kishisiga uylanishga daʼvat etgan. Ammo onalarga uylanish xususida lashkarboshi Marzubon ibn Rustanning mana bunday hikoya qilayotganini eshitdim: «Zardusht buni majusiylarga buyurmagan. Faqatgina Bishtosf Zardusht atrofiga oʻz zamonining donishmand va olimlarini yiqqan va ular Zardushtdan soʻragan masalalari orasida odamlardan ajralib, onasi bilan turgan va oʻz naslining uzilib qolishidan qoʻrqib, oʻz onasidan boshqa ayol bilan aloqada boʻlishga yoʻl topmagan «kishi haqida savol berganlarida, Zardusht u kishining oʻz onasiga yaqinlik qilishi mumkin deb fatvo bergan, xolos».

Zardusht majusiylar «Abisto»(Avesto) deb ataydigan kitob bilan [yuzaga] keldi. Bu kitob barcha boshqa xalqlar tillariga muxolif bir tilda [yozilgan] va alohida tartibda boʻlib, maxsus bir til egalari bilib, boshqa til egalari bilmay qolmasligi uchun [u tildagi] harflar soni hamma tillar harflaridan ortiq edi. Zardusht bu kitobni Bishtosfning oldiga qoʻydi, Bishtosf mamlakatining ulugʻlari hozir edilar va mamlakat aholisidan koʻp xalq yigʻilgan edi. Zardusht mis eritishga buyurdi, mis eritildi. Shunda Zardusht: «Tangrim, agar bu men bilan shu podshohga yuborgan kitobing boʻlsa, misning zararini mendan qaytar!» – dedi. Keyin u [eritilgan misni] ustidan quyishga buyurdi. Misni uning koʻkragi va qorniga quyib yuborgan edilar, ustidan oqa boshladi va maydalanib har bir moʻyiga yumaloq mis shar boʻlib osildi. Bu sharlar majusiylar hukmronligi davrida ularning xazinalarida saqlanayotganini eshitdim.

Bishtosf [Zardushtga] rozilik bildirdi va uning daʼvatini qabul etmay turganida xudoning oldidan farishtalar kelib, uni Zardushtga imon keltirishga buyurganlarini aytdi. Shundan

keyin Zardusht o'z diniga da'vat qilib yetmish yil, [ba'zilarning] aytishicha, qirq yetti yil umr ko'rdi. Ibroniylar Zardusht Ilyos payg'ambar shogirdlaridan edi, deb da'vo qiladilar. Zardusht [o'zining] «Tug'ilish kitobi»da bolalik vaqtida Harronda hikmatshunos Ilyosdan ilm o'rganganini aytgan.

Rumliklar da'vosicha, Zardusht Muvsuldan bo'lgan. Ehtimol ular Ozarbayjon chegaralarini Muvsul chegaralariga qo'shib, shunday degan bo'lsalar kerak. Yunonliklar [bunday] deydilar: «Ammuniyning faylasuflar fikrlarini bayon etish maqsadida tuzgan kitobida hikoya qilishicha, Fisog'urning ikkita shogirdi bo'lib, birini Qaloyus, ikkinchisini Faylaqus deb atashar ekan. Qaloyus Hindiston mamlakatiga borib, Barahmanlar [ta'limoti] nisbat beriladigan Barahman unga yetti yil shogird bo'lgan va undan Fisog'ur ta'limotini o'rgangan. Qaloyus o'lgach, Barahman [Yangi] fikrlar ijod etib, ularni Fisog'ur ta'limotiga qo'shgan.

Faylaqus esa Bobilga borgan. U bilan Purushosfning o'g'li Safid Tumon deb mashhur bo'lgan va Zardusht nomi bilan tanilgan Vortush uchrashgan va undan ta'lim olgan. Faylaqus o'lgach, Zardusht Siblona tog'iga kirib, bir qancha yil shu yerda yashagan. Nihoyat kitobini tuzib, u yangiliklarini yuzaga chiqargan». To'g'risi shuki, Zardusht Ozarbayjondan bo'lgan. Ehtimol, uning tug'ilish haqidagi kitobida zikr qilishicha, u o'z otasi bilan Larronga borib, hikmatshunos Ilyosga uchragan va undan [ilm] istifoda etgan, deb bizga uning haqida hikoya qilingan [kishidir].

Yilnoma kitoblarida bunday deyilgan: Shopur Zul Aktof podshohligining oxirida majusiylikka muxolif bir xalq paydo bo'ldi. Dushar ibn Manuchehr qabilasidan Odarbod ibn Moraspand ular bilan bahslashib, g'alaba qozondi. Keyin ularga mana bu alomatni ko'rsatdi. Eritilgan misni o'zining ko'krigidan quyishga buyurdi, mis quyildi-yu unga zarar qilmay qotib qoldi. Shunda Shopur uning bolalarini Zardusht bolalari

qatorida mubadlar orasida o'z mubadlariga aylantirdi. [Zardusht] keltirgan Abisto kitobidagilarni bilish hammaga umumiy emas, faqatgina majusiylardan diyonati ishonchli, tutgan yo'li dinlari arbobi qoshida maqталadigan kishiga xos edi. Bunday kishiga ham din arbobi tomonidan shu xususda bitilib muhrlangan hujjat bo'lgandagina ruxsat berilardi.

Podshoh Doro ibn Doro¹⁰⁶ xazinasida [Abistonig] o'n ikki ming qoramol terisiga tillo bilan bitilgan bir nusxasi bor edi. Iskandar otashxonalarni vayron qilib, ularda xizmat etuvchilarni o'ldirgan vaqtda uni kuydirib yubordi. Shuning uchun o'sha vaqtdan beri Abistonig beshdan uchi yo'qolib ketdi. Abisto o'ttiz «nask» edi, majusiylar qo'lida o'n ikki nask chamasi qoldi. Biz Qur'on bo'laklarini haftiyaklar deganimizdek, nask Abisto bo'laklaridan har bir bo'lakning nomidir.

...Endi [maqsadga] qaytib so'zlasak, eronliklar Zardusht keltirgan majusiylarni din tutdilar va ular Isoni ko'kka ko'tarib, [uning] shogirdlari [o'n ikki havoriy] Iso diniga da'vat [qilish] maqsadida har tomonga tarqalmaguncha, majusiylarda mazhablarga bo'linmadilar va ixtilof qilmadilar. Isoning shogirdlari mamlakatlarga tarqalgach, ba'zilari Eron mamlakatiga borib qoldi. Ibn Dayson va Marqiyun ikkovi Iso da'vatini qabul etgan kishilardan bo'lib, uning so'zlarini eshitgan edilar. Ikkovi Iso so'zidan bir qism va Zardusht tomonidan eshitganlaridan bir qism olib, har biri shu ikki so'zdan ikki qadimgi asl mazmunni o'z ichiga olgan bir mazhab tuzdi va har biri bittadan injil chiqarib, uni [Iso] Masihniki qilib ko'rsatdi va undan boshqa [injillarni] yolg'onga chiqardi. Ibn Dayson yuragiga xudoning nuri joylashganini da'vo qildi. Lekin bular [Injillarining Iso injiliga] muxolifligi ular ikkovini va ularga ergashganlarni xristianlar jumlasidan chiqaradigan darajaga yetmadi. Ularning injillari hamma masalalarda ham xristianlar injiliga qarama-

¹⁰⁶ Doro ibn Doro – Doro III, Eron ahamoniylari davlati (mil.avv. 558-330)ning so'nggi hukmdori (mil.avv. 336-330).

qarshi qo'yilmadi, balki bu ikki [injilda] ortiq va kamlik yuz berdi, xolos. Tangri bilimdonroqdir.

So'ngra [Budosaif va Zardusht] ikkovidan keyin Fodarun shogirdi Moniy¹⁰⁷ keldi. U majusiylar, xristianlar va «sanaviya» mazhablarini bilgan edi. U payg'ambarlik da'vo qildi. U o'zining Shopur ibn Ardashir¹⁰⁸ga [atab] yozgan «Shopuraqon» nomli kitobining boshida: «Hikmat va yaxshi amallar doimo [xudoning] elchilari vaqti-vaqti bilan keltirib turganlarning o'zidir. Bir zamon u [hikmat va yaxshi amallar] Bud ismli elchi orqali Hindiston mamlakatiga, bir zamon Zardusht orqali Eron zaminiga va bir zamon Iso orqali Mag'rib zaminiga yuborilgan. So'ngra bu oxirgi asrda men Moniyga – haqiqiy xudoning elchisiga– shu vahiy tushirilib va shu payg'ambar keltirilib [men orqali] Bobil zaminiga yuborildi»,– dedi.

Moniy abjad harflari tartibida yigirma ikki harf yuzasidan tuzgan injilida o'zini [Iso] Masih xabar bergan «Foraqlit» va «payg'ambarlarning muhri» deb ko'rsatdi. U olamning borligi va ko'rinishi haqidagi hujjat va dalillar natijalariga zid ravishda xabar berdi. Nur olamlariga, qadimgi insonlar va «hayot ruhiga» [ishonishga] da'vat etdi. Nur va zulmat qadimdan bor va bu ikkisi azaliy, dedi. Hayvon so'yishni va unga alam yetkazishni, olov, suv, o'simliklarga ziyon yetkazishni – eng ochiq so'z bilan – harom qildi. Siddiqlar, ya'ni Moniy mazhabidagilarning taqvodorlari va zohidlari o'zlariga farz qilgan qonunlar tuzdi. U [qonunlar] bechorachilikni ixtiyor etish, hirs va shahvatni qo'porib tashlash, tarki dunyo qilish va undan yuz o'girish, uzluksiz ro'za tutish, imkon boricha sadaqa berish, bir kunlik ovqat va bir yillik kiyimdan boshqa qo'r-qutni o'ziga harom

¹⁰⁷ Moniy – (taxm. 216–277), moniylik ta'limoti asoschisi. Bu ta'limotni Eron shohi Shopur I quvvatlab, uni xristianlik va mahalliy dinlarga qarshi qo'ygan. Uning tarafdorlari O'rta Osiyo, Misr, Sharqiy Turkiston (Sinszyan), Rim imperiyasining Sharqiy viloyatlarida keng tarqalgan. Turli rivoyatlarda Moniyning o'z davrida iste'dodli naqqosh, rassom ham bo'lgani haqida hikoya qilinadi.

¹⁰⁸ Shopur ibn Ardashir – Shopur I, sosoniylar sulolasidan (227-651 yy.) bo'lgan Eron hukmdori (tahm. 240-272).

qilish, jinsiy aloqani tark etish, xalqni da'vat qilib yo'lga solish uchun doimo dunyoni kezishdan iboratdir.

Yana [moniychilar] eshituvchilariga, ya'ni tobelariga va dunyo ishlari bilan aralashib yurib, ularning so'zini qabul etuvchilarga mulkining o'ndan birini sadaqa qilish, umrining yettidan birida ro'za tutish, birgina xotin bilan cheklanish, siddiqlarga g'amxo'rlik qilish va kasalliklarini uzoqlatish kabi boshqa rasm-rusmlarni farz qiladilar.

Moniydan hikoya qilishicha, u insondan shahvat qo'zg'olsa, o'g'il bolalarga yaqinlik qilishni halol qilgan. Bunga moniychilarning har biriga besoqol va silliq maxsus bir xodim xizmat qilib turishi dalil keltiriladi. Lekin men Moniyning o'zim voqif bo'lgan kitoblarida bunday so'zni uchratmadim, aksincha, uning tutgan yo'li [u haqda] hikoya qilinganning teskarisidan dalolat beradi.

Moniy «Shoburaqon» kitobining payg'ambar kelishi bobida hikoya qilishicha, u Bobilning yuqori Kuvso arig'i [yonidagi] Mardinu degan qishloqda Bobil munajjimlarining yillari, ya'ni Iskandar tarixidan besh yuz yigirma yettinchi yilda va Ozarbon podshoh yillaridan to'rt yil o'tganda tug'ilgan. O'n uch yoshida, Bobil munajjimlari yillarining besh yuz o'ttiz to'qqizinchi yilida va shahanshoh Ardashir [podshohlighi] yillaridan ikki yil o'tganda [Moniyga] vahiy kelgan. Bu fasl [yil hisobini] yuqorida ashkoniy davlati va «qabilalar podshohlilari» muddatini bayon qilganda tas'ih etdik.

Nasroniy Yah'yo ibn No'monning majusiylarga qarshi yozgan kitobida aytishicha, xristianlarda Moniyning ismi Qurbiquq ibn Fataq bo'lgan. Moniy yuzaga chiqqach, unga ishonuvchilar va tobelar ko'paydi. O'z injili, «Shoburaqon», «Tiriklar xazinasini», «Jabborlar haqida kitobi», «Sirlar kitobi» kabi ko'pgina kitob va maqolalar ta'lif etdi va bu asarlarida [Iso] Masihning ramzlarini ochganini da'vo qildi.

...Moniy da'vatini qabul etganlarning unga mansub qoldiqlari bo'lib, ularning Samarqanddagi mashhur sobiylar guruhidan boshqasi islom shaharlarining biron joyida jam bo'lishlari mumkin bo'lmaydigan darajada tarqalib ketganlar. Islom mamlakatidan tashqarida esa Sharq turklarining, Xitoy, Tibet aholisining aksari, hindlarning ba'zilar Moniy dini va mazhabidalar... Ispahbad Marzubon ibn Rustamning [mana bunday] hikoya qilayotganini eshitdim: «Shopur Zardushtning payg'ambarlik da'vo qiluvchilarni mamlakatdan haydash [haqidagi] qonuniga asoslanib, Moniyning o'z mamlakatidan [quvib] chiqargan va unga qaytib kelmaslikni shart qilgan. Moniy Hindiston, Xitoy va Tibet tomonlariga g'oyib bo'lib, u yerlarda [o'z diniga] da'vat qilib yurgan va keyin qaytib kelgan. Shu vaqtda Bahrom uni tutib o'ldirgan, chunki u shartni buzib, [o'z] qonini to'kishni halol qilgan».

Ulardan [Budosaif, Zardusht va Moniydan] keyin Naso aholisidan Mazdak ibn Hamdodon¹⁰⁹ degan kishi paydo bo'ldi. Mazdak Qubod ibn Firuz¹¹⁰ davrida mubadlar mubadi, ya'ni qozilar qozisi edi. U sanaviylikka da'vat qildi va mazhabining ko'p joyida Zardushtga muxolif chiqdi. U odamlar barcha mol-mulk va xotinlar masalasida bir-birovlariga sheriklar, dedi. Son-sanoqsiz xalq unga ergashdi, Qubod ham unga imon keltirdi. Ba'zi eronliklar gumonicha, Qubod Mazdakka faqat uning tobelari ko'paygan vaqt davlati uchun xavfli bo'lishidan qo'rqib, majburiy suratda ergashgan.

Ba'zilarning da'vosicha, Mazdak hiylagarlardan bo'lgan. U Qubodning o'z amakisi o'g'lining xotinini yaxshi ko'rib qolganini bilgach, ustalik qilib shu mazhabni o'ylab chiqargan va uni e'lon qilgan. Qubod uni darrov qabul etgan. Mazdak

¹⁰⁹ Mazdak ibn Hamadon – (470-529), mazdakiylik ta'limotining asoschisi, mazdakiylar harakatining rahbari. Mazdak ta'limotining asosida tenglik g'oyasi yotadi. Uning fikricha, dunyoning barcha boyliklari odamlarga teng taqsimlanishi lozim. Eron shohi Kubod I (488–531) hukmronligi davrida Eron bosh kohini bo'lgan.

¹¹⁰ Qubod ibn Firuz – sasoniylar sulolasidan Eron hukmdori (488-531).

Qubodga chorva mollarini to ajali yetguncha so'yishni man qilgan va unga: «[O'g'ling] Anushervon onasi bilan yotib, undan lazzat olmaganimcha sening istaging to'la muyassar bo'lmaydi»,– degan. Shunda Qubod uning so'zini qabul etib, [o'z xotinini] uning ixtiyoriga bergan. Shu vaqt Anushervon Mazdakning oldiga kelib, onasi haqida unga so'z yuritgan, yalinib-yolborgan va qnasi sababli uning oyoqlarini o'pgan. Nihoyat Mazdak [Anushervon] onasini o'z holiga qo'yib, uni minnatdor qilgan.

Anushervon¹¹¹ podshoh bo'lgach, uning dastlab qilgan ishi Mazdak va uning sahobalaridan qo'lga tushganini ushlab va ularning yuzlarini quyiga, orqa tomonlarini yuqoriga qilib, chuqurlarga ko'mdirib o'ldirishdan iborat bo'lgan. Anushervon Mazdakka tobe bo'lgan hamma ulug' va atoqli kishilarni uning e'tiqodidan qaytishga majbur qilgan va qaytmagan kishini o'ldirtirgan. U doimo: «Mazdak kuniga bog'liq biron narsaga e'tibor bersam, albatta, burnimda uning oyoqlarini o'pgan vaqtimdagi paytavasining hidini sezaman»,– der edi.

Mazdakka ergashganlardan unga nisbat bilan «mazdakiya», mazdak-chilarning din va mazhablariga nisbat bilan «xurram-diniya», tafsir ma'nosiga nisbat bilan «zindikiya» toifalarigina qoldi. [Tafsirga nisbatning] sababi shuki, ular so'zida «zand»–tafsir, «bozand» – ta'vil ma'nosini beradi. Mazdak Abisto tafsiri va ta'vilining egasimai, deb da'vo qilardi. Moniyalar ham majoz va ko'chma ma'noda shu ismga nisbat beradi. Islomdagi «botiniya»lar ham mazdakiyalarga nisbat beriladi, chunki bular birinchi va ikkinchi [imomlarini] pok yaratuvchining sifatlari bilan tavsif qilishlari va [oyatlarning] zohiri ma'nolarini qo'yib, botiniya ma'nolarga yo'yishlari jihatdan mazdakiyalarga o'xshatiladilar.

Abu Rayhon Beruniy. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar. Tanlangan asarlar, 1- jild. T.: Fan, 1968.

¹¹¹ Anushervon – Xusrav I nomi bilan ham mashhur bo'lib, sosoniylar sulolasidan bo'lgan Eron hukmdori (531-579).

SO'G'D ELCHISI FATUFARNING CHOCHDAN JO'NATGAN MAKTUBI

Janobi hukmdorga, buyuk tayanchimiz, So'g'd podshosi, Samarqand hokimi Devashchiga uning eng e'tiborsiz («millioninchi» darajali) quli Fatufarndan murojaatnoma. Janobi hukmdor, (senga) buyuk shon-sharaf (egasiga) ko'pdan-ko'p ta'zim yo'llayman («murojaat qilaman»). Va janob, men bu yerga, Choch hukmdori huzuriga keldim. Janob, xatlarni ham toshirdim; og'zaki («til bilan») (aytilishi) lozim bo'lgan murojaatnomani ham to'liq, oqizmay-tomizmay («qoldiqsiz») bayon etdim.

Tudun¹¹²ga ham, uning yordamchisiga ham. Va janob, xoqonga (mo'ljallangan xatni ham, Farg'ona podshosiga mo'ljallangan xatni ham Farg'ona tutug'i qo'li bilan (orqali) Farg'ona podshosi tomon jo'natdim. Janob, men shu tufayli yuqoriga tomon (yana yo'l) yura olmadimki, xabarlarga ko'ra xoqon (hech) ko'rinmas emish. Janob, tudundan va uning yordamchisidan xat va og'zaki javoblarni oldim va janob (yo'lga chiqib) Apvartkonga (yetib) kelganimda, janob, Chadrchik haqida yaxshi xabarlar eshitmadim, hamda Ustrushon viloyati hammasi (dushmanga) topshirilgan. Janob, men yoppa yolg'iz, behamroh, holda (yo'linda davom etib) yurishga jur'at qilolmayapman. Janob, ikkinchi qayta Choch tomon qaytib keldim. Buning uchun (sen) hukmdorimdan juda yomon qo'rqyapman. Janob, Tudun toziylar (arablar) bilan bitimga binoan chekindi. Bitimga ko'ra Jamravaz va fors lashkarboshisi quyi tomon ketdilar. Xabarlar (borki), tovon undirib olish va kuchlarni arablardan nariga olib ketish (ularning maqsadidir). Janob, xabarlarga binoan xvonak hech ko'rinmaydi, chunki ular yuqoriga qarab ketishdi va haligacha hech kim qaytib kelgani yo'q. Janob, tudun Tarband bilan bitim tuzgan edi. U yerdagi hamma joylarni oldi. Janob, Chadrchikda (tuzilgan) sulh munosabati bilan, eshitishimcha

¹¹² Tudun – ilk o'rta asrlarda Choch (Shosh) hukmdorlari shunday atalgan.

(«Sulh, xabari tufayli») yordamchi juda g'amgin, anduxnok bo'lmoqda va yana yoningga borolmagani uchun sendan (hukmdordan) qo'rqmoqda. Janob, so'ngra sen tomondan (hukmdordan) xabarlar kelmay qoldi. Janob, mana bu xatlarni men Marvon (ismli kishi) qo'li orqali Kand tomonidan (aylana yo'l bilan) jo'natdim. Janobi hukmdor, buyuk tayanchimiz So'g'd podshosi, Samarqand hokimi Devashtichga uning eng e'tiborsiz («millioninchi» darajali) quli Fatufarndan maktub.

Is'hoqov M. Unitilgan podsholikdan xatlar. T.: Fan, 1992.

KUYOVNING KELIN TOMON OLDIDAGI MAJBURIYATLARI

Tarxun¹¹³ podsholigining X yilidir. Masvug'ich oyining. Osmonruch kuni. «Laqabi Nidon bo'lmish Uttakin Qiyshiq o'g'lidan Navekat hokimi Cher Vaxzanak o'g'luga va uning (Cherning) o'g'illariga, urug'-aymoqlariga, Men, janob, sendan laqabi Chata bo'lmish Dug'dg'unchani Viyus qizini xotinlikka oldim. So'ngra senga, Cher, men shunday arz qildim va va'da berdim: shu bugundan iborat kelgusida toabad Chata menga xotin bo'lib qolajak va janob, sening qarshingda hamda xudo Mitra guvohligida quyidagilarni zimmamga olaman: uni (Chatani) men sotmayman, qarz evaziga qullikka ham bermaymai, biror kimsaning homiyligidagi o'z mulkiga aylanishiga ham (yo'l qo'ymayman). Shuningdek, agar kimdir uni mendan bevosita yoki sirdan tortib olsa, uni tahqirlasa, u holda men uni shu zahotiyoq hech qanday ziyon-zahmatsiz ozod qilaman. Bordiyu, agar Chata men bilan qolishni ixtiyor qilmasa, yoki men o'zim uni qo'yib yuborsam, uni senga va sening o'g'illaringga hamda urug'-ujutingga sog'lom, ziyon-zahmatsiz yetkazib bera-man, topshiraman. Agar uni ziyon-zahmatsiz yetkazib berma-

¹¹³ Tarxun – Sug'd podshosi (tahm. 700-711 yillarda hukmronlik qilgan).

sam, u holda 100 dinoriy dirxam, kumush muomalada amal qilishi tasdiqlangan xilidan, yaxshi saqlangan (toza sifatli) pul qarz bo'laman, (qarzni) uzaman va senga to'layman. Shu pulni senga to'lamasam, u holda 10 dirxamiga 2 dirxamdan penya to'lash evaziga qarz sifatida saqlayman». Uttakin o'g'illari va urug'-ujuti bilan Cherning o'ziga va o'g'illariga shu shartlar va 100 dirxam yuzasidan laqabi Nivudak bo'lmish Nipak Vurz o'g'lini javobgar sifatida tayin etdi (ya'ni agar Uttakin shartlarni bajarmasa Nivudak – Nipak Vurz o'g'li Cher va uning o'g'illari oldida javobgar bo'ladi, Uttakin shartlarni bajarishga majbur qiladi). Cher hamda uning urug'-ujuti xohlagan kishisidan (Uttakin yoki Nipakdan) bu ayolni ziyon-zahmatsiz, pulini penyasi bilan birga yetkazib berishni talab qilaversin. Va bu noma barcha xalqqa – shu uyda muqim yashovchilarga va xonadon mehmonlariga birdek taalluqlidir. Va hujjat «Qonunlar uyida» uning boshlig'i Vahgo'kon Varxuman o'g'li huzurida tuzildi. Bu yerda guvoh sifatida Skatch Shishich o'g'li, Chakushak Nanich o'g'li, Chaxren Romich o'g'li bor edi. Uttakin buyrug'iga binoan Romtish Vgashfarn o'g'li tomonidan yozildi. Tamom.

So'g'dcha nikoh bitimining kuyov tomonidan qabul qilingan majburiyatlar qismi (Nov 4 raqamli hujjat). M.Is'hoqov. Unutilgan podsholikdan xatlar. T.: Fan, 1992.

BUXORO ARKINING BINO ETILISHI HAQIDA

Ahmad ibn Muhammad ibn Nasr buning ajoyibotlari hakida to'xtab, shunday deydi: Abu-l-Hasan Nishopuriy¹¹⁴ning «Xazoin ul-ulum»da aytishicha, Buxoro kuhandizining, ya'ni Buxoro arki hisorining bino etilishiga mana shu (voqea) sabab bo'lgan:

¹¹⁴ Abu-l-Hasan Nishopuriy – uning «Xazoin ul-ulum» kitobi bizgacha yetib kelgan-kelmaganligi manbashunoslik fanida hozircha ma'lum emas.

Siyovush ibn Kaykovus¹¹⁵ o'z otasidan qochib, Jayhun daryosidan o'tib, Afrosiyob¹¹⁶ning oldiga keldi. Afrosiyob uni yaxshi qabul etdi va o'z qizini unga xotinlikka berib, aytishlaricha, barcha mulkini unga topshirdi. Bu viloyat o'ziga vaqtincha berib qo'yilgan joy ekanligi tufayli, Siyovush bu yerda o'zidan bir yodgorlik qoldirishni istadi. Shunday qilib, u Buxoro hisorini bino qildi va ko'proq vaqt o'sha joyda turar edi. (Kimlardir) u bilan Afrosiyob o'rtasida yomon gap yurgizdi va (natijada) Afrosiyob uni o'ldirdi hamda ana shu hisorda Sharqiy darvozadan kiraverishinda «Darvozayi g'uriyon» deb atalgan somonfurushlar darvozasining ichkarisiga dafn etdilar. Shu sababli Buxoro otashparastlari o'sha joyni aziz tutadilar va unga atab har bir erkak kishi har yili navro'z kuni quyosh chiqishidan oldin o'sha joyda bittadan xo'roz so'yadi. Buxoro aholisining Siyovushning o'ldirilishiga bag'ishlab aytgan marsiyalari bo'lib, u barcha viloyatlarga mashhurdir. Kuychilar unga moslab kuy tuzganlar va qo'shiq qilib aytadilar qo'shiqchilar uni «otashparastlar yig'isi» deyдилar. Bu gaplar bo'lganiga hozir uch ming yildan ortiqroq vaqt o'tdi. Shunday qilib, mana shu rivoyatga ko'ra bu hisorni Siyovush bino qilgan, ba'zilar esa Afrosiyob bino qilgan deganlar. (So'ng) bu hisor buzilib ketib, ko'p yillar vayronligicha qoldi. Biz aytib o'tgan xotinning eri, Tag'shodaning otasi bo'lgan Bidun Buxorxudot taxtga o'tirganidan keyin, odam yuborib bu hisorni tuzattirdi, undagi qasrni ham u tuzattirdi va o'z nomini temirga yozdirib qasrning eshigiga mahkam o'rnattirdi. Shu xat bitilgan temir tarjimonning zamo-

¹¹⁵ Siyovush ibn Kaykovus – («Avesto»da Siyovarshan, Siyovaxsh, «qora ot»), «Shohnoma» eposi qahramonlaridan biri bo'lib, Kaykovusniig o'g'lidir. Kayoniylar sulolasidan. Beruniyga ko'ra, Xorazmda hukm surgan afrig'iylar shajarasi Siyovushdan boshlangan. Xorazmda milodiy I-VII asrlarda zarb etilgan tangalardagi chavandoz surati ayrim tadqiqotchilar (S.P.Tolstov va b.) tomonidan Siyovushning tasviri deb qabul qilingan.

¹¹⁶ Afrosiyob – mifologik obraz. Firdavsiy «Shohnoma»siga ko'ra, Afrosiyob Turon podshosi bo'lib, Eron shohlari u bilan kurash olib borgan. Afrosiyobni Eron shohlarining dushmani qilib ko'rsatish g'oyasi yozma adabiyotga birinchi bo'lib Firdavsiy «Shohnoma»si orqali kirgan.

nigacha o'sha qasr eshigida mavjud edi. Lekin Ahmad ibn Muhammad ibn Nasrning aytishicha, Hisorni vayron qilganlarida u eshikni ham buzib yuborganlar. Ahmad ibn Muhammad ibn Nasrning aytishicha, Muhammad ibn Ja'far va Abu-l-Hasan Nishopuriy bunday deganlar: Bidun Buxorxudot u qasrni bino qilganida buzilib ketdi, qaytadan bino qilgan edi, yana buzildi. U necha marta bino qilmasin yana vayron bo'laverdi. Hukamolarni yig'ib ulardan maslahat so'radilar. Ular bu qasrni osmondagi yetti qaroqchi yulduzlari shaklida yettita tosh ustun ustiga qurishga qaror qildilar; shu shaklda (qurilgandan keyin) qasr buzilmadi. Yana bir ajoyibi shuki, bu qasr bino qilingandan beri bunda hayot kechirgan hech bir podshoh mag'lubiyatga uchragan emas, aksincha hamisha g'alaba qozongan. Yana bir ajoyibi, bu qasrni bino qilganlaridan beri na kofirlar davrida va na islomiyat davrida – biror podshoh ham uning ichida o'lmagan podshohning ajali yetgan vaqtda biror sabab yuz berib, u qasrdan tashqariga chiqqan va boshqa bir joyda vafot topgan – bu qasr bino qilinganidan to vayron bo'lgunicha shunday bo'lib kelgan...

Abu Bakr Muhammad ibn Ja'far an-Narshaxiy.¹¹⁷ Buxoro tarixi. Rasulov A. Tarjimai. T.: Kamalak, 1991.

SHARIK IBN SHAYX AL – MAHRIY

U arablardan bo'lib Buxoroda yashagan va jangovar kishi bo'lgan. U shiy'a mazhabidan edi. U odamlarii Amirul-mu'minin Ali¹¹⁸ning, xudo undan rozi bo'lsin, – avlodidan (birini) xalifa qilishga chaqirar va: «Biz marvoniylar qiynog'idan endigina

¹¹⁷ Abu Bakr Muhammad ibn Ja'far an-Narshaxiy – Buxoroda tug'ilgan, 899-959 yillarda yashab ijod qilgan tarixchi olim.

¹¹⁸ Ali – Ali ibn Abu Tolib, islomda «xulaf o-roshidin» («to'g'ri yo'ldan borgan xalifalar»), dindorlar o'rtasida «choryorlar» deb atalgan dastlabki 4 xalifadan to'rtinchisi (656-661 yy.). Quraysh qabilasining hoshimiylar xonadonidan. Muhammad (s.a.v.)ning amakivachchasi va kuyovi (Fotima (r.a.)ning eri).

qutuldik, abbosiylar zulmiga tutilishimiz kerak emas, payg'ambarning xalifasi payg'ambar avlodidan bo'lishi kerak», – der edi. Uning atrofiga ko'p xalq yig'ildi. Buxoro amiri Abduljabbor ibn Shuayb edi, u Sharikka bay'at qildi. Xorazm amiri Abdumalik ibn Harsama hamda Barzam amiri Muhallad ibn Husaynlar ham unga bay'at qilib ittifoqlik bildirdilar va hammalari Sharikning chaqirig'ini oshkora qilishga va kimki ularga qarshi kelsa urush qilishga qaror berdilar. Bu xabar Abu Muslim¹¹⁹ga borib yetdi, u Ziyod ibn Solih¹²⁰ni o'n ming kishi bilan Buxoroga yubordi va unga: «Amuga yetganingda o'sha yerda to'xtab, ayg'oqchilaringni yubor, ular isyonkor Sharik ahvolidan xabar bersinlar, Buxoroga extiyotlik bilan yurgin»,– deb ta'kidladi. Marhum Abu Muslimning o'zi Marvdan chiqib Omuy yo'li bilan bir manzil yurib Kashmizda lashkargoh qurdi va har tomondan lashkarini yig'ib Ziyod ibn Solihga: «Men shu yerda turaman, agar senga (Yana) lashkar kerak bo'lib qolsa xabar ber, men yuboraman»,– dedi.

Ziyod Buxoroga (yaqin) kelib lashkargoh qurdi. Sharik ibn Shayx (ham) ko'p sonli lashkar bilan Buxoro darvozasida lashkargoh qurdi; butun Buxoro aholisi Abu Muslimga qarshi urushish uchun Sharikka ittifoqlik bildirdilar. O'ttiz yetti kun davomida urushdilar, Shayx o'g'li g'alaba qozonmagan hech bir kun bo'lmadi, Ziyod ibi Solih lashkaridan esa har kuni ko'p kishilar o'lar va asir tushar edi. Nihoyat Hayyoni Nabatiyning ustози Sulaymon Qurayshiy besh yuz askar bilan shahar darvozasiga bordi. Hamza Hamadoniy Buxoro shaharidan unga qarshi chiqdi. Sulaymon to'rt yuz kishini pistirmaga yashirib qo'yib, o'zi yuz kishi bilan Hamza Hamadoniyga qarshi urushga

¹¹⁹ Abu Muslim – (taxm., 727-755), Xuroson va Movarounnahrda Ummaviylar sulolasiga qarshi ko'tarilgan qo'zg'olon rahbari (747-750 yy.). Qo'zg'olon natijasida Arab xalifaligi boshqaruvi abbosiylar qo'liga o'tadi.

¹²⁰ Ziyod ibn Solih – (?-754), Abu Muslimning yaqin safdoshlaridan biri va sarkardasi. Arablarning xuzaa qabilasidan. 751 y. Talas jangida O'rta Osiyoda o'z mavqeyini kuchaytirmoqchi bo'lgan Xitoy qo'shinini butkul tor-mor keltirgan.

yurdi. Hamza uning askari shu miqdordan ortiq emas degan gumon bilan yaqin kelib jang boshlagan edi, u to'rt yuz kishi pistirmadan chiqib Hamza askarlarining ko'pini halok qildilar, qolganlari shaharga qochishdi. Qutayba ibn Tag'shoda Buxorxudot o'n ming odam bilan kelib sipoh alomatini oshkora qildi va Ziyod ibn Solih bilan birgalikda (Sharikka qarshi) jangga kirishdi. Uning buyrug'i bilan ko'shklarniig darvozalarini ochdilar. Buxoro shahrining darvozasida yetti yuzta ko'shk bor edi, uning farmoni bilan ko'shkdagilar ham sipoh alomatini oshkora qildilar. Bu ko'shklardagi kishilar shahardagilardan ko'ra ko'p edi. Lekin shaharda yerli xalq bilan birga arablar turar, ko'shklarda esa arablardan biror kishi ham yo'q edi, Buxorxudot qishloq xalqiga va ko'shklarda turuvchilarga Sharik lashkariga darvozalarni berkitishni, ularga oziq-ovqat va yem-xashak bermaslikni, oziq-ovqat va yem-xashakni Ziyod lashkargohiga olib borishni buyurdi. (Shunday qilib) har yo'l bilan Sharik lashkariga qiyinchilik tug'dirdilar va sharik lashkari tanglikda qoldi: o'zlari och qoldilar, otlari (ham) yem-xashaksiz qolib urushga yaramadi. Ular tadbir ko'rishib, bizga shahardan oziq-ovqat va yem-xashak yetkizishar, shahardan boshqa lashkarlar ham chiqib bizga qo'shilar degan umid bilan shahar darvozasiga yaqinroq borishga, orqa tomonni shaharga, yuzni dushmanga qaratishga qaror qildilar. Lekin yo'lda Ziyod va Buxorxudotning lashkargohi bo'lganligi tufayli kunduzi yurishga imkoniyat topmay, kechasi yo'lga chiqdilar. Shahardan bir farsang uzoqlikdagi masofaga etganlarida Ziyod bundan xabardor bo'lib qarshi chiqdi va ularning yo'llarini to'sdi. Ikki lashkar qattiq jang qildilar; Ziyod va Buxorxudot lashkari mag'lubiyatga uchradi. Buxorxudot (Ziyodga): «Yaxshisi shuki, biz dushman lashkarining orqa qismiga hujum qilaylik; agar biz ularning oldilariga o'tsak ular (lashkarning) biror joyiga hujum qilib (yorib) o'tadilar va bizning ishimiz og'irlashadi. Agar biz orqadan hujum qilsak, ularning oldingi qismlari o'zini shaharga

olgan bo‘ladi-yu, (lekin) tezlik bilan qaytib jangga kirishga (majbur bo‘ladi), bu esa biz uchun qo‘l keladi», – dedi. Ana shu maslahatni amalga oshirib, Ziyod va Buxorxudot lashkarlari orqada qoldilar hamda (dushman lashkarining) ba‘zi qismlari oldinga qarab jo‘nagan paytda orqa qismlariga hujum qilib urush boshladilar; lashkarlar yo‘l-yo‘lakay jang qilib Navkandaga yaqinlab yetdilar. Buxorxudot Ziyod ibn Solihga: «Bu qavm ochiqib qolgan, ular bu yil uzum va qovun ko‘rganlari yo‘q, yeganlari ham yo‘q, ular Navkandaga yetganlarida o‘z hollariga qo‘yaylik, toki ular uzum, qovunga ovora bo‘lib qolsinlar va oldingi qismlari shaharga yetib olsin, ana shunda biz ularga hujum qilamiz»,– dedi.

Sharik lashkari Navkandaga yetgach uzum, qovun va (boshqa) meva qidirib tarqalib ketdi; uning oldingi qismi esa shaharga yetgan edi. Shu vaqt Buxorxudot va Ziyod ularga hujum qilib ko‘p kishini o‘ldirdilar, qolganlari qochib ketishdi. Shu asnoda u jamoani (o‘z mazhabiga) da‘vat qilayotgan sharik ibn Shayx otidan yiqildi va o‘ldirildi.

Ziyod ibn Solih hozirda «Masjidi Mag‘ok» deb ataladigan Mox darvozasiga – anhor labiga kelib tushdi va shaharga o‘t qo‘yishga buyurdi; shahar uch kecha-kunduz davomida yondi. Ziyod: «Har kim shahardan chiqsa unga omonlik beriladi»,– deb jar chaqirtirdi; ular shahardan chiqsinlar deb lashkarni shahardan uzoqroqda qo‘ygan edi. Sharikning o‘g‘li va uning lashkar boshliqlaridan biri shu kechasi shahar darvozasiga kelgan edilar, har ikkalasini ham tutib Ziyodning oldiga olib bordilar va uning farmoni bilan ikkovini dorga osdilar. Shundan keyin shahar xalqi qo‘rqib qolib bu chaqiriqqa tashqari chiqmadilar.

Uch kundan keyin Ziyod shahar darvozasiga kelib Buxorxudotning Registondagi hisor darvozasida bo‘lgan ko‘shkiga tushdi va lashkariga shahar darvozasiga borishga buyurdi. Yana urush boshlanib, jang qilishar va shunday takbir aytar edilarki, undan yer larzaga kelar edi. Jang qattiq bo‘ldi. Tanilgan

mashhur kishilardan bir qanchasi shahardan chiqdilar. Attorlar darvozasida urush bo'ldi va shahar aholisidan ko'p kishi o'ldirildi. Ziyodning buyrug'i bilan shahar aholisidan kimniki tutsalar shahar darvozasida dorga osa berdilar va nihoyat shaharni oldilar.

Buxoro ishidan xotirjam bo'lgach, Ziyod Samarqandga ketdi. U yerda ko'p urushlar qildi va yana Xuroson tomonga qaytib ketdi. Yana xudo bilimdonroq.

Abu Bakr Muhammad ibn Ja'far an-Narshaxiy. Buxoro tarixi. Rasulov A. Tarjimasi. T.: Kamalak, 1991.

MUQANNA¹²¹NING XURUJI VA UNING TOBELARI OQ KIYIMLIKLAR

Ahmad ibn Muhammad ibn Nasrning aytishicha, Muhammad ibn Ja'far bu faslni o'z kitobida keltirgan-u, lekin to'la bayon etgan emas. «Axbori Muqanna» (nomli kitob)ning muallifi Ibrohim va Muhammad ibn Jarir at-Tabariylarning aytishlaricha, Muqanna Marv atrofi aholisidan, Koza deb atalgan qishloqdan bo'lib, nomi Hoshim ibn Hakim edi. U ilgari kudunggarlik qilar edi, keyin esa ilm o'rganishga mashg'ul bo'ldi va har xil ilmlarni: ko'zbo'yamachilik, sehr va tilsim ilmlarini o'rgandi. Ko'zbo'yamachilikni yaxshi bilib olib, payg'ambarlik da'vosini ham qildi va uni Mahdiy ibn Mansur hijratning bir yuz oltmish yettinchi yilida (5 avgust 783–23 iyul 784) o'ldirdi. Muqanna ko'zbo'yamachilikni o'rgangan va g'oyatda ziyrak bo'lib qadimgi (olimlar) ilmlariga oid ko'p kitoblarni o'qigan va jodugarlikda ustoz bo'lgan edi. Uning otasining nomi Hakim bo'lib, u Abu Jafar Davonaqiy davridagi Xuroson amiri lashkarboshilaridan biri edi. U Balxdan chiqqan edi.

¹²¹ Muqanna – «Niqobdor», oq kiyimlilar qo'zg'olonining (769-783 yy.) rahbari, haqiqiy ismi Hoshim ibn Hakim.

Hoshim ibn Hakimni Muqanna deyishlariga sabab shu ediki, u juda xunuk, boshi kal va bir ko'zi ko'r bo'lganidan hamisha boshi va yuziga ko'k parda tutib yurar edi. Shu Muqanna Abbosiylar da'vatchisi Abu Muslim zamonida Xuroson lashkarboshilaridan biri bo'lib, Abduljabbor Azdiyga vazir bo'ldi va payg'ambarlik da'vosini qildi va bir qancha vaqt shu da'voda turdi. Abu Ja'far Davonaqiy odam yuborib, uni Marvdan Bag'dodga oldirib keldi va bir necha yil davomida zindonda tutdi. Shundan keyin u zindondan qutulib Yana Marvga qaytib keldi va odamlarni yig'ib: «Mening kim ekanimni bilasizmi?» – deb so'radi. Odamlar: «Sen Hoshim ibn Hakimsan»,– dedilar. U: «Yanglishdingiz, men sizning va butun olamning xudosiman»,– og'ziga tuproq, – va yana: «O'zimni qanday nom bilan atashni istasam atayberaman»,– dedi hamda: «Men xalqda o'zimni Odam (ato) suratida, keyin Nuh suratida, keyin Ibrohim suratida, keyin Muso suratida, so'ng Iso suratida, keyin Muhammad mustafo, – xudo unga rahmat va salomini yo'llasin,– suratida, keyin Abu Muslim suratida ko'rsatgan zotman, endi esa mana o'zingiz ko'rib turgan suratdaman», – dedi. Odamlar: «Boshqalar payg'ambarlik da'vosini qilgan edilar, sen esa xudolik da'vosini qilayapsan», – dedilar. Muqanna: «Ular nafsoniy edilar, men esa ruhoniyman va ularning (badanlari) ichida edim, menda shunday qudrat borki, o'zimni qanday suratda ko'rsatishni istasam shunday suratda ko'rsata beraman»,– dedi.

Muqanna har bir viloyatga noma yozib, o'zining doiy (tashviqotchi)lariga berdi. Nomaga mana shularni yozdi: «Rahmli va mehribon tangri nomi bilan, sayidlar sayidi Hoshim ibn Hakimdan falonchi o'g'li falonchiga, hamd xudoga bo'lsin, undan boshqa xudo yo'q. U Odamning ham, Nuh, Ibrohim, Iso, Muso, Muhammad va Abu Muslimlarning ham xudosidir. So'ngra (so'z shuki), qudrat, egalik, izzat va hujjat Muqannanikidir; menga imon keltiring va bilingki, podshohlik menga xos,– unga la'natlar bo'lsin,– azizlik va xudolik meniki, mendan

boshqa xudo yo‘q,– og‘ziga tuproq – kimki menga imon keltirsa, jannat o‘shaniki kimki menga imon keltirmasa do‘zax uniki». U hali Marvda turgan vaqtidayoq har yerga doiyalarini yubordi va ko‘p xalqni yo‘ldan ozdirdi. Marvda arablardan Abdulloh ibn Amin nomli bir kishi bor edi, u Muqannaga imon keltirdi va qizini unga xotinlikka berdi. Ana shu Abdulloh Jayhundai o‘tib Naxshab va Kesh shaharlariga keldi va har yerda xalqni la‘nati Muqanna diniga chaqirib, ko‘p kishini yo‘ldan ozdirdi. (Bundaylar) Kesh shaharida va uning qishloqlarida ko‘proq edi. Dastlab Muqanna diniga kirgan va uning dinini yuzaga chiqargan qishloq Keshning Subax nomli qishlog‘i bo‘lib, qishloq aholisining ulug‘ kishisi Umar Subaxiy edi. Ular qo‘zg‘olon ko‘tardilar. Ularning amiri arablardan bo‘lib, porso bir kishi edi, uni o‘ldirdilar. So‘g‘dning ko‘pchilik qishloqlari Muqanna diniga kirdi, Buxoro qishloqlaridan ko‘p kishilar kofir bo‘lib, kofirlikni oshkor qildilar. Nihoyat bu fitna ulg‘ayib ketdi va musulmonlar uchun qattiq balo bo‘ldi; (muqannachilar) karvonlarni urib, qishloqlarni talar va ko‘p vayrongarchiliklar qilar edilar.

Muqannaning Movarounnahrda borish sababi bunday edi: Muqanna voqeasi xabari Xurosonga yoyilgach, Xuroson amiri bo‘lgan Humayd ibn Qahtaba uni tutishga buyurdi. Muqanna esa o‘z qishlog‘idan qochib, berkinib yurar edi. Oxiri Muqannaga Movarounnahr viloyatida ko‘p xalq uning diniga kirgani va shu dinning tarqalgani ma‘lum bo‘ldi va u Jayhundan o‘tishga qasd qildi. Xuroson amiri: «Jayhun daryosi labida uni soqchilar poylab tursinlar», – deb buyurgan edi. Muqanna Jayhun daryosidan o‘tmoqchi bo‘lsa, uni tutib olish uchun yuzta otliq askar Jayhun qirg‘og‘ida yuqori va quyi tomon hamisha yurib turdilar. Muqanna o‘ttiz olti kishi bilan Jayhun daryosi labiga kelib sol tayyorlab Jayhundan o‘tdi va Kesh viloyatiga bordi. U viloyat Muqannaga bo‘ysundi va xalq unga rag‘bat qildi. (Shu viloyatdagi) Som tog‘i tepasida g‘oyatda mustahkam bir hisor bo‘lib, unda oqar suv, daraxtlar va ekin yerlar bor edi. Bu hisor

(ichida) undan ham mustahkamroq yana bir hisor bor edi. Muqanna uni tuzatishga buyurdi va uni tuzatdilar. Muqanna u yerga ko'p mol va behisob oziq-ovqat yig'di. Soqchilar tayinladi. Oq kiyimliklar ko'payishib ketdilar va musulmonlar ularga qarshi tadbir qo'llashdan o'z qoldilar. Bu ovoza Bag'dodga borib yetdi; o'sha vaqtda Mahdiy xalifa edi, u juda qayg'urib, Muqannaga qarshi kurashish uchun ko'p lashkar yubordi va oxiri bu fitnani daf qilish maqsadida o'zi ham Nishopurga keldi. Mahdiy islom dini harob bo'lib Muqannaning butun dunyoga tarqalishi xavfidan qo'rqr edi.

Muqanna turklarni chaqirdi hamda musulmonlarning qoni va molini ular uchun halol qilib (hukm chiqardi). Turkistondan talonchilik tamasida ko'p lashkar keldi. Ular viloyatlarni talar, musulmonlarning xotin va bolalarini asir qilib olar, o'ldirar edilar. Ular dastlab Buxoroda paydo bo'ldilar. Muqannaning hammaslari bo'lgan oq kiyimliklardan bir guruhi Numijkat deb atalgan bir qishloqqa bordilar va kechasi masjidga kirib muazzinni o'n besh kishi bilan birgalikda o'ldirdilar; butun qishloq aholisini ham o'ldirdilar. Bu voqea bir yuz ellik to'qqizinchi yilda (32 oktyabr 775–18 oktyabr 776) sodir bo'ldi. (Bu vaqtda) Buxoro amiri Husayn ibn Maoz edi.

Muqanna toifasining kattalaridan buxorolik Hakim (ibn) Ahmad nomli bir kishi bo'lib, u bilan birga yana uchta lashkarboshi bor edi. Ulardan birining nomi Xashviy, ikkinchisniki Bog'iy bo'lib, bu ikkovi Fuzayl ko'shkidan edilar. Uchinchisining nomi – Girdak; u G'ijduvon qishlog'idan edi. Bularning har uchasi ham jangovar kishilar bo'lib ayyor, bosqinchi va o'g'ri edilar. Ularning qishloq aholisini o'ldirganligi xabari shaharga yetgach, Buxoro aholisi jam bo'ldilar va amirning oldiga borib: «Bu oq kiyimliklar bilan albatta jang qilishimiz kerak»,– dedilar. Bir yuz ellik to'qqizinchi yil rajab oyida (aprel–may 776) Husayn ibn Maoz o'z lashkari bilan va Buxoro qozisi Omir ibn Umar ibn Imron Buxoro aholisi bilan chiqib, Narshax qishlog'iga bordi-

lar,– hozir bu qishloqni Narjaq deydilar, – va oq kiyimliklar qarshisida lashkargoh tuzdilar.

Shunda Buxoro qozisi: «Biz ularni haq dinga chaqiramiz, ular bilan urushish biz uchun munosib emas»,– dedi. Keyin qozi yaxshi tadbirkor odamlar bilan birga ularni haq dinga chaqirish uchun qishloqqa kirdi. Oq kiyimliklar: «Biz bu siz aytayotgan narsalarni bilmaymiz», – deb kundan-kunga kofirliklarini kuchaytirdilar va nasihatni qabul qilmadilar. Shundan keyin jang boshlanib ketdi. Birinchi bo‘lib oq kiyimliklarga hamla qilgan kishi arablardan Naim ibn Sahl nomli kishi edi. U ko‘p urushlar qilib bir qancha kishini o‘ldirdi va oxir o‘zi ham o‘ldirildi. Oq kiyimliklar yengildilar, ulardan yetti yuz kishi o‘ldirildi va qolganlari qochdilar. Shu bilan o‘sha kun tamom bo‘ldi.

Ertasiga tong otgach, oq kiyimliklar elchi yuborib musulmonlardan omon so‘radilar va: «Biz musulmon bo‘ldik»,– dedilar. Musulmonlar ular bilan sulh tuzib, sulhnoma yozdilar va ularga bundan buyon yo‘lkesarlik qilmaslik, musulmonlarni o‘ldirmaslik, o‘z qishloqlariga tarqalish, o‘z amirlariga bo‘ysunish shartlarini qo‘yib xudo va payg‘ambar ahdini ularga mahkam yukladilar. Shaharning hamma kattalari sulhnomaga qo‘l qo‘ydilar.

Musulmonlar qaytib ketgach, ular ahdlaridan qaytib yana yo‘lkesarlik bilan mashg‘ul bo‘ldilar. Ular musulmonlarni o‘ldirar va endigina bosh tortgan ko‘k ekin (don)larni Narshax hisoriga olib ketar edilar. Musulmonlarning ishi qiyinlashdi. Xalifa Mahdiy¹²² o‘z vaziri Jabrail ibn Yahyoni Muqannaga qarshi urushga yubordi. U Buxoroga kelib Muqannaga qarshi jangga yurish uchun Darvozayi Samarqandda lashkargoh qurdi. Husayn ibn Maoz uning oldiga borib: «Sen (avval) oq kiyimliklarga qarshi urushda menga yordam ber, bu ishdan bo‘shagach, biz sen bilan birga Muqannaning (o‘ziga) qarshi urushga boramiz»,– dedi.

¹²² Mahdiy – abbosiylar sulolasi (750-1258)dan bo‘lgan Arab xalifasi (775-785).

Jabrail bu taklifni qabul etdi-da, lashkarini oyoqqa turg'izib Narshax qishlog'iga bordi, qishloq atrofiga handaq qazishga buyurib, handaq ichini lashkargoh qildi; oq kiyimliklar kechasi chiqib hujum qilib qolmasinlar deb lashkariga hushyor bo'lib turishga buyruq berdi. Xuddi u aytgandek bo'lib chiqdi; oq kiyimliklar dastlabki kechadayoq qishloqdan chiqib hujum qilib ko'p vayronlik keltirdilar. Buxoro amiri Husayn ibn Maoz Jabrailga ko'p mehribonlik ko'rsatib, undan to bu ish tamom bo'lgunicha Keshga ketmay Buxoroda bo'lishini so'radi.

Jabrail urushni boshlab yubordi. To'rt oy mobaynida ertayu kech uzluksiz urushdilar, oq kiyimliklar g'alaba qozonmagan bir kun ham bo'lmadi. Musulmonlar chorasiz qolib tadbir izlashga tushdilar. Molik ibn Forim: «Men bir tadbir ko'rsataman»,— dedi-da, lashkargohdan to hisor devorigacha ariq kavlashga buyurdi va u yerga qurolli kishilarni yuborib qancha joy kavlasalar uni cho'p, qamish va tuproq bilan mustahkamlab berkitib borishga buyurdi. (Shu tarzda) hisor devori tagigacha qazib yetdilar va (hisor devori tagini) ellik gaz miqdorida kavlab ustunlar qo'yib mahkamladilar. Ellik gaz joy kavlanib bo'lgach, uni o'tin bilan to'lg'izib neft septilar-da, u ustunlar yonib qo'rg'on devori yiqilsin deb o't qo'yib yubordilar. Ammo olov yonmadi, chunki olov yonishi uchun unga shamol tegishi kerak. Hisor ichida esa shamol o'tadigan yo'l yo'q edi. Hisorning tagi kavlangan minorasiga palaqmonlarni to'g'rilab qo'yib tosh otgan edilar, teshik ochilib shamol chiqishga yo'l topdi, olov olib ustunlar yondi va Hisor devorining ellik gazcha joyi yiqildi.

Musulmonlar qilichbozlikka kirishib ko'p kishini o'ldirdilar, qolganlar omonlik tilab, ilgarigi ahdnomaga muvofiq musulmonlarni ranjitmaslik, o'z qishloqlariga qaytib ketish, o'z ulug'larini xalifa oldiga yuborilishiga (rozi bo'lish) va o'zlari bilan birga qurol-yarog' olib yurmaslik shartlari bilan sulh tuzdilar va (qishloqdan) tashqari chiqib handaqdan o'tdilar. (Ammo) ular yashirin suratda qurolga ega edilar. Oq kiyimlik-

larning kattasi bo'lgan Hakimni Jabrail o'z o'g'li Abbosga topshirib: «Buni olib borib saropardaga qo'y va yashirin ravishda o'ldir»,– dedi. Uning amriga muvofiq ish qilib Hakimni saropardaga olib bordilar. Oq kiyimliklar uzoqdan (qarab) turgan edilar. Jabrail saropardaga borgan edi, oq kiyimliklar Hakimning do'sti bo'lgan Hashviyni yuborib u orqali Jabrailga: «Biz Hakimni olmasdan ketmaymiz», – dedilar. Hashviy yangi etik kiygan edi. U Jabrailga shu so'zlarni aytib turgan ediki, Jabrailning o'g'li Abbos kelib: «Hakimni o'ldirdim»,– dedi. Jabrailning buyrug'i bilan darhol Hashviyni otdan tushirib o'ldirdilar. Oq kiyimliklar qichqirishib quollarini qo'lga oldilar va jang boshlanib ketdi. Jabrail butun lashkarini otga minishga buyurdi. Ilgarigidan kuchliroq urush bo'ldi. Qattiq janglar qildilar va oxiri oq kiyimliklar yana yengilib, ulardan ko'p xalq o'ldirildi, tirik qolganlari qochdilar.

Narshax qishlog'ining hukmdori bir xotin kishi edi, uning erining nomi Sharaf bo'lib Abu Muslimning lashkarboshisi bo'lgan va marhum Abu Muslim uni o'ldirgan edi. Bu xotinni Jabrailning oldiga olib keldilar, u bilan amakisining bir ko'r o'g'li birga keldi, u bag'oyat palid va badkor edi. Jabrail u xotinga: «Abu Muslimning gunohidan kech!» – dedi. Xotin: «Abu Muslim deb musulmonlarning otasiga aytiladi, mening erimni o'ldirgandan keyin u musulmonlarning otasi bo'ladimi?!» – dedi. Jabrailning buyrug'i bilan xotinni belidan ikki bo'lib tashladilar va amakisining o'g'lini ham o'ldirdilar.

(Hakimning lashkar boshliqlaridan biri bo'lgan) Girdak Muqannaning oldiga ketdi. Ulardan biri – Bog'iy esa urushda o'ldirildi.

Jabrail So'g'd oq kiyimliklarining dillariga qo'rqinch solish uchun o'ldirilgan(boshliq)lar kallasini So'g'dga olib bordi. So'g'd aholisiga Muqannaning lashkar boshliqlaridan So'g'diyon nomli bir kishi amir bo'lgan edi; So'g'd aholisi u bilan ittifoq bo'ldilar. Jabrail So'g'd aholisi bilan ko'p urushdi va oxiri Buxoro

aholisidan bir kishi So'g'diyonni o'ldirdi va bu qavm tarqalib ketdi. Jabrail u yerdan Samarqandga bordi va to Maoz ibn Muslim Xurosonga amir bo'lguniga qadar turklar va oq kiyimliklar bilan ko'p urushlar qildi. (Maoz ibn Muslim) bir yuz oltmish birinchi yilda (9 oktyabr 777–27 sentyabr 778) Marvga keldi va bu yerdan ish boshlab Omuy biyoboniga kirib ketdi. Buxoroga yetganida Buxoro aholisi (orasidagi) dehqonlar jangchi kishilarni yig'dilar; besh yuz yetmish ming kishi yig'ildi. Maoz ibn Muslimning farmoni bilan urush qurollarini ko'plab tayyorladilar; u hunarmandlarning lashkar ichida ish beradigan har bir jinsidan uch ming ishchi kishini teshalar, bellar, to'qmoq va boltalar bilan ta'minlab muhayyo qilib qo'ydi; palaqmonlar, narvonlar va devor teshadigan qurollar ishlatdi va eng yaxshi qurollantirilgan lashkar bilan So'g'dga qarab yuzlandi. So'g'dda oq kiyimliklar ko'p edilar, turk lashkari ham ko'p kelgan edi. Hariyning amiri Hariydan o'n mingta qo'y olib kelgan edi, o'zi bilan birga olib yurdi. Maoz ibn Muslim unga! «Dushmanimiz turklar bu yerda bizga yaqin joyda turiptilar, ular qo'yni juda yaxshi ko'radilar, bu qo'ylarni Buxoroda qoldir yoki menga sot, men ularni lashkarga taqsim qilib berayin!» – desa u rozi bo'lmadi. Turk askarlaridan bir to'dasi chiqib hujum qildilarda, hamma qo'ylarni Arbinjon bilan Zarmon o'rtasidagi bir manzilga olib ketdilar. Turklar ketidan lashkar borgan edi ularning ham ba'zilarini o'ldirdilar, ba'zilar esa mag'lubiyatga uchrab qaytib keldilar.

Maoz ibn Muslim So'g'd va Samarqandga borib turklar hamda oq kiyimliklar bilan ikki yilgacha ko'p urushlar qildi, goh u va goh dushman g'alaba qozonar edi. Ikki yildan keyin u Xuroson amirligidan iste'fo berdi va Musayyab ibn Zuhayr al-Zabiy Marvda bir yuz oltmish uchinchi yil jumod al-avval oyida (yanvar– fevral 780) Xurosonga amir bo'ldi va rajab oyida (mart–aprel 780) Buxoroga keldi. Shu vaqt Buxoro amiri Junayd ibn Xolid edi, uni Xuroson amiri Xorazmga yubordi.

Buxoroda Muqanna sarkardalaridan bo'lgan Qulortegin nomli bir sarkarda bor edi, u lashkar va mulozimlar tuzib Mu-sayyab bilan urushlar qildi.

Hikoyat: Muhammad ibn Ja'farning rivoyat qilishicha, Muqanna lashkaridan movaraunnahrliklar, turklar va boshqa-lardan iborat ellik mingga uning hisori darvozasiga yig'ilib, sajda va zoriy qilib undan diydor ko'rsatishni so'radilar. Hech bir javob ololmagach, yana so'rashda davom etib: «O'z egamizning diydorini ko'rmas ekanmiz, bu yerdan qaytib ketmaymiz», – dedilar. Muqannaning Hojib nomli bir quli bor edi, Muqanna unga: «Bandalarimga, – og'ziga tuproq,– ayt, Muso mendan diydor ko'rsatishni so'radi, toqat qilolmasligi sababli ko'rsat-madim. Meni ko'rgan har bir kishi toqat qilolmay darhol o'ladi»,– dedi. Ular yalinib yolvorib yana so'rayberdilar va: «Biz diydor istaymiz, agar o'lsak, bu ayni muddao»,– dedilar. Muqanna: «Falon kuni keling sizga diydor ko'rsataman», – deb va'da berdi. Shundan keyin Muqanna hisorda o'zi bilan turadigan xotinlarga buyurdi, ular So'g'd, Kesh va Naxshab dehqonlarining qizlaridan iborat bo'lib, yuzta xotin edilar. Muqannaning shunday odati bor edi: Qayerda xushro'y xotin bo'lsa unga xabar berar edilar va Muqanna uni oldirib kelib o'zi bilan birga saqlar edi. Hisorda u bilan birga shu xotinlar va o'sha xos quldan boshqa hech kim bo'lmas edi. Hisordagilarning oziq-ovqat kabi ehtiyojlari bo'lsa, har kuni bir marta hisor darvozasi ochilar, tashqari tomonda esa bir vakil bo'lib, u kerakli narsalarni tayyorlar, haligi qul vakilni chaqirib u narsalarni hisor ichkarisiga olib kirgach, yana hisor darvozasini berkitar va to ikkinchi kungacha Muqannaning xunuk yuzini hech kim ko'rmas edi. Chunki u yuziga ko'k parda tutib yurar edi. Shunday qilib, u o'sha xotinlarning har biriga oyna olib hisorning tepasiga chiqib bir-birining ro'baro'sida turishga va quyosh nuri yerga tushgan paytda barcha oynalarni qo'lga olib betafovut bir-biriga ro'baro' qilib tutishga buyurdi. Xalq to'plangan edi. Quyosh nuri

oynalarga tushgach, uning aksi bilan o'sha joy nurga to'lib ketdi. Shu vaqt Muqanna quliga: «Ana qarang! Xudo o'z yuzini ko'rsatyapti deb bandalarimga ayt»,– dedi. To'plangan xalq qarab, butun jahonning nurga to'lganini ko'rib qo'rqdilar va hammalari birdan sajda qilib: «Ey xudo! Qudrating va ulug'ligingni shunchalik ko'rganimiz yetadi, bundan ko'proq ko'rsak yuragimiz yoriladi»,– dedilar. Ular hanuz sajdada ekanlar, Muqanna Yana quliga: «Sajdadan boshlaringizni ko'taring! Xudo sizdan rozi va gunohlaringizni kechdi deb ummatlarimga ayt» – dedi. U jamoa qo'rqqan va vahimaga to'lgan holda boshlarini sajdadan ko'tardilar. Shu vaqt Muqanna: «Hamma viloyatlarni sizlar uchun halol qildim. Kimki menga imon keltirmasa uning qoni, moli va farzandlari siz uchun halol»,– og'ziga tuproq,– dedi. Shundan keyin u jamoa talonchilikka yuz o'girdi. Bu jamoa boshqalar oldida faxrlanib: «Biz xudoni ko'rdik»,– der edi.

Muqannaning halok bo'lish sababi. Hirot amiri bo'lgan Sa'id ko'p lashkar bilan Muqanna hisorining darvozasiga kelib qo'ndi, uylar va hammomlar qurib yozin-qishin shu yerda bo'ldilar.

Hisorning ichida chashma, daraxtlar va ekinzorlar bor edi. Muqannaning xos kishilari va sipohi solorlar kuchli lashkar bilan hisor ichida edilar. Hisor ichkarisida, tog' tepasida yana boshqa bir hisor bo'lib, u hisorga hech kimga yo'l yo'q edi. Muqanna o'sha xotinlar bilan (shu) hisorda turar edi.

Uning odati shunday ediki, har kuni o'sha xotinlar bilan birga ovqatlanar va ular bilan sharob majlisiga o'tirib sharob ichar edi. Shu tartibda u o'n to'rt yil hayot kechirdi. (Oxiri) Hirot amiri uning ishini og'irlashtirib, lashkarlari tarqalib ketdi, hisorda bo'lgan sipohi solor esa hisor darvozasini ochdi va bo'ysunib tashqari chiqdi; islom dinini qabul etdi. Musulmonlar hisorni oldilar. Muqanna ichki hisorni saqlab qololmasligini tushundi.

Muhammad ibn Ja'farning Kesh dehqonlaridan bo'lgan Abu Ali Muhammad ibn Horundan rivoyat qilishicha, Abu Ali

shunday degan; «Mening buvim Muqannaning oʻzi uchun olib kelib hisorda saqlab turgan xotinlari jumlasidan boʻlgan ekan. U shunday hikoya qilar edi: «Bir kuni Muqanna xotinlarni oʻz odati boʻyicha ovqat yeyishga va sharob ichishga oʻtirgʻizib, sharob ichiga zahar soldi-da, har bir xotin uchun bittadan xos qadah tutqizib aytdi: «Men oʻz qadahimdagi sharobni ichganimda sizlar ham qadahlargizni butunlay boʻshatishingiz lozim». Hamma xotinlar ichdilar, men esa ichmasdan sharobni koʻy-lagim yoqasiga toʻkdim, Muqanna buni payqamadi. Hamma xotinlar (hushsiz) yiqilib oʻldilar; men ham oʻzimni ularning orasiga tashlab oʻlganga solib yotdim. Muqanna mening holimdan bexabar edi. Keyin Muqanna oʻrnidan turib qarab, hamma xotinlarning oʻlib yotganini koʻrdi-da, oʻz qulining oldiga bordi va qilich bilan uning kallasini kesdi. Muqannaning farmoni bilan uch kundan beri tandir qizitayotgan edilar. Muqanna oʻsha tandir oldiga borib kiyimini yechdi va oʻzini tandirga otdi. Tandirdan bir tutun chiqdi. Men u tandir oldiga borib uning vujudidan hech asar koʻrmadim. Hisorda biror tirik kishi yoʻq edi.

Uning oʻzini oʻzi kuydirishiga sabab shu ediki, u hamisha: «Qachon bandalarim menga boʻysunmasalar men osmonga chiqib u yerdan farishtalarni olib kelaman va ularni boʻysun-diraman»,– der edi. Xalq: «Muqanna farishtalarni olib kelib bizga osmondan yordam berish uchun osmonga chiqib ketdi; uning dini dunyoda (abadiy) qoladi»,– desin deb Muqanna oʻzini oʻzi kuydirdi. Keyin u xotin hisor darvozasini ochdi va Saʼid Xarashiy kirib u yerdagi xazinani oldi».

Ahmad ibn Muhammad ibn Nasr shunday deydi: «Bu qavm-dan Kesh va Naxshab viloyatida, Koʻshki Umar, Koʻshki Xish-tivon va Zarmon qishlogʻi kabi Buxoro qishloqlarida hozirda ham saqlanib kelmoqda. Ular oʻzlari Muqannaning kim ekan-ligidan butunlay xabarsiz boʻlsalar ham uning oʻsha dinidalar. Ularning tutgan yoʻllari shuki namoz oʻqimaydilar, roʻza

tutmaydilar va junub bo'lganlarida g'usl qilmaydilar, lekin omonatga xiyonat qilmaydilar. Bu odatlarining hammasini musulmonlardan yashirin tutadilar va musulmonlik da'vo qiladilar.

(Yana) aytadilarki ular: «Xotin xuddi gulga o'xshaydi, uni kim hidlasa ham (baribir) kamayib qolmaydi», deb xotinlarini bir-birovlariga halol hisoblaydilar. Biror kishi biror xotinning oldiga xilvatga kirganida uy eshigida belgi qoldiradi; u xotinning eri kelib qolgudek bo'lsa xotini uyda boshqa kishi bilan birga ekanligini bilib qaytib ketadi va u kishi xilvat ishidan forig' bo'lgandan keyingina o'z uyiga kiradi.

Har bir qishloqda ularning raislari bo'ladi va hammalari uning farmoniga bo'ysunadilar.

Abu Bakr Muhammad ibn Ja'far an-Narshaxiy. Buxoro tarixi. Rasulov A. tarjimasi T.: Kamalak, 1991.

YETTINCHI BO‘LIM

IX–XII ASRLARDA O‘ZBEK DAVLATCHILIGI: SIYOSIY, IJTIMOY – IQTISODIY HAYOT

O‘rta Osiyo uyg‘onish davri hisoblangan IX–XII-asrlarda o‘lka-miz hududi Movaraunnahr va Xuroson deb yuritilgan bo‘lib, bu davrda o‘g‘uzlar (IX–Xasrlar), tohiriylar (821–873yy.), safforiylar (873–900yy.), somoniylar (874–999yy.), qarluqlar - qoraxoniylar (840–1212yy.), g‘aznaviylar (962–997–1186yy.), xorazmshoh – ma‘muniylar (995–1017yy), xorazmshoh – oltintoshlar (1017–1044yy), saljuqiylar (1038–1157yy.), xorazmshoh – anushteginiylar (1097–1231yy.) kabi sulolalar boshchiligidagi davlat birlashmalari mavjud edi. Beruniy, al-Xorazmiyning tarix asarlari, arab say-yohlarining asarlari, Bayhaqiyning «Tarixi Bayhaqiy», Narshaxiyning «Buxoro tarixi» asarlarida yuqoridagi sulolalarning hukmronligi davridagi ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayot haqida yetarli darajada ma‘lumotlar bor. Mavzuni o‘rganish uchun asosan, o‘zbek tiliga tarjima qilinib, nashr etilgan shu davrga oid asarlardan foydalandik.

SOMONIYLAR¹²³ HUKMDORLIGINING BOSHLANISHI

Somonxudotning bir o‘g‘il ko‘rganligi va Asad ibn Abdulloh Qushayriyni do‘st tutganidan, o‘g‘liga Asad deb nom berganligi haqida yuqorida aytib o‘tilgan edi. Asadning to‘rt o‘g‘li bor edi: Nuh, Ahmad, Yahyo va Ilyos.

¹²³ Somoniylar – kelib chiqishi mahalliy dehqonlardan bo‘lgan hukmdorlar oilasi, 819–875 yillarda Movarounnahr va Xurosonning turli shaharlarida xalifalik tomonidan tayinlangan hokimlar, 875–1005 yillarda esa Arab xalifaligi tarkibidagi Movarounnahr va Xurosonning xalifa tomonidan tayinlanuvchi hokimlari sifatida vorislik tartibida mustaqil hukm surganlar.

Rofe ibn Lays¹²⁴ Horun ar-Rashid¹²⁵ga qarshi xuruj qilib Samarqandni olganida Horun ar-Rashid Harsama ibn A'yanni Rofe ibn Laysga qarshi urushga yubordi. Rofe Samarqandni hisor qildi va Harsama uni qo'lga olishdan o'z qoldi. Bu hodisa sababli Ma'mun¹²⁶ Horun ar-Rashid bilan birga Xurosonga kelgan va Horunning dili shu ish bilan g'oyat darajada mashg'ul edi, Ma'mun Asadning o'g'illariga xat yozib, ularga Rofe bilan urushda Harsamaga yordam berishni buyurdi. Asad o'g'illarining davatiga ko'ra Rofe Harsama bilan sulh tuzdi va ular o'rtasida quda-andalik vujudga kelib, Horun bu ishdan xotirjam bo'ldi. Rofening butkul Xurosonni olib qo'yish xavfi bor edi, (shuni uchun) bu sulhning tuzilishi Ma'mun uchun juda yoqib tushdi.

Horun mana shu safar vaqtida Tusda vafot etdi. Ma'mun xalifalikka o'tirgach, G'asson ibn Ubbod Xurosonga amir bo'ldi. Ma'mun unga Asad ibn Somonxudotning o'g'illariga Xurosonning ayrim shaharlari hukmronligini berishni buyurdi: G'asson ibn Ubbod ularning har biriga o'sha qilgan yaxshiliklari evaziga bittadan e'tiborli shaharni berdi: Nuh ibn Asadni Samarqandga, Ahmad ibn Asadni Marvga amir qilib tayinladi. Bu (voqea) ikki yuz ikkinchi yilda (20 iyul 817–9 iyul 818) bo'lgan edi. G'asson Xuroson amirligidan bekor etilib, Tohir ibn Husayn¹²⁷ Xuroson amiri bo'lganda ham Tohir u viloyatlarni Asadning o'g'illari qo'lida qoldirdi va ularning eng kattasi bo'lgan Nuh ibn Asadga sarpo kiygizdi. Nuh ibn Asad to dunyodan o'tgunigacha Samarqandda bo'ldi va birodari Ahmad ibn Asadni (o'z o'rniga)

¹²⁴ Rofe ibn Lays – Nasr ibn Sayyorning nabirasi, buxorxudot Tug'shodaning kuyovi. 806-810 yillarda Movarounnahr va Xurosonda abbosiylar xalifaligiga qarshi ko'tarilgan qo'zg'olon rahbari.

¹²⁵ Horun ar-Rashid – abbosiylar sulolasidan bo'lgan Arab xalifasi (786-809 yy.).

¹²⁶ Ma'mun – abbosiylar sulolasidan bo'lgan xalifa (813-833), yirik siyosiy arbob, ilm fan homiysi. Xalifa Horun ar-Rashid o'g'li. Ma'mun Xuroson viloyati (markazi – Marv sh.) noibi (809-813) bo'lgan, 813 yilda ukasi al-Amin bilan taxt uchun bo'lgan jangda g'olib chiqib, Bag'dod xalifaligi uning ixtiyoriga o'tadi. Xuroson olimlarini o'z saroyida to'play boshlab, ularni o'zi bilan Bag'dodga olib ketgan, ular «Bayt ul-hikma» («Bilim uyi»)da o'z ilmiy faoliyatlarini davom ettirganlar.

¹²⁷ Tohir ibn Husayn – (775/776 - 822), Tohiriylar davlati va sulolasi asoschisi (821-822).

xalifa qildi. Ahmad ibn Asad olim va porso bir kishi edi, u to vafot etgunigacha Samarqandda bo'ldi va (vafoti vaqtida) o'g'li Nasr ibn Ahmad ibn Asadni o'z o'rniga xalifa qildi. U otasining o'rniga o'tirgach, ikki yuz ellik birinchi yili ramazon oyining boshida (29 sentyabr 865) shanba kuni uning nomiga xalifa Vosiq billohdan Movarounnahrning amirligi unga berilganligi to'g'risida farmon keldi.

Abu Bakr Muhammad ibn Ja'far an-Narshaxiy. Buxoro tarixi. Rasulov A. tarjimasi T.: Kamlak, 1991.

BUXORO SHAHRI

Bu hisorning ikkita darvozasi bor, biri sharq tomonda, biri g'arb tomonda; Sharq tomondagisini «Dari g'uriyon», g'arb tomondagisini «Dari Registon» deydilar, tarjimonning davrida keyingisini «Dari alaffurushon» deb ataganlar. Hisorning, o'rtasida bu darvozadan to u darvozagacha to'g'ri yo'l bo'lgan. Bu hisor podshohlar, amirlar va askar boshliqlarining turarjoylari bo'lib, zindon, podshohlik devonlari va podshohlar turadigan qasr qadimdan shu yerda bo'lgan. Haram saroyi va xazina (ham) shu hisorda bo'lgan. Tarjimonning davrida bu hisor buzilib ketdi. Bundan bir necha yil ilgari Arslonxon uni Yangilashga buyurdi va o'ziga turar joy qilib oldi hamda hisorni (ma'lum) shartlarga muvofiq idora qilib turishi uchun, ulug' bir amirni qutvol qilib tayinladi. Bu hisor xalq ko'zida zo'r e'tiborga ega edi.

Besh yuz o'ttiz to'rtinchi yil oylaridan birida (28 avgust 1139–16 avgust 1140) Xorazmshoh¹²⁸ Buxoroga kelganida amir Zangi Ali xalifa hamda Sulton Sanjar¹²⁹ning farmoni bilan,

¹²⁸ Xorazmshoh – 1127-1156 yillarda hukmronlik qilgan anushtaginiylar sulolasidan bo'lgan Xorazmshoh Alouddin Otsiz nazarda tutilyapti.

¹²⁹ Sulton Sanjar – Saljuqiylar davlati sultoni (1118-1157).

Buxoroning voliyi edi. Xorazmshoh uni qo'lg'a olib o'ldirdi va hisorni vayron qildi. Hisor ikki yildan ortiqroq shu vayronligicha qoldi. Besh yuz o'ttiz oltinchi yili (6 avgust 1141–26 iyul 1142) Go'rxon tomonidan Buxoroga voliy qilib tayinlangan Alptegin o'sha yiliyoq hisorni obodon qilishga buyurdi va uni o'zi uchun turar joy qilib oldi. Hisor ilgarigidan ham yaxshiroq bo'ldi. Besh yuz o'ttiz sakkizinchi yili ramazon oyida (8 mart – 6 aprel 1144) g'uz askarlari Buxoroga yetib keldi. Aynuddavla, Qarochabek va Shahob vazirlar hisorga qamaldilar, ko'p jang va qiyinchiliklardan keyin g'uz askarlari hisorni olib, Shahob vazirni o'ldirdilar va hisorni vayron qildilar; hisor shu vayronligicha qoldi. Besh yuz oltmishinchi yili (18 noyabr 1164 – 6 noyabr 1165) Buxoro shahrining aylanasiga devor qurmoqchi bo'ldilar; devorning tagini pishiq g'ishtdan ishlash zarur bo'ldi. Hisorning tagi va minoralari pishiq g'ishtdan edi, uni buzib olib, Buxoro shahrining devoriga ishlatdilar. Hisor bir yo'la vayron bo'ldi va u qasrdan hech bir imorat va nishon qolmadi. Olti yuz to'rtinchi yili (28 iyul 1207–15 iyul 1208) Xorazmshoh Muhammad ibn Sulton Takash¹³⁰ Buxoroni olib, hisorni qaytadan tikladi; xitoyliklar yengildilar. Olti yuz o'n oltinchi yili (19 mart 1219–7 mart 1220) esa tatar lashkari keldi, ularning amiri Chingizxon edi. Ular qal'aning darvozasida o'n ikki kun jang qilib, uni oldilar va vayron qildilar.

Abu Bakr Muhammad ibn Ja'far an-Narshaxiy. Buxoro tarixi. A.Rasulov, tarjimasi T.: Kamalak, 1991.

BUXORO VA UNGA TOBE JOYLARNING XIROJI

Somoniylar va ular qo'l ostidagi amirlar davrida Buxoroning xiroji Karminaniki bilan qo'shilib bir gal bir million bir yuz oltmish sakkiz ming besh yuz oltmish olti diramu besh yarim

¹³⁰ Xorazmshoh Muhammad ibn Sulton Takash – anushtaginiylar sulolasidan bo'lgan Xorazmshoh (1172-1221). Uning davrida Xorazmshohlar davlati ikki barobar kengaydi.

donakni tashkil etgan. Undan keyin xiroj har jihatdan kamaygan, ba'zi erlar suv tagida qolib ketib, podshoh u mavzedan xiroj olishni to'xtatgan; suv olib ketgan joydan (ham) xiroj olmay qo'ygan; yerlarning ba'zisi alaviylar va faqihlar qo'liga o'tib sulton bulardan ham xiroj olmagan. Ba'zi yerlar masalan, Baykand va boshqa ko'p qishloqlar, sultonning mulkiga o'tib xiroj daftaridan o'chirilgan va Karminaning xiroji Buxoro xirojidan ajratilib (alohida olingan).

AMIRI MOZIY ABU IBROHIM ISMOIL IBN AHMAD¹³¹ AS-SOMONIY HUKMRONLIGINING BOSHLANISHI

U somoniylar sulolasi sultonlarining avvalgisi bo'lib, haqiqatan ham podshohlikka loyiq va haqli edi, U aqlli, adolatli, shafqatli, fikr va tadbir egasi bir kishi edi; hamisha xalifalarga itoat izhor qilar va ularga tobe bo'lishni zarur va lozim bilardi. U ikki yuz sakson yettinchi yili rabi al-oxir oyining (aprel, 900) o'rtasida shanba kuni Amr ibn Laysni Balxda asir etib mamlakatga ega bo'ldi va sakkiz yil podshohlik qildi. Ikki yuz to'qson beshinchi yili (12 oktyabr 907–29 sentyabr 908) Buxoroda xudoning rahmatiga etishdi. Xudo uni rahmat qilib gunohlarini kechirsin.

Amiri moziy ikki yuz o'ttiz to'rtinchi yil shavvol oyida (aprel–may 849) Farg'onada tug'ildi, o'n to'rt yoshga yetganida otasi vafot etdi. Katta akasi amir Nasr¹³² uni juda ulug' tutar, u ham amir Nasrning xizmatini qilar edi. Husayn ibn Tohir at-Toiy ikki yuz oltmishinchi yili rabi al-oxir oyida (yanvar–fevral 874) Xorazmdan Buxoroga kelganida u bilan buxoroliklar o'rtasida urushlar bo'lib, besh kundan keyin u shaharni oldi, buxorolik-

¹³¹ Ismoil ibn Ahmad – Somoniylar davlati hukmdori (892-907), 874-892 yillarda Buxoro hokimi, 892-yildan Movarounnahr amiri, 900-yildan esa xalifa Mu'tazid (892-902) farmoni bilan Xuroson amiri deb e'lon qilingan.

¹³² Nasr – Somonxudotning nabirasi bo'lmish Ahmadning o'g'li, somoniylar sulolasi vakili. 864-yilda Samarqand hokimi bo'lgan. V.V.Bartoldning fikricha, 875 yilda xalifa Mu'tamid (870-892) tomonidan butun Movarounnahrqa amir qilib tayinlangan (875-892).

larni shahar va qishloqda turishdan man qildi va ko'p kishini o'ldirdi; xorazmliklarga bosqinchilik qilishga ruxsat berdi. Ular buxoroliklarning narsalarini musodara qilar, kechasi zo'rlik bilan uylariga bostirib kirishar, og'ir jinoyatlar qilib mol olar edilar. Buxoro aholisi Husayn ibn Tohirga qarshi urushga chiqdi, ko'p kishi o'ldirilda va shaharning uchdan bir qismi kuydi. Urushda shahar aholisining qo'li baland kelgach, Husayn ibn Tohir jarchi qo'yib aholiga omonlik e'lon qildi. Jam bo'lib urushga tayyor turgan xalq omonlik xabarini eshitib tarqaldi; ba'zilar qishloqqa ketdilar. Husayn ibn Tohir xalq tarqalib ketganini bilib qilichni ishga soldi va ko'p kishini o'ldirdi. Xalq yana (unga qarshi) qo'zg'oldi va Husayn ibn Tohir yengildi. Kun bo'yi urush qildilar, kech bo'lgach Husayn ko'shkning darvozasini mahkam berkitdi. Xalq uni ushlab olish uchun ko'shk darvozasini qo'riqlab turar edi. Husayn ibn Tohir Buxoro xirojini tamom olgan, uning hammasi g'idrifiy diram bo'lib saroy o'rtasiga to'kib qo'yilgan edi. Husayn ibn Tohir bu g'idrifiylarni kumushga almashtirib olmoqchi edi-yu, bunga vaqt topa olmadi va o'sha kechasi devorni teshib o'zining yaqin kishilari bilan och va yalang'och holda qochib ketdi; u g'idrifiy diramlar (saroyda) qola berdi. Odamlar bundan xabardor bo'lib saroyga kirdilar va u pullarni taladilar. Ko'p kishilar o'sha moldan shunday boy bo'lib ketdilarki, boylik asari ularning avlodlariga ham qoldi. Shaharda: «Falonchi Husayn ibn Tohir saroyining boyi», – deyishar edi.

Shunday qilib, Husayn ibn Tohir qochdi, undan keyin ham Buxoro aholisi boshida boshqa har xil mojarolar va har kimlar bilan urushlar ko'p voqe bo'ldi. Buxoroning ahli ilm va yaxshi kishilari marhum Xo'ja Abu Hafs Kabirning o'g'li Abu Abdulloh al-faqihning huzuriga yig'ildilar. U jasoratli kishi edi. Buxoro ishlari bo'yicha u bilan maslahat qildilar. Xurosonda biror amir yo'q edi. Ya'qub ibn Lays zo'rlik bilan Xurosonni olgan va Buxoroda Rofe ibn Harsama u bilan urushayotgan edi.

Xurosonda ham notinchlik bo'lib, Buxoro bu to'polonlardan xarob bo'layotgan edi. Shunday qilib, Xo'ja Abu Hafsning o'g'li Abu Abdulloh Samarqandga Nasr ibn Ahmad ibn Asad as-Somoniyyga – u Samarqand va Farg'onaning amiri edi – xat yozdi va undan Buxoroga amir yuborishini so'radi. Nasr ibn Ahmad o'z birodari Ismoil ibn Ahmadni Buxoroga yubordi. Amir Ismoil Karminaga yetgach, bir necha kun u yerda turib, Buxoroga, Buxoro amiri Husayn ibn Muhammad al-Xavorijiyga elchi yubordi. Uning elchisi bir necha marta borib-kelib turdi va oxiri amir Ismoil Buxoroga amir, Husayn ibn Muhammad al-Xavorijiyning esa unga xalifa bo'lishiga qaror qilindi. Husayn Xavorijiyning lashkari bu qarorga bo'ysundi.

Amir Ismoil Xavorijiyini o'ziga xalifa tayin qilganligi haqida farmon bilan bayroq va sarpo yubordi. Xavorijiyini shu bayroq va sarpo bilan Buxoro shahrida aylantirdilar. Buxoro aholisi shodlik ko'rsatdi. O'sha kuni seshanba kuni edi, juma kuni xutbani Nasr ibn Ahmad nomiga o'qidilar va Ya'qub ibn Lays nomini xutbadan tushirdilar. Bu voqea amir Ismoilning Buxoroga kirishidan oldin bo'lib, o'sha juma kuni ikki yuz oltmishinchi yil muborak ramazon oyining birinchi jumasi (23 iyul 874) edi. Abu Hafs Kabirning o'g'li,– xudo ularni rahmat qilsin,–uning istiqboliga chiqdi. Buxoroning arab va boshqalardan iborat ulug' odamlari u bilan birga Karminagacha bordilar. Abu Abdulloh buyrug'i bilan shaharni yasatdilar.

Amir Ismoil Buxoroga kelganidan pushaymon edi. Chunki uning lashkari oz, Buxoroda esa to'polon va g'avg'o ko'tarilgan edi; o'ziga nisbatan buxoroliklar dildan qanday munosabatda ekani unga ma'lum emas edi. Abu Abdulloh ibn Xo'ja Abu Hafs (istiqbol uchun Buxorodan) chiqib Karminaga kelgach, amir Ismoilning dili quvvat topdi; Abu Abdulloh har nima qilsa ham shahar aholisi uni qaytara olmasligini bilib, o'z qarorini qat'iy qildi. Abu Abdulloh unga ko'p madhlar aytib dilini quvvatlantirdi. Amir Ismoilni Buxoroga olib kelgach, uni ulug'lab, hurmat

ko'rsatdilar, shahar aholisi (Abu Abdullohning) buyrug'i bilan uning ustidan ko'p tilla va kumush sochdilar.

Amir Ismoil Husayn al-Xavorijiyni tutib zindonga yubordi va xudoyi taoloning qudrati bilan u g'avg'o tinchidi.

AMIR ISMOILNING BUXOROGA KIRISHI

(Amir) Nasr ibn Ahmad amir Ismoilning gardaniga har yili Buxoro molidan besh yuz ming diramini yuborib turishni vazifa qilib yuklagan edi. (Lekin) Shundan keyin amir Ismoil bir qancha urushlarda bo'ldi va u mol xarj bo'lib ketib, yubora olmadi. Amir Nasr yana odamlarini yuborib o'sha molni talab qildi, amir Ismoil yubormadi va shu sababdan oralarida noxushlik paydo bo'ldi. Amir Nasr lashkar yig'di va Farg'onaga, o'z birodari Abu-l-Ash'asga xat yozib, uni ko'p lashkar bilan kelishga va Yana bir xatni Shoshga, boshqa birodari Abu Yusuf Ya'qub ibn Ahmadga yozib, uni ham o'z lashkari bilan kelishga va Isfijob turklarini ham olib kelishga buyurdi. (Shunday qilib) ular ko'p lashkar yig'dilar va ikki yuz yetmish ikkinchi yili rajab oyida (dekabr 885–yanvar 886) Buxoroga qarab yurdilar. Amir Ismoil bundan xabar topgach, o'z birodariga hurmat yuzasidan Buxoroni bo'shatib Farabga ketdi, Amir Nasr Buxoroga keldi va amir Ismoilni uchratmagach, Baykandga borib, shu yerga qo'ndi. Baykandliklar uni kutib olib, ustidan ko'p oltin-kumush sochdilar va ko'p tuhfarlar chiqardilar. Amir Ismoil bilan o'sha vaqtda Xuroson amiri bo'lib turgan Rofe ibn Harsama o'rtasida do'stlik bor edi. Amir Ismoil unga xat yozib, yordam so'radi, Rofe o'z lashkari bilan kelib, Jayhun daryosi muzlagan edi, muz ustidan o'tdi. Amir Nasr Rofening kelganidan xabar topib, Buxoroga. qaytdi. Amir Ismoil Rofe bilan borib Samarqandni olishga ittifoq tuzdi. Bu xabar amir Nasrga yetgach, u tezlik bilan Tavoisga borib, yo'lni to'sdi. Amir Ismoil va Rofe Cho'l yo'li bilan ketdilar. Buxoroning hamma qishloqlari amir Nasrning tasarrufida edi.

Ular Cho'lda na oziq-ovqat va na yem-xashak topa olmas yedilar. U yil qahatchilik yili edi. Ularning ahvollari og'irlashdi. Ularning lashkarlari orasida bir man non hatto uch diramga yetdi va Rofe lashkaridan ko'p kishilar ochlikdan halok bo'ldilar. Amir Nasr Samarqandga, o'z o'g'li Ahmadga xat yozib unga Samarqand So'g'didan jangchilar to'plashni buyurdi. Viloyat aholisi: «Bular isyonchilardir, ularga yordam berish halol bo'lmaydi», – deb amir Ismoilga yem-xashak bermadilar.

Amir Nasr Rofening kelganidan tangdil bo'lgan edi. U Karminaga ketdi. Amir Ismoil va Rofelar uning izidan borayotgan edilar, bir kishi Rofega nasihat qilib: «Sen o'z viloyatingni qo'yib bu yerga kelding, agar u ikki birodar bir-biri bilan kelishib turib seni o'rtaga olsalar sen nima qila olasan?»–dedi. Rofe bu gapdan qo'rqdi va amir Nasr oldiga elchi yuborib: «Men urushish uchun kelganim yo'q, balki sizlarning orangizda sulh qilish uchun keldim»,– dedi. Amir Nasrga bu gap yoqib tushdi va Buxoro amiri biror boshqa kishi bo'lishi, amir Ismoil omili xirojlikka tayinlanib devon daromadi va xutba uning nomida bo'lmasligi hamda u har yili (amir Nasrga) besh yuz ming diram to'lab turishi lozimligi shartlari bilan sulh tuzdilar. (Rofe) Nasr ibn Ahmadni chaqirdi va Is'hoq ibn Ahmadni ham chaqirib unga sarpo kiygizdida, Buxoro amirligini unga topshirdi. Amir Ismoil bunga rozilik berdi. Amir Nasr (Samarqandga) qaytib ketdi va Rofe ham Xurosonga jo'nadi. Bu ikki yuz yetmish uchinchi yili (8 iyun 886–27 may 887) bo'lgan edi. Shu voqeadan keyin o'n besh oy o'tgach, amir Nasr odam yuborib molni talab qildi; amir Ismoil molni ushlab qolib, yubortirmadi. Amir Nasr o'rtada kafil bo'lgan Rofega xat yozdi. Rofe ham amir Ismoilga shu mazmunda xat yozdi. Amir Ismoil bu xatga iltifot qilmadi. Amir Nasr ikkinchi marta hammasi movarounahrliklardan bo'lgan lashkar to'pladi; Abu-l-Ash'as Farg'onadan keldi va yana qaytadan o'sha avvalgi tartibda Buxoroga qarab yurdilar. (Amir Nasr) Buxoro tomon yuzlanib Karminaga yetganida amir Ismoil ham

o'z lashkarini yig'ib Tavoisga bordi. Ikki orada to'qnash bo'lib, qattiq jang bo'ldi. Is'hoq ibn Ahmad yengilib, Farabga ketdi. Amir Ismoil farg'onaliklar ustiga qattiq hujum qilgan edi. Abu-l-Ash'as mag'lub bo'lib, Samarqandga jo'nadi. U o'z birodarini qoldirib qochib kelgani uchun samarqandliklar uni tutib olmoqchi bo'lgan edilar, Abu-l-Ash'as Samarqanddan qaytib Rabinjonga keldi. Amir Ismoil Ahmad ibn Muso Marzuqni asir qilib olib Buxoroga yubordi. Buxoro lashkari ikkinchi marta yengildi. Amir Ismoil o'z joyida turgan edi. U bilan ozgina odam qolgan, mashhur kishilardan esa Siymoul-kabir u bilan birga edi. Amir Ismoil odam yuborib, qullardan va mavoliylardan qochganlarining hammasini yig'dirdi. Is'hoq ibn Ahmadni Farabdan qaytarib oldirib keldi. Buxoro g'oziyalaridan ham ikki ming kishi chiqdi va qishloqlar lashkarlarini jam qildilar. (Amir Ismoil) ularning hammasiga oziq-ovqat berdi. Amir Nasr Rabinjonga borib lashkar anjomlarini tayyorlab qaytdi. Amir Ismoil uning oldiga – Vozbadin qishlog'iga bordi va shu yerda jam bo'lishib ikki yuz yetmish beshinchi yili seshanba kuni jumod al-oxir oyining o'n beshinchisida (25 oktyabr 888) urush boshladilar. Amir Ismoil Farg'ona lashkari ustidan g'alaba qozondi. Abu-l-Ash'as yengilib qochdi, lashkar hammasi yengilib qochgan va amir Nasr ozgina odamlar bilan qolib u ham mag'lubiyatga uchragan edi.

Xorazmliklardan bir to'dasi Nasrga yetib borib uni o'ldirmoqchi bo'ldilar, ammo Siymoul-kabir ham buni uzoqdan ko'rdi va xorazmliklarga qichqirib, ularni amir Nasrdan uzoqlashtirdi, so'ng o'zi otdan tushib Nasrning uzangisini o'pdi. Ularning otasining quli bo'lgan sipohsolor Siymoul-kabir odam yuborib amir Ismoilga bu holdan xabar berdi. Nasr ibn Ahmad otdan tushdi va yostiqli yerga tashlab o'tirdi. Amir Ismoil yetib keldida, otdan o'zini tashlab, yaqin kelib yostiqli o'pdi hamda: «Yo amir! Xudoning hukmi shu ekanki, meni senga qarshi qo'ydi va biz shunday bir zo'r ishni o'z ko'zimiz bilan ko'rib turibmiz»,—

dedi. Amir Nasr: «Men bu qilgan ishlaringga ajablanaman, o'z amiringga bo'ysunmading va xudoyi taoloning senga bergan buyrug'ini bajarmading!» – dedi. Amir Ismoil: «Ey amir! Men xato ish qilganimga iqorman, hamma gunoh menda, sen fazilatda (mendani) ulug'roqsan va mening bu katta gunohimdan o'tib afv etasan», – dedi.

Bular shunday so'zlashib turganlarida ularning boshqa birodari Is'hoq ibn Ahmad yetib keldi. U otdan tushmay turgan edi, amir Ismoil: «Hoy falonchi! O'z xo'jang uchun otdan tushmaysanmi?» – deb unga dashnom berdi va undan achchig'landi. Is'hoq tezda otdan tushib o'zini Nasrning oyog'iga tashlab yer o'pdi va: «Mening otim hali sovutilmagan toy, undan darrov tushib bo'lmaydi», – deb uzr so'rab so'zini tamom qilgan edi, amir Ismoil (Nasrga qarab): «Ey amir! Yaxshisi shuki, bu xabar (Samarqandga) yetib Movarounnahrda xalq qayg'uga tushmasdan burun tezda o'zingning aziz qarorgohingga qaytsang edi», – dedi. Amir Nasr: «Ey Abu Ibrohim! Meni o'z joyimga yuboradigan senmisan?»-dedi. Amir Ismoil: «Shunday qilmasam nima qilay? Qul o'z xo'jasiga nisbatan uning murodi nima bo'lsa shuni bajarishdan boshqacha muomala qilolmaydi», – dedi. Amir Nasr so'zlar va uning ko'zidan yosh quyilar, o'tgan ishlar va to'kilgan qonlarga pushaymon yer edi. So'ng amir Nasr turib otga mindi, amir Ismoil va birodari Is'hoq uzangilarni tutib turdilar va uni (Samarqandga) qaytarib yubordilar. (Amir Ismoil) Siymoul-kabir va Abdulloh ibn Muslimni uni kuzatish uchun yubordi. Ular bir manzil birga borganlaridan keyin amir Nasr ularni qaytarib, o'zi Samarqandga ketdi. Amir Nasr ibn Ahmad shu asirlik kunida ham o'sha odamlar bilan, xuddi o'zi amir bo'lib taxtda o'tirgan va ular uning oldida xizmatda turgan kunlardagidek so'zlashar edi. Amir Nasr bu voqeadan to'rt yil keyin ikki yuz yetmish to'qqizinchi yili jumod al-avval oyidan yetti kun qolganida (21 avgust 892) vafot etdi. U butun Movarounnahr yerlariga amir Ismoilni xalifa qilib tayinladi va

boshqa birodarini hamda o'z o'g'lini uning farmoniga bo'y-sundirdi.

Amir Nasr dunyodan o'tgach, amir Ismoil Buxorodan Samarqandga kelib davlat ishini rosladi va uning o'g'li Ahmad ibn Nasrni o'ziga xalifa qildi. U shu yerdan boshlab g'azot ishiga kirishdi.

Amir Ismoil Buxoroga kelganidan to akasi o'lib butun Movarounnahrni unga topshirib vafot qilganiga qadar yigirma yil o'tdi. Amir Nasrning vafot etganligi xabari Amirul-mu'minin Mu'tazid billohga yetgach, ikki yuz saksoninchi yili muharram oyida (mart – aprel, 893) u amir Ismoilni Movarounnahrda amir qilib farmon berdi. Amir Ismoil shu tarixda Taroz jangiga borib ko'p qiyinchilik ko'rdi va oxiri Taroz amiri (bo'ysunib) chiqib ko'p dehqonlar bilan birga islom dinini qabul etdi va Taroz fath etildi, (u yerdagi) katta ibodatxonani masjidi jome qildilar. Amirul mu'minin Mu'tazid billoh nomiga xutba o'qidilar. Amir Ismoil ko'p o'ljalar olib Buxoroga keldi. U to Amr (ibn) Lays¹³³ kuchayib ketgunicha yetti yil podshohlik qildi va Movarounnahrning amiri bo'lib turdi.

(Amr ibn Lays kuchayib) Xurosonning ba'zi joylarini oldi va jangga kirishdi. Amirlik qilib turgan Ali ibn al-Husayn Guzgoniyon amiri bo'lmish Ahmaddan yordam so'ragan edi, yaxshi javob ololmadi va Jayhundan o'tib Buxoroga– amir Ismoil oldiga keldi. Amir Ismoil xursand bo'lib sipohlari bilan uning istiqboliga chiqdi, e'zoz va ikrom bilan uni Buxoroga olib kirib ko'p tuhfalalar taqdim etdi, Ali ibn al-Husayn Farabga borib o'n uch oy u yerda bo'ldi. Amir Ismoil unga doimo hadyalar yuborib turdi va yaxshi munosabatda bo'ldi. Ali ibn al-Husayn, to uni (o'z) o'g'li urushda o'ldirgunicha, Farabda turdi.

Amr ibn Lays Balx amiri Abu Dovudga, Guzgoniyon amiri Ahmad ibn Farig'unga va Movarounnahr amiri amir Ismoilga xat yozib, ularni o'ziga bo'ysunishga chaqirdi va yaxshi va'dalar

¹³³ Amr ibn Lays – Xurosonda tashkil topgan safforiylar davlatining asoschisi (873-900).

qildi. Ular farmonga bo'ysunib, unga xizmat qildilar. Amir Ismoil oldiga elchi kelib xatni unga berdi hamda Balx amiri va Guzgoniyon amirining bo'ysunganligidan xabar berib: «Bu bo'ysunishga sen loyiqroqsan, chunki sen kattaroqsan va podshohzodaliging tufayli podshohlik qadrini yaxshiroq bilasan»,— dedi. Amir Ismoil: «Sening xo'jang shu qadar nodon ekanki, meni ular qatorida sanabdi; (axir) ular mening qullarim-ku! Mening senga javobim – qilich; men bilan uning o'rtasida urushdan boshqa narsa yo'q, qaytib borib unga ayt, urush asbobini sozlasin!»—deb javob berdi. Amr ibn Lays amirlar va ulug' kishilar bilan maslahat qilib amir Ismoil ishi borasida ulardan yordam so'radi va: «Boshqa bir kishini yuborib, unga yoqimli so'zlar aytish va yaxshi va'dalar qilish kerak»,— dedi. Keyin u xat yozib Nishopur shayxlaridan va o'zining yaqin kishilaridan bir guruhini yubordi va xatida quyidagilarni aytdi: «Garchi Amir ul-mu'minin bu viloyatni menga bergan bo'lsa ham men mulkdorlikda seni o'zimga sherik qildim. Sen do'st bo'lib, men bilan yaxshi munosabatda bo'lginki, hech bir badgo'y bizning oramizga kirishga yo'l topa olmasin, o'rtamizda do'stlik va birlik bo'lsin bundan ilgari aytgan gaplarimiz go'stoxlik yuzasidan aytilgan edi, biz u gapdan kechdik. Sen Movarounnahr viloyatini qo'ruqla, Chunki u dushman chegarasidir; fuqaroga g'amxo'rlik qil! Biz u viloyatni senga berdik, xursandlik va xonu moningning obodonligidan boshqa narsani istamaymiz. U viloyat xarob bo'lmasin deb o'zim bormay, Nishopuriing mashhur kishilaridan bir qanchasini (elchi qilib) yubordim: ular huzurida (ushbu xat mazmunini) qabul etib so'z berdim va shu aytilgan so'zlarga ularni guvoh qildim, sendan boshqa hech kimga e'tiqodim yo'q, oramizda do'stlik mustahkam bo'lishi uchun sen ham menga ishonishing kerak».

Amr (ibn) Laysning (elchilar yuborganligi) xabari amir Ismoilga yetgach, u Jayhun labiga (odamlar) yubordi, ular elchilarni suvdan o'tishga qo'ymadilar, keltirgan narsalarini olma-

dilar va (Ismoilga) yetkizmadilar, (elchilarni) xo'rlab qaytardilar. Amir (ibn) Lays bundan g'azablanib urushga hozirlandi. O'zining sipohsolori Ali ibn Surushga lashkar bilan Omuyaga borib lashkarni o'sha yerda to'xtatishni va buyruq bo'lmagunicha suvdan o'tishga shoshilmaslikni buyurdi. Uning ketidan boshqa sipohsolar – Muhammad ibn Laysni besh ming kishi bilan yuborib: «Ali ibn Surush va sen birgalikda ish ko'ringlar, lashkarni saqlanglar, u tarafdin kimki omon tilab kelsa omonlik bering va yaxshi munosabatda bo'ling va kemalar tayyorlab ayg'oqchilar yuboring!» – dedi. Amir (ibn) Lays ketma-ket lashkar yuborib turdi.

Amir Ismoil bundan xabar topgach, yigirma ming kishi bilan tezda Buxorodan Jayhun daryosi labiga bordi va kechasi Jayhun suvidan o'tib dushmanga to'satdan hujum qildi. Ali ibn Surush bundan xabardor bo'lib, tezda otga mindi va lashkarga qurol berib, piyoda askarlarni oldinga yubordi. Urush boshlanib ketdi, Amir Ismoilning lashkari har tomondan hujum qilar edi. Jang qattiq bo'ldi. Muhammad ibn Ali ibn Surush chekindi, uning o'zi va Nishopurning mashhur kishilaridan ko'plari asir tushdilar. Ikkinchi kuni amir Ismoil Amir (ibn) Laysning (asir tushgan) askarlariga oziq-ovqatlar berib xursand qildi va hammasini Amir (ibn) Lays huzuriga qaytarib yubordi. Shunda lashkarboshilar amir Ismoilga: «Bular bizga qarshi urush qilgan edilar, sen ularni asir olganingdan keyin hammalariga sarpo kiygizib qaytarib yuboring!»-dedilar. Amir Ismoil: «Bu bechoralardan nima talab qilasiz,- qo'ying ular o'z yurtiga borsinlar, ular endi hech qachon sizga qarshi urushga kelmaydilar va boshqalarning dillarini ham (urushdan) qaytaradilar», - dedi. Amir Ismoil orqaga qaytdi va ko'p kumush, kiyim-kechak, tilla va qurol-yarog'lar (o'lja qilib) Buxoroga keldi.

Shundan keyin Amir (ibn) Lays xafalik, g'amginlik va pushaymonlikda bir yil Nishopurda bo'ldi; u «Men Ali (ibn) Surush va uning o'g'li uchun qasos olaman», – der edi. Amir Ismoil Amir (ibn) Laysning urush tadorikini ko'rayotganligini eshitib, aska-

rini yig'di, ularga oziq-ovqat berib har tomondan dushmanga qarab yurdi; (yig'ilgan askarning) yaroqlisiga ham yaroqsiziga ham, tikuvchi-yamoqchilarga ham oziq-ovqat berdi. Bu ishdan xalq norozi bo'lib: «Amir Ismoil shu lashkar bilan Amr (ibn) Laysga qarshi urush qilmoqchimi?!» – der edi. Bu xabar Amr (ibn) Laysga yetib, u xursand bo'ldi. (Amir Ismoil). Jayhun labida edi, Mansur Qorategin va Pors Baykandiy Xorazmdan Omuyaga keldilar; Turkiston viloyati va Farg'onadan o'ttiz ming kishi yetib keldi. Yigirma beshinchi zu-l-qa'dada (amir Ismoil) Muhammad ibn Horunni lashkarning bosh qismi bilan yubordi va ikkinchi kuni o'zi ham yo'lga chiqib, Jayhundan o'tdi va Omuyaga har joydan askar to'pladi. Buxorodan Xorazm shahriga ketdilar va ikkinchi dushanba kunigacha (urushga) hozirlanib bo'lib, u yerdan Balxga qarab yuzlandilar.

Amr (ibn) Lays Shoriston hisorini oldi va sipohlari bilan Shoriston oldiga kelib tushdi; lashkar keltirdi va (shahar) atrofiga handaq; qazdirib, o'radi. Sipoh (shaharga) kirgunicha bir necha kun o'tdi. U shahar devorini mustahkam qildi va o'zini shahardan qaytib ketmoqchidek qilib ko'rsatib xalqni sevintirdi.

Amir Ismoil Ali ibn Ahmadni Foryobga yuborib Amr (ibn) Laysning ish boshida turgan kishilarini o'ldirishga buyurdi, ular buyruqni bajarib, ko'p mol olib keldilar. Ismoil har tarafdin odamlar yuborar, ular Amr (ibn) Lays odamlarini o'ldirib, mol olib kelar edilar.

Amir Ismoil Balxning Aliobod (degan joyi)ga kelib tushib, uch kun o'sha yerda turdi. So'ngra u yerdan lashkarini ko'chirdi va o'zini Namozgohga tushmoqchidek qilib ko'rsatib, unga boriladigan yo'lni kengaytirdi. Amr (ibn) Lays buni ko'rib o'sha tomon darvozalarini mahkam qildi va o'sha tarafga ko'p lashkar qo'ydi; palaqmon va devor teshadigan qurollarni o'sha tomonga to'g'rilatdi. U Namozgoh yo'lga pistirma tayyorlatib, uni lashkar bilan band qildi. Tong otgach, Amiri moziy (Ismoil) Yana yo'lni o'zgartirdi va boshqa yo'l bilan shahar darvozasiga qarab yurib

«Puli Ato» – «Ato ko'prigi»ga kelib tushdi. Amr ibn Lays bu ishdan taajjubda qolib palaqmonlarni o'sha tomonga olishni lozim topdi. Amir Ismoil uch kun u yerda turdi. Uning farmoni bilan shaharga suv yubormay qo'ydilar, devorni yiqitib, daraxtlarni kesdilar va yo'llarni tekisladilar. Nihoyat, seshanba kuni ertalab amir Ismoil ozgina lashkar bilan otga minib shahar darvozasiga borgan edi. Amr ibn Lays darvozadan chiqib urush boshladi. Jang qattiq bo'ldi. Amr ibn Laysning lashkari yengilib qochdi. Amir Ismoilning lashkari ularning orqasidan izma-iz quvlab ba'zilarini o'ldirar va ba'zilarini asir olar edi. Shunday qilib, Balxda sakkiz farsang yiroqlikdagi bir joyga yetganlarida ikki xizmatchisi bilan birga Amr (ibn) Laysni ko'rdilar, xizmatchilarning biri qochdi, biri esa Amr ibn Laysga yopishdi. Shundan keyin Amr (ibn) Laysni tutib oldilar. Har kim: «Amr (ibn) Laysni men tutdim», der edi. Ammo ibn Laysning o'zi esa: «Meni mana bu o'z xizmatchim tutdi», – dedi. Amr (ibn) Lays o'sha xizmatchisiga, har biri yetmish ming diram qiymatga ega bo'lgan o'n besh dona marvarid bergan ekan, ularni o'sha xizmatchidan tortib oldilar. Amr (ibn) Lays chorshanba kuni jumod al-avval oyining o'ninчисida ikki yuz sakson sakkizinchi yili (2 may 901) asir olindi.

Amr (ibn) Laysni amir Ismoil oldiga olib kelganlarida, u piyoda bo'lib yurmoqchi edi, ammo Amiri moziy bunga ruxsat bermadi va: «Bugun sen bilan shunday muomalada bo'layki, odamlar taajjubda qolsinlar», – dedi va uni saropardaga olib kirishga buyurdi va o'z birodarini uni qo'riqlab turishga yubordi. To'rt kundan keyin Amr (ibn) Lays amir (Ismoil) ni ko'rdi.

Amir Ismoilning buyrug'i bilan undan qanday qilib asir tushib qolganligi haqida so'ragan edilar, u: «Chopib ketayotgan edim, o'tim charchab qoldi, otdan tushib uxladim uyg'onganida boshimda ikkita qul turganini ko'rdim, ulardan biri qamchin bilan burnimga turtdi». Men: «Bu qari kishidan nima istaysan», – dedim va meni halok qilmasliklarini o'tinib so'radim. Ular otlaridan tushib oyog'imni o'pdilar va zinhor (o'ldirmaymiz) dedilar.

Ulardan biri meni otga mindirdi. Odamlar yig'ildilar va mendan: «Nimang bor?» – deb so'radilar. Men: «Har biri etmish ming diram qiymatida bir nechta marvarid bor», – dedim va uzugimni berdim. Ular oyog'imdand etigimni yechib bir qancha qimmatbaho gavarhlarni topib oldilar. (Shu payt) meni lashkar topdi va Muhammadshoh odamlarni mendan uzoqlatib turgan asnoda uzoqdan amir Ismoilni ko'rib otdan tushmoqchi bo'lgan edim, u o'z joni va boshi hurmatini o'rtaga qo'yib, «Otdan tushma!» – dedi; mening ko'nglim qaror topdi. U meni saropardaga tushirdi; Abu Yusuf men bilan birga chodirda o'tirib meni qo'riqlab turdi; suv so'ragan edim menga gulob berdilar va menga xilma-xil izzat-ikromlar ko'rsatdilar. Keyin amir Ismoil mening oldimga kirib mehribonlik ko'rsatdi va seni o'ldirmayman deb ahd qildi va meni kajavaga o'tqizib hurmat bilan shaharga yetkizishga buyurdi va kechasi Samarqand shahriga olib kirdilar, bundan Samarqand aholisidan hech kimning xabari bo'lmadi. Amir Ismoil mening uzugimni tortib olib qo'ygan kishidan uch ming diramga sotib olib bahosini to'ladi va uzukni menga yubordi. Uzukning ko'zi qizil yoqut edi», – dedi.

(Yana) Amr (ibn) Lays: «Jang kuni menda qirq ming diram bor edi, uni urush vaqtida mendan tortib oldilar. Men ellik farsang masofaga chopib bora oladigan va o'zim ko'p sinagan bir ot ustida edim, o'sha kuni u shunday sust yurar ediki, men uning ustidan tushishni istar edim. Otning oyoqlari ariqqa tushib ketdi, men otdan yiqildim va o'zimdand umid uzdim, haligi ikki kishi Meni o'ldirishga qasd qilgan vaktlarida o'zim bilan birga turgan kishiga: «Mening otimga minib qoch!» – dedim, u otga minib oldi, qarasam, ot xuddi bulutdek yugurar edi. Men tushundimki, bu (hammasi) mening davlatim ketganligidan ekan. Ayb otda emas ekan, – dedi.

Amr (ibn) Lays amir Ismoilga qarab: «Men Balxda o'n xarvor oltin bekitganman, buyurgin, uni olib kelsinlar, ularga ega bo'lishga bugun sen sazovorroqsan!» – dedi. Amir Ismoil odam

yuborib oltinlarni oldirib keldi va hammasini Amr ibn Laysga yubordi. Har qancha iltimos qilsalar ham marhum amir Ismoil u oltinlardan hech bir narsa olmadi.

Amir ul-mo‘minning Amr ibn Laysni o‘ziga yuborilishini talab qilib yozgan xati Samarqandga yetib keldi; xatning boshlanishiga shunday yozilgan edi: «Abdulloh ibn al-imom Abu-l-Abbos al-Mu‘tazid¹³⁴ billoh Amir ul mo‘minindan, Amir ul mo‘minning g‘ulomi Abu Ibrohim Ismoil ibn Ahmadga». Bu xat amir Ismoilga yetgach, u Amr (ibn) Laysga achinib g‘amgin bo‘ldi, ammo xalifa farmonini qaytara olmadi. Nihoyat uning buyrug‘i bilan Amr (ibn) Laysni kajavaga o‘tqizib Buxoroga olib keldilar. Amir Ismoil uyalganidan yuzini unga ko‘rsatmadi va: «Biron hojating bo‘lsa so‘ra», – deb odam yubordi. Amr (ibn) Lays: «Mening bolalarimni yaxshi kutsinlar hamda bu meni olib ketayotgan kishilarga nasihat qilgin toki ular menga nisbatan yaxshi muomalada bo‘lsinlar», – deb javob qaytardi. Amir Ismoil shunday qildi va uni kajavaga o‘tirg‘izib Bag‘dodga yubordi. Amr (ibn) Lays Bag‘dodga yetgach, xalifa uni Sofiy xodimga topshirdi va u Mu‘tazid xalifaligining oxirigacha shu Sofiy xodim qo‘lida asirlikda turdi hamda ikki yil zindonda bo‘lgandan keyin, ikki yuz sakson to‘qqizinchi yilda (16 dekabr 901–4 dekabr 902) o‘ldirildi.

Amir Ismoil Amr (ibn) Laysni xalifaning oldiga yuborgandan keyin xalifa amir Ismoilni Xuroson amiri qilib farmon yubordi – Hulvon dovonidan boshlab Xuroson viloyati, Movarounnahr, Turkiston, Sind, Hind va Gurgonlar hammasi uniki bo‘ldi. U har bir shaharga bittadan amir tayin qildi, adolat va yaxshi axloq bilan ish tutdi, kimki fuqaroga zulm qilsa unga jazo berdi. U zohid bo‘la turib shunday siyosatli ediki, somoniylar sulolasidan hech kim undan siyosatliroq bo‘lmagan. U davlat ishida hech beparvolik qilmas, hamisha xalifaga bo‘ysunar va umrida hech mahal xalifaga itoatsizlik qilmay, uning farmonini mahkam tutar edi.

¹³⁴ Xalifa Mu‘tazid – 892-902 yillarda hukmronlik qilgan abbosiy xalifa.

Amir Ismoil bemor bo'lib bir qancha vaqt yotdi. Uning kasalligi ko'proq rutubatdan edi. Tabiblar: «Jo'yi muliyonning havosi xushroq», – dedilar. Uni o'zining xos mulkidan bo'lgan Zarmon qishlog'iga olib bordilar: «Bu yerning havosi unga muvofiqroq keladi», – dedilar. Amir bu qishloqni yaxshi ko'rar va ov qilish uchun hamma vaqt o'sha yerga borar edi; u yerga bog' qurgan edi. Bir muddat u yerda bemor yotib, oxiri ikki yuz to'qson beshinchi yili safar oyining o'n beshinchisida (25 noyabr 907) xuddi shu bog'da katta bir daraxt tagida vafot etdi. U yigirma yil Xuroson amiri bo'ldi. Hukmdorlik muddati o'ttiz yil edi. Xudoyi taolo uni rahmat qilsin, negaki uning davrida Buxoro poytaxt bo'ldi, somoniylar sulolasidan chiqqan hamma amirlar Buxoroda turadigan bo'ldilar. Undan oldingi Xuroson amirlarining hech biri Buxoroda turgan emas. U Buxoroda turishni o'zi uchun muborak deb hisoblar, uning ko'ngli Buxorodan boshqa hech bir yerda orom topmas va u qayerda bo'lmasin: «Bizning shahar, ya'ni Buxoro, ana bunday, ana shunday»,– der edi. Amir Ismoil vafot etgandan keyin o'rniga o'g'li o'tirdi.

Unga «Amiri moziy» – «Dunyodan o'tgan amir» degan laqabni berdilar.

AMIRI SHAHID AHMAD IBN ISMOIL¹³⁵ AS - SOMONIYNING HUKMDORLIGI

U Xuroson amiri bo'ldi. Uni Amiri shahid deydilar. U o'z otasining yo'lidan yurib adolat ko'rsatar va barcha fuqaroga butunlay insof yuzasidan qarar edi. Fuqaro rohat va osoyishtalikda yashadilar. Amiri shahid u yer (Buxoro)dan Xurosonga borib o'z mamlakatini ko'zdan kechirdi va Seistonni oldi. Amiri moziy davrida Seiston uning nomida edi. U yerdan Buxoroga keldi. U ov qilishni yaxshi ko'rardi. U ov qilish uchun Jayhun labiga borib saroparda qurgan edi (bir kuni) ovdan qaytib

¹³⁵ Ahmad ibn Ismoil as-Somoniyy – somoniylar sulolasining 907-914 yillarda hukmronlik qilgan vakili.

(saropardaga) kelganida bir chopar Tabariston amiri Abu-l-Abbosdan xat olib keldi. Amiri shahid xatni o'qidi; xatda: «Husayn ibn Alo xuruj qilib Gurgon va Tabariston viloyatlarining ko'p yerlarini oldi, mening zarurat yuzasidan qochishim kerak bo'lib qoldi», – deb yozilgan edi. Bundan amir diltang bo'lib juda g'amginlikka tushdi va: «Ey xudo! Agar bu podshohlik mendan ketadigan bo'lsa, mening ajalimni ber!» – deb duo qildi-da, saropardaga kirdi.

Amiri shahidning shunday odati bor edi; uning bir sheri bo'lib, har kecha amir yotadigan uy eshigiga o'sha sherni zanjir bilan bog'lab qo'yar edilar, kim u uyga kirmoqchi bo'lsa, sher uni halok qilar edi. O'sha kecha amir g'amgin bo'lganidan uning hamma xos kishilari ham u bilan mashg'ul bo'lib, sherni olib kelishni unutib qo'yidilar. Amir uxlab yotganida uning qullaridan bir to'dasi kirib boshini oldilar. (Bu voqea) hijratdan uch yuz birinchi yil jumod al-oxir oyining o'n birinchisida (12 Yanvar 914) payshanba kuni (bo'lgan edi). Uni Buxoroga olib kelib Navkanda qabristoniga qo'yidilar va unga «Amiri shahid» deb laqab berdilar. «Bu ishni Abu-l-Hasan boshqargan,» – deb unga tuhmat qildilar va uni Buxoroga olib kelib dorga osdilar. Amirga suiqasd qilgai qullardan ba'zilarini topib o'ldirdilar, ba'zilari Turkistonga qochdi.

Uning podshohlik muddati olti yilu to'rt oy va besh kun bo'ldi.

AMIRI SA'ID ABU-L-HASAN NASR IBN AHMAD IBN ISMOIL¹³⁶ AS – SOMONIY HUKMDORLIGI

Amiri shahidni dafn etib bo'lgach, uning o'g'li Nasrga «Sa'id» – «Saodatlik» laqabini berdilar. U sakkiz yoshda ekanligida otasining o'rniga podshoh qildilar. Unga vazirlik (ishi)ni

¹³⁶ Abu-l-Hasan Nasr ibn Ahmad ibn Ismoil as-Somoniyy – 914-943 yillarda hukmronlik qilgan Somoniylar davlati hukmdori.

Abu Abdulloh Muhammad ibn Ahmad al-Jayhoniyy oldi. Hamaviya ibn Ali sipohi solor bo'ldi. Uni «Butun Xuroson egasi» deb atar edilar. Dastlab Amiri Sa'id bo'sh ish olib borganligidan har yerda fitna paydo bo'ldi, uning otasining amakisi Is'hoq ibn Ahmad Samarqandda o'ziga bay'at qilishni talab etdi va Samarqand aholisi unga bo'ysundilar. Uning o'g'li Abu Solih Mansur ibn Is'hoq Nishopurda isyon ko'tarib, Xuroson shaharlaridan ba'zisini oldi. Samarqandda Is'hoq ibn Ahmad hukmdorligi kuchaydi va Amiri Sa'id o'z sipohsolori Hamaviya ibn Alini unga qarshi urushga yubordi. Is'hoq mag'lubiyatga uchrab, lashkari Samarqandga qaytib kirdi. Is'hoq ikkinchi marta urushga rostlandi va Samarqand aholisi u bilan birga shahardan tashqariga chiqib, Hamaviyaga qarshi urushdilar va mag'lub bo'ldilar. Is'hoq ibn Ahmad uchinchi marta urushga chiqqan edi bu gal u asir tushdi. Uning o'g'li Mansur ibn Is'hoq Nishopurda edi, u o'ldi; butun Xuroson va Movarounnahr faqat Amiri Sa'idga o'tdi; Fors, Kermon, Tabariston, Gurgon va Iroqda uning nomiga xutba o'qidilar.

Hikoyat. Amiri sa'id o'n uchinchi yili Buxoroga o'zining yaqin kishilaridan biri Abu-l-Abbos Ahmad ybn Yahyo ibn Asad as-Somoniyy nomli kishini xalifa qilib qoldirib, o'zi Buxorodan Nishopurga ketdi.

O'sha yili «Gardun kashon» mahallasiga o't tushdi. O't shunday zo'raydiki, Samarqanddagi odamlar bu olovni ko'rib turdilar. Buxoroliklar: «Bu olov osmondan keldi», – der edilar. O'tni o'chirish mumkin bo'lmay bu mahalla butunlay kuydi.

Shu orada Amiri Sa'idning boshqa birodarlari xuruj qildilar va ko'p fitnalar qo'zg'otdilar.

Oxiri fitnaning asoschisi bo'lgan Abu Zakariyo, hech narsani qo'lga kirgiza olmay, ozgina odam bilan Xurosonga ketdi. Amiri Sa'idning boshqa birodarlari omonlik tiladilar. Amiri Sa'id ularga omonlik berib, oldiga chaqirib oldi va shu bilan fitna tinchidi.

Hikoyat. Yana Amiri Sa'id Nasr ibn Ahmad ibn Ismoil davrida uch yuz yigirma beshinchi yil rajab oyida (may-iyul 937) Buxoroga o't tushib hamma bozorlar kuydi. O't bir halimpazning do'konidan boshlangan. U do'kon Samarqand darvozasida bo'lib, halimpaz halim qozoni tagidagi kulni tomga olib chiqib, tomda chuqurlik bor ekan, uni to'lg'izmoqchi bo'lgan, kul orasida bir bo'lak cho'g' bor ekan, halimpaz uni sezmagani va shamol cho'g'ni olib borib qamishdan yasalgan bir uyga urgan. U uyni o't olib, undan hamma bozorlarga o't ketgan va Samarqand darvoza mahallasi butkul kuygan. Olov osmonda bulutdek suzib yurgan. «Ko'yi bikor»-»Qizlar ko'chasi», bozorning timchalari, Madrasayi Forjaq, kovushdo'zlar timi, sarroflar va bazzozlar bozori, (xullasi) Buxoroning ana shu tomonida to anhor labiga borguncha nimaiki bo'lsa hammasi kuygan. Bir parcha olov sachrab Masjidi Moxni o't oldi va u (ham) tomoman yonib ketdi. Olov ikki kecha-kunduz yonib, buxoroliklar uni o'chirishdan ojiz qoldilar, ko'p mashaqqat chekdilar va nihoyat uchinchi kuni o'chirdilar. U yog'ochlar tuproq tagida bir oygacha kuyib turdi. Buxoroliklarga yuz ming diramdan ortiq ziyon yetdi. Shundan keyin Buxoro imoratlarini hech qachon u (ilgarigisidek) qilib qura olmadilar.

Amir Sa'id o'ttiz bir yil podshohlik qildi. U adolatli podshoh bo'lib, otasidan ham odilroq edi. Uning yaxshi sifatleri ko'p; agar hammasini aytsak gap uzayib ketadi.

U dunyodan o'tgach, o'g'li Nuh ibn Nasr podshohlik (taxtiga) o'tirdi.

AMIRI HAMID ABU MUHAMMAD NUH IBN NASR¹³⁷ IBN AHMAD IBN ISMOIL AS – SOMONIY

Amiri Hamid uch yuz o'ttiz birinchi yili sha'bon oyining avvalida (10 aprel 943) podshohlik taxtiga o'tirdi va Abu Zar unga vazir bo'ldi. U Buxoro qozisi edi. Uning zamonida fiqh

¹³⁷ Nuh ibn Nasr – 943-954 yillarda hukmronlik qilgan Somoniylar davlati hukmdori.

ilmini undan ko'ra biladiganroq kishi bo'lmagan. «Muxtasari Kofiy» uning asaridir. Amiri Sa'id vafot etgach, (podshohlikni talab etuvchilardan) har bir kishi bir joyda qaror topdi. Amiri Hamid Buxorodan chiqib Nishopurga ketdi. Abu Ali Isfahoniy Nishopur amiri edi. Amiri Hamid (lashkar) yuborib uni qo'lga oldirdi; o'ziga qarshi kishilarni tarqatib yuborib viloyatlarni tozaladi; Nishopurni Ibrohim Simjurga berdi. Abu Ali Isfahoniy o'zicha: «Men uning podshohligini barqaror qildim, u esa viloyatni boshqa kishiga berdi», – deb o'yladi va Abu Is'hoq Ibrohim ibn Ahmad ibn Ismoil as-Somoniyya: «Buxoroga borib podshohlikni ol! Men sen bilan bo'lsam amir senga qarshi tura olmaydi», – dedi. Abu Is'hoq lashkar tortib Amiri Hamidga qarshilik oshkor qildi. Amiri Hamid Nishopurdan qaytayotganida Abu Is'hoq unga hujum qildi. Ular o'rtasida jang bo'ldi va Amiri hamid yengilib Buxoroga keldi. Uning ketidan amakisi Abu Is'hoq ham Buxoroga keldi va uch yuz o'ttiz beshinchi yil jumod al-oxir oyida (yanvar 947) butun Buxoro aholisi unga bay'at qildilar. Buxoroning hamma minbarlarida Abu Is'hoq nomiga xutba o'qidilar. Bir oz vaqt o'tgandan keyin Abu Is'hoq o'z lashkari uning o'ziga qarshi yomon niyatda ekanini, uni o'ldirishga qasd qilganini va Amiri hamidga sadoqat bildirganini bilib qoldi va Buxorodan qaytib Chag'oniyonga ketdi. Amiri Hamid sipohsolorlikni Mansur Qaroteginga berdi va uni Marvga yubordi. Mansur Qarotegin Ali ibn Muhammad al-Qazviniyni ushlab asir qilib Buxoroga yubordi va u (Marvdagi) qo'zg'olonni bostirdi. Amiri hamid o'z podshohligi davrida podshohlikni talab etuvchi har xil kishilar bilan ko'p urushlar qilishiga to'g'ri keldi. Uch yuz qirq birinchi yilga (23 may 952–17 may 953) kelibgina hamma viloyatlar Amiri Hamidga to'la bo'ysundi. Amiri Hamid uch yuz qirq uchinchi yil rabi al-oxir oyida (avgust 954) vafot etdi. U o'n ikki yil podshohlik qildi.

Ahmad ibn Muhammad ibn Nasrning aytishicha, Muhammad ibn Ja'far an-Narshaxiy bu kitobni Amiri Hamid podshohligi davrining boshida uch yuz o'ttiz ikkinchi yili (4

sentyabr 943-23 avgust 944) uning nomiga atab yozgan va Amiri Hamid davrida yuz bergan voqealarni o'z kitobida to'la keltirmagan, Amiri Hamiddan keyingi somoniylar (sulolasi) amirlarining ahvollaridan bizga ma'lum bo'lgani, olloh taolo muvaffaqiyat bersa, mana shu (quyidagicha)dir.

**AMIRI RASHID ABU – L – FAVORIS ABDULMĀLIK
IBN NUH¹³⁸ IBN NASR IBN AHMAD IBN ISMOIL
AS – SOMONIYNING PODSHOHLIGI**

Amiri Hamid dunyodan o'tgach, Amiri Rashidga bay'at etdilar, U o'n yoshida podshohlikka o'tirdi. Amiri Hamidning vafot etganligi xabari viloyatlarga yetgach, har kim bir viloyatga ega bo'lishni tama qildi (Amiri Rashid) Ash'as ibn Muhammad ibn Muhammadni Xurosonga yuborgan edi, unga Hirot va Isfaxonda ko'p janglar qilishga to'g'ri keldi va u viloyatlarni bo'ysundirdi. U hali shu ish bilan mashg'ul bo'lib, jang qilayotgan ediki, Amiri Rashid otdan yiqildi va shu kechasiyoq vafot etdi. U kecha chorshanba kechasi bo'lib, uch yuz elliginchi yil shavvol oyidan sakkiz kun o'tgan (20 noyabr 961) edi. Uning podshohlik muddati yetti yil bo'ldi. Uni dafn qilganlaridan keyin lashkar isyon qilib qo'zg'olon ko'tardi va har kim podshohlikni tama qilib, g'alayonlar yuz berdi.

**MALIKI MUZAFFAR ABU SOLIH MANSUR
IBN NASR¹³⁹ IBN AHMAD IBN ISMOIL
AS – SOMONIYNING PODSHOHLIGI**

Amiri Sadid podshohlik taxtiga o'tirgach, lashkar unga bay'at qildi: ko'p qarama-qarshiliklardan keyin ittifoqlik vujudga keldi. Unga bay'at qilingan kun juma kuni, uch yuz elliginchi

¹³⁸ Abdulmalik ibn Nuh – 954-961 yillarda hukmronlik qilgan Somoniylar davlati hukmdori.

¹³⁹ Mansur ibn Nasr – 961-976 yillarda hukmronlik qilgan Somoniylar davlati hukmdori.

yil shavvol oyida (noyabr-dekabr 961) edi. (Shu vaqtda) sipohsolor Alptegin Nishopurda edi, Amiri rashidning vafoti xabarini eshitgach, u Amiri Sadidni qo'lga olishga qasd qildi, Amiri sadid unga(qarshi) odam yubordi. Alptegin Jayhun daryosiga yetib kelib, undan o'tishni mo'ljallagan edi, ammo (unga qarshi) ko'p lashkar kelganligi tufayli o'ta olmadi. U o'z viloyati Nishopurga qaytmoqchi bo'ldi. (Ammo) Amiri Sadid Nishopurga, Muhammad ibn Abdurazzoqga: «Uni Nishopurga kirishga qo'ymanglar!» – deb xat yozdi. Alptegin bundan xabardor bo'lgach, Nishopurga bora olmasligini bilib, Jayhun suvi hamda Omuydan o'tib, Balxga bordi va Balxni olib qarshilik zohir qildi.

Amiri Sadid Ash'as ibn Muhammadi yubordi, u Alpteginga qarshi ko'p urush qilib oxir uni Balxdan chiqardi. Alptegin G'aznaga ketdi. Ash'as ibn Muhammad ham uning ketidan G'aznaga bordi, u yerda ham urush qildilar. Alptegin ikkinchi marta Ash'asdan yengilib qaytib Balxga qarab qochdi. Ko'p qarama-qarshilik va urushlardan keyin Amiri sadid unga yana omonlik berdi va u xizmatga keldi. Shu vaqtlarda Amiri Sadid viloyatlarga ko'p lashkar yuborib mamlakatni (dushmanlardan) tozaladi; viloyatda (taxt uchun) nizo qiluvchi kishi qolmadi. Amiri Sadid daylamiylar viloyatini olib sulh tuzdi: daylamiylar har yili Amiri Sadidga bir yuz ellik ming nishopur dirami to'laydigan bo'ldilar.

Amiri Sadid uch yuz oltmish beshinchi yili o'n oltinchi muharramda (25 sentyabr 975) yakshanba kuni dunyodan o'tdi. U o'n besh yilu besh oy podshohlik qildi. Yana xudo bilimdon-roq.

**AMIRI RASHID ABU – L – QOSIM NUH IBN MANSUR¹⁴⁰
IBN NUH IBN NASR IBN AHMAD IBN ISMOIL
AS – SOMONIYNING PODSHOHLIGI**

Amiri Sadid yakshanba kuni dunyodan o'tgach, dushanba kuni o'g'li taxtga o'tirdi va unga bay'at qildilar. Abu Abdulloh Muhammad ibn Ahmad al-Jayhoniyy unga vazir bo'ldi. (Lekin) bir necha kun vazirlik qilgach, qariligi sababli vazirlikdan iste'fo berdi. Undan keyin ikki-uch kun o'tgach, oxiri, amir Muhammad ibn Abdulloh ibn Aziz vazir bo'ldi va davlat ishi ravnaq topdi. Lashkar sipohsolori bo'lib turgan Abu-l-Abbos Tosh bo'shatilib, Abu-l-Hasan Muhammad ibn Ibrohim sipohsolor bo'ldi. Abu-l-Abbos Tosh qarshilik bildirib Nishopurni oldi. Abu-l-Hasan, uning o'g'li Abu Ali va Abu-l-Hasan al-Foyiq al-Xossalar Nishopurga borib, uch yuz yetmish yettinchi yili (3 may 987–20 aprel 988) uni mag'lub qildilar. Abu-l-Abbos Nishopurdan qochib Gurgonga bordi. Ali ibn Hasan unga yor bo'lib, Gurgonga kiritdi. Sipohsolor Abu-l-Hasan Muhammad ibn Ibrohim zu-l-qa'da oyining oxirida uch yuz yetmish sakkizinchi yili (11 mart 989) dunyodan o'tdi va uning o'g'li (Abu Ali) sipohsolor bo'ldi. Keyin Amiri rashid uni yomon ko'rib qolib bekor qildi va Abu-l-Hasan al-Foyiq al-Xossa sipohsolor bo'ldi hamda Hariyga borib u bilan jang qildi, ammo undan (yengilib) qochdi va hijratning uch yuz yetmish sakkizinchi yili zu-l-hijja oyida (mart-aprel 989) Marvga bordi. Undan keyin Abu-l-Horis Mansur ibn Nuh bir yilu to'qqiz oy voliy bo'ldi, bektuziylar uni Saraxsda band qildilar. Shu bilan podshohlik somoniylar sulolasi qo'lidan chiqib ketdi. Yana olloh bilimdonroqdir.

Abu Bakr Muhammad ibn Ja'far an-Narshaxiy. Buxoro tarixi. Rasulov A. tarjimasi T.: Kamalak, 1991.

¹⁴⁰ Nuh ibn Mansur – 976-997 yillarda hukmronlik qilgan Somoniylar davlati hukmdori.

XORAZM AFRIG'IYLAR DAVRIDA¹⁴¹

Nnhoyat Kayxusrav¹⁴² naslidan Ofrig'¹⁴³ podshohligi boshlandi. Eronliklar «gunohkor» Yazdijardni yomon xabar keltiruvchiga yo'yanlaridek, [xorazmliklar] Ofrig'ni shum xabar keltiruvchiga chiqardilar. Ofrig'dan keyin uning o'g'li podshoh bo'ldi. [Ofrig'] Iskandar tarixining olti yuz o'n oltinchi yilida al-Fir ustiga o'z qasrini qurdirdi. Keyin xorazmliklar Ofrig' va uning avlodi podshohligidan tarix oldilar.

Al-Fir Xorazm shahri¹⁴⁴ning chekkasidagi loy va xom g'ishtdan qurilgan qal'a bo'lib, biri-birining ichiga joylashgan va balandlikda bir-biridan qolishmaydigan uch qavat qo'rg'on edi. Bu barcha qo'rg'onlar tepasida Yamandagi G'umdon singari podshohlarning qasrlari bor edi.

G'umdon – tabbalarning turar joylari bo'lib, San'a shahridagi Masjidi jome ro'parasidagi toshdan qurilgan qal'adir. Aytilishicha, u to'fondan keyin Som ibn Nuh qurgan binolar-dandir. Som qazigan quduq ham o'sha yerdadir. Ba'zilar esa, bu – Zahhok tomonidan Zuhra ismiga atab qurilgan haykal, deganlar. Al-Fir o'n milcha va undan ko'proq masofadan ko'rinar edi. Jayhun har yili uni buzib, yiqitib va parchalab olib keta berdi; nihoyat Iskandar tarixining ming uch yuz beshinchi yil¹⁴⁵ida undan asar qolmadi.

Payg'ambar alayhissalom kelgan vaqt¹⁴⁶da, Xorazm shohlaridan Arsamux ibn Buzgor ibn Xomgariy ibn Shovush Sixr ibn Azkojvor ibn Askajmuk ibn Saxxasak ibn Bag'ra ibn Ofrig' podshoh edi. Xorazm aholisi [islom dinidan] qaytgandan keyin,

¹⁴¹ Mahalliy Afrig'iylar sulolasi Xorazmda 305-yildan 995-yilgacha hukmronlik qilgan bo'lib, bu davlat poytaxti Kat shahri (hoz. Beruniy shahri) bo'lgan.

¹⁴² Kayxusrav – Eron mifologiyasida kayoniylar sulolasidan bo'lgan 3-shoh. Otasi Siyovush.

¹⁴³ Ofrig' – (Afrig'), afrig'iylar sulolasi asoschisi (305 y.), Xorazmshoh

¹⁴⁴ Xorazm shahri – Kat (hozirgi Beruniy) shahrining yana bir nomi.

¹⁴⁵ 1305-312=993yil, taxminiy hisob.

¹⁴⁶ Myhammad paygambar-570-662/ demak taxminan 610-660yillar.

Qutayba ibn Muslim Xorazmni ikkinchi marta fath qilgach, xorazmliklarga Askajmuk ibn Azkojvor ibn Sabriy ibn Sixr ibn Arsamuxni podshoh qildi¹⁴⁷ va uni podshohlikka ko'tardi. Xisravlar nasl qo'lidan viloyat ketib, ularda faqat shohlik nomi qoldi, Chunki shohlik ularga merosdek edi. Tarix, musulmonlar rasmiga muvofiq, hijriy [yilga] ko'chirildi.

Qutayba¹⁴⁸ Xorazm xatini yaxshi biladigan, ularning xabar va rivoyatlarini o'rgangan va bilimni boshqalarga o'rgatadigan kishilarni halok etib, butkul yo'q qilib yuborgan edi. Shuning uchun u [xabar va rivoyatlar] islom davridan keyin, haqiqatni bilib bo'lmaydigan darajada yashirin qoldi. Mamlakat idorasi goho bu xonadonda bo'lib, goho boshqa qabilalar qo'llariga o'tib yurdi. Nihoyat, Shahid Abu Abdullo Muhammad ibn Ahmad ibn Muhammad ibn Iroq ibn Mansur ibn Abdullo ibn Turkasbosa ibn Shovushfir ibn Askajmuk ibn Azkojvor ibn Sabriy ibn Sixr ibn Arsamuxdan – buning zamonida payg'ambar alayhissalomga payg'ambarlik kelganini aytib o'tdim – keyin viloyatlik ham, shohlik ham ular [qo'li] dan chiqib ketdi.

Abu Rayxon Beruniy. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar. T.: Fan, 1968. 71-72-betlar.

ILK O'RTA ASRLARDA VAZIRLIK BOSHQARUVI

Aytgan edikki, omillar va ularning ishlari vazirga tegishlidir va yaxshi vazir podshohni ham neknom va neksiyrat qiladi. Qaysi podshoh buyuk bo'lib, olamda hukmron va mashhur bo'lgan esa va qiyomatgacha nomi yaxshilik bilan tilga olinsa, bu yaxshi vazirlar orqali qo'lga kiritilgan. Sulaymon alayhis salomga Osaf Barxiyo, Muso alayhissalomga Horun, Mustafo

¹⁴⁷ 711yil. Askajmuk

¹⁴⁸ Qutayba – (660-715), Umaviylarning Xurosondagi noibi (705-715), Movarounnahr va Xorazmni bosib olgan arab sarkardasi.

sallallohi alayhi vassallamga Abu Bakri Siddiq vazir bo'lganlar. Buyuk podshohlardan Kayxusravga Gudars, Manuchehrga Som, Afrosiyobga Pironi Visa, Gushtaspga Jomosp, Rustamga Zavora, Bahrom Go'rga Xuraro'z, No'shiravoni odilga Buzarjmehr, Bani Abbos xalifalariga Oli Barmak, Somoniylarga Bal'amiylar, Sulton Mahmudga Ahmad Hasan va Faxr ud-davlaga Sohib Abbod, Sulton Tug'ralga Abu Nasr Kanduriy, Sulton Alparslon va Sulton Malikshohga Nizom ul-mulk al-Hasan vazirlik qilganlar. Bularga o'xshaganlar ko'p.

Ammo vazir pokdin, e'tiqodli bo'lib, hanafiymazhab yoki shofi'imazhab, sohibqalam va podshohsevar bo'lmog'i zarur. Agarda vazirzoda bo'lsa, buyukroq va muborakroqdir. Ardasher Bobakon zamonidan to shoh Yazdigardgacha Ajam mulklarida shahzoda shoh, vazirzoda vazir bo'lgan. Islom tarqatilguniga qadar Ajamda shunday edi. Hukumat Ajam maliklari qo'lidan chiqdiyu, vazorat ham vuzaro avlodlari qo'lidan ketdi....

G'AZNAVIYLAR DAVLATI¹⁴⁹ DA BOSHQARUV

...Sulton Mahmud¹⁵⁰ saltanatga o'tirganida amir al-muminin al-Qodir billoh¹⁵¹dan unvon so'raydi. Unga Yamin ud-davla (davlatning baxti) unvonini beradilar. U Nimro'z, Xurosonni, Hindistonda esa ko'p viloyatlarni olib, Sumanotta borib Manotni zabt etib keladi. Samarqandni qo'lga kiritib, Xorazm yo'lini ochadi, Qo'histon va Iroqqa keladi. Ray, Isfahon, Hindistonni bosib, Tabaristonni o'z itoatiga bo'ysundirganida amir al-mumininga elchisini ko'p hadyalari bilan yuborib, unvonlari martabasini ko'tarishni so'rab deydi: Menga Hindiston, Xuroson,

¹⁴⁹ G'aznaviylar davlati - (977-1186), Xuroson, shimoliy Hindiston hamda qisman Movarounnahr va Xorazmda g'aznaviylar sulolasi boshqargan turkiy davlat. G'aznaviylar davlatiga Sabuktegin asos solgan. Davlat nomi saltanatning poytaxti G'azna shahri nomidan olingan.

¹⁵⁰ Sulton Mahmud - G'aznaviylar davlatining 998-1030 yillarda hukmronlik qilgan mashhur hukmdori.

¹⁵¹ Qodir al-billoh - abbosiylar sulolasidan bo'lgan Arab xalifasi (991-1031).

Iroq, Tabariston taslim bo'ldi. Movarounnahrni olganman, sening noming ostida jang qilaman. Samarqand xoqoniga uch unvon berganlar. Bular: Zahir ud-davla (davlat madadkori), Muinu xalifatullohi (Olloh o'rinbosarining yordamchisi), va Malik ush-Sharq va-s-sin (Sharq va Chin maliki). Hozir xoqon menga tobedir. Unga uchta unvon berganlar, menga bo'lsa bitta, xolos.

Shuncha hadyalar bilan Mahmudga javob keladi: Unvon mardning sharafini ko'taradi, martabasi oshib, shu unvon bilan odamlar orasida taniqli bo'ladi. Sen o'zing sharafli va taniqli kishisan, senga bir unvon ham yetadi. Xoqon esa savodsiz, nodon bir zotdir. Shu uchun uning iltimosini bajardik. Bilib qo'yki, odamga ota-ona nom beradi, o'zi kuniyat oladi, podshohlar esa unvon va laqab beradilar. Shu ikkala ismlardan ortig'i kibr va g'urur nishonasidir. Hech bir xiradmand kishi o'zining sharmandaligini xohlamaydi. Odam yosh bo'lsa, uning nomini oladilar, ammo katta bo'lib yaxshi-yomonning farqiga borsa, o'zini bilib qolganda kuniyat oladi, Chunki al-kunya maylani (ya'ni kuniya mening maylimdir). Odamlar ham uning hurmati uchun kuniyati bilan chaqirib ehtirom qiladilar. Mulk va millat undan shoyista xizmatlar ko'rsa, podshoh uni xizmatiga yarasha sharaflab, unvon beradi va boshqalardan ajratib, fazilatini ko'rsatadi. Podshoh va xalifa bergan unvon ota-ona qo'ygan nomdan ham, o'zi tanlagan kuniyatdan ham yaxshiroqdir. Odamlar kishining yuksalishi uchun uni podshoh bergan unvon bilan chaqiradilar. Shu uchta nomdan ortgan unvon behudadir.

Sen har xil ilmlardan xabardorsan, senga e'tiqodimiz ziyodadir. Bizdan so'ralgan so'z xalq o'rtasida tarqalib ketadi, kitoblarda yoziladi. Sen bo'lsa, savodsiz kishi qiladigan ishni qila-yapsan.

Mahmud bunday javobni eshitib, xafa bo'ladi.

Abu Ali Hasan ibn Ali Tusiy Nizomulmuluk. Siyosatnoma (Siyar ul-muluk). T.: Yangi asr avlodi, 2008.

SAKKIZINCHI BO'LIM

O'RTA OSIYO XALQLARI HAYOTIDA IX-XII ASRLARDA YUZ BERGAN UYG'ONISH DAVRI. FAN VA MADANIYAT RAVNAQI

O'rta Osiyo xalqlari hayotidagi uyg'onish davridagi fan va madaniyat ravnaqini chuqurroq tushunmoq uchun shu davr siyosiy, iqtisodiy hayotini, ayniqsa, buyuk allomalar hayoti va faoliyatini, ular asarlarining tadqiqot yo'nalishini bilish juda muhimdir. Markazlashgan xalifalikning mavjudligi, arab tilining davlat tiliga, ilm tiliga aylanishi, hukmdorlarning ilm ahliga ko'rsatgan homiyliklari natijasida fanning turli sohalari bilan birga tarixshunoslik ilmi ham rivojlandi. Shuning uchun ham buyuk olimlarning asarlaridan parchalar keltirib, muayyan tasavvur hosil qilishga urinamiz. Bizning o'z oldimizga qo'ygan maqsadimiz esa, bunday ulug' zotlarning hayot yo'li va qoldirgan merosini to'liq tasvirlash emas, balki ularning eng buyuk namoyandalari timsolida ma'rifat, ilmu fan, madaniyat, din kabi sohalarning barchasini o'zida uyg'unlashtirgan xalqimizning ma'naviy olami naqadar boy va rang-barang ekanini isbotlab berishdan iboratdir. Bunday noyob va bebaho boylikni har tomonlama chuqur o'rganish, uning ma'nomazmunini farzandlarimizga etkazish masalasi barchamiz, birinchi galda, ziyolilarimiz, butun jamoatchiligimiz uchun ham qarz, ham farz bo'lishi shart, deb hisoblayman. Nega deganda, o'zimiz — bugun shu yurtda yashayotgan vatanparvar insonlar bu vazifani o'z zimmamizga olmasak, chetdan kelib hech kim hech qachon bu ishni qilib bermaydi.

MA'NAVIYATNING MUHIM OMILLARI

Bu murakkab dunyoning azaliy va abadiy muammolari, shu bilan birga, har bir davrning dolzarb masalalariga har tomonlama asosli ilmiy javoblar topilgan taqdirdagina ma'naviyat olami yangi ma'no-mazmun bilan boyib boradi. Boshqacha aytganda, har bir ilmiy yangilik, yaratilgan kashfiyot – bu yangicha fikr va dunyoqarashga turtki beradi, ma'naviyatning shakllanishiga o'ziga xos ta'sir o'tkazadi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, zaminimizda yashab o'tgan buyuk allomalarimiz, mutafakkir bobolarimizning ibratli hayoti va faoliyati, bemiyl ilmiy-ijodiy kashfiyotlari bugun ham jahon ahlini hayratga solayotganini g'urur bilan ta'kidlash lozim. Masalan, **Muhammad Muso Xorazmiy**¹⁵²ning o'nlik sanoq sistemasini, algoritm va algebra tushunchalarini dunyoda birinchi bo'lib ilm-fan sohasiga joriy etgani va shu asosda aniq fanlar rivoji uchun o'z vaqtida mustahkam asos yaratgani umuminsoniy taraqqiyot rivojida qanday katta ahamiyatga ega bo'lganini barchamiz yaxshi bilamiz. Bugungi kunda odamzotning ilm-fan va zamonaviy texnologiyalar borasida erishayotgan ulkan yutuqlarini ko'z oldimizga keltirar ekanmiz, beixtiyor ana shu buyuk bobomiz misolida bunday Yuksak marralarga erishishda o'zbek xalqining ham munosib hissasi borligidan qalbimiz iftixorga to'ladi. Yana bir ulug' ajdodimiz – **Ahmad Farg'oniy**¹⁵³ insoniyat tarixidagi ilk Uyg'onish davrining eng zabardast va kuchli namoyandasi, o'z zamonasining fundamental fan asoschilaridan biri sifatida bashariyat dunyoqarashi va ma'naviyatining rivojlanishiga beqiyos ta'sir ko'rsatdi. Uning bebaho merosi o'z davri olimlari uchun dasturilamal bo'lib xizmat qilgani tarixiy

¹⁵² Muhammad Muso Xorazmiy – 783-850 yillarda yashab ijod qilgan, Xorazmda tug'ilgan qomusiy olim. Xalifa Ma'mun davrida (813-833) «Bayt ul-hikma»da mudir sifatida faoliyat yuritgan. 20 dan ortiq asarlar muallifi, algebra fanining asoschisi.

¹⁵³ Ahmad Farg'oniy – 797-865 yillarda yashab ijod qilgan, Farg'onada tug'ilgan qomusiy olim. Yevropada Alfraganus nomi bilan shuhrat qozongan. Bag'dodda al-Xorazmiy bilan birgalikda «Bayt ul-hikma»da faoliyat olib borgan.

manbalar orqali yaxshi ma'lum. Allomaning «**Astronomiya asoslari haqida kitob**» nomli asari o'n ikkinchi asrdayoq lotin va ivrit tillariga tarjima etilgani ham bu fikrning dalilidir. Yevropada Al-Fraganus nomi bilan mashhur bo'lgan bu allo- maning ilm-fan rivojidagi nufuzi shu qadar yuksak ediki, uning ismi sharifi yer kurrasidagina emas, balki samoda ham shuhrat topdi. O'n oltinchi asrda Oydagi kraterlardan biriga uning nomi berilgani bu fikrni isbotlaydi. Atoqli astronom Yan Geveliy tomonidan 1647 yili nashr qilingan «Selenografiya» kitobida Oydagi kraterlardan ikkitasi ikki buyuk vatandoshimiz – Ahmad Farg'oniy va Mirzo Ulug'bek nomi bilan ataladi. Milliy tarixi- mizning yana bir yorqin yulduzi **Abu Rayhon Beruniy**¹⁵⁴ faoliyatiga haqqoniy baho berar ekan, amerikalik fan tarixchisi Sarton XI asrni «Beruniy asri» deb ta'riflaydi. Bunday yuksak va haqli baho avvalo qomusiy tafakkur sohibi bo'lmish buyuk vatandoshimizning ilm-fan taraqqiyotiga qo'shgan beqiyos hissasi bilan izohlanadi. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, Beruniy ilmiy masalalarda ham, tarixiy voqea-hodisalarga, o'z zamon- doshlariga baho berishda ham o'ta xolislik va haqqoniylik bilan fikr yuritgan. Shu bois ham u hayotda ko'p aziyatlar chekkan, hatto umrining oxirida turmush qiyinchiliklariga duchor bo'l- gan, ammo har qanday og'ir sharoitga qaramasdan, e'tiqodidan qaytmagani uning o'z ma'naviy ideallariga naqadar sodiq bo'lganidan dalolat beradi. Ana shunday noyob fazilatlar sohibi bo'lmish mashhur alloma **Ibn Sino**¹⁵⁵ning «**Tib qonunlari**» asari necha asrlar davomida Yevropaning eng nufuzli oliy o'quv yurtlarida asosiy tibbiyot darsliklaridan biri sifatida o'qitib kelingani, dunyo miqyosida «Medisina», «Sog'lom turmush

¹⁵⁴ Abu Rayhon Beruniy – 973-1048 yillarda yashab ijod qilgan, Xorazmda tug'ilgan qomusiy olim. Gurganjdagi «Ma'mun akademiyasi» mudiri, 160 dan ortiq asarlar muallifi, fanning deyarli barcha sohalarini bilgan shug'ullangan.

¹⁵⁵ Ibn Sino – 980-1037 yillarda yashab ijod qilgan, Buxoroda tug'ilgan qomusiy olim. G'arbda «Avitsenna», Sharqda «Shayh- ur-raisi» nomlari bilan shuhrat qozongan. 450 dan ortiq asarlar yozgan, shularning 43 tasi tib ilmiga bag'ishlangan.

tarzi» degan tushunchalarning fundamental asosi bo'lib xizmat qilgani, albatta, chuqur hayotiy va ilmiy zaminga ega. Aniqroq qilib aytganda, bu benazir allomaning butun ilmiy faoliyati dunyo taraqqiyotini insonparvarlik ruhida, ya'ni, ma'naviy negizda rivojlantirishga ulkan ta'sir o'tkazdi, deb aytishga barcha asoslar bor. Yoki o'rta asrlarda Xorazm diyoridan olis Arabistonga borib, arab tili grammatikasini mukammal tarzda ishlab chiqqan, ilm-fanning ko'plab boshqa sohalarida ham shuhrat qozongan **Mahmud Zamahshariy**¹⁵⁶ bobomizni esga olaylik. O'zining jismoniy nogironligiga qaramay, dunyoning ko'plab mamlakatlariga mashaqqatli safarlar qilgan, teran bilimi va ilmiy salohiyati bilan butun islom olamini lol qoldirgan bu zot, hech shubhasiz, xalqimiz uchun ma'naviy yetuklik timsoli bo'lib qolaveradi.

Ma'lumki, xalqimiz azaldan islom dini va madaniyati rivojiga beqiyos hissa qo'shib keladi. Bu haqiqatni jahon jamoatchiligi, butun musulmon dunyosi yaxshi biladi va tan oladi. Nufuzli xalqaro tashkilot bo'lmish Islom konferensiyasi tashkilotining Ta'lim, fan va madaniyat masalalari bo'yicha tuzilmasi – AYSESKO tomonidan Toshkent shahrining 2007 yilda Islom madaniyati poytaxti deb e'lon qilingani ham ana shunday yuksak e'tirofning yana bir tasdig'idir. Buyuk mutafakkir va allomalarimizning islom madaniyatini ravnaq toptirishga qo'shgan betakror hissasi to'g'risida so'z yuritganda, eng avvalo, haqli ravishda musulmon olamida «muhaddislar sultoni» deya ulkan shuhrat qozongan **Imom Buxoriy**¹⁵⁷ bobomizning muborak nomlarini hurmat-ehtirom bilan tilga olamiz. Bu mo'tabar zot merosining gultoji bo'lmish eng ishonchli hadislar to'plami – «**Al-jome' as-sahih**» kitobi islom dinida

¹⁵⁶ Mahmud Zamahshariy – 1075-1144 yillarda yashab ijod qilgan, Xorazmda tug'ilgan. Asosan, tafsir ilmi va arab tili grammatikasi bilan shug'ullangan. Shuning uchun ham, u «Xorazm fahri», «Arab va g'ayri arablar ustozlari» kabi sharafli nomlar bilan ulug'langan.

¹⁵⁷ Imom Buxoriy – 810-870 yillarda yashab ijod qilgan, Buxoroda tug'ilgan hadisshunos olim. Uning «Al-jome' as-sahih» asariga 7275 hadis kiritilgan.

Qur'oni karimdan keyingi ikkinchi muqaddas manba bo'lib, ahli islom e'tiqodiga ko'ra, u bashariyat tomonidan bitilgan kitoblarning eng ulug'i hisoblanadi. Mana, o'n ikki asrdiki, bu kitob millionlab insonlar qalbini iymon nuri bilan munavvar etib, haq va diyonat yo'liga chorlab kelmoqda. Yana bir ulug' vatandoshimiz – **Abu Iso Muhamimad ibn Iso Termiziy**¹⁵⁸ning ma'naviy merosi; jumladan, «**Suna'i Termiziy**» asari ham musulmon olamida ana shunday yuksak qadrlanadi. Allo-maning asrlar davomida olimu fuzalolarga dastur bo'lib kelgan insof va adolat, insonparvarlikni targ'ib etuvchi g'oyalari hozirgi murakkab davrimizning ko'plab axloqiy-ma'naviy masalalarini hal etishda ham muhim ahamiyat kasb etishi bilan e'tiborga molikdir.

Manbalarning guvohlik berishicha, **Imom Buxoriy** vafot etgan yili, ya'ni milodiy 870 yili tariximizdagi yana bir mumtoz siymo – **Imom Moturidiy**¹⁵⁹ tavallud topgan ekan. Bu voqea zamirida shaxsan menga ilohiy bir bog'liqlik, Ollohning buyuk marhamati bordek, bamisoli **Imom Buxoriyning** nurli qalamini **Imom Moturidiy** olib, ul zotning xayrli ishlarini davom ettirishga bel bog'lagandek tuyuladi. **Imom Moturidiy** bobomizning o'rta asrlardagi g'oyat xatarli va tahlikali bir vaziyatda o'z hayotini xavf ostiga qo'yib, avlodlarga ibrat bo'ladigan ma'naviy jasorat namunasini ko'rsatib, islom olamida «**Musulmonlarning e'tiqodini tuzatuvchi**» degan yuksak sharafga sazovor bo'lgani bu nodir shaxsning ulkan aql-zakovati va matonatidan dalolat beradi. Ul zot asos solgan moturidiya maktabi Sharq mamlakatlarida bunday katta shuhrat topishining sababi shundaki, unda ilgari surilgan g'oyalar islom dinimizning

¹⁵⁸ Abu Iso Muhamimad ibn Iso Termiziy – 824-892 yillarda yashab ijod qilgan, Termizda tug'ilgan hadisshunos olim. Imom Buxoriyning shogirdi. Eng mashhur asari «Sunani Termiziy»dir.

¹⁵⁹ Imom Moturidiy – 870-944 yillarda yashab ijod qilgan, Samarqandda tug'ilgan. Imom, fiqh olimi, kalom ilmining moturidiylik oqimi asoschisi. «Kitob at-Tavhid», «Ta'vilot ahl as-sunna» asarlari bizgacha yetib kelgan.

asosini to'g'rilik, ezgulik va insoniylikdan iborat deb biladigan jamiki mo'min-musulmonlarning qarash va intilishlari bilan hamohang edi.

O'zining beqiyos salohiyati bilan buyuk ilmiy maktab yaratib, go'zal Farg'ona diyorini jahonga tarannum etgan islom huquqshunosligining yana bir ulkan namoyandasi **Burhoniddin Marg'inoniy**¹⁶⁰ning tabarruk nomini butun musulmon dunyosi yuz yillar davomida e'zozlab keladi. Bu mo'tabar allomaning Sharq olamida «Burhoniddin va milla», ya'ni «Din va millatning hujjati» degan yuksak unvonga sazovor bo'lgani ham buni yaqqol isbotlaydi. Marg'inoniyning o'lmas merosi, xususan, ellik yetti kitobdan iborat «Hidoya» – «To'g'ri yo'l» deb atalgan asari, mana, sakkiz asrdiki, musulmon mamlakatlarida eng nufuzli va mukammal huquqiy manba sifatida e'tirof etib kelinayotgani albatta bejiz emas.... Agarki mana shu muqaddas zaminimizda tavallud topib, voyaga yetgan, o'z hayoti va faoliyati bilan nafaqat tarixda, ayni vaqtda bashariyatning bugungi taraqqiyot sahifalarida ham o'chmas iz qoldirgan buyuk mutafakkir va allomalarimiz, aziz-avliyolarimizni ta'riflashda davom etadigan bo'lsak, o'ylaymanki, bu borada uzoq gapirish mumkin.

Islom Karimov. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. T.: Ma'naviyat, 2008.

**BUXORODA BO'LGAN «BAYT UT-TIROZ»
«TO'QIMACHILIK KORXONASI»NING BAYONI.
U HANUZ O'Z JOYIDA TURIBDI**

Buxoroda – hisor bilan shahriston o'rtasida, masjidi jome yaqinida bir korxonona bor edi; unda paloslar, darpardalar, yazdiy

¹⁶⁰ Burhoniddin Marg'inoniy – 1123-1197 yillarda yashab ijod qilgan, Farg'onada tug'ilgan fiqhshunos olim. Fiqh ilmiga bag'ishlangan 4 jildlik «Hidoya» asari uning eng mashhur asaridir.

kiyimliklar, yostiqlik jildlari, funduqiy joynamozlar va ust kiyimlarni xalifa uchun to'qir edilar; bitta darpardaga (butun) Buxoro xiroji sarf bo'lardi. Bag'doddan har yili alohida bir omil kelib, Buxoro xirojining evaziga shu kiyimliklardan olib ketar edi. Bir vaqt kelib bu korxonalar bekor qoldi va bu hunar bilan shug'ullanuvchi kishilar tarqalib ketdilar.

Buxoro shahrida shunday ishga tayin qilingan ustalar bo'lar edilar: viloyatlardan savdogarlar kelib, odamlar zandaniychin olib ketganlaridek, u kiyimliklardan Shom va Misr, Rum shaharlariga olib ketar edilar. Xurosonning hech bir shaharida bunday (matoni) to'qiy olmas edilar. Shunisi qiziqki, bu hunar egalaridan ba'zilar Xurosonga bordilar va bu ish uchun kerakli asboblarni shaylab shu kiyimlikdan to'qidilar, lekin Buxorodagidek sifatli bo'lib chiqmadi. Bu kiyimlikka ega bo'lmagan birorta ham podshoh, amir, rais yoki boshqa mansab egasi yo'q edi. Uning qizil, oq va yashil ranglisi bo'lar edi. Bugun hamma viloyatlarda u kiyimlardan ko'ra zandaniychi mashhurroq.

Abu Bakr Muhammad ibn Ja'far an-Narshaxiy. Buxoro tarixi. Rasulov A. tarjimai T.: Kamalak, 1991.

ARISTOTEL¹⁶¹NING «OSMON HAQIDA»GI KITOBIGA DOIR BERUNIYNING SAVOLLARIGA IBN SINONING JAVOBI

Ibn Sino aytdi: bu, Abu Rayhon Muhammad ibn Ahmad Beruniyning Xorazmdan menga yuborgan masalalarining javobi haqida yozgan risolamdir. Xudo seni maqsadingga yetishishing bilan shod etsin. Hamma orzu qilganlaringni ravo qilsin, ikki dunyo saodatini senga nasib qilsin, kecha va kunduzda hamma

¹⁶¹ Aristotel – (mil. av. 384/383-322/321), Yunonistonning buyuk faylasufi, «Birinchi muallim» nomi bilan shuhrat qozongan.

yomon koʻrgan narsangni sendan qaytarsin, hamisha seni salomat qilsin. Bir necha masalalar soʻrabsan, bu masalalardan baʼzisi Aristotelga qarshi qaratilgandir. U kishi «Osmon va olam» nomli asarida oʻsha masalalar haqida soʻzlagan edi. Bulardan baʼzisi oʻzingga qiyinlik qilgan masalalardir. Endi savollaringga javob beraman, masalalarni qisqa bayon qilishga yoʻl tutaman. Chunki koʻndalang kelib qolgan baʼzi mashgʻulotlar har bir masalaning javobida keragicha soʻzni kengaytirishga imkoniyat bermadi. Agar men Faqih Maʼsumiy senga yoziladigan narsa haqida huzuringda soʻzlar deb koʻz tutmaganimda risolani yuborish shul vaqtga qadar kechikmagan boʻlar edi. Marhamat qilib har bir soʻrganlaringni shu risolada yozaman, soʻngra har biriga qisqacha javob beraman.

Beruniyning birinchi savoli

Nima uchun Aristotel falakning markazdan yoki markazga harakati yoʻqligini sabab qilib, uning yengilligi va ogʻirligi yoʻq ekanini lozim topdi, deb soʻrabsan. Biz, albatta, ijobiy boʻlmasa ham tahmin qilamizki, falak jismlarning eng ogʻirlaridan biridir. Bunday oʻylash falakning markaz tomonga harakat qilishini isbot qilmaydi. Falak boʻlaklari bir-biriga oʻxshashdir. Agar falak boʻlaklaridan har biri markazga tomon tabiiy harakat qilsa, soʻngra bu boʻlaklar bir-biri bilan tutashsa, bu hol falakning markaz tevaragida turishidan boshqa bir narsani lozim koʻrmaydi. Shu bilan birga, falak jismlarning eng yengili deb ham oʻylay olamiz. Bu oʻylash falakning markazdan harakatini ijob qilmaydi. Lekin falakni markaz bilan birlashishidan yoki ajralishidan uning tashqarisida hosil boʻlgan boʻshliq uni harakatga keltiradi. Agar Aristotelning fikricha, falak tashqarisida boʻshliqning yoʻqligi aniq va toʻgʻri boʻlsa va biz falakni olov kabi latif gavhar deb taxmin qilsak ham, u goʻyo chegaralangan toʻda bir narsadir. Ammo falakning aylanma harakati tabiiy harakat boʻlmasligi mumkin. Falakning bu aylanma harakati

sayyoralarning sharq tomonga bo'lgan tabiiy harakatlariga va g'arb tomonga bo'ladigan kecha-kunduzlik araziy harakatlariga o'xshaydi. Agar falakning aylanma harakati araziy emas, chunki aylanma harakatlarida bir-birlariga zidliklari va u harakatlarning yo'nalishlarida kelishmaslik yo'q deyilsa, shul so'zga lozim keladigan narsalar orasida bo'yamachilik va safsata zohir bo'ladi. Chunki bir narsaning o'zida biri sharq tomonga, yana biri g'arb tomonga bo'lgan ikki tabiiy harakatni o'ylash mumkin emas. Bu esa ma'nida mos bo'lib, lafzda ayirmalik bo'ladi. Chunki g'arbgga tomon harakatni sharqqa tomon harakatning ziddi, deb aytilmaydi. Bu taslim va e'tirof qilingan bo'lib, lafzlarda tala-shilganda ma'nilarga qaraymiz.

(Ibn Sinoning) javobi

Falakning yengil ham, og'ir ham emasligini o'z so'zlarida isbot qilib, men uchun yetarli mashaqqat chekibsən: o'z so'zlarida falakning na yuqorisiga va na quyisiga tomon harakat qilishi uchun o'rin yo'qligini iqror qilibsən. Bunga falak bo'laklarining bir-birlari bilan almashganligini dalil qilibsən. Men ham falakning pastga tomon harakat qilishi mumkin emas, pastda falakni ko'chib borishi uchun tabiiy bir o'rin yo'q deyman. Agar bir og'izdan falakning shunday harakatining borligini qiyomatga qadar faraz qilinsa ham, men yo'q deyman. Chunki falak pastga tomon harakat qiladi deyish olamdagi hamma unsurlar o'z tabiiy o'rinlaridan ko'chib yuradilar deyishni isbot qiladi. Bunday ko'chib yurish tabiat olamida ham mumkin deyish yanglishdir. Bu esa falakning ko'chishi uchun bo'shliq bor ekanligini isbot qiladi. Holbuki, tabiat olamida bo'shliq yo'qdir. Shunday bo'lgach, pastga falak ko'chib borishi uchun tabiiy bir o'rin yo'qdir va yana, yuqorida ham xoh haqiqiy, xoh xayoliy bo'lsin harakatga o'rin yo'qdir. Chunki bu harakat ham biz aytgandek, ilojsiz yomonliklarga, ya'ni hamma unsurlarning o'z tabiiy o'rinlaridan ko'chmaklariga yoki bo'shliqning borligiga olib boradi. Holbuki, na fe'l bilan, na vahm va imkon bilan isbot

qilinishi mumkin bo'lmagan narsadan ko'ra buzuqroq bir narsa yo'qdir. Shunday bo'lgach na quyiga, na yuqoriga borish uchun joyining yo'qligi menga taslim qilinadi. Har bir tabiiy jismning tabiiy o'rnini bordir. Shul muqaddima (so'z boshi)ga «falak jismdir» deb kichik muqaddimani qo'shsak (mantiqiy istilohlar bilan), birinchi shaklning birinchi navida «falakning tabiiy o'rnini bor» degan natija chiqadi. Bu natijani ba'zi qiyosga ko'chirib, «falakning tabiiy o'rnini yo yuqorida, yo pastda va yoki u o'zining turgan yerida» deb, uning yuqori va quyida bo'lmasligini oradan chiqarsak, «falakning tabiiy o'rnini turgan yeridir», degan natija chiqadi. O'zining tabiiy o'rnida bo'lgan har bir narsa haqiqatda yengil ham, og'ir ham emas. Falak o'zining tabiiy o'rnidadir; natija: falak aslida yengil ham, og'ir ham emas. O'z tabiiy o'rnida bo'lgan har bir narsani yengil ham, og'ir ham emas deyishga dalil shulkim, yengil narsa yuqoriga harakat qiladi, uning tabiiy o'rnini yuqorilik bo'ladi. Tabiiy o'rnida bo'lgan narsaning yengil bo'lishi mumkin emas. Chunki mumkin deyilganda yuqoridagi «yengil narsa yuqoriga harakat qiladi», degan muqaddima bilan bir narsaning tabiiy o'rnida bo'ladi, ham tabiiy o'rnida bo'lmaydi demakdir, bu esa qarama-qarshilikdir.

Og'ir narsada ham shunday hukmdir. Chunki og'ir narsa tabiat bo'yicha quyiga harakat qiladi. Uning tabiiy o'rnini pastlikdir. Tabiiy o'rnining pastlik ekaniga sabab shulki, tabiati bilan harakat qiluvchi har bir narsaning harakati tabiiy o'rniga tomon bo'ladi. Ilgarigi singari bayon qilamizkim, tabiiy o'rinda bo'lgan narsa haqiqatda og'ir emasdir. Endi ikki muqaddimaning natijalarini qo'shsak, «tabiiy o'rnida bo'lgan narsa aslida og'ir ham emas, yengil ham emas», degan masala isbotlanadi.

«Falak o'zining tabiiy o'rnidadir» degan ikkinchi kichik muqaddimaning to'g'riligi isbotlandi. So'zning tuzilishi shu natijaga keltiradikim, bu to'g'riroqdir. Ya'ni falak aslida yengil ham, og'ir ham emasdir. Hamda bilquvva va bilimkon falak og'ir va yengil emasdir. Shuning uchunki, bor quvvatga asosan

yengillik va og'irlik yoki butunida bo'ladi. Masalan, unsur-
larning tabiiy o'rinlarida bo'lgan bo'laklariki, amalda ular na
yengil va na og'ir bo'lmasalar ham ularda yengillik, og'irlik
bilquvva va bilimkon bordir. Chunki ularning majburiy harakat
bilan tabiiy o'rinlaridan ko'chishlari va tabiiy harakat bilan yo
yuqorilab, yo quyilab o'z o'rinlariga qaytishlari mumkin. Yoki
bilquvva yengillik, og'irlik bo'laklarda bo'lib, butunda bo'l-
maydi. Masalan, unsurlar qulliyalari, bular yengil ham emaslar,
og'ir ham emas. Chunki ularning yarimlari yuqorilab harakat
qilsalar, yarimlarini quyiga tomon harakat qilishlari zaruriy
bo'ladi. Bu hol shakllarining yumaloqligiga va boshqa ko'p
sabablarga asoslangandir. Balki yengillik va og'irlik unsurlar-
ning bo'laklaridadir. Endi, agar falak bilquvva og'ir va yengil
bo'ladigan bo'lsa, bu sifat butun falakda bo'ladi. Holbuki, biz
butun falakda yuqoriga va quyiga harakati bo'lmasligini isbot
qildik, bu masalada o'zingning ba'zi fikrlaringga suyandik.
Masala bizning foydamizga hal bo'lib, falak butun yengil ham,
og'ir ham emas, degan fikr isbotlandi.

Falak bo'laklari bilan ham ma'lum miqdorda bilquvva og'ir
ham emas, yengil ham emas. Chunki yengil va og'ir bo'laklar
yengilliklari, og'irliklari orasida tabiiy o'rinlariga tomon tabiiy
harakat qiladi. Tabiiy o'rinlariga harakat qiluvchi bo'laklar yo
majburiyat bilan tabiiy o'rinlarida qo'zg'alib, tabiiy harakat
bilan yana o'z tabiiy o'rinlariga qaytadilar. Yoki yangidan paydo
bo'lib, tabiiy o'rinlariga tomon harakat qiladilar. Masalan,
yog'dan paydo bo'lgan olov yuqoriga qarab harakat qiladi. Falak
bo'lagining majburiy suratda tabiiy o'rindan qo'zg'alishi
mumkin emas. Chunki bu bo'lakning harakati uchun, bu bo'lak
zotidan bo'lmagan tashqi bir harakatga keluvchi kuch
lozimdirkim, bu esa yo jism bo'ladi, yo jism bo'lmaydi. Harakat
qildiruvchi narsalar jism emasdir; chunonchi, hokimlarning
tabiat, faol aql birinchi sabab deb atagan narsalarkim, ular
majburan qilolmaydilar. Tabiatda majburiy harakat yo'qligi

ma'lumdir. Ammo aqlda, birinchi sababda majburiy harakat mumkin emasligi ilmi ilohiga topshirilgandir. Ammo jismga tegishli illat bo'lsa va uni harakatga solish mumkin bo'lsa, usti-qussod [tuproq, havo, suv, olov] ning biri yoki ularning qo'shilmalari bo'lishi lozim bo'ladi, Chunki bu beshtadan, ya'ni alohida olganda to'rtta, qo'shib olganda to'rt jismdan murakkab beshinchi jisman boshqa jism yo'qdir. Har bir harakat qildiruvchi yoki ta'sir etuvchi jism, albatta, harakat qiluvchi va ta'sirlanuvchiga bevosita tegadi va undan ta'sirlanadi. Buning bayoni «Kitob ul-kavn va-l-fasod»ning birinchi maqolasida bordir. Endi biron jism falakdagi biron bo'lakni harakat qildirishi mumkin emas; faqat o'shal jism yo majburiy harakati, yo tabiiy harakati bilan falak bo'lagiga tutashgandagina falak bo'lagini harakatga solishi mumkin. Majburiy harakat falak qismiga yopishgan tashqi bir harakatlantiruvchining ishi bo'lib, falakning ma'lum tarafga tomon tabiiy harakat qiluvchi bo'lagiga borib cheklanadi. Bu harakatlantiruvchi boshqa harakatlantiruvchilarning birinchi harakat ettiruvchisidir. Bu harakatlantiruvchi tabiiy bo'lsa, u oddiy olovdir, yoki tarkibida olov bo'lagi g'olib bo'lgan murakkab bir narsa bo'ladi. Ammo basit olov falakka ta'sir qila olmaydi. Chunki jismlarning jismlarga ta'siri bir-biriga tegishli bo'lib, basit olov har bir tarafdan falakka tegib turganidan ta'sirlanadi, falakning hech bir bo'lagi bir-biridan farq qilmaydi. E, Tangri, magaramki, bu bo'laklarning ba'zisi kuchsiz bo'lib, kuchsizlari ta'sirlanishda kuchliroq bo'lganda, ta'sirlanish farqli bo'ladi. Javharning kuchsizligi zoti jihatidan bo'lmasdan, balki bir ta'sir etuvchining sababidandir. Bu chog'da masala avvalgi holiga falakning biron bo'lagini biron jism harakat qildira olmasligiga qaytadi. Ammo, olov g'olib bo'lgan murakkab jism bo'lsa, olov kurrasi o'rniga yetishga qadar turmaydi. Chunki u murakkab bo'lib, xolis olovga aylanib ketadi. Meteorlarda ko'rganimiz kabi yonib-kuyib bitadi. Agar u murakkab narsa xolis olovga aylanishda sustlik qilsa, falakka

tegisha olmaydi, Chunki bunday murakkabda jinsiy va boshqa og'ir bo'laklar bordir. Falak jirmiga [massasiga] xolis olovdan boshqasining tab'an tegib turishi mumkin emas. Ammo uch unsur (tuproq, suv, havo) o'rniga yaqinlashish xolis olovga ham, xolis olov bo'lmaganga ham mumkindir. Tarkibi xolis olov bo'lmagan narsaning uch unsur o'rniga yaqinlashishi mumkin bo'ladi. Lekin tab'an falakka tegishi mumkin bo'lmaydi. Ammo boshqa ustiqus [tuproq, suv, havo, shamol] larning hammasi falakka tegishi mumkin emas. Chunki ular hammalari tabiiy o'rinlaridan ko'chmaydilar. U uch unurning birikmalari va shuningdek, bo'laklariga kelganimizda bularning ham falakka ta'sir qilishlari mumkin emas. Chunki ularning olov oldida kuyishlari va xolis olovga aylanishlari sababli falakka tegishlari mumkin emas. Olov falakka ta'sir etmas. Buni yuqorida isbot qildik. Olov o'zida hosil bo'lgan har bir narsani o'zgartiradi, parchalaydi, Chunki olov, haqiqatda, issiqdir. Haqiqatda issiq bo'lganini o'z jinsi bilan aralashuvchi ham jins bo'lmagan narsadan ajraluvchi jinslari turlicha bo'lgan narsalar bilan jinslari bir xil bo'lgan narsalar orasini ajratuvchi deb ta'rif qilinadi. Olov o'zidan ta'sirlanuvchi bir jismga ta'sir etib, agar u jism turli bo'laklardan murakkab bo'lsa, ularni bir-biridan ajratib, o'zining olovlik tabiatiga ko'chiradi. O'shal jismning javhariga olov aralashganidan u jismga muxolif bo'lmaydi. Ammo sovuq narsa, issiq narsadek emasdir. Shak yo'qki, ta'sir qiluvchi narsalarning oralarida ish ko'rsatish va ta'sir qilish jihatidan, issiq hamma narsadan ko'ra qattiqroq va kuchliroqdir. O'z tabiiy o'rnida bo'lgan narsaning jinsi kuchli bo'lib, kulliyi juz'iysidan kuchliroq bo'ladi. Endi o'zing qanday gumon qilasanki, kulliy o'rnida bo'lgan issiq narsa oldiga kelgan bir juz'iyni ta'sirlantirmay, o'ziga tortib o'zgartirmay yoki agar o'shal juz'iy murakkab bo'lsa, bo'laklarini bir-biridan ajratmay qo'yib yuborsin. Shul muqaddimalardan ustuslar-unsurlarning na soddasining va na murakkabining falakka yetisholmas-

ligi ravshan bo'ldi. Falakka etisholmagach, unga tegolmaydi, tegmagach unga ta'sir etolmaydi. Demak, basit [sodda] va murakkablarning birontasi falak bo'laklariga ta'sir etolmaydi. Falak bo'laklarida o'zlaridan boshqa jismlarning kullinlarida sodda ham murakkab juz'iyarning ta'sir qilishlari mumkin bo'lmagach, bo'laklarning ta'sirlanishlari va majburan o'zlaricha harakat qilishlari ham mumkin emas. Muqaddam [shart] ijobi [bo'lishligi] bilan istisno, ya'ni falak juz'iyalariga o'zlaridan boshqalarning ta'sir qilishi mumkin emas, degan so'zimiz haqdir. Bundan natija, ya'ni uning «ta'sir qabul qilishi va majburiy harakat qilishi mumkin bo'lmaydi» degan so'zimiz to'g'ri va haqdir. Falak na butun hoida, na bo'laklar hoida bilquvva [quvvat]da yengil ham emas, og'ir ham emas. Amalda ham shunday emasligini isbot qilgan edik. Demak, falak mutaqo yengil ham, og'ir ham emasdir. Bizning bayon qilmoqchi bo'ganimiz shudir.

Falakni bir vajhdan yengil deb atash sen uchun durustdir. U vajh shulki, odamlar bir jismning ustiga ko'tarilib chikqan jismlar tagida qolgan jismdan yengilroq deb ataydilar. Ana shu sababdan falak hamma narsaning eng yengili deyish mumkin bo'ladi. Ammo falakning aylanma harakati uning tabiiy harakati bo'lmasligi mumkin degan hamda agar aylanma harakati araziy emas deb fasl oxiriga qadar cho'zilgan degan so'zing durust emas. Chunki adashtirib falakning tabiiy aylanma harakati bor deyuvchilarning birontasi ham buni isbot qilmagan. Sening keltirgan e'tirozing o'zingning zararinggadir, balki boshqa sabablardan ham, agar so'z uzaytirishning va nima uchun bu so'zni yolg'iz bir masala qilding, deb so'ralishning yoqimsizligi bo'lmasa edi, aylanma harakatini bayon qilar edim.

Ammo falak va sayyoralar harakati zid harakatlardir, deb isbot qilishing noto'g'ri.

Ularning harakatlari turlicha, xalos. Chunki zid harakatlar, deb yo'nalishlari va borish joylari qarama-qarshi bo'lgan

harakatlarga aytiladi. Agar baland-pastlikning ziddi bo'lmasa edi, markazdan chetga yo'nalgan harakatning ziddi deb ismlamas edik. Bu faslning bayoni «Kitob as-samo at-tabiiy»ning beshinchi maqolasidadir. Ammo ikki xil aylanma harakatlarning yo'nalishlari va nihoyatlari bizning arz qilishimizga vaz'iydir – tabiiy emasdir. Chunki falakning aylanma harakatiga tab'an chek yo'q. Sababi u harakatlarning bir-biriga zid emasligidir. Bas, bir-biriga muxolif ikki aylanma harakat bir-biriga zid emasdir. Bizning bayon qilmoqchi bo'lganimiz shudir.

(Beruniyning) ikkinchi savoli

Nima uchun Aristotel o'z kitobining ikki joyida ilgari o'tgan odamlarning falak bor deb aytishlari haqidagi so'zlarini falakning doimo turg'un ekaniga kuchli hujjat va dalil qildi? Buzuq va nohaq so'zida doimo turmaydigan va mutaassib bo'lmagan odam unga ishonadi. Chunki ularning so'zlari ma'lum emas va falakning boshi ham noma'lum. Faqat ahli Kitob [Yahud va nasoro]lar aytganidan ham ancha kamroq ekanligi ma'lum. Chunki hindlar va shularga o'xshash xalqlardan hikoya qilingan so'zlar yerning obod joylarida tabiiy hodisalarning ketma-ket paydo bo'lishini ko'rsatadi. Bularni o'rganish falak o'zgarmaydi degan fikrning noto'g'riligini ko'rsatadi. Tog'larning hollarida o'zgarishlar zohir bo'lib turgani uchun falak o'zgarmaydi deb hukm chiqarishda eng qadimgi xalqlarning so'zini hujjat qilish ham xatodir.

(Ibn Sinoning) javobi

Bilmoq kerakki, Aristotel bu so'zni qat'iy dalil bilan aytgan emas, so'z orasida keltirgan. Buning ustiga, tog'ning holi osmon ahvoliga o'xshash emasdir. Chunki odamlar tog'larni butun borliqlari bilan saqlangan ko'rsalar ham, tog'lar bo'lagida parchalanish, ba'zisining ba'zisiga qo'shilishi, ba'zida tog'lik shaklining buzilishiga o'xshash turli hollar paydo bo'ladi. Hamda tog' ahvoli falakdek yuqori emasdir. Bu so'z Aflotunning siyosat va boshqa narsalar haqida yozgan kitoblarida zikr qilgan

soʻzlaridandir. E soil, sen goʻyo bu soʻz haqida Aristotelga oʻzini qarshi koʻrsatib, xristianlarga firib bergan Yahyo an-Nahviy boʻyamachidan olganga oʻxshaysan. Holbuki, Yahyo an-Nahviyning «Ajzaul-kavn va-l-fasod» va boshqa kitoblarga qilgan tafsi-riga qaraganda, bu masalada Aristotelga muvofiqligi maʼlum boʻladi. Yoki e soil, bu soʻzni ilohiyotda qattiq shugʻullanib va tabiblik davosi bilan siydiklar, axlatlar, jarohatlar tekshirishda nazariyasi meʼyoridan oʻtib, oʻzini rasvo qilib va maqsadini ijod etishda bilimsizligini koʻrsatib, behuda qiynalgan Muhammad ibn Zakariyo ar-Roziydan oldingmi? Bilmak kerakki, Aristotelning olamning boshi [ibtidosi] yoʻq, deganining maʼnosi olamning yaratuvchisi yoʻq, degani emas, balki maqsadi olamning yaratuvchisi ishlashdan boʻsh emas, deganidir. Bu maqom olam boshiga [ibtidosiga] oid masalalar bayoni emasdir. Ammo soilning «Botilga chidamaydigan va taassub qilmaydigan odam», degan soʻzi gʻalatga solish, dagʻallikdir. Bu boʻlsa muhokama va munozara bobida qabih va yomondir. Chunki bu falak masalasida, agar soil Aristotel soʻzining maʼnosiga tushungan boʻlsa, ayni maqsaddir. Agar tushunmagan boʻlsa, bas taxmin bilan soʻzlash va tushunmasdan soʻz egasini nopisand qilish aybdir. Agar tushungan boʻlsa edi, tushunish uni bu xil jafolik soʻzlardan qaytarar edi. Bas, aql yoʻl bermaydigan soʻzlar bilan kinoya qilish noloyiqdir.

(Beruniyning) uchinchi savoli

Nima uchun Aristotel va boshqa faylasuflar tomonlar soni 6 ta deb zikr qilganlar? Biz bu tomonlarni tayinlashda kub shaklini olaylik. Chunki kubning 6 tomoni bor. Kubning har yogʻiga oʻzidek 6 ta kub qoʻyilsa, u kubning hosil boʻlgan shaklini yana kubga aylantirish uchun kamchilik joylari toʻlatilsa, hammasi boʻlib 27 kub mavjud boʻladi. Boshqa yangi jihatlar avvalgi kubning qirra va burchaklariga tegadi. Jihatlar shu adadga etmagan taqdirda, kublar avvalgi kubga qaysi tomondan tegadi? Shar singari jismlarning tomonlari boʻlmaydi.

(Ibn Sinoning) javobi

Jismning sathlariga barobar bo'lgan jihatlar [tomonlar] jismning haqiqiy jihatlar emasdir. Balki bu jihatlar jismning arziy kenglik tomonining jihatlaridir. Chunki falsafa tayin qilgan olti jihat jismning uzunligi, qalinligi va enini chegaralovchilardir. Har bir jism chegarali bo'lgach, ravshandirki, u jismning bo'yi, eni va qalinligi chegaralidir. Bundan ma'lumki, har bir uzunlik, enilik va qalinlikning ikki uchi bo'lib, bu uchlar sanog'i 6 va bularga 6 jihat-muvofiqdir. Har bir jismning cheklanishi «Kitob as-samo at-tabiiy»ning uchinchi maqolasida bayon qilingandir. Markaz bilan cheklangan uzunlikning olam tomonida bo'lgan cheki (uchi) quyi (tegi) bo'lib, buning teskari tomoni esa ustidir. Qolgan to'rt jihat «o'ng», «so'l», «old» va «orqa», deb ataladi. Hamma jismda bu ismlar bo'lavermaydi. Balki bu jihat jonli jism jihatlaridir. Jonli jismning harakat chiqadigan va zohir bo'ladigan yog'i o'ng, uning qarshisi so'l, deb ataladi. Jonli jismning ko'rar tomoni uning oldi, qarshisi orqa, deb ataladi. Bas, har bir jismda bu 6 jihat zaruriydir. Ammo sening sharda bu 6 jihat yo'q, deyishing durust emasdir. Chunki sharning uzunligi, kengligi, qalinligi bo'ladi. Shar bu uzunlik, qalinlik bilan chegaralanadi. Bulardan har birining ikki cheki bo'lib, bas, hamma cheklar 6 ta va bularga ro'baro' bo'lgan jihatlar ham 6 ta bo'ladi. Mantiq qoidasi bo'yicha, muqaddam va toliy, ya'ni yuqoridagi ikki muqaddimaning ulardan biriga ko'ra jism va ikkinchisi har jismda uzunlik, kenglik va qalinlik bor. Bularning har birida chek bor. Hammasi oltita bo'ladi. Mazmuni haq bo'lgach, bas, sharning 6 jihati bor, demak, natijasi haqdir. Jismning jihati, haqiqiy taraflari, jismning sathiga ro'baro' bo'lgan, deb aytmak qanday mumkin bo'ladi. (Holbuki, savol qiluvchi so'zning boshidan jihatlarining 6 tasi jismning sathiga ro'baro' bo'ladi degan edi). Ma'lumdirki, kurraning atrofida juda ko'p yo'nalishlar bordir. Shimol qutbning jihati sharq, g'arb va janub qutbi jihatlar emasdir. Aksi ham shunga o'xshash bo'ladi.

Agar sharni o'rab olgan sath bitta bo'lsa ham, sharda zotiy biror jihat bo'lmaydi. Buni yuqorida bayon qilganmiz. [Agar shar jism bo'lsa, uning uzunligi, kengligi, chuqurligi bo'ladi deb to oxirigacha dalil va araziy bir jihat ham bo'lmaydi. Buni ham yuqorida, ya'ni har bir jismda 6 jihatning bo'lishi zarur deb isbot etganmiz]. Ammo jismlar ko'p burchakli shaklda bo'lgan bo'lsa, bu holda bu jismning har bir sathiga muvofiq, jihatini hosil qilish mumkindir. Chunki u jismlarning sathlari zotiy bo'lmasa ham, araz va vaz'iy [e'tibor] bilan bo'lishi to'g'ri edi. Endi jismga zotida lozim bo'ladigan jihatlar jismlarning uch o'lchoviga [uzunlik, kenglik, qalinligi] ro'baro' bo'ladigan narsalardir. Faylasuflarning tayin qilgan jihatlar shulardir.

(Beruniyning) to'rtinchi savoli

Nima uchunn Aristotel bo'linmas bo'lakchalar bor deyuvchilarning so'ziga qo'shilmadi? Holbuki, jism cheksiz bo'lishini qabul qiladi, deganlar so'ziga lozim keladigan narsa undan yomonroq edi. Bu shulki, bir tomonga harakat qilayotgan ikkita harakat qiluvchilardan biri ilgari ketgan bo'lsa ham, bir-biriga yeta olmasligi kerak. Bunga Quyosh bilan Oyni misol qilaylik. Bu shundayki, Quyosh bilan Oyni o'rtasida faraziy masofa bo'lib, Oy bilan Quyosh birmuncha miqdor sayr qilsalar, Oy sayr qilgan chog'da Quyosh ham o'shal zamonda-kichikroq, miqdor sayr qiladi. Shu xil nihoyatsiz sayr qilib bir-biriga yeta olmasligi kerak bo'ladi. Holbuki, biz Oyni Quyoshdan o'tib ketganini ko'ramiz. Bo'linmas bo'lak bor deyuvchi odamlarga bundan boshqa ko'p e'tirozlar lozim bo'ladi. Bu e'tirozlar geometriya olimlari oldida ma'lumdir. Lekin bo'lak cheksiz taqsimni qabul qiladi, qilgan e'tirozim bularning muxoliflarida undan ham ko'ra qabihroqdir. Aqlga to'g'ri kelmas guruhning e'tirozlaridan qanday qutulish mumkin.

(Ibn Sinoning) javobi

Bir-biriga birikkan bir narsa jismni sathmi, uzunlikmi, harakatmi, zamonmi, uning bo'linmas bo'lakdan murakkab bo'lishi

mumkin bo'lmaydi. Bo'linmaydigan bo'lak ikki tarafi bo'lmagan bir narsadir. Buni Aristotel «Sam al-Kiyon» kitobining 6-maqolasida kuchli, shubhasiz dalillar bilan bayon qilgandir. U o'z-o'ziga e'tiroz qilib, o'zi javob bergandir. Lekin bilmak kerakki, Aristotelning bo'lak cheksiz narsaga bo'linadi degan so'zning ma'nosi haqiqatda abadiy bo'linadi, degani emas. Balki, maqsadi shulki, har bir modda bo'lagining zotan o'rtasi-ikki tarafi bor. Bas, ba'zi bo'laklar shu taraflar o'rtasidan bo'linishi mumkin. Ikki bo'lak orasida bo'lsa shu xil bo'laklar amalda ikkiga bo'linadi va ba'zi bo'laklar zotan vosita va o'rtaga ega bo'lib taqsimlanishni qabul qilsa ham, lekin g'oyat kichikligidan amalda bo'linmaydi. Ana shunday bo'laklar bo'linish imkoniyatiga ega. Endi sening shu e'tirozingni har bir moddaning amalda abadiy bo'linishi mumkin degan kishiga etishi zarur va aniqdir. Ammo kimki moddaning ba'zi bo'laklari amaliy va ba'zi bo'laklari amaliy emas, balki bilquvva bo'linadi desa, biz yuqorida aytgandek bo'lishiga sening e'tirozing lozim bo'lmaydi. Chunki amaliy bo'linmay, bilquvva ajraladigan chekli bo'laklarning taqsimiga ko'pincha harakat voqe bo'ldi. Bas, bu tahqiq o'sha ikki so'zga lozim kelgan ikki yomonlikning o'rtasida yurishga olib boradigan bir yo'ldir. Ammo Aristotelning bu masalaga bergan javobi sharhlovchilarning bu javobiga qilgan sharhlarini chalg'itish va safsataligi ravshandir. Agar ortiqcha va cho'ziq so'z so'zlashdan cheklanmasam edi, buni zikr qilar edim. Lekin maqsadning bayonidan keyin uzun so'zlash mujmal va noma'quldir.

(Beruniyning) beshinchi savoli

Nima uchun Aristotel «Bu biz turgan olamdan tashqarida yana bir olam bor, bu olamiing o'ziga xos tabiati bor bo'lishi mumkin» degan fikrni to'g'ri demaydi? Bu fikrni deyuvchi kishining dalili shuki, biz bu tabiat olamidagi to'rt unurni bilmasdan burun tabiat sirini tushunmasdan turib ayto olmaymiz. Zotan, tug'ma ko'r kishi ko'zning zikrini odamlardan eshitmasa,

o'zi ko'z haqida tasavvur qilolmaydi. Ranglarni ko'rmak uchun vosita bo'lgan beshinchi his etuvchini o'ylashi mumkin bo'lmaydi. Yoki u boshqa olam shul bizga ma'lum tabiatlarga o'xshash bir tabiatda bo'lib, lekin uning harakat tomonlari harakat tomonlaridan boshqa bo'lsa va har ikki olam bir-biridan barzax parda bilan pardalansa, masalan *a*, *b*, *j* nuqtalar¹ ma'lum. Yer ustida bir tepa bo'lib *a*, *j*, *b* dan ko'ra, Yer sathiga yaqinroq tursa, shu holda ma'lumdirki, «*b*» dan «*a*» va «*j*» ga suv oqadi. Holbuki, «*a*» dan «*j*» ga suvning oqishi ma'lum o'ringa tomon qarama-qarshi ikki harakatdir. (Shu narsa mumkin bo'lganda, boshqa bir olamning ham bo'lishi mumkin bo'ladi-ku!).

(Ibn Sinoning) javobi

Ammo bu masala Aristotelning «Osmon va olam» kitobida bu olamdan boshqa olamlarning borligiga inkor qilishi to'g'risidagi so'zning hikoyasi emas. Chunki Aristotel u kitobida «Olamlar biron sabab bilan bu olamga o'xshamaydi» deyvuchilar haqida so'zlamadi. Balki «Olamlarning navi va tabiat e'tibori bilan shul olamdagilarga muvofiq osmonlari, yerlari, to'rt xil unsurlari bor va lekin ko'rinish e'tibori bilan bu olamdan boshqadirlar», deyvuchilarni rad qiladi. Boshqa olamlar bor deyvuchilar da'volariga hujjat keltirib shunday deydi: ishorat qilmasdan va ma'lum unsur dan ekanini bayon qilmay «olam», «osmon» degan so'zimiz ishorat bilan «bu olam» degan so'zimizdan, yoki ma'lum unsur bo'lagidan ekanini bayon qilib «bu olam ma'lum unsurning shu bo'lagidandir» degan so'zimizdan ko'ra umumliroqdir. Shunday bo'lgach, ma'lum unsur dan bo'lib, ishoralanib turgan bu yolg'iz olamning ustida ko'p olamlarning bo'lishi mumkin bo'ladi, abadiy narsalarda mumkin narsa vojib va lozimdir. U olamlarning bu olamdan boshqacha bo'lishi zaruriydir. Shunday da'vo qiluvchilarning ba'zilar olamlarni chekli va ba'zilar cheksiz deydilar, hammalari shu so'zlari bilan «bo'shliq» borini isbot qiladilar.

Faylasuf «Osmon va olam» kitobida u kishilarning dalillarini bir qancha o'zining dalillari bilan buzib, shunday qildi: Ko'p olamning bo'lishi mumkin emas. Albatta, ular u olamning unsurlarini bu olamning unsurlariga muxolif deb ta'rif qilmaydilar. Balki o'z tabiati bilan bir-biriga muvofiq deyilar.

Aristotel aytdi: ular isbot etgan ko'p olamlar unsurlarining ba'zisi ba'zisiga tabiatda muxolif bo'lmasa, tabiatda birlashgan narsalar tabiat tomoniga bo'lgan harakatda ham birlashadilar. U ko'p olimlardagi unsurlar tabiiy o'rinlarda ham birlashgandirlar. Agar u unsurlar bir o'rinda bo'lmay, turli o'rinlarda bo'lsa, ya'ni bir olamda bo'lmay ko'p olamlarda bo'lsa, shu vaqt u unsurlar o'sha turli o'rinlarda zo'r bilan turgan bo'ladi. Zo'r bilan turgan narsa tabiiy turgan narsadan keyin bo'ladi, Endi ma'lumdirki, unsurlar to'planishgan, birlashgan edi. So'ngra ajralishdi. Ular unsurlarni doimo bir-biriga zid va doimo zid emas, deb hisobladilar, bu fikr mumkin bo'lmagan qarama-qarshilikdir. Zo'r bilan bo'lgan narsaning avvalgi holiga qaytmog'i zaruriydir. Endi o'shal tarqoq olamlar ikkinchi marta to'planadilar. Holbuki, ular hech to'planmaydilar, deb o'ylagan edilar. Bas, olamlar doimo to'planadi va doimo to'planmaydi degan natija kelib chiqadi, bu esa imkonsiz qarama-qarshilikdir. Zo'r bilan harakat qiluvchiga bir sabab bo'lishi kerak. Ammo bu jismlarning ba'zisi ba'zisini o'z tabiiy o'rinlaridan ajramakka zo'rlashlari durust emas. Tabiiy bo'lmagan o'rinlarda to'planishga majbur qilishlari ham durust emas. Chunki, biz yuqorida bayon qilganday, biri boshqasini harakatga majbur qiluvchi jismlar tabiiy harakat bilan harakat qildiruvchi bir jismga borib taqaladi. Agar olamlarning unsurlariga o'xshab bir jism tabiiy bo'lmagan o'ringa majburan harakat qilsa, uni harakat qildiruvchi boshqa bir jismning o'sha tabiiy bo'lmagan o'ringa tabiiy ravishda harakat qilishi zarur bo'ladi. Yuqoridagi fikrning aksini, ya'ni tabiiy o'ringa tabiati bilan majbur qilib harakat qiluvchi bir jism bu unsurlardan ham yo'q deyish istisno qilinadi. Chunki bu

unsurlarning birontasiga tabiiy o‘rinlaridan boshqa bir tabiiy o‘rin yo‘qligini bayon qildik. Endi agar bu unsurlarning mavjud tabiiy o‘rinlaridan boshqa bir tabiiy o‘ringa tab’an harakat qiladi, deb hisoblasa, qarama-qarshilik bo‘ladi. Bu unsurlardan boshqa bir jism ham yo‘q. Chunki bu jismlarda – unsurlarga muxolif bir jismning o‘zi yo‘qdir. Bu so‘zning to‘g‘riligini keyin aniqlaymiz. Endi mantiq qoidasicha muqaddamning aksi, ya’ni bu jismlarning biri boshqasini ma’lum tabiiy o‘rindan boshqa bir tabiiy o‘ringa majburan harakat qildirmaydi, degan natija chiqadi. Chunki bu jismlardan birontasi va bu jismlardan boshqa bir jism ham o‘sha jihatga tab’an harakat qiluvchi emas. Chunki jismlikda bu jismlardan boshqa bir jism yo‘qdir. Bas, endi majbur etuvchi jismiy sabab ham va jism bo‘lmagan sabab ham yo‘qdir. Chunki jism bo‘lmagan sabablar, chunonchi, faylasuflar ularni tabiat, aql birinchi sabab deb ismlagan edilarki, bular tartibni tartibsizlikka o‘tkazmaydilar. Balki bularning holiga tartibsizlikni tartibga solish yoki tartib bo‘lgan taqdirda o‘sha holida saqlash loyiqdir. Endi na jismiy va na zotan jism bo‘lmagan bir sabab majburiy ishni qilmaydi. Ammo araziy illatlar, masalan, zotiy va araziy illatlarning birlashib illat bo‘lishi, garchand majburiy harakatga sabab bo‘lsa ham zotda bo‘lgan sabablar jihatidandir. Bu masalani ravshan qilmoqni istagan kishi faylasufniig «Sam al-Kiyon» kitobining ikkinchi maqolasiga yoki «Mo ba‘dat tabiat» haqidagi metafizika kitobining birinchi maqolasida yozilgan bizning sharhimizga boqsin. Endi agar majburiy harakatning araziy illatlari bor desak, uning zotiy ham bo‘lishi lozim bo‘lib qoladi. Tolining, ya’ni majburiy harakatning araziy illatlari bor deyishning aksi istisno qilinsa, muttasilning qiyosiy shartiy hukmiga binoan shartning aksi natijalanadi, u esa majburiy harakatning araziy, ittifoqiy sabablari yo‘q, deyishdir. Shu holda majburiy harakat ittifoqiy sabab bilan bo‘lmaydi hamda majburiy harakat zotiy va araziy sababning o‘zidan ham bo‘lmaydi. Mana shuni ko‘pchilik

ittifoq deb nomlaydi. Yana [ikkinchi dalil bilan] majburiy harakat zotiy sabab va arazsiz ham bo'lmaydi. Biror narsaning shu holda bo'lishi maholdir. Aqllarning avvaligina shunday bo'la oladi. Agar bu so'zning xatoligi haqidagi bayonlarning zikri bilan kitoblar to'liq bo'lmaganda edi, rad qilishga kirishar edim. Endi majburiy harakatga zotiy sabab va araziy sabab bo'lmasa va sababsiz bo'lishi mahol bo'lsa, borligi mumkin bo'lmay, demak shul olamga muvofiq ko'p olamlarning bo'lishi mahol bo'ladi. Bizning ravshan qilmoqchi bo'lgan narsamiz shudir. Uni harakatlar va kayfiyatlarda bu jismlarga muxolif bir jism bo'lishligi mumkin bo'lmasligini ochib beradigan so'zning bir tomoniga kirishmoqchi bo'laman. Ammo harakatlar aqliy va zaruriy bo'linish bilan yo to'g'ri, yo aylanma harakat bo'ladi. Bo'shliqning yo'qligi aniq bo'lgach, bir jismning boshqa jismlarga tegib turib harakat qilishi zaruriydir. Endi to'g'ri harakat yo markaz tomondan, yo markaz tomonga bo'ladi, yoki markazdan o'tadi. Markazdai o'tish ikki tarafdin bo'ladi, yoki ikki tarafga birdan ro'baro' turib bo'ladi. Lekin tabiiy to'g'ri harakatga nisbatan emas, balki tab'an bir-biriga zid bo'lgan nihoyatlardan nihoyatlarga bo'ladi. Buning bayoni Aristotelning «As-Simo at-tabiiy» kitobining beshinchi maqolasida tafsir qiluvchilarning u maqolaga qilgan tafsirlarida va bizning ba'zi asarlarimizda isbotlangandir. Shundan aqli dalil bilan ma'lum bo'ladikim, hamma jismlardagi chekli tabiiy harakatlar yo markaz tomondan, yo markaz tomonga bo'ladi.

Ammo his etiladigan kayfiyatlarining 19 tadan ko'p bo'lishi mumkin emas. Faylasuf buni «Kitob ul-nafis»ning ikkinchi maqolasida bayon qildi. Samustiyus va Iskandarga o'xshash tafsirchilar sharh qilganlar. So'zni uzaytirish xavfi bo'lmasa edi, bu haqda so'zni kengaytirar edim. Lekin bu so'zni ba'zi bir tarafga kirishaman. Endi aytamanki, modomiki, tabiat tamom va kamol bilan eng nuqsonli avvalgi navining shartlarini-keraklilarini bermasa, uni ikkinchi navida va ikkinchi martaba kirita olmaydi.

Buning misoli eng past, eng nuqsonli birinchi navli jonsiz zotki, agar unga tabiat o'ziga maxsus kayfiyatlarining hammasini bermasa, u nuqsonli navini o'zidan ko'ra sharafliroq bo'lgan ikkinchi navga o'tkazmaydi. Ikkinchi navi o'simlikki, agar tabiat o'simlikka oziqlanish, o'sish, paydo bo'lish quvvatlari kabi hamma xossalarni bermasa, buni eng sharafli bo'lgan uchinchi navga, chunonchi hayvonlik martabasiga o'tkazmaydi.

Hayvonlik martabasi hisga xohish bilan bo'lgan harakatga bo'linadi. Agar tabiat pastroq bo'lgan bu navida, ya'ni hayvonlikka jami idrok qiluvchi his-quvvatlarni bermasa, hayvonlik navini ham nutq naviga [ya'ni insonlik naviga] o'tkazmasligi lozim bo'ladi. Lekin tabiat mavolidda, ya'ni jonsiz o'simlik hayvonlikda bir notiq javharni hosil qildi. Endi tabiatning o'shal notiq javhariga hamma his-quvvatlarning tamom berilishi zarurdir. Bunga nutq quvvatlarining ifodasi qo'shildi. Endi o'shal notiq navida seziladiganlarni idrok hamma quvvatlar hosil bo'ldi. O'shal notiq idrok qilgan narsadan boshqa seziladigan bir narsa yo'q, 16 ta seziladigan zotiy kayfiyatdan va 3 ta seziladigan araziy kayfiyatdan boshqa kayfiyatlar yo'q. Bu uch kayfiyat esa harakat, sukun va shakldir. Shul 19 kayfiyatdan boshqa bir kayfiyat bilan kayfiyatlanadigan bir jism yo'q, endi seziladigan kayfiyatlar bilan bu olamga muxolif bir olam yo'qdir. Agar olamlar ko'p bo'lsalar bir tabi' birlashgan bo'lib, kayfiyatda ko'p, ya'ni turlicha bo'ladilar. Demak, olam birdir. Bizning bayon qilmoqchi bo'lganimiz shudir. Buni bilgilkim, agar shu masalada yuqoridagi ko'p olamlar bor degan yo'lga yurilsa, bu yo'l zaruriy nihoyatsizlikka olib boradi. Biror narsani bilishga ham imkoniyat bermaydi va sufastoiya xayol qilgan narsalarni isbot qiladi. Bu sufastoiylarning iloji ma'lum da'volar bilan emas, balki boshqa da'volar bilandir.

(Beruniyning) oltinchi savoli

Aristotel ikkinchi maqolada tuxum va yasmuq singari shakllar aylanma harakatda ochiqlikka va bo'sh o'ringa muhtoj,

shart-shakllari esa unga muhtoj emasdir, deb zikr qildi. Holbuki, haqiqatda uning aytganidek emas, chunki tuxum shakli eng uzun o'qida aylanishidan, yasmuq shakli esa eng qisqa o'qida aylanishidan paydo bo'ladi. Agar u shakllarning aylantirish o'qlari holatlarni o'zgartmasalar Aristotel aytgan tuxum va yasmuq shaklidagilarning ochiqlik va bo'shliqda muhtojliklari ko'rilmaydi. Shar shakliga o'xshash narsalardan boshqa biron narsa to'g'ri kelmaydi. Chunki tuxum shaklining o'qi eng uzun va yasmuq shaklining o'qi eng qisqa bo'lgach, har ikki shakl shar shaklidek aylanadi va o'zlaridan bo'sh bo'lib turuvchi bir joyga muhtoj bo'lmaydi. Lekin tuxum shaklining o'qiga eng qisqa, yasmuq shaklining o'qiga eng uzun chiziq olinsa, shu vaqtda u shakllar ochiqlikka, bo'shliqqa muhtoj bo'ladilar va Aristotelning aytgani to'g'ri keladi. Shunday bo'lsa ham, tuxum shaklidagi narsa eng qisqa qutrida aylanishi, yasmuq shaklidagi narsa eng uzun qutrida aylanishi va har ikkisining bo'shliqda muhtoj bo'lmay, ketma-ket joylanib turishlari mumkindir. Masalan, ashxos [hamma borliq]ning falak ichidagi harakatlarikim, ko'pchilikning fikricha, falak ichida bo'shliq yo'qdir. Buni, ya'ni tuxum shaklining eng qisqa o'qida, yasmuq shaklining eng uzun o'qida aylanishi mumkindir, demak falak shar emas, balki tuxum yoki bir yasmuq shaklidir degan e'tiqodni tushunib etmayman, chunki men shunday e'tiqodni rad qilishga tirishdim. Lekin mantiq ilmining egasi Aristoteldan taajjub qilib aytaman.

(Ibn Sinoning) javobi

Umring uzun bo'lsin, durust, bu so'z haqida qilgan e'tirozing unga lozim bo'ladigan narsalardandir. Chunonchi, ba'zi ta'riflarimda buni bayon qildim. Lekin Aristotel so'zini tafsir qiluvchilarning har biri bu so'zga uzr bayon qildilar. Shul holda menga kelgani Somustiyusning «Osmon va olam» kitobiga qilgan tafsirida «Faylasuf so'zining eng yaxshi tomonlarini ochib bermog'imiz kerak», degan so'zdir. Endi aytamizkim, sharning aylanma harakatidan biron sabab ila bo'shliq voqe bo'lmaydi.

Tuxum va yasmuq shakllarning aylanma harakatida bo'shliq bo'lishi mumkindir. Yana buning ustiga shu uzr bilan birga, hamisha Aristotel so'ziga kamchilik kelib kiradi. Falak shaklining tuxum yoki yasmuq shaklida ekanining xatoligi tabiatdan va geometriyadan dalillar keltirish bilan isbotlanadi. Agar seni matematika ilmidan uzoq turasan va atrofingdagi fozillaring geometriya san'atidan uzoq turadilar, deb o'ylaganimda quvvat va toqatim boricha matematika va geometriya ilmining bir tarafidan burhonlar va hujjatlar keltirishga kirishar edim. Ammo tuxum va yasmuq shakllarining harakatlari goho bo'shliqni vujudga keltirmaydi, degan so'zingga va falak ichida harakat qiluvchi turli shakldagi jismlarni misol qilib shohid tutishingga javob shulkim, bu so'z u so'zga, ya'ni falak shaklining tuxum va yasmuq shaklida bo'lishidagi so'zga va u holda lozim keladigan narsaga o'xshamaydi. Shundaykim, olam ichida harakat qiluvchi jismlar o'zlariga tutunuvchi jismlarni ketma-ket uchratib turadi. Ammo agar falak yasmuq shaklida bo'lib, harakati eng qisqa o'qdan bo'lmasa yoki tuxum shaklida bo'lib, harakati eng uzun o'qda bo'lmasa, bo'shliqning voqe bo'lishi, albatta, zaruriy va lozimdir. Chunki falak harakat qilgan vaqtda uning jismi tutunadigan falak orqasida bir jismning borligi mumkin emasdir. Falak ichida mavjud jismlar uchun esa shunday bir jism bor.

(Beruniyning) yettinchi savoli

Aristotel tomonlarni bayon qilganda «Har bir jismdan o'ng tomon harakatning boshlanish tomonidir», dedi. Bundan so'ng shu hukmni teskari qilib «Osmonning harakati sharqdandir, chunki sharq osmonning o'ng tomonidir», dedi. Bunday hukmni teskari qilishi durust emas. Buni isbot qilish burxoniy davr (aylanish dalili)ga boradi.

(Ibn Sinoning) javobi

Faylasuf Aristotel «Falakning harakati sharqdan, chunki sharq falakning o'ng tomonidir», deb isbot qilmadi. Balki bu so'z bilan sharq falakning o'ng tomonidan ekanini isbot qildi. Chunki

falakning harakati sharqdan paydo bo'ladi. Jonli narsaning harakati o'ng tomonidan paydo bo'ladi. Harakat qiluvchi falak Aristotel fikricha jonlidir. Shu jihatdan sharq falakning o'ng tomoni deydi. Oqil kishining falak harakatining sharqdan ekanini isbot qilib o'tirishi maholdir. Chunki falak harakatining sharqdan ekani shubhasizdir. Zeroki, falakning harakati abadiy suratda bir tomondan bo'ladi, u esa sharq tomonidir. Balki faylasuf falakning o'ng tomoni qayoqda ekanini isbot qilgandan so'ng falakning o'ng tomonini – mohiyatini tanitmoqchi bo'ldi va shunday qasd qildi.

TEMURIYLAR DAVRIDA ALLOMALAR VA ULARNING AVLODLARIGA MUNOSABAT

Hazrat xoqoni Said Movarounnahr va Turkiston mamlakati viloyatini saodatli farzand, ruh rohatiyu dil quvvati, ko'z nuriyu din ko'makchisi Mirzo Ulug'bek ko'ragonga bag'ishladi.

Bu baxtli farzand garchi adolat usullarini ado etish va siyosat hukmlarini yurgizish bobida hech bir qo'zg'otishu qiziqtirish, tushuntirishu rag'batlantirishlarga muhtoj bo'lmasa ham, onhazrat otalik shafqati yuzasidan podshohona iltifat bilan nasihat so'zladi: «Haq, taolo bu buyuk in'om va ulug' marhamatni bizga ato qildi; yarog'-aslahamizning ojjizligi va holatimizning nuqsonliligiga qaramay bizni tanlash nazari bilan taqdirlab, farmonimizni olam mamlakatlari uzra joriy qildi, bu - Ollohning lutfidir, Olloh uni xohlagan kishisiga ato qiladi. Endi davlat va podshohlik qadrini bilib, ilohiy ne'mat shukrini bajo keltirgin hamda insof va adolat eshiklarini hojatmandlar yuziga ochiq tutgin, barcha ishlarda (oyatdagi) Yo Dovud! biz seni yerda (o'zimizga) xalifa qilib tayin etdik, endi sen odamlar orasida haqqoniy hukm yurit! (degan so'zlarga) muvofiq amal qilgin, Olloh o'z salomini yo'llagur payg'ambar varasalari bo'lmish ulamolarni ehtirom ko'zi tagiga olib, in'om nazari

bilan mamnun (162) tutgin, diniy mojarolar bo'yicha (ish ko'rganda) ularning fatvosini chetlab o'tmagin, «Hidoya»ning muallifi deb mashhur bo'lgan millatu dinning dalili shayxulislom Abduljalil al-Marg'inoniyning atoqli va oliy maqom xonadoniga nisbatan izzat-ehtiromda bo'lib, u kishining avlod-ajdodlaridan tortib islom mashoyixlari va zamona yo'lbo'shchilari bo'lib kelayotgan farzandlarini hammadan yuqori qo'yib, barcha hollarda ularning sha'n-shavkati mulohazasiga rioya qilgin, qozilar qo'lini shariat hukmlari ijrosida baquvvat tutgin,...

Abdurazzoq Samarqanday.¹⁶² Matlai Sa'dayn va Majmayi Bahrayn. T.: O'zbekiston, II jild. 2008.

* * *

Eli tamom sunniy va pokmazhab va mutasharri va mutadayin eldur. Hazrati Risolat sallallohu alayhi va sallam zamonidin beri ul miqdor aimmayi islomkim, Movarounnahr din paydo bo'lubtur, hech viloyattin ma'lum (45 a) emaskim, muncha paydo bo'lmish bo'lg'ay. Shayx Abu Mansurkim, aimmayi kalomdindur, Samarqandning Moturid otliq mahallasidindur. Aimmayi kalom ikki firqadur, birni «moturidiya» derlar, birni «ash'ariya». Moturidiya Shayx Abu Mansurg'a mansubdur. Yana sohibi «Sahihi Buxoriy» Xo'ja Ismoil Xartanak ham Movarounnahrindur, Yana sohibi «Hidoya»kim, Imom Abu Hanifa mazhabida «Hidoya»din mo'tabarroq kitobi fiqh kam bo'lg'ay, Farg'onaning Marg'inon otliq viloyatidindur, ul ham dohili Movarounnahr dur.

Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. T.: Sharq, 2002.

¹⁶² Abdurazzoq Samarqanday – (1413-1482), mashhur sayyoh, elchi va tarixchi. Tafsir, hadis, tarix, til va adabiyot fanlarini puxta egallagan. Hayotining ko'p davri Samarqandda o'tgani uchun Samarqandiy nisbatini olgan.

TO‘QQIZINCHI BO‘LIM

MO‘G‘ULLAR ISTILOSINI VA ZULMIGA QARSHI KURASH. JALOLIDDIN MANGUBERDI

Ushbu mavzu, Xorazmshoh anushteginiylar davlati, Chingizxonning hokimiyatni egallashi va uning g‘arbga yurishlari hamda Jaloliddin Manguberdi va uning mo‘g‘ullarga qarshi kurashi tarixi haqida juda ko‘plab yozma manbalar mavjud. Ular qatoriga Shihobiddin Muhammad Nasaviyning «Siyrat us-sulton Jaloluddin Menkburni» asarini, Su Tyanszyuening «Mongol un niucha tobchan», «Szin-Shi», «Yuan chao min-chen shi lyuue» asarlari, Sa‘duddin Muhammad Avfiyning «Lubob ul-albob» («Qalblar qalbi»), Juvayniyning «Tarixi jahonkushoy» («Jahongir-Chingizxon tarixi») hamda Rashiduddin Fazlulloh ibn Imoduddavla Abulhayr al-Hamadoniyning «Jome’ ut-tavorix» («Tarixlar majmuasi») asari kabilarni kiritish mumkin. Shuningdek, Ibn al-Asirning «Al-komil fit-tarix» va Mirzo Ulug‘bekning «To‘rt ulus tarixi» asarlaridan mavzuni yoritish uchun foydalandik.

MA‘NAVIY JASORAT

Biz – boy tarix, yuksak madaniyat, buyuk ma‘naviyat vorislarimiz. Qadimiy tariximizni har tomonlama o‘rganib, shunday xulosaga kelish mumkinki, eng qaltis va tahlikali davrlarda millatimizga umid va ishonch bergan, uni yovlarga qarshi kurashga undagan, ajdodlarimizni ilmiy kashfiyotlar, harbiy zafarlarga, ma‘rifat mash‘alini baland ko‘tarib jaholatga qarshi chiqishga chorlagan beqiyos kuch ham aynan ma‘naviy jasorat tuyg‘usidir. Shu nuqtai nazardan qaraganda, Urganchni bosqinchilardan himoya qilishda bayroq tutib jon bergan Najmiddin

Kubroning qahramonligida, dunyoni to'fondek bosgan Chingizxon qo'shiniga qarshi o'n bir yil muttasil mardona kurash olib borgan Jaloliddin Manguberding jangovar ruhida, yurtimizni istilochilardan ozod qilib, buyuk davlat barpo etgan Amir Temur bobomizning bunyodkorlik salohiyatida ham ma'naviy jasorat tuyg'usi buyuk va ustuvor ahamiyat kasb etgani shubhasiz, albatta.

Islom Karimov. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. T.: Ma'naviyat, 2008. B. 166.

CHINGIZXONI MUZZAM HJUMIDAN SULTON MUHAMMAD XORAZMSHOHNING OGOHO BO'LGANI ZIKRI

(132) Chingizxon elchisi Sulton Muhammad Xorazmshoh¹⁶³ huzuriga yetgach, uning harakatidan ogoh bo'ldi. O'g'li Sulton Rukniddinni Iroqda qoldirdi. Imodulmalikzodani molu mulk zabti va mulk tadbirlari uchun unga mulozim tayinladi. O'zi esa Movarounnahrda jo'nadi...

Sulton Muhammad Nishopurga yetganda, shu yerda bir oy turib qoldi. Momosi Cho'lidan adashib, hazilu huzul xatari bilan ko'nglini chog' qildi. U yerdan Buxoroga jo'nadi. Sha'bon sakizidan to to'qqizinchi shavvolgacha shu yerda yashadi. Bahor mavsumi yetib, zamonasozlik qilib yigitligi tutdi, yo'ldan ozdi. Tinmay arg'uvoniy sharob ichish bilan mashg'ul bo'ldi. So'ng o'sha hudud va nohiyalar lashkarlarini to'plab, Samarqandga yo'naldi. Bu yerni poytaxt qilmoq istadi. Sulton Usmon¹⁶⁴ Go'rxon¹⁶⁵ bilan yog'iy bo'lib yurgan kezlarda u Sulton Muhammad Xorazmshohga tobelik izhor qilib, Sulton Muhammad

¹⁶³ Sulton Muhammad Xorazmshoh – 1200-1220 yillarda hukmronlik qilgan Anushtaginiy Xorazmshohlarda davlati hukmdori. O'zini «Ikkinchi Iskandar» deb e'lon qilgan.

¹⁶⁴ Sulton Usmon – Movarounnahrda hukmronlik qilgan qoraxoniylarning so'nggi vakili (1204-1212), 1212 yilda Xorazmshoh Muhammad Samarqandda Usmonni qatl ettirgan.

¹⁶⁵ Go'rxon – Qoraxitoylar davlati hukmdori.

nomiga pul zarb qildi va xutba o'qittirdi. Sulton Muhammad unga qizi Xonsultonni berdi. Keyin Sulton Usmon muxoliflik ko'rsata boshladi. Nomunosib harakatlar qildi. Sulton uni qatl etib, Samarqandni o'ziga poytaxt qildi. U yerda masjidi jome bino qildi. Samarqandga yetib kelishi bilan bir qadar yana o'ziga bino qo'yganidanmi, balki g'aflat bosganidanmi, ayshu tarab bisotini yoydi. O'sha asnoda To'qbug'onning makrit qabilalari bilan kelayotgani xabari Sulton Muhammad Xorazmshoh qulog'iga yetdi. Shuning uchun Jand tomon ketdi. Jandga yetgandan keyin Jo'ji¹⁶⁶ning lashkar bilan ta'qib qilib kelayotganidan xabar keldi. Sulton ixtiyor jilovini Samarqandga qaytardi. Ehtiyot choralarini ko'rib, Samarqandga kelib yetdi. Qolgan-qutgan lashkarni to'pladi va yana Jandga yo'naldi. Bu yerdan ularga qarab yurdi. ...

Ikki daryo oralig'idagi qatlu qih uyiga yetgach, hisobsiz o'ldirilgan odamlarni ko'rdi, hali qotib ulgurmagan qonlarni ko'rdi. O'ldirilganlar orasidan bir yaradorni topdilar. Undan bor gapni bilib oldilar. Ma'lum bo'lishicha, Jo'ji o'g'lon lashkari bo'lib, Makrit podshohi To'qbug'on ibn To'qtobeki bilan jang qilgan va g'olib kelgan. O'sha kuniyoq Sulton Jo'ji lashkari ortidan ravon bo'ldi va keyingi kuni u bilan ro'baro' keldi. (135) Sohibqironi a'zam Chingizxonni muazzam harakati yaqinlashganda, ozgina mo'g'ul sipohidan talon-taroj ko'rgan Sulton Muhammad Xorazmshohning dilini xavfu haros egalladi. U yerdan qaytib, Samarqandga keldi. Munajjimlar deyishdi: «Su'ud vatadlar darajalaridan chiqdi va Oshir soqitdir. Nozir nahslar chandonki, Tole Oshira soyasi zulmlar darajasini o'tkazur. Kirib kelgan dushmanlar qarshisida biror ish boshlash ixtiyorini qila olmagay». Bu so'zlar uning vahmu hayratining oshuviga sabab bo'ldi. ...

Aytishlaricha, o'shanda Sulton Muhammad Xorazmshoh ixtiyorida sanoqsiz askar, ko'pgina lashkar bo'lgan. Muhosiblar

¹⁶⁶ Jo'ji – (taxm. 1184-1227), Chingizxonning katta o'g'li. Chingizxon mo'g'ullar zabt etgan yerlarni o'g'illariga taqsimlab berganida (1224) Jo'jiga Irtishdan Uralgacha va undan G'arbga tomon cho'zilgan yerlar mulk qilib berilgan va bu yerlarda Jo'ji ulusi tashkil topgan.

uning soni 400 mingdan kam bo'lmaganini aytganlar. Ammo, mo'g'ul lashkari yurishidan keyin Qoracha Hojibni o'n ming kishi bilan O'troga G'oyirxon¹⁶⁷ga madad uchun jo'natdi. Toki, u O'tror muhofazasini uyushtirgay. 30 ming kishini Buxoro mudofaasi uchun tayinladi. 30 ming kishini Samarqandda qoldirdi. Shu jumladan, 60 mingi turklar edi. Ularning sarđorlari Sulton ashrofu a'yonlaridan bo'lgan xonlar bo'lib, har biri o'z davri Asfandiyorlaridan edi. 50 ming kishi tojik mufridlaridan bo'lib, har biri bir Rustam edi. 40 ming kishiga qal'alar va hisorlar qurishga farmon berdi. Xandoqdan bog' chetigacha yetkazdilar. Ertasi kuni sulton harakat qilib, uning ustidan o'tdi va dediki: «Bizga qasd qilgan lashkar, agar har biri bittadan bu sandiqqa toziyona tashlasa to'lg'usidir». ...

Sulton Muhammad Xorazmshoh u yerdan Naxshab yo'liga ravona bo'ldi. Qayerga bormasin xalqqa vasiyat qilardi va der ediki: «Chorangizni ko'ring, najot yerlarini qo'lga kiriting». Bir kishini Xorazmga jo'natib, onasi Turkon xotunga boshqa xotunlar va bolalar bilan jame'i (136) xazina va zaxirayu, qimmatbaho matolarni, nafis buyumlar hamda javohirlarni olib Mozandaronga ketishi lozimligini aytdi.

Xabar Turkon xotunga yetgandan keyin atrof dan kelganlardan bolalargacha voqif bo'ldilar. Amirlar va a'yonlarni lashkar bilan Xorazm muhofazasi uchun qoldirdi. Boshqa o'g'illar va uning xonadonidan bo'lgan bolalar va sulton haramidagilarni olib, Mozandaron tomon jo'nadilar. ...

Sulton bu voqea tadbiri ne natijaga muyassar bo'lur, deb arkoni davlatdan kim bilan maslahat qilmasin, har kim o'z aqli andozasicha so'z dedi va maslahat ko'rdi. Qo'riqchilikda ayyom tajribali va tadbirda nihoyatda mulohazali va fikrlovchi kishilaridan bir jamoa dediki, Movarounnahr qissasi uni bu

¹⁶⁷ G'oyirxon – (Inolchiq), Xorazmshohlar hukmronligi ostidagi O'tror shahrining hokimi bo'lgan. 1218 yili Chingizxon Xorazmga 450 musulmon savdogarlaridan iborat 500 tuyalik karvon yuborganda, bu ulkan karvon G'oyirxon tomonidan talanadi. 1220-yil boshida mo'g'ullar O'trojni olishgach, Chingizxon uni qatl ettiradi.

holda saqlab qolish mumkin bo'lgan chegaradan o'tgandir. Endi Xuroson va Iroqning qo'ldan ketmasligi choralarini ko'rmoq zarur. Bugungi kunda har shahar va tarafga jo'natilgan lashkarlarni qaytarmoq lozim, yoppasiga hujum qilib Jayhun daryosini qo'lga kiritib, mudofaa bilan mashg'ul bo'lmoq lozim. Mo'g'ul lashkarining daryodan o'tishiga va bu tarafga kelishiga yo'l qo'ymaslikka sa'y qilmoq kerak. Yana bir to'da odamlar Hindiston va G'aznin tomonlarga ketish lozimligini aytishdi. Sulton Muhammad Xorazmshoh shu istakka moyillik bildirdi va ikkinchi taklifni ixtiyor qildi. Yo'lga chiqib, Balxga yetib keldi. Bu vaqtda Sulton Muhammad Xorazmshohning o'g'li Sulton Rukniddin Iroqda edi. Imodulmulk Sovojini tuhfa va hadyalar bilan otasi huzuriga jo'natdi. Sulton Muhammad Xorazmshoh huzurida Imodulmulkning firib yo'llari ko'p bo'ldi. Sulton Muhammad Xorazmshoh diliga vatanga mehr hissini soldi. Bu jamoat ko'p tortishuvlardan keyin o'zni undan uzoqroqqa tortishimiz va Iroq tomon ketishimiz lozim, degan qarorga keldi. U yerda lashkar to'playajakmiz va so'ng ishga kirishurmiz, dedilar. Sulton Jaloliddin Sulton Muhammad Xorazmshoh o'g'li bu vaqtda otasi bilan birga edi va otasining rayini inkor etdi va dedi: «Agar Sulton Iroqqa ketadigan bo'lsa, lashkarlarini menga qoldirsin. Men esa Jayhun daryosi bo'yida turgum. Daryoning u tomonini (mo'g'ullar) egallaydigan bo'lsa, bu tomonga o'tkazmagayman, monelik qilurmen. Eng to'g'ri yo'l shul». ...

Sulton Muhammad Xorazmshoh chehrasida qalqib turgan xavf shiddati va g'alabasidan o'g'li Sulton Jaloliddin so'ziga iltifot qilmadi. ...

Oqibatda, Sulton Muhammad Xorazmshoh Imodulmulk fikrini ma'qul topdi. Iroq tomon azimat qilmoqqa ixtiyor ayladi. Zahardan achchiqroq aysh bilan Balx shahridan chiqib ketdi. U yerdan Panjobga maktub yo'llab, havodisi ahvoldan xabardor bo'lishni topshirdi. O'sha kezlarda banogoh xabar keldiki, Buxoro olinibdi, deb. Sulton darhol o'z saltanati fanosi uchun to'rt bor takbir o'qidi va mamlakat keliniga uch taloq aytib, chodir go'shasiga bog'ladi.

Raj'at(qaytish)ni chunonchi, bunday bog'lamadi. Yuzini zaxga berib yotdi. Uning lashkarining ko'pchiligi turkman jamoasidan, onasining xaylu xeshlaridan. Ularni qadalilar, Shuningdek, o'roniyonlar ham deyishgan. Bu bezovtalik asnosida Sulton Muhammad Xorazmshohni o'ldirmoqqa qasd qildilar. Bunga sabab shul erdiki, Xorazmshoh devoni ahdidan bo'lgan Badriddin Amid Sulton Muhammad Xorazmshohdan qo'rqqanidan qochib, Sohibqironi a'zam Chingizxoni muazzam panohiga borish uchun unga ixlosu sadoqat izhori bilan noma yubordi. Sohibqironi a'zam Chingizxoni muazzam tilidan ham orqasidan do'stona mavaddatnoma yozib, josus qo'liga yubordi. Bu maktublar Sulton xizmatchilaridan birining qo'liga tushdi. U bularni Sultonga yetkazdi. Sulton Muhammad Xorazmshoh o'z amirlaridan badgumon bo'lib, buni ba'zi xos kishilarga izhor etdi. Shu bo'ldiyu, bu voqea ovozasi keng yoyildi. Amirlarning ba'zisi ham Sulton Muhammad Xorazmshohdan qo'rqishib, vahimada bir to'da amirlar va sipohiylar Sulton xobgohi tomon yurdilar. Sulton bundan voqif edi. Xobgohni tashlab holi joyda xirgoh tikkan edi. Haligi to'da yarim kechada qo'llariga o'q oldilar. Erta tongda otilgan o'qlardan xirgohni g'arboldek ilma-teshik ko'rdilar. Sulton Muhammad Xorazmshohning sog'-salomat qolgani ma'lum bo'lgandan keyin, haligi jamoa razil xatti-harakatlari tufayli jon vahmida qochib qoldilar va Sohibqironi a'zam Chingizxoni muazzam huzuriga jo'nadilar. Sulton (138) Muhammad Xorazmshohning qolgan amirlariga ham ishonchi qolmadi. Shu sababli har bir amirini bir shaharga jo'natdi. O'zi vahimada Nishopur tomon yo'naldi . 617 sana turkiy ilon yilida muzaffar safar oyning 12 sida, Nishopurga yetib keldi. G'oyat g'amginligidan, ayshu-ishratga mashg'ul bo'ldi.

Ulug'bek Mirzo.¹⁶⁸ To'rt ulus tarixi. Ahmedov B.ning kirish so'zi, izohlari va tahririda, T.: Cho'lpon, 1993.

¹⁶⁸ Ulug'bek Mirzo - 1394-1449 yillarda yashagan ham hukmdor, ham olim. Amir Temurning nabirasi (Shoxruhning o'g'li).

(687^a-VARAQ) OLTİ YUZ O'N YETTİNCHI YIL TOTOR (MO'G'UL)LARNING BİLODI İSLOMGA BOSTIRIB KIRGANI BAYONI

Mazkur olti yuz o'n yettinchi (1220) yili totor (mo'g'ul) toifasi bilodi islomga yurish boshladi. Totorlar turk jamoasiga mansub ko'p toifadan iborat. Ularning maskanlari bilan bilodi islom orasidagi masofa olti oylik yo'ldan ortiqroqdir. Ularning podshosi Timuchin, ya'ni Chingizxon o'z yurtidan chiqib Turkiston navohiysiga yurish qildi. Ushbu yurishda bir jamoa tujjor va atrok (turklar)ni oltin, kumush va yana bir qancha naqdinalar bilan Movarounnahrğa yubordi. Ular turk shaharlaridan biri bo'lmish O'tror qal'asiga yetib keldilar. Bu (shahar) Xorazm viloyatining (shimoliy-sharqiy tomondan) oxiri sanaladi. Toifayi totor mazkur qal'aga kelgandan so'ng, qal'a hokimi xorazmshohga bu haqda ma'lum qilish uchun Xorazmga odam jo'natdi. U odam xabar yetkazgach, xorazmshoh qal'a hokimiga totor jamoasining hammasini (687^b-varaq) qatl qilib, barcha mollarini Xorazmga yuborishni buyurdi. Qal'a hokimi farmonni bajardi va mollarini Xorazmga jo'natdi. Ba'zilar, u toifaning bilodi islomga bostirib kelishining boshqa sababi bor, deydilar, lekin kitoblarda bu haqida aniq ma'lumot qayd etilmagan. Alqissa, jamoayi totor g'azablanib bilodi islom tomon yurdilar, bir qancha joyni zabt etib, taladilar, Buxoro va Samarqandni ham oldilar.

Ibn al-Asir. Al-komil fi-t-tarix (Jaloladdin Manguberdi. T.: Sharq, 1999.)

JAMOAYI TOTOR XORAZMSHOH USTIGA YURISH QILGANI, XORAZMSHOH QOCHIB HAMADONGA BORIB, O'SHA YERDA VAFOT ETGANINING BAYONI

Ul jamoayi kuffor Samarqandni egallagach, ularning ulug' podshosi la'nati Chingizxon yigirma ming otlıq bahodirlari bilan

xorazmshohning iziga tushdi. Lashkarlariga, xorazmshohni qaysi makonda bo'lsa ham topasizlar, osmonga qochsa ham tutib keltirmaguningizcha sizlarni (tinch) qo'ymayman, dedi.

Ul toyifayi kufforg'a «mag'ribiy» va «g'ayri mag'ribiyalar» o'rtasidagi farqni aniqlash uchun «totori mag'ribiya» deb ot qo'yilardi. Chunki ul toifa Xurosonning g'arbiy qismida yurardi.

Ular xorazmshohni axtarib keldilar... Xorazmshoh'ul toifa-ning (kelayotganligi) xabarini eshtishi bilan (otlanib) Niyso-bur(Nishopur bo'lsa kerak-P.N.)ga bordi; u yerda ham qo'nim topolmay, izma-iz totor yetib kelib, u yerdan jo'nab ketdi. Xorazmshoh najot izlab Hamadonga borib, o'sha yerda vafot etdi.

Ibn al-Asir. Al-komil fi-t-tarix (Jaloladdin Manguberdi. T.: Sharq, 1999.

XORAZMSHOHNING SIFATI VA SIYRATINING BAYONI

Uning oti Alouddin Muhammad ibn Takash edi; podshohligi yigirma bir yil; davlati juda katta hududni egallagan, tamomi olam unga itoat etgan. Saljuqiylardan keyin biror zot uningdek hukmdorlik qilmagan. Zero, Iroq chegarasidan to Turkiston-gacha uning mamlakati bo'lgan...

Ibn al-Asir. «Al-komil fi-t-tarix» (Jaloliddin Manguberdi T.: Sharq, 1999.)

(689 ^A-VARAQ) TOIFAYI TOTOR BUXORO VA SAMARQANDNI OLGANDAN SO'NG MOVAROUNNAHRDA QILGAN ISHLARINING BAYONI

Chingizxon darqahr bo'lib, avlodlaridan birini bosh qilib behisob lashkar yubordi. Ular Xuroson sari yurib, Jayhun daryosidan o'tib, Balx qal'asiga yetdilar. Qal'a aholisi tortiqlar

bilan chiqib omonlik so'radilar. (Mo'g'ullar) Balxni bo'ysundirgach, sana olti yuz o'n birda (1221) yurish qilib Andxo'y qal'asiga yetdilar va uni egallab, so'ngra Toliqon qal'asiga o'tdilar. Bu o'ta mustahkam qal'a edi, (mo'g'ullar) uni olti oy qamal qilib hech narsaga erisholmadilar. Kuchlari o'jizligi haqida Chingizxoniga ma'lum qildilar. Chingizxon askari azim bilan kelib qal'ani o'rab oldi, yonida musulsonlardan asir olinganlar ham ko'p edi. Ularni askarlarning oldiga solib jang qilmoqqa buyurdi, bosh tortsangiz o'ldiramiz, dedi. To'rt oy davomida jang jadallar bo'ldi. So'ngra Chingizxon, qal'a atrofiga tosh, tuproq va yog'och yig'ib (689^b-varaq) sarko'b qilinglar va uning ustiga chiqib qal'aga kiringlar, deb buyurdi. Ular shu yo'sinda qal'aga kirib, qattiq jang bilan uni egalladilar, aholisini qirib, bir qismini asir oldilar.

Undan so'ng, Chingizxon katta askari bilan Marv tomon yurishga azm qildi. U shaharni qurshab olib, to'rt kun qattiq jang bo'ldi, ikkala tarafdin ham ko'p odam halok bo'ldi. Beshinchi kunda (Chingizxon) qal'a hokimiga xat yo'lladi va taslim bo'lsa, uning o'zini qal'a hokimi qilib qoldirajagini aytdi. Marv hokimi bu va'daga aldanib, (Chingizxonning) huzuriga keldi. Chingizxonning o'g'li uni izzat-hurmat qilib, sarpo berdi. So'ngra u bilan birga qal'aga borib bir necha kun turdi. U qal'a ahlini ro'yxatga olishni buyurdi. Xatga olish ishi tugagach, barcha aholini qal'adan tashqariga olib chiqmoqqa amr qildi. Aholi qal'adan chiqib ketgandan keyin, o'zi askarlari bilan kirib qal'ani egalladi va qal'a ahlini qirib tashlashga hukm qildi. Berahm ahli totor tamomi odamlarni qatl etdi, ularning adadi yetti yuz mingga yetgan edi. Undan so'ng qaytib qal'aga kirib nochor va atfol (bolalar)ni askarlarga taqsim etib, mol va ashyolarini talon-toroj qilib, uy-joylarga o't qo'yib harob qildi. Hatto (sulton) Sanjarning qabrini yondirdilar...

Ibn al-Asir. Al-komil fi-t-tarix (Jaloliddin Manguberdi. T.: Sharq, 1999.)

TOIFAYI TOTORNING G'AZNA VA BILODI G'URIYANI (690^A-VARAQ) BOSIB OLGANI BAYONI

Chingizxon katta bir lashkarga o'g'lini bosh qilib G'azna tomon yubordi. Shahzoda Jaloliddin ibn (Muhammad) xorazmshoh ham oltmish (ming) otliq bilan o'sha yerda edi. Totor lashkarining kelayotganini eshitib, tamomi ahli islomga bosh bo'lib Balq degan joyda tamomi musulmonlar bilan to'planib turdilar. Toifayi totor ham shu mavzeda turib, ikki tarafdin lashkar urushmoqqa shaylandilar. Uch kun davomida jang qilib totorni rosa qirdilar.

Ahli Hirot bu xabarni eshitib, totorlarning ular ustidan hukmdor qilib qo'ygan sarkardasini, yonidagi odamlari bilan birga tutib qatl etdilar. Bu voqealar haqida Chingizxonga xabar yetib borgach, o'g'lini katta lashkar bilan Hirotning ustiga yubordi. U kelib Hirotni (qayta) bosib olib harob qildi, shahar voliyisi qochib ulgurdi.

Endi shahzoda Jaloliddin¹⁶⁹dan so'z eshiting: u totorni yakson qilib, qaytib G'aznaga bordi. U erdan totorga kishi yuborib, urushmoqchi bo'lsa keyingi jang maydonini tayinlasin, dedi. Ahli totor Qobulda jang qilamiz, deyishdi. Shahzoda askarlari bilan Qobulga kelib, ikki tarafdin (askarlar) saf tortib jang qildilar; ko'p odam halok bo'ldi, nihoyat toifayi totor bosilib, mag'lub bo'ldi. Toifayi totor qo'lida bandi bo'lgan musulmonlar ham xalos bo'ldilar.

Ammo (Jaloliddin) lashkarining o'zida ham fitna va nizo paydo bo'ldi. Uning tafsiloti quyidagicha: G'aznada amir bo'lib turgan Sayfiddin (mo'g'ullar bilan jangda qo'lga kiritilgan) tamomi ashyo va o'lja menga tegishli, xohlasam (boshqalarga) taqsimlab berishim mumkin, dedi. Hirot voliyisi Malikxon ham

¹⁶⁹ Jaloliddin - (1199-1231), Anushtaginiy Xorazmshohlar davlatining so'nggi vakili (1221-1231), mohir sarkarda. Umrining oxirigacha mo'g'ullarga qarshi kurash olib borgan.

shu soʻzni aytdi, xullas, ikkovlari urushib qolishdi. Sayfiddin oʻljalarni uch ming otliqdan (iborat) lashkariga taqsimlab berdi.

Shu paytda, Chingizxon ham lashkari azim bilan yetib keldi. Shahzoda (Jaloliddin)ning koʻmak beradigan lashkari tarqab ketgan boʻlsa-da, biroq noiloj urushga shaylandi. Saflarni rostlab, ilgari (toʻqnashuv)lardan ham qattiq jang qildilar. Hirot voliysi Malikxon ham halok boʻldi. Xullas, Chingizxon Gʻazna tomon cherik tortdi, Gʻaznani egalladi, shahar va atrof qishloqlarni talon-toroj qildi, odamlarni qirib, mol-mulklarini gʻorat ayladi, keyin ular oʻz viloyatlariga qaytdilar...

Ibn al-Asir. Al-komil fi-t-tarix (Jaloliddin Manguberdi T.: Sharq, 1999.)

(693^A-VARAQ) SHAHZODA JALOLIDDIN IBN XORAZMSHOHNING BILODI HUZISTONGA VA IROQQA YURISH QILGANINING BAYONI

Mazkur sanada (hijriy 621/milodiy 1224) xorazmshoh Muhammad ibn Takashning oʻgʻli shahzoda Jaloliddin Hind viloyatidan kelib bilodi Huziston va Iroq tarafiga yurish qildi. Undan soʻng Isfahonga borib, birodarining tasarrufida boʻlib, u yerdan bilodi Forsga yurish qildi. Undan oʻtib Huzistonni qamal etdi. Amir Muzaffar degan kishi Huziston qalʼasining darvozalarini yopib oldi. U yerdan Jaloliddin ketdi hamda Bodriyo va Bokiyod degan qalʼalarga oʻtdi, ikki oy oʻsha yerda boʻldi, soʻngra ular Bagʻtata degan qalʼaga bordilar. Unda xalifaning mamluki Jaloliddin Kashmir askarlari bilan turardi, chiqib jang qildi va ustun keldi. Jaloliddin askarlari bilan Yaʻqubo degan mavzega bordi, u yerdan Bagʻdod qalʼasigacha yetti farsax kelardi. Bogʻdodning podshosi shahzoda Jaloliddinning shu mavzega kelgani xabarini eshitib, chiqib jang qildi va gʻolib keldi. (Jaloliddin) u yerdan oʻtib,

Daqo'qo degan qal'ani qamal qildi. Qal'adagilar necha marta chiqib jang qildilar, biroq yengildilar...

Ibn al-Asir. «Al-komil fi-t-tarix» (Jaloladdin Manguberdi. T.: Sharq, 1999.)

(693^B-VARAQ) SHAHZODA JALOLIDDIN MAZKUR QAL'ADAN O'TIB OZARBAYJON BORGANI

Mazkur sanada (hijriy 621/milodiy 1224) shahzoda Jaloliddin ibn Xorazmshoh Daqo'qo qal'asini olib, xarob qilib Ozarbayjondan ko'mak kelmasdan burun hokimini ham o'ziga tobe etdi. xarob bo'lgan joylarni imorat qildirib yurganida G'iyosiddinning voliysi amir Oyg'on Toliy ellik ming otliq bilan Ozarbayjon atrofidagi qal'alarni harob etib, ko'p mol va ashyolarni talab, chorvalarni haydab ketmish, degan xabar etdi. Xalifa Nosiriddin¹⁷⁰ning amiri bilan (694^a-varaq) shahzoda Jaloliddin lashkarlarni jamlab amir Oyg'on tarafiga yurish qildi. Ul amir Hamadon yo'lidagi qal'ai Daron ustiga chopqin yasab, uni talon-toroj qilib turgan chog'ida shahzoda Jaloliddin yetib keldi va uning yiqqan hamma o'ljasini va chorvalarini talon qildilar. Mazkur shahzoda o'zi imorat qilgani Marog'ina degan viloyatga borib bir necha kun orom olgandan so'ng, Ozarbayjonning holini bilmak uchun yurish qildilar. Shahzoda Jaloliddin Ozarbayjonga borgan hamon qal'a ahli tobe bo'ldi. Uning hokimi O'zbek ibn Pahlavon¹⁷¹ qo'rqib Ozarbayjondan chiqib Tabriz tarafiga bordi; u yerda ham turolmay Ganja degan viloyatga bordi. Shahzoda Jaloliddin Ozarbayjonda bir necha kun turib harob bo'lgan joylarni ta'mirladi, undan so'ng Tabriz hokimi va tamomi amirlariga, menga tobe bo'lib, lashkarlarni yig'ib mening yonimga kelinglar, degan mazmunda xat yo'lladi.

¹⁷⁰ Nosiriddin – abbosiylar sulolasidan bo'lgan Arab xalifasi (1180-1225).

¹⁷¹ O'zbek ibn Pahlavon – Ozarbayjondagi saljuqiy Otabeklar davlati hukmdori (1210-1225 yillarda hukmronlik qilgan).

Tabrizliklar uning soʻzini qabul qilmadilar... Shahzoda Jaloliddin Tabrizga yetib borib, besh kun davomida koʻplarni halok qildi; Shundan soʻng qalʼadagilar omonlik soʻradilar va elchi yubordilar. Shahzoda ularga omonlik berdi va Tabriz qalʼasini egalladi...

Ibn al-Asir. Al-komil fi-t-tarix (Jaloliddin Manguberdi T.: Sharq, 1999.)

(698^A-VARAQ) JAMOAYI TOTOR KELIB SHAHZODA JALOLIDDIN BILAN URUSHGANINING BAYONI

Shahzoda Jaloliddin bilodi Ismoiliyada qalʼayi Girdkoʻhni harob qilib turgan paytda, toifayi totor katta lashkar bilan qalʼayi Damgʻonga kelgan ermish, degan xabar yetdi. Mazkur shahzoda lashkarini yigʻib jangga kirishdi. Ikkala tomondan ham koʻp odam halok boʻldi. Nihoyat, totor askari magʻlubiyatga uchrab, (jang maydonidan) yuz oʻgirib qochdi.

Ibn al-Asir. Al-komil fi-t-tarix (Jaloliddin Manguberdi T.: Sharq, 1999.)

(698^B-VARAQ) SHAHZODA JALOLIDDIN BILAN BIRODARINING OʻRTALARIDAGI IXTILOF BAYONI

Mazkur sanada (621/1224) shahzoda Gʻiyosiddin¹⁷² va yonidagi amirlar shahzoda Jaloliddindan qoʻrqib, xavfsirab ajralib ketdilar. Jamoayi totorga Chingizxon bosh boʻlib islom diyoriga bostirib kelgan chogʻda shahzoda Jaloliddin lashkarlarini yigʻib (unga qarshi) chiqdi. (Oʻsha paytda) uning birodari Gʻiyosiddin amirlari bilan Huziston tomonga ketdilar. U yerda xalifaning noibi qolishga ruhsat bermadi; u yerdan Isfahonga bordi (699^a-

¹⁷² Gʻiyosiddin – Jaloliddin Manguberding ukasi.

varaqlar), lekin qal'a hokimi uni kiritmadi. Faqat bilodi Ismoiliyada ularga qolishga ruhsat berdilar.

Ibn al-Asir Al-komil fi-t-tarix (Jaloliddin Manguberdi T.: Sharq, 1999.)

JALOLIDDIN BILAN TOIFAYI TOTORNING MUHORABA QILGANLARINING BAYONI

Mazkur sanada toifayi totorga Chingizxon bosh bo'lib Ray qal'asiga yetib keldi... (Jaloliddin) barcha lashkarini yig'di. Fors hokimi Atobek ham lashkarlari bilan kelib qo'shildi. U ancha kuch yig'ib, ular Chingizxon tarafiga yurish qildilar.

Ikkala tomon ham safarni orasta qilib urushmoqqa shay turganda, shahzoda Jaloliddinning birodari G'iyosiddin lashkarlari bilan (boshqa) bir tomonga ketaverdi. Toifayi totor ko'rib, orqadan o'tib qurshovga olishmoqchi, deb ham gumon qildilar. Shunga qaramay, qattiq jang bo'ldi, totor mag'lub bo'lib Isfahon tomonga ketdilar. Fors hokimi ham ularning ketidan tushdi. Jaloliddin borib ukasini qaytarib, ular Isfahonga keldilar. Barcha podshohlar to'planib, askari azim bilan totorlarning ustiga hujum qildilar, ko'p jang-jadallar qilib, totorlar ustidan g'alaba qozondilar. Totorlar qochib qoldilar. Chingizxonning o'g'li shahzoda Jaloliddinga elchi yuborib, bular otamning quvgan askarlarining qilgan ishi erur, dedi. Shundan so'ng Jaloliddin xotirjam bo'lib Ozarbayjonga bordi, musulmon mamlakatlari podshohlari o'z joylarida qaror topdilar. Toifayi totor ham o'z mamlakati tomon ketdi...

Ibn al-Asir. Al-komil fi-t-tarix (Jaloliddin Manguberdi T.: Sharq, 1999.)

**(700^B-VARAQ) (HIJRIY) 628 (MILODIY 1231)
SANADA TOTORNING XURUJ QILIB
OZARBAYJONGA KELGANINING BAYONI**

Mazkur sananing avvalida toifayi totor xuruj qildi... (701^a-varaq) Ozarbayjon hududidagi Marog'a qal'asini o'rab olib, atrofidagi barcha qishloqlarni taladilar. Biror kishi qal'adan tashqariga chiqolmadi, u yerdagi aholi noiloj omonlik tiladi va qal'ani taslim qildilar.

(Mo'g'ullar) qal'aga kirib, ma'lum miqdor odamlarni o'ldirib, u yerga o'zlaridan shixna (boshliq) tayinladilar. Bu voqeadan Ozarbayjon aholisi uchun xavf ziyoda bo'ldi.

Ibn al-Asir. Al-komil fi-t-tarix (Jaloliddin Manguberdi Toshkent: Sharq, 1999.)

**9.14. SHAHZODA (JALOLIDDIN)NING JANGDA
TOTORDAN YENGILGANINING BAYONI**

Shahzoda Jaloliddin totorlarning Ozarbayjon hududidagi qal'alarni bosib olayotganidan xabar topgach, Xallot qal'asi tomon ketdi... (Maqsad) Xallot qal'asiga borib, Diyorbokr va Jazira podshohlari bilan ittifoq tuzib, barcha islom podshohlariga xat yo'llab, xalifadan yordam so'ramoq edi. Bundan totorlar xabar topgach, bir kechada uning ustiga bostirib kelishdi. Xallot qal'asining yaqinidagi Omid degan mavzeda, (tunda Jaloliddin) uxlab yotgan vaqtida (totorlar hujum qilib) ko'p odamlarni halok qildilar. Salomat qogan lashkarlarning ba'zilari qochib ketdilar, ba'zilari hamroh bo'lib qal'ayi Harronga bordilar. O'sha kezlarda, Malik Komil mazkur qal'aga bir amirni hokim qilib tayinlagan edi. (Qal'adagi lashkarlar) shahzodaning lashkarini taladilar. Ba'zi lashkarlar esa, tarqab qal'ayi Nisibin, qal'ayi Sinjor taraflarga va boshqa qal'alarga

(bosh olib) ketdilar. Lekin ular biror joyda iltifot koʻrmadilar. Shahzodaning lashkatlari Diyorbakr qalʼasiga borib, koʻp joylarni axtarib (chiqdilar, biroq Jaloliddinni) topolmadilar, uning qaysi yoʻldan ketib, qaysi makonga borganini ham bilolmadilar.

Ibn al-Asir Al-komil fi-t-tarix (Jaloliddin Manguberdi T.: Sharq, 1999.)

SULTON JALOLIDDIN HAQIDA (126-BET)

Vasvasa shaytoni Jaloliddinning otasi sulton Muhammad (xorazmshoh)ning yuragiga qoʻrquv va tahlikani shunchalik joylagan ediki, u oʻzini son-sanoqsiz lashkarlardan chetga oldi; oyogʻini qochish uzangisiga qoʻyib, yerga (kirib ketish uchun) biror teshik va osmonga (uchish uchun) bir qanot izlardi. Totorlar (bilan jangdan) yuz oʻgirib Samarqandga kirib kelganda, oʻzoq yillar va zamonlardan buyon shunday bir paytga moʻljallangan va ana shu kunlar uchun yigʻilgan son-sanoqsiz lashkarlar va mardi-maydonlarni oʻzgartirish va tarqatib yuborishga kirishdi; ularni toʻrt tomonga tarqatib, turli joylarga taqsimlab mamlakatni himoya qilishga belgiladi. Uning yoshi ulugʻroq, botir va matonatli hamda shohlik boshi uzra toj (boʻla oladigan) oʻgʻillaridan (127-bet) sulton Jaloliddin shu yerda, otasining yonida edi, xolos. U haqiqiy maqsaddan va toʻgʻri uslubdan uzoq boʻlgan bu mulohazani inkor etardi va (shunday) derdi:

«Lashkarlarni mamlakat boʻylab toʻzitish va bir joydan qoʻzgʻalmay, gʻanimga qarshi turishdan yuz oʻgirish, bu aqlli sohibdavlatning ishi boʻlmay, balki qandaydir bechorahollik alomatidir. Modomiki, sulton mardlarcha kurashga bel bogʻlamoq kerak, degan qarorga kelmas ekan, u holda sanoqsiz lashkarlar ixtiyorini menga topshirsin. Toki fursat qoʻldan ketmasdan, oyoq hayrat va daxshat balchigʻiga botmasdan,

elning malomat og'zidagi chaynab tashlangan saqichga aylanasdan, afsus-nadomat selida cho'kmasdan oldinroq, o'tkinchi hayotning (ayanchli) hodisalarini bartaraf etishga va baxtsizliklarning chorasini topishga kirishaylik».

(128-bet) Ammo sulton (Muhammad xorazmshoh) taxtni o'g'li egallashiga rozilik bermasdi va uni majbur qilib ushlab turardi. Ma'lum muddatdan so'ng sulton Muhammad (xorazmshoh) bu dunyoning ko'hna saroyidan uqbo (oxirat) qarorgohiga yetib bordi va (uning ruhi) bu zamin g'avg'olaridan poklik bo'stoni sari xirom ayladi.

Sulton Jaloliddin va uning ukalari bir oz kishilar hamkorligida Obiskundan qaytdilar (129-bet). (Jaloliddinning) zamon balo maskanidan qo'zg'agan fitna g'uborini bostirish uchun mardlik maydonida javlon urgisi hamda charxi falakning gardishida aql-farosat (ila ish tutib) ustunlik qilgisi kelardi. Biroq zamon kechmishlaridan xabardorlar va haqiqat dengizi g'avvoslari bilsinlarki, er yigitdan baxt yuz o'g'irsa, uning qayta kelishiga ko'z tutmoq befoydadir.

(130-bet) Ana shunday vaziyatda sulton Jaloliddin, mo'g'ul lashkari Iroq sari yuzlanganini eshitgach, Manqishloq (tomon) bordi. U yerlarda qo'lga kiritilgan otlarni yig'ib, (bu haqda xabar qilish uchun) xushxabar yetkazuvchilarni (Gurganch)ga jo'natdi. Uning ukalari – O'zloqshoh, u otasining o'rnida valiahd edi (131-bet) va Oqshoh, shuningdek, ayon amirlardan Buchi Pahlavon, O'zloqshohning tog'asi Kuchoytegin, O'g'ul Hojib va Temur Malik to'qson ming muhojir yigitlar bilan Xorazm (Gurganj)da turardilar...

Agar eng kuchli tayanch va eng talabchan sanalmish sulton Jaloliddin sulton bo'lsa, har kimga aniq bir martaba belgilardi va u kishi undan nariga qadam qo'yaolmagan bo'lardi... (132-bet). Lashkarining aksari qismi, oddiy xalq va zodagonlarniing ko'pchiligi sulton (Jaloliddin) tomonga moyil bo'lganliklari sababli, hayotning achchiq-chuchugini totigan oqil xos kishilar

ham uning xizmatiga rag'bat bildirdilar va u tomonga oshiqdilar. Aka-ukalar o'rtasida mustahkam shartnoma va kuchli ahd-paymon mavjudligiga qaramay, shum niyatli amirlar hiyla bilan Jaloliddinni yo'q qilmoq rejasini tuzdilar. Ularning ichidan bir kishi sultonni ul ahvol haqida xabardor qildi. Sulton ul nobakorlarning shunday (og'ir) paytda hamjihat va ittifoq bo'lish o'rniga, yovuz niyatni ko'zlaganini bilgach, qulay bir fursatdan foydalanishga kirishdi va Xorazm taxtini tark etdi va Niso yo'li orqali Shodyox tomon yurdi. Ustuvoga yetganida Shoyiqon tepaligida totor lashkariga to'qnash kelib qoldi va ozgina qo'shini bilan bir necha soat davomida ularga qarshi jang qildi, ularning ketma-ket yopirilib qilgan hamlalarini kechgacha qaytarib turdi (133-bet). Tunda ularning orasidan chiqib ketishga muayassar bo'ldi.

(44) Sulton Jaloliddin Shodiyoxga yetib kelgach, ikki-uch kun yo'lga o'tlanmoqqa hozirlandi va, nihoyat, yarim tunda uchar yulduz misoli chaqnab tavakkal otiga mindi. Olti yuz o'n yettinchi yili o'n beshinchi zulhijjada (1221 yil 10 fevral), otasi unga belgilagan G'aznin tomon yo'l oldi.

Alouddin Atomalik Juvayniy.¹⁷³ Tarixi jahongushoydan (terma tarjimalar) (Jaloliddin Manguberdi T.: Sharq, 1999.)

JALOLIDDINNING FE'L-ATVORI, UNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI, MUHRLARI HAQIDA, SHUNINGDEK, UNING XALIFAGA, BOSHQA DAVLATLAR HUKMDORLARIGA VA AYNI PAYTDA ULARNING SULTONGA NISBATAN MUNOSABATLARI TO'G'RISIDA

(422) U bug'doyrang, o'rta bo'ylik, turkiy qiyofalik va turkiyda gapiradigan odam edi, shu bilan birga forsiyda ham so'zlasha olardi. Uning mardligi, jasurligiga kelsak, yuqorida hikoya qilganim janglardagi faoliyatini eslab o'tishning o'zi

¹⁷³ Alouddin Atomalik Juvayniy – (1226-1283), tarixchi olim va davlat arbobi, Xurosonda tug'ilgan. Mo'g'uliston, O'rta Osiyo hamda Eronning XIII asrdagi ijtimoiy-siyosiy tarixidan hikoya qiluvchi «Tarixi jahonkushoy» (1260) nomli shoh asari bilan shuhrat topgan.

kifoya qiladi. U she'rlar orasida eng zo'r sher edi, qo'rqmas chavandoz, lashkarlar orasida eng botir edi. U yuvosh, muloyim odam edi, jahldor emasdi, haqoratomuz so'zlarni aytmasdi. U nihoyatda jiddiy edi, kulmasdi, faqat jilmayib qo'yardi, kam gapirardi. U haqgo'ylikni, adolatni ulug'lardi, ammo u yashagan davrdagi g'alayonlar, alg'ov-dalg'ovlar fe'l-atvorini o'zgartirdi. U qo'l ostidagi odamlarning og'ir hayotini yengillashtirishni xohlardi, ammo u yashagan davr qonunlari uni zulm qilishga majbur etardi.

Jaloliddin Hindistondan kelganidan keyin xalifaga yo'llagan dastlabki maktublarida, garchi bu paytda Oliy devon bilan uning o'rtasida xuddi otasi davridagidek munosabatlar yaxshi yo'lga qo'yilmagan bo'lsa ham noma oxiriga: "Sizning itoatgo'y xizmatkoringiz sulton Sanjarning o'g'li Manguberdi" degan so'zlarni yozdirardi. Xalifa uni Hilotda paytida sultonlik faxriy kiyimlari bilan siylaganidan keyin, bu haqda oldinroq bayon qilganmiz, Sulton unga yo'llaydigan nomalarida "Sizning qulingiz" deb yozdiradigan bo'ldi. Shu bilan birga unga (xalifaga) murojaati quyidagi so'zlardan iborat bo'lardi: "Bizning muhtaram janobimiz va homiyimizga, Amir al-mo'mininga, musulmlar imomiga, olam hukmdorining elchisi vorisiga, Mashriq va Mag'ribning imomiga, Mo'ayyn ibn G'olib sulolasi-ning eng ulug'iga".

Jaloliddin Alovuddin Qayqubodga, Misr, ash-Shom hukmdorlariga noma yo'llaganda o'zining va otasining nomlarini to'liq yozdirar, o'zini Sulton deb atar edi. Ularda maktublarda bitiladigan odatdagi "xizmatkoringiz", dildan sevuvchi, akangiz va ukangiz kabi so'zlar yozilmasdi.

Uning farmonlari, yorliqlaridagi tamg'asida Yordam faqat yagona Ollohdan degan so'zlar bitilgandi. Agar u Mo'sul hukmdori Badriddin yoki shu kabilar bilan yozishmalar olib boradigan bo'lsa yuqoridagi so'zlar chiroyli qilib bitilgan tamg'asini

bosardi. Tamgʻadagi soʻzlar chiroyli bitilishi uchun qalam uchi ikkiga ajratilgan boʻlib, bunda yozilgan harflar yirik koʻrinardi.

U Hindistondan qaytib kelgan paytlarda xalifa unga yoʻllagan dastlabki nomalarida Muhtaram janob xoqon! (al-janob ar-rafi al-Xoqoni) deb murojaat qilgandi. Jaloliddin ulardan oʻziga doimo faqat Sul-ton deb murojaat qilishlarini iltimos etardi. Ammo Oliy devondagilar uning bu iltimosini qabul qilmadilar. Chunki undan oldin oʻtgan birorta ulugʻ hukmdorga bunday murojaat etilmagandi. Jaloliddin buni talab qilib turib olganidan keyin xalifa uni faxriy kiyimlar bilan taqdirlaganidan soʻng Muhtaram janob shohanshoh! (al-janob al-ali ash-shaxinshoh) unvonini ham berib, unga shu unvon bilan murojaat qila boshladi.

U olti yuz yigirma sakkizinchi yil shavvol (1231 yil avgust oyi)ning oʻrtasida halok boʻldi. Bu nihoyatda ogʻir yoʻqotish, baxtsizlik edi. Bunday yoʻqotishdan agar tong shafagʻi oʻzining qontalash yopinchigʻini yirtsa, oy yuzini yulib, bagʻrini dogʻ qilsa, samo azalik kiyimini kiysa, yulduzlar yonib kulga aylansa arzirdi. Negaki, bu ularni shunday kuylarga solishga arziydigan eng ogʻir musibat, fojia» edi.

*Shihobiddin Muhammad an-Nasaviy*¹⁷⁴. *Sulton Jaloliddin Manguberdi*. T.: Oʻzbekiston, Yozuvchi, 1999.

JALOLIDDIN GʻAZNAGA QAYTIB KELGANDAN KEYINGI VOQEALAR BAYONI

(151) Jaloliddinga Gʻaznadan chiqayotgan paytda ogʻriq qattiq azob berardi. Bu ahvolda u taxtiravonda oʻtirib borolmasdi. Shu sababli u qattiq ogʻriq va ogʻir azobga chidagan holda otga mindi. Va bu ahvol unga dori-darmon berib, toʻla

¹⁷⁴ Shihobiddin Muhammad an-Nasaviy – (? – 1249), tarixchi. 1224 yildan Jaloliddin Manguberding shaxsiy kotibi boʻlgan, uning harbiy yurishlarida qatnashgan. «Siyrat as-sulton Jaloliddin Manguberdi» («Sulton Jaloliddin Manguberding hayoti tafsiloti») nomli asar muallifi.

sog'aygunicha davom edi. Bu paytda unga Chingizxon qo'shinlarining xirovuli Gardizda to'xtaganligi haqidagi xabar yetdi. Shunda Jaloliddin tunda otiga mindi va erta tongda mo'ljallangan yerga yetib kelib Ollohga shukronalar aytdi. U Ollohning rahnamoligi va ato qilgan kuch-qudratiga tayanib Gardizdagi qo'shinlarning xirovuliga kutilmaganda hujum qildi. Uning bu ishining amalga oshishiga tuyog'idan chaqin sachratgan otlar yordam berdi, o'zini va qo'shinini ham chaqqon tulporlar, tun qorong'uligi asradi. Bu haqda (Chingizxon) eshitganida uni qo'rquv bosdi, g'alabaga ishonchini yo'qotdi. U tezlik bilan yo'lga tushdi, hech narsaga e'tibor bermasdan belgilangan masofani bosib o'tdi. Jaloliddin Sind daryosi bo'yidagi qarorgohiga yetib keldi. Biroq unga qilmoqchi bo'lgan ishlarini - ketgan, qo'shinlarini qaytarish va daryodan suzib o'tadigan kemalarni tayyorlash uchun vaqt yetishmadi. Kemalardan bittasigina yetib keldi. U bu kemada onasini, xotinini va uning himoyasi ostida yashaydiganlarni narigi qirg'oqqa olib o'tishga buyruq berdi. Biroq kema ishdan chiqqan va narigi qirg'oqqa o'tish imkoni qolmagandi. Shu payt jangga hozir bo'lgan Chingizxon yetib keldi. "Qachon Olloh biron qavmga yomonlik balo yuborishni iroda qilsa, (152) bas uni qaytarib bo'lmas. Va ular uchun undan o'zga hokim yo'qdir»

Shihobiddin Muhammad an-Nasaviy. Sulton Jaloliddin Manguberdi. T.: O'zbekiston, Yozuvchi, 1999.

**JALOLIDDIN VA CHINGIZXON O'RTASIDA SIND
DARYOSI BO'YIDA BO'LIB O'TGAN ENG OG'IR HAMDA
JUDA KO'P G'AM-KULFATLAR KELTIRGAN
DAHSHATLI JANG BAYONI**

(153) Chingizxon Sind daryosi qirg'og'iga Jaloliddin o'z oldiga qo'ygan maqsadga erishmasdan ajralib ketgan amirlarini qaytarib olib kelmasdan avval yetib keldi. Otliq lashkarlar birbirlariga tashlandilar, mardlar jang maydoniga kirdilar va kun

bo'yi beayov olishdilar. Shundan keyin 618 yil shavvolining sakkizinchi kuni, chorshanba tongi otdi. Ikki tomon bir-biriga yuzma-yuz kelib, jang qildilar. Lekin Jaloliddin ularga safini tark etgan lashkarlardan keyin oz sonli qo'shin bilan ro'baro' bo'ldi.

Or-nomusdan, alamlardan pora-pora bo'lgan bu yurak,
Turar edi osiy misoli. Yo undan ham yovqur, battarroq.

(154) Keyin u Chingizxon qo'shinining markaziga hujum qildi, ularni bir necha bo'laklarga ajratib tashlab o'ziga yo'l ochdi. Totorlar shikastlangan holda qocha boshladilar, u holdan toygan, himoyaga muhtoj, o'zini xalos qilishga intilganlarni quvishga tushdi. Totorlar deyarli o'rab olingandi, mag'lubiyat do'zax olovi singari totorlar qo'shini ustiga yopirilgandi. Biroq u jangdan oldin bahodir laqabini olgan, saralangan o'n ming otliq lashkarlarini pistirmaga qo'ygan edi. Ular pistirmadan chiqib Jaloliddinning o'ng tomoniga, Amin Malik¹⁷⁵ lashkarlariga hujum qildi. Ularni yengib, markazga tomon surib tashladi. Shundan so'ng jangovor saf buzildi, uning qat'iyatiga putur yetdi. Jang maydonda ko'plab o'liklar, qoniga bo'yalgan yaradorlar qolishi, daryoga cho'kkanlar fojiasi bilan yakunlandi. Lashkarlardan biri daryo bo'yiga keldi va cho'kishini bilgani holda, xalos bo'lishning boshqa yo'li yo'qligini anglab uning bag'riga o'zini otdi. Jang paytida Jaloliddinning yetti yoki sakkiz yoshli o'g'li asirga tushib qoldi. U Chingizxon ko'z o'ngida qatl etildi. Jaloliddin holdan toygan holda Sind daryosi bo'yiga keldi, shunda u onasi, xotini (qatl etilgan o'g'lining onasi) va haramidagi boshqa ayollarning: Oллоh nomi bilan sendan yolvorib so'raymiz, bizlarni o'ldir va shu tariqa asir tushishdan qutqar! degan ayanchli faryodlarini eshitdi. Shunda u buyruq berdi, ularning hammasi daryoga cho'ktirildi. Haqiqatdan ham, bu ko'z ko'rib, quloq eshitmagan baxtsizlik, og'ir qayg'u edi.

Jaloliddin qo'shinini tark etib ketgan xalajlar taqdiri ham og'ir kechdi. Chingizxon Jaloliddinni mag'lub qilganidan keyin

¹⁷⁵ Amin Malik – Jaloliddinning lashkarboshilaridan biri.

ularni tog' tepasidan, cho'qqilaridan tushishga, o'rmonlar bag'ridan chiqishga, daralarni tark etishga majbur qildi. A'zam Malik Darvoz qal'asiga kirib panoq topdi. Qal'ani totorlar qo'lga kiritguncha qamal qilib yotdi, oxir-oqibatda u ham bosib olindi va bu ham boshqalarning ahvoliga tushdi.

Ko'rinishidan yoqimtoy, ko'ngli ochiqligi bilan shuhrat qozongan, nasl-nasabi ulug' zotlardan bo'lgan Nasa amidi Diyoulmulk Aloiddin Muhammad ibn Maudud menga hikoya qilib bergandi: "Men o'zimni daryoga tashladim. Suzishni bilmasdim. Cho'ka boshladim va o'limim yaqin edi. (155) Hayqirib oqayotgan suvning domiga tushganimda burduq osgan bir bolani ko'rib qoldim. Uning burdug'ini olib, o'zini cho'ktirishga intilib qo'limni cho'zdim. Shunda u menga: Agar meni o'ldirmay suvdan xalos bo'laman desangiz, menga osilib oling, sizni qirg'oqqa olib chiqaman, dedi. Men u aytganday qildim va o'limdan xalos bo'ldik. Shundan keyin men uni qilgan ishi uchun taqdirlash maqsadida ko'p joydan izladim, ammo topa olmadim. Bundaylar yordamida omon qolganlar ko'p bo'lmasa ham bor edi".

Shihobiddin Muhammad an-Nasaviy. Sulton Jaloliddin Manguberdi. T.: O'zbekiton, Yozuvchi, 1999.

JALOLIDDINNING SIND DARYOSIDAN O'TISHI VA 619 YIL VOQEALARI BAYONI

(156) Jaloliddin Sind daryosi qirg'og'iga kelganda ortda biror himoyalangan nuqta qolmagan, atrofida esa o'lim quchog'ini ochib turardi. U orqasida yalang'ochlangan qilichlarni, oldinda esa to'lib-toshib oqayotgan daryoni ko'rdi. Va bor bo'yi, qurol-yarog'i bilan otini suvga niqtadi. U ot bilan birga Ollohning inoyati tufayli, uning himoyasida katta daryoni suzib o'tdi. Bu ot

unga Tiflis¹⁷⁶ni bosib olguncha xizmat qildi va shundan keyin u minishdan ozod qilindi.

Daryoning narigi qirg'og'ida uning qo'shinidan omon qilgan 4 ming lashkar bor edi. Ular xuddi qabrdan chiqarib olinib bir joyga to'planganday yalang'och va oyoqyalang turardilar. Ular orasida uch yuz otliq ham bor edi. Ular sarkardalar Qulbars Bahodir, Kabkux va Sa'daddin Ali ash-Sharobdor boshchiligida daryoni kesib o'tayotganda to'lqinlar bag'rida oqib ketib, uzoqlarga borib daryodin chiqqan, uch kundan beri Jaloliddinni izlashardi. Odamlar uning (Jaloliddinning) omon qolganini bilmas, shu uchun nima qilishini bilmay, go'yo ovchi chavandozlar qamrovidagi ohularday yoki bo'rilar to'dasi o'rab olgan, cho'ponsiz qolgan podaday izg'ishardi. Jaloliddin ular safiga kelib qo'shilgunga qadar ahvol Shunday davom etdi. Ular uni xuddi bayramni kutgandek xurramlik bilan qarshiladilar. Go'yo ular onadan qayta dunyoga kelgandek xursand edilar.

Shihobiddin Muhammad an-Nasaviy. Sul-ton Jaloliddin Manguberdi. T.: O'zbekiston, Yozuvchi, 1999.

**CHIG'ATOYXON IBN SOHIBQIRONI A'ZAM
CHINGIZXONI MUZZAM PODSHOHLIGI SALTANATI
ZIKRINING VA AVLODU AHFODI, AQRABOLARINING
TURONZAMIN MAMLAKATLARIDA PODSHOHLIK VA
SHAHRIYORLIK QILISH BAYONI**

(296) Tavorix roviylari xabar beradilarki, Chingiziy najod xonlari shahzoda Chig'atoy ulusi¹⁷⁷dan xonlik taxti va

¹⁷⁶ Tiflis – hozirgi Gruziyani poytaxti bo'lmish Tbilisi shahri. Jaloliddin bu shaharni 1225 yilda bosib olgan.

¹⁷⁷ Chig'atoy ulusi – Chingizxon tomonidan 2-o'g'li Chig'atoy va uning merosxo'rlariga hukmronlik uchun berilgan (1224) hududning nomi. Chig'atoy ulusi Qashqar, Ettisuv va Movarounnahr yerlarini o'z ichiga qamrab olgan. XIV asr o'rtalarida Chig'atoy ulusi parchalanib, ulusning Sharqiy qismi – Sharqiy Turkiston va Ettisuvda turk va mo'g'ul qabilalarini o'z ichiga olgan Mo'g'uliston davlati tashkil topadi. Tug'luq Temur Mo'g'uliston xoni qilib ko'tariladi. Chig'atoy ulusining g'arbiy qismida 1370 y. Amir Temur saltanati vujudga keladi. Sohobqiron taxtga chingiziylardan bo'lgan Suyurg'atmishxon (1370 – 88),

jahonbonlik saririga o'ltirganlar. Ularning adadi ushbu (297) nusxa iqtibos topayotgan davrda 28 nafarga yetgan edi. Bekamu besh. Birinchi xon Chig'atoyxon ibn Chingizxon Mamlakat oluvchilar xabarlarining rivoyat qiluvchilari, sohibqiron asarlarining noqillari shunday tarannum etadilar. ...

Aytadilarki, Chig'atoyxon¹⁷⁸ sohibshavkat va oliyhimmat. Kayvon darajali, Bahrom savlatli podshoh bo'lgan. Serhaybat va sersiyosatlilik bilan orasta, saltanat ishlarining nozik tomonlaridan xabardorlikda piyrosta edi. Yasoq va turada boshqa aka-ukalaridan yuqori turardi. Sohibqironi a'zam Chingizxoni muazzam mamlakatlarni taqsimlash paytida Turonzamin mamlakati hokimligini Qoshg'ar sarhadlaridan uyg'urlar yer chegarasigacha, Jayhun daryosi adog'igacha yastangan yerlar, Eron va Turon oralig'idagi Balx, Badaxshon, Qobul, G'aznin, Sind daryosigacha bo'lgan yerlarning ko'p qismini shu sevimli farzandiga berdi. Uni mamlakat, sipohiylar bilan siylab, ularni (boshqarishni) amakilari urug'idan bo'lgan Qorachor no'yon ibn So'g'u Chechan ibn Erumchi barlos ibn Qochuvli bahodir ibn Tumunaxonga (v. 165^a.) topshirdi. ...

Chig'atoy Qorachor no'yonga qanchalik yumush buyurmasin, shunchalik Chig'atoy oldidagi Qorachor no'yonning qadnamoligi ham bor edi. Shu jihatdan Chig'atoyxon otasi vasiyatiga ko'ra, uning ruhsatisiz, maslahatisiz biror tadbirga kirishmas edi. Uning murodi yulduzi nomdor hukmdor ihtiyori ufqidan boshqa joyda ko'rinmas edi. Chig'atoyxon Sohibqiron Chingiz farmoniga muvofiq sulh ishi jangu jadal – har bir ish bo'yicha Qorachor no'yondan yordam olardi. Shu ravshan ruhli ishbilarmon no'yon tartibu afzalligi saodatidan Chig'atoyxon farzonalik va farosat kamoli, mardonalik va oliyjanoblikka boy bo'lishda zamon yagonasiga, o'sha diyor sultonlarining

Sulton Mahmudxon (1388–1404)larni rasman xon qilib ko'tarib, hatto ularning nomidan yorliqlar chiqartirib, pullar zarb ettirgan.

¹⁷⁸ Chig'atoyxon – Chig'atoy ulusi hukmdori (1224–42). Chingizxonning 2-o'g'li.

peshvosiga aylandi. Chig'atoyxon saltanatining poytaxti Beshbalig' edi. Mo'g'ul tilida balig' deb shaharni aytadilar.

Yarg'u va yasoq marosimlarini tutishda g'ayrat ko'rsatardi. Uning barcha tartib qoidalariga rioya qilishda mubolag'a qilmoqni vojib deb bilardi. Biror so'zini ham o'tkazib yubormasdi. To nortuyani qanday asrashgacha hukm qilgan edi. Masalan, bahor, yoz faslida hech kim suvda cho'milmasligi va anhorda qo'l yuvmasligi. Oltin va nuqra idishda anhordan suv olmagaylar. Kiyimni yuvib, yana sahroga tashlamagaylar. Bular (ra'iyat) g'azabiga sabab bo'lardi. Zero, bu qiliqlar ko'p chaqmoq va gulduraklarga olib kelardi. Ular mavze va manzillarida (v.165^b.) bahor boshlaridan yoz oxirlarigacha ko'pincha yomg'ir yog'ardi. ...Siyosat va mahobat qoidalarining joriy etilishida shu darajada mubolag'a qilindiki, uning diyori nohiyalaridan va sanoqsiz lashkari yaqinidan hech bir yo'lovchiga yo'riq beradigan qorovulning ehtiyoji bo'lmay qoldi.

Amir Qorachor no'yonning O'qtoy qoon¹⁷⁹ bilan birga olib borgan husni tadbirlari natijalaridan doimo asosli va mulohazali yo'riq amalda bo'ldi. Og'a-inichilik va adolat munosabatini yagonalik, ittifoqlik martabasiga yetkazdi. Og'a-inilar ko'proq birga bo'lar edilar. Turmush va hayot bisoti, komronlik nishotini birgalikda kechirar edilar Baxtiyorlik so'zidan xush qulog'iga bir navo eshitilardi. Ular ittifoqligi barakotidan davlat ishi, mamlakat yumushlari intizom va tartib topdi. Xonlik rasm-rusumlari, davlat yuritish qoidalari barqaror va mustahkam bo'la bordi. ...

Aytadilarki, Chig'atoyxon ayshu ishrat va ovni juda sevgan. Ko'pincha vaqtini o'sha ishlarga sarf etgan. Amir Qorachor no'yon davlat boshqarish, shahriyorlik asosi – saltanat ishlari tadbiri va mamlakat tashvishlari bilan mashg'ul bo'lgan. Ra'iyat va lashkar ehtiyojlarini qoyil qilib ta'minlagan.

¹⁷⁹ O'qtoy qoon (xoqon) – Ugedey (1186-1241), Chingizxonning 3-o'g'li. Mo'g'ullar davlati ulug' xoqoni (1229-1241).

(299)O'sha zamonda ruy bergan g'aroyib voqealar va ajoyib ishlardan Mahmud Torobiy¹⁸⁰ xuruji ediki, u turklarning tovushqon yiliga muvofiq sanayi 630 yilda foxira shahar Buxorodan uch farsah (masofa) da joylashgan Torob qishlog'ida (v. 166^a.) ro'y berdi. ...

Makru hiyla bilan zo'hdu ibodat tariqini tutdi. Jinsiylar mening atrofimga yig'ilsin va mening amru-farmonimdan chiqmasin, deb da'vo qildi. Bu so'zlar omma og'ziga tushdiyu, tuzalmas qo'yanchiq va boshqa kasallari bo'lganlar uning huzuriga kela boshladilar. Tasodif bo'lib bir-ikki (kasal)ga tangri taolo shifo ham berdi. Boshqa ko'p sabablar bo'lib, uning shuhrati ortdi. Shu tufayli juda ko'p xaloyiq unga intilib atrofiga ko'p xalq yig'ildi va uning mulozimiga aylandilar. Kundan-kun uning jamoasi ziyoda bo'la bordi. Bundan o'sha atrofda yashaydigan dorug'a, amirlar, hokimlari xavfga tushib qoldilar. Ov qushi bilan Mahmudbek ibn Sohob Yalavoch huzuriga xabar yo'lladilar. O'zlari esa (Mahmud Torobiyga) ixlos va e'tiqod qo'yganlar suratiga kirib, Shayx Mahmud Torobiyini ko'rish uchun yo'lga tushdilar va iltimos qildilarki, «zora shayx qadamlarining, barakoti shaharga ham yetsa, shaharning notavon, o'jiz xalqi ham shayx qadamlari saodatidan bahramand bo'lsa». Shu bahona bilan uni Torobdan olib chiqdilar va Buxoro shahri sari yo'naldilar. Yo'llaridagi Saripulga (ko'prikka) yetganlaridan keyin uni biryoqlik qilmoq niyatida edilar va shu bilan undan xotirjam bo'lmoqchi edilar. Torobiy farosati bilan bu shum niyatlarini payqadi va o'sha quloq boshiga yaqinlashishlari bilan u dorug'aga dedi: «Botil niyatingni dumog'ingdan chiqarib tashla, aks holda oramizdagi bir odam sening ko'zlarini o'yib olish payidadirlar. Dorug'a va amirlar xotirlaridagi qasd qilishni birovga aytmagan edilar. Shu tufayli bu so'zlarni eshitib, qo'rqib ketdilar va niyatlarini amalga oshirolmadilar.

¹⁸⁰ Mahmud Torobiy – Buxoroda mo'g'ullar zulmiga qarshi ko'tarilgan qo'zg'olon (1238 y.) rahbari.

Shayx Mahmud Torobiy shaharga sogʻ-salomat yetdi va hovlisiga kirdi. Xaloyiq shu darajada uning manziliga yopirilib kela boshladiki, biror huzuriga kirgan kishi darvozadan chiqishi mushkul boʻlib qoldi. Izdihom haddidan oshavergandan keyin, odamlar ul tabarruk zotni koʻrmay qaytib ketmadilar. Shayx oʻz muxlislari koʻngliga tasalli bermoq uchun har zamonda (v. 166^b.) tomga chiqib, ogʻziga suv olib, ularga qarata purkarʻdi. Kinga (300) undan biror qatra kelib tegsa, xursand va xushdil boʻlib qaytib ketardi. Dorugʻa va amirlar fursat topib, uni biryoqlik qilib, oʻrtadan yoʻqotmoqqa qanchalik urinmasinlar, avomning koʻpligi va izdihom bilan atrof tevarakdan odamlarning oqib kelib toʻplanishi, shu mahallada uni oʻrab olganliklaridan hech bir niyatlariga muyassar boʻla olmadilar. Shayx Torobiy joniga amirlarning qasd qilmoqchi boʻlganliklaridan xabar topib, yashirincha bir oʻzi boshqa eshikdan chiqib, u yerda turgan otga mina solib, jilovini boʻsh qoʻyib choptirib ketdi. Kelib, bir baland tepalik ustiga chiqib, kutib turdi. Xalq, shayxning shaharda yoʻqligidan xabar topdi. Avom xalq, shovqin koʻtarib, shayx parvoz qilib uydan chiqib ketgan, dedilar. Xalqning kutishga toqatlari boʻlmay, shaharning butun aholisi tashqariga otilib chiqib, uning atrofiga jam boʻldilar. Shomgʻa yaqin u yigʻilgan jamoatchilikka dedi: «Ey haq toliblari, qachongacha kutamiz va intizorlik tortamiz. Roʻyi zaminni (tangridan) qoʻrqmaydiganlardan pok qilmoq lozim. Kimning qanday qurolga qurbi etsa, qilichmi, oʻq-yoymi, kaltakmi qoʻlga olsin. Qoʻlidan kelgancha (tangridan) qoʻrqmaydiganlardan birortasini ham qoʻymaslik lozim. Shundan soʻng xalq, qurollanib va mukammal boʻlib, shayxni shaharga olib keldilar. Dorugʻa va amirlar qochib ketdilar. Keyingi juma kuni Shayx Mahmud Torobiy nomiga xutba oʻqitdilar. Imomlar va Buxoro akobirlarining barchasi shunda hozir qilindi. Ularning baʼzilarini oʻldirdi, baʼzilarini esa sazoyi qildi. Rind va avboshlarning barchasini katta ehtirom bilan qabul qildi, ularga dedi: «Sizlar uchun gʻoyibdan qurol-

yarog' topishga muyassar bo'ldim!» O'sha kunlarda Sheroz tomondan bir karvon keldi va to'rt xarvor shamshir olib kelishdi. Bu ham odamlar sonining ko'payishi va e'tiqodiga sabab bo'ldi. (Mahmud Torobiy) ularga amirlarning chodirlaridan va xirgohlaridan va asbob-uskunalaridan keltirishni buyurdi. Butun salatanatni dabdabayu hasham bilan uning oldiga keltirdilar. Butun hashamat bilan uni o'tkazdilar. Yig'ilganlardan to'la lashkar tartib berildi. Bebosh odamlar va avom (v.167^a) xalq boylarning hovlilariga kirib oldilar. Xohlaganlarga u yerlardan narsa olib, Shayx Mahmud Torobiy huzuriga ko'tarib keldilar. U bo'lsa (keltirilgan mollarni) lashkarga bo'lishib berdi.

Dorug'a va amirlar borgan joylaridan mo'g'ul fiqqalaridan katta qo'shin to'plab, shaharga qarab yurdilar. Shayx Mahmud Torobiy ham o'z tobelari va odamlarini jangga boshladi, shahar tashqarisiga olib chiqdi. Har ikki lashkar ikki tomonda saf tortib savash bozori qiziganda, Shayx (301) Mahmud Torobiyning boshdan-oyoq takabburlik va aldovdan iborat bo'lgan karomatlarini ovozasidan jiddiy jang qilmadilar.

Ammo nogoh qazo kamondori shastidan jon oluvchi o'qqadar novaki Shayx Mahmud Torobiy qatli uchun yetib kelib tegdi. U yiqilib, jon berdi. Uning o'limidan hech kim voqif bo'lmadi. Zero, o'sha hangomda qattiq shamol qo'zg'olib, ulkan to'zon paydo bo'ldi. Chunonchi, odamlar bir-birovini hech bir ko'rmay qoldilar. Mo'g'ul lashkari buni Shayxning karomatiga yo'yib, jang qilishdan yuz o'girdilar; Torobiy odamlari ularning payidan tushdilar. Tangri xalqidan qariyb o'n ming nafar kishi o'ldirildi. Shayx odamlari qatl etish va talon-tarojdan qo'l tortganlarida, o'z Shayxlaridan nomu nishon topmadilar. «Shayximiz g'oyib bo'libdi. Biz odamlarning ko'zidan g'oyib bo'lmoqni istabdilar. Shayx qaytib kelgunlaricha u kishining inilarini Shayx o'rniga qoyim-maqom qilurmiz, deb Muhammad Ali degan (ukasi)ni Shayxning qoyil-maqomi qildilar. Barcha avom va bebosh odamlar ul kishiga tobelik kamarini jonlari beliga bog'ladilar va

(duoga) qo‘l ko‘tardilar. So‘ng ko‘ngillariga nima kelsa qila boshladilar, ne aytgilari kelsa, aytdilar. Buning xabarini Buxoro amirlari Xo‘jandda turgan Mahmudbek ibn Sohibi Yalavoch Buxoriyga jo‘natgan edilar. Xabar Xo‘jandga yetdi. Mahmudbek ibn Sohibi Yalavoch Buxoriy bo‘lgan gaplarni Qorachor no‘yonga yetkazdi. Uning farmoniga binoan Elduz no‘yon va Chag‘an ko‘rchi hisobsiz lashkar bilan bu fitnani daf qilmoqqa azm etdilar va yo‘lga tushdilar.

Ul gumrohlar (ya‘ni Shayx Mahmud qo‘zg‘olonchilari) hokimiyatni qo‘lga olganlaridan bir hafta o‘tgandan va fasod qo‘llarini ishga solganlaridan keyin mo‘g‘ul lashkari (v.167^b.) Buxoro shahariga yaqinlashdi. Shayx Torobiyning ukalari barcha tobelari va yaqinlarini yana ilgarigidek shahardan tashqariga olib chiqdilar, jangga shaylanib turdilar. Jasorat bilan jangga tashlandilar. Har ikki tomondan ozmi-ko‘pmi yigirma bir ming kishi qatl etildi. Torobiyning ukalari ham nobud bo‘ldilar. Bittayarimta tirik qolganlari pana joylarga qochib berkindilar. O‘sha qiyomat-qoyim urush paysal topdi. Lekin mo‘g‘ul lashkari Buxoro xalqini g‘orat qilishga tama tishini qayrab olgan edi. Buxoro ahliga yangidan qo‘l cho‘zmoqchi bo‘ldilar. Tangri lutfi (Buxoro ahli) dodiga yetib, bir to‘da Buxoro buzurlari xizmatga bel bog‘lab, turli nozu ne‘mat va (oltinlarni) nisor etish uchun chiqib keldilar va (mo‘g‘ul) sipohining kalontarlari bo‘lmish Elduz no‘yon va Chag‘an ko‘rchi yoniga kelib, ulardan so‘radilarki, «Bu darajadagi qatlu g‘oratni to‘xtatinglar. Bo‘lgan voqealarning ahvolini Amir Qorachor no‘yonga (302) yetkazurmiz. Qanday farmon beriladigan bo‘lsa, lashkarlar shunga amal qilishsin!» Barcha amirlar bu gapga rozi bo‘ldilar. Voqea mazmunini bir yalavoch orqali jo‘natdilar. Amirlar va lashkar ahli albatta javob to‘raga muvofiq bo‘lishiga umid bog‘lab, xizmatlariga ketdilar va (Buxoroni) xarob qilishdan qo‘llarini tiydilar.

Arznoma mazkur marhamatli no‘yonga yetgandan keyin Buxoro aholisining jarima sahifasiga afv raqamini chekdi va

Chig'atoyxonning yorlig'ini jo'natdi. Unda lashkar ahlining qaytib ketishi, Buxoro shahri aholisining qatl, talon-taroj qilinishiga aslo va qat'iy kirishmasliklari lozim.

Tosh, suv va yag'modan qo'llarini tiyishlari lozim, deyilgandi.

Ul nomdor no'yonning kifoyatli saodati va himoyatidan Buxoro hamda uning nohiyalari aholisi, ziyolilari, avomu yo'qsullari ham Torobiyalar fasodidan, ham mo'g'ul lashkarining qatlu torojidan xalos bo'ldilar. ...

Shahzoda Chig'atoyxon saltanatining ayyomi tamom bo'lganda va oliy sha'n xoqon hayoti muddati zamon to'shagini oxiriga tortib keltirganda, mizoji sihat va istiqomat holidan (v. 168^a.) bo'lmay, jasadi rohat bistarida o'lim marazidan istirohat ko'rdi. O'z hayotidan umid rishtasini uzdi. Amir Qorachor no'yonni vasiy qilib, farzandlarini tamoman unga topshirdi. Umid xonasini dunyoviy murodlar bilan bezadi va joni uzildi.

Aytadilarki, turkiylarning ud yiliga muvofiq sanayi 738-yil zulqa'da oyida O'qtoy qoon vafotidan yetti oy oldin Chig'atoyxon vafot etdi. Nazm (mazmuni): Ajal oldida o'lmakdan bo'lak kishida chora yo'q, uning qarshisida Talxayu xoqon birdir. Jahon hayoti rasm-rusumi shundaydir, tirik zod ajali yetsa o'ladi. Kishi unga «yo'q-yo'q» deya olmagay, qachon kelsa o'sha dam uning uchun damdir.

Undan keyin oliys ha'n xon avlodu qarindoshi, aqrabolaridan ozmi ko'pmi o'ttiz nafari Turon mamlakatlari shaharlarida saltanat va xoqonlik sariri, jahonbonlik qoidalari taxtida o'ltirganlar. Uning o'n bir o'g'li bo'lgan. Ammo vafot etayotgan vaqtida o'n nafar o'g'li hayot edi. O'lgan o'g'lining nomi Boyqon bo'lgan. Qolganlariniki esa Yasu Munko, Manukon, Boydor, Sorbon, To'lqon, Bo'zi, Bo'lkon Nuri, Komkor, To'quzarxon.

(303) Ikkinchi (xon) Qora Halokuxon ibn Boyqon ibn Chig'atoyxondir.

Ulug'bek Mirzo. To'rt ulus tarixi. Ahmedov B.ning kirish so'zi, izohlari va tahririda. T.: Cho'lpon, 1993.

O'NINCHI BO'LIM

AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRIDA O'ZBEK DAVLATCHILIGI. IJTIMOIY – SIYOSIY IQTISODIY VA MADANIY HAYOT

Amir Temur¹⁸¹ va temuriylar davri¹⁸² o'zbek davlatchiligi tarixida alohida bir bosqich bo'lganligi bilan birga Amir Temurning jahon tarixida tutgan o'rnini beqiyosdir. Shuning uchun ham bu davr tarixiga oid mahalliy va chet el tarixchi va olimlarining asarlari va ma'lumotlari ko'pdir. Ularga quyidagilar kiradi. «Temur tuzuklari» asari «Tuzukoti Temuriy», «Mafluzoti Temuriy» va «Voqeoti Temuriy» nomlari bilan atalib, ushbu asar Amir Temurning hayot yo'li hamda davlat boshqaruvi haqida hikoya qiladi. «Zafarnoma» asarining muallifi Mavlono Nizomiddin Shomiy¹⁸³ bo'lib, u Tabrizning shimoliy-g'arbiy tarafida tug'ilgan. Asar O'rta Osiyo, Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlarining XIV asr II Yarmi va XV asr boshlaridagi ijtimoiy-siyosiy tarixini o'rganishda muhim va ishonchli manbalardan biri hisoblanadi. «Muntaxab ut-tavorixi Mu'iniy» asarining muallifi Mu'iniddin Natanziy¹⁸⁴dir. U Isfahon yaqinida tug'ilgan. Asar 1413 yilda yozib tugatilgan. Kitob umumiy tarix usulida

¹⁸¹ Amir Temur – (1336-1405), o'rta asrning yirik davlat arbobi, buyuk sarkarda, kuchli, markazlashgan davlat asoschisi (1370 y.), ilm-fan va madaniyat homiysi.

¹⁸² Temuriylar davri – o'rta asrlarda sohibqiron Amir Temur asos solgan markazlashgan buyuk saltanatni idora etgan sulola hukmronlik qilgan davr (1370-1507 yy.).

¹⁸³ Mavlono Nizomiddin Shomiy – (?-taxm. 1412), tarixchi olim. Uning «Zafarnoma» asari aniq manbalar va muallif o'z ko'zi bilan ko'rgan voqealar asosida yozilgan.

¹⁸⁴ Mu'iniddin Natanziy – (XIV asr 2-yarmi – XV asr boshi) – eronlik tarixchi olim. Uning fors tilida yozilgan «Muntaxab ut-tavorixi Mu'iniy» («Mu'iniyning saylanma tarixi») nomli asari etib kelgan. Bu asar eng qadimgi zamonlardan Amir Temur vafotigacha bo'lgan davrdagi Markaziy Osiyo va boshqa bir qator o'lkalar tarixiga bag'ishlangan.

yozilgan. Unda Amir Temur vafotigacha musulmon mamlakatlarida yuz bergan voqealar haqida bahs yuritiladi.

«Majma ut-tavorix» yoki «Zubdat ut-tavorix» nomli asar muallifi Hofizi Abru¹⁸⁵ hisoblanib, asl ismi Shahobuddin Abdulloh ibn Lutfulloh ibn Abdurashid al-Havofiy bo'lib, ushbu asarni Boysung'ur Mirzo topshirig'i bilan 1423-1425 yillarda yozgan. Kitob 4 qismdan iborat bo'lib, so'nggi qismida Amir Temur tarixi, Xuroson, Movarounnahrning 1427 yilgacha bo'lgan ijtimoiy – siyosiy ahvoli bayon etilgan. «Tarixnoma» yoki «Zayli Zafarnoma» («Zafarnomaga qo'shimcha») deb ataladigan tarixiy asar muallifi Xo'ja Tojiddin as-Salmoniy¹⁸⁶dir. Mazkur asarda 1404-1409 yillar tarixi, ya'ni Amir Temurning Xitoyga yurishining boshlanishi, uning vafotidan keyingi og'ir ahvol tasvir etiladi.

«Zafarnomayi Temuriy», «Fathnomayi Sohibqironiy», «Tarixi Jahonkushoyi Temuriy» yoki «Zafarnoma» nomlari bilan mashhur bo'lgan asarning muallifi Sharafiddin Ali Yazdiy¹⁸⁷dir. Asarda Mo'g'ul imperiyasining tarkibida tashkil topgan Oltin O'rda, Ilxoniylar davlati, Chig'atoy Ulusi, Shuningdek, Movarounnahrning Chingizxon tomonidan istilo etilishidan to Amir Temur davlatining paydo bo'lishigacha bo'lgan ijtimoiy-siyosiy tarixi qisqa tarzda yoritilib berilgan. «Ulushi arba'-yi Chingiziy» yohud «Tarixi arba' ulus» nomli asari muallifi buyuk olim va davlat arbobi Mirzo Ulug'bekdir. Asar umumiy tarix uslubida yozilgan bo'lib, unda XIII–XIV asrlarda Mo'g'ul imperiyasi tarkibiga kirgan mamlakatlarning ijtimoiy-siyosiy tarixi muxtasar bayon qilingan.

¹⁸⁵ Hofizi Abru – (?-1430), tarixchi olim, Amir Temur va Shoxruh Mirzo saroyida xizmat qilgan. Uning «Zubdat ut-tavorix» asarida Movarounnahr va Xurosonning 1427 yilgacha kechgan ijtimoiy-siyosiy ahvoli aks etgan.

¹⁸⁶ Xo'ja Tojiddin as-Salmoniy – tarixchi olim, uning «Tarixnoma» asarida 1404-1409 yil voqealari bayon qilingan.

¹⁸⁷ Sharafiddin Ali Yazdiy – (? -1454), temuriylar davri mashhur tarixnavisi, mashhur «Zafarnoma» asarining muallifi.

«Matla' us-sa'dayn va majma' ul-bahrayn» («Ikki saodatli yulduzning chiqish joyi va ikki azim daryoning qo'shilish yeri») nomli yirik tarixiy asar muallifi o'z davrining yirik diplomati va tarixchi olimi Abdurazzoq ibn Samarqandiy (1413-1482)dir. «Ravzat us-safo» («Sof jannat bog'i») yoki «Ravzat us-safo fi siyrat al-anbiyo va-l-muluk va-l-xulafu» («Payg'ambarlar, podshohlar va xalifalarning tarjimayi holi haqidagi sof jannat bog'i») nomi bilan mashhur bo'lgan asar umumiy tarixga oiddir. Asar muallifi Mir Muxammad ibn Sayid Burxoniddin Xovandshoh ibn Kamoluddin Maxmud al-Balxiy bo'lib, asosan, Mirxond¹⁸⁸ (1433-1497) ismi bilan mashhur. «Vaqoyi'» yohud «Boburnoma» asari. Muallifi Zahiriddin Muhammad Bobur¹⁸⁹ (1483-1530) bo'lib, asarda Farg'ona, Toshkent, Samarqand, Histori Shodmon, Chag'oniyon, Qobul, Hirot hamda Shimoliy Hindistonning XV asr ikkinchi yarmi va XVI asr birinchi o'ttiz yilligidagi ijtimoiy-siyosiy ahvoli batafsil yoritilgan.

AMIR TEMUR PORTRETI

...Afsuski, tarix ilmida ham Amir Temur haqida bir-biriga zid va qarama-qarshi fikrlar, chalkash talqinlar ko'p uchraydi. Shuning uchun ham buyuk ajdodimizning portretini qadimiy manbalarni har tomonlama sinchiklab o'rganib, tarixiy-ilmiy haqiqat asosida yaratish talab qilinar edi. Izlanishlar shuni ko'rsatdiki, Amir Temur davriga oid ba'zi yozma yodgorliklarda u zot haqida yetarli ma'lumotlar mavjud ekan. Jumladan, Amir Temur saroyida yetti yil yashagan mashhur tarixchi Ibn Arabshoh bobomizning surati va siyratini shunday tasvirlaydi:

¹⁸⁸ Mirxond – (1433-1497), tarixchi olim. Ota-bobolari asli buxorolik bo'lib, fiqh ilmida mashhur bo'lishgan. 7 jilddan iborat «Ravzat us-safo» asarining muallifi.

¹⁸⁹ Zahiriddin Muhammad Bobur – (1483-1530), o'zbek mumtoz adabiyotining yirik vakili, buyuk shoir, tarixchi, geograf, davlat arbobi, iste'dodli sarkarda; boburiylar sulolasi asoschisi (1526), temuriy shahzoda. Mashhur «Boburnoma» asarining muallifi.

«Temur baland bo‘yli, tik qomatli, keng peshonali, kallasi katta, bag‘oyat kuchli va salobatli, oq-qizil yuzli, keng yelkali, qaddiqomati kelishgan, sersoqol, o‘ng qo‘li bilan o‘ng oyog‘i zahmdor, ikki ko‘zi bamisoli ikki shamday porlab turadigan, yo‘g‘on ovozli, ulug‘ligi o‘ziga yarashgan, qat‘iy azmu qaror bilan so‘zlaydigan, haqgo‘y kishi edi. U zimdan qarash va ko‘z ishoratlarini sezadigan, idrokli, sinchkov, har qanday ishoratdan ogoh kishi bo‘lib, yuz berishi mumkin bo‘lgan hamma ishni oldindan ko‘rib-bilib turar edi»(150-151).

Islom Karimov Yuksak ma‘naviyat – yengilmas kuch. T.: Ma‘naviyat, 2008.

TEMURBEKNING MUTAVALLID BO‘LG‘ONI VA OLAMNI O‘Z JAMOLI BILA YARUQ QILG‘ONI SO‘ZLARI

(12) Zavolsiz podshoh kalomidin mundoq ma‘lum bo‘lurkim, fayoz alalitloq xizonasidin: A‘ta kulla shay‘in xalqahu summa huda¹⁴ saloh va muhabbat xil‘atini yaxshiliq tariqasini bandasiga inoyat qilur bo‘lsa, bu inoyatni bu bandaning farzandlaridin ko‘rsatur. Nechukkim, Payg‘ambar salli Allahi alayhi vasallam aytib tururlar: «Va inna salohar-rajuli... « hadisining ma‘nisi hazrat sohibqironning atosi sha‘nida tururkim, amir Tarag‘ay deyur. Tarag‘aybek ulamo va sulaho va muttaqiylarga mushfiq va mehribon erdi va bularning majlisida borur erdi. Lojaram, bu jihatdinkim, hazrat Haqning sevar bandalarini sevar erdi va bularning do‘stluq donasini sidqi gashtig‘a parvarish bergon uchun «Anbataha Alloh nabatan hasan» chiqib, davlat va saodat sahrosi karomat va afzoldin to‘ldi. Bayt:

Chu tobtu bu iqbolu baxtdin nishon,
Anga berdi Haq puri sohibqiron.

Qazon sulton¹⁹⁰ zamonida davlatning kuni va saodat ko'kinging oyi zohir bo'ldi va olam saqlag'uchi yulduzi inoyati Rabboniyning avjidan yaruq bo'ldi. Sha'bon oyining yigirmi beshida, torix yetti yuz o'ttuz oltida, sichqon yilim (9.04.1336), mo'g'ullarning yili bila muvofiq turur, Kashi dilkash viloyatida, Takina Xotunkim, shari mutahhara yo'suni bila ul amiri dinparvarning nikohida erdi, andin hazrat sohibqiron kun kibi zohir bo'ldi. Va olamafruz mohi burji saodatdin chiqti. Bayt:

Yangi boshdin bo'ldi bir oy oshkor,
Bo'ldi zohir dunyoda bir nomdor.
Inson suratida har joni jahon ichra keldi,
Va olamni humoyun maqdami bila muzayyan qildi.

Sharafuddin Ali Yazdiy. Zafarnoma. T.: Sharq, 1997.

IBN ARABSHOH¹⁹¹ AMIR TEMUR HAQIDA

(68) Temur ibn Tarag'ay ibn Abag'ay bo'lib, uning tug'ilgan joyi Xo'ja Ilg'or deb ataladigan qishloqdir. Xo'ja Ilg'or Keshga qarashli joylardandir – Alloh u yerdan har qanday yomonlikni daf etsin!

Kesh Movarounnahr shaharlaridan (biri) bo'lib, Samarqanddan taxminan o'n uch farsax (masofa)dadir.

* * *

Temurning aql-zakovati shu qadar teran ediki, u tuzgan rejalar ummonining na tubiga, na sirtining cho'qqisiga yetib bo'lardi. To'g'ri yo'l bilan ham, egri yo'l bilan ham uning

¹⁹⁰ Qazon sulton – Qozonxon, Chig'atoy ulusi xoni (1332- 47), Chig'atoyxon naslidan bo'lgan Yasavur o'g'lonning farzandi. Qozonxonning hukmronlik vaqtida zo'raonlik va zulm kuchayadi, aholining turmushi yomonlashadi.

¹⁹¹ Ibn Arabshoh – (1388-1450), arab tarixchisi. Amir Temur Shom (Suriya)ni egallagach (1401), Ibn Arabshohni qarindosh-urug'lari bilan Samarqandga keltirgan. «Ajoib ul-maqdur fi axbori Temur» («Temur haqidagi xabarlarida takdir ajoyibotlari») Ibn Arabshohning eng mashhur asaridir.

niyatları tagiga yetish amrimahol edi. U o'zining butun saltanati bo'ylab darakchilar jo'natar, o'zga saltanatlarga esa ayg'oqchilar yuborardi. Bu ayg'oqchilar orasida o'zining ittifoqchisi bo'lgan Otilmish kabi amirlar yoki o'zining bosh vaziri Ma'sud Kohijoniy kabi alloma darvishlar, turli hunarmandlar, tujjorlar, folbinlar, tabiblar, azayimxonlar, daydilar, dengizchilar, xonandalar, mag'ribdan mashriqqacha kezib yuradigan sayyohlar bor edi. Ular Sohibqironga eng uzoq sarhadlardan yangiliklar olib kelishar, u yerdagi g'aroyib hodisalar, og'irlik o'lchovi, narxnavo haqida hikoya qilib, yo'llar, shahar va qishloqlar, savdo bekatlarining tarxini chizib berishardi. Shuningdek, ular o'zlari borgan mamlakatlarning hukmdorlari, arkoni davlatlari haqida, ularning bola-chaqasi to'g'risida ham ma'lumotlar keltirishardi. O'zga yurtlardagi ilmu hunar ham, bu hunar sohiblari ishlatadigan asbob-uskunalar ham ayg'oqchilar e'tiboridan chetda qolmasdi. Sohibqiron bu ma'lumotlarni diqqat bilan eshitar, aql-zakovat bilan tahlil qilar va ko'p o'tmay, o'sha mamlakatni o'z tasarrufiga qo'shib olardi

* * *

Temur qadimgi Amalekitlar (o'ta kuchli, devqomat kishilar) yanglig' tik qomatli, baland bo'yi, peshonasi keng, boshi katta, metin tabiat bir odam edi. Uning yuzi oq-qizil bo'lib, ochiq havoda ko'p yursa-da, oftobda qoraymagandi. Uning a'zoyi-badani pishiq puxta, yelkari keng, barmoqlari uzun va ingichka, oyoqlari uzun bo'lib, qaddi-qomati kelishgan edi. U o'ng tomonga qarab oqsoqlanardi. Ko'zlari xuddi yonib turgan shamga o'xshasa-da lekin qattiq yiltiramas edi. U o'limdan qo'rqmas, hatto umrining oxirida (69 yoshida) ham xotirasi tiniq, jismi pishiq-puxta, jasorati va metin tabiati bilan qudratli qoyani eslatardi.

Bir qarashdayoq masalaning tub mohiyatini ilg'ab oladigan, kuzatuvchan, munozara qilish san'atini suv qilib ichib yuborgan

Temur hech qachon xom xayolga berilmas, orzulari ro'yobga chiqmasa, buni yashirib o'tirmas va tuzgan rejasini o'zgartirmas edi. U haq so'z bilan uydirma gap o'rtasidagi farqni eshitgani hamono aniq ajrata olardi, shuningdek, u o'z mug'ombirligi bilan samimiy maslahatgo'yni munofiq firibgardan bir qarashdayoq farq qila olardi. Agar u biron buyruq bergudek bo'lsa, yoki biron ishni bajarish haqida ishora qilsa, bu niyati yo buyrug'ini hech qachon o'zgartirmas edi. Ana shuning uchun ham u yetti iqlimning Muzaffar sultoni, sohibqiron, deb nom olgan edi.

Ibn Arabshoh. Amir Temur tarixi. T.: Mehnat, I kitob. 1992.

* * *

...Temurning o'zi muhoraba payti tanglik paydo bo'lgan joylarga tashlanib yoki dushmanga qilingan shiddatli hamlani boshqarib, barchaga jasorat va abjirlik bobida ibrat ko'rsatardi

* * *

May masalasiga kelganda, – deya yozgandi arxiepiskop Jon, – butun saroy ahliga uni ichish taqiqlangandi. Faqat nasroniy-largina bundan mustasno bo'lib, tushlik chog'i ular may ichishlari mumkin edi, ammo tushlikdan so'ng ular chanqasalar, suv yoki qimiz ichishlari lozim bo'lardi. Temur saroyida ayol kishining nomusiga tegish qat'iy taqiqlangan edi. Har bir odamning yonida o'z xotini yoki kanizagi bo'lardi. Saroy ahliidan bironta odam ayollarga qarshi gapira olmasdi. Sohibqiron kampir va chollarning hurmatini juda o'rniga qo'yardi.

TADBIRLAR VA KENGASHLAR

(14) O'zga mamlakatlarni zabt etish, ularni idora qilish, g'anim lashkarlarini sindirish, dushmani tuzoqqa tushirish, muxoliflarni (ko'nglini ovlab) do'stga aylantirish, do'st-dushman orasida muomala, mirosayu madora qilish xususida ushbu tadbir va kengashlarni qo'lladim.

Pirim Zayniddin Abubakr Toybodiy menga yozmishlarkim «Abulmansur Temur, saltanat ishlarida to'rt narsaga amal qilgin, ya'ni: 1) kengash; 2) mashvaratu maslahat; 3) qat'iy qarorlar, tadbirkorlik va xushyorliq; 4) ehtiyotkorlik. Chunki kengash va mashvaratsiz saltanatni barcha qilgan ishlari va aytgan gaplari noto'g'ri bo'lgan johil odamga qiyos qilish mumkin; uning aytgan so'zlari va qilgan ishlari boshga pushaymonlik va nadomand keltirgay. Shunday ekan, saltanat boshqarishda mashvaratu maslahat va tadbirkorlik bilan ish yurgizgin, toki oqibatda nadomad chekib, (15) pushaymon bo'lmagaysan. Shuni ham bilishing kerakkim, saltanat ishlarining bir qismi sabru toqat bilan bo'lg'ay yana bir qismi esa bilib bilmaslikka, ko'rib – ko'rmaslikka solish bilan bitur. Xullas bajarilishi shart bo'lgan tadbirlarning ta'rifidan va zikridan so'ng shuni ta'kidlash lozimki qat'iylik, sabr, chidamlilik, sog'lig'u sergaklik, ehtiyotkorlik va shijoat bilan barcha ishlar amalga oshirilur. Vassalom».

Maktubda yozmish so'zlar esa saltanat ishlarida men uchun eng to'g'ri yo'lboshchi edi. Shunga ko'ra davlat ishlarining to'qqiz ulushi kengash, tadbir va mashvarat, qolgan bir ulushi esa qilich bilan bajo keltirilishini angladim. Donishmandlar demishlarkim, o'z o'rnida qilingan tadbir bilan sanoqsiz lashkar qilichi ojizlik qilgan har qanday mamlakat darvozasini ochib, behisob lashkarni yengib bo'lur.

Tajribamda ko'rilgankim, ishbilarmon, mardlik va shijoat sohibi, azmi qat'iy, tadbirkor va xushyor bir kishi, ming-minglab

tadbirsiz, loqayd kishilardan yaxshidir. Chunki tajribali bir kishi ming kishiga ish buyuradi. Men yana tajribamda ko'rdimki, g'anim lashkarini yengish qo'shinning ko'pligi bilan emas, mag'lub bo'lish esa sipohining kamligidan bo'lmaydi. Balki g'olib bo'lmoqlik tangrining madadi va bandasining tadbiri bilandir. Chunonchi, men ikki yuz qirq uch kishi bilan kengashgan va tadbir yuritgan holda Qarshi qal'asi ustiga yurdim. Amir Muso va Malik bahodir o'n ikki ming otliq askar bilan qal'a va uning atrofini qo'riqlamoqda edilar. Tangri taoloning yordami yetib, o'zim qo'llagan to'g'ri tadbirlarim orqali Qarshi qal'asini qo'lga kiritdim, so'ng Amir Muso va Malik bahodir o'n ikki ming otliq askar bilan ustimga bostirib kelib meni Qarshi qal'asida qamal qildilar. Men tangrining madadi va inoyatiga ishonib, tadbirkorlik va ehtiyotkorlik ishlatgan holda qal'adan chiqdim va dushman bilan bir necha marotaba jang qildim. Pirovardida shu ikki yuz qirq uch yigitim bilan o'n ikki ming otliq g'anim lashkarini mag'lubiyatga uchratdim va ularni bir necha farsangyergacha quvib bordim.

(16) Ishlarimning barini kengash bilan yurgizib, uni bitirishda to'g'ri tadbir qo'llar edim. Bir ishga kirishmay turib, undan qutulib chiqish yo'llarini mo'ljallab qo'yar edim. Uni to'g'ri tadbir, qat'iy jazm, chinlik chidamlilik ko'rsatib, ehtiyotkorlik bilan o'zoqni ko'rib, ortini o'ylagan holda oxiriga yetkazardim. Yana tajribamdan o'tkazdimki, kengash egalari birlik, ittifoqlik bilan so'zda sobit, ishda chidamli bo'lishlari shartdir. Qilmoqchi bo'lgan ishlarini qilmasdan qoldirmasinlar. Agar biror ishni qilmaslikka so'z berar ekanlar, uning yaqiniga ham yo'lmasinlar.

Tajribamdan ma'lum bo'ldiki, kengash ikki turli bo'lur. Biri til uchida aytilgani, ikkinchisi yurakdan chiqqani. Til uchida aytilganini shunchaki eshitardim. Yurakdan aytilgan maslahatni esa qalbm qulog'iga quyardim va dilimga joylardim. Agar g'anim ustiga lashkar tortmoqchi bo'lsam, urush-yarashdan

o'rtaga so'z tashlab, amirlarim ko'ngillarining bu ikkovidan qay biriga moyilligini bilishga intilardim. Agar yarashdan so'z ochsalar, buning foydasini urush ziyoniga solishtirib ko'rardim, agar urushga moyil bo'lsalar, uning naf va foydasini yarash ziyoniga taqqoslab ko'rardim, qaysibiri foydaliroq bo'lsa, shuni ixtiyor qilardim. Sipohni ikkilantiradigan turumsiz kengashni eshitishdan saqlanardim. Qaysi kishi aqlga chindan bir ishni kuyinib gapirsa, suyib eshitar edim. Kimki oqilona gaplarni erlarcha keskinlik bilan so'zlasa, unga ham quloq solardim. Har kimdan so'z olib kengash so'rar edim. Lekin aytilgan har bir maslahatning yaxshi va yomon tomonlari haqida o'ylab ko'rgach, to'g'ri va savoblirog'in tanlab olardim....

Endi mening nomdor baxtiyor farzandlarim va mamlakatlarni zabt etguvchi iqtidorli nabiralarimga yo'l-yo'rig'im shulki, men o'n ikki narsani o'zimga shior qilib olib, saltanat martabasiga erishdim. Shu o'n ikki narsa yordamida mamlakatlarni zabt etib, saltanatimni boshqardim va saltanat taxtiga zebu ziynat berdim. Ular ham ushbu tuzukka amal qilsinlar. Davlatu saltanatimni va o'zlarini ehtiyot qilsinlar.

Birinchisi – davlat va saltanatimga bog'lagan mening birinchi tuzigim – Tangri taoloning dini va Muhammad mustafoning shariatiga dunyoda rivoj berdim. Har yerda va har vaqt islom dinini quvvatladim.

Ikkinchisi shulkim, o'n ikki tabaqa va toifadagi kishilar bilan mamlakatlarni zabt etdim, ularni idora qildim. Davlat, saltanat ustunlarini o'shalar bilan quvvatlab, majlislarimni shular bilan ziynatladim.

(54) Uchinchisi shuldirki, maslahat, kengash, tadbirkorlik, faollik va xushyorliq-ehtiyotkorlik bilan g'anim qo'shinlarini yengib mamlakatlarni o'zimga bo'ysundirdim. Saltanatim ishlarini murosayu madora, muruvvat va sabr-toqat bilan yurgizdim. Ko'p narsani bilib tursam ham o'zimni bilmaslikka olardim. Do'stu dushman bilan murosayu madora qildim.

To'rtinchisi – davlat ishlarini saltanat qonun-qoidalariga asoslangan holda boshqardim. To'ra va tuzukka tayanib, saltanatda o'z martaba va maqomimni mustahkam saqlab turdim. Amirlar, vazirlar, sipoh, raiyat har biri o'z lavozim va martabasidan mamnun holda xizmatimda bo'lib, undan ortig'iga da'vogarlik qila olmadi.

Beshinchisi - amirlarim va sipohiylarimni martaba va unvonlar, zaru zevarlar bilan xushnud etdim. Bazmlarda ularga o'z yonimdan o'rin berdim, shuning uchun janglarda jonlarini fido qildilar. Dirham va dinorlarni ulardan darig' tutmadim ularning yumushlarini yengillashtirish uchun mehnatu mashaqqatlarini o'zimga yukladim va tarbiyat qildim. Amirlar, sipohsolorlar, bahodirlar bilan ittifoq bo'lib, ularning mardligu mardonavorligiga tayanib, shamshir zarbi bilan yigirma yetti podshohning taxtini egalladim. Eron, Turon, Rum, Mag'rib, Shom, Misr, Iroqi arab va Iroqi ajam, Mozandaron, Gilonot, Shirvonot, Ozarbayjon, Fors, Xuroson, Dashti jete, Dashti Qipchoq, Xorazm, Qobuliston, Boxtarzamin, Hindistonga podshoh bo'lib, hukm surdim. Saltanat to'nini kiygach, tinchligu sog'ligim ketdi, o'z to'shagimda rohatda uxlash huzur-halovatidan voz kechdim. O'n ikki yoshimdan turli diyorlarni kezdim, ranju mehnat tortdim. Har xil tadbirlar qo'llab [g'anim] favjlarini sindirdim. Amirlar va sipohiylarning isyonlarini ko'rdim, ulardan achchiq so'zlar eshitdim. Lekin sabru bardosh bilan o'zimni eshitmagan-ko'rmaganga solib, ularni tinchitdim. Qilich ko'tarib jang maydoniga otildim va shu tariqa dunyoda nom chiqardim.

Oltinchisi – adolat va insof bilan tangrining Yaratgan bandalarini o'zimdan rozi qildim. Gunohkorga ham, begunohga ham rahm qilib, haqqoniyat yuzasidan hukm chiqardim. Xayrehson ishlarim bilan odamlar ko'nglidan joy oldim. To'g'ri siyosat va insof bilan sipohiylarim va raiyatni umid va qo'rqinch orasida saqladim. Fuqaro va qo'l ostimdagilarga rahmdillik qildim, sipohiylarga in'omlar ulashdim. Zolimlardan mazlumlar

haqqini oldim. Zolimlar yetkazgan ashyoviy va jismoniy zararlarni isbotlaganimdan keyin, ularni shariatga muvofiq odamlar o'rtasida muhokama qildim va bir gunohkorning o'rniga boshqasiga jabr-zulm o'tkazmadim. (55) Menga yomonliklar qilib, boshim uzra shamshir ko'tarib, ishimga ko'p ziyon yetkazganlarni ham, iltijo bilan tavba-tazarru qilib kelgach, hurmatlab yomon qilmishlarini xotiramdan o'chirdim. Martabalarini oshirdim. Ular bilan muomalada shunday yo'l tutdimki, agar xotiralarida menga nisbatan shubhayu qo'rquv bo'lsa, butunlay unut bo'lardi.

Yettinchisi – sayidlar, ulamoyu mashoyix, oqilu donolar, muhaddislar, xabarchilar (tarixchilar)ni tanlangan, e'tiborli odamlar hisoblab, izzatu hurmatlarini joyiga qo'ydim. Shijoatli kishilarni do'st tutardim, Chunki Tangri taolo jasur kishilarni ardoqlaydilar. Ular bilan suhbatda bo'ldim va pok niyatli, toza qalbli kishilarga talpindim. Bularning himmatlaridan ulush tilanib, muborak nafaslarini duo-fotiha berishlarini iltimos qildim. Darvish, faqir va miskinlarni o'zimga yaqin tutdim, ularning ko'ngillarini og'ritmadim va biron talablarini rad etmadim. Buzuqi va og'zi shaloq g'iybatchi odamlarni majlisimga yo'latmadim, so'zlariga amal qilmadim. Biror kimsaga tuhmatu g'iybat qilsalar, quloq solmadim.

Sakkizinchi – azmu jazm bilan ish tutdim. Biron ishni qilishga qasd qilgan bo'lsam, butun zehnim, vujudim bilan bog'lanib, bitirmagunimcha undan qo'limni tortmadim. Har neki degan bo'lsam unga amal qildim. Hech kimga g'azab bilan qattiq muomala qilmadim va hech bir ishda tanglik qilmadim, toki Tangri taoloning g'azabiga duchor bo'lmayin va ishinni buzib, holimni tang aylamasin deb. Odam Atodan boshlab Xotam ul-anbiyogacha, ulardan hozirgi damgacha o'tgan sultonlarning qonunlari va turish-turmushlarini donolardan so'rab-surishtirdim. Har qaysilarining yo'l-yo'riqlari, turish-turmushlari, qilish-qilmishlari, aytgan gaplarini xotiramda saq-

ladim va yaxshi ahloqlari, ma'qul sifatlaridan namuna olib, unga amal qildim. Davlatlarining tanazzulga uchrashi sabablarini surishtirdim va davlatu saltanat zavoliga sabab bo'luvchi ishlardan saqlandim. Naslni buzuvchi, ocharchilik va vabo kasali keltiruvchi zulm va buzuqchilikdan saqlanishni o'zimga lozim bildim.

To'qqizinchisi – raiyat ahvolidan ogoh bo'ldim, ulug'larini og'a qatorida, kichiklarini farzand o'rnida ko'rdim. Har yerning tabiati, har el va shaharning rasmu odatlari, mizojidan voqif bo'lib turdim. Har bir o'lka va shahar aholisining ashrof-ulug'lari va buzurglari bilan oshna tutindim. Ularning mijozlariga, tabiatiga to'g'ri kelgan, o'zlari tilagan odamlarini ularga hokim qilib tayinladim. Har bir diyoy aholisining ahvolidan ogoh bo'lib turdim. Har bir mamlakatning ahvolini, sipohu raiyat kayfiyatini, turish-turmushlarini, qilish-qilmishlarini, bular o'rtalaridagi aloqalarni yozib, menga bildirib turishi uchun (56) diyonatli, to'g'ri qalamli kishilardan voqeanavislar (axbornavis-xabarchilar) belgiladim. Bordiyu noto'g'ri narsa yozganlari menga ma'lum bo'lib qolsa, bunday voqeanavislarni jazoladim. Hokimlar, sipoh va raiyatdan qaysi birining xalqqa jabr-zulm yetkazganini eshitsu, ularga nisbatan darhol adolatu insof yuzasidan chora ko'rdim.

O'ninchidan – turku tojik, arabu ajamning turli toifa va qabilalaridan bo'lgan va mening panohimga kirgan kishilarning ulug'lariga hurmat ko'rsatdim, qolganlarini ham o'z holiga yarasha, siyladim. Yaxshilariga – yaxshilik qildim, yomonlarini esa o'z yomonliqlariga topshirdim. Kim menga do'stlik qilgan bo'lsa, do'stligi qadrini unutmadi va unga muruvvat, ehson, izzatu ikrom ko'rsatdim. Kimki mening xizmatimni qilgan bo'lsa, xizmat haqqini ado etdim. Kimki menga dushmanlik qilsa-yu, keyin pushaymon bo'lib, iltijo bilan himoya istab, tiz urib oldimga kelsa, dushmanligini unutib, muruvvat va do'stlik ko'rsatdim. Chunonchi, ulus amiri Sher Bahrom avval menga hamroh edi, boshimga og'ir ish tushganda meni tashlab ketdi va

dushmanlarimga qo'shildi, menga qarshi qilich ko'tardi. Oxiri bergan tuzim haqqi tizza urib, yana iltijo qilib keldi. Asl er-yigit bo'lganligi va jang-jadal bilan suyagi qotgan mardlardan ekanligi boisidan yomon ishlarining barisidan ko'z yumdim. Oldimga kelgach, o'zini hurmatlab, martabasini oshirdim. Uni mardu mardonaliigi uchun kechirdim.

O'n birinchisi – farzandlar, qarindoshlar, oshna-og'ayni, qo'shnilar va men bilan bir vaqtlar do'stlik qilgan barcha odamlarni davlatu ne'mat martabasiga erishganimda unutmading, molu mulk va naqd pul bilan xaqlarini ado etdim. O'z farzandlarim, qavmu qarindoshlarimdan qarindoshlik mehrini uzmadim. Ulardan noravo ish o'tgan bo'lsa, darhol bog'lab, o'ldirishga buyurmadim. Har kimni turish-turmushning pastu balandlarida turli yo'llar bilan sinab bilib oldim va ularga shunga yarasha muomala qildim. Hayotning ko'p issiq-sovug'ini ko'rib, ulardan saboq olib, tajribamni oshirdim. Shuning uchun do'stu dushman bilan kelishib yashadim.

O'n ikkinchisi – do'st-dushmanligiga qaramay, har joyda sipohiylarni hurmat qildim, chunki ular boqiy mato bo'lgan jonlarini foni dunyo moli uchun sotadilar. O'zlarini ma'rakamaydon, halokatga otib, jonlarini qurbon qiladilar. Agar g'anim sipohidan biror odam o'z valiyne'matiga sidqidildan xizmat qilib urush kunlarida menga qarshi qilich ko'targan bo'lsa ham, unday odamga nisbatan lutf-marhamatlar ko'rsatdim. Qoshimga (panoh istab) kelganda, uni qadrlab, ishonchini qozondim, vafodorligi va haqiqat bilan xizmat qilishiga ishondim.

(63) Saltanat ishlarini qonun va qoidalar (to'ra va tuzuk)ka solib, uning martabalari (ahvoli)ni mustahkamladim. Saltanatning martabalari tuzukini quyidagilarga tayanib tuzdim:

Birinchidan, saltanatim qonun-qoidalarini islom dini va kishilarning eng xayrlisi(hazrati Muhammad)ning shariatiga bog'lab, izzatu hurmatlash vojib bo'lgan onhazratning avlodi va sahobalariga muhabbat bildirgan holda ularni mustahkamladim. Saltanatim martabasini qonun-qoidalar asosida shunday saq-

ladimki, saltanatim ishlariga aralashib, ziyon yetkazishga hech bir kimsaning qurbi yetmasdi.

Ikkinchidan, sipohu raiyatni umid va qoʻrquv orasida saqladim. Doʻst-dushmani murosayu madora martabasida tutdim. Qilmishlarini, aytgan gaplarini gohida sabr-toqat, gohida bilib-bilmaslikka olish bilan oʻtkazdim. Doʻst-dushmandan kimki menga iltijo qilib kelgudek boʻlsa, doʻstlargʻa shunday muomala qildimki, doʻstligi yanada ortdi, dushmanlarga esa shunday munosabatda boʻldimki, ularning dushmanligi doʻstlikka aylandi. Menda biron kimsaning haqi boʻlsa, haqini hech vaqt unutmadi. Biron kimsa bilan tanishgan boʻlsam, uni hech vaqt nazarimdan chetda qoldirmadim. (64) Davlatim va saltanatim quyoshi koʻtarilib kelayotgan vaqtda menga iltijo qilib kelgan nikukor va badkirdor odamlar, xoh menga yaxshilik qilgan boʻlsinlar, xoh, yomonliq saltanat taxtiga oʻtirganimdan keyin ularni xayr-ehsonlarim bilan xijolatga qoʻydim. Menga qilgan yomonliklarini qilmagandek koʻrib, ularni yomon qilmishlari daftari ustiga afv qalamini tortdim.

Uchinchidan, hech kimdan oʻch olish payida boʻlmadim. Tuzimni totib, menga yomonliq qilganlarni parvardigori olamga topshirdim. Ish koʻrgan, sinalgan, shijoatli er-yigitlarni qoshimda tutdim. Sofdil kishilar, sayidlar, olimlar va fozillarga dargohim doim ochiq edi. Nafsi yomon himmatsizlarni, koʻngli buzuvchi qoʻrloqlarni majlisimdan quvib yubordim.

Toʻrtinchidan, ochiq yuzlilik, rahm-shafqat bilan xalqni oʻzimga rom qildim. Adolat bilan ish yuritib, jabr-zulmdan uzoqroqda boʻlishga intildim.

Saltanatimni oʻn ikki toifaga boʻlib, ularga tayangan holda ish yurgizdim. Saltanatim qonun-qoidalarini ham shu oʻn ikki toifaga bogʻlab tuzdim. Bu oʻn ikki toifani saltanatim falakining oʻn ikki burji va davlatim korxonasining oʻn ikki oyi deb hisobladim.

Temur tuzuklari. Forschadan Alixon Sogʻuniy va Habibullo Karomatov tarjimasini. Boʻriboy Ahmedov tahriri ostida. T.: Gʻafur Gʻulom, 1991.

VAZIR TUTISH TUZUGI

(74) Amr qildimki, vazirlar ushbu to'rt sifatga ega bo'lgan kishilardan bo'lishlari lozim; birinchisi – asillik, toza nasllilik; ikkinchisi – aql-farosatlilik; uchinchisi – sipohu raiyat (75) ahvolidan xabardorlik, ularga nisbatan xushmuomalada bo'lishlik; to'rtinchisi – sabr-chidamlilik va tinchliksevarlik.

Kimki shu to'rt sifatga ega bo'lsa, unday odamni vazirlik martabasiga loyiq, kishi deb bilsinlar. Uni vazir yoki maslahatchi etib tayinlasinlar. Mamlakat ishlarini, sipoh va raiyat ixtiyorini unga topshirsinlar. Bunday vazirga to'rt imtiyoz; ishonch, e'tibor, ixtiyor va iqtidor berilsin.

Kamolatga erishgan vazir ulkim, davlat muomalalarini tartibga keltirib, mulkiy va moliyaviy ishlarni to'g'rilik bilan, aslinasli tozaligini ko'rsatib, ajoyib tarzda bajaradi. Olgulik joyidan olib, bergulik yerga beradi. Ruksat etuvchi va ta'qiqlovchi buyruqlarida uning asilligi va toza naslligi ko'rinib tursin. Dushmanlik va jabr-zulm qilmaydi. Xoh sipohdan, xoh raiyatdan bo'lsin, har kimning nomini yaxshi so'zlar bilan tilga oladi. Birovdan yomonliq axtarmaydi, aytsalar eshitmaydi. Agar birovdan yomonliq ko'rgan bo'lsa, unga nisbatan shunday muomala qiladiki, u shaxs oxiri yomonligidan qaytadi. O'ziga yomonliq qilgan odamga nisbatan shunday yaxshilik qiladiki, u oldiga bosh egib keladi.

Temur tuzuklari. Forschadan Alixon Sog'uniy va Habibullo Karomatov tarjimasini. Bo'riboy Ahmedov tahriri ostida. T.: G'afur G'ulom, 1991.

AMIRLIK VA HUKMDORLIK TUZUGI

(78) Tajribamdan sinab bildimki, jangning sir-asrorini, gʻanim askarlarini sindirish yoʻlini bilgan, urush qiziganda oʻzini yoʻqotmasdan, qoʻl-oyogʻi boʻshashmasdan, lashkar favjlarini jangga boshlay oladigan, agar qoʻshin safiga rahna tushsa uni tezda tuzata oladigan kishigina amirlik va hukmronlikka loyiq hisoblanadi.

Temur tuzuklari. Forschadan Alixon Sogʻuniy va Habibullo Karomatov tarjimasini. Boʻriboy Ahmedov tahriri ostida. T.: Gʻafur Gʻulom, 1991.

DOʻSTU DUSHMANGA MUOMALA QILISH TUZUGI

(89) Turon mamlakatini fath etgan kunim va poytaxt Samarqandda saltanat taxtiga oʻtirganimdan soʻng, doʻstu dushman bilan muomalada bir tekis yoʻl tutdim. Menga yomonlik qilgan, hiyla-makr ishlatib jang maydonida menga qarshi qilich yalangʻochlagan Badaxshon amirlari, turku tojik qoʻshinlarining baʼzi amirlari qilgan qingʻir ishlaridan qoʻrquvda edilar. Chorasiz qolib iltijo bilan mening panohimga kelganlarida ularga shunday yaxshiliklar qildimki, mening inoyatim va xayr-ehsonimni koʻrib, oʻzlari sharmanda boʻldilar. Kimni ranjitgan boʻlsam, ehsonu inʻomlar bilan koʻnglidagi xafagarchilikni chiqardim va martabalariga imtiyozlar berdim. Lekin suldu va Jete amirlaridan (90) nafratlandim, chunki ular Qobilshoh Chingiziyni amirlik, keyinroq, xonlik taxtiga koʻtarib, unga doʻstona ixlos bilan xizmat qilish xususida ahdu paymon bergandilar. Biroq, keyinroq, mening saltanat taxtiga oʻltirganimni eshitishgach, menga xushomad qilmoqchi boʻlib, ontlarini buzdilar va uni qatl ettirdilar.

Menga hasad qilib, o'ldirishga qasd qilgan kishilarga shunchalik sovg'a-in'omlar berib, muruvvatu ehson ko'rsatdimki, bu yaxshiliklarni ko'rib, xijolat teriga g'arq, bo'ldilar. Hamisha mening roziligimni olib ish tutgan do'stlarim oldimga panoh, tilab kelganlarida, ularni o'zimning baxtu davlatimga sherik bilib, hech qachon ulardan mol-mulk va tirikchilik ashyolarini ayamadim.

Yana o'z tajribamdan bildimki, sodiq va vafodor do'st ulkim, o'z do'stidan ranjimaydi, do'stining dushmanini o'z dushmani deb biladi. Agar kerak bo'lsa, do'sti uchun jonini ham ayamaydi. Shundayki, amirlarimdan qay birlari menga jon-dili bilan hamrohlik qilgan bo'lsalar, men ham ulardan hech narsani ayamadim.

Yana o'z tajribamda ko'rdimki, aqlli dushman, johilu nodon do'stdan yaxshiroq ekan. Chunonchi, amir Qozog'on¹⁹²ning nabirasi amir Husayn¹⁹³ nodon do'stlardan edi. Uning do'stlik yuzasidan qilgan ishlarini, hech bir dushman qilmaydi. Amir Xudaydod menga shunday deydi: «Dushmaningni la'lu javohirdek saqlagil, qachonki biron toshloq, yerga kelib qolsang uni olib toshga shunday urginki tolqoni chiqib, undan nishon ham qolmasin». U yana shunday dedi: «Agar dushmaning bosh urib panohingga kelsa, rahm qilib, yaxshilik va muruvvat ko'rsatgil». Chunonchi, men To'xtamishxon¹⁹⁴ga qilganim kabi. U panohimga sig'inib kelganda, unga yaxshilik va muruvvat qildim. Agar dushman sendan muruvvat va xayr-ehson ko'rsa-yu, yana

¹⁹² Amir Qozog'on – Movarounnahr amiri (1346—58). So'nggi chingiziylardan bo'lgan Qozonxonga qarshi isyonga bosh bo'lgan. O'zaro urushlarda Qozonxon o'ldiriladi va mamlakat uning qo'l ostiga o'tadi. Amir Qozag'on o'z xatti-harakatlariga qonuniy tus berish uchun chingiziylardan bo'lgan «soxta xonlar» – avval Donishmandcha, so'ngra Bayonqulixon yordamida hokimiyatni boshqargan va uning nomidan tanga zarb etib, hokimiyatni qo'lida ushlab turgan.

¹⁹³ Amir Husayn – Amir Qazag'onning nabirasi. Balx, Hsori Shodmon va Badaxshon viloyatlari hukmdori. Ajdodlari hukmronlik qilgan Movarounnahr taxtiga da'vogarlik qilgan. 1370 y. Balx sh. bo'sag'asida bo'lgan jangda Sohibqiron Amir Husayn qo'shinini tor-mor etadi va uni asirga olib qatl etadi.

¹⁹⁴ To'xtamishxon – (1342-1408), Oltin O'rda hukmdori (1380-97). Jo'jixon naslidan.

qaytadan dushmanlik yo'lini tutsa, uni parvardigorning hukmiga topshir.

Chin do'st uldirki, do'stidan hech qachon ranjmaydi, agar ranjisa ham, uzrini qabul qiladi.

Temur tuzuklari. Forschadan Alixon Sog'uniy va Habibullo Karomatov tarjimasini. Bo'riboy Ahmedov tahriri ostida. T.: G'afur G'ulom, 1991.

SALTANATNI IDORA ETISH TUZUGI

(94) Qaysi mamlakatni zabt etgan bo'lsam, o'sha yerning obro'-e'tiborlik kishilarini aziz tutdim, sayidlari, ulamolari, fuzalo va mashoyixiga ta'zim bajo keltirdim va hurmatladim, ularga suyurg'ol, vazifalar berib, maoshlarini belgiladim; o'sha viloyatning ulug'larini og'a-inilarimdek, yoshlari va bolalarini bo'lsa, o'z farzandlarimdek ko'rdim. Mazkur mamlakatlarning si-pohi uchun dargohim eshigi ochiq edi. Raiyatini o'zimga qaratib oldim. Hammani qo'rquv va umid orasida saqladim. Har mamlakatning yaxshi kishilariga men ham yaxshilik qildim, nafsi yomonlar, buzuqlar va ahloqsiz odamlarni mamlakatimdan quvib chiqardim. Pastkash va razil odamlarga o'zlariga loyiq, ishlar topshirdim hamda hadlaridan oshishlariga yo'l qo'ymadim. Ulug'larini (akobir) va sharaf-e'tiborli kishilarini (ashrof) hurmatlab, martabalarini oshirdim. Har mamlakatda adolat eshigini ochdim, zulmu sitam yo'lini to'sdim. O'z erki bilan menga bo'ysungan viloyat hokimlariga o'sha yurt hukumatini qaytarib berdim va ularni in'omu ehson bilan qadrlab, o'zimga mute qilib oldim. Bo'ysunmaganlarni esa qilmishiga yarasha jazoladim. Odil, oqil va uddaburon kishilarni ularga hokim etib tayinladim.

Temur tuzuklari. Forschadan Alixon Sog'uniy va Habibullo Karomatov tarjimasini. Bo'riboy Ahmedov tahriri ostida. T.: G'afur G'ulom, 1991.

O'RUSXON¹⁹⁵NI BARTARAF QILISH VA DASHTI QIPCHOQNI BOSIB OLIHDA QILGAN KENGASHIM

[Dashti Qipchok,] xoni To'xtamish xonlik talashib O'rusxon-dan yengilib, mening panohimga qochib kelgan edi. Uning bilan qo'shin yuborsammikin, yo o'zim borsammikin deb turg'animga O'rusxonning elchisi kelib qoldi. Kengashib, elchining ko'nglini ovlab, [so'ng] ketishiga ruxsat berishni, o'zim esa Dasht tomon yuzlanib, elchining ketidan lashkar jo'natishni mo'ljalladim, toki elchi xotirjamlik bilan bo'lgan voqealardan O'rusxonning majlisida bayon qilsin, ertasi kuni mening qo'shinlarim qo'q-qisdan ularning ustiga bostirib borsin. O'ylag'animga ish tutgandim, tadbirim taqdirga to'g'ri keldi. O'rusxon elchisi bo'lgan voqealarni so'zlab berayotgan paytda, mening qo'rqmas lashkarim favjlari nogahon kelgan balodek O'rusxon ustiga yopirildilar. O'rusxon qarshilik ko'rsata olmay, qochishni ixtiyor qildi. Dashti Qipchoq mamlakati menga bo'ysundi.

TO'XTAMISHXONGA SHIKAST YETKAZISH BOBIDA QILINGAN KENGASH

Lashkarlarim besh oy davomida To'xtamishxonning ortidan quvib yurgani sababli ko'pincha och qola boshladilar. Chunonchi, bir necha kun boshbalmoq o'ti, ov go'shti, sahro parrandalarining tuxumi bilan kun kechirdilar. Qo'shinim bunday og'ir ahvolga tushib qolganini eshitgan To'xtamishxon fursatdan foydalanmoqchi bo'ldi va chumoliyu chigirtkadan ham ko'p askari bilan ustimizga yopirilib keldi va men bilan to'qnashdi. Mening askarlarimning ochlikdan tinkasi qurigandi. To'xtamishxon askarlari esa, to'q va osuda edilar. Farzandlarim va

¹⁹⁵ O'rusxon - (? - XIV asrning 70-yillari 2-yarmi), Jo'ji ulusining Sharqiy qismi - Oq O'rda xoni (XIV asrning 60-yillari birinchi yarmidan). O'rusxon davlatining poytaxti Sig'noq shahri bo'lgan. O'rusxon Oq O'rdadagi hokimiyatini mustahkamlab olgach, Oltin O'rdani ham o'z tasarrufiga kiritishga harakat qilgan.

nabiralarim huzurimga kelib, tiz cho'kib, men uchun jon fido qilishga tayyor ekanliklarini bildirmagunlaricha, sarkardalarim va askar boshliqlarim jang qilishga ro'yxushlik bermadilar. Shu payt To'xtamishxonning bayroqdori men bilan til biriktirdi – urush boshlaganimda va ikki tomon qo'shini yuzma-yuz kelganda, bayroqdor bayrog'ini tuban qilishi haqida u bilan kelishib oldim. Amirlarim va no'yonlarim, farzandlarim [va nabiralarim] oldimga kelib, tiz cho'kkanini eshitgach, jasurligi tutib, qo'rqmay jangga kirdilar. Shunda men amirzoda Abu Bakrni sakkiz ming otliq bilan hirovul etib tayinladim. Savashu chopish qizishib, jangu jadal o'ti ko'kka ko'tarilganda, [lashkarlarga] chodirlar tikib, taom tayyorlashga kirishishni buyurdim. Xuddi shu payt To'xtamishxonning bayrog'i tuban bo'ldi va To'xtamishxon sarosimaga tushib qoldi. U Jo'chi ulusini talon-torojga tashlab, jang maydoniga orqa o'girib qochdi.

DORUSSALOM (BAG'DOD)NI VA IROQI ARABNI ZABT ETISH TO'G'RISIDAGI KENGASHIM

Iroqi ajam va Forsni zabt etganimdan keyin, qutb ul-aqtoq pirimdan menga «Arab va Ajam Iroqning buyuk qahramoniga [tangri taolo] Iroqi arab bilan Iroqi ajamni tortiq qildi, degan mazmunda maktub keldi.

Bag'dodni zabt etish uchun dastavval sulton Ahmad Jaloiriy huzuriga Bag'dod voliysi lashkarining qay ahvolda ekanligi, yurish-turishi, qudrati haqida ma'lumotlar olib kelish uchun elchi yuborishga kelishildi. Elchi Bag'doddan menga: «Sulton Ahmad ikki ko'zli bir bo'lak go'sht ekan, degan mazmunda xat yubordi. Men tangrining inoyatiga suyanib, [Bag'dod ustiga] qarab yurdim va tez fursatda Bag'dodga yetib bordim. Sulton Ahmad jaloir qolishdan qochmoqni afzal ko'rib, Karbalo tomonga qarab qochdi. Shu bilan dorussalom Bag'dod menga buysondi.

TO'XTAMISHXONNI YO'QOTISH UCHUN QILGAN KENGASHIM

[To'xtamishxon mendan yengilib] Jo'chi ulusini talon-torojga tashlab, o'zi qochgan edi. Keyinroq mening yo'qligim fursatidan foydalanib, Darband va Shirvon orqali Ozarbayjonga ko'p sonli lashkar yuborib, fitnayu fasod ko'tardi. Bu vaqtda men har ikkala Iroqni ham endigina zabt etib bo'lgandim. To'xtamishxonni yo'qotish uchun behisob lashkar bilan Darband yo'li orqali yana Dashti Qipchoqqa yurishni maslahat qurdim. Yurish oldidan ko'rik qilib, lashkarim qayergacha borib yetishini bilmoqchi bo'ldim. Qarasam, to'rt farsang masofada lashkarlarim saf tortib turardi. Tangri taologa shukr keltirdim. So'ng Temur daryosidan o'tib, Dashti Qipchoqning elu ulusiga ushbu mazmunda yorliqlar yo'lladim: «Kimki menga kelib qo'shilsa ulug'lanadi, kimki men bilan kurashmoqchi bo'lsa yiqiladi». [Hijriy] 797 [milodiy 1394–95] yilda Dashti Qipchoqqa kirdim va uzoq shimolda yastanib yotgan yerlarigacha bordim. Menga qarshi bo'lgan Jo'chi el-ulusini xarob qilib, o'zimga tobe etdim. Beshinchi va oltinchi iqlim viloyatlari, uluslari va qal'alarini zabt etdim va g'alabayu zafar quchib ortimga qaytdim.

DEHLI HOKIMI SULTON MAXMUD VA MALLUXONLARNI YENGISH BOBIDAGI KENGASH

Sulton Mahmud va Malluxon ellik ming otliq va piyoda askar, 120 zanjirband fillar bilan Dehli qal'asini mustahkamladilar va men bilan jang qilishga shaylandilar. Ko'nglim xavotirlandi. Bordiyu Dehli qal'asini bosib olishga borsam-u, mabodo bu ish uzoq vaqtga cho'zilib ketsa, [nima qilaman?] o'zimga kengashib, g'anim lashkari dadillanib, [qal'adan] chiqib, saf tortib jang maydoniga kirishi uchun, o'zimni kuchsiz va [qo'rqqandek] qilib ko'rsatmoqchi bo'ldim. Shu sababdan lash-

kardan uzoqroqda xandaq, qazdirdim. Lashkarim bilan xandaq ichiga yaxshilab joylashganimdan so'ng, lashkarlarimning bir favjini dushmanga qarshi jangga tashladim. Dushman qarshisiga borgach, o'zlarini kuchsiz ko'rsatib, qo'rqqanday bo'lib chekinishlarini va g'animlarni dadillantirib kelishni buyurdim. Dushman lashkari bu holni ko'rib o'zlarini g'olib hisoblab, gerdayib jang maydoniga chiqqan edilarki, [mening] qahrli lashkarim favjlari bilan yuzma-yuz keldilar. Dehli hokimi sulton Mahmud jangga kirishdi va yengilib tog' tarafga qochdi. Beqiyos xazina va mol-mulki sipohiylarimga nasib bo'ldi.

Bir yil ichida Hindiston poytaxti Dehlini zabt etdim va mazkur yilning oxirlarida saltanatim poytaxti (Samarqand) ga qaytdim.

MISR VA SHOM [MAMLAKATLARI] NI FATH ETISH BOBIDA QILGAN KENGASHIM

Mening shon-shavkat va qudratim ovozasini [Rum] qaysarining qulog'iga yetdi. U o'ziga qarashli Sivos hamda Malatiya qal'alari va ularga tobe yerlarni zabt etganim, qal'alar ichidagi askarlarining barisini tarqatib, tevarak-atrofga sohib tashlaganim haqidagi xabarni eshitgach, tomirlaridagi g'ayrat harakatga keldi va askarim zarbasidan qochib, qaysar qoshida panoh topgan Qora Yusuf turkman ig'vosi bilan ustimga lashkar tortishga qaror qildi. Qaysar baloga giriftor bo'lib, davlati vayron bo'lishi yaqinlashib qolgan edi, chunki u Qora Yusufning ig'vosiga uchib menga qarshi lashkar tortgan edi. [Qolaversa] Misr va Shom askarlarini ham yordamga chaqirgan edi. Men kengashib lashkarimni uch favjga bo'lsam yaxshi bo'lar dedim. Biroq jangda yengish-yengilish ishi taqdir pardasi ostida yashirin bo'lganligi sababli, bu to'g'rida amirlarim bilan kengash o'tkazdim. Ular sipohiyarga xos ishni tutib, urush ochmoqni maslahat berdilar. [Shunday bo'lsa] ham men qaysarning [g'ayrat] o'tini achchiq-

chuchuk gap bilan so'ndirmoqni maslahat ko'rdim va qaysarga maktub yo'lladim. Xatning qisqacha mazmuni shunday edi: «Yeru ko'kni yaratgan Tangri taologa cheksiz shukrlar bo'lsinki, yetti iqlim mamlakatlarining ko'pini mening farmonimga kiritgizdi va olam sultonlari va hokimlari menga egilib, itoat qilish halqasini jon quloqlariga taqdimlar. O'z qadrini bilib, haddidan oshmay jasorat oyoqlarini tiygan bandasini Tangri yorlaqasin. Sening nasli-nasabing kim ekanligi jahon xalqi oldida ma'lumdirdir. Shunday ekan, holingga munosib ish tutib, jur'at oyog'ini oldinga qo'ymani, ranju mehnat balchig'iga botib, balo chururiga yiqilgaysan. Iqbol eshigidan haydalgan bir to'da ig'vogar kishilar g'arazli ishlarini bajarish uchun sening panohingdan joy olib, uxlab yotgan fitnani uyg'otmishlar. Yana o'shalarning ig'vosi bilan ofat va balo eshigini davlating yuziga ochmagil. Mazkur maktub yetishi bilan] Qora Yusufni mening oldinga yuborgil. Yo'q, esa taqdir pardasi ikki lashkar saflari to'qnashganda yuzingga ochilg'usidir».

Ushbu maktubni ishbilarmon elchilarim bilan qaysarga yuborganimdan keyin Shom poytaxti (Damashq)ga borib turishga qaror qildim. Hums va Halab yo'li orqali u yerga ravon bo'ldim. Halab shahriga etg'animga Misr podshosi Malik Barquq o'g'li Malik Faraj¹⁹⁶ mening Damashqqa kelayotg'animga eshitib, shoshilinch bilan Misrdan Damashqqa qarab yo'l olgani haqida xabar keltirdilar. Men Misr va Shom lashkarlarining qo'shilishiga yo'l ko'ymaslik uchun zudlik bilan o'tlanib, oldinga yurdim. Lekin Malik Faraj abjirlik qilib, mendan oldin Damashqqa yetib keldi. [Shunday bo'lsa ham] men uning orqasidan shaharga yetib bordim va Damashqni zabt etdim.

¹⁹⁶ Malik Faraj – Misr sultoni.

RUM MAMLAKATINI ZABT ETIB, QAYSAR LASHKARINI SINDIRISH BOBIDA QILGAN KENGASHIM

Shom shaharlarini zabt etganimdan keyin va Misru Shom podshosi Malik Faraj jang maydonini tashlab qochgandan so'ng, yuborgan elchim Yildirim Boyazid¹⁹⁷ning teskari javobini olib keldi. Lekin [Boyazid] Misr va Shom lashkari mendan yengilganini eshitgach, o'ylanib qolgani va sarosimaga tushib, shoshilinch ravishda yurishga tayyorgarlik ko'ra boshlaganini ham aytdi. Men esa kengashib Damashq shahrini olib, Shom viloyatlarini bo'ysundirgach, Mo'sul yo'li bilan Bag'dodga qarab yurdim. Bu bilan qaysarning men bilan urush qilish niyati bor-yo'qligini bilib olmoqchi bo'ldim. Tabriz tarafga qarab yurdim. Amirzodalardan ba'zilariga ko'p sonli lashkar favjlarini qo'shib, Bag'dod ustiga jo'natdim. Bu vaqtda Bag'dod hokimi sulton Ahmad jaloir shaharni va uning qal'asini qo'riqlashni navkari Farruxga topshirib, yoniga ko'p odamlarni qo'shib bergandi.

Amirzodalar Bag'dodga yetib, shaharni qurshab oldilar. Ish urush qilishga borib taqalgach, [chopar orqali] bor haqiqatni menga arz qildilar. [Bu xabarni] eshitib o'zim Bag'dodga borib shahar va qal'ani ozod etishga qaror qildim. Tabriz yo'lidan orqaga qaytib, yurish bilan Bag'dodga keldim va ehtiyotkorlik bilan harbiy hiylalar ishlatib, qal'ani qo'lga olishga kirishdik. Qamal muddati ikki oyu va yana bir necha kunga cho'zilgandan keyingina qal'a bilan shahar ishg'ol etilib, g'alaba qozonildi. Qal'a boshlig'i Farrux Dajla daryosida g'arq bo'ldi. Men shaharga kirdim va barcha bebosh, buzuq kishilarni o'ldirishni, qal'a va shahar imoratlarini buzib yer bilan barobar qilishni buyurdim.

Bag'doddan keyin Ozarbayjonga yurish qilishga jazm qildim va o'sha yerda bir qancha vaqt turib qoldim. Shu asnoda qaysar Halab, Hums va Diyorbakr viloyatlariga lashkariy favjlarini

¹⁹⁷ Yildirim Boyazid – (1359-1403), usmonlilar sulolasita mansub Turkiya sultoni (1389-1402). 1402-y. Anqara jangida Amir Temurdan yengiladi.

yuborgani va mendan qochib qaysar panohiga kirgan Qora Yusuf turkman esa qaroqchilar boshlig'iga aylanib, ayniqsa «ikki muqaddas shahar» ziyoratiga qatnovchilarning karvonlariga ko'p zarar keltirayotganligi xabari quloqqa eshitildi. Buning ustiga o'sha taraflarda bir jamoat kishilar kelib, ular ham Qora Yusufning jabr-zulmidan arz qildilar. Shuning uchun Qora Yusufning jazosini berib, qaysarning ko'zini g'afolat uyqusidan ochib qo'yishim lozim ko'rindi. Bu xususda kengash o'tkazib, har bir shahar va qabiladan lashkar to'plab, Qaysarning ustiga yopirilib borishga qaror qildim. Lashkar jam bo'lgandan keyin hijriy 804 yilining rajab oyida (milodiy 1401 yil fevralida) Ozarbayjonda qaysar ustiga lashkar tortdim. O'zimdan ilgari lashkarimdan bir necha favjini Rum mamlakati ustiga to'satdan bosqin qilishga tayin qildim. Yana bir necha favjga esa yo'limizdagi to'xtash manzillarini ko'zdan kechirib yemish va ichmishni hozirlab turishni buyurdim, o'zim Anguriya yo'li bilan qaysar ustiga lashkar tortdim. Qaysar to'rt yuz ming otliq va piyoda askari bilan menga qarshi yuzlandi.

Urushni boshladim va uni yengdim. Qaysarni lashkarboshilarimdan biri qo'lga tushirib, huzurimga keltirdi.

Yetti yillik yurishdan so'ng zafar va nusrat bilan Samarqandga qaytdim.

Temur tuzuklari. Forschadan Alixon Sog'uniy va Habibullo Karomatov tarjimasini. Bo'ribov Ahmedov tahriri ostida. T.: G'afur G'ulom, 1991.

SAMARQANDDAGI QURILISH ISHLARI

«Unda (Samarqandda) barcha narsalarni tartib bilan sotish uchun katta joy bo'lmaganligi sababli podshoh shahar bo'ylab katta ko'cha (rasta) chiqarishni, uning ikki tomonida esa mol sotish uchun do'konlar qurishni buyurdi. Bu ko'cha – rasta shaharning bir chekkasidai boshlanib, butun shaharni kesib

o'tishi va uning ikkinchi chekkasigacha chiqishi kerak edi. Bu ishni podshoh o'zining ikki mirzosiga topshirdi va agar ular bu vazifani bajarishga astoydil kirishmasalar, odamlarni kecha-yu kunduz ishlashga majbur qilmasalar boshlari ketishini uqtirdi. Mirzolar ishga tushdilar. Podshoh ko'rsatib bergan yerdan ko'cha – rasta qurishga kirishildi. Rasta o'tadigan yerlarda uchraydigan uy-joylar, ular kimniki ekanligidan qat'iy nazar, buzila boshlandi. Uy egalari ham bu ahvolni ko'rib, bor-yo'q narsalarini ko'tarib qochaverdilar. Bir guruh kishilar buzish ishlarini tugatishlari bilan ularning o'rniga boshqa guruh odamlar kelib qurilishni tezlatib yuborardilar. Ko'chani juda keng qilib oldilar; uning ikki tomonidan savdo do'konlari qurdilar. Har bir do'kon oldida oq toshlar bilan qoplangan baland kursilar qo'yilgan. Do'konlar ikki qavatli bo'lib, ularning tepasi esa butun ko'cha bo'ylab gumbaz qilib qoplab olingan, yorug'lik tushsin uchun gumbaz sahnida derazalar o'rnatilgan. edi. Do'konlar bitishi bilan ularga turli xil mol sotuvchi savdogarlarni o'rnashtirar edilar. Ko'chani har yer-har yerida hovuz kavlangan bo'lib, ular suvga to'ldirilib qo'yilgandi. Bu yerda ishlovchi odamlar maosh haqlarini shahar hisobidan olardi. Ishga olinishda ham, talabnoma qanchalik ko'p bo'lmasin, shu ish qo'lidan keladigan odamlar tanlanar edi. Kunduz kuni ishlaganlar ketishi hamono kechasi ishlovchilar kelardilar. Birovlar yo'lga tushgan uy-joylarni buzsalar, ikkinchilari yer tekislar, ular kechayu kunduz shovqin-suron bilan ishlar edilar. Natijada kishini hayratga soladigan ishlar qilindi.

Руи Гонзалес де-Клавихо, Дневник путешествия ко двору Тимура в Самарканде в 1403–1406 гг. Подлинный текст с переводом и примечаниями восстановлен под редакцией И. И. Срезневского, СПб., Типография Императорской Академии наук, 1881, С.316, 318.

Mo'minov I. Amir Temurning O'rta Osiyo tarixida tutgan o'rni va roli. Toshkent, 1993.

SAKKIZ YUZ YETTINCHI (1405) YILGA OID VOQEALAR SALTANAT VA DINNING KO'MAKCHISI HAZRAT XOQONI SAID MIRZO SHOHRUX¹⁹⁸ BAHODIRNING SULTONLIK TAXTIGA O'LTIRGANLIGI ZIKRI

...Hazrat parvardigorning irodati Eron va Turon mamlakatlari jilovini shunday bir zabardastning qudrat kaftiga tutqazdiki, xalifalik tojini kiyish uchun huquqi borligiga uning guvohi adl va saltanat taxtiga loyiq ekanligiga hujjati saxiylikdir. Uning marhamati oftobi quruqqa ham, ho'lga ham yorug'lik sochadi va uning ehson buluti dengizga ham cho'lga ham yomg'ir quyadi; saltanat taxti sultonlar qiyofasidan shu'la kasb etgan vaqtdan beri xalifalik osmoni avjidan bunday bir saodatli oftob nur sochgan emas.

...Davlat va dinning qutbi hazrat sohibqiron Amir Temur ko'ragonning haqiqiy vorisi va olamni zabt etgan u shahanshohning (47) ko'z nuri, xalifalik va sultonlikning, dunyo va dinning ko'makchisi bo'lmish hazrat xoqoni Sayid Mirzo Shohrux bahodir jahon saltanati taxtini o'z humoyunsifat zotining shu'lasiga musharraf qildi va uning adolat oftobi jahon ahli boshig'a saodat soyasini tushirdi. U hazrat davlat arboblari va saroy ahlini podshohona lutfu xusravona marhamatlar bilan taqdirladi va cheksiz inoyatlar ko'rsatib, hammaning'ko'nglini oldi.

Humoyun xabar eltuvchi hukmlar donishmand kishilar orqali barcha mamlakatlar atroflari tomon qanot qoqdi; viloyatlarning hokimlari jahon itoat etuvchi hukmlarga bo'yin egib, itoat shartlarini bajo keltirdilar va jahonpanoh dargohga yuzlanib, xodimlar safiga tizildilar; jahon sarvarlarining gardani va davron mag'rurlarining boshi itoat bo'yinbog'iga va qullik halqasiga kirdi. Sharofatli dargoh tuprog'i Eronu Turon

¹⁹⁸ Shohrux – (1377-1447), Amir Temurning 4-o'g'li, Temuriylar hukmdori. Amir Temur 1396 y. Shohruxga Xuroson o'lkasini suyurg'ol qiladi. Amir Temur vafotidan so'ng, 1405 y. martda Shohrux rasmiy ravishda Temuriylar saltanati hukmdori sifatida Xuroson taxtiga o'tiradi va o'z nomidan xutba o'qitib, pul (tanga) zarb qildiradi.

ulug'larining bo'sa joyi bo'ldi va humoyun borgoh palosi Iroqu Xuroson hokimlarining sajdagohiga aylandi. Hazrat sohibqiron zamonidagi dastur bo'yicha Seiston va Mozandaronga qadar yastangan Xuroson yerlari Omuya suvigacha saodatli navvobning qudrat qo'lida qaror topdi va xutba va pul zarbi humoyun nom va laqablar bilan zeb-ziyat kasb etdi, olam ahlining va'dava'idlari vafoga yo'ldosh bo'lib, jahon ahlining umidi dil istagan tarzda ruyobga chiqdi.

...Bu saodat nishonli taxtga chiqish voqeasi (807 yil) muborak ramazon oyida (3 mart-1 aprel, 1405) saltanat poytaxti Hirotda xushbaxtlik va yaxshilik bilan voqe bo'ldi; olam ahli, xususan, Xuroson viloyati aholisi, bu mukarram taxtga o'tirish bashoratidan (shodlanib) xalifalik tugunlarining tartib ipiga tizilishi va saltanat abadiyligining mustahkamlanishini notavonlik duosi bilan iltijo qildilar; jahon amnu omonlik himoyatida orom oldi.

...Shu orada mirzo Xalil Sulton¹⁹⁹ning saltanat poytaxti Samarqandni davlat markazi qilib olib, arki oliyga kirganligi va olam xazinalarini o'z egalik qo'liga kiritganligi (xabari) shavkatli quloqlarga yetishdi. Tangri yog'dusini ko'paytirgur nur sochuvchi fikr (Shohrux) hazrat sohibqironning sultonlik taxti qoidalariga biror futur yo'l topmasdan burun hoqon hazratlarining inoyat oftobi u mamlakat ustida porlamog'i kerak, degan (ma'nini) taqozo etdi; ulug' amirlar: amir Mizrob, amir Hasan So'fi tarxon, amir Aliko ko'kaltosh va amir Xo'ja Rostiylarni Xuroson yerlarini boshqarib turishga tayin qildi hamda quyoshdek yorqin bayroqlaru oy ko'rinishli tug'lar saltanat poytaxti Hirotdan Movarounnahr tomon yo'naldi. To'quzrabotga (yetganda Shohrux) amir Sayfuddin o'g'li amir Abdussamadni Bodg'is lashkarlarini to'plashga jo'natdi. Xizrxo'ja bilan Shayx Hasan qavchinni Samarqand (49)

¹⁹⁹ Xalil Sulton - (1384-1411), temuriylardan bo'lgan Movarounnahr hukmdori (1405-09). Amir Temurning nabirasi. Mironshohning o'g'li.

xabarlarini surishtirib bilishga tayinladi. Darayi Zangi manzilida Movarounnahrdan amir Sayidxo‘ja yetib keldi va u diyor xabarlarini arz yeriga yetkazdi.

Onhazrat davlat arboblarini hozir qilib, (oyatda kelgan) (dunyo) ishlarida ular bilan maslahatlash (degan) amr taqozo-sicha, mashvarat qur‘asini o‘rtaga soldi. Har kim o‘z farosat-idrokiga yarasha mamlakat ishlari borasida qaysi so‘zni davlat farovonligi uchun durust topgan bo‘lsa, arzga yetkazdi. Oxiri, humoyun bayroqlar Movarounnahr tomon jo‘nab ketgach, di-yordan yiroqlashish sodir bo‘lishi mumkinligi sababli mulk be-zatuvchi fikr ehtiyot yuzasidan Hirot shahrini tuzatish va mustahkamlash lozim (degan) qarorga keldi. Hazrat sohibqiron Hirotni fath qilgan zamondan beri darvozalar qo‘porilgan va devorlar raxna holida bo‘lib, shahar xarobaligicha yotar edi. Bugun sultonlar taxtgohiyu haqiqat arboblari quyoshining chiqish joyi va hojatlar ka‘basiyu murodlar qiblasi bo‘lgan qubbat ul-islom Hirotni amir Jaloluddin Feruzshoh, ma‘mur qilsin, degan oliy farmon sodir bo‘ldi.

Amir Feruzshoh Hirotga keldi va andak muddatda bora, fasil, darvozalar va muqotalalarni shunday bir tarzda mustahkamlab tuzatdiki, unga yana biror qo‘shimchani tasavvur qilib ham bo‘lmas edi. Uning burjlari balandlikda (osmon) avjiga bosh tortdi, xandaqi esa yer qa‘riga yetdi. Ulug‘ podshohlardan bir nechtasi bu shaharni qurishda, quyidagi ruboiy guvohlik berib turganidek, ko‘p jiddu jahd ko‘rsatib, bor g‘ayratlarini bu ishga sarflaganlar. ...

Amir Sayidxo‘ja jahon bo‘ysunuvchi hukmga muvofiq Tus, Mashhadi muqaddas, Niso, Abivard, Nishopur va Sabzavor viloyati chegaralaridan xabardor bo‘lib turish va Tus qal‘asini mustahkamlash uchun u tomonga jo‘nab ketdi.

Humoyun mavkab Murg‘ob suvidan o‘tib Shayxzoda Boyazid langariga yetdi. Birinchi jildda mufassal sharhlab o‘tilganidek, sohibqironning (vafoti) voqeasi zamonida Toshkand

atrofida amirlardan yuz o'g'irgan amirzoda Sul-ton Husayn Movarounnahr tarafidan shu manzilga yetib keldi va hazrat xoqoni sayd unga mehribonlik ko'rsatdi. Samarqand xabarlarini bilish uchun ketgan Xizrxo'ja va Shayx Hasan qavchinlar ham shu orada qaytib kelishib, davlat va dinning ko'makchisi, lutfu karam egasi bo'lmish mirzo Xalil Sul-tonning taxtga o'tirishi sharhini arz yeriga yetkazdilar. Onhazrat amir Hamza qatuquni mirzo Xalil Sul-ton huzuriga elchilikka jo'natib, muruvvat tili bilan ushbu xabarni yubordi: «Musibatlar qalqoni bo'lmish tangri hujjatini yoritgur padari buzurgvor Olloh rahmatiga yetishdi; bugun sen menga birodar va farzand o'rnida jondan shirinroq va ko'z nuridan azizroqsen; xazina, mamlakat va askarlardan nimani orzu qilsang, sendan darig' tutmaymen, ammo (mening) yoshim kattaligi, yaqin kishilarni oldindan aniqlash, bandalaru asl xodimlarni rioyat qilish ishlarining nozik taraflarini bilishim (senga) ravshan va (oramizda) tug'ishganlik iplari mahkam. Agar ba'zi amirlar masofat yiroqligi va fitnayu ofat qo'rqinchi sababli biz yo'qligimizda ittifoqqa kelgan bo'lsalar, endi maslahat shuki, sen to'la ziyraklik yuzasidan ish tutib huzurimizga (51) kelgin, toki biz nimani ma'qul topsak, shunga ittifoq tuzib amal qilaylik».

Zafar alomatli bayroqlar Andxuddan o'tib Jayhun labiga yetdi; buyruqqa binoan ko'prik bog'ladilar.

Buxoro tarafdan amir Shohmalik kelib shahzodalar: saltanat nuri diydasi Mag'isuddin Mirzo Ulug'bek ko'ragon va mamlakat bog'ining guli G'iyosuddin mirzo, Ibrohim Sul-tonlar ahvoli haqida arz qildi va xushvaqtlikka boisu xursandlikka sabab bo'ldi.

Mirzo Xalil Sul-tonning elchisi yetib kelib shahzoda nomidan arz qildi: «Men onhazratning bandasi, davlatxohi va inisi-men; ammo hazratimizning elu uluslari Xurosondadir; albatta u mamlakatni tashlab ketmasalar kerak va bu viloyatni biror qo'llariga yoki ini va noiblariga topshirarlar. Shunday bo'lgach, bu ishga mendan boshqa qaysi bir qul qobiliyatliroq bo'la olishi

mumkin?! Agar iltimosni qabul qilib, yaqin qarindoshlik huquqiga rioya qilsalar va baxtu saodat bilan qaytib ketsalar, men xazina va mol yuboramen hamda har nimagaki ishorat qilsalar, bajo keltiramen».

Hazrat hoqoni sayd bu iltimosni qabul qilib, orqaga qaytdi va amir Shohmalikni shahzodalar talabida Buxoroga yubordi.

Andxud atrofiga etganda amirzoda Sul-ton Husayn hech bir sababsiz oliy o'rdudan qochib ketdi.

Mirzo Xalil Sul-ton Samarqanddan chiqib to'la qurollangan lashkar bilan (Jayhun) suvi labiga kelayotganligi haqida Samarqanddan xabar keldi. Buxoroda turgan amirlar bu xabarni eshitib, u yerning dorug'asi amir Rustam Tag'oy Buqoning muxolifatchiligi sababli, shahardan chiqdilar va har ikkala olijanob shahzodalar jilovida suvdan o'tib humoyun o'rduga yetishdilar. Amir Shayx Nuruddin ham (lashkarga kelib) qo'shildi. Amir Abdussamad Bodg'is lashkarlarini olib kelib, ular zafar panohidagi sipoh adadini orttirdilar.

Hazrat xoqoni sayd Dukaga yetganida amir Pir Ali Toz mirzo Xalil Sultondan ajralib Balxga kelganligi haqida (52) xabar yetdi. Onhazrat ulug' amirlar: amir Shayx Luqmon barlos, amir Cherkas va amir Yusufxo'jalarni u tarafga yubordi.

Bundan ilgariroq amir Shohmalik farmonga muvofiq suv yoqasini zabt qilish uchun ketgan edi, shu orada uning arzasi yetib keldi. Mazmuni shunday: «Samarqand tarafidan mirzo Amirak Ahmad, amir Shamsuddin Abbas va amir Arg'unshohlar keldilar; onhazrat inoyat ko'rsatib amir Shayx Nuruddinni yuborsalar, toki u (mazkur) amirlar bilan so'zlashsa, yana o'zlari hokimdirilar». Hazrat hoqoni sayd esa: «Amir Shamsuddin bilan amir Argunshoh bizning huzurimizga kelsinlar, Shayx Nuruddin esa farzandimiz Xalil Sul-ton huzuriga borib, har nimagaki shartu ahd qilsalar unga vafo qilib, qaytib keladi», – deb buyurdi. U tarafning amirlari yetib kelgach, amir Shayx Nuruddin jo'nab ketdi va mirzo Xalil Sul-ton huzuriga yetishib arz qildi: «Amir sohibqiron jahon saltanat taxti bilan vidolashar ekan,

ko'p mamlakat va son-sanoqsiz xazinalar qoldirdi, endi farzandlardan lozimki, do'stlarga sadoqat va dushmanlarga adovat ko'rguzishda og'a-inilik shartlariga qattiq rioya qilsinlar, barcha ishlarda Olloh senga karam qilganidek, sen ham yaxshilik qilgin (degan oyat) buyrug'iga amal qilib, bir-birlariga madad berishda xuddi zanjirdek muvofiqlik yo'lini tutsinlar, (suv) qatrasini kabi o'z hamshevalari ketidan ergashsinlar va agar, xudo ko'rsatmasin, inson hech mahal amin bo'lolmaydigan shayton vasvasasiga duch kelingudek bo'lsa, bunday kunda sizlar malomatdan xolisizlar (degan oyat) yo'li ochiq bo'lmog'i lozim, toki aziz xotir oynasi yuzidan biror g'ubor ko'rinmasin. Shuningdek, dushmanlarga qarshi turishda ham bir tan, bir jondek bo'lsinlar, toki mamlakatlar ahvoliga tartibsizlik yo'l topmasin va har kimning fikrida behuda xayollar naqshlanmasin. Agar birodarlar orasida rahm-shafqat sunnati hukmron bo'lib iltifot yo'lidan yurilsa, inoqlik durdonalari tartib ipiga tizilib, muvofiqatchilik ishi rivoj topgusidir. (Xalil Sulton) bizning hazratimiz (Shohrux)ni murodlar qiblasini va istaklar ka'basi deb bilmog'i lozim, toki do'stlar (53) masrur va dushmanlar mute' bo'lsin, mamlakatda osoyishtalik o'rnatilib, davlat poydor qolsin!».

Hazrat sohibqiron Shom va Rumba qilgan yurishidan qaytib kelayotgan paytida amir Sulaymonshohni Ray hududida qoldirib, Rustamdor va Feruzko'h yerlarigacha unga bag'ishlagan edi, u, onhazratning vafoti haqidagi dahshatli voqea xabarini eshitgach, Muizzuddin mirzo Mironshohning zarbasi va savlatidan qo'rqib, o'z tasarrufidagi viloyatni qoldirib, hazrat hoqoni sayd xizmatiga yetib keldi va sharif barmoqlarni o'pish davlatiga yetishish bilan mag'rurlik va baxtiyorlikka erishdi hamda ko'p e'zoz-ikromga sazovor bo'lib, ulug' amirlardan ortiq imtiyoz topdi. Soriy viloyati sardorligini o'z dilovarlik uhdasiga olgan amir Pir Muhammad Shangum amir Sulaymonshohning qochib ketganidan ogoh bo'lgach, u ham Soriyni g'orat qilib, bir ming otliq bilan

dorussaltana Hirotga keldi va bir kun bu erda turgach, ertasiga oliy o'rdi tomon yuzlandi, biroq eski adovat tufayli unga nisbatan dillarida gina saqlab yurgan va (Shohrux qulog'iga) ko'ngilsiz so'zlarni quygan amir Sulaymonshoh va amir Jahonmulklarning sa'y-harakatlari orqasida yosoqqa topshirildi.

Amir Shayx Nuruddin mirzo Xalil Sulton huzurida har ikki tomon muhabbat qoidalarini yaqinlashtirish va har ikki taraf orasidagi do'stlik bog'ichlarini mustahkamlash borasida ko'p jiddu jahd ko'rsatdi. Mirzo Xalil Sulton ahdga ko'nib, hazrat xoqoni sayd har nimaiki buyursa tegishli tarzda bajo keltirishni o'z zimmasiga oldi. Amir Shayx Nuruddin (Shohrux lashkargohiga) qaytib kelib, Xonika begimni ba'zi xazinalar bilan birga Balx tarafga, mirzo Pir Muhammad ibn mirzo Jahongir huzuriga yuborishlari, shahzodalar: Mirzo Ulug'bek ko'ragon va mirzo Ibrohim Sultonlarga tegishli xazinalarni qanday bo'lsa shundayligicha, ularning Samarqandda qolgan xazinachi va navkarlari bilan birga, humoyun o'rduga jo'natishlari va Jayhunning u tarafidagi mamlakatlar mirzo Xalil Sultonga tegishli bo'lishi haqida qaror qilinganligini arz yeriga yetkazdi. Hazrat hoqoni sayd (54) amir Shayx Nuruddin nimani maslahat ko'rgan bo'lsa, ma'qul topdi va amir Shayx Nuruddin, amir Abdussamad, Bakana Baxshiy va Oллоhdodlarni Jayhundan o'tib, barcha muhim ishlarni saranjom qilib qaytishga tayinladi.

Onhazratning saltanat poytaxti Hirotga qaytish qarori qat'iy hal bo'ldi. Amir Sulaymonshoh o'zining tumani yaqin kunlarda uzoq yo'ldan kelib, otlar oriq ekanligi tufayli bir necha kunni Andxud va Shibirg'on atroflarida o'tkazishga ruxsat so'rab arz qildi. Hazrat hoqoni sayd iltimosni qondirib: «Suvning narigi tomoniga ketgan amirlar qaytib kelgach, birgalashib olampanoh dargohga yuzlaninglar», – deb buyurdi.

Bundan ilgariroq amir Sayidxo'janing navkari Xuroson chegaralaridan kelib Xo'ja Sulton Ali Sabzavoriyning itoat yo'lidan bosh tortib bir guruh sarbadorlar bilan birgalikda

zabardastlik va gardan yo'g'onlik izhor qilayotganligini arzga yetkazgan edi. Shu orada Hirot tarafidan amir Mizrob kelgan edi, u amir Sayidxo'jaga madad berish uchun Sabzavor tomon yuzlansin va u diyorda hech kimni omon qoldirmasin, degan farmon sodir bo'ldi.

Abdurazzoq Samarqanday. Matlai Sa'dayn va Majmai Bah-rayn. T.: O'zbekiston, II jild. 2008.

MOVAROUNNAHR VA TURKISTON MAMLAKATINI SALTANAT VA BAXT OSMONINING OYI MIRZO ULUG'BEK KO'RAGONGA INOYAT QILINGANLIGI ZIKRI

Hazrat xoqoni Said Movarounnahr va Turkiston mamlakati viloyatini saodatli farzand, ruh rohatiyo dil quvvati, ko'z nuriyu din ko'makchisi Mirzo Ulug'bek ko'ragonga bag'ishladi.

Bu baxtli farzand garchi adolat usullarini ado etish va siyosat hukmlarini yurgizish bobida hech bir qo'zg'otishu qiziqtirish, tushuntirishu rag'batlantirishlarga muhtoj bo'lmasa ham, onhazrat otalik shafqati yuzasidan podshohona iltifot bilan nasihat so'zladi: «Haq, taolo bu buyuk in'om va ulug' marhamatni bizga ato qildi; yarog'-aslahamizning ojizligi va holatimizning nuqsonliligiga qaramay bizni tanlash nazari bilan taqdirlab, farmonimizni olam mamlakatlari uzra joriy qildi, bu - Ollohnig lutfidir, Olloh uni xohlagan kishisiga ato qiladi. Endi davlat va podshohlik qadrini bilib, ilohiy ne'mat shukrini bajo keltirgin hamda insof va adolat eshiklarini hojatmandlar yuziga ochiq tutgin, barcha ishlarda (oyatdagi) Yo Dovud! biz seni yerda (o'zimizga) xalifa qilib tayin etdik, endi sen odamlar orasida haqqoniy hukm yurit! (degan so'zlarga) muvofiq amal qilgin, Olloh o'z salomini yo'llagur payg'ambar varasalari bo'lmish ulamolarni ehtirom ko'zi tagiga olib, in'om nazari bilan mamnun (162) tutgin, diniy mojarolar bo'yicha (ish ko'rganda) ularning fatvosini chetlab o'tmagin, «Hidoya»ning muallifi deb mashhur

bo'lgan millatu dinning dalili shayxulislom Abduljalil al-Marg'loniyning atoqli va oliy maqom xonadoniga nisbatan izzat-ehtiromda bo'lib, u kishining avlod-ajdodlaridan tortib islom mashoyixlari va zamona yo'lboshchilari bo'lib kelayotgan farzandlarini hammadan yuqori qo'yib, barcha hollarda ularning sha'n-shavkati mulohazasiga rioya qilgin, qozilar qo'lini shariat hukmlari ijrosida baquvvat tutgin, olam obodonligining sababi va odamzod rizqining vositasi bo'lmish dehqonlarni zulmu adolatsizlikdan himoya qilib, adlu insof bilan (o'zingga) yaqin qilgin, davlat chegaralarining nigohbonlari va mamlakat ichkarisining qo'riqchilari bo'lgan lashkarlar toifasini ochiq yuzlik va xushmuomalalik bilan o'zingga mute va itoatkor qilib, ularning yollanma haqlari va maoshlarini belgilangan vaqtda to'la yetkazib turgin, jonsiporlik shartlarini bajarishda tegishlicha jiddu jahd ko'rsatganlarga in'omni oshirgin va ba'zi tashlab qochuvchilar yo'lini tutganlarga saza berib jazolagin; xullasi barcha hollarda ishning yaxshisi (miyonasidir) (degan hadis)ga amal qilib haddan ortiq yoki keragidan oz chora ko'rishdan ehtiyot bo'lgin, chegaralarga ish ko'rgan va tiriklikning achchiq-chuchugini tatigan kishilarni tayin qilib, u yerlar qal'alarining mustahkamligi borasida zaruriy choralarni ko'rgin».

Hazrat xoqoni said saodatmand farzandning saltanat asboblarini muhayyo qilib, (uning yoniga) shijoatli, dovyurak amirlar va farosatli bolayoqat vazirlarni tayinladi hamda u viloyatning hal qilish va man etish jiloviyu yig'ib olish va tarqatish ixtiyorini adolatlikda peshqadam bo'lgan olijanob ulug' amir – amir G'iyosuddin Shohmalikning to'g'ri ra'yi va ziyrak fikriga topshirdi, u o'zining o'tkir bilimicha nimani munosib ko'rsa (shu bilan) mamlakat ishlarini tartibga solishga kirishsin, deb uning donoligi va sof bilimiga e'timod qo'ydi.

Abdurazzoq Samarqanday. Matlai Sa'dayn va Majmai Bahrayn. T.: O'zbekiston, II jild. 2008.

TEMURIYLAR DAVRIDA XORAZM

Bu daftarda Xorazmning ahvoli hali yoritilmaganligi tufayli, qalamning raqami (u viloyat ahvolini xoqoni saidning) qutli folli taxtga o'tirish vaqtidan boshlab yilma-yil qisqa-qisqa qilib yoritishga va u viloyat voqealari sharhini taqrir qilib o'tishga jazm qildi. Ahvol quyidagilardan iborat: Sohibqiron házratlarining (vafoti) voqeasi davrida amir Musoko Xorazm hokimi edi. Birinchi jildda mufassal aytib o'tilganidek (sohibqiron) hazratlari sakkiz yuz oltinchi yili (1403-1404) Rumdan (ko'chirib) keltirgan qaro totor qavmi mirzo Xalil sultonning saltanati zamonida Movaraunnahr viloyatidan qochib, Xorazmga ketdi va bu qavm bilan amir Musoko o'rtasida jang otashi alanga oldi hamda qaro totorlar alangasi uchquni Xorazm yerlarini kuydirib, ular Rumga qarab jo'nadilar. Shoxidxonning amir ul-umarosi amir Idiku²⁰⁰ Dashti (Qipchoq) tomonidan Xorazmni egallash tamasida yo'lga chiqdi. Amir Musoko Movaraunnahrga jo'nadi va amir Idiku sakkiz yuz sakkizinchi yil rajab oyida (23 dekabr, 1405 – 21 yanvar, 1406 yil) Xorazmni egalladi hamda bu yerga amir Ankoni hokim qilib qoldirib, o'zi Dashti (Qipchoq) tomonga jo'nadi. Bir to'da iroqliklar iydi ramazon kuni (1 shavvol 808 – 22 mart, 1406 yil) mirzo Xalil Sultondan yuz o'girishib Samarqanddan Xorazmga jo'nadilar va u yerga borgach, Mozandaronda hazrat xoqoni Saidning jangidan qochib Xorazmga panoh tortib ketgan pir podshoh ibn Luqmon podshoh ibn Tag'oy Temurxonni podshohlikka ko'tardilar; mirzo Xalil Sultondan olganlari behisob oltinlarni, nisor qilish rasmini ado etib, elga sovurdilar, so'ngra Mozandaronga qarab yo'naldilar. Ularning Mozandaronga kelganliklari qissasi yuqorida zikr qilindi.

²⁰⁰ Amir Idiku – (1352-1419), No'g'ay O'rda xoni (1396 yildan), Oltin O'rdada amiri lashkar (1397 yildan), uning amaldagi hukmdori (1399-1412).

(Sakkiz yuz) oʻn birinchi yili (1408-1409) oylarida Shodixon vafot topib, Foʻlodxon podshoh boʻlguniga qadar Xorazmda amir Anko hokimligi barqaror edi. Ammo amir Idiku ahdlashilgan yoʻsinga binoan (Foʻlodxon huzurida ham) sohib ixtiyor boʻlganligidan u Ankoni chaqirib olib, Xorazm hokimligiga Bagʻaljani tayin qildi. Foʻlodxon (sakkiz yuz) oʻn uchinchi yil oylarida (1410-1411) vafot topib, Temur Qutlugʻxonning oʻgʻli Temurxon podshoh boʻldi va amir Idikuga qasd qildi. Amir Idiku yengilib Xorazmga keldi va (lashkarlarini) oʻnglab olib ulus tomon ketdi. Xorazmdan oʻn kunlik yoʻl boʻlgan Som mavzesida Temurxon tomonidan (yuborilgan) Ajak bahodir va Gʻozonlar unga duch kelib jang qilishga bel bogʻladilar. Bundan ilgariroq Xorazm hokimi qilib tayinlangan Bagʻalja qatlga yetkazilib, amir Idiku shikast topdi va Xorazmga keldi. Bu hol (sakkiz yuz) oʻn toʻrtinchi yil boshlarida (aprel-may, 1411 yil) sodir boʻldi. Dakana va Gʻozonlar amir Idiku izidan Xorazmga kelib, uni olti oy muhosara qildilar.

Shu miyonada Toʻxtamishxonning oʻgʻli Jaloluddin Sulton Temurxonga shikast yetkazib, oʻrdusini gʻorat qilganligi va Temurxonning (Xorazmga) kelayotganligi xabari eshitildi. Shuningdek Jaloluddin Sultonning chopari kelib, uning: «Bundan ilgari Temurxon (xon) edi, sizlar uning uchun shamshir urar edinglar, endi esa men xon boʻldim, (men uchun) saʼy-harakat koʻrsatib, bizning dushmanimiz boʻlgan Idikuni qoʻlga olinglar», – degan xabarini yetkazdi. Va yana Jaloliddin Sulton odam yuborib: «Agar Idiku oʻz oʻgʻli Sulton Mahmudni va bu oʻgʻli nikohida boʻlgan mening singlimni yuborsa va mening nomimdan pul zarb qilib (nomimni) xutbada yodlatsa, u bilan jang qilmasdan qaytib kelinglar», – (degan xabarni berdi).

Jaloluddin Sultonning singlisini oʻz nikohiga olgan amir Gʻozon sulh tuzishga mayl qildi. (Lekin) Temurxonning singlisini olgan Dakana oʻzini u xabardan bexabardek hisobladi. Shu holda falakdan jabr koʻrgan Temur Xorazmga yaqin yetdi.

G'ozon Dakanani sharob ichish bilan mashg'ul qilib qo'ydi-da, o'z navkari Jonxo'jani yuborib baxti qaro Temurxonni qatлга yetkaztirdi. Buni eshitgan Jaloluddin Sulton amir G'ozondan minnatdor bo'lib: «G'ozon bizning xonimizdir, uning buyrug'ini bizning hukmimiz deb bilinglar», – degan nishon-xat yubordi. Amir Dakana esa Temurxon uchun aza tutdi.

(Xorazmni) muhosara qilib turgan amirlar ichida urug' jihatidan eng ulug'i Xizr o'g'lon bo'lib, undan keyin Dakana va ulardan keyin G'ozon edi. (Temurxonni o'ldirish) voqeasi bilan (G'ozon) hammadan ham yuqoriroq ko'tarildi. Amir Idiku sulh tuzdi va (shahardan) tashqari chiqib (hammalari) bir-birlariga to'y berdilar. Amirlar muhosarani tark qilib Jaloluddin Sulton tomon yuzlandilar.

Qajuloy bahodir Baluqiyo mavzesida ularga yetib olib: «Xorazmni olmay nega qaytdinglar?» – deb ta'na qildi. Amirlar unga javoban: «Bizlar o'n ming kishi bilan to'la yetti oy davomida muhoraba va muhosara qilib, olishning uhdasidan chiqa olmadik. Senda esa uch-to'rt ming kishidan ortiq edam yo'q, qaytib ketgan durustroq, Chunki biz sulh so'zlarini aytdik va (amir Idiku) o'z o'g'lini xon huzuriga yuboradi», – dedilar. Qajuloy esa: «Idikuga mening bir puf deyishim kifoya qiladi », – deb maqtandi va shu mag'rurlik bilan Xorazmga qarab jo'nadi.

Amir Idiku bundan xabar topib, unga qarshi otlandi. Uning lashkari kamroq bo'lganligi tufayli u makru firib yo'liga o'tib, kechasi yo'l yurar, kunduzi esa pinhon o'tirar edi. (Ikki lashkar) bir-biriga yaqinlashgach, amir Idiku o'z lashkarini ikkiga bo'ldi. Ulardan biriga dushmanga ro'baro' kelgach, jang boshlab qo'yib, so'ng yengilgandek tarqalib ketishni buyurdi. Amir Idiku lashkariga eski namat, ot yopig'i va to'rvalarini bo'qchalar shaklida tugib olib, qochib ketayotgan vaqtda har tarafga tashlab borishni tayinlab qo'yg'an edi. Amir Qajuloy yetib kelgach, amir Idikuning kishilari jangni boshlab qo'yib, so'ng qochishga tutundilar. Qajuloyning lashkari dushman shu ekan,

degan tasavvur bilan, o'lja olish hirsida qochuvchilar ketidan ot qo'ydilar. ...

Shu paytda amir Idiku bahodir yaraqlab turgan tig'laru chaqnaq turgan nayzalar tutib boshqa tomondan yetib keldi. Qajuloy o'z lashkari dushman ketidan ketganligiga qaramay jang qilishdan o'zga chora topolmadi va bahodirona sa'y-harakatlar va dilovarona hamlalar qilsada, oqibat qatlg'a yetdi. Amir Idiku uning kallasini Xorazmga yubordi-da, tug'ini tiklab quyishga buyurdi, uning nog'orachilari esa nog'ora chalib turdilar. O'lja ketidan ketgan dushmanlar o'z tug'larini ko'rib to'da-to'da bo'lishib kela berdilar va balo domiga tushib, gardanni g'ul xorligigayu qo'lni band bog'ichiga tuta berdilar. Shu tadbir bilan mingtacha odam asir olindi va amir Idikuning lashkari o'ljalar bilan Xorazmga qaytib keldi. Asirlarni mustahkam bandlarga soldilar-da: «Ulardan birontasi qochib ketgudek bo'lsa, unga qarab turuvchi kishi qatlg'a yetkaziladi va butun mahallasi g'orat qilinadi», – degan shart bilan raiyatga topshirdilar. Shahar aholisi zahmat ostida qoldi.

Shu yili, ya'ni (sakkiz yuz) o'n beshinchi sanada (1412–1413) hazrat xoqoni Said Xorazmga bir lashkar tayin qildi. Xuroson amirlaridan amir Aliko va amir Ilyosxo'jalar ko'p sonli sipoh bilan ravona bo'ldilar. Movarounnahrda esa besh ming otlig' bilan amir Musoko u diyorga jo'nadi. (Ikki lashkar) Xorazmga yaqin yerda bir-biriga qo'shildi. U vaqtlarda (Xorazmda) amir Idikuning o'g'li Muborakshoh hokim bo'lib, Bekijak devon amiri va sadr qozi (mansabida) edi. Lashkar kelayotganligi xabari aniqlangach, mulk a'yonlari jam bo'lishib kengash tuzdilar. Ko'pchilik sulh tuzishni maslahatdan deb bilardi, ba'zilar shaharni tashlab ketish yo'lini tanlar, qolganlar esa qarshi turib jang qilishni ixtiyor qilar edilar. Shu asnodam amir Aliko elchi yubordi-da, ularni yupantirib o'ziga og'dirgandek bo'ldi. Sulh tarafdorlari sovg'a-salomlar chiqardilar va xorazmliklarning aksari sulh tuzishga moyil bo'ldilar. (Biroq) amir Sayid Ali va

amir Ilyosxo‘jalarning navkarlari bir yerga borib bir qancha kishilarni o‘ldirgan va asir olgan edilar, xorazmliklar vahimaga tushdilar va jang qilishga moyil bo‘lib turgan bir guruh jur‘at topdi hamda hosu omdan iborat katta bir to‘da (shahardan) tashqari chiqib, jang boshlanib ketdi. Orada sulh tuzish so‘zlari aytilib turganligi sababli lashkarlar har tarafda tarqoq holda edilar. Xorazmliklar o‘sha kuni to kechgacha qattiq jang qildilar, kechasi esa: «Amir Idiku va Chingiz o‘g‘lon yetib kelishdi», – degan ovozani tarqatib, shodlik nog‘orasini chaldilar.

Kunduzi xorazmliklar jur‘atini ko‘rgan, kechasi esa Idiku (kelganligi) xabarini eshitgan amirlar kechasiyoq ot jilovini orqaga burdilar. Xorazmliklar orqadan kelib, ularning yuklarini o‘lja qildilar.

Hazrat xoqoni said bu xabarni eshitishdan g‘azabga kelib «amir Sayid Ali tarxon va amir Shohmaliklar Xorazmga yurish qilsinlar, Movarounnahr lashkari ham ularning huzuriga kelsin», – deb farmon berdi. Onhazrat o‘tgan navbat yurishda raiyatga zulm o‘tkazganlardan qaysi birini aniqlangan bo‘lsa, uni qattiq koyidi va: «Bu gal ilohiy madad bilan Xorazm qo‘lga kiritilsa, o‘tgan navbat jur‘at ko‘rsatgan jamoatdan intiqom olsinlar, lekin qolgan raiyatga biror zahmat o‘tkazmasinlar», – deb buyurdi. Amirlar Xorazmga yaqinlashgach, amir Idikuning o‘g‘li (Muborakshoh) Xorazm aholisiga ko‘p xarxashalar qilib behisob mol yig‘ib olganligi hamda: «Sizlar dushman tarafini oldinglar, sovg‘alar chiqardinglar», – degan bahona bilan ba‘zilarni o‘ldirgan va bir guruhni bandga solganligi, binobarin, xorazmliklar undan bezor ekanliklari xabarini eshitdilar. Yana ular hazrat xoqoni said Xorazm raiyatiga zulm o‘tkazgan bir kishining quloq-burnini kestirganligi va shu tufayli raiyatlar tab‘an bu tarafga moyil ekanliklari, Idikuning o‘g‘li (Muborakshoh) sarosimaga tushib otasi tomon qochib ketganligi xabarini ham oldilar.

Amirlar bu xabarlarni aniq bilgach, shahar ro‘baro‘sigga kelib turdilar. Shaharning sayidlari, ulamo va ayonlari sovg‘a-salom-

lar va tuhfalar olib chiqib, shaharni taslim qildilar. Amirlar esa zafar va g'alaba topib, Xuroson va Movarounnahr tomon qaytib ketdilar.

Amir Shohmalik bir necha kun (Xorazmda qolib) ishlarni qo'lga olish, aholining ehtiyojlarini sarishta qilish, mamlakat qoidalarini tartibga solish, adolat qonunlarini o'rnatish bilan shug'ullandi va o'zining salobatli ra'yi va o'tkir xotiri taqozosicha xosu omning barcha ehtiyojlarini saranjom qildi; so'ng u yerning muhofazati uchun yaxshi navkarlardan qoldirib, o'zi oliy taxt poyasiga yuzlandi va (sakkiz yuz) o'n oltinchi yil boshlarida (aprel, 1413) dorussaltana Hirotga yetib, cheksiz mehribonliklar bilan taqdirlandi. Bir necha vaqtdan keyin Xorazm hukumati unga topshirilib, hayotining oxirgi kunlarigacha uning qo'lida bo'ldi».

Abdurazzoq Samarqanday. Matlai Sa'dayn va Majmai Bahrayn. T.: O'zbekiston, II jild. 2008.

VAQOI'I SANAYI SALOS VA TIS'A MIA

(58) Bog'i Maydonning orqasi Ko'lba o'langiga tushuldi. Samarqand eli sipohiy va shahriy Puli Muhammad Chab navohisig'a qalin chiqtilar. Chun bizning el tayyor emas edilar, (43^a) yigitlar mustaid bo'lg'uncha Sultonquli va Boboqulini tushurub, qo'rg'onga eltilar. Bir necha kundin so'ng ko'chub, Ko'hakning orqasi Ko'lbaning boshig'a tushuldi. Sayid Yusuf-bekni ushbu kun Samarqandtin chiqardilar. Ushbu yurtga kelib mulozamat qildi.

Samarqanddag'ilar ul yurttin ko'chub, bu yurtqa kelganimizni endi tasavvur qilib, ko'maki sipohiy va shahriy birla Mirzo ko'prugigacha chiqtilar. Buyurdukkim, bo'lg'on yigitlar yaroqlanib otlandilar. Ikki tarafdin Puli Mirzodin va Puli Muhammad Chabdin zo'r kelturdilar. Tengri rost kelturdi, yog'iy bosildi.

O'bdan-o'bdan beklarni va yaxshi-yaxshi yigitlarni tushurub kelturdilar. Ul jumladin bir Muhammad Miskin Hofiz do'ldoy edi. Shahodat barmog'ini tushura chopib, olib kelturdilar. Yana Muhammad Qosim nabirani inisi Hasan nabira tushurub kelturdi.

Mundoq sipohiy va el tonig'udek yigitlardin xeyli bor edi. Yana shahr yatimlaridin Devonayi Jomabofni va Kal Qoshuqni kelturdilar-kim, jang-sangda va yatim(43^b)likda xira va saromad edilar. G'ori Oshiqonda o'lgan piyodalarning qasosiga buyurul-dikim, azoblar bila o'lturdilar. Samarqand eliga bu qulliy shikast edi. Mundin so'ngra qo'rg'ondin chiqmoqlari bartaraf bo'ldi. Ish anga yettikim, bizning el xandaq yoqasigacha borib, qul va dodak keltururlar edi.

Oftob mezon'ga tahvil qildi, sovuq tushti. Bori kengashga kirar beklarni tilab, kengashib so'z munga qaror toptikim, shahar kishisi muncha ojiz bo'lubtur, Tengri inoyati bila bu kun ham bo'lsa olurbiz, tongla ham bo'lsa olurbiz. Tashqari sovuqta tashvish torquncha shahrning yovug'idan ko'pub, bir qo'rg'onda qishloq solmoq kerak. Ketari ham bo'lsa ul mahalda betaraddudroq ketar bo'lur. Qishloqqa Xo'ja Diydorning olidag'i o'langga tushuldi. Qo'rg'ong'a kirib uy va kapa yerlarini ta'yin qilib, ustakor va muhassil qo'yub yurtqa kelduk. Necha kun qishloqi uylar tayyor bo'lg'uncha o'langda o'lturuldi.

Bu muddatda Boysunqur mirzo²⁰¹ Turkistonga Shayboniyxon²⁰²g'a, mutavotir kishilar yiborib, Shayboniyxonni ko'mak tilabdur. Qishloq uylari tayyor bo'lub qo'rg'onga (44^a) kirduk. Shayboniyxon Turkistondin ilg'ab o'shul sahari bizning

²⁰¹ Boysunqur mirzo - (1477/78-1499), Movarounahr hukmdori (1495-1497). Temuriylardan. Sulton Mahmud Mirzoning o'g'li, otasi hayotlik chog'ida Buxoro hokimi bo'lgan. U vafot etgach, ikki marta Samarqand taxtini egallagan, ammo tez orada aka-ukalar o'rtasida taxt uchun kurashda halok bo'lgan. Bobur uni jasur va adolatli hukmdor deb ta'riflaydi. Boysunqur mirzo «Odiliy» taxallusida g'azallar ham bitgan.

²⁰² Shayboniyxon - (1451-1510), Buxoro xonligida hukmronlik qilgan shayboniylar sulolasi (1500-1601) asoschisi. Abulxayrxonning nabirasi, Shohbudog' sultonning o'g'li. Abulxayrxon unga Shohbaxt deb laqab qo'ygan.

yurtumiz ustiga kelib turdi. Bizning cherikimiz yaqin emas edi. Qishloq maslahatig'a ba'zi Raboti Xo'jag'a, ba'zi Kobulg'a, ba'zi Sherozg'a borib edilar. Bovujud hozir cherik kishisi bila yasab chiqildi. Shayboniyxon turush bermay, Samarqand sari o'zini tortti, Samarqand navohisig'a bordi. Chun Boysunqur mirzoning muddaosidek bo'lmadi, yaxshi ixtilot qilmadi. Necha kundin so'ng hech ish qila olmay ma'yus Turkistong'a murojaat qildi.

Boysunqur mirzo yetti oy qabal tortti. Bir umidvorlig'i mundin edi, mundin ham noumid bo'ldi. Ikki-uch yuz och urug'i bila Qunduzg'a Xisravshohg'a o'zini tortti. Tirmiz navohisidin Amuni kechaturg'on mahalda Sayid Husayn Akbarkim, Sulton Mas'ud mirzoning ham urug'i, ham mu'tabar kishisi edi, Tirmiz hokimi edi, xabar topib, Boysunqur mirzoning ustiga keldi. Mirzo suvdin o'tub edi. Mirim Tarxon anda suvg'a bordi. Keyin qolg'on kishi-qaro partol-martolni oldi. Boysunqur mirzoning Tohir Muhammad otliq chuhrasi dag'i ilikka tushti. Boysunqur mirzoni Xisravshoh dag'i yaxshi ko'rdi. (44 b).

Boysunqur mirzo chiqqach, bizga xabar keldi. Xo'ja Diy-dordin otlanib, Samarqandg'a mutavajjih bo'lduk. Yo'lda akobir va beklar va yigitlar mutaoqib istiqbolga keldilar. Rabiul avval oyining avoxirida kelib, arkta Bo'stonsaroyg'a tushtum. Tengri taolo inoyati bila Samarqand shahri va viloyati muyassar va musaxxar bo'ldi.

Rub'i maskunda Samarqandcha latif shahr kamroqdur. Beshinchi iqlimdindur. Tuli (99*) ramzi nujumiy (56*) daraja va daqiqadur, arzi (40*) daraja va (59)daqiqadur. Shahri Samarqanddur, viloyatini Movarounnahr derlar. Hech yog'iy qahr va g'alaba bila munga dast topmag'on uchun baldayi mahfuza derlar. Samarqand hazrati amirul mo'minin Usmon zamonida musulmon bo'lg'ondur. Sahobadin Qusam ibn Abbas anda borg'ondur. Qabri Ohanin darvozasining toshidadur. Holo Mazori Shohg'a mashhurdur. Samarqandni Iskandar bino qilg'ondur. Mo'g'ul va turk ulusi Samirqand derlar. Temurbek

poytaxt qilib edi. Temurbekdin burun Temurbekdek ulug' podshoh, Samarqandni poytaxt qilg'on emastur. Qo'rg'onini, fasilning ustidin buyurdumkim, qadam urdilar. O'n ming olti yuz qadam chiqti....

Ma'muraning kanorasida voqi bo'lubtur, Sharqi Farg'ona va Qoshg'ar, g'arbi Buxoro va Xorazm, shimoli Toshkand va Shohruxiyakim, Shosh va Banokat bitirlar, janubi Balx va Tirmiz, Ko'hak suyi shimolidin oqar, Samarqandtin ikki kuro'h bo'lg'ay. Bu suv bila Samarqand orasida bir pushta tushubtur, Ko'hak derlar. Bu rudmuning tubidin oqar uchun Ko'hak suyi derlar. Bu suvdin bir ulug' rud ayiribturlar, balki daryochadur, Darg'am suyi derlar. Samarqandning janubidin oqar, Samarqandtin bir shar'iy bo'lg'ay. Samarqandning bog'ot va mahalloti va yana necha tumonoti bu suv bila ma'murdur. Buxoro va Qorako'lga-chakim, o'ttuz-qirq yig'och yo'lg'a yovuqlashur, Ko'hak suyi bila ma'mur va mazru'dur. Mundoq ulug' (45^b) daryo aslo ziroattin va imorattin ortmas, balki yozlar uch-to'rt oy Buxorog'a suv etmas. Uzumi va qovuni va olmasi va anori, balki jami mevasi xo'b bo'lur. Vale ikki meva Samarqandtin mashhurdur: sebi Samarqand va sohibiyi Samarqand. Qishi mahkam sovuqtur, qori agarchi Qobul qoricha tushmas. Yozlar yaxshi havosi bor, agarchi Qobulcha yo'qtur.

Temurbekning va Ulug'bek mirzoning imoroti va bog'oti Samarqand mahallotida ko'ptur. Samarqand arkida Temurbek bir ulug' ko'shk solibtur, to'rt oshyonliq, Ko'ksaroyg'a mavsum va mashhur va bisyor oliy imorattur. Yana Ohanin darvozasig'a yovuq qal'aning ichida bir masjidi juma solibtur, sangin, aksar Hindistondin eltgan sangtaroshlar anda ish qilibturlar. Masjidning peshtoqi kitobasida bu oyatni «Va iz Yarfa'u Ibrohim al-qavoida (ilo oxirih)»ni andoq ulug' xat bila bitibturlarkim, bir kuro'h yovuq yerdin o'qusa bo'lur. Bu ham bisyor oliy imorattur. Samarqandning sharqida ikki bog' solibtur, birikim yiroqroqtur, Bog'i Bo'ldudur, yovuqrog'i Bog'i Dilkushodur. Andin Feruza

darvozasig'acha xiyobon qilib, ikki tarafida terak yig'ochlari ekturubtur. Dilkushoda ham ulug' ko'shk soldurubtur, ul ko'shkta (46^a) Temurbekning Hindiston urushini tasvir qilibturlar. Yana Pushtayi Ko'hakning domanasida Konigilning qora suyining ustidakim, bu suvni Obi Rahmat ham derlar, bir bog' solibtur. Naqshi Jahonga mavsum. Men ko'rgan mahalda bu bog' buzulub edi, oti besh qolmaydur edi. Yana Samarqandning janubida Bog'i Chanordur, qal'ag'a yovuqtur. Yana Samarqandning quyi yonida Bog'i Shamol va Bog'i Bihishttur. Temurbekning nabirasi, Jahongir mirzoning o'g'li Muhammad Sulton mirzo Samarqandning tosh qo'rg'onida – chaqarda bir Madrasa solibtur. Temurbekning qabri va avlodidin har kimki Samarqandda podshohlik qilibtur, alarning qabri ul madrasadur.

Ulug'bek mirzoning imoratlaridin Samarqand qal'asining ichida Madrasa va xonaqohdur. Xonaqohning gunbazi bisyor ulug' gunbazdur, olamda oncha ulug' gunbaz yo'q, deb nishon berurlar. Yana ushbu Madrasa va xonaqohg'a yovuq bir yaxshi hammom solibtur, Mirzo hammomig'a mashhurdur, har nav toshlardin farshlar qilibtur. Xuroson va Samarqandda oncha hammom ma'lum emaskim, bo'lg'ay. Yana (46^b) bu madrasaning janubida (60) bir masjid solibtur, masjidi Muqatta derlar. Bu jihattin Muqatta derlarkim, qit'a-qit'a yig'ochlarni tarosh qilib, islamiy va xitoy naqshlar solibturlar, tamom devorlari va saqfi ushbu yo'sunluqtur. Bu masjidning qiblasida bila madrasa qiblasining orasida bisyor tafovuttur. G'olibo bu masjid qiblasining samti munajjim tariqi bila amal qilibturlar. Yana bir oliy imorati Pushtayi Ko'hak domanasida rasaddurkim, zich bitmakning olatidur. Uch oshyonliqdur. Ulug'bek mirzo bu rasad bila «Ziji Ko'ragoniy»ni bitibturkim, olamda holo bu zij musta'maldur. O'zga zij bila kam amal qilurlar. Mundin burun «Ziji Elxoniy» musta'mal erdikim, Xo'ja Nosir Tusiy Halokuxon zamonida Marog'ada rasad bog'latibtur, Halokuxondurkim, Elxon ham

derlar. G'olibo, olamda yetti-sekkiz rasad besh bog'lamaydurlar. Ul jumladin bir, Ma'mun xalifa rasad bog'labturkim, «Ziji Ma'muniy»ni andin bitibturlar. Bir Batlimus ham rasad bog'labtur. Yana bir Hindistonda raaja Bikramajit hindu zamonida Ujjayn va Dhardakim, Malo't mulkidur, holo Mandug'a mashhurdur, yana bir rasad qilibturlar, holo hindularning musta'mal Hindistonda ul zijdur. Bu rasadni bog'lag'oni (47^a) mi'ng besh yuz sakson to'rt yildur. Bu ul zijlarg'a boqa noqisroqtur.

Yana Pushtayi Ko'hakning domanasida g'arb sari bog'e solibtur, bog'i Maydong'a mavsum. Bu bog'ning o'rtasida bir oliy imorat qilibtur, Chilsutun derlar, du oshyona, sutunlari tamom toshdin. Bu imoratning to'rt burchida to'rt manordek burjlar ko'toribturlarkim, yuqqorig'a chiqar yo'llar bu to'rt burjdindur. O'zga tamom yerlarda toshdin sutunlardur. Ba'zini morpech xiyora qilibturlar. Yuqorig'i oshyonining to'rt tarafi ayvondur, sutunlari toshdin. O'rtasi Chordara uydur. Imorat kursisini tamom toshdin farsh qilibturlar. Bu imorattin pushtayi Ko'hak sari domanada yana bir boqcha solibtur, anda bir ulug' ayvon imorat qilibtur, bu ayvonning ichida bir ulug' tosh taxt qo'yubtur, tuli taxminan o'n to'rt-o'n besh qari bo'lg'oy, arzi yetti-sakkiz qari, umqi bir qari. Mundoq ulug' toshni xeyli yiroq yo'ldin kelturubturlar. O'rtasida darz bo'lubtur. Derlarkim, ushbu yerda keltirgandin so'ng bu darz bo'lg'ondur. Ushbu bog'chada yana bir chordara (47^b) solibtur, izarasi tamom chiniy, Chinnixona derlar. Xitoydin kishi yiborib kelturubtur.

Samarqandning qal'asining ichida yana bir qadimiy imorattur, Masjidi Laqlaqa derlar. Ul gunbazning o'rtasida yerga tepsalar tamom gunbazdin laq-laq un kelur, g'arib amredur, hech kim muning sirrini bilmas.

Sulton Ahmad mirzoning zamonida ham bek va bekot qalin bog' va bog'cha soldilar. Ul jumladin, Darvesh Muhammad tarxonning Chorbog'icha safolik, va havolik, va maddi nazarliq Chorbog' kam bo'lg'ay. Bog'i Maydondin quyiroq, balandining

ustida Kulba o'langiga mushrif bir Chorbog' solibtur, tamom bu o'lang oyog' ostidadur. Chorbog'da ham martaba-martaba yerlarni siyoq bila tuzatib, yaxshi norvanlar va sarv va safedorlar tikibturlar, xeyli saromad manzilidur. Aybi budurkim, ulug' suyi yo'qtur.

Samarqand shahri ajab orosta shahredur, bu shahrda bir xususiyati borkim, o'zga kam shahrda andoq bo'lg'ay. Har hirfagarning bir boshqa bozori bor, bir-birlariga maxlut emastur, tavr rasmedur. Xo'b nonvoliqlari va oshpazliklari bordur. Olamda yaxshi kog'az Samarqanddin chiqar. Juvozi kog'azlar suyi tamom Konigildin keladur. Konigil Siyohob yoqasidadurkim, (48^a) bu Qora suvni Obi Rahmat ham derlar.

Samarqandning Yana bir matoyi qirmizi maxmaldurkim, atrof va javonibqa eltarlar....

Temurbek Samarqandning hukumatini Jahongir mirzog'a berib edi. Jahongir mirzoning (62) vafotidin so'ng, ulug' o'g'li Muhammad Sulton Jahongirga berdi. Shohrux mirzo jami Movarounnahr viloyatini ulug' o'g'li Ulug'bek mirzog'a berib edi. Ulug'bek mirzodin o'g'li Abdullatif mirzo²⁰³ oldi. Bu besh kunluk o'tar dunyo uchun andoq, donishmand va qari otasini shahid qildi. Ulug'bek mirzoning favtining tarixi tavre voqi bo'lubtur. Nazm:

Ulug'bek bazhri ulumu xirad,
Ki dunyovu dinro az o' bud pusht.
Zi Abbos shahdi shahodat chashid,
Shudash harfi ta'rix «Abbos kusht».

Agarchi o'zi ham besh-olti oy besh saltanat qilmadi, bu bayt mashhurdurkim:

Padarkush podshohiro nashoyad, Agar shoyad ba shash mohash napoyad.

²⁰³ Abdullatif mirzo - (1423 - 1450), Mirzo Ulug'bekning o'g'li. Samarqand yakindagi Dimishq qishlog'i yonida otasini yengib, taxtni egallagan (1449). Abdullatifning roziligi bilan Ulug'bek va ukasi - Abdulaziz Mirzo qatl etilgan. Abdullatif olti oylik hukmronligidan so'ng, Ulug'bekning xos navkarlaridan Bobo Husayn bahodir tomonidan o'ldirilgan (1450).

Aning tarixi ham tavre voqi' bo'lubtur.

Abdullatif xisravi Jamshidfar ki bud, (50^b) Dar silki bandagonash Faridunu Zarduhusht. Bobo Husayn kusht jum'aash ba tir, Ta'rixash in naviski «Bobo Husayn kusht*».

Abdullatif mirzodin so'ngra Shohrux mirzoning nabirasi Ibrohim Sulton mirzoning o'g'li Abdullo mirzokim, Ulug'bek mirzoning kuyovi edi, taxtqa o'lturdi. Bir yarim yil-ikki yilg'a yovuqg'a podshohlik qildi. Andin so'ngra Sulton Abusaid mirzo oldi, o'z hayotida ulug' o'g'li Sulton Ahmad mirzog'a berib edi. Sulton Abusaid²⁰⁴ mirzodin so'ng Sulton Ahmad²⁰⁵ mirzo podshohliq qildi. Sulton Abusa'id mirzoning vafotidin so'ng Sulton Mahmud²⁰⁶ mirzo Samarqand taxtig'a o'lturdi. Sulton Mahmud mirzodin so'ng Boysunqur²⁰⁷ mirzoni podshoh qildilar. Tarxonlarning g'avg'osida Boysunqur mirzoni tutub, inisi Sulton Ali²⁰⁸ mirzoni bir-ikki kun o'lturg'uzdilar. Yana Boysunqur mirzo o'q oldi. Nechukkim, bu tarixda mazkur bo'ldi. Boysunqur mirzodin men oldim, mundin so'nggi vaqoyida o'zga kaifiyatlar ma'lum bo'lg'usidir.

Samarqand taxtig'a o'lturg'och, Samarqand beklarini burungudek-o'q rioyat va inoyat qildim. Bizning bila bo'lg'on beklarni ham faroxo'ri hollarig'a (51^a) yarasha tarbiyat va shafqat qildim. Sulton Ahmad Tanbal²⁰⁹ning borasig'a rioyat ko'prak voqi bo'ldi. Ichki beklar chargasida edi, ulug' beklar chargasida rioyat qildim. Samarqandnikim, yetti oy muhosara qilib tashvishlar bila olduk, avval kelganda cherik eliga o'lja-

²⁰⁴ Sulton Abusa'id - (1424-1469), temuriylardan. Mironshohning nabirasi. Mirzo Abdullaga qarshi Abulxayrxon yordamida qo'shin tortgan va 1451 yil Bulung'ur jangida uni tor-mor keltirib, Samarqand taxtini egallagan. Xuroson hokimi Abulqosim Bobur vafoti (1458) dan so'ng Hirot, Astrobod, Mozandaron Abusa'id qo'liga o'tib, markaziy hokimiyat tiklangan.

²⁰⁵ Sulton Ahmad - Sulton Abusa'idning o'g'li, Movarounnahr hukmdori (1469-1494).

²⁰⁶ Sulton Mahmud - Sulton Abusa'id o'g'li, Movarounnahr hukmdori (1494-1495).

²⁰⁷ Boysunqur - Sulton Mahmudning o'g'li, Movarounnahr hukmdori (1495-1497).

²⁰⁸ Sulton Ali - (1483-1500), Sulton Maxmudning o'g'li. Movarounnahr hukmdori (1498-1500).

²⁰⁹ Ahmad Tanbal - Boburning dushmani, Andijonda unga qarshi isyon ko'tarib, Boburning ukasi Jahongir Mirzoni Andijon taxtiga o'tqazishga harakat qilgan.

mo'ljadek nima tushib edi. Bir Samarqandtin o'zga jami viloyatlar manga kirib edi, to Sulton Ali mirzog'a, bu kirgan viloyatlarni chopib bo'lmas edi. Muncha talon va toroj tortg'on viloyatlardin nima olmoq xud nechuk muyassar bo'lg'ay.

Cherik elining o'ljasi tugandi. Samarqandni olg'onda Samarqand andoq xarob erdikim, madad va tuxm va taqovig'a ehtiyoj bor edi. Chi joyi ulkim, kishi andin nima ola olg'ay. Bu jihatlardin cherik eli ko'p tanqislik torttilar. Biz ham elga nima yetkura olmaduk. Uylarini ham sog'indilar. Birar-ikkirar qochmoqg'a yuz qo'ydilar. Avval kishikim, qochti, Xonquli Bayonquli edi, yana Ibrohim Bekchik edi. Mo'g'ullar tamom qochtilar. So'ngra Sulton Ahmad Tanbal ham qochti. Bu fitnaning taskini uchun Xo'ja Qozini yibordukim, Uzun Hasan²¹⁰ (51^b) Xo'jag'a o'zini xeyli muxlis va mu'taqid tutar edi. Uzun Hasanning ittifoqi bila qochqonlarning ba'zisig'a sazo bergaylar, ba'zisini bizning qoshimizg'a yiborgaylar.

Bu fitnalarni angiz qilg'uchi, mundin qochib borg'onlarni yomonliqqa tez qilg'uchi xud Uzun Hasan haromnamak ekandur. Borchasi Sulton Ahmad Tanbal borg'on bila zohir va oshkoro yomonliq maqomida bo'ldilar. Samarqandni olmoq doiyasi bila necha yilkim bajid cherik tortar eduk, Sulton Mahmudxondin agarchi mu'taddun bih madad va ko'mak bo'lmas edi, vale Samarqand fathidin so'ng Andijonni tama qilur edi. Bu fursattakim aksar cherik eli va mo'g'ullar tamom qochib Andijon, Axsig'a bordilar, Uzun Hasan va Tanbal ul viloyatlarni Jahongir mirzo²¹¹g'a tama qildilar. Necha jihatdin mumkin emas erdikim, alarg'a berilgay. Biri ulkim, agarchi xong'a (63) bu viloyatlarni va'da qililmaydur edi, vale xon tilab edi. Xon tilab turub, Jahongir mirzog'a berilsa, xon bila tamom yakro bo'lmoq

²¹⁰ Uzun Hasan – Boburning ishonchli beklaridan bo'lgan, lekin u Andijonda Boburning dushmani Ahmad Tanbal bilan til biriktirib, Boburga qarshi harakat qilganlar.

²¹¹ Jahongir mirzo – Boburning ukasi, Andijon taxtiga o'tqazishda Ahmad Tanbal uni qo'llab-quvvatlagan. 1500 yilda tuzilgan sulhga ko'ra, Sirdaryoning shimoliy tarafi Jahongir mirzoga, daryoning janubiy tomoni esa Bobur Mirzoga berildi.

kerak edi. Yana bir bukim mundoq mahaldakim, el qochib ul viloyatqa bordi, tahaqkum tariqi bila tama qiladur, agar bu-runroq (52^a) bu so'z aroda bo'lsa edi, filjumla vajhi bor edi alarning tahakkumini kim tortor bo'lg'ay? Mo'g'ul va Andijon cheriki va ba'zi beklardin ichqilardin ham Andijong'a borib edilar.

Mening bila Samarqandda bek va bekot, yaxshi va yomon mingga yovuqcha kishi qolib edi. Alarning istid'osidek chun muyassar bo'lmadi, qochib borg'on tavahhumluq ellarni tamom tilab o'zlariga qo'shtilar. Tavahhumluq ellar xud mundoq voqiani o'z qo'rqunchidin Tengridin tilar edilar. Axsidin Andijon ustiga cherik tortib yomonliq va yog'iyliqni sariv va oshkoro qildilar....

Chun onalarimdinkim, onam va onamning onasi Esan Davlatbegim bo'lg'ay, yana ustod va pirimdinkim, Xo'ja Mavlonoyi Qozi bo'lg'ay, bu nav xatlar kelib, mundoq ehtimom bila tilag'aylar, ne ko'ngul bila kishi turg'ay.

Rajab oyi, shanba kuni Andijon azimati bila Samarqandtin chiqtuk. Bu navbat Samarqand (53^b) shahrida yuz kun podshohlik qildim. Yana shanba erdikim, Xo'jandg'a yettim. O'shul kuni Andijondin bir kishi bu xabarni kelturdikim, yetti kun mundin burun, o'shul shanbakim, biz Samarqandtin chiqibturbiz, o'shul shanba Ali Do'st tag'oyi Andijon qal'asini muxoliflarga beribtur. Tafsili budurkim, Uzun Hasanning navkarinikim, mening behuzurlug'umda manga ko'rsatib ijozat berdilar, muxoliflar Andijon qo'rg'onini kabag'onda borib debturkim, podshohning tili tutulub edi, og'zig'a paxta bila suv tomizadurlar dedi. Ushbu ta'rif qilg'on yo'sunluq borib, Ali Do'stning qoshida ont ichib aytibdur. Jakan darvozasida (64) Ali Do'st edi. Bu so'zdin bepoy bo'lub, muxoliflarni ilg'ab ahd shart qilib, qal'ani berdi. Zaxiradin va urushur kishidin qo'rg'onda hech kamlik yo'q edi. G'oyatash ul munofiqi namakharom mardakning nomardg'iri edi. Bu mazkur bo'lg'on so'zlarni o'ziga bahonayi rost qildi. Andijonni olg'ondan so'ng mening Xo'jand

kelganimni eshitib, Xo'ja Mavlonayi Qozini ark darvozasida osib shahid qildilar.

Xo'ja (54^a) Mavlonoyi Qozining oti Abdullodur. Bu ot bila mashhur bo'lub edi. Ota tarafidin nasabi Shayx Burhoniddin Qilichqa muntahiy bo'lur. Ona tarafidin Sulton Ilik Mozig'a yetar. Farg'ona viloyatida bu tabaqa muqtado va shayxulislom va qozi bo'la kelgandurlar. Xo'ja Qozi hazrati Xo'ja Ubaydullohning muridi edi. Alardin tarbiyat topib edi. Xo'ja Qozining valilig'ida mening hech shakkim yo'qtur. Qaysi ish valoyatqa mundin yaxshiroq dalildurkim, alarg'a qasd qilg'onlardin oz fursatta osor va alomat qolmadi. Xo'ja Qozi ajab kishi edi. Qo'rqmoq anda aslo yo'q, edi. Oncha dilyor kishi ko'ruigan emas. Bu sifat ham valoyat dalilidir. Soyir el har necha bahodur bo'lsa, andak dag'dag'asi va tavahhumi bo'lur. Xo'jada aslo dag'dag'a va tavahhum yo'q edi. Xo'janing voqiasidin so'ng Xo'jag'a mansub ellar misli navkar va chokar va aymoq va ahshomni tamom tutturub talattilar.

Mening ulug' onamni va o'z opamni ba'zi mening bila bo'l-g'onlarning ko'chlari bila Xo'jandqa mening qoshimg'a yibordilar.

Andijong'a bo'la Samarqandni ilikdin berduk. Andijon ham ilikdin chiqmish edi. Bizga «g'ofil az injo ronda va az onjo monda» degandek bo'ldi. Bisyor shaqq va dushvor keldi. Ne uchunkim, to podshoh bo'lub erdim, bu nav navkardin va viloyat (54^b) tin ayrilmaydur erdim, to o'zumni bilib erdim, bu yo'sunluq ranj va mashaqqatni bilmaydur erdim...

Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. T.: Sharq, 2002.

TEMURIYLAR VA DASHTI QIPCHOQ MUNASABATIGA DOIR

Yodgorxon. Aning otasi Temur Shayx ibn Hoji Tulay ibn Arabshoh ibn Fo'lod ibn Manku Temur ibn Bodaqul ibn Jo'ji Buqo ibn Bahodirxon ibn Shaybonxon ibn Jo'jixon ibn

Chingizxondur. Ma'lum bo'lsinkim, Tamur Shayxning zamonida qalmoqdin ikki ming kishi kelib, anga tobe elg'a chapovul urub qaytti. Temur Shayx oz kishi bila keynidin borib urushub, hazimat topib, shahid bo'ldi. Va aning o'g'li va inisi yo'q erdi. Bu jihatdin eli o'zga to'ralarga bordi. Va uyg'ur ulug'lari o'rdug'a kishi yiborib, so'rmishlarkim, xonimlarda hech haml nishoni bormu yo yo'q? Bor bo'lsa elga saranjom berib o'lturaling. Bo'lg'aykim, o'g'ul bo'lg'ay. Xonning ulug' harami homila erkan. Aytib yibormishkim «uch oyliq homilam bordur.» Bu vajhdin uyg'ur o'rdudin ayrilmay, nayman xalqig'akim, alarning do'sti erdi va ketmish erdilar, xabar yiborib, olib keldilar. Va xonimdin olti oydin so'ng bir o'g'ul mutavallid bo'ldi. Otin Yodgor qo'ydilar. Bu voqeani eshitib, ketgan ellar ham ko'chub, o'rdi atrofing'a yig'noldilar. Ul tiflni otasining o'rnida o'lturtub, uyg'ur va nayman beklarig'a izzat qilib, so'l tarafda o'run berdilar. Va mo'g'ul rasmida o'ng tarafdin so'l taraf afzaldur. Aning uchunkim, yurak badan mulkning podshohidur, chapda bo'lur....

Va Yodgorxon yigit etgandin so'ng to'rt o'g'li bo'ldi. Berka Sulton, Abulakxon, Amnakxon, Abak Sulton. Berka Sulton himmatlig' va shijoatlig' shahzoda erdi. Va ul chog'da Dashti Qipchoq podshohi Abulxayrxon²¹² erdi. Amir Temur avlodidin Abdullatif Mirzoning o'g'li Muhammad Jo'ki Mirzokim, aning yonig'a Sulton Abu Said Mirzodin qochib kelib erdi, Abulxayrxon amri bila Berka Sulton og'ir cherik tortib, anga aksar Movarounnahrni olib berdi. Chun tolei yo'q erdi, Berka Sultonni o'zig'a mukaddar (kina-kuduratli) qildi. Va Berka Sulton chig'atoy elig'a chapovul urub, diyorig'a yondi. Va ul Abu Said Mirzoning habsig'a tushti. Va Yodgorxon sana sekiz yuz oltmish ikkida erdikim, Berka Sulton va Musobiyning sayi bila

²¹² Abulxayrxon – (1412-1468), Dashti qipchoqda tashkil topgan O'zbek ulusi xoni (1428 yildan). 1431 yilda Abulxayrxon Xorazmni bosib oladi. 1451 yilda esa Abulxayrxon Abu Sayd bilan qo'shilib Samarqandga yurish qildi va uni taxtga o'tqazadi.

aksari o'zbekka podshoh bo'ldi va ko'p muddatlar komronlig' bila hukm surub, dunyodin o'tti. ...

Va Berka sultonni bu voqeadin oz vaqt so'ng Abulxayrxonning nabirasi Shayboniyxon o'ldurdi. Andin Elbars²¹³ va Bilbars degan ikki o'g'ul qoldi. Inshoolloh, bularning zikri o'z mahalida kelur.

Munis va Ogahiy. Firdavs ul- iqbol. Arab yozuvidan tabdil etgan, kirish va izohlar mualliflari Sh.Vohidov, I.Bekchanov va N. Polvonov. T.: Yangi asr avlodi, 2010.

²¹³ Elbars – (? - 1516), Xiva xonligi va undagi shayboniylar sulolasi asoschisi. Eronlik bosqinchilarga qarshi kurash olib borayotgan Vazir shahri aholisi tomonidan Dashti Qipchoqdan taklif etilib taxtga o'tkazilgan (1511-16).

O'N BIRINCHI BO'LIM

TURKISTONNING XONLIKLARGA BO'LINIB KETISHI, UNING SABABLARI VA OQIBATLARI

XVI-XIX asrlarda o'lkamiz hududida shayboniylar (1500-1601yy.), ashtarxoniy – joniylar (1601-1753yy.), mang'itlar (1753-1920yy.) Buxoroda, Xorazm shayboniylari (1511-1770yy.) va qo'ng'irotlar (1770-1804-1920yy.) Xiva xonligida hamda minglar sulolasi Qo'qon xonligi(1701-1876yy.)da hukmronlik qilganlar. Bu davr tarixiga oid mahalliy yozma tarixiy asarlar, chet el sayyoh va elchilarining hisobot va xotira yozuvlari, O'rta Osiyo o'zbek xonliklarining chet el davlatlari bilan yozishmalari va bojxona ma'lumotlari, turli mazmundagi arxiv hujjatlari bizgacha yetib kelgan bo'lib, ular vositasida o'zbek xonliklaridagi siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotini yaqqol yoritish mumkin. Quyida bu davr tarixiga oid ba'zi manbalar sanab o'tiladi. «Fathnoma» nomli tarixiy mavzudagi she'riy doston muallifi Mulla Shodiydir. U Shayboniyxonning inisi Mahmud Sulton xizmatida bo'lgan va uning topshirig'i bilan mazkur asarini 1502 yilda yozib tugatadi. Asarda Shayboniyxonning tavallud topishidan (1451) to uning tomonidan Samarqandning istilo etilishigacha (1501) bo'lgan ijtimoiy-siyosiy voqealar keng yoritilgan. Asar fors tilida bitilgan bo'lib, Xorazm, Dashti Qipchoq aholisi turmush tarzi, xususan, mang'itlar turmushi va Shayboniyxonning Turkiston, Andijon, Buxoro, Dabusiya, Qarshi viloyatlarini ishg'ol qilganlari haqida qimmatli ma'lumotlarga ega. «Shayboniynoma» fors tilida bitilgan tarixiy asar bo'lib, muallifi hiroqlik shoir va tarixnavis olim Kamoliddin Binoiy²¹⁴dir (1453–1512).

²¹⁴ Kamoliddin Binoiy – (1453–1512), shoir, musiqashunos, tarixchi. Hirotda tug'ilgan, forsiyda ijod qilgan. Shayboniyxon saroyida xizmat qilgan, harbiy yurishlarida tarixchi sifatida ishtirok etgan. «Shayboniynoma» asarida XV asr o'rtalaridan 1505 yilgacha Movarounnahr va Dashti qipchoqda sodir bo'lgan voqealar tasvirlangan.

Asarda 1450–1505 yillarda yuz bergan ijtimoiy-siyosiy voqealar aniq bayon qilingan. Shuningdek, asar geografik va etnografik (ko‘chmanchi o‘zbeklar haqida) ma‘lumotlarga boydir. Asar matni chop qilinmagan. «Mehmonnomai Buxoro» nomli O‘rta Osiyoning XV asr II-yarmi – XVI asr boshlaridagi voqealar bayoni mavjud tarixiy asar ijodkori Fazlulloh ibn Ro‘zbehxon²¹⁵dir. «Habib us-siyar» nomli tarixiy asar muallifi G‘iyosiddin Xondamir²¹⁶dir. «Tarixi Rashidiy» nomli mashhur asar muallifi Boburning xolavachchasi Mirzo Muhammad Haydar bo‘lib, u Toshkent hokimi Sulton Mahmudxon xizmatida, keyinchalik Kashmirla hokim bo‘lgan. «Ahsan ut-tavorix» 12 jilddan iborat umumiy tarix yunalishida bayon etilgan bo‘lib, muallifi XVI asrda o‘tgan Eron tarixchisi Hasanbek Rumlu²¹⁷dir. «Abdullanoma» yoki «Sharafnomayi shohiy» asarining ijodkori XVI asrda yashab o‘tgan buxorolik tarixchi va shoir Hofiz Tanish Buxoriy²¹⁸dir. «Akbarнома» yoxud «Iqbolnoma» nomli asar muallifi Abulfazl Allomiy²¹⁹dir. U XVI asrda Hindistonda yashab o‘tgan tarixchi va davlat arbobidir. «Tavorixi guzida, Nusratnoma» («Saylanma solnomalar, G‘alabalar kitobi») nomli tarixiy asar XVI

²¹⁵ Fazlulloh ibn Ro‘zbehxon – (1457-1521), eronlik tarixchi olim, fqih va shoir. «Mehmonnomayi Buxoro» nomli yirik tarixiy asarida Turkistonning XV asr 2-yarmi – XVI asr boshlariga oid tarixi bayon qilingan.

²¹⁶ G‘iyosiddin Xondamir – (1475-1535), tarixchi. Hirotda tug‘ilgan, ona tomondan Mirrxondning nabirasi va shogirdi. Otasi temuriylardan Sulton Maxmud mirzoning vaziri bo‘lgan. Uning «Habib us-siyar fi axbor afrod ul-bashar» («Inson zoti xabarleri va do‘stning tarjimai holi») asarida Turkistondagi xonlar, Chingizxon va uning avlodlarining tarixi, Movarounnahr va Xurosondagi temuriylar o‘rtasidagi o‘zaro kurashlar, Shayboniyxon bosqini haqida birmuncha ma‘lumotlar bor.

²¹⁷ Hasanbek Rumlu – (1530/31 - ?) -tarixchi olim. Qum shahrida tug‘ilgan. Uning «Ahsan ut-tavorix» asarida Eron, shuningdek, unga qo‘shni mamlakatlar: O‘rta Osiyo, Hindiston, Turkiya, Ozarbayjon va Gruziyaning 1404-1577 yillarga oid tarixi yilma-yil bayon etilgan. Asar O‘rta Osiyo xonliklari bilan Eron o‘rtasidagi siyosiy aloqalar tarixini o‘rganishda muhim manbadir.

²¹⁸ Hofiz Tanish Buxoriy – (tahm. 1540-1589), tarixchi olim va shoir. Uning «Abdullanoma» asari shayboniylardan Abdullaxon II ga bag‘ishlangan bo‘lib, 1584-88 yillarda Buxoroda fors tilida yozilgan.

²¹⁹ Abulfazl Allomiy – (1551-1603), davlat arbobi, tarixchi va adib. Boburiy Akbarshohning vaziri, bosh munshiysi va eng yaqin do‘sti. Uning «Akbarnoma», «Oyini Akbariy» («Akbarshoh qonunlari») kabi yirik tarixiy asarlari Akbarshohga bag‘ishlangan. «Mukotaboti Allomiy» (boshqa nomi «Inshoyi Abulfazl») asarida Akbarshohning 12 viloyat hokimlari, Buxoro xonligi, Eron shohlari va Turkiya sultonlari bilan yozishmalari jam qilingan.

asrda yaratilgan yozma manbadir. «Zubdat ul-asar» («Solnomalar sari») nomli turkiy-o‘zbek tilidagi tarixiy asarning muallifi Abdulloh Nasrulloxiy²²⁰ yoki Abdulloh ibn Muhammad ibn Ali Nasrulloh bo‘lib, u XV asrning ikkinchi yarmi va XVI asrning birinchi yarmida o‘tgan balxlik tarixnavis olimdir. «Shajarai tarokima» va «Shajarai turk va mo‘g‘ul» asarlarini yaratgan Abulg‘ozi Bahodirxon²²¹ Xiva xoni (1643–1663) va tarixchi olim sifatida mashhurdir. Atoqli o‘zbek tarixchilari Shermuhammad Munis²²², Muhammad Rizo Ogahiy²²³ va Muhammad Yusuf Bayoniy²²⁴lar tomonidan yuksak mahorat bilan yozilgan tarixiy asarlarida bir-birlarining ishini davom ettirib, Xiva xonligi hududida XX asr boshlarigacha ro‘y bergan tarixiy voqealarni o‘z ichiga oluvchi "Firdavs ul-iqbol" , "Riyoz ud-davla", "Zubdat ut-tavorix", "Jome' ul-voqeoti sultoniy", "Gulshani davlat", "Shohid ul-iqbol", "Shajarai xorazmshohiy" va "Xorazm tarixi" kabi asarlarni yozib qoldirganlar. "Xonlar tarixi" asarining muallifi shahzoda (to‘ra) Sayid Hamidjon to‘ra bin Sayid Muhammadxon, taxallusi bo‘yicha Komyob²²⁵ bo‘lib, o‘z asarida XIX asrdagi Xiva xonlari hayoti va ularning shajarasini yozgan, xotimasida Xorazmda 1291/1874-1875 yildan 1313/1895-1896 yilgacha sodir bo‘lgan voqealar bayon

²²⁰ Abdulloh Nasrulloxiy – (taxm. XV asr 70-yillari – XVI asr o‘rtalari), tarixchi olim. «Zubdat ul-asar» asarida turkiy, mo‘g‘ul xalqlarining tarixi, turkiylarning afsonaviy bobokaloni Yofas ibn Nuxdan boshlab Movarounnahr va Xurosonni shayboniylar bosib olgunigacha, dastlabki shayboniylar davridagi Movarounnahr va Xurosondagi siyosiy hayot (1525 yilgacha) bayon etilgan.

²²¹ Abulg‘ozi Bahodirxon – (1603-1664), Xiva xoni (1643–1664), shayboniylar sulolasidan, tarixchi. Uning «Shajarayi tarokima» va «Shajarayi turk» asarlari O‘rta Osiyo tarixiga oid qimmatli manbalardan hisoblanadi. A.B. tib ilmiga oid «Manofe’ ul inson» («Insonga foydali narsalar») nomli asar ham yozgan.

²²² Shermuhammad Munis – Munis Xorazmiy (1778-1829), shoir, tarixnavis, tarjimon va xattot. U «Firdavs ul-iqbol» asrida Xiva xonligining 1812 yilgacha, Ogahiy voqealarni davom qildirib, Xiva xonligining 1825 yilgacha bo‘lgan siyosiy tarixini bayon etishgan.

²²³ Muhammad Rizo Ogahiy – (1809-1874), shoir, tarixchi, tarjimon. Tarixga oid juda ko‘plab asarlar yozgan.

²²⁴ Muhammad Yusuf Bayoniy – (1858-1923), Xorazmda tug‘ilgan, shoir, tarixchi, musiqashunos, xattot va tarjimon.

²²⁵ Komyob – (1862-1922), Xorazmda tug‘ilgan shoir, tarixchi.

qilingan. Mirzo Rizoqulixon²²⁶ bin Muhammad Xo'ja Tabaristoniy "Xorazmga sayohat kundaligi" nomli qo'lyozmaning muallifidir. Ushbu asarda 1267/1850-1851 yilda Eron elchisi Nosiriddin shoh bilan Xiva xoni Muhammad Amin (1262/1846-1271/1855) o'rtasidagi ikkala davlat munosabatlari yoritilgan. «Ansob us-salotin va tavorix ul-xavoqin» («Sultonlar shajarasi va hoqonlar tarixi») asarining mallifi Mirza Olim Toshkandiy²²⁷dir. Asar Farg'ona va Qo'qon xonligining XV – XIX asrlar orasidagi tarixini o'z ichiga oladi «Musaxxir al-bilod» («Mamlakatlarni bo'ysundiruvchi») nomli asarning muallifi Muhammadyor ibn arab Qatag'ondir. «Haft iqlim» («Yetti iqlim») nomli geografik-biografik asarining ijodkori olim Amir Ahmad Roziydir. «Tarixi olamoroyi Abbosiy» («Shoh Abbosning olamni bezovchi tarixi») nomli asar garchi XVI asrda o'tgan Eron tarixchisi Iskandarbek Munshiy²²⁸ tomonidan yaratilgan bo'lsa-da, unda O'zbekistonning tarixi va uning boshqa mamlakatlar bilan munosabatini o'rganishda muhim ahamiyat kasb etadi. «Bahr ul-asror» nomli asar muallifi XVII asrda o'tgan olim Mahmud ibn Vali²²⁹dir. «Dastur ul-muluk» («Podshohlarga qo'llanma») nomli qimmatli asarning muallifi XVII asr tarixchisi Xo'ja Samandar Termiziy²³⁰dir. «Tarixi Muqimxoniy» nomli asr muallifi XVII asrda o'tgan olim Muhammad Yusuf Munshiy²³¹dir. «Ubaydullanoma»

²²⁶ Mirzo Rizoqulixon – Rizoqulixon Hidoyat (1800-1871), tarixchi, diplomat, shoir. Erondagi dastlabki dunyoviy oliy maktab-dorilfunun direktori (1851-1864). Xivaga yuborilgan elchilar rahbari (1851).

²²⁷ Mirza Olim Toshkandiy – (XIX asr), tarixchi olim, shoir. Qo'qon xonlari Xudoyorxon va Mallaxon saroylarida mushrif (nazoratchi) vazifasida ishlagan.

²²⁸ Iskandarbek Munshiy – Iskandarbek Turkman (1561/62-1634), tarixchi, Eron shohi Abbas I ning munshiysi.

²²⁹ Mahmud ibn Vali – (tahm. 1595-?), tarixchi, geograf olim, sayyoh.

²³⁰ Xo'ja Samandar Termiziy – (1638-1740), tarixchi olim va shoir, ulamo va davlat arbobi. «Dastur ul-muluk» asari Buxoro xoni Subhonqulixonga bag'ishlangan bo'lib, unda Buxoro xonligining Xiva xonlari Anushaxon va Arangxon bosqinlariga qarshi olib borgan janglari, Movarounnahr va Xurosonda markaziy hokimiyatga qarshi ko'tarilgan isyonlar va b. bayon etilgan.

²³¹ Muhammad Yusuf Munshiy – (XVII asr), balxlik tarixchi olim, ashtarxoniyardan. Asarda Balx va qisman Buxoro xonligining XVII asrdagi ijtimoiy-siyosiy tarixi bayon etilgan.

asarining muallifi Muhammad Amin Buxoriy²³² bo'lib, u Ubaydullaxonning (1702–1711) saroyida munshiylik qilgan. «Tarixi Abulfayzxon» asarining muallifi Ubaydullaxon (1702–1711) va Abulfayzxon (1711–1747) saroyida xizmat qilgan olim Abdurahmon Davlat²³³dir. «Silsilat us-salotin» asarining muallifi Hoji Mir Muhammad Salimdir. «Tuhfat ul-xoniy» asari yoki «Tarixi Rahimxoniy» atalib, Buxoro xonligining 1722–1782 yillardagi ijtimoiy-siyosiy tarixini o'z ichiga oladi. «Tarixi Amir Haydar» asari buxorolik Mulla Ibodulla va Mulla Muhammad Sharif asarlari bo'lib, mang'itlar sulolasidan bo'lgan Amir Haydar (1800–1826) davridagi ijtimoiy-siyosiy tarixni yoritib beradi. «Fathnomayi sultoniy» asari muallifi Mir Olim Buxoriy bo'lib, asarda Amir Shohmurod (1785–1800) davridan to Nasrullohgacha bo'lgan Buxoro amirligidagi hodisalar bayon etilgan. «Muntaxab ut-tavorix» («Saylanma tarix») asari qo'qonlik olim Hakimxon to'ra²³⁴ tamonidan yozilgan bo'lib, asarning bir qismi Qo'qon xonligi asoschisi Shohruhxonning (1709–1721) o'g'li Abdurahimxon (1721–1724) zamonidan to Norbo'taxon, Olimxon va Umarxon davrigacha bo'lgan tarixni yoritgan. «Tarjimai ahvoli amironi Buxoroyi sharif az amir Doniyol to asri amir Abdulahad» («Buxoroyi sharif amirlarining tarjimayi ahvoli. Amir Doniyoldan to Amir Abdulahadgacha») asari Ahmad Donish²³⁵ tomonidan yozilgan. «Tarixi salotini Mang'itiya» («Mang'itlar sulolasining tarixi») buxorolik tarixchi olim va shoir Mirzo Abduazim Somiy Bo'stoniy²³⁶ (1838/39–1914) qalamiga mansub. «Tarixi Salimiy» («Salimiyning tarixi») asarining muallifi Mirza Salimbek²³⁷. «Tarixi jadidayi Toshkand» («Toshkandning yangi tarixi») nomli asar

²³² Mir Muhammad Amin Buxoriy – (1645–?), buxorolik tarixchi olim. «Ubaydullanoma» asarida Ubaydullaxon II hukmronligi davridagi ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayot hikoya qilinadi.

²³³ Abdurahmon Davlat – Abdurahmon To'le, (XVIII asr), buxorolik munajjim, shoir va tarixchi. Uning «Tarixi Abulfayzxon» asari XVIII asrning birinchi yarmidagi Turkistonning siyosiy ahvoliga oid qimmatli manba bo'lib, aniq ma'lumotlarga boy.

²³⁴ Hakimxon to'ra – (1802 – ?), tarixchi olim, ma'rifatparvar.

²³⁵ Ahmad Donish – taxallusi Kalla (1826–1897), yozuvchi, rassom, xattot, olim, ma'rifatparvar. Buxoro taraqqiyparvar muhitining yuzaga kelishida muhim o'rin tutgan.

²³⁶ Mirzo Abduazim Somiy Bo'stoniy – (1838/39–1914), buxorolik tarixchi olim va shoir.

²³⁷ Mirza Salimbek – (1850–1930), tarixchi, shoir, davlat arbobi, diplomat.

ham shu davrga oid bo'lib, muallifi Muhammad Solih Toshkandiy²³⁸dir. «Tarixi Shoxruhiy» («Shohruh tarixi») nomli asar muallifi XIX asrda yashab o'tgan farg'onalik tarixchi olim Niyoz Muhammad Xo'qandiy²³⁹dir.

VAQOI'I SANAYI SITTA VA TIS'A MIA

(77) Shayboniyxon ushbu xotunning va'dasi bila kelib, Bog'i Maydong'a tushti. Tush vaqtida Sulton Ali mirzo bek-bekotig'a, yigit-yalangiga, hech kimga xabar qilmay, hech kim bila kengashmay, bir necha yovug'idag'i kichik-kirim bila Chorraha darvozasidin Bog'i Maydong'a Shayboniyxon qoshig'a bordi. Shayboniyxon xeyli yaxshi ham ko'rmadi. Ko'rushgandin so'ng quyi yonda o'lturg'uzdi. Xo'ja Yahyo mirzoning chiqqonini xabar topib, iztirobda bo'ldi, hech chora topa olmay, Xo'ja ham chiqti, Shayboniyxon ko'pmayo'q ko'rushti. Bir pora shikoyatimiz so'zlar aytti. Xo'ja Yahyo qo'pqonda Shayboniyxon ta'zim qilib qo'pti. Jonali Xo'ja Aliboyning o'g'li Raboti Xo'jada edi. Mirzosining chiqg'on xabarini eshitib,(78)ul ham Shayboniyxon qoshig'a keldi. Bu bedavlat xotun chun noqisi aql edi, erga tegar havosi bila o'g'lining xonu (80^b) monin barbod berdi. Shayboniyxon bir zarra parvo ham qilmadi, balki g'uma-g'unchachidek ko'zga ilmadi.

Sulton Ali mirzo ham o'z ishiga hayron va chiqqonidin behad pushaymon edi. Ba'zi yovuqlari kayfiyatni anglab, mirzoni olib qochmoq xayoli qildilar. Sulton Ali mirzo rozi bo'lmadi, chun ajal yetib edi, qutulmadi. Temur Sulton bila tushar edi, to'rt-besh kundan so'ng Qo'lba o'langida o'lturdilar. Bu besh kunluk o'lar jon uchun yomon ot bila bordi. Xotun so'ziga kirib, o'zini neknomlar chargasidin chiqardi. Mundoq kishining vaqoyini mundin ortuq bitib bo'lmas. Bu yo'sunluq shani

²³⁸ Muhammad Solih Toshkandiy – (1830-1890), tarixchi va geograf olim.

²³⁹ Niyoz Muhammad Xo'qandiy – (1830-1890), tarixchi va geograf olim.

harakatni mundin ortuq eshitib bo'lmas. Sulton Ali mirzoni o'lturgandin so'ng Jonalini ham mirzosi qoshig'a yibordi....

Samarqandni o'zbek olg'och, Keshdin Hisor sari mutavajjih bo'lduk. Muhammad Mazid tarxon boshliq Samarqand beklari ko'ch va ahlu ayollari bila bizing bila tebradilar. Chag'oni-yonning Chiltu o'langiga tushganda, Muhammad Mazid tarxon boshliq Samarqand beklari ayrilib borib, Xisravshohqa navkar bo'ldilar...

Ul fursatta Shayboniyxon Xo'ja Diydor navohisida o'lturub edi. Uch-to'rt ming o'zbeki bor edi. Yana yerlik sipohiydin ham muncha chog'liq kishi yig'ilib edi. Samarqand dorug'alirini Jonvafo mirzog'a berib edi. Besh-olti yuz kishi bila Samarqand qo'rg'onining ichida edi. Hamza Sulton bila Mahdiy Sulton tavobi va lavohiqi bila Samarqandning yovug'ida Budana qo'rug'ida o'lturub edi.

Bizning kishimiz yaxshi va yomon ikki yuz qirq kishi edi. Bori beklar va yigit-yalang bila so'zlashib, so'zni munga qo'ydukkim, Shayboniyxon Samarqandni yaqinda olib, hanuz el anga va ul elga ko'ngul to'xtatmaydurlar, ushbu fursatta bir ish qila olsak xud qilg'aybiz. Agar Samarqand qo'rg'onini shotu qo'yub o'g'urluq bila olsak, Samarqand eli xud bizningdur. Ne chorasi bor? Agar bizga madad qilmasalar, o'zbek uchun xud urushmag'ularidur. Samarqandni iliklagandin so'ng har ne Tengrining xosti bo'lsa, ul bo'lg'usidir.

Bu qaror bila namozi peshindin so'ng Yoryayloqdin o'tlanib, kecha tun qotib Yarim kecha Xon yurtig'a Yettuk. Ul oQshom el xabardor bo'lubtur deb qo'rg'onning yovug'ig'a kelmay, Xon yurtidin-o'q yonildi. Tong otib edikim, Raboti Xo'jadin quyiroq Ko'hak suyini kechib, yana Yoryayloq kelduk. Bir kun Asidak qo'rg'onida jami ichkilar, misli Do'st Nosir, Nuyon ko'kaldosh, Xonquli, Karimdod, Shayx Darvesh, Xisrav ko'kaldosh, Mirim Nosir bori hozir edilar, mening qoshimda o'lturub edilar. Har tarafdin so'z o'tadur edi. Dedimkim: «Keling, aytingkim, Tengri

rost keltursa, Samarqandni qachon olg'aybiz?» Ba'zi dedilarkim: «Yozg'a olg'aybiz». Ul mahal kech kuz edi. Ba'zi «bir oy», ba'zi «qirq kun», ba'zi «yigirma kun» dedilar. Nuyon ko'kaldosh dedikim «O'n to'rt kunda olurbiz». Tengri rost kelturdi, rost o'n to'rt kunda-o'q Samarqandni olduk...

Men Samarqand olg'onda, o'n to'qquz yoshta edim. Ne ko'p ish ko'rub edim, ne tajriba bo'lub edi. Ikkinchi bukim, mening g'animim Shayboqxondek purtajriba va ko'p ish ko'rgan va ulug' yoshliq kishi edi. Uchinchi bukim, bizga Samarqandtin hech kishi kelmaydur edi. Agarchi shahr eli manga ko'ngulluk edi, vale Shayboqxonning qo'rqunchidin hech kishi bu xayolni qila olmas edi. To'rtunchi bukim, mening g'animim qo'rg'onda edi, ham qo'rg'onni olildi, ham g'animg'a qochurildi. Beshinchi bukim, bir martaba Samarqand qasdig'a kelib, g'animg'a tuydurub, ikkinchi martaba kelganda Tengri rost kelturdi, Samarqand fath bo'ldi....

Samarqand fathidin so'ng Shovdor va So'g'd va tumonot yovug'i qo'rg'onlar birar-birar manga ruju' qila boshladilar. Ba'zi qo'rg'onlardan o'zbek dorug'alari tavahhum qilib, solib chiqtilar va ba'zi qo'rg'onlar o'zbek kishisini qovlab bizga kirdilar. Ba'zi dorug'alarni tutub, qo'rg'onlarni berkittilar. Ushbu fursatta Shayboqxonning va o'zbeklarning ko'ch va uruqlari Turkistondin keldilar. Shayboqxon Xo'ja Diydor va Aliobod navohisida edi. Qo'rg'onlarning mundoq kirganlarini va elning bu nav ruju'ini ko'rub, o'lturg'on Yeridin Buxoro sari kechti. Tengri inoyati bila So'g'd va Miyonkol qo'rg'onlari uchto'rt oyda aksar bizga ruju' qildilar. Boqi tarxon ham fursat topib kelib, Qarshi qo'rg'oniga kirdi. Xuzor va Qarshi ham o'zbek tasarrufidin chiqti. Qorako'lni ham Marvdin Abulmuhsin mirzoning kishisi kelib oldi. Ishimiz bisyor taraqqiy ustida bo'ldi.

Mening volidalarim va ko'ch va uruqlarim men Andijondin chiqg'andin so'ngra yuz tashvish va mashaqqatlar bila O'ratepa kelib edilar, kishi yiborib Samarqandg'a kelturduk. O'shul necha kunda Sul-ton Ahmad mirzoning qizi Oyisha Sul-tonbegim-

dinkim, avval mening aqdi nikohimg'a kirgan bu edi, bir qiz bo'ldi. Faxrunisog'a mavsum bo'ldi. Mening to'ng'uch farzandim bu edi, ul tarixda men o'n to'qquz yoshta edim. O'shul bir oy-qirq kunda-o'q Tengri rahmatig'a bordi.

Samarqand fathidin so'ng karrot va marrot atrof va javonibdag'i xavonin va salotin va umaro va sarhadnishinlarg'a istimdod va istionat uchun mutavotir va mutaoqib elchilar va tavochilar bordilar va keldilar. Ba'zi bovujudi tajribalar sahl inkorliq qildilar. Ba'zidinkim, nisbat bu tabaqag'a beadabliklar va noxushluqlar voqi bo'lub edi, o'z tavahhumlaridin tag'oful qildilar. Ba'zilarkim, ko'mak yibordilar, mu'taddun bih ko'mak emas edi. Nechukkim, har qaysi o'z yerida mazkur bo'lg'usidir.

Bu ikkinchi navbat Samarqandni olg'onda, Alisherbek (87 a) tirik edi. Bir navbat manga kitobati ham kelib edi.

Men ham bir kitobat yiborib edim, orqasida turkiy bayt aytib, bitib yiborib edim. Javob kelguncha tafriqa va g'avg'o bo'ldi. Shayboqxon Samarqandni olg'onda, Mullo Binoyini mulozim qilib edi. Shayboqxon bila edi. Samarqand fathidin necha kundan so'ngra Samarqandg'a keldi. Qosimbek andin badgumon bo'lub, Shahrisabz sari ruxsat berdi. Necha kundan so'ng chun fazilatliq kishi edi, gunohe sodir bo'lmaydur edi, Samarqandg'a kelturduk....

Bu qishliqta ishimiz bisyor taraqqiyda edi. Shayboqxonning ishi tanazzulda edi.

Bu asnoda bir-ikki ish yaramasroq bo'ldi. Marvdin kelib Qorako'lni olg'onlar to'xtata olmadilar. Qorako'l yana o'zbaklar tasarrufig'a kirdi.

Qal'ayi Dabusida Ibrohim tarxonning Ahmad tarxon otliq inisi edi. Shayboqxon kelib qabadi. Biz cherik yig'ib isti'dod tayyor qilg'uncha, zo'rlab oldi. Elni tamom qatli om qildi.

Men Samarqandni olg'onda sanog'lik, ikki yuz qirq kishim (88 a) bor edi. Besh-olti oyning orasida Tengri taoloning inoyati bila oncha bo'ldukim, Shayboqxondek kishi bila Saripulda masof urushtuk. Nechukkim, mazkur bo'lg'usidir.

Atrof va javonibdag'ildin: xondin Ayyub Bekchik va Qashqa Mahmud va borinlar to'rt-besh yuz kishi ko'makka kelib edi. Jahongir mirzodin Tanbalning inisi Xalil yuz-ikki yuz kishi bila ko'makka kelib edi. Sulton Husayn mirzodek sohib tajribalik podshohdinkim, Shayboqxonning af'ol va atvorini mirzodin yaxshiroq kishi bilmas edi, hech kishi ko'makka kelmadi. Badiuzzamon mirzodin ham kishi kelmadi. Xisravshoh, xud o'zining tavahhumidin kishi yibormadi. Chun bemiqdor yomonliqlar andin nisbat bu xonavodag'a voqi bo'lub edi, nechukkim, mazkur bo'ldi, bizdin qo'rqunchi ko'prak edi.

Shavvol oyida Shayboqxon bila urushmoq doiyasi bila safar qilib, Bog'i Navg'a chiqtim. Besh-olti kun Bog'i Navda cherik yirilmoq va isti'dod tayyor bo'lmoq maslahati uchun o'lturuldi. Bog'i Navdin o'tlanib ko'ch-barko'ch mutavajjih bo'lduk. Saripuldin o'tub tushtuk, o'rdu girdini tamom shoh (88 b) xandaq bila ehtimom va ehtiyot qilib mazbut qilduk. Shayboqxon naridin kelib Xo'ja Kordzan navohisig'a tushti. Ora taxminan bir yig'och bo'lg'ay edi. To'rt-besh kun bu yurtta o'lturuldi. Bizning kishimiz va yog'iy kishisi kunda naridin kelib beridin borib, otqulashib urushurlar edi....

Mo'g'ul cherikikim, ko'makka kelib edi, urushurg'a xud toqatlari yo'q, edi. Urushmoqni qo'yub, bizning elni-o'q talab, ottin tushura kirishtilar. Bir bu emas, hamisha badbaxt mo'g'ul (90 a) ning odati ushmundoqtur. Bossa ham o'lja olur, bostursa ham o'z elini talab tushurub o'lja olur.

Olimizdag'ilarni necha navbat zo'rlab kelganda urub yondurduk. Ilgarimiz ham zo'rladi, keyin evrulg'an kishi ham kelib bizning tug'qa o'q qo'ya kirishtilar. Ilgaridin, keyindin zo'rladilar. Bizning elni tebrattilar.

O'zbekning urushta bir uluq hunari ushbu to'lg'amadur, hech urushi to'lg'amasiz bo'lmas. Yana bir budurkim, ilgari va keyin bek va navkar tamom o'q qo'yub jilovluq keladurlar, yong'onda ham parishon yonmay jilovluq yonadurlar....

Ikki namoz orasi bor edikim, Shayxzoda darvozasidin kirib arkka keldim. Ulug'-ulug' beklar va yaxshi-yaxshi yigitlar va qalin kishi bu urushta talaf bo'ldi. Ibrohim tarxon va Ibrohim soru va Ibrohim joniy, bu g'aribturkim, bir urushta uch Ibrohim otliq ulug' beklar talaf bo'ldi. Yana Abulqosim ko'hbur, Haydar Qosimbekning ulug' o'g'li Xudoyberdi tug'chi va Xudoyberdi barlos va Sulton Ahmad Tanbalning inisi Xalilkim, burunroq necha qatla mazkur bo'lub edi, bu urushta talaf bo'ldilar. Yana ba'zilar har sarig'a qochtilar. ...

Tonglasig'a Xo'ja Abulmakorim va Qosimbek va jami beklar va ichkilar va so'z tegar yigitlarni (84) charlab mashvarat qilib, so'zni qo'rg'onni berkitmakka va o'luk-tirikni qo'rg'on ichida ko'rmakka qo'yduk. Men va Qosimbek va yovug'umdag'i ichkilar va yigitlar bila ko'mak bo'lduk. Bu maslahat uchun shahrning o'rtasida Ulug'bek mirzoning madrasasining tomining ustida (91 b) oq uy tikib o'lturdim. O'zga beklarga va yigitlarga darvozalarda va girdo-gird qal'aning fasilida buljorlar uloshildi....

Muhosara ayyomi mumtad bo'ldi. Elga bisyor tanqislik, bo'ldi. Anga yettikim; faqir va miskin it etini, eshak etini yeya kirishtilar. Otqa bo'g'uzkim kam yoft bo'ldi, daraxtlarning bargini otqa berurlar edi. Anda tajriba bo'ldukim, bori yafroqlardin tut yafrog'i va qaroyig'och yafrog'i otqa sazovorroq emish. Ba'zi quruq yig'ochlarni randa qilib, taroshasini suvg'a ibitib otg'a berurlar edi. Uch-to'rt oyg'acha Shayboqxon qo'rg'onning yovug'ig'a kelmay, iroqroqdin qo'rg'onni evrulub ko'chub yurur edi.

Bir oxshom el g'ofil yarim kechag'a yovuq Feruza darvozasi tarafida kelib, naqoralar cholib suron soldilar. Men Madrasa (94 a) da erdim. Bisyor taraddud va dag'dag'a bo'ldi. Mundin so'ng har kecha kelib, naqora cholib suron solib, g'avg'o qilur edilar.

Har necha atrof va javonibqa elchilar va kishilar yiborildi, hech kimdin ko'mak va madade yetishmadi. Ul mahaldakim, zo'r va quvvatimiz bor edi, hech nav' shikast va nuqsone bo'lmaydur edi. Ko'mak va madad qilmadilar va mundoq mahalda xud ne

hisob bila madad qilg'aylar. Bularning umidi bila qabalda qal'adorliq qilmoqlik betaqrib ekandur.

Burung'ilar debturlarkim, qo'rg'on berkitmaklikka bosh kerak, ikki qo'l kerak, ikki but kerak: bosh sardor bo'lg'ay. Ikki qo'l ikki taraftin kelur ko'mak va madad bo'lg'ay. Ikki but qo'rg'onning suyi bila zaxirasi bo'lg'ay. Biz bu atrof va javonibdag'ilardin ko'mak va madad ko'z tutarbiz, bular xud har qaysi bir o'zga xayolda.

Sulton Husayn mirzodek mardona va sohib tajriba podshoh, bizga madad qilmay bizga ko'ngul ko'maklar berib, elchi yibor-may, Shayboqxon'ga Kamoliddin Husayn Gozurgohiyini muhosara vaqtida elchilikka yibordi.

Tanbal Andijondin Piskent navohisig'a keldi. Xonni ham Ahmadbek va jami Tanbalning muqobalasig'a chiqordilar. Laklakon (94 b) va Turok Chorbog'i navohisida ro'baro' bo'ldilar. Urush, turush bo'lmay, ajrashtilar, Sulton Mahmudxon urush kishisi emas edi. Sipohiylikdin bisyor oriy edi. Tanbal bila o'tru bo'lg'on chog' xondin bedilona aqvol va a'ol zohir bo'lor. Ahmadbek turk kishi edi, vale mardona va davlatxoh edi. G'arib durusht aytur, derkim, bu Tanbal ne miqdor kishidurkim, muncha dag'dag'a va taraddud tortarsiz. Agar ko'zungiz qo'rqsa, ko'zungizni bog'lab yurub ro'baro' bo'laling.

Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. T.: Sharq, 2002.

**UCHUNCHI QISM. JO'JI IBN CHINGIZXONNING
BESHLANCHI O'G'LI SHAYBONXONNING NASLIDIN
XORAZM MAMOLIKIDA SALTANAT QILG'ONLAR
ZIKRIDA**

Elbarsxon ibn Berka Sulton²⁴⁰ muvahhid va mutadayyin (musulmon va dindor) podshoh erdi. Amnaxondin so'ng xonliq

²⁴⁰ Elbarsxon ibn Berka Sulton – 1511 yilda Xiva xonligining asoschisi. Xorazmda shayboniylar sulolasining hukmronligi Elbarsxondan boshlanadi (1511-1516).

sariri aning vujudi bila ziynat topti. Va sana to'qquz yuz o'n bir (1505-1506y.) da Xorazmni musaxxar qilib, xorazmshohliq tojin farq (bosh) ig'a qo'ydi. Bu ijmol (qisqacha bayon) tafsili ulkim, Urganj Sulton Husayn Mirzo²⁴¹din so'ng Shayboniyxong'a taalluq topib erdi. Qizilbosh voliysi Shoh Ismoil²⁴² Shayboniyxon bila Marvda urushub shahid qildi. Bu voqeayi hoyiladin, so'ng Shoh Ismoil Xorazmg'a uch dorug'a yibordi. Biri Xivaq bila Hazorasbg'a, biri Urganj, biri Vazirga. Vazir kelgan dorug'a Vazir aholi va mavolisin undab, zar va xil'at berdi. Ul uchurda Vazir qozisi qozi Umar otlig' oqil va donishmand kishi erdi. Dorug'ani borib ko'rmadi. Tilaganda ham bemorliq bahonasi bila bormadi. Bir kecha Vazir akobirin pinhoniylatib, dedikim «muborak bo'lsun yangi din va yangi podshoh va yangi xil'atingiz.» Ul jamoat Shoh Ismoilning muftad bo'lub, shia mazhabiga rivoj berganin eshitmamish erdilar. Taajjub yuzidin dedilarkim «Yangi din demakning vajhi nedur?» Va qozi ul mazhabning hodis bo'lg'onin va aning botilliqin taqdir qilib, dedikim «holo munda kelgan hokimlarning kishisi ozdur va ham din mazhabin zohir qilmaydurlar. Ixtiyoringizni olg'andin so'ng-ra sizlarga sabbi(haqoratlash) sahoba rizvonulloh alayhumni taklif qilib, kofir bo'lg'onni qo'yub, qabul etmaganni o'ldurgusidur. Botroq g'amingizni emasangiz, islomdin ayrilursiz. ...

Alqissa, taraddudlar qilib, ikki yilg'acha ish boshqara olmadilar. Oxirilamr, sulton al-orifin, qutb as-solikin, zubdat al-avliyo sayid Ahmad Oto alayhur rahmaning naslidin sayid Husomiddin qittolni podshoh ko'tarib, ravofizni oradin chiqorurg'a ittifoq qildilar ersa, ul imtino qilib, Elbarsxonning avsofi hamida va axloqi pisandidasin ma'aslihi bayon yetti ersa, aning podshohliqig'a dalolat qildi. Vazir xalqi anga g'oyibona baiat qilib, kishi yibordilarkim, ...

²⁴¹ Sulton Husayn Mirzo – Xuroson hukmdori Sulton Husayn Boyqaro nazarda tutilyapti.

²⁴² Shoh Ismoil – Erondagi safaviylar sulolasi (1502-1736)ning asoschisi, 1502-1524 yillarda hukmronlik qilgan. 1510 yilda Shayboniyxon ustidan g'alaba qozongach, Xorazm boshqaruvi uning qo'liga o'tadi.

Elbarsxon otlanib, borg'an elchilarni sur'at bila ilgari yibordi va o'zi muva'd vaqtida va'dagohg'a kelib, tavaqquf qildi. Va Vazir akobiri xos avom bila darvozalarg'a kishi tayin qilib, qizilbosh alayhu-l-la'nani qatli om qilib, ertang birla xonni kelturub, taxtda o'lturg'uzdilar. Bu voqea sana to'qquz yuz o'n birda Qo'y yili erdi. Ul chog'da Vazir muzofotidin Yangishahr bila Tirsak buzulmay qolib erdi. Alarni inisi Bilbars sulton bila bir navkarig'a berdi. Ammo, Bilbars Belikaj sultong'a mashhur erdi. Ul jihatdinkim, ul mafluj(falaj) erdi. Ya'ni oyoqlari quvvat va harakatsiz. Bag'oyat dilovar va bahodir yigit erdi. Aroba minib, uch-to'rt tavsan otg'a sudratib, erovul bila yurub, chapovul qilur erdi. Va Bilbarsxon uch oydin so'ng Urganjni olib, kufforni maqhur va mankub qildi. Andin so'ng Abulakxon va Amnakxon o'g'lonlarin qolg'an o'zbek bila kelturdi va Xivaq bila Hazorasb qizilboshin oradin ko'tardi. Va barcha Xorazm mamoliki alarg'a sofiy bo'lub, Xurosong'a g'azot uchun otlandi va turktoz qilib, ko'p g'anoim olib keldi. Ul choqda Shoh Ismoil(1524 yil vafot etgan) favt bo'ldi. Andin so'ng yana Xurosong'a cherik yubordi va Xuroson tog'ining shimoli sarhadlarin Mehnadin Durung'acha tasarrufig'a kiyurdi. Andin so'ng Bolqon bila Manqishloqg'akim, turkmoniya tavoifining manzil va maamini erdi, lashkar yuborib, mujodila va muhoribadin so'ng musaxxar bo'ldi. Va har mamlakatni bir shahzodag'a va har diyorni bir amirg'a tafviz qildi....

Sultonhojixon ibn Belikaj²⁴³ sulton Yangi shahardin kelib, oqoini ittifoqi bila Vazirda saltanat taxtig'a o'lturdi. Ammo, oti xon erdi, mulk ixtiyori Elbarsxonning ulug' o'g'li Sultong'ozu sultonning qo'lida erdi. Va Sultonhojixon bir yil podshohliqda o'lturub, vafot topti.

Hasanqulixon ibn Abulakxon²⁴⁴ Yodgorxon avlodining ulug'i ul erdi. Ani xon ko'tarib, Urganjni anga poytaxt qilib ber-

²⁴³ Sultonhojixon ibn Belikaj – shayboniylar sulolasidan bo'lgan Xiva xoni (1516).

²⁴⁴ Hasanqulixon ibn Abulakxon – Xiva xoni (1516).

dilar. Va oz fursatdin so'ng barcha shahzodalar anga xusumat paydo qilib, Urganj ustig'a kelib urushtilar. Ul urushda Amnakxonning kichik o'g'li Ag'anoy sultonni Urganj piyodasi urub o'ldurdilar. Bu jihatdin to'ralar mushaddad va g'azabnok bo'lub, kunda masof qilib, ikki oyg'acha qabadilar. Qal'a ichida qahat paydo bo'ldi va fuqaro buzulub chiqa boshladi. Yana ikki oy muhosira qilib, Urganjni oldilar va Hasanqulixonni ulug' o'g'li Bilol bila o'ldurub, qolg'an o'g'lonlarin onasi bila Buxorog'a ko'churdilar.

So'fiyonxon ibn Amnakxon²⁴⁵ birodarzodasidin so'ng Urganjda shahzodalar say'i bila podshohliq masnadida o'lturdi. Va ul himmat va g'ayratda aqronidin mumtoz erdi. Turkmoniya qaboili Elbarsxondin beri raiyat bo'lub erdilar. So'fiyonxonning zamonida Bolqon va Manqishloq tarokimasikim, ersori va Xuroson soluri va taka va soriq va yamut erdilar, sarkashlik og'oz qilib, xonning barotlaridin qirq kishini o'ldurub, zakot bermadilar. Bu jihatdin xon shahzodalarg'a kishi yiborib, lashkari bekaron bila tarokima qasdig'a harakat qildi va toxtu-toz qilib, ko'p kishini ayol va avlodi bila qatlu asir qildi. Va qutulganlari qochib, Chutoq qirig'akim berk, ammo suvsiz erdur, qabaldilar. Va xon ham alar keynidin borib, ul yerni qabab tushti. Tarokima suvsizliqdin batang kelib, Oqotoy sulton dargohig'a yiqildi. Va sulton oqosidin alar gunohin tilab, har kishining diyatig'a ming qo'ydin qirq ming qo'y muqarrar qilib, muovidat ettilar. Ma'lum bo'lsunkim, Asfandiyorxon zamonig'acha yilda qirq ming qo'y berurlar erdi. Va boshqa turkmanlardin barot qo'y oldilar. Andoqkim, ichki solurdin o'n yetti ming olti yuz qo'y. Va hasanelikim, ikdar va chovdurdur, alardin o'n bir ming olti yuz va eronchidin to'rt ming to'rt yuz va go'klandin o'n uch ming ikki yuz. Adoqlidin ham uch ming ikki yuz qo'y oldilar. Xizreli va alieli va tevachikim, dehqon erdilar, alardin g'alla oldilar....

²⁴⁵ So'fiyonxon ibn Amnakxon – shayboniylar sulolasidan bo'lgan Xiva xoni (1516-1522).

So'fiyonxon sana to'qquz yuz yigirma sakkiz (1522)da favt bo'ldi. Muddati saltanati olti yil erdi. Andin besh o'g'ul qoldi: Yusuf va Yunus va Ali va Ag'ashi va Pahlavonquli.

Buchg'axon ibn Amnak²⁴⁶. Ani Urganjga kelturub, xon ko'tardilar. Aning asrida Xorazm o'zbeki Quchand va Isfaroing'acha chopib, g'orat qilur erdi. Bu sababdin Eron podshohi Tahmosb shoh o'jiz kelib, sulh uchun elchi bila benihoyat peshkash va tansuqot yiborib, iltimos qildikim «farzandlikka qabul qilg'aylar, tokim, sulh istehkomi dushmanlarimg'a ma'lum bo'lub, Chingiz avlodig'a Ko'ragonliq, ya'ni kuyovlik bila nisbat topmoq bila muftaxar bo'lg'ayman.» Derlarkim, yiborgan peshkashlari ajnosi aqmashadin boshqa to'qquz arabiy ot, to'qquz oltun xisht, to'qquz kumush xisht va Quchand viloyati erdi. Quchandni Ag'ashi sultong'a berdilar. Xon oqosi So'fiyonxonning Oysha beka degan qizin podshohona asbob bila uzotti. Va tarix to'qquz yuz o'ttuz ikki(1525-26 yil)da haq rahmatig'a ketti. To'rt yil podshohliq surdi. Aning uch farzandi bor erdi: Do'st sulton, Esh sulton, Nurum sulton.

Avaneshxon ibn Amnakxon²⁴⁷ Chun mulk egasi ul bo'ldi, Buchg'axonning avlodin Kotg'a nomzad qildi. Aning ayyomida Muhammad Solih bitikchi ibn Xo'ja Muzaffar bitikchikim, Astrobodda erdi, shoh Tahmosbg'a muxolifat qilib, ba'zi qasaboti Astrobodg'a mutasarrif bo'lub, tuhafi farovon bila Xorazmg'a elchi yiborib, istimdod qildi. Avaneshxon Sultong'ozu sultonning kengashi bila Umarg'ozu sulton valadi Sultong'ozu sultonni sipohi vofir bila irsol qildi. Umarg'ozu sulton Astrobodni Sadriddinxon istojlu qo'lidin olib, Muhammad Solih bitikchig'a topshurub, g'anoimi bisyor bila murojiat qildi. Va xonning uch farzandi bor erdi: Dinmuhammad sulton, Mahmud sulton, Ali sulton. Va Dinmuhammad sultonkim, Astrobod chopmoqg'a borurda Muhammadg'ozu sulton ibn Elbarsxonkim,

²⁴⁶ Bo'chg'axon ibn Amnakxon – Xiva xoni (1522–1526).

²⁴⁷ Avaneshxon ibn Amnakxon – shayboniylar sulolasidan bo'lgan Xiva xoni (1526-1538).

Nisoy va Obivard va Durun hokimi erdi, aning barotdolarig'akim, Xuroson turkmonidin barot qo'yi olib kelur erdi, yo'luqib, tahakkumot (zo'ravonlik) bila bir sorig' echkusin olib erdi, Muhammadg'ozu Sulton ani qayturda afrodi bila tutdurub, ta'zib qildi va bir mo'tamid navkarig'a topshurub, otasi oldig'a muqayyid yubordikim, o'g'lig'a tanbeh bersun. Va sulton yo'lda xalos bo'lub, ul navkarni o'ldurub, Urganj keldi va nihoniy o'gay onasi tilidinkim, Muhammadg'ozu sultonning singlisi erdi, bitib yibordikim «man o'lgudek marizman. Diydor qiyomatg'a qolmasun». Va Muhammadg'ozu Sulton bu muvahhash xabar istimoidin betoqat bo'lub, oz kishi bila otlandi. Chun Urganjg'a keldi, ittifoqo, xon ul kun shikorg'a chiqib, o'rduda kishi yo'q erdi. Bexabar haramxonag'a kirib, singlisin solim topib, bildikim, na hodisa bordur. Ul holatda Dinmuhammad sulton navkarlari bila yetushub, ani shahodatg'a yetkurdi. Bu xabari vahshatasardin Vazirda Sultong'ozu sulton, Ali sulton ibn So'fiyonxonkim, o'z domodi erdi, teg'i bedarig' bila aning rishtai hayotin munqate qildi....

Bu jihatdin Avaneshton Vazirg'a sipoh tortib, Sultong'ozu sultonni Elbarsxonning avlodidin o'n kishi bila o'ldurdilar. Va Sultong'ozu sultonning Umarg'ozu va Sherg'ozu otlig' ikki kichik o'g'lini Oqotoyxon say'i bila Buxorog'a uzottilar. Bu hodisa vuquidin so'ng Bilbars sultonning o'g'lonlari ham Yangishaharni tashlab, Buxorog'a bordi. Va Umarg'ozu sultonkim, oliy himmat yigit erdi va xoharzodai Baroqxon – hokimi Toshkand erdi, Baroqxondin istimdod qilib, Ubaydullohxon xizmatig'a kelib, xonni Xorazm fathig'a tahris va targ'ib qildi. Chun Avaneshtonning Movarounnahr sipohig'a tobi muqovimati yo'q erdi, aksar oqovu-inilari bila Urganjni tashlab, firor ixtiyor qildi. Vazirning shimol jonibida Bayot degan qirda Buxoro cheriki izidin yetib, dastgir qildilar. Ubaydxon Avaneshtonni Umarg'ozu sultong'a berib, qatl qildurdi. Qolxon va Oqotoyxonni tirik saqladi. Va Xorazmni o'g'li Abdulazizxong'a berib, barcha

o'zbekni ko'churub, muovidat qildi. Bu voqea sana to'qquz yuz qirq olti (1539 y.)da erdi. Va Hasanxon Rumlu «Tarixi olamoroi Abbosiy»da to'qquz yuz qirq besh (1538)da, debdur. Mahmud sulton, Ali sulton, Yusuf sulton, Yunus sulton, Hojimaxonkim, qutulub, Durunda Dinmuhammadxon g'a qo'shulub erdilar, Dinmuhammadxon alarni ittifoqi bila Kurdush kelib, xizrelidin ming otlig' kishi olib, majmuyi uch ming kishi bo'lub, Xivaqg'a kirdilar. Bu jihatdin Abdulazizxon qochib, Buxoro bordi. Ubaydullohxon qirq ming cherik bila Dinmuhammadxon qasdi g'a tebrandi. O'zi Tevabo'yunda tavaqquf qilib, Pirim o'g'lonni va Hofiz qo'ng'rotni aksar umaro va lashkari bila Urganj yibordi. Alar Hazorasb kelganda Dinmuhammadxon Xivaqdin otlanib, kecha Gardanxostg'a tushub o'lturdi. Buxoro cherikikim, kecha ko'chub kelur erdilar, saharda alarg'a uchrab, muqotila va muhoriba qilib, Pirim o'g'lon va Latif mirak va Shayxnazar biy va Toji bahodir tavo-chiboshi va Qarocho bahodir vakil va Hofiz qo'ng'rotni aksar umaro bila qaydg'a chekib, aningdek og'ir lashkarni mag'lub va mustosil qildi. Darvish biy va Kepak sulton mashaqqati tamom bila qochib qutuldilar. ...

Haqnazar sirtlonning inisi Kuntug'ar bahodir ul kecha olt-mish kishini sanchib yiqdi. Tong otg'ondin so'ng Dinmuhammad sulton asir bo'lg'on umaroni huzuriga kelturdi. Min al-latoyif: Dinmuhammad sulton Hofiz qo'ng'rotg'a boqib dedikim «Ey, hamisha Ubaydxon ollida aytur ermishsankim, Urganj ahli musulmon ermas, kofirdur. Qaysi dalil bila bizni kofirga nisbat qilursan?» Anda Hofiz qo'ng'rot yukunub dedikim «Ushbu zamon kofirliq bila musulmonlig' ma'lum bo'lur» Dinmuhammad sulton bu zarofat jihatidin alarning gunohin afv qildi va aning bu so'zi o'zbek orasida masal bo'ldi. Va alar Qolxon va Oqotoy sulton boshliq Movarounnahr borg'on elni bir ignasin qo'ymay yiborurga mutakaffil bo'lub, aymonni iymon bila mo'vakkid qildilar va Hojim sulton umaroni olib borib,

Ubaydullohxonni Buxoroda ko'rdi. Xon dag'i anga izzati tamom va hurmati molokalom bila amm va otasin majmu eli bila berdi. ...

Barcha jamiati bisyor va davlati beshumor bila o'z manozilig'a nuzul qilib, Qolxonni podshoh ko'tardilar.

Qolxon ibn Amnakxon.²⁴⁸ Aning zamonida bilodi Xorazm obodon va el davlati farovon va barcha ne'mat bag'oyat arzon bo'ldi. Va ayyomi saltanatida Xuroson jonibi rukub qilib, Darigazni musaxxar qildi. Va Atakda Darigaz bandining ollida bir qal'a bino qildurdi va o'z otig'a mansub qildikim, holo ani ba'zi Qolxon qal'asi va ba'zi Qoxlon derlar. Va aning ikki farzandi bor erdi: Shayxmuhammad va Shohnazar otlig'.

Muddati saltanati to'qquz yil erdi.

Oqotoyxon ibn Amnakxon²⁴⁹ Vazir dor as-saltanasida xilofat toji bila sarafroz bo'lub, Qolxonning ikki o'g'lig'a Kotni suyurg'ol qildi. Va dodi adlg'a mashg'ul bo'ldi. Va aning davridakim, So'fiyonxonning o'g'lonlari Yunus sulton va Pahlavonquli sulton Urganj hokimi erdilar, alardin nopisandida atvor zuhurg'a kelib, bu jihatdin alarni Buxorog'a quvdilar. Va Qolxonning o'g'lonlarin dag'i alar keynidin yibordilar. ...

Va Oqotoyxon Yunusxon Urganjni olg'onda aning bila urushub, dastgir bo'ldi va Qosim sultonning amri bila Xafiyada shahodat topti. Aning na'shin Vazirg'a kelturub dafn qildilar. Podshohliqining muddati sekkiz yil etti oy erdi va umri yetmish uch yil. Aning olti o'g'li bor erdi: Hojim sulton, Mahmud sulton, Folid sulton, Tamur sulton, Ollohquli sulton, Sulaymon sulton. ...

Yunusxon ibn So'fiyonxon²⁵⁰ bag'oyat shujo va daler erdi. Va Manqit hokimi Ismoil biy deganga kuyov erdi. Qirq yigit birla Manqit borurman deb, Buxorodin chiqti va Kotning shimol jonibidin o'tub, Tukg'a tushdi. Quyosh g'urub mayli qilg'ondin so'ng, ...

²⁴⁸ Qolxon ibn Amnakxon – shayboniylar sulolasidan bo'lgan Xiva xoni (1538-1547).

²⁴⁹ Oqotoyxon ibn Amnakxon – Xiva xoni (1547-1556).

²⁵⁰ Yunusxon ibn So'fiyonxon – Xiva xoni (1556).

Qal'a devorig'a yag'och bila chiqib, ichkari kirdi va Mahmud sulton ibn Avaneshtonkim, inisi Ali sultonning jonibidin Urganj voliyi erdi, ani o'rdusidin tutub, Vazirga Oqotoyxon qoshig'a yibordi va saltanat taxtig'a o'lturdi. ...

Mahmud sulton borg'ondin so'ng Oqotoyxon umaro tahriri bila Urganjga sipoh tortti. Yunusxon qarshu chiqib, shayx Najmiddin Kubro alayhirrahmaning mag'rib jonibida muhoriba voqe bo'ldi. Urganj sipohi g'olib bo'lub, Vazir cheriki shikast topti. Havo bag'oyat issig' erdi, Oqotoyxonning oti yaramay borur erdi. Yunusxonning o'g'li Qosim sulton xonning keynidin yetushub, inonidin tutub olib keldi. Va Urganj kadxudosikim, Salmon arbob erdi, aning uyig'a tushurdi. Va o'n besh kundin so'ng yoshurun kiyizga chulg'ob, o'lturitdi. Andoqkim, sobiqan zikr topib erdi, ul chog'da Hojim sulton bila Temur sulton Xuroson va Bog'obod hukumatig'a mashg'ul erdilar. Otasi xabarin eshitib, qalin cherik bila Yunusxon qasdig'a ozim bo'ldilar. Vazirdagi shahzodalar hamkim, Mahmud sulton va Fo'lod sulton va Ollohquli sulton erdilar, otlandilar. Va Xivaqdin Do'st sulton va Esh sulton dag'i ko'mak uchun Xivaq va Kot va Hazorasb cheriki bila yurush qildilar. Bu xabar istimoidin Yunusxon cherik yig'nab, orada muqotila voqe bo'ldi. Oqibat Yunusxonning ko'ngliga raabu haros mustavliy bo'lub, inisi Pahlavonquli sulton bila Buxorog'a qochib, anda tura olmay, rajab oyining o'n birida Qazvinda shoh Tahmosb mulozamatig'a bordi. Bu voqea sana to'qquz yuz oltmish to'rtida rabi' assoniyda (1557y.fevral) erdi. «Omadani Xorazmiya» ta'rix topibdurlar. Muddati xonliqi besh oy erdi. Qosim sultonni yo'ldin tutub kelturub, o'ldurdilar. Bu bobda debdurlar, ...

Do'stxon ibn Buchg'axon²⁵¹ barcha shahzodalarning itti-foqi bila xon bo'ldi. Avval kishikim, Xivaq dor as-saltanasida taxtg'a o'lturdi, ul edi. Faqir mashrab va darvish nihod podshoh erdi. Inisi Esh sulton bahodir va majnunvash kishi erdi.

²⁵¹ Do'stxon ibn Buchg'axon – Xiva xoni (1556-1558).

Oqosining davlatig'a qanoat qilmay, Urganj talabig'a o'tlanib, Qumqal'a navohisida Hojim sulton bila masof qilib, chun hech ish boshqara olmadi, oxir sulh bila muovidat qildi. Ul urushda uyg'ur va naymandin boshqa o'zbekni o'ldurmas erdi. Yana bir necha fursatdin so'ng Xivaq va Hazorasb va Kot cherikin yig'nab, Urganj qasdig'a yurush etti. Va Hojim sulton inilari bila mudofaag'a chiqib, Tuk qal'asi bila Urganj orasida urush voqe bo'ldi. Va Esh sulton bir hafta arobadin kuran tortib, muqotila qilur erdi. Oxirilamr, bir kecha hiyla bila yoshurun Urganjga kirib, uyg'ur, nayman amvolin talatib, avlodu ayolin shahrdin ixroj qildi. Hojim sulton Vazirga borib, Nisoyda Ali sultong'a va Marvda Dinmuhammad sultonning o'g'li Abulmuhammad-xong'a kishi yiborib, izhori istimdod qildi. Alar o'z navkarlari bila kelib, Hojim sultong'a qo'shulub, Urganjni qabab, to'rt oydin so'ng bir sahar qal'ag'a yugurdilar va Esh sultonni ul voqeada o'z navkarlaridin Tiynali do'rmon degan o'q bila urub o'ldurdi. Va Do'stxonni dag'i Xivaqg'a kishi yiborib, shahid qildurdilar. Buchg'axonning nasli munqate bo'ldi. ...

Hojimxon ibn Oqotoyxon²⁵² bag'oyat oqil va kordon, odil va musulmon podshoh erdi. Shijoat va shahomatda o'z aqronidin mumtoz, muruvvat va futuvvatda o'z ajnosidin sarafroz erdi. Umri o'ttuz yettiga yetganda sana to'qquz yuz oltmish yetti(1560y.)da Urganjda xonliq masnadig'a mutamakkin bo'ldi. Aning julusidin to'qquz yil so'ng Ali sulton vafot topti. Va ul xushxo'y va shirin kalom, javonmard va sohibi saranjom, shujo va saxovatlig' odil va siyosatlig' shahzoda erdi.

Andoqkim, o'lguncha a'zosidin uzveni ixtiyori bila kishiga ko'rguzmadi va xilvat yerda tahorat qilur erdi. Urganj, Hazorasb, Kot, Nisoy, Obivard viloyoti anga maxsus erdi. Har yil Hutda Xurosonni Turshiz va Turbat va Jom va Xargirdin Pil ko'prukig'acha toxtu-toz qilur erdi. Jurjon va Jojarmni olib,

²⁵² Hojimxon ibn Oqotoyxon – Hojimuhammad I, shayboniylar sulolasidan bo'lgan Xiva xoni (1558-1602).

Kabud jomani poytaxt qilur erdi. Aning lashkari qirq mingga yetti. Barchasig'a ulufa berur erdi. Oyoq navkarining vazifasi o'n olti qo'y erdi. Qizilboshni ko'p turktoz qilg'on jihatdin shoh Tahmasb sana to'qquz yuz oltmish besh(1558y.)da Badrxon istojluni Shohquli xalifa muhrdor va Yodgor bek turkmon va Hasanbek Fath o'g'li va Rustamxon va Ahmadbek Qubod o'g'li va Qosim bek Durg'ut o'g'li bila o'n ikki ming lashkar bila Ali sultonning qasdig'a nomzad qildi. Ittifoqan, sulton Xuroson turkmanig'a tushub, har navkari bir tarafg'a barot uchun borib erdi. Sulton besh yuz kishi bilakim, ikki yuzi Abozbek go'klan boshlig' go'klandin erdi, Gurgon kanorida urushub, shikast berdi. Ibrohimxon Zullqadr hokimi Astrobod va Rustamxon va Qosimbek mingdin ziyoda qizilbosh bila qatlg'a yetib va Badrxon va Yodgor Muhammad bek turkmon jami kasir bila dastgir bo'lub, Hasanbek Fath o'g'li va Ahmadbek Qubod o'g'li oz kishi bila qutulub kettilar. Va Shohquli xalifa kelurda yo'lda qulunjdin favt bo'lub erdi. ...

Sultonning miroxo'ridin naqldurkim «ul urushda sultong'a tushgan g'anoim otining to'qquzdin birin olur erdim. Manga yetti yuz ot tegdi. O'zga amvolni mundin qiyos qilsa bo'lur.» Mundin o'n olti so'ng sulton Urganjdin Xuroson kelib, Qujand julgasida qishladi. Bu niyat ilakim, bahor Iroqg'a chapovul urub, g'azot qilg'ay. Va bu qishloqda aning ikki shonasining orasig'a kuydurgu chiqib, hayot vadiatin malakulmavtg'a topshurdi. Bu mansuba tarix hijriy to'qquz yuz yetmish olti(1568y.)da qirq yoshida erdi. Va Hasan Rumlu tarixida yetmish uch debdur. «Yak kam az qotili qizilbosh ast» ta'rix bo'lur. Bu taqdir bila Hojimxon julusidin olti yil so'ng vafot topti. ...

Aning o'g'li Sanjar sulton nayman Qulmuhammad biyning sayi bila Nisoyda yigirma besh yil podshoh bo'lub o'ldi. Andin nasl qolmadi. Ali sulton favtidin bir necha muddat so'ng Hojimxon Xurosong'a g'azot niyati bila borib erdi. Abdul-

lohxon²⁵³ Xorazmni holi topib, junudi noma'dud bila Hazorasb ustidin o'tub, Qulanjig'a kelib tushti. Holo ul mavzeda hazrat podshohi oliyjah va sultoni gardun dargohkim, bu muxtasarning xutbasi aning muborak oti bila xujastamazmun va batni hamida avsofi bila mashhundur (Eltuzarxon-1804-06y. ko'zda tutilgan.), imorati aliyyiya barpo qilibdurkim, ...

Qulonji Xivaq bila Hazorasb orasida voqedur.

Hanuz urush tushmay Abdullohxong'a Hojimaxonning Urganj kelgan xabari yetushub, Fo'lod sulton bila Temur sultong'akim, Hazorasbdin Qubo bog'ig'acha o'lturg'on o'zbekni yig'nob, Xivaqda asbobi muhoriba tahhiyasig'a mashg'ul erdilar, elchi yiborib Yarashib, Buxorog'a uvud qildi. Bir necha muddatdin so'ng Nurmuhammadxon ibn Abulmuhammadxon ibn Dinmuhammadxonkim, Marvu Obivard va Nisoy va Bog'obod hokimi erdi, Hojimaxon mutobiatidin chiqib, viloyoti mazkurani Abdullohxong'a topshurdi. Va Abdullohxon o'zidin hokim qo'yub, ani mansabdin begona qildi. Va ul bu jihatdin qochib, Hojimaxon dargohig'a kelib tahrir qilg'on uchun Hojimaxon viloyoti mazkuraning talabig'a otlandi. Bu xabarni eshitib, Abdullohxon Yana Xorazm kelib, shahzodalarni hiyla bila tutub, Xorazmning tamomi bilodin musaxxar qilib, o'zidin hokim qo'yub, barcha o'zbekni ko'churub, Buxorog'a qaytti. Va Sog'anj diyorida Oqsuv kanorida yigirma ikki shahzodani darajai shahodatg'a yetkurdi. Bu hodisa sana ming ikki(1593-94y.)da erdi. Va Hojimaxon bu muvahhash xabarni eshitgandin so'ngra qochib borg'on shahzodalar va navkarlar bila Iroqda shoh Abbosi moziy oldig'a bordi. Shoh ta'zim va tabjil bila ani o'z taxtig'a o'lturtub, gunogun ziyofatlar qildi va vazifasig'a har kun ming tumon zar muqarrar etti. Va Abdullohxonning o'g'li Abdulmo'minxonkim, Xurosonning aksar viloyotin olib, sana ming besh(1596-97y.)da Isfaroinni muhosira qilib erdi, shoh

²⁵³ Abdullohxon – Abdullaxon II, shayboniylar sulolasidan bo'lgan Buxoro xoni (1583-1598).

Abbos bu jihatdin aning mudofaasig'a o'tlanib, Bastom keldi. Va Hojimaxon shahzodalarning harakati bila shohdin ayrilib, turkmaniyadin lashkar olib, Urganj kelib, Abdullohxonning qo'yg'on hokimlarin qatl qilib, o'z mamlakatiga ega bo'ldi. Ul chog'da Abdullohxon o'g'lig'a madad bermak uchun Eron ustig'a o'tlanib, Xo'jamquli qo'shbegi degan amirin o'zig'a taalluq sipohi bila erovul qilib, ilgari yiborib erdi. Va ul Chahorjo'y kelganda, Hazorasbdin kishi qochib bordi. Xo'jamquli biy xong'a kishi yiborib, o'zi sur'at bila o'tlanib, oz fursatda Hazorasb kelib, Bobo sulton ibn Fo'lod sulton ibn Oqotoyxonni qabadi. Andin o'tub, Xonqohni olib, Hamza sulton ibn Fo'lod sultonni g'ofil topib, o'ldurdi. Hojimaxon bu xabarni eshitib, Urganjni tashlab, Qazvinda shoh Abbos qoshig'a bordi. Mundin so'ng Abdullohxon dag'i kelib, Hazorasbni to'rt oy qabab oldi va Bobo sultonni o'ldurdi. Bu voqeadin bir yil so'ng sana ming olti(1598y.)da Tovuq yili Abdullohxon vafot topti. Andin so'ng Abdulmo'minxonni kecha ko'chub borurda Zomin qal'asining ilayida otasining umarosi o'ldurdi. Bu xabar yetushgach, Hojimaxon shohdin ruxsat olib, Xorazm keldi va o'z taxtig'a minib, necha muddatdin so'ng ta'rix ming o'n bir (1602y.)da va Bars yilining oxirida sakson uch yoshida jonin Tangrig'a taslim qildi. Muddati saltanati qirq ikki yil erdi. ...

Arabmuhammadxon²⁵⁴ otasidin so'ng Xivaq dor as-saltanasida podshoh bo'ldi. Bag'oyat mutadayyin va mutasharre va kam ozor kishi erdi. Va valoyatdin nasibi bor erdi. Aning ayyomi julusidin olti oy o'tgandin so'ng O'rusdin lashkar kelib, quyosh Saraton burjig'a tahvil qilgan kuni Urganjga kirdi va raoyodin ming kishini shahid qilib, yetti kun toroj etib, og'ir molni o'tg'a yoqib qaytti. Arabmuhammadxon Xivaqdin o'tlanib kelib, o'rus Urganjdin chiqq'an yerda ikki kun urushdi. Uchunchi kuni zo'r qilib o'tti. Yana islom cheriki oldig'a chiqib, yetti kun

²⁵⁴ Arabmuhammadxon – Hojimaxonning o'g'li, shayboniylar sulolasidan bo'lgan Xiva xoni (1602-1621).

qabab olib, qatli om qildilar. Yuz kishi qutulub, daryo kanorida yag'ochdin qal'a solib qabalib erdi. Alarni ham jahannamg'a yibordilar. Mundin dag'i olti oydin so'ng qalmoq lashkari kelib, Xo'ja ko'lidin Tuk qal'asig'acha suv kanorida o'lturg'on elga chapovul urub, Bo'rlidin chiqib ketti. Arabmuhammad keynidin borib, tushgan asiru molni olib qoldi. Ma'lum bo'lsunkim, O'zbekxon zamonidin Arabmuhammadxon 'davronig'acha Xorazm qalmoq turktozidin omon erdi. Arabmuhammadxon zamonida nayman amir So'fi mirzo degan Xusravshoh deganni Elbarsxon naslidin Xivaqg'a kelturub erdi. Arabxon amirni Xusravshoh bila o'ldurdi. Mundin so'ng uyg'ur Bayosh mirzo degan Hasanqulixon avlodidan Solih sultonni Urganjga kelturub, xon ko'tarurda Arabxon Xivaqdin borib, sultonni qatlg'a yetkurdi.

Aning yetti o'g'li bor erdi: Asfandiyorxon, Habash sulton, Elbars sulton, Abulg'ozixon, Sharif Muhammad sulton, Xorazmshoh sulton, O'g'on sulton. Ammo Habash sulton va Elbars sulton bir onadin erdi va Xivaqda ulg'aydilar. Bag'oyat bebok va saffok(razil) erdilar. Avbosh seoyati va ashror sharorati bila otasig'a oq bo'lub, sarkashlik qildilar. Bu jihatdin xon alarning qasdig'a ikki qatla cherik tortib urushti. So'ngg'i borg'anda alarning qo'lig'a tushti. Habash sulton aningdek otasining ko'zun o'ydurdi. Bu voqea ming o'ttuz (1621y.)da erdi. ...

Asfandiyor sulton Sharif Muhammad sulton va Xorazmshoh sulton bila Hazorasbda qabalib, qirq kundan so'ng Asfandiyor sulton Iroqg'a bordi. Va Abulg'ozi sulton Buxorog'a borib erdi, Sharif Muhammad sulton Buxorog'a borib, anga qo'shuldi.

Habash sulton va Elbars sulton²⁵⁵ otasin ko'r qilg'ondin so'ng ikkovi mushorikat bila podshohliq surdilar. Bir yildin so'ng Xivaqda otasi va Xorazmshoh sulton va Asfandiyor sultonning ikki tiftl farzandikim, biri uch yashar, biri yarim yashar erdi,

²⁵⁵ Habash sulton va Elbars sulton – Arab Muhammadxonning o'g'illari, taxt uchun otasini qatl ettiradilar. 1621-1623 yillarda xonlik taxtini egallab turadilar.

to'rtovin o'lturtdilar va O'g'on sultonni O'rusg'a yibordilar. Oriyati podshohliq uchun ikki olamda la'natg'a sazovor bo'ldilar. Royi jahonnamoi arbobi basoratg'a ravshan va mubarhan bo'lsunkim, Ikosara xonodonidin Sheruya umaro ig'vosi bila otasi Xusravi Parvizni qatlg'a yetkurdi, olti oydin so'ng toovun marazi bila raxti iqomatin oamdin ko'tardi. ...Va xulafoi Abbosiya dudmonidin xalifa dag'i otasi Mutavakkil ibn Mo'tasim ibn Horunni o'ldurdi, olti oydin o'tmadi. Va Ko'ragoniya salotinidin Abdullatif mirzo ham otasi sulton Ulug'bek mirzo ibn Shohrux mirzoni shahodatg'a yetkurdi, olti oyda Bobo Husayn ani o'ldurdi. Habashxon va Elbars sulton dag'i alardek otasi shahodatidin olti oydin so'ng Asfandiyorxon qo'lida maqtul bo'ldilar. Muddati saltanatlari bir yil olti oy erdi. ...

Asfandiyorxon²⁵⁶ shahriyori oqil va podshohi odil erdi. Otasi Arabmuhammadxon farzandlarining qo'lig'a giriftor bo'lg'ondin qirq kun so'ng Hazorasbdin chiqib, vaqt muqtazosi bila Erong'a shoh Abbosi moziy ilayiga borib erdi. Aning madadi bila Durun va Bolqon tog'ining tarokimasidin navkar olib, Urganjga mutavajjih bo'ldi. Ul chog'da Urganj suvsizliqdin buzulub, Tukning ro'baruyida daryo labida qal'a solib erdilar. Asfandiyorxon ul qal'ag'a kirib, Habash sulton xabardor bo'lub, Xivaqg'a qochti va Elbars sulton bila Xivaq lashkarin olib, Urganjg'a yurdi. Va Asfandiyorxon shikast topib, Manqishloq bordi. Va yana sipoh yig'nob, Urganjga kelib, sultonlar bila urushub, mustavli bo'ldi va Elbars sultonni tutub o'ldurdi. Habash qochib, Manqitda Shonak mirzo ilayigakim, o'z namakparvardasi erdi, bordi. Ul halol namak ani tutub, Asfandiyorxon xizmatig'a yibordi. Xon ani dag'i Elbars sultong'a mulhaq qildi. Va uyg'ur, naymankim Arabmuhammadxon qatlig'a soi bo'lub erdilar, alarg'a qatli om buyurdi. Va turkmanni do'st tutub, yurtig'a kelturdi. Bu jihatdin o'zga o'zbek muxolifat qilib, buzulub Movarounnahrğa va manqit va qazoqg'a kettilar.

²⁵⁶ Asfandiyorxon – Arab Muhammadxonning o'g'li, shayboniylar sulolasidan bo'lgan Xiva xoni (1623-1642).

Va Abulg'ozixonkim, o'zbek tarafin tutar erdi, aning bila ko'p muhoriba qildi. Va oxir anga dast topib, Iroq(Eron)g'a yibordi. Ta'rix ming o'ttuz ikki(1623y.)da podshoh bo'lub erdi, o'n yetti yil saltanat surub, intiqol qildi. Andin Yushan sulton va Ashraf sulton otlig' ikki farzand qoldi. Alarni Nadrmuhammadxon Buxorog'a eltub, Qarshida er berdi. ...ma'lum bo'lurkim, ayyomi mulki o'n to'qquz yildur. Sulton al-atqiyo va qutb 'al-avliyo Hasanquli Azizon va qozi Muhammad Azizon va Jonmuhammad Azizonning javorlarida Mevastonda madfun bo'ldi.

Ammo. Ma'lum bo'lsunkim, hazrat Jonmuhammad Azizon Xorazmiy muridi qozi Muhammad Azizon Xorazmiy va alar muridi Hasanquli Azizon Xorazmiy va alar muridi Mustafuquli Azizon turkmon Xorazmiy va alar muridi amir Ali Azizon Samarqandiy Mazoxiniy va alar muridi Hofiz Basir Muhammad al-voiz al-Xuzoriy va alar muridi hazrat mavlono Ali Bovardiy va alar muridi mavlono Aloiddin Maktabdor Obiziy va alar muridi Sa'daddin Koshg'ariy va alar muridi mavlono Nizomiddin Xomo'sh Farkatiy va alar muridi xo'ja Aloiddin Attor va alar muridi hazrat xo'ja Baho al-Haqq va-d-din erdilar.

Hazrat xoni mazkur marhum hazrat Jonmuhammad Azizon mushorilayhning halqai irodatig'a doxil bo'ldi. Yillar sulukka mashg'ul bo'lub, haddin ziyoda futuhot va karomot va xavoriqi odot hosil qildi. Bo vujudikim, darajoti a'lo va marotibi aqso topib, suluki kamolg'a yetib erdi, hazrat Shayx Azizon alayhirrahma rihlat qilurda alarning tarbiyat va ruxsatin qudvat al-orifin va zubdat al-vosilin shayxa ush-shuyux qozi Azizon alayhirrahmag'akim, alarning xalifasi erdilar, havola qildi. Va alarning suhbatidin dag'i vasfdin ortuq maqomot topib, ruxsati irshod hosil qildi. Bo vujudikim, shug'li avomiri saltanat, ibodot va riyozotin kamolg'a yetkurdi va xalq irshodig'a mashg'ul bo'lub, ko'p solikni manozili maqsudg'a musharraf qildi. ...

Abulg'ozixon²⁵⁷ sultoni dono va xoqoni tavono erdi. Valodati sana ming o'n to'rt da Tovushqon yili, Oftob Asad burjida va rabi al-avvalning o'n beshidakim, dushanba kuni(1605y.1avgust) erdi, voqe bo'ldi. O'n olti yoshig'a yetganda, Urganj hukumati Habash sulton bila anga taalluq tutti. Bir yildin so'ng Kot ayolatig'a yetti. Olti oydin so'ng otasi bila Habash va Elbars masofig'a otlandi va otasi shikast topib, dastgir bo'lg'onda, bir yigit bila yovdin chiqib qochti. Va yo'lda oti yiqilib, piyoda bo'ldi. Qoshidag'i yigit anga otini berib, o'zi qoldi. Ul yigit xud O'mboy erdi. Xon ani tanimay, chun so'rashg'udek fursat yo'q erdi, o'tub yo'lg'a tushti. Inshooloh aning zikri o'z mahalida aytilur. Xon andin Kotg'a kelib, anda tura olmay, Movarounnahruga mutavajjih bo'ldi va Samarqandda Imomqulixonning xizmatig'a yetti. Va olti oydin so'ng Sharif Muhammad sulton izidin bordi. Va ikki yildin so'ngkim, ta'rix ming o'ttuz uch (1624y.)da erdi, oqosi Asfandiyorxonning ilayiga keldi va Urganj viloyati anga taalluq tutti. So'ngg'i yili oqosi bila turkmanga rivoj bergan jihatdin Xivaning kanorida Toshko'pruk mavzeida urushub, muovidat qildi. Va Xo'ja ko'lida Amu kanorida dag'i urushub, o'zbekdin yigirma, turkmandin yetmish kishi o'ldi. Bu voqeadin so'ng o'zbek zo'r bo'ldi. Andoqkim, yuqorida zikr topti. Va Abulg'ozixon qazoqda Eshimxon yonig'a bordi. Andin Turkistonda Tursunxon qoshida bo'ldi. Eshimxon Tursunxonni o'ldurgandin so'ng Imomqulixon²⁵⁸ xizmatig'a keldi. Andin so'ng Xivaqg'a turkman ichig'a kelib, Asfandiyorxon bila ikki qatla muhoriba qildi. Oxir musoliha qilib, oqosi yonida bo'ldi. Ul uchurda buzulg'on o'zbek Orol mavzeyida tengiz kanorida har tarafdin kelib yig'nalib o'lturub erdilar. Asfandiyorxon inisidin badgumon bo'lub, tutub Iroq yibordi. Ul yil shoh Abbos o'lub (1629y.), aning nabirasi shoh Safiy podshoh bo'lub, Hamadonda

²⁵⁷ Abulg'ozixon – Arab Muhammadxonning o'g'li, Xiva shayboniylari sulolasi vakili (1644-1663). Shuning bilan birga, tarixchi olim ham bo'lgan.

²⁵⁸ Imomqulixon – Ashtarxoniylar sulolasidan bo'lgan Buxoro xoni (1611-1642).

erdi. Shoh Safiy ani Isfahong'a yibordi. O'n bir yildin so'ng Isfahondin qochib, Bastom usti bila Mahinda o'lturg'on turkmang'a kelib, bir qish tavaqquf qildi. Andin Bolqong'a borib, takada ikki yil turdi. Andin Manqishloq bordi. Ul chog'da Manqishloq qalmoqg'a tobe bo'lub erdi. Qalmoq xoni ani o'z yonig'a olib borib, ko'p ta'zim va takrimlar qildi. Bir yildin so'ng Orol o'zbaki qalmoq xonig'a qirq buyoq peshkash eltub, Abulg'ozixonni olib yondilar. Bu voqea sana ming ellik ikki (1642y.)da erdi. Mundin olti oy so'ng Asfandiyorxon vafot topti. Ta'rix ming ellik to'rt(1644)da Qo'y yilining avvalida Orol viloyatida qirq yoshida Abulg'ozixon saltanat taxtig'a julus qildi. Xivaq turkmani anga tobe bo'lmay, Nadrmuhammadxon otig'a xutba o'qudi. Abulg'ozixon Xivaqni ikki martaba chopti. Nadrmuhammadxon turkmanga ko'mak yibordi. Alar birla dag'i ko'p urushdi. Bu jihatdin Nadrmuhammadxon Qosim sulton degan nabirasin ko'p sipoh bila yibordi. Ul kelgandin so'ng xon dag'i o'tlanib, Gandumkong'a kelib, chapovul yibordi. Yonida ikki yuz kishi qolib erdi. Ul vaqtda Xivaq sipohi kelib, Xivaning arig'ining janubiy tarafida urushub, ikki yuz kishidin shikast topib qaytti. ...

Xon dag'i qaytib, chapovulg'a borg'on lashkarin daryo labida topib, Orol bordi. Va Abdulazizxon Buxoro taxtida o'lturg'ondin so'ng Abulg'ozixon yana cherik tortib, Xivaqg'a kirib, turkmani mag'lubu maqhur qildi. Va o'zbakdin uch yuz oltmish kishiga amal berdi. Alarning o'ttuz ikkisiga o'z yonidin o'run berdi. Andoqkim, ikki shayxulislom, ikki qozi, bir rais, Sayid ota avlodidin bir mutavalli, bir naqib, to'rt otoliq, to'rt inoq, to'rt mirob, to'rt biy, bir parvonachi, ikki oqo, ikki arbob, to'rt chig'a-toy inoqi va bir vazirkim, holo mehtar derlar va bir qo'shbegi. Bu ikkovi o'runsiz xon huzurida oyoq ustida turdilar. Va o'zbakni to'rt guruh qilib, to'rt to'pa atadi. Andoqkim, uyg'ur, nayman bir to'pa. Do'rmon va yuz va ming jamoasi uyg'urg'a qo'shuldi. Va payg'ambar avlodi shayx va burloq bila naymang'a qo'shuldi.

Qo'ng'rot, qiyot bir to'pa. Jaloyir va alieli qiyotg'a qo'shuldi. Nukuz, manqit bir to'pa. Kenagas nukuzga va xo'jaelikim, inshoolloh aning zikrin ayturman, manqitg'a qo'shuldi. Qangli, qipchoq bir to'pa. Alarg'a o'n to'rt urug' qo'shulub, o'n to'rt urug' ot ko'tardi. Va barcha o'zbekka Dorg'ondin tengizg'acha Amu suvining ikki tarafin va nahrlarikim, Amudin munshaab bo'lubdur, alarning atrofin taqsim qilib berdi. Va Urganj xalqin ko'churub, Xonqohning mag'rib jonibida qal'a solib, ko'p yer berdi. Holo Urganj ul mavzedur. Bag'oyat ma'mur va obodon. Va Xorazmning ulug' savdoxonasidur. Bu voqea ta'rix ming ellik olti(1646y.)da Tovuq yili erdi. Andin so'ng mamolikka saranjom berib, tarokimakim, qadimiy dushman erdi, alar istisolining fikrida bo'ldi. Ul uchurda G'ulom bahodir, Dinmuhammad o'nbegi, O'rus o'nbegi degan uch sardor to'rt ming turkman bila Hazorasb janubida qum ichida xiyma qurub o'ltirub, xon Hazorasb borib, alarni hiyla bila chorlab, shilon tortar bahonasi bila ikki ming turkmang'a teg' suvi bila ajal sharbatin ichurdi va o'tlanib, hashamin toroju ahli ayolin asir qilib qaytti. Mundin so'ng Tajanda ba'zi turkmankim, Xivaqdin qochib borib o'ltirub erdilar, alar qasdig'a mutavajjih bo'lub, ba'zini qilich damidin o'tkarib va ba'zini qaydi balog'a tortib, murojiat qildi. Sana ming ellik to'qquz(1649y.)da Xurosonning Bomi Burma degan mavzeidakim, qochg'on-qolg'on turkman yig'ilib o'lturub erdi, alar qasdig'a cherik tortib, alar bila korzor qildi. «Bizning qo'shinimiz g'olib bo'lguvchidir» muqtazosi bila haq botilg'a g'olib kelib, O'mboy inoq o'zig'a mutaalliq yigitlar bila rustamona ishlar qilib, Qohir xo'jakim, turkmanning sardori erdi, ani qatlg'a yetkurdi. Bu jihatdin turkman xayli shikast topib, o'zbek bahodirlarining teg'idin o'tti. Xon g'anoimi farovon va isori bepoyon bila Xivaq kelib tushti. Va so'ngg'i yilkim, Sig'ir yili erdi, qalmoqning qushut urug'idin Durji toyshi degan Kot mamlakatig'a chapovul urub qaytti. Xon o'n besh kunda bu Bo'kruk bosh mavzeidi izidin yetib, urush soldi va

qalmoqni mag'lubu maqhur qilib, uvud etti. Andin so'ng Tovushqon yili Atrak va Gurgon bo'yinda turkmanning boyroj degan qabilasikim, bog'iy bo'lub erdi, xon alarning mudofaasig'a o'n ming cherik bila yurush qildi. Bu safarda adashib, aksar ulus ju va atsh g'alabasidin mutafarriq bo'lub qoldi. Xon to'rt yuz kishi bila boyroj qabilasin topib, qatli om qilib, g'anoimi tamom va isor molokalom bila kelib, Xivaqg'a nuzul qildi. Alqissa, barcha turkman qaboilin ko'p toxtu-toz bila itoatg'a kirguzdi. Va Lu yilikim, qalmoqning turg'ovut elidin Mergan Toyshi, O'qcha, Tapa Tug'ul degan uch to'ra ko'p qalmoq bila Hazorasbdin Dorg'ong'acha chopib erdi, xon o'n besh kundan so'ng izidin otlanib, Sanginrabort degan mavzeda topib, qabab urushti. Qalmoq tob keltura olmay, kelib xonning oyoqin bo'sa qilib, xong'a el bo'ldilar. Mundin so'ng xon Buxorog'a olti martaba sipoh chekti. Qaroko'lni ikki qatla oldi. Karminani bir karrat oldi. Buxoroni bir qatla oldi. Haddin tashqari amvol va g'anoim bila qaytti. Ammo, Abdulazizxon bila ikki martaba ro'baro'y bo'lub, so'ngg'i martabada muhoriba va muqotila qilib, shikast berdi. Ul urushda Anushaxon rustamona korzor qilib, obro'lar oldi. Va xon oxir umrida o'g'li Anushaxonni podshoh qilib, uzlat ixtiyor qildi va ta'rix ming yetmish to'rt (1663y.)da «Yaratganing oldiga rozi va xushhol bo'lib qayt» muqtazosi bila fano marhalasig'a rihlat qadamin qo'ydi. «Barcha jon o'lguvchidir» fahvosi bila ajal sharbati noguvorin lojur'a chekti. Muddati saltanati yigirma yil erdi. Bag'oyat ash'or fahm va tarixdon kishi erdi. Andoqkim, o'z silsilasida bir tarix bitib «Shajarai turk»g'a mavsum qilibdur. ...

Anushaxon²⁵⁹ xoni sohibi davlat va shohi Jamshid savlat erdi. Aning zamonida siyosati biymidin qaboili turkmaniya tug'yon qila olmadi. Va xon mamlakatning zimomi ixtiyorin amiri kabir O'mboy inoqning qabzai iqtidorig'a topshurdi va

²⁵⁹ Anushaxon - Abulg'oz Bahodirxonning o'g'li, Xiva shaybonilari sulolasi vakili (1663-1687).

amiri benaziri aqli matinning dastyorliqi bila umuri mamlakatg'a nizom berib, pirona ishlar zuhurig'a yetkurdi. Va ul vafot topib, aning mansabi o'g'li amir Sayid Muhammad inoqg'a mafvuz bo'ldi. Va xon ikki qatla Mashhadni chopib, g'anoimi bisyor bila qaytti. Va uchlanchi borg'anda Mashhadni olib, hazrat imom Ali ar-Rizo maqbarai mutabarrikasin ziyorat qilib, Mashhad taxtig'a o'tturdi. Ul jihatdin «shoh» laqabig'a mulaqqab bo'ldi. Hanuz ul viloyatg'a saranjom bermaydur erdi, Buxorodin xabar bordikim, Movarounnahrnin Elbarsxon avlodi Abdulazizxon²⁶⁰ amri bila bir oz lashkar olib, Xorazm qasdig'a o'tlanibdur. Bu xabar istimoidin g'azabnok bo'lub, Mashhadni tashlab, Chorjuy usti bila Amu suvidin ubur qilib, Sayid inoqni biroz cherik bila Xivaqg'a uzotti va o'zi Buxoro ustig'a harakat qildi. Va Bog'i dilkushodakim, Abdulazizxonning muhaddisotidin erdi, borgohi iqbolni barpo qilib, nuzul etti. Ul chog'da Abdulazizxon qipchoq va xitoy qavmining dafi uchun Karmina borib erdi. So'ngg'i kuni Xorazm bahodirlari qal'ag'a raxna solib kirdilar. Choshtgohdin namozi asrg'acha g'orat qildilar. Mullo Sayidoiy Buxoriykim, ul zamon shuarosidindur...

Amir Iskandar saroy otoliq boshliq Buxorning mashohir va maorifi tuhafi bisyor va peshkashi beshumor bila qal'adin chiqib, xonning huzurinda ubudiyat tufroqin o'ptilar. Xon dag'i alarg'a navozish va istimolat qilib, Buxoro taxtig'a o'tturdi va manobir ustida xatiblar alqobi humoyunig'a til ochdilar. ...

Andin so'ng Abdulazizxonning izidin lashkar yibordi va Buxoroda o'zidin hokim qo'yub qaytti. Va Abdulazizxonning keynidin borg'on lashkar urushub, shikast topti. Bu jihatdin Buxorodag'i hokim tavahhum qilib, qal'ani toshlab qochti.

Va Anushaxonning ayyomi davlatida Kot suvi qurub, eli buzuldi. Xon alarg'a yetti gumbazning shimolida qal'ai muaz-zam ta'mir qilib berdi va bir arig' yordurub, Oqko'lg'a etkurdi va anga «Yormish» laqab berdi. Va Anushaxon ta'rix hijriy ming

²⁶⁰ Abdulazizxon – ashtarxoniyalar sulolasidan Buxoro xoni (1645-1680).

to'qson ikki(1681y.)da Xonqohning shimoliyasidin Yangi Urganj va Yangi Kotning janubidin bir ulug' arig' qozdurub, Anbar va Manoq²⁶¹din oshurub quydurdi. Va Anbarning mashriq tarafida bir qal'ayi oliy soldurub, anga Shohobod²⁶² ot qo'ydi. Va ul arig'g'a «Purfayz» ham ism va ham ta'rix bo'ldi. Alyo'vm(shu kunda) «Shohobod» arig'ig'a mashhurdur. Aning fayzidin ko'p yerlar obodon bo'lub, besh-o'n qal'a andin suv ichadur. Va ul asrda Vazir xalqi ikki guruh bo'lub ko'cti. Bir guruhi Gurulanning shimol jonibida qal'a tartib berib vatan tutti va bir guruhi Anbar bila Shohobod orasidi qal'a solib o'lturdi. Holo Chig'atoyg'a ishtihor topibdur. Aning uchunkim, ul jamoaning asli chig'atoy elidindur. Amir Temur Xorazmni olg'onda alarni qo'yub ketib erdi. Va Anushaxonning ayyomida amir sayid Muhammad inoqning say'i bila faqirning ajdodidin Chinbiy otasi Odina Muhammad mirob ibn Davlat biyning mansabig'a yetushti. Va xon ayyomi kuhulat(qarilik)da o'g'li Xudoydodxon bila Sayid Muhammad inoqni mulkda noyib qo'yub, ming otliq go'zida yigit bila haramayn bordi va manosiki hajni sharoit va arkon va ahkomi bila bajoy kelturub, murojiat qildi. Xon kelib, masnadida qaror tutg'ondin so'ng amir Sayid Muhammad inoq favt bo'lub, inisi Bekijon inoq aning mansabig'a o'lturdi. Va xon bir necha muddatdin so'ng olamg'a vido qildi. ...

Xudoydodxon²⁶³ ota vasiyati bila masnadi iyolatg'a o'lturub, mulk intizomig'a mashg'ul bo'ldi. Aning zamonida Bekijon inoq o'lub, Xudoyquli inoq mansabig'a o'lturdi. Va Xudoydodxon ziyoda siyosatlig' va adolatlig' podshoh erdi. Ammo, mulki umridek va umri mulkidek bevafoilig' qildi. Inisi Arangxon ani shahid qildi. Muddati umri o'n yetti va saltanati ikki yil erdi.

²⁶¹ Manoq – hozirgi kundagi Xorazm viloyati Shovot tumanidagi Manoq qishlog'i. Bu yerda tarixiy Vayangon qal'a joylashgan.

²⁶² Shohobod – hozirgi Shovot tumani (Xorazm viloyati). Tarixchining yozishicha, demak, bu shaharga Xiva xoni Anushaxon asos solgan.

²⁶³ Xudoydodxon – Xiva xoni (1687-1689).

Arangxon²⁶⁴ oqosi vafotidin so'ng Xudoyquli inoqning say'i bila saltanatg'a o'lturdi. Va ul bag'oyat zebomanzar va sabih al-vajh(chiroyli yuzli, husndor.) erdi. ...Ko'p sho'xtab va ishrat do'st erdi. Hazrat mavlono Vafokim, ajubai ayyom va shoiri shirin kalom erdi, anga taalluqi xotir paydo qilib, mulozamatida bo'lur erdi. Mashhurdurkim, aning bila xon orasida ko'p hikoyati ajiba va mutoibot g'ariba voqe bo'lubdur. Ul jumladindurkim, **hikoyat:** Mavlono Vafo dunyog'a mayl qilmas erdi va hujrasida bir parcha namad va yo bir buryodin o'zga bisot qo'ymas erdi. Va madrasai Arabxonda mutamakkin erdi. Xon bir kecha bir mahram bila iltifot qilib, aning sari vaqtig'a yetti va hujra eshigida mutavaqqif bo'lub, xitob qildikim «mullom, nengiz bor?» Mullo chun bu voqeag'a muttale bo'ldi, beixtiyor turub, ta'zim rasmini qiyomig'a yetkurdi va badeha zamzamasig'a tarannum surdikim...

Xon ko'p inbisot va g'oyati nishot bila ichkari kirib o'lturdi.

...

Va muddati madid aning qorongg'u hujraşin shami jamoli bila charog'on va buzug' ko'nglin me'mori iltifoti bila obodon qilib va bir ovuch zar berib, o'rdug'a qaytti. Mavlono dag'i ul zarni madrasa sukkonig'a ulashturub, xon haqqida duoi davlat oldi. ...

Va xon Xivaq arkida ko'runushxona imorat qildi. Mavlono Vafo ul imoratning banno va naqqoshi erdi. Ko'p dilkash va bag'oyat munaqqash bino bo'ldi. Amiri kabir Avaz biy inoq marhumiy zamonida Xosa qo'shbegi ani yiqdurdi. Burhon as-solikin va sulton al-orifin, ashraf as-sodot, mutaoliy darajot hazrat eshon sayid Muhammadpanoh xo'ja alayhirrahmaning o'g'li sayid Asomiddin xo'jadin eshitibmankim, Odina Muhammad biy ibn Sayid inoqkim, Orol o'zbekiga hokimi bilistiqlol erdi, xondin bir vajh bila ozurda xotir bo'lub, Xivaq tavobeotin ko'p chopti. Bu jihatdin xon ani kelturub, o'ziga

²⁶⁴ Arangxon – Xiva xoni (1689-1695).

otoliq qildi va inoyoti benihoya va in'omoti bilog'oya bila xotirin sayd etti. Va aning zamonida qiyot dudmonidin Muhammad Rizobek Oq masjidning muqobilasida eshikin qiblag'a qaratib bir madrasa bino qildurdi.... Arangxon Oqsaroydakim, Xivaqg'a bir farsaxlik yerdur, qal'a va imorot barpo qilib, aksar avqot arkoni davlat va a'yoni hazrati bila anda nishot bisotin yoyib, bazm ishratg'a mashg'ul erdi. Rivoyatdurkim, xon bebok' mashrab yigit erdi va Oqsaroydin har kecha i'sho namozidin so'ng ikki mahram bila bodpoi sarsar xironmg'a minib, Xivaqg'a kelib, gulchehra qizlar bila muoshirat va muboshirat qilib, hanuz subh bo'lmasdin burun Oqsaroyg'a borur erdi. ...

Bu rasm bila bir kecha otlanib kelur erdi. Badrxon arig'ining ko'prukiga kelganda, ot surunub, xon otdin judo bo'lub, boshi yorilib, oxirat azmi tutti. Mahramlarning birisi aning qoshida turub, birisi onasi To'qtaxonimg'akim, Dorg'on turkmanidin erdi, borib xabar berdi. Ul sherzan iztiror qilmay, to'rt ot olib, o'g'lining ustig'a keldi va ani yoshurun dafn qilib, Dorg'on yo'lig'a tushti va oz fursatda manzil-maqsadg'a yetib, otasining uyig'a nuzul qildi. Va aning oqosining bir o'g'li bor erdi. Arangxon bila hamsinn va hamqad, shaklu shamoyili xong'a mushbih. Kichiklikdin xon bila bir yerda o'lg'ayib erdi. ...

Ani Arangxon deb, ming otlig' turkman bila Xivaqg'a yurush qildi. Arangxonning umarosikim, xonning na voqea bo'lg'onin va qayda borg'onin bilmay, mutahayyir erdilar, ul asnoda Arangxon bobosin ko'rgali Dorg'on borg'on erkan, inak ming otlig' qarindosh turkman bila keldi, deb xabar yetti ersa, barcha istiqbol qilib, kelturub o'rdug'a tushurdilar. Bir oydin so'ng faqirning ajdodidin Jiyanbiy yuzkim, Arangxonning iltifoti va Odina Muhammad otoliq va Xudoyqul inoqning sayi bila o'z aqronidin mumtoz va o'zga umarodin sarafroz bo'lub erdi, ani Isfahonda Sulton Husayn shohg'a elchi qilib yibordi. Bu voqeadin ikki oy so'ng Odina Muhammad otoliqkim, mamlakatning rukni a'zami erdi, shikorg'a chiqti. Chun ul

turkmanzoda shaharni ul hazratning vujudidin xoli topti, Nazar inoq nayman boshliq umaroi izomdin yetti kishini tutdurub, ba'zini takag'a va ba'zini Buxorog'a va ba'zini Orolg'a yibordi. Va Xorazm mamolikin Turkmaniya oldi. Va o'zbekni xor tutti. Oz fursatdin so'ng zulm va bedodiy andoq istilo toptikim, fuqaro buzulurg'a yetushti. Bu hodisa vuquin Odina Muhammad otoliq shikorda eshitib, Orolg'a yuz qo'ydikim, ul nohiyatdin sipoh olib, turkmani oradin ko'targay. Chun Tuk qal'asig'a yetushti, eshittikim, aning qasdi uchun yo'lg'a besh yuz otlig' turkman tushub, kishi o'tkarmaydur. Otoliqning qoshida qirq mirishikor-din o'zga kishi yo'q erdi. Bu jihatdin qaytib, Buxoro bormoqni avlo va ansab ko'rub, muovidat tarafig'a inon azimatin maatuf qildi. Xo'jako'lig'a kelganda Jiyanbiyi mazkur uch yuz xonavor o'zbek bila yo'luqti. Bu voqea andoqdurkim, Jiyan biy mirob Isfahondin kelib, chun Xorazm savodig'a dohil bo'ldi, bu mansuba xabari yetushti. Bu sababdin qum ichi bila Hazorasb borib, yoshurun kishi yiborib, uyin ko'churub, Amudin o'tti. Oz chog'da o'zbek mazlumlari turkman taaddisidin qochib, anga qo'shuldilar va ittifoq bila Orol yo'lig'a yuz qo'yub erdilar, otoliqi mazkurg'a yo'luqq'ondin so'ng Orol bormoqni maslahat ko'rub, yo'lg'a tushgan turkmani zeru zabar qilib, Orolg'a nuzul qildilar. Va Hojimaxon avlodidin Jo'ji sultonni xon ko'tarib, qo'ng'rot va manqit va qangli va qipchoq va xo'jaeli cherikin yig'ib, Xivaq ustig'a yurdilar. Chun fuqarog'a alarning ovoza-i vusuli yetti, hujum qilib, xonni o'ldurub, ko'p turkmani qatlg'a yeturdilar. Qolg'oni qochib, sahro va biyobonlarda sargardon bo'lub, yuzdin biri qutuldi. Va To'xta xonimni otg'a sudratib o'ldurdilar. Bu voqea sana ming yuz olti(1694y.)da erdi. ...

Jo'jixon²⁶⁵ odil va raiyatparvar erdi. Aning zamonida el osoyish topti. Va ul uch yil saltanat surub, olamdin o'tti.

Valixon²⁶⁶. Ul dag'i Hojimaxon naslidindur. Sana ming yuz sekkiz(1696y.)da taxtg'a o'lturub erdi. Aning zamonida

²⁶⁵ Jo'jixon - Xiva xoni (1695-1697).

Xudoyquli inoq olamdin intiqol qildi. Valixonkim, majnunvash va nodon kishi erdi va yurtg'a nizom bera olmadi. Bu jihatdin Odina Muhammad otoliq ani azl qilib, Dashti qipchoqg'a qazoq ichig'a yibordi. Muddati xonliq bir yarim yil erdi.

Shohniyozxon²⁶⁷ Jo'jixonning o'g'lidir. Va ba'zi qarocho o'zbakdin debdurlar. Ammo, avvalg'i rivoyat asahdur. Ta'rix hijriy ming yuz o'n(1699y.)da podshohliq martabasig'a yetti. Bag'oyat shujo va mutahavvir erdi. Va qizilbosh qasdig'a otlanib, ko'p g'anoim qo'lg'a tushurub qaytti. Va turkman sarkashlari qadami tazarru bila kelib, xiroj qabul qildilar. Va Shohniyozxon o'z asrida Buxoro bila yarashib, raoyo forig'bol bo'ldi. Bir necha yildin so'ng haq rahmatig'a bordi. Aning muddati saltanati ma'lum ermas.

Shohbaxton ibn Shohniyozxon²⁶⁸ otasining o'rnig'a o'ltirib, bir yildin so'ng uzlat guzinlik ixtiyor qildi.

Sayid Alixon.²⁶⁹ Ul dag'i bu jamoadindur. Sana ming yuz o'n besh(1704y.)da yo o'n olti(1705y.)da podshohliqg'a yetti. Bir necha ayyomdin so'ng ma'zul bo'ldi.

Musoxon²⁷⁰ Shohniyozxonning inisidur. Chun saltanat toji bila sarafroz bo'ldi, bori om berib, fuqaro va raoyog'a navozish va istimolat va'dasi qildi. O'z otiga alohida tanga qoqturdi. Aning chog'ida Marvdin Astrobodg'acha tog' etagidag'i qullo va bilod ahli juzya va xiroj berur erdi. Azamat va shavkati o'zga xonlardin o'tti. Bir necha muddatdin so'ng ani Xivaq umarosi o'ldurmakka muttafiqlik bo'ldi. Bu jihatdin qochib, Marvga bordi. Avaz mehtar Marvda o'ldurub, boshin Xivaqg'a kelturdi.

Yodgorxon²⁷¹. Ul dag'i Hojixon naslidindur. Bag'oyat odil va oqil podshoh erdi. Aning avoili saltanatida Odina Muhammad

²⁶⁶ Valixon – Xiva xoni (1697-98).

²⁶⁷ Shohniyozxon – Xiva xoni (1698-1703).

²⁶⁸ Shohbaxton ibn Shohniyozxon – Xiva xoni (1703-1704).

²⁶⁹ Sayid Alixon – Xiva xoni (1704-1705).

²⁷⁰ Musoxon – Xiva xoni (1706-1707).

²⁷¹ Yodgorxon – Xiva xoni (1707-1713).

otoliq olami fonyidin jahoni boqiyg'a rihlat qildi... Va Yodgorxon viloyatni ba'zi mo'tamid kishilarig'a topshurub, guruhi anbuhi bila haramayin bordi va manosiki hajni barjoy kelturub, ravzai mutabarrikai risolatpanoh salliallohi alayhi vasallam ziyoratig'a musharraf bo'lub, murojati qildi. Va Shom navohisida a'robdin ko'p jamoa yig'nalib, alarg'a muqobila bo'lub, muqotila qildilar. Oxir hazimat topib qochtilar va alar izidin borib, qabilalarin toroj qilib, kamoli sur'at bila yurdilar. Yo'lda Bag'dod hokimi shohona ziyofatlar qilib uzotti. Astrobod ustidin o'tub, qubbat al-islom Xorazmni qadami sharifi bila g'ayrati behisht qildi. Xon haj borg'onida Orol o'zbaki sarkashlik qilib, qaroqalpoq to'ralaridin Eshim sultonni kelturub, baiat qilib erdilar. Yodgorxon aning qasdig'a ikki qatla otlandi va uch martaba lashkar yibordi. Har qaysida qattig' urush bo'ldi. Va xon bu vaqoedin so'ng ta'rix hijriy ming yuz yigirma beshda yilning oxiri(1714y.)da intiqol qildi.

Sherg'ozixon.²⁷² Ul Sultong'ozu sultonning avlodidindur. Muvallid va manshaasi Buxoroyi sharifdur. Avoili holida madrasanishin bo'lub, ilm talabida ko'p sa'lar ko'rguzdi va fazoil va kamolot hosil qildi. Sana ming yuz yigirma olti(1715y.)da Hamal muntasifida Buxorodin kelturub, Xivaq dor as-saltanasida taxtda o'lturg'uzdilar. Afzal al-ulamo va zubdat al-fuzalo mavlonoi a'zam va donoi mukarram sayid Muhammad oxund bu bobda aytibdurkim, ... Va ul bu xonadonning sohib-qironi erdi. Aning ovoza julusidin Eshimxon va qaraqalpoq xayli tavahhum qilib, Orolni tashlab qochti.

Chun qalam bu yerga yetushti, Xorazm diyorida fitna va fasod hodis bulub, sultoni mag'firatnishon Eltuzar Muhammad Bahodirxon tahamadullohu big'ufronikaning voqeai hoilasi vuqu topti. Ul jihatdin bu kitob ta'lifikim, ul hazrati

²⁷² Sherg'ozixon – Xiva xoni (1714-1726). Sherg'ozixon Rossiya imperatori Pyotr I tomonidan Xorazmga yuborilgan Bekovich-Cherkasskiy ekspeditsiyasini hiyla ishlatib mahv etgan.

mag'furiyning farmonig'a mutaalliq erdi, muddati madid taaxir(kechikdi) topti. Balki, matruk bo'ldi. Chun hazrati a'lohoqoni garduntavon, afzali salotini olam, adli xavoqini muazzam, muizz ad-davlat va-s-saltanat va-d-din Abu-l-muzaffar va-l-mansur Muhammad Rahim Bahodirxon aqavvallohu davlatahu biliqbol va haffaza saltanatahu anilixtilol saltanat saririg'a julus qildi, avotifi bekarona va m'arohimi xusravona bila faqirul haqir Shermuhammad al-mulaqqab bil-Munisg'a hazizi mazillatdin avji izzatg'a taraqqiy bag'ishlab, farmoni vojib al-izon sodir bo'ldikim, bu kitob ta'lifin itmomig'a yetkur va bizning voqeotimizni dag'i tahrir silkiga kiyur. Banoanalayh, yana ta'lif ishiga shuru qildim. Vafaqalloh bi itmomihi (Olloh uni tamomlashni nasib etsin.).

Eshimxon Orolidin chiqqandin so'ng manqit Muhammad Boqibiy ibn Muhammad Hofiz biy boshliq jamii Orol o'zbakining sanodid va maorifi ribqai itoat bo'yunlarig'a solib kelib, utba-bo'sliqg'a musharraf bo'ldilar. Va Muhammad Boqibiy kichik o'g'li Sherdolini xon mulozimatida qo'ydi va Orolg'a borg'ondin so'ng vafot topib, inisi Avaz Boqi biy Orol hukumatig'a nomzad bo'ldi. Hamul yil(1715y) Marvi Shohijahondin Astorobod va Bolqong'acha tog' etagida va Atrak va Gurgon kanorida o'lturg'on qizilbosh va tarokima xiroj tansuqoti bila kelib, ellik izhor qilib, navozishi xusravonag'a maxsus bo'ldilar. Va Oftob Jaddiy burjig'a tahvil qilg'anda lashkari qiyomatasar bila qaroyalpoq istisolig'a yurush qildi. Qaroyalpoq tobi muqovimat keltira olmayin, molu mavoshi va uylarin tashlab qochib, tengiz ustidinkim, g'oyati burudatdin suv yax bog'lab erdi ...

Yangisuv va Sir daryosi tarafig'a qochti. Va Sherg'ozixon mavkabi kayhonpuy bila tengiz kanorida tavaqquf qilib, nayman amir Avaz inoq valadi Nazar hoji inoqni besh ming sipohi jarror bila muondlar keynidin yibordi. Va amiri mushorilayh jahdi tamom bila ilg'ab, a'doi davlatni muz ustida topib, atfol va ayoldin o'zgasin qatlg'a yetkurub, qonlaridin tengiz yuzin sha-

faqgun qildi va qolg'anlarni qaydi asoratg'a tortib, xon mulozimatig'a yetkurdi. Va xon amiri mazkur va bahodirlarni in'omoti vofir bila sarafroz etib, dor as-saltana Xivaqg'a murojiat qildi. Va bu xabar iqtori olamg'a intishor topib, atrof mamolikdin sarkashlar qadami e'tizor bila inqiyod tariqidin dargohi olmpanohg'a mutavajjih bo'ldilar. Ul jumladin Qazoqiya tavoifidin Fo'lod to'ra va Qabon biy va Baroq biy va Manqishloq va Adaq tarokimasidin Xolnazar bahodir va Omondurdi bek podshohliqg'a loyiq peshkashlar bila ostonbo'sliqg'a keldilar. Va sana ming yuz yigirma yetti(1716y.)da Bichan yili Mashhad-dakim, rofizii beimon Rustam Alixon shomlu musulmonlarg'a izo yetkurur erdi, aning qasdig'a «olloh yo'lida jihod qiling» muqtazosi bila sipoh chekti va Tajan rudxonasining kanorida jarga egirib, shikorandozliq qildi. Va turkman qaboilidin cherik olib, Mashhadni ikki kun muhosira qilib, fath etti. Va g'ozilar g'anoimi bisyor va isor beshumor oldikim, naql qilmoqdin ojiz keldilar. Rustam Alixon yuz mashaqqat bila qochib qutuldi. Va itoat etgan kufra juzya qabul etib, asirlikdin omon qoldilar. Mashhadni ichidagi musulmonlardin Sharifxong'a tafviz qilib, Nishobur turktozi uchun qadami irodatin azimat rikobig'a qo'ydi. Ba'zi derlarkim, Nishobur yurushi Mashhad turktozidin so'ng Tovuq yili vuqu topmishdur. Ammo, faqir bir nusxada kurubmankim, Bichan yili Mashhad g'azotidin so'ng bevosita Nishobur jihodig'a otlandi. Har taqdir bila burun chapovul yiborib, izidin og'ir cherik bila kelib, Nishobur qal'asining taqobilida yasov yasab tushti va atrofg'a g'ozilarni guruh-guruh ayirib, chapovulg'a yibordi. Va sipohi nusratpanoh qo'lig'a g'anoimi mavfur tushti. Va Nishobur hokimi Hasanxonning ulug' o'g'li Ja'far Alixonkim, shijoatda angushtnamo erdi, g'ozilarning qo'lida qatlg'a yetti. Sherg'ozixon to'rt kun muhosira etib, muovidat qildi. Va Nodirshohkim, ul uchurda hanuz podshohliq saririg'a julus qilmaydur erdi va Nishobur havolisida aqvomi bila sokin erdi, lashkari islom murojiatidin

xabar topib, mutaoqib kelib, cherik aqabidin yetushub, urush soldi va manqit Esan Muhammad o'daychini shahid etti. Va Eshmuhammad biy ibn Odina Muhammad otoliqkim, ul ay-yomda inoqliq mansabi aning vujudi ziljudi bila muzayyan erdi, Sherdoli bila jalodat teg'in jilvag'a kirguzub, shiadin ko'p kofirni o'ldurub, qizilboshg'a shikast berdi. Va Sherdoli zaxmdor bo'ldi. Xon bu jihatdin aning irtiqoi marotib va izdiyodi vâzoifig'a kushish qildi. Va nusratu davlat bila Xivaqg'a nuzul qildi.

Tovuq yili o'rus to'ralaridin Davlat Girey va Andrey gubernot o'ttuz ming o'rus bila Shayx Jalil tog'ikim, oltun va kumush ma'danidur, aning orzusi, balki, Xorazm fathining tamannosi bila Orol hududig'a nuzul qildi. Xon qo'ng'rot Qulmuhammad otoliq va nayman amir Avaz inoqni junudi noma'dud bila mudofaag'a nomzad etti. Alar Davlat Girey bila gurg oshtiy(bo'ri Yarash) qilib, ziyofat bahonasi bila a'doi millati bayzoni mehmonxonai asfal as-sofiling'a yetkurdilar. ...Sana ming yuz yigirma sekkiz (1716y.)da It yili Chinoron hududig'a Bardor yo'li bila sipoh tortti va suvsizlig' jihatidin mutavahhim bo'lub, be gavhari maqsud murojiat qildi. Bu yo'lda aksari lashkar talaf bo'ldi. Va xon Nishoburdin qaytg'ondin so'ng Rustam Alixon yana Mashhadni olib, Sharifxonni dastgir qilib, ko'si istiqlol urar erdi. Bu jihatdin Sherg'ozixon to'nguz yili lashkar tartib berib, Mashhad ustig'a yurush qildi va chapovul seli bila aksar imorotni xarob etib, g'anoimi bisyor va isori beshumor bila yondi. Faqirning kichikligida ulug' jaddim Eshim biydin qolg'on mashhadlik bir fartut dadak(juda qartaygan qul) bor erdi. Ul der erdikim «Mashhadni Sherg'ozixon chopg'onda er va xotun besh mingdin ortuq barda(qul) hisobg'a kirdi. Man ul jumladin erdim.»

Sichqon yili Sherdoli g'arazgo'ylar sioyati bila xondin mutavahhim bo'lub, Orol bordi va yog'iygarlik og'oz qilib, so'ngg'i yili Musoxonning o'g'li Shoh Temurni Buxorodin kelturub, kulli-omi Orol o'zbakining ittifoqi bila xon ko'tarib,

Besh qal'a (Xorazmdagi asosiy besh qal'a, tuman – Hazorasb, Xonqa, Yangi Urganch, Xivaq, Gurlan) qasdig'a besh martaba sipoh tortib, hazimat topti. Aksar lashkari yavmut xalqi ilgida va Amuya girdobida talaf bo'ldi. Ul jumladindurkim, so'ngg'i kelganida qo'ng'rot Qulmuhammad otoliqkim, Odina Muhammad otoliqning ammozodasi ham qoyimmaqomidur, mudofaag'a og'ir qo'Shun bila chiqib, Vazir tavobeidin Qarotol mavzeyida talofi fitnayn vuqu topib, urush tushti. Ul urushda otoliqi mazkur shahodat topib, yavmut Qaro otoliq dastgiri balovu asiri mehan bo'lub, Xivaq cheriki parokanda bo'ldi. Bu voqea Zuhuridin Shoh Temurxon va Sherdoli biyning oftobi iqboli irtifo topib, Vazir va Gurlon va Shohobod va Bog'lon va Uyg'ur va Urganj va Xonqoh va Hazorasbni ma al-muzofot musaxxar qilib, Hazorasbda Shoh Temurxon saltanat taxtida o'lturub, Sherdoli biy junudi noma'dud bila Beshariq bilodin qayd inqiyodig'a chekib, Shat havolisin lashkargoh qildi. Va Xivaq umarosi dag'i xondan ro'gardon bo'lub, Orol sipohig'a qo'shulub, xon mulozimatida amir Eshmuhammad biy va faqirning ulug' jaddi amir Eshim biy va sohibi a'zam, dasturi mukarram Yorim devon va Do'sim arbobdin o'zga kishi qolmadi. Bir kecha xong'a xavf istilo topib, umaroi mushorialayhumni xilvatg'a choqirib, dedikim «a'doi davlat muazzamoti mam-lakatni olib, Xivaq va Kot va Qahramondin o'zga viloyat qolmadi va sizlardin boshqa umaro dag'i mundoq bevafofig' qildilar. Emdi bu yurtida iqomat qilmoq aqldin yiroq ko'runur. Na kengash berursiz?» Chun xondin bu nuktai vahshatomezni eshittilar, Eshmuhammad biy kalomi farahafzodin mundog' guharfishonlig' qildikim «hazrat xonning xotiri otirlarig'a dag'dag'a yetmasunkim, bizlardin bevafofig' zohir bo'lg'ay. To jonimiz bordur, hazrat mulozimatida jonbozlig' qilurmiz va umaroi osiy dag'i pushaymon bo'lub, yana dargohi oliyg'a xijolat bila yuz qo'yub, hazrat fotih al-abvob nusрати bila a'doi davlat bartaraf bo'lg'ay.» Va xonning xizmatidin chiqib,

qal'adorliq umurig'a ishtig'ol ko'rguzdilar. Oz fursatda umaroi osiy qilg'anlaridin pushaymon bo'lub, inkisori tamom bila qochib keldilar. Va Eshmuhammad biyning shafoti bila xon alarning jaroimidin o'tub, burung'i manosib va marotibin marhamat etti. Va Orol qo'ng'rotining ikki hokimi bor erdi – Odam biy va Bekmurod otlig'. Shoh Temurxon davlatining rukni a'zami erdilar. Amiri kabir Eshmuhammad biy ala'rg'a bitib yibordikim, qarindoshmiz, agar Orol cherikin buzsa, qarindoshlig' kamolg'a yetgusidur. Alar mazmunni anglag'och, qo'ng'rot sipohi bila buzub chiqib, Xivaqg'a xonning ilayiga keldi. Sherdoli biy Orol xayli bila buzulub, Amuyadin o'tub, Oqyoqishdag'i qaroqalpoq ichiga bordi. Shoh Temurxon Hazorasbda tura olmayin, qaroqalpoq Buqon biy bila Jayhundan ubur etib, Sherdolini yonig'a bordi. Va jami Besh qal'a mustaxlis bo'ldi, magar Shohobod xalqikim, moddai fitna erdilar. Eshmuhammad biy xonning farmoni bila ul balda ustig'a cherik tortib, bir oy muhosira qilib, oqibat suvg'a g'arq etib oldi. Va manqit Muhammadi bek boshliq Shohobod sarkashlarin qatlg'a yetkurdi. Aning zamonida sana ming yuz o'ttuz uch(1721y.)da Topushqon yili Sherdoli biy va Shoh Temurxon sulh bahonasi bila sanodidi qo'ng'rotdin O'tamish otoliq boshliq yigirma besh kishini iliklab, sharbati shahodatdin sarshor qildi. So'ngg'i yilikim, Lu yili erdi, Qo'ng'rotni musaxxar etib, ulug' qatli om qildikim, zuafo va atfoldin o'zga kishi qolmadi. Va andoq toroj ettikim, motamzada bevalar quvvati uchun bir tishi qolmadi. Qochib qutulg'onlarg'a xon Eshmuhammad biyning sayi bila Yangiariqni marhamat etib, muvoidi xusravona bila diljuliq ko'rguzdi. Bu voqeadin so'ng o'n to'rt urug' qaboilikim, alarni «ushoq urug'» ham derlar, manqitg'a yov bo'ldilar. Eshmuhammad biy alar imdodi uchun G'oyib parvonachini Besh qal'a cheriki bila yibordi. Parvonachi yetushmasdin burun Sherdoli biy qaroqalpoq voliyi Ernazar biyni yig'ini bila kelturub, ushoq urug' qasdig'a harakat qildi va Turg'oq toma va

Qulon qulloin olib, toru mor qildi. Oxir ushoq urug' Oq qal'ag'a jam bo'lub, urushg'a mustaid bo'ldilar. G'oyib parvonachi dag'i Oq qal'ag'a kelib, olti oy yotib, Sherdoli bila yigirma martaba muhoriba qildi. Yilon yili bahor erdi, ushoq uruqni ko'churub qaytti. Andin so'ng Manqitda qahat paydo bo'ldikim ...

Sherg'ozixon va Eshmuhammad biy bu voqeani eshitib, sayid Boltu xo'ja naqibni o'n ikki ming sipoh bila Orolg'a yibordi. Naqibi mazkur borg'ondin so'ngg'i kuni Sherdoli biy bila muqotila qilib, baddillik, ya'ni jubni.g'ariziysi mutaharrik bo'lub, o'z-o'zidin besabab zohiri xavotir tortib, manqit Tangriquli inoq bilakim, aning ham favt vohimasi g'olib erdi, urush qoyim bo'lg'onda, lashkarni buzub qochti. Aksari mutajanda bu voqeari hoilada talaf bo'ldi. Bu mojaro Xorazm diyorida azhari man ash-Shamsdur, andoqkim, el orasida masal bo'lubdur. Va Sherg'ozixon Qo'y yili oftob Jaddiy burjida erdi, qullari shahid qildi. Ta'rixii vafoti «dod az g'ulomon»dur(1727y.). Bag'oyat odil va fozil podshoh erdi. Ilm va she'r aning zamonida rivoj topti. Andoqkim, mavlono sayid Muhammad oxund aning manqibida bir qasida aytibdur. ...Har haftada ikki martaba Ko'runush berur erdi. Va Xurosonning aksar bilodidin juzya olur erdi. Va Manqitdin o'zga tashvishi yo'q erdi. Va Sheyxarig'ining Sharqida Bog'i murod va Xivaq ichida hazrat qutb al-olam va g'avs al-a'zam Pahlavon Mahmud ibn Piryor vali quddusa sirrahumo ravzai mutabarrikalarining janubidag'i madrasa aning osoridindurkim, bag'oyat oliy imoratdur. Ta'rixin «maskani fozilon» topibdurlar. Ayyomi saltanati o'n uch yildur. Aning zamonida fuzalodin mavlono sayid Muhammad oxunddurkim, aning ajdodi va ansobi va ahvoloti va futuhotida «Gulshani iqbol» otlig' bir tarix bitibdur, musajjiot va tarsiot va istiorot va majozot va sanoe va badoe bila orastadur. Ammo, hanuz muta'adid yozilmaydur erdi, Buxoro fuzalosining qo'lig'a tushub, hasaddin har dostonidin juzv-juzv, varaq-varaq maqtu' etib, zoe qilibdurlar. ...Va mavlono Yahyokim, ul dag'i nodirai

asrdur, «Masnad» taxallus qilib erdi, ul ham aning otig'a bir masnaviy bitibdurkim, bag'oyat pokiza iborot va xush mazmundur.

Andin so'ng qazoq podshohi Abulxayrxonning inilaridin **Sorig' Ayg'ir**²⁷³ deganni kelturub, xon ko'tardilar. Ul kun juma erdi, namozi jumag'a borurda oti sho'xliq qilib, andin yiqilib o'ldi. ...

Bahodirxon²⁷⁴ Ul dag'i Abulxayrxoni mazkurning inilari-dindur. Sorig' Ayg'irdin so'ng Eshmuhammadbiy ani kelturub, xonliq taxtida o'lturg'uzdi va ul olti oydin so'ng bir kecha Oqshayx imoratining keynidin tushub qochti. Va saltanat amri xatiridin qutuldi.

Elbarsxon²⁷⁵ Shohniyozxonning o'g'lidur. Ba'zi ani qazoq sultonlaridin tutubdurlar. Eshmuhammad biy va Jumaquli otoliqning say'i bila Bichan yili sana ming yuz qirq (1728y.)da saltanat saririg'a julus qildi. Aning zamonida sekkiz yil yurt osoyish va farog'atda erdi. Bu sekkiz yilda faqirning jaddi Eshim biy va vaziri soib tadbir Yorim devon vafot toptilar. Bu oraliqda mamlakatning hallu aqdi amiri kabir Eshmuhammad biyning royi olamoroyi uqdashoiga mafvuz erdi. O'zga umaroning mudoxilati yo'q erdi. Bu jihatdin sulton avlodidin Ollohnazar inoq va Jiyan parvonachi Eshmuhammad biydin bir bahona bila ranjida bo'lub, Sherg'ozixonning valadi arshadi Erg'ozni sultonni kelturub, Shohobodg'a qabalib, yog'iygarlik og'oz qildi. Bu hodisa Lu yili sana ming yuz qirq sakkizda safar oyining o'n yettisi(1735 yil 7 iyul)da erdi. Eshmuhammad biy va umaroi zulliehtishom asokiri zafarmaosir bila besh oy Shohobodni muhosira qildi. Shoh Temur va Sherdoli biy bu voqeani eshitib, quvvati tomealari mutaharrik bo'lub, Orol cheriki bila va qaroqalpoq sipohi bila Besh qal'a qasdig'a yurush qildi.

²⁷³ Sorig' Ayg'ir – Xiva xoni (1726, 1 kun).

²⁷⁴ Bahodirxon – Xiva xoni (1726-1727, 6 oy).

²⁷⁵ Elbarsxon – Xiva xoni (1727-1740).

Eshmuhammad biy Shohobod ustidin turub, Besh qal'a cheriki bila mudofaag'a chiqib, Qarotolda ko'p muhoriba va muqotiladin so'ng Jumaquli otoliq shahid bo'lub, shikast topib kelib, Xivaqda mutahassin bo'ldilar. Shoh Temurxon Hazorasbg'a kirib, Sherdoli biy kavkabai tamom va dabdabai molokalom bila Xivaq ustig'a kelib, Mevastonni muaskari asokiri no'hustmasir qildi. Va Eshmuhammad biyning targ'ibi va tahrisi bila manqit Hasanmurod bek Hazorasbda Shoh Temurxonni o'ldurdi. Bu xabari vahshatasar istimoidin Sherdoli biy shavkati mutazalzil bo'lub, tura olmayin, shikast topib qochti. Va manqit va qaroqalpoqdin uch ming kishini dastgir qilib, qo'ng'rot qoni uchun qatlg'a etkurdi. Mundin so'ng Tovushqon yili Elbarsxon Jiyan vakil yavmutni uch ming nafar turkman bila Xuroson hududining chapovulig'a yibordi. Alar ikki firqa bo'lub, bir guruhi Monah julgasig'a, bir bo'lagi Olodog' va Balqon samtig'akim, akrodi chashmago'zakning maskani erdi, borib hindi turktozliqda erdilar, ul navohining hukkomu qizilboshiya sipohi bila alarning sari vaqtig'a yetib, muhoribai azim voqe bo'ldi va ikki tarafdin ko'p kishi qatlg'a yetib, oxirilamr qizilboshiya shikast topib, g'ozilar g'anoimi bisyor bila utbabo'sliqg'a yetti. Ul chog'da Nodirshoh Shamoxani fath qilib, Ganja ustida erdi. Mundin so'ng Ollohnazar inoq yarashib, Erg'ozu sulton qochib, O'qbo'yirg'a turkman ichiga bordi. Yilon yili Ucho'zak kanorida Qo'ychi qayirida Hasanmurod bekning sayi bila ochomoyli ko'ngrotdin ikki yigit Sherdolini o'ldurdi.

Ammo. Ma'lum bo'lsunkim, Muhammadali va Berdoli va Sherdoli uch oqo-ini erdilar. Muhammadalidin nasl qolmadi. Berdoli biyning avlodi ko'p erdi. Ammo, Tubulg'a biy va Abdulla bekdin o'zgasining otlari ma'lum ermas. Va Sherdolingin uch o'g'li bor erdi: Ortuq inoq va Sayidali biy va Xo'rozbek. Bularning ahvoloti emdi kelur.

Chun jami Orol va Qaroqalpoq Elbarsxonning taxti farmonig'a kirdi, Hasanmurod bekni kelturub, inoqlik mansabin

marhamat etib, jami manqit jamoasig'a sohibi ixtiyor qildi. Va sana ming yuz ellik(1737y) da Yilqi yili shahzoda Rizoquli Mirzo valadi Nodirshoh Balxni olib, rabi as-soniy(1737y.29iyul-26avgust)da Movarounnahrğa yurush qildi. Bu jihatdin Buxoro hokimi Abulfayzxon va Hakim otoliq Elbarsxon va Eshmuhammad biydin istimdod qildi. Alar anga ming kishi ko'mak yiborib, Elbarsxonning o'zi izidin og'ir chërik bila yurush qildi. Xon hanuz Buxorog'a yetushmay, qizilboshiya Qarshida Abulfayzxon bila yarashib, murojiat qilg'on xabari yetushub, qaytti. Ul safarda sovuq ishtidod topib, daryoning muzi Chorjuydin yuqori o'tdi. Va ta'rix hijriy ming yuz ellik birda Qo'y yilining avoxirida zu-l-qa'da (1738 20 fevral-21 mart)da xon Eshmuhammad biyni Xivaqda noyib qo'yub, o'zi o'zbek va turkman cheriki bila Xuroson qasdig'a otlanib, voridi Tajan bo'ldi. Ul chog'da Rizoquli Mirzo Hindustondin otasining mulozimatidin qaytib, Hirotda erdi. Bu xabarni eshitib, kamoli istejol (shoshilish) bila mudofaag'a azm qilib, Saraxsg'a etushti. Ul asnoda Elbarsxon dag'i Tajandin besh farsaxliq ilgari o'tub erdi. Ikki qarovul bir-birig'a yo'liqib, g'ozilar a'do lashkaridin uch qizilboshni tutub keldilar. Alardin shahzodaning xabarin eshitib, muqobil bo'lmoqni hazmdin yiroq ko'rub, Amvod jonibig'a inoni azimatin maatuf qilib, Qoxlon qal'asinkim, Niso va Obivard mobaynida voqedur, mahsur qilib, yaqin erdikim, fath qilg'aylar. Aning hokimikim, ul holda Obivardda erdi, bu xabarni eshitib, xabargirlikka Obivarddin cherik olib keldi. Xon ani shahzoda sipohi tasavvur qilib, muhosiradin qo'l chekib, atrofni g'orat qilib, murojiat qildi. Bichan yili sana ming yuz ellik ikkida Nodirshoh Buxoro fathidin so'ng rajabning o'n oltisi (1739 y. 20 oktyabr)da yakshanba kuni zohiri Buxorodin ko'chub, panjshanba kuni mazkur oyning yigirma biri (1739 y 25 oktyabr) da Chahorjo'y ustidin o'tib, Xorazm tasxirig'a ohang qildi. Dushanba kuni shabon oyining o'n uchi (1739 y 15 noyabr)da Tevabo'ying'a vorid bo'ldi. Muhammadali ushoqkim,

o'zbek va turkman cheriki bila kelib erdi, muqobil bo'lub, shikast berdi. Va mazkur oyning yigirmasi (1739 yil 22 noyabr) da Elbarsxon va Eshmuhammad biy va jami umaroi Xorazm junudi noma'dud bila mudofaa uchun Hazorasbg'a borib, Tuzloqdakim, ani Sulton saroy derlar, bag'oyat pokiza va musaffo tuzi bo'lur va jahonda aningdek tuzni kam nishon berurlar, Elbarsxonning qarovuli qizilbosh qarovulig'a yo'luqub, besh-o'n bosh kesib kelturdilar. Va Fitnak (Pitnak) hududida muqobil bo'lub, urush soldilar va har nechakim jahdi tamom bila kufrani qatlg'a yetkurdilar, Yana bir tarafig'a xabar etmayin, yurmak avzoig'a tafovut bo'lmadi. Oxir musulmonlar shikast topib, Hazorasbda tura olmay, Xonqoh baldasig'a qabaldilar. Nodirshoh mutaoqib kelib, baldai mazkurani muhosira qildi. Va sipohi islom yaxshi muhoriba qilib, shikast topti. Yetti kundan so'ng musulmonlar ojiz bo'lub, sulh bila qal'adin chiqtilar va yakshanba kuni xon umaro bila chiqti. Mohi mazburning yigirma to'rti (1152 yil 24-sha'bon (aslida 27-sha'bon bo'lishi kerak, chunki qamal yetti kun davom etgan) – 28 noyabr 1739 yil)da seshanba kuni Nodirshoh Elbarsxon va Eshmuhammadbiy boshliq umaroi Xorazmdin yigirma kishini shahid qildurdi. Ramazon avoili (1739 yil dekabr)da Xonqohdin ko'chub, Xivaqni muhosira qilib, sarkub ko'tarib, otquladi. To'fang va to'fu zanburak o'qining zarbasidin aksari imorot xarob bo'ldi. Uch kundan so'ng Do'stmuhammad arbob qal'ani shohg'a taslim qildi. Shoh yana uch kun tavaqquf qilib, usaroikim, shar'i sharif bila Xorazm diyorida qaydi riqqiyat(tutqin)da erdi, zukuran va anosan(erkagu ayol) barchani olib, har birin xesh va aqrabosig'a topshurdi. Bu yo'sunda ba'zi qalmoq va rusiya bandalarni dag'i oldi. Ul jumladin Xuroson usarosining adadi o'n ikki mingdin mutajovuz erdi va to'rt ming nafar dor as-saltana Xivaqdin erdi, alarni Xurosong'a ravona qilib, Obivardning to'rt farsaxlig'ida bir hisor barpo qildurub, Xivaqobodg'a mavsum qilib, ul asirlarni anda o'lturg'uzdi. Xivaq va Besh qal'adin Erniyozxon

ibn Rahimberdi otoliq ibn Xudoyquli inoq ibn Sayid inoq ibn O'mboy inoq boshliq to'rt ming kishini navkar, ming xarvor g'alla, har xarvori Xivaq toshig'a besh ming botman va har kimda qizilbosh bardasi bo'lsa oldi. Ul jumladin faqirning jaddi Shermuhammad mirob valadi Eshim biydin ming botman g'alla va eru xotun ellik barda oldi. Va inisi Sayidquli bekni navkar oldi. Va o'zgani mundin qiyos qilsa bo'lur.

Tohirxon²⁷⁶. Ul Valimuhammadxonning o'g'lidurkim, Mo-varounnahr xonlarining bani amomidundur. Nodirshoh murojiate qilurda ani xonliq taxtida o'lturg'uzub, o'zig'a taalluq sipohini mulozimatida qo'yub, ramazon oyining o'n yettisi (1739 yil 19 dekabr)da zohiri Xivaqdin ko'chub, Xurosong'a kelgan yo'lidin murojiate ko'rguzdi. Va Tohirxon olti oy hukumat surdi. Va gunahkorning quloq, burnini kesturur erdi. Va shia rusumig'a rivoj berur erdi. Bu taaddig'a Muhammad mirob ibn Iyd mirob nukuz tuza bilmayin, Kotg'a kirib, muxolifat tariqig'a iqdom ko'rguzdi va muborizat alamin jilvag'a kirguzdi. Va Orolg'a kishi yiborib, Ortuq va Sayidalinikim, ul uchurda ul navohi hukumatida mustaqil bo'lib erdilar, istido qilib kelturdi.

Nuralixon²⁷⁷. Abulxayrxonning o'g'lidur. Ortuq inoq va Sayidali biy va Xo'rozbek ani o'zlari bila kelturub, Kotda xon ko'tarib, Xivaq ustig'a yurdilar. Va Qahramon xalqining sayi bila shaharga kirib, qizilboshlar bila Tohirxon arkka qabalib, uch oyg'acha urushti. Oxir naqb bila quyini ko'mub, suvsatib oldilar. Tohirxon va uyg'ur Qutlixonni qizilboshlar bila dargahi jahan-namga yibordilar va arkka kirib, Nuralixon podshohliq taxtig'a o'lturdi. Ortuq inoq hamul yil Eron borib, Marvda shohzoda Nasrulloh Mirzoni ko'rub, Tohirxonning tahattuk va taaddisin banahje taqrir qilib, arzg'a yetkurdikim, shahzoda Tohirxon qatlidin xursand bo'ldi va otasi Nodirshohning izni bila anga

²⁷⁶ Tohirxon – Eron shohi Nodirshoh tomonidan Xiva xonligi taxtiga o'tqazilgan xon (1740-1741).

²⁷⁷ Nuralixon – Nur-Ali qazoq, Xiva xoni (1741, 2 oy).

avotifi bekarona va marohimi xusravona ko'rguzub, Abulg'ozil sulton ibn Elbarsxonni xon qilib, inoqg'a berib yubordi.

Abulg'ozixon soniy²⁷⁸. Aning oti Abulmuhammad sultondur. Nodirshoh ani xon qilib, Abulg'ozil kuniyatiga mukanni qildi. Chun Ortuq inoq It yili Erondin kelib, Nuralixonni azl etib, ani xonliqg'a nasb qildi va o'zbek mashohiru maorifidin oltmish kishini inisi Xo'rozbek bila shohg'a navkar yibordi. Va fi shuhuri sana xamsa va xamsayna va miyya va alfa Hamalning beshlanchi kunkim, shanba erdi, Abulg'ozixon qo'ng'rot Ko'chak inoqni qo'ng'rot Rahmonquli otoliq va Ashur biyning harakati bila o'ldurdi. Sana ming yuz ellik olti (1743y.)da Sichqon yili Ali boy va O'roz boy chovdur muxolif ko'rguzub, yamutni o'zlarig'a mutaffiq qilib, Besh qal'ag'a andoq dastburdi azim ko'rguzdikim, hech kim qo'rg'ondin bosh chiqara olmay, baloi qahat orada shoe bo'ldi. Abulg'ozixon va Ortuq inoqning maslahati bila Yorim devonning avlodidin Muhammadamin mehtar Erong'a borib, bu hodisani shoh mulozimatida arz qilib, Nodirshoh tarokima tog'iyalarining dafi uchun sipahsolori a'zam Fathalixon ibn Ibrohimxonnikim, o'z birodarzodasi erdi, qirq ming sipohi jarror bila qubbatulislom Xorazm savbig'a yiborib, Xo'rozbekka ul mamolik ixtiyorin topshurub, anga hamroh qildi. Bu voqea Sig'ir yili Javzo avoilida erdi. Sipahsolor tarokimani mustosil qilib, Sangar mavzeidakim, Xivaqning shimolida va Gandumkonning g'arbida voqedur, lashkargoh yetti va olti oydin so'ng Aqrab avoxirida shohning farmoni bila muovidat qildi. So'ngg'i yil qazoq ulusining voliysi Abulxayrxon Xo'jako'lining shimolidin kelib, Chalpuq havolisig'a chapovul urub, qipchoq jamoasidin Ali qipchoqning uyin talab ketti. Sana ming yuz ellik to'qquz (1746 y.)da Topushqon yili Xo'rozbek Nodirshoh mulozimatig'a Iroq bordi. Aning g'aybatida hamul yil Abulg'ozixon Ortuq inoq va Sayidali biyni onasi bila qatlg'a yetkurdi. Iroqdin Xo'rozbek bu hodisani eshitib, G'oyib sultonni shohdin tilab, shoh taqiyati bila Xorazmni musaxxar qildi. Va Xo'rozbek kelur xabarin

²⁷⁸ Abulg'ozixon soniy – Xiva xoni (1741-1745).

eshitib, Xivaq umarosi Abulg'ozixonni tutub, Arabxon madrasasida mahbus qilib erdi, Xo'rozbek madrasadin chiqarib, oqolari va onasi qoni uchun taazibi tamom bila o'ldurdi. Ayyomi saltanati besh Yarim yildur. Bag'oyat donishmand va oqil podshoh erdi. She'rda «Bayzo» taxallus qilur erdi. Fuzalo va shuaro bila ixtiloti ko'p erdi. Aning zamonida Xo'rozbek Otoliq arnasining shimol tarafida Chichi qo'rg'onin imorat qildi. Holo osor va etlol(qoldiqlari) i bordur...

G'oyibxon²⁷⁹. Ul Bahodirxonning o'g'lidir. Avoil holida qazoqdin Buxorog'a borib, Nodirshoh Movarounnahrni olg'onda shohning mulozimatig'a yetib erdi. Aksar hurub va yurushda shohning mavkabida erdi. Xo'rozbek bila kelib, fi shuhuri sanai mazkura Oftob Asad burjida erdi, xorazmshohlig' toji bila sarafroz bo'ldi. Xo'rozbek aning julusidan ikki kun so'ng o'n sakkiz oltun jilovnikim, Ortuq inoq va Sayidali bek qatlida Abulg'ozixong'a hamdast bo'lub erdi, o'ldurdi. Aning zamonida fuqaro osoyishda erdi. Va mulkning hallu aqdi Xo'rozbekning qabzai iqtidor va sarpanjai ixtiyorida erdi. Va G'oyibxonda mahzi otdin boshqa nima yo'q erdi. Bu jihatdin xon bag'oyat sargardon erdi. **Hikoyat:** Suqoti sodiq al-nukot(ishonchli va to'g'ri so'zli) din manquldurkim, Xo'rozbekning qatlig'a sabab bu erdikim, Taxoqu yili fi shuhuri sana ximsa va sittayna va miiya va alfa (1752y.) Ko'chak bek ibn Muhammad inoq nayman zuafodin bir beva zanga Gurlonda mastliq holatida zulm va taaddi ko'rguzdi. Ul fursatda xon Shayx Jalil tog'ining navohisida shikorandozliqg'a mashg'ul erdi. Ul bevazan borib, tazallum (zulmdin shikoyat) ko'rguzdi. Xon Muhammad inoqg'a itobomez harflar bila tahdid qilib, shaharga muovidat etganda Ko'chak bekni nudamosi bila tutturub, mahbus qildi. Va Xo'rozbek Gurlan janubidin g'ayri ma'mur va idro yerlarnikim, manqit jamoasining mulki xolisidur, obod qilmoqg'a arig' qazdirur erdi. Bu voqea hudusidin ranjida bo'lub, Xivaqg'a kelib, xondin beizn Ko'chakbekni hibsdin xalos qilib, xong'a noshoist so'zlar aytti. Bu jihatdin xonning otashi

²⁷⁹ G'oyibxon – Xiva xoni (1745-1756).

kinasi iltihob topib, aning qatlig'a jozim bo'ldi. So'ngg'i kun ko'runushga borg'anda, miltuq bila otib o'ldurdi. Va Shokir bekni aning aqabidin yibordilar. Va Xo'rozbekning aqrabosidin o'n kishi va manqit maorifidin oltmish kishini teg'din o'tkazdilar. Ul jamoadin Ortuq inoq olti yil va Xo'rozbek besh yarim yil istiqloq bila jami Xorazmg'a hukumat surdi. Alarning ayyomida marosimi zulm va inod, qavonini fisqu fasod ishtihor topti. Ammo, karam va ato bobatida Hotamnishon erdilar. Va Bekobod Xo'rozbekning mustahiddisotidindur. Andin so'ng G'oyibxon podshohliqda mustaqil bo'ldi. Va ba'zi umaroning shafobati bila Ko'chak bekning jaroimidin o'tti. Va hamul yil qo'ng'rot Xo'jaquli bekka tarbiyat qilib, inoqliq mansabin shafqat ko'rguzdi.

Va xon g'ayur va zolim tab' kishi erdi. Va avoxiri saltanatida zulm va taaddisi haddi e'tidoldin o'tub, Besh qal'a raoyosig'a qirq ming tillo solig' soldi. Fuqaro va ajzaning dodig'a yetmadi. Bu jihatdin Gurlanda qipchoq Mannon otoliq va nayman Ibrohim inoq va nukuz Eshniyoz noyibkim, ani Shanqoy ham derlar, yog'iygarlik og'oz qilib, Urganjda Boboxon oqsoq dag'i alarg'a muvofiqat ko'rguzdi. Bu jihatdin xon mutavahhim bo'lub, sana ming yuz oltmish to'qquz(1756y.)da Sig'ir yili kichik inisi Qaroboyni qoyimmaqom qilib, chiqib otasi Bahodirxon bilakim, o'g'lin ko'rmakka ko'p qazoq bila kelib, Bog'i Murodda yotib erdi, qo'shulub, Dashti qipchoqg'a qazoq orasig'a borib, ko'p yil xonliq surub, Avaz inoq zamonida vafot topti. Xorazm mamolikida ayyomi saltanati o'n bir yil erdi. Va eshiturmizkim, aning o'ttuz o'g'li bordur. Abdulazizxon va Shohg'ozixon va Jahongirxon ul jumladindur. Inshoolloh, bular emdi zikr qililur. ...

Qaroboyxon.²⁸⁰ Ani Abdullaxon ismig'a mavsum qildilar. Va ba'zi aning otin Boybo'rixon derlar. Ammo, avvalg'i asahhdur. Boybo'ri o'rtanchi oqosining otidur. Ul qaroqalpoq orasida xon erdi. Ani qaroqalpoq tutub, Gurlan o'zbekiga kelturub berdi. Gurlan umarosi ani o'ldurdi. Bu voqeadin so'ng Qaroboyni azl

²⁸⁰ Qaroboyxon – Xiva xoni (4 oy, 1756).

etib, otasi va oqosi yonig'a qazoqg'a yibordilar. Muddati saltanati to'rt oy erdi.

Temurg'ozixon ibn Muhammad Rahim sulton²⁸¹. Ul Sher-g'ozixonning aqrabosidindur. Ba'zi ani Movarounnahr xonlarining avlodidin tutubdurlar. Va G'oyibxondin beri jami Orol va Gurlan va Urganj umarosi va daryo sohiliqdag'i o'zbek akobiri Xo'jaquli inoq boshliq Xivaq umarosig'a muxolifatda sobitqadam va rosixdam erdilar. Ikki tarafdin Buxorog'a istimdod uchun Rahimxon ibn Hakim otoliq ilayiga kishi yibordilar. Rahimxon borg'anlarg'a musoliha qildurub, Temurg'ozixonni o'rtada xon qilib yibordi. Barcha ittifoq bila ani Xivaqda xon ko'tardilar. Va Muhammadamin mehtar ibn Ko'chakboy ibn Davlatboyning qomati qobiliyatini xil'ati jalilulqadri vazorat bila bezadilar. Bu voqea fi shuhuri sana sab'ayn va miiya va alfa(1756 y.) Bars yili Javzoda erdi. Umaroyi muxolif yana muxolifat baydaqin barpo qilib, junudi noma'dud bila Dovud qaryasin muaskar qilib, Pirxo'jaquli inoqning lashkari bila bir oy muhoriba va muqotila qilib, manqit Bekmuhammad inoqkim, sipohi muxolifning bir rukni erdi, ul Xo'jaquli inoq bila muttafiq bo'lub, Orol cherikin, buzub, Xivaq yig'inig'a qo'shuldi. Bu jihatdin muxoliflar hazimat topti. Yana Orol va Besh qal'a sipohin yig'ib Po'lod sulton xazirasining havolisida ig'roqlarin qo'yub, shaharni muhosira qildilar. Xivaq umarosi Xo'jaquli inoq va qiyot Yormuhammad inoq va manqit G'oyib inoq va g'ayrihum Xivaq lashkari bila muxoliflarning maymanai nomaymuninkim, Nonemasda erdi, urushub bostilar. Va yavmut umarosi Beganjali so'fi va Mengligaldi saqov va Elgaldi sardor va Qohirquli yavmut sipohi bila yovning maysarai nomaysurin rustamona nabard qilib, shikast berdilar. Va Bobojon oqsoq va Sayid biynikim, ko'p yildin beri yurtning har tarafidin fitna turg'uzur erdi, tutub o'ldurdilar. Mannon otoliq va Ibrohim inoq va Eshniyoz noyib Gurlanga borib tura olmayin, Buxorog'a firoriy bo'ldilar. Vayisboy dag'i Uyg'urni tashlab, alarning aqabidin bordi. Va jami

²⁸¹ Temurg'ozixon ibn Muhammad Rahim sulton – Xiva xoni (1756-1762).

Besh qal'a mamoliki Temurg'ozixon va Xo'jaquli inoqg'a sofiy bo'ldi. Bu voqea sana ming yuz etmish birda Topushqon yili jumoda-1-oxirning o'n birin (1758 yil 20 fevral)da erdi. Bir yildin so'ng Buxorodin kelib, yana Uyg'ur va Gurlanni olib, bir yil mujodila va muqotilada erdilar. Oqibatilamr, Muhammad inoqning mansabin Ibrohim inoqg'a berib, oshtiy qildilar. Qo'y yili fi g'urrai shavvol sana ximsa va sab'ayna va miyya va alfa(1762 yil 1aprel) juma kuni iydi Fitr namozidin so'ng Temurg'ozixonning amri bila va Muhammadamin mehtarning say'i bila Xo'jaquli inoqni Muhammadamin bek ibn Eshmuhammad biy va Ibrohim inoqni Muhammad inoq ibn Amir otoliq ko'runushxonada o'ldurdilar. Hamul kun Temurg'ozixon Muhammadamin mehtarning taqviyati bila Muhammadamin bek bila Muhammad inoqg'a ul ikki amiri maqtulning mansablarin shafqat qildi. Va amiri kabir Muhammadamin inoqning ibtidoi davlati ul kundindur. Va Bichan yili Muhammadamin mehtar bila xon orasida ba'zi umuri mulkiy jihatdin vahshat tushti. Bu sababdin aning buyruqi bila Safar dasturxonchi va Abdulsattor boy xonni o'ldurdilar. ...

Va yoshi o'n beshda erdi sariri saltanatg'a julus qildi va yigirma birida shahodat topti. Muddati saltanati yetti yil erdi. Andin so'nrag'i xonlar sohibi ixtiyor bo'la olmadilar va xonlig' ismig'a qone erdilar. Va mulk ixtiyori va alarning azlu nasbi umaro ilgida bo'ldi. ...

Va maqbarasi hazrat Pahlavon Mahmud quddusi sirrihu javori fayz al-anvoridadur.

Tavkaxon²⁸². Laqabi Xudoydoddur va ul qazoq xonlaridindur. Va tijorat rasmi bila Xivaqg'a kelib, korvonsaroyda iqomat qilib erdi. Temurg'ozixon o'lgan kuni ani korvonsaroydin chiqarib, taxtg'a mindurdilar. Va ul base xayrdost va munsif va mutaqqiy va faqirvash va darvishnihod kishi erdi. Aning zamonida Xorazm diyorida fitna va oshub asari bilkull munqate bo'ldi. Va bir yarim yil saltanat surgandin so'ng fi shuhuri sana

²⁸² Tavkaxon – Xudoydodxon II, Xiva xoni (1762-1764).

samona va sab'ayna va miiya va alfa(1764y.) It yilining avoilida o'z taqozosi bila xonlig'din xala(bo'shatish) ettilar.

Shohg'ozixon²⁸³ G'oyibxonning o'g'lidur. Ba'zi ani Abulg'ozixonning valadi debdurlar. Ammo, asah budurkim, ul Abulg'ozixonning o'g'lidur. Aning onasin G'oyibxon olib erdi. Aning avoili saltanatida Abdulrahim arbob ibn Yorim devon Muhammadamin mehtarni ziyofatg'a eltib o'ldurdi. Ul o'lgan kechasi Sherbobo qo'shbegi Bekmuhammad inoqni xon va Muhammadamin inoqdin ruxsat hosil qilib, qatlg'a yetkurdi. Ul kun Abdulrahim arbobg'a vazorat mansabin va manqit Muhammadrizo bekka inoqiyat rutbasin arzoniy tuttilar. Va Shohg'ozixonning avoxiri davlatida yavmut va chovdir jamoasi g'alaba qilib, yurtg'a musallat bo'ldi. Va Miskin rais Kotiy muxolifat tariqig'a mubodirat ko'rguzub, oqo-inilari bila chovdurg'a chiqti. Bu jihatdin sana ming yuz sakson bir(1767y.) da Shohg'ozixonni azl qildilar. Ul dag'i husn devonining masnadrishini va latofat maydonining sibqatguzini erdi....

Abulg'ozixonni solis²⁸⁴. Muhammadrahim sultonning o'g'li va Temurg'ozixonning inisidur. Buxorodin kelturub, fi shuhuri sana samonina va miiya va alfa(1767y.) xon ko'tardilar. Chun aning af'ol va atvori muxtalif erdi, yarim yil hukumat surgandin so'ng Muhammadamin inoq ani oradin chiqardi. Va muddati saltanatin ba'zi bir oy debdurlar.

Nuralixon ibn Baroq sulton²⁸⁵. Ul qazoq sultonlaridin. Sana ahadi va samonina va miiya va alfa (1767 y.) erdi, Sig'ir yili Muhammadamin inoqning say'i bila podshohliqq'a yetushti. Va hamul yil ba'zi umaro Muhammadamin inoqning adovatig'a qiyom ko'rguzub, qasdig'a bel bog'ladi. Bu jihatdin inoq yavmutg'a chiqib, o'n sakkiz kundan so'ng Abulsattorboy ani yavmutdin kelturdi va umaroi muxolif qadami e'tizor bila dargohig'a yuz qo'yub, jaroimidin tavba qildilar. Ul uchurda

²⁸³ Shohg'ozixon - Xiva xoni (1764-66).

²⁸⁴ Abulg'ozixonni solis - Abulg'ozixon III, (1766-1767, nomiga 1766-1804).

²⁸⁵ Nuralixon ibn Baroq sulton - Xiva xoni (1767-69).

yavmutning tasallut va tag'allubi haddi e'tidolidin o'tub, zulm va taaddisi fuqaro jonig'a yetti. Bu jihatdin Muhammadamin inoq va Abdulrahim mehtar va Abdulsattorboy yavmut bila yovlashib, Arabxonada urushub, hazimat toptilar. Yavmut mutaoqib kelib, Qaroto'pada tushub, muhosira asbobig'a mashg'ul bo'ldilar. Va ba'zilar sulh so'zin orag'a solib, umaro chiqib, yavmut akobiri bila ko'rushur hangomida yavmut umaroni tutdi va shahar xalqi taka va solurni qovub, yavmut shaharg'a mutasarif bo'ldi. Abdulrahim mehtar va Abdulsattorboyni besh oqo-inisi bila va Uyg'ur hokimi Abbos otoliq va Urganj voliysi Niyozquliboyni shahodat darajasig'a yetkurub, Miskin raisni vazorat mansabida nasb qildilar. Va Muhammadamin inoqni banddin chiqarib, otoliq qilib, Orol hokimi Xonkeldi biyni aning o'rnig'a inoq ettilar. Va yavmut bila Orol qo'ng'roti istilo topib, mulk ixtiyori yavmut qo'lida bo'ldi. Va Miskin mehtarni Xonkeldi inoq Eshmurod qo'ng'rotning o'g'li Davlatyorg'a buyurub o'lturtdi. Va Abdulrahmon mehtarga vazoratni mafvuz qildi. Ul yil Ahmadshoh imdodig'a borg'on to'rt ming kishi keldi. Sanai mazkurda Mezon muntasifidi Niyoz parvonachikim, Miskin mehtar qatlidin so'ng yavmutdin mutavahhim bo'lub, Hazorasbg'a kirib erdi, aning harakati bila Muhammadamin inoq yavmut bila yov bo'lub, inisi Odilbekni Eralixon ibn Abulxayrxong'akim, ul uchurda Dashti Qipchoq hududida andoq zishavkat va sohibi qudrat podshoh yo'q erdi, istimdod uchun yibordi. Va Xonkeldi inoq qochib Qo'ng'rotg'a borib, Muhammadnazar biy bila muddati madid muhoribot qilib, aning qo'lida o'ldi. Va Niyoz parvonachi Hazorasb bila Urganj orasining lashkarin olib, Shatda yotti. Va Muhammadamin inoq Eralixon kelgandin so'ng Shohobodda chovdur va yavmut bila ko'p muhoriba qilib, chovdurni yurtin chiqarib, Shatda Niyoz parvonachig'a qo'shuldi. Andin Navxostg'a, Navxostdin Qahramong'a keldi. Bu orada yavmut sipohi bila andoq muhoribot va muqotilot ko'rguzdikim, Rustam va Asfandiyordin sodir bo'lmadi. Va Urganj xalqi qal'asin yavmutg'a berdi. Bu jihatdin

Muhammadamin inoq va Niyoz parvonachining cheriki buzulub, Muhammadamin inoq Buxorog'a ketti. Yavmut Xivaqni olg'ondin Nuralixonni ma'zul qildi.

Jahongirxon ibn G'oyibxon²⁸⁶. Muhammadamin inoq Buxorog'a ketgandin so'ng yavmut Besh qal'ag'a mustavliy bo'lub, ani kelturub, Xivaqda xon qildi. Aning zamonida Besh qal'ada qahat paydo bo'lub, it va pishikni edilar. Va farzandlarin qazoqg'a sotib, qut edilar. Va aning ustig'a Xivaqda vabo o'lati paydo bo'ldi. Bu jihatdin aksar o'zbek va sort buzulub, Orol va Buxorog'a kettilar. Va yavmut dag'i o'g'urlab, qazoqg'a sotti. Xivaq boshlig' Besh qal'a bilodi xarob bo'ldi. Xivaqda qirq uyluk fuqarodin o'zga kishi yo'q erdi. Aksar namozi jumada uch kishi yo to'rt kishi namoz o'qur erdi. Va shaharning ichida yilg'un va so'ksuk ko'karib, vayrona uylarda vahshiy jonivarlar manzil tutti. Va jami manzara va kandlar va ko'lot yerlar qolin nayiston va g'alaba besha bo'ldi. Va Muhammadamin inoq Buxorodin kelib, yavmutni mustosil qilib, mamoliki Xorazmni taxti farmonig'a kiyurgandin so'ng Jahongirxonni maxlu etib, otasining qoshig'a yibordi. Ayyomi saltanati bir yildur. Mundin so'ng Muhammadamin inoqning davlati taraqqiy topib, hashamati kun-kundin mutazoid bo'ldi.

Bo'lakayxon²⁸⁷ ibn Nuralixon ibn Abulxayrxon. Ul Jahongirxondin [so'ng] podshohliq masnadig'a julus qildi. Aning zamonida qahat murtafe bo'lub, arzonlig' izdiyod topti. Bir oydin so'ng Muhammadamin inoq ani ba'zi nammom (chaqimchi) lar so'zi bila xonlig' taxtidin tushurub, ota yurtig'a yibordi. Ul muddati madid Sir bo'yindog'i qazoqda va Yangidaryo savohilidag'i qaroqalpoqg'a podshoh bo'lub, Muhammadrahimxon zamonida sana ming ikki yuz yigirma uch(1808y.) da jahondin intiqol qildi. Aning guhari durji ismatin, ya'ni jigargo'shai Bilqis nisbatin sultoni mag'firatnishon Eltuzar

²⁸⁶ Jahongirxon ibn G'oyibxon – Xiva xoni (1769-1770).

²⁸⁷ Bo'lakayxon – Xiva xoni (1770, 1 oy).

Muhammad Bahodirxon anorullohi burhonuhu silki izdivojig'a chekib erdi. Holo hazrat sohibqironning haramlarig'a doxildur.

Oqimxon²⁸⁸. Ul Abulxayrxonning nabirasi va Odil sultonning o'g'lidur. Bo'lakayxondin so'ng sana ming yuz sakson to'rt (1770y.)da xonliq toji bila sarafroz bo'ldi. Va ul Abdullohxong'a mulaqqab erdi. Hamul yil avoxiri(1771 yil mart) da Niyoz parvonachi Muhammad inoq va Eshniyoz mehtar va Abdulrahmon boyni o'ldurdi. Bu jihatdin Niyoz parvonachi[ni] qatlg'a yetkurub, Muhammadamin inoq hukumatda mustaqil bo'ldi.

Va Oqimxon xush muhovira va sohibi farosat va qush solmoqg'a ma'shuf kishi erdi. Andoqkim, amir Avaz inoq marhumiy zamonida Oqimxon sayru risolat rasmi bila Xivaqg'a kelib, Sayid Aloiddin xo'ja qaddasa sirrahul-azizning avlodidin qayin inisi sayid Eshon xo'janing manzilig'akim, faqirg'a ham ustod va hamsoyadur, nuzul qilib erdi. Ul uchurda men o'n yo o'n bir yoshimda erdim. Va xo'jai mushorilayhning uyig'a borib erdim. Mani ko'rgach hamon tafarrus qilib so'rdikim «Avaz mirobning o'g'limusankim, anga mushobih ko'runursan. Va otang bila ko'p qush solg'anmiz.» Man javob bergandin so'ng aholimizdin istifosor etib, navozishi podshohona ko'rguzdi. Va ul fi shuhuri sana ximsa va samonina va miiya va alfa (1772y.) ma'zul bo'ldi. Va Abdullohxondin so'ng Bobobek va Ko'chak inoqning ayyomi muxolifatida yana kelib, Gurlanda to'rt-besh oy va Xivaqda bir yil bo'lub, maxlu bo'ldi. Va amiri kabir Avaz inoq zamonida vafot topti.

Abdulazizxon ibn G'oyibxon²⁸⁹. Oqimxonning avvalg'i azlidin so'ng bir necha muddat podshoh bo'lub, ma'zul bo'ldi. Ul xushsurat va pokiza siyrat yigit erdi. Bag'oyat o'qchi erdi. Naql qilurlarkim, bir kun xon Muhammadamin inoq boshliq Xivaq dor as-saltanasining umaro va akobir va bekozalari bila Qovuruqtom va Ostona havolisig'a ovg'a chiqib erdi. Shikor asnosida xonning taqobilidin nayiston orasidin bir to'nguz chiqa keldi.

²⁸⁸ Oqimxon – 1770-1771.

²⁸⁹ Abdulazizxon ibn G'oyibxon – 1771.

Xon aning manglayidin bir o'q shast berdikim, quyruqidin chiqib, yerga sanchildi.

Ortuqq'ozixon.²⁹⁰ Ul Temurg'ozixonning qarindoshlaridindur. Ani Abdulazizzondin so'ng Buxorodin kelturub, xon ko'tardilar. Aning zamonida Bobobek ibn Niyoz parvonachi Buxorodin kelib, qangli beklarining say'i bila Hazorasbni oldi. Va Ko'chak inoq ibn Muhammad inoq dag'i muxolifatda aning bifa muttafiq bo'lub, [qaro]qalpoq to'ralaridin Abdulloh sultonni kelturub, Gurlanda xon ko'tardilar. Ko'p muhoriba va muqotiladin so'ng Qo'shko'pruk hududida Muhammadamin inoq bila sulh etib, Muhammadamin inoq Abdullohxonni Xivaqg'a eltib, xon qilib, Ortuqq'ozini Buxorog'a uzatti.

Abdullohxon.²⁹¹ Ul Xivaq taxtig'a julus qilg'ondin so'ng umaroi muxolif yana Gurlanda isyon va tamarrud o'tin mushtaal qilib va Oqimxonni kelturub, besh oyg'acha o'q va qilichning omadu-raftidin o'zga alardin borish-kelish voqe bo'lmadi. Bu asnoda Vazir hukkomni inoqg'a itoat qilib, Fozilbek va qipchoq Rahimberdi otoliqni bir bo'lak yig'in bila eltib, Vazirni topshurdilar. Mundin so'ng muxoliflar mutazalzil bo'lub, Muhammadamin inoq junudi noma'dud bila borib, Gurlanni muhosira qildi. Oxirilamr umaroi mahsur noiloj bo'lub yarashib, inoq bila kelib, Xivaqda Oqimxonni taxtg'a mindurdilar. Va Bobobek Gurlanda qolib erdi. Vayisquli devon o'zin inoq yasab, aning bila muttafiq bo'lub, yana inod va fasod qilichin tez qilib, Hazorasbdin solur cherikin kelturub, Muhammadamin inoqning lashkari bila muhoribai bisyor va muqotilai beshumor qildilar. Bu asnoda Hazorasb beklari inoqg'a mute bo'lub, inoqning farmoni bila Fozilbek va Bekpo'lod otoliq va Hazorasb beklari Niyoz parvonachining inisi Sultonbek boshliq Gurlan muhosirasi uchun Kotg'a bordilar. Bir necha kundan so'ng Hazorasb beklari va Gurlan umarosi Bobobek va Vayisquli devong'a pinhoniyy murosilot yubora boshladilar. Bu jihatdin Gurlan akobiri bila

²⁹⁰ Ortuqq'ozixon - 1771.

²⁹¹ Abdullohxon - 1771-1772.

Hazorasb beklarini tutub mahbus qilib, ul jumladin Xo'jaquli inoqning inisi Eltuzar mirob va nukuz Ashur noyib Gurloniyni va Sultonbek Hazorasbiyni Hazorasb beklari bila o'ldurdilar. Va Oqimxonni saltanat taxtidin tushurub, qazoqg'a yibordilar.

Yodgorxon.²⁹² Ul [qaro]qalpoq to'ralaridindur. Ani kelturub, podshohliq toji bila sarafroz qildilar. Bu voqeadin so'ng Bobobek Gurlandin qochib, Fitnak(Pitnak)g'a kirib, mutahissin bo'ldi. Otajon xo'ja shayxulislom va Ollosh otaliq qipchoq bila muhoribot va muqotilot qilib, oxir ojiz bo'lub, Buxorog'a bordi. Bu voqea sana ming yuz sakson olti(1772y.)da Yilon yilining avoxirida erdi. Amirzodai marhumiy Hasanmurod bek bu yil valodat topti. Qo'y yili Muhammadamin inoq xondin bir sabab bila ranjida bo'lub, ma'zul qildi. Mundin so'ng Yana ikki martaba xonliqg'a yetib, ma'zul bo'ldi. So'nggi azli ming ikki yuz to'rt(1789y.) da It yili erdi. Mundin so'ng podshohliqg'a yetmadi va Avaz inoq zamonida qaroqalpoq shahid qildi. Va kabutarbozliqg'a shug'li ko'p erdi.

Abulfayzxon.²⁹³ Bu ham G'oyibxonning o'g'lidur. Yodgorxonning avvalgi azlidin so'ng Muhammadamin inoqning ihtimomi bila podshohliqg'a yetti. Aning zamonida fitna va fasod munqate bo'lub, mulk bo'stoni osudalig' gulistoni bila rashki gulzori Eram bo'ldi. Va sana ming yuz to'qson (1776y.) da Bichan yili hazrat sultoni sohibqiron, xalifat ud-davron, zubdat as-salotini olam, qudvat al-xavoqini muazzam al-mansur bi nusrat al-malik al-mustaoon Abulg'ozu Muhammadrahim Bahodirxon xaladullohi mulkihi va sultonahu va afoza ala al-olaimin barahu va ehsonuhning valodati humoyuni bila olam shabistoni ravshan va jahon xoristoni gulshan bo'ldi. Va It yili oftobi olamtob Hamal burjig'a tahvil qilg'anda Navro'z kuni (1778 yil 21mart) panjshanba subhida faqirning vilodati vuqu topibdur. Va hamul yil amirzodai a'zamu ashrafi bani Odam Majdid ad-davla va-d-din Muhammad Nazarbek mutavallid bo'ldi. Va kuz chog'i

²⁹² Yodgorxon - 1773-1774.

²⁹³ Abulfayzxon - 1774-1778.

Bobobek Buxorodin kelib, Fitnak(Pitnak)ka kirdi va asokiri zafarmaosir bila masof qilib, hazimat topti va maqhuru mankub bo'lub, yana Buxorog'a firoriy bo'ldi. Sanai mazkurning avoxirida Abulfayzxon chechak zahmati bila rahmat javorig'a intiqol qildi. Va amiri kabir Muhammadamin inoq yana Yodgorxonni kelturub, saltanat saririg'a nasb qildi.

Po'lodg'ozixon.²⁹⁴ Ul Buxoro sultonlaridin Safar sulton ibn Elbarsxonning o'g'lidur. Va Temurg'ozixong'a qarobati bordur. Va Yodgorxon mushorilayhning zamonida To'nguz yili Hamalda Jonmurod inoq Orola manqit orasig'a kirib, fitnalar qo'zg'ob va Bobobek Po'lodg'ozi[ni] Buxorodin kelturub, Hazorasbni olib, ko'p bo'lg'oqlar mamolikda voqe bo'lub, yurt muzabzab bo'ldi. Ul asnoda amir Doniyolning vaziri Badal devonbegi junudi noma'dud bila kelib, Bobobek va Jonmurod inoq quvvat topib, Bog'ot va Gurlanda shurishlar barpoy bo'lub va Muhammadamin inoq bila muqotiloti bisyor va muhoriboti beshumor qilib, oxir Muhammadamin inoqning oftobi davlati irtifo topib, a'doi davlat ojiz va tang bo'lub, Gurlondin Jonmurod inoq sulh bahonasi bila chiqib, Orolg'a bordi. Va Bobobek zaruratdin Yarashib, Badal devonbegining say'i bila Yodgorxonni ma'zul etib, Po'lodg'ozini Xivaqq'a kelturub, xon ko'tardilar. Bu voqea Sig'ir yili erdi. Hamul yil amirzodai shahid Abdikarim bek marhumiyning vilodati sharifi voqe bo'ldi. Va Po'lodg'ozixonni Topushqon yili Bobobekning qatlidin so'ng hal etib, yana Yodgorxoni ma'zulni podshohliqg'a nasb qildilar. Andoqkim, yuqorida zikr topti. Bir necha muddatdin so'ng Yana ma'zul qilib, qaroqalpoq orasig'a yibordilar.

Abulg'ozixonni robe (IV).²⁹⁵ Ul Abdullohxonning o'g'lidur va Yodgorxong'a qarobati bordur. It yili Yodgorxonning azlidan so'ng podshohliqg'a yetti. Aning zamonida sana ming ikki yuz besh(1790y.) da To'nguz yili Muhammadamin inoqi marhumiy vafot topib, aning xalafi arshadi jamol ad-davlat va-d-din amiri

²⁹⁴ Po'lodg'ozixon – 1781-1783.

²⁹⁵ Abulg'ozixonni robe (IV) – 1790-1802.

kabir Avaz biy inoq ota mansabig'a mansub bo'ldi. Inshoolloh, bu vaqoe o'z mavridida zikr topar.

Va Abulg'ozixon o'z taqozosi bila It yili sana ming ikki yuz o'n yettida dushanba kuni jumoda-l-avvalning yigirma ikkilanjisi (1802 yil 20 sentyabr)da choshtgohda ma'zul bo'lub, qaroqalpoq orasig'a bordi. Va xoni jannatmakon Eltuzorxonning zamonida aning vafot topg'on xabari eshitildi. Ko'sa va siyohjirda kishi erdi.

Abulg'ozixoni xomis (V)²⁹⁶. Ul Yodgorxonning o'g'lidur. Va sanai mazkurada jumoda-l-avvalning yigirma sekkizi (1802 yil 26 sentyabr) da yakshanba kuni Xonqohdin tag'osining uyidin kelturub, podshoh ko'tardilar. Ul yili o'n sekkiz yoshida erdi. Va aning zamonida ta'rix ming ikki yuz o'n sekkizda zu-l-qa'da ning yigirma oltisi (1804 yil 9 mart) da panjshanba kuni Eltuzar bek inoqliq mansabig'a nasb bo'ldi. Va g'urrai zu-l-hijja (1804 yil aprel) da amiri kabir Jamol ad-davla va-d-din Avaz biy inoq olami fonyidin jahoni boqiyg'a rihlat qildi. Inshoolloh, bu vaqoe o'z mavridida tafsilan aytilur. Va sana ming ikki yuz o'n to'qquzda sha'bon al-muazzamning o'n ikkisi (1804 yil 15noyabr) da seshanba kuni Eltuzar inoq Abulg'ozixonni hal etib, dushanba kuni o'zi podshohlig' taxtig'a julus qildi. Va Abulg'ozixon sana ming ikki yuz yigirma birda xoni firdavsmakon Eltuzar Muhammad Bahodirxonning voqeayi hosilasidin so'ng jumoda-l-avvalning o'n ikkilanjisi(1806 yil 28 iyul) da yakshanba kuni hazrat sultoni sohibqiron va xoqoni garduntavonning marohimi xusravonasi bila Yana podshohliq saririg'a julus qildi. Va sanai mazkurada shavvol al-mukarramning yettisi (1806 yil 17 dekabr) da panjshanba kechasi ma'zul bo'lub, Chingiziya dudmonining davlati Xorazm muzofotidin munqate bo'ldi.

Munis va Ogahiy. Firdavs ul- iqbol. Arab yozuvidan tabdil etgan, kirish va izohlar mualliflari Sh.Vohidov, I.Bekchanov va N. Polvonov.T.: Yangi asr avlodi, 2010.

²⁹⁶ Abulg'ozixoni xomis (V) – Xiva xoni (1802-1804). Shuning bilan Xiva xonligidagi shayboniylar sulolasi rasman tugagan.

ELCHI FLORIO BENEVENI²⁹⁷NING (RAQAMLAR BILAN BITILGAN) AXBOROTI

«Janobi oliylarining farmoniga binoan Amu daryosida yoki mahaliy nomi Amudaryo atalgan daryoda oltin bormi yo'qmi ekanligini, bo'lsa qancha ko'p olish mumkin ekanligini aniqlash menga buyurilgan edikim, shu maqsadda bu yerga kelib, daryodan kechib o'tganimizdan keyin o'zim hammasini batafsil ko'zdan kechirib chiqdim. Mana shu choparni (ya'ni Benevening xatini poytaxtga olib borib bergan kimsa - I.S.) daryoning quyi va yuqori o'zaniga borib ko'rib kelish uchun yubordim. Va hamma yerda qunning o'zi chiqdi. Qum tarkibida o'zingiz namunadan ko'rib turganingizdek, oltin zarralari bor. Bu yerdan uch soatlik masofa narida Qurama deb atalgan yana bir daryo bor. U Samarqand tog'laridan boshlanib, mazkur Amudaryoga borib quyiladi, unda qisman oltin zarralari mavjud. Tekshirib ko'rish lozim edi, ammo buning sirini bilmayman.

Janobi oliylariga shuni yetkazmoqdamanki, Amu daryosi oltin ma'danlaridan boshlanmaydi. Ammo unga quyiladigan daryolar ichida Ko'kcha daryosi ayni Badaxshon yaqinida chindan ham eng boy konlardan o'tadi. Daryo boshlanadigan Samarqand tog'larida ham oltin ma'danlar bor, deyishadi. Boshqa ma'danlar esa bu yerda. Buxoroda chindan ham serob, bular-mis, achchiqtosh, qo'rg'oshin, juda yaxshi temir kabilardir.

Orolning bu tomonida, Shojalil tog'laridada, Xiva viloyatlarida haqiqatan ham kumush konlar mavjud. Men avval totorlardan eshitganimni asirlikdagi keksa o'risdan tasdiqlatib oldim, u menga marhamat qilib aytdiki, Xivaning Oronxoni zamonida (bundan o'ttiz yillar ilgari) bir qizilbosh xonga kelib aytganki, bunday tog'larda kumush va boshqa narsalarni ko'plab uchratish mumkin. Bularni qo'lga kiritish uchun xon xodimlar

²⁹⁷ Florio Beneveni - podsho Rossiyasi poytaxti Sankt-Peterburgdagi «Elchilik mahkamasida Sharqni o'rganuvchi ekspedisiya» kotibi. 1721-1725 yillarda Buxoroga elchi bo'lib keladi va xonlik to'g'risida bir talay qimmatli ma'lumotlar to'plab, Rossiyaga qaytadi.

tayin qilib, darhol shunday kumushlarni topib kelishga yuborgan va bular ko'p ham zahmat chekmay, xonga namuna tarzida katta bir tosh bo'lagini yuborishgan, uni tekshirib ko'rishganida yarmidan ko'prog'i kumush bo'lib chiqqan. Buni eshitib, o'zbeklarning kattalari yig'ilishib to'satdan xon xuzuriga kiradilar va bunday kumushni toshdan ajratib olib bo'lmaydi, hech kim bu to'g'rida hech nima bilmaydi, bu narsa sabab bo'lib, hadeganda qo'shnilar bilan urushib qolish mumkin, dedilar. Xon ham, urush chiqmasin, deb o'sha ondayoq topilgan ma'danni ilgari joyiga qo'mib tashlashni va mana shu ishni bajargan konchini yerga tiriklayin ko'mishni buyuradi.

Amu daryosi haqiqatan ilgari Kaspiy dengizi tomon oqqan, ammo hammasi emas, yarmi oqqan. Nega suvni orqaga burib, bunchalik qattiq to'sib qo'yilganligining sababini hech kim bilmaydi. Ba'zilar aytadiki, shu daryo mansabidagi mavzelerde, odamlar yashamay qo'rganidan keyin daryo yo'li to'silganmish. Boshqalar shunday deyishadi: Amudaryo bo'ylab to dengizga qadar mavzeleru yaxshi-yaxshi shaharlar juda ko'p bo'lgan, bularda esa juda diyonatsiz kishilar yashab, shulardan Buxoro kabi Xiva ham ko'p aziyat chekkan. Bunga qarshi hamma o'zbeklar jamuljam bo'lib, haligilarni yengish uchun urushga o'tlanishgan. Ammo ularni birdan yengib bo'lmasligiga ko'zlari yetgach, suvning yo'lini qattiq to'sishni afzal ko'rishgan, o'sha xalq suvga tashna bo'lib, ko'chib ketishga majbur bo'lishsin va o'sha joylar huvillab qolsin, deb shunday qilishgan».

O'g'izxondan qolgan mulk. T.: G'afur G'ulom, 1995. B. 100-111.

OSMON HASHAMATLI SHAHRIYOR, OLIY MAQOMLI SOHIBQIRON, YA'NI JAMSHID MARTABALI, QUYOSH RUTBALI AMIR BO'LMISH SAYID AMIR NASRULLOH MUHAMMAD BAHODIR SULTON IBN MAG'FIRAT ALOMATLI

HAZRAT AMIR SAYID AMIR HAYDAR SULTON IBN JAN-NAT MAKON AMIRI KABIR AMIRI MA'SUM SULTON IBN YAXSHI XISLATLI AMIR MUHAMMAD DONIYOLNING – GO'RLARINI ALLOH NURGA TO'LDIRSIN – ULUG' OTA-BOBOLARI VA KIROM AJDODI NASABLARI ZIKRI VA YONIDAGI SO'ZLAR

Donish ahli va ko'rar ko'z arboblarning so'z bilgich va hikmat anglagichlari qalblaridan yashirin va bekitiqcha qolmasinkim, oliy janob, adolat xislatli hazrat a'lomakon amir Haydar²⁹⁸ Sultonning olti nafar aziz va yoqimtoy o'g'li bor edi. Ulardan birinchisi Mir Muhammad Husaynixon, ikkinchisi ulug'lik alomatli amir, zamon sohibqironi Mir Nasrulloh Muhammad Bahodir Sulton, uchinchisi Mir Umarxon, to'rtinchisi Mir Zubayrxon, beshinchisi Mir Hamzaxon, oltinchisi Mir Safdarxon. Bu olti nafar oliy gavhar shahzodalar oydin qalbli, adolat xislatli otalari hazrat Amir Haydar hayotlik paytida yetuklik va kamolot sarhadiga yetishib, aqliy va naqliy, hadis va kalom ilmlaridan to'la bahramandlik topgan edilar. Garchi Mir Muhammad Husaynixon ilmu fazl va san'at bog'idan maza tatigan bo'lsa ham otasi davlati ayyomida «as-suhbata muaasira» buyrug'iga ko'ra nojins hamsuhbatlar suhbatlari ta'siri va nomuvofiq rafiqlar o'rtog'ligi kasofatidan bang va ko'knor nash'asi bilan bulg'anib, hamisha nomu-nishonsizlik burchagi go'shanishinligi va xilvatxona e'tikofi bilan bo'lib, bashariy yaxshi-yomonlik hamda sipohigarchilik qonunidan bexabar o'tirardi. Lekin turonliklar to'rasi, jalolatnishop amirzoda Sayid Mir Nasrulloh Muhammad Bahodir Sulton kichik yoshidan xalq orasida zehni o'tkirligi va ta'b sofligi bilan quyoshdek ravshan bo'lib, har bir ishda xos va anga maqbul bo'lgandi. Shuningdek, Said alomatli amiri, hazrat Mir Haydar marhumiy uning farosat va qiyosati ko'pligi tufayli ega bo'lmish yetuklik yozuvini bu maqto'v xislatli va yaxshi fe'lli farzandning ahvol

²⁹⁸ Amir Haydar – mang'itlar sulolasidan bo'lgan Buxoro amiri (1800-1826).

peshonasidan o'qib, shu jihatdan hech beparvo bo'lmay, doimo o'zining iksir xosiyatli huzuriga chorlab, biror fursat undan uzoqlashmasdi va fuqaro va raoyoning arzu dodini eshitish payti hamda yon-atrofning elchi va tavochilari keldi-ketdisi vaqti albatta bu o'g'lini xabardor qilar, bu yaxshi siyratli shahzoda esa ularning barchasi ko'nglini siylovlar bilan xushlardi. Hazrat Amir Said – anorallohui burhonahu – ko'p safarlarda bu aziz farzandining qutlug' qadamini muborak bilib, zafar gavdali lashkarning boshi qilib, har tomonga dushman ustiga yuborardi. Ul feruziy asar esa safardan muzaffar va mansur holda cheksiz harbiy o'ljalar olib qaytardi. Masalan, 1237/1821-22 yili xitoy-qipchoq jamoasi va qaroqalpoq elatlari bir-biri bilan ittifoqlashib, Miyonkol tepasi va Samarqand viloyati atrofidan buzilib, sarkashlik va qarshilikni o'z xayollariga keltirib, Odinaqulbiyni xitoy jamoatidan va Ma'murbiyni qipchoq jamoatidan va Hakimxonni qaroqalpoq jamoatidan tanlab olgan ko'yi ul yomon yulduzli buzuqilar bu uch nafar dongdorni o'zlariga xon va sarvar ko'tarib, sanash imkoni doirasidan tashqari bo'lgan son-sanoqsiz qo'shin bilan hujum qilgancha birinchi martabasida Chelak, Dushanba qo'rg'on, Loyishni hazrat amir Haydar Sulton qo'rgan odamlar qo'lidan tortib oldilar va har uch mustahkam qal'aning aholisi molini talon-toroj qilib, o'sha yerdan mazkur yo'sin bilan xuruj qilib kelib, Kattaqo'rg'on va Panjshanba viloyatini qamal qildilar. Bu yerlarni qo'lga kiritgandan so'ng Miyonkolning boshqa qal'alariga ziyon-zahmat yetkazdilar. Falak aylanishi sababli bu kabi o'zgarishlar Miyonkolot maydonida ro'y berib, bu dahshat asarli xabar hazrat amir Haydar Sultoni mag'firat nishonning qutlug' qulog'iga yetishgan zahoti darhol o'zining aziz farzandi olampanoh shahzoda Sayid Mir Nasrullohni Buxoro lashkariga bosh qilib, dovrug'li va iqtidorli amirlar bilan birga yaramas qiliqli buzuqilar tomonga jo'natdi. Lashkariy jamoat oliy farmoyishga binoan yo'lga tushib, o'ta tezlik bilan masofalarni bosib o'tib, o'zlarini Ziyoyiddinga yetkazdilar. Bu paytda hali ikkilanib turgan

boshqa elatiya jamoasi esa ushbu muborak damda vaqtini g'animat bilib, ko'ngillarida mavjud uzoqni ko'ra bilishlik vositasida to'la og'zi birlik va ittifoq bilan yo'l asnosida Buxoro lashkariga kelib qo'shildilar va barchasi birgalikda buzg'unchi fosid jamoat ustiga hamla yo'sini bilan Panjshanba va Kattaqo'rg'on shaharlarini qamal qildilar. Nihoyat qattiq hujumlar bilan bu shaharlarni qo'lga kiritib, xitoy-qipchoq jamoatidan katta-yu kichik bir ming besh yuz kishini asir oldilar va turonliklar to'rasi, Xusrav alomatli shahzodaning buyrug'iga ko'ra asir tushgan buzuqilarni har ko'cha va pastqam ko'chada va bozor rastalarida qatlga yetkarib, ul jamoatning kattalarini daraxtlar tepasiga va devor balandliklariga tiriklayin boshini quyi qilib osib, o'ldirdilar. Ul yog'iy jamoaning qolganlari jasur qo'shin hamlasiga bardosh bera olmay, shu qochgancha kelib, ilgaridan egallab turgan Dushanbaqo'rg'on va Chelak, Loyishni o'zlarining qarorgohiga aylantirdilar.

Zafarga yor sohibqiron shohzoda bu boshdan-oyoq quvonchga to'la ishning xursandlik xabarini jalolat nishonli amir otasiga arzadosht shaklida bitib, gardun hoshiyali oliy saroyga yubordi. So'ng oliy otasi topshirig'iga binoan ikki ming miqdordagi dovruqli qo'shin ahlini Buxoro qo'shini ichidan ajratib olib, ilg'or yo'sini bilan Samarqand tomonga jo'natdi, o'zi esa iqtidorli amirlar hamrohligida to'la fathu g'alaba bilan Buxoroyi sharif tomonga qaytdi va poytaxtga yetib kelib, otasining nurga to'la diydori fayzini topishga musharraf bo'ldi.

Gapning xulosasi shukim, yomon vujudli buzuqilar jamoasining fisqu fasodi sababli besh yil davomida Samarqand viloyati va Miyonkolning boshqa qishloqlarida ana shu zayldagi boshboshdoqlik va to's-to'polon ro'y berib turdi. Ayni Shunday hodisalar asnosida Muhammad Rahimxon Urganjiy ham o'zining dushmanlik tomiridagi g'animlik qonini ko'pirtirib va yuzaga kelgan vaziyat og'irligini g'animat bilib, Buxoro davlatiga qarashli yon-tevarak hududlarni dambadam bosqin-chopqin va

talon-tarojga yo'liqtirib, tumanlardagi fuqaroni Amudaryo bo'yida sokin o'tirganlar bilan birga tang ahvolga solgani-solgan bo'ldi. Ustiga ustak qirq-yuz urug'i jamoasi ham O'ratepa, Dizaq tomondan, shuningdek, Shahrisabzdagi kenagasiya buzuqilari ham o'zlarining tug'ma dushmanliklarini izhor qilgan ko'yi har tarafdin bosqin-chopqin uyushtirish ishidan charchamas edilar.

Buzuqi elatiyaning fitna-yu fasod, dushmanlik va adovatli ishlari muddati uzoqqa cho'zilib, ammo o'z yomon niyatlari bilan ko'zlagan muddaolariga yetishavermagach, nihoyat 1242/1826-27 yili birinchi martaba mitan va qaroqalpoq jamoati el va tobe bo'lishlik yo'sinini ko'ngillariga tugib, o'z qabilalarining ulug'larini uzrxohlik uchun chiqarib, hazrat Amir Saidi Saodatnishopning takovari tuyog'ini o'pib, chin qalbdan uzr so'rab, bu har ikki jamoaning katta-yu kichigi boshu yelka bilan yer tuban yotgancha o'z qilgan ishlaridan pushaymonlik va tavba izhor qildilar. Marhamat dastgohli shahanshoh ularning iltimosini qabul qilib, o'tmishda qilgan xato va ayblarini kechirib, barchasining gunohlari ustidan afv qalamini tortdi. Shuningdek, shu besh yil mobaynida ko'plab marta qamal ichida qolib, o'ta tang ahvolga tushgan va yashab turgan joylarida bitta nonning bahosi jon qiymatiga tenglashgan xitoy-qipchoq jamoatining buzg'unligi sarchashmasi bo'lgan nizo sababchilari ham o'zlarining yomon qiliqlaridan pushaymon bo'lib, bir nechta shariat shiorli ulamo va ulug' mashoyixni sulh tuzish va uzrxohlik qilish uchun o'rtaga solib, olampanoh podshohdan kechirim so'radilar. Shafqat panohli, diyonat ogohli hazrat amir ham ularning gunohlari ustidan afv chizig'ini tortib, har ikki jamoatning ozodlik barotini oliy muhr bilan bezadi va xusravoniy marhamatlar bilan barchasining boshini baland ko'tarib, o'z siyloviga sazovor qildi. Boshdan-oyoq ofatlar koni bo'lmish hodisalar popugi pasaygach, viloyatning yon-atrof hududlarida bir necha vaqt xotirjamlik yuzaga chiqib, katta-yu

kichik, yoshu qari yaratganga shukrlar aytish bilan mashg'ul bo'lib yashadilar.

O'sha sanada mag'firat alomatli hazrat amir Haydar Sulton dovruqli davlatxoh kishilar maslahati va oliy darajali vazirlar istagi bo'yicha turonliklar to'rasi, oliymakon shahzoda, Sayid Mir Nasrulloh Muhammad Bahodir Sulton²⁹⁹ni o'z farzandlari va nevaralari ichidan tanlab, Nasaf, Koson va Kasbi' viloyatlari yorlig'i bilan sarafrozlik bag'ishlab, Chirog'chi va Yortitepa, Fami qasabasi hukumati hamda Boysun, Sherobod, Kalif, Xuzor viloyatidan to Hisor viloyatlari sarhadigacha yerlarni uning iqtidor qo'li va ixtiyori tasarrufiga topshirdi.

Shuningdek, o'sha yili oliy martabali shoh o'zining uchinchi o'g'li Mir Umarxonni ham Karmina, Yangiqo'rg'on, Qarchig'oy va Hazora viloyatlari hukumatiga tayinlab, ko'nglini iftixoru quvonchga to'ldirgan ko'yi boshini yuksaklarga ko'tardi.

Yana o'sha yili Iskandar nishonli, zafarga yor shahzoda Sayid Mir Nasrulloh Muhammad Bahodir Sultonning kamaridan bir aziz farzand zuhur olamiga keldiki, aylanuvchi falak ming ko'z bilan olamning butun atrofiga nazar solsa ham unga o'xshash shohvor durni hech bir zamonda ko'rmagan edi. Yaxshi tilak nishoni va istak alomati hamda qadami qutlug' o'rnida ul aziz va maqtov sifatli farzandning atoqli nomini «Sayid Mir Muzaffar Sulton» deb atadilar va shodu xurammlikka to'la bir ulug' to'y yasab, xursandliklar qildilar.

FARG'ONA VA MOVAROUNNAHR PODSHOHLARI NASABLARINING BAYONI VA ULARNING SHARAFLI AJDODLARI ZIKRIDA

Bul mamlakat xonlari va podshohlari nasablarini tarix ilmi arboblari quyidagicha yozganlar: Abulmuzaffar Xudoyorxon ibn

²⁹⁹ Sayid Mir Nasrulloh Muhammad Bahodir Sulton - bo'lg'usi Buxoro amiri Amir Nasrullo (1826-1860).

Sheralixon ibni Hojibek ibn Abdurahmonxon ibn Abdulkarimxon ibn Shohruhxoni Soniy ibn Ashur Muhammadxon ibn Rustamxon hoji al-haramayn ibn Shohruhxoni Birinchi ibn Shohmastxonkim, uni shu bilod turklari Chamashbek derlar. Shohmast ibn Ubaydullohxonkim, uni turklar Sulton Asil deb laqab berganlar. Mazkur Sulton Asil ibn Abulqosim, laqabi Sulton Kuchak va u ibn Muhammadaminxon Birinchi ibn Sulton Xudoyorxon Birinchikim, ba'zi tarixlarda Tangriyorxon degan. Mazkur Sulton Xudoyor ibn Sulton Elik ibn ... laqabi Oltun Beshik ibn Zahiriddin Muhammad Boburxon.

Bu yozuvlarning muallifi tarix kitoblardan tashqari bir qancha vaqfnomalar va yorlig'lar, farmon va barot, tarxonlik hujjatlari, tavqiot va eski tavjihotlarni ba'zi kishilar qo'lida dalil tariqasida foydalandim. Bu qoralama yodnomaning muallifi ularni qidirib topishda ko'p sa'y va harakatlar qildim va ularni qo'lga kiritdim va bu kitobning asosi va bunyodini shul qoyida va qonunga muvofiq tartib berdim, inshoolloh o'z mahallida ular yozilajak, bu o'lka xonlari va podshohlari kutubxonalarida bo'lganlarini ko'rib, o'qib chiqib o'rgandim. Tahqiq va tekshiruvdan so'ng bu kitobga ularni kiritdim. Topilgan fulus va dirhamlardan Farg'ona va Movarounnahr sultonlari nasablarini tuzishda foydalandim.

Umar Shayxdan uchta o'g'il: Muhammad Zahiriddin Boburxon, Jahongir Mirzo va Nosir Mirzo hamda beshta qiz qolgan.

OLTIN BESHIK YOXUD MING URUG'I BOSHLIQLARINING KELIB CHIQISHI HAQIDA

Farg'ona viloyatida tavorixlarda ma'lum va mashhur Andijon va O'zgand va Axsi qadimgi va eski shahar bo'lub, chig'atoy va o'zbek xonlariga poytaxt ekanligi bilinadur, lekin xudi Xo'qand shahrining eng avvalgi binosi 300 yildan ziyod bo'lgan emas. Vaqtiki, Boburxonⁱ o'zbek xonlari ilan Samarqand

muzofotida muhoraba aylab, magʻlub boʻlub, qochib, alhol Xoʻqand shahri bino boʻlgan mavzedagi katta soy labiga kelganda farosat ilan topibdurkim, bul joy seroblik va obshorlik va xushhavo sabablikdin andak vaqtda obodon va katta shahar boʻlsa kerak deb, alhol Xoʻqand shahriga suv keladurgan katta soydin oʻtganda koʻrubdurkim, soyning ikki tarafida koʻp elatiyalar ijtimoiy qilib, qoʻnub oʻlturubdurlar. Muʼni koʻrub Boburxon kimxob va zarrin liboslarga oʻralib, oltun beshikka boylangan bir yosh bolasini mahali guzargohga qoʻyub, bir dono va hushyor odamni ul beshik ilan bolaga didbon va qarovul tayin qilib, aytibdurkim, to ushbu bola biror odamni qoʻliga tushub, olib ketgandin soʻngra bizlarni orqamizdin yetib kelursan, deb tezlik ilan oʻz yoʻllariga joʻnab ketibdurlar. Oʻshal vaqtlarda bul viloyatlardin hech asar va nomu nishona yoʻq boʻlub, dashtu sahro ekan. Lekin, soyni ikki tarafida uch-toʻrt jamoa, chunonchi, chankant, saroy va targʻova, degan uch guruh xalq oʻlturub, bir guruhi soyi Naymanchaga va ikki guruhi soyi Kalonga tobe ekan.

Bul uch guruh xalq ittifoq ilan toʻgʻon qilib, suv bogʻlamoq uchun dashtga chiqib, mazkur soyni ikki tarafi ilan yurub, kelarda koʻrubdurlarkim, bir oz muqaddam koʻp xalq gʻarb tarafdin kelib, soydin oʻtub, mashriq tarafga ketibdur. Oʻzbeklar³⁰⁰ bul alomatni koʻrub, ehtiyot uchun alarning keyinidin borsalar, yoʻlda bir oltun beshikda kimxob, atlas va zarrin liboslar ilan oʻralgan bir yosh bolani koʻrubdurlarkim, mazkur bolani anvoyi javohirotni ilan muzayyan qilingan ekan. Ul uch toifa xalq bolaning eʼzoz-ikrom ilan olib oʻz joylariga qaytibdurlar. Bul bolaga qarovul boʻlub turgan yigit bul ahvolni koʻrub, xotirjam boʻlub, Boburxonni keyinidin etib, ahvoli guzashtani maʼlum aylabdur. Oʻzbeklar oltun beshik ilan bolani olib, yigʻinlarini buzmay, bir joyga jam boʻlushub, oʻlturub, shul tariqa maslahat qilishibdurlarkim, bizlar uch toifamiz, tiflni va oltun beshikni va javohirotni uch taqsim aylab chek – qurʼa

³⁰⁰ Oʻzbeklar – bu yerda Dashti Qipchoqlik koʻchmanchi oʻzbeklar nazarda tutilyapti.

solurmiz. Qur'ada qaysi nimarsa qayu toifaga tushsa, o'shal nimarsani benizo' olsun deb, hammalari qur'aga qaror berib, qur'a solganda tifi – yosh bola jamoai targ'ovaga, ajnosu ashyo jamoayi mavzeyi saroyga va oltun beshik chinkant jamoasiga tushib, har qayulari o'z taqsimlariga rozi bo'lub, xursandlik ilan o'z jamoalariga qaytibdurlar.

Andin keyin jamoayi o'zbaki targ'ova mazkur bolaning tarbiyatiga ko'shish aylab bir muttaqi va porso zaifaga topshurubdur. Ul zaifai oqila bolaning tarbiyat va parvarishidin zarrae tag'oful va beparvolik qilmay, xub diqqat ilan tarbiyat qila boshlabdur, chunki ul bachchaning asl nasabi haqidagi haqiqatni o'zbaklar xub tahqiq aylab bilgan ekanlar.

Bolaning nomini Oltun beshik qo'yubdurlar. Oxiri haddi balog'atga yetushgondin keyin taalluqdor qilib bir xushro'y va sohibjamol qiz olib berubdurlar. Andin bir o'g'ul farzand tavallud topib, nomini Sulton Elik qo'yibdur. Ul ham balog'atga yetgandin so'ngra uylanturubdurlar. Andin ham bir o'g'ul farzand bo'lub, nomini Sulton Xudoyor qo'yub, ul ham bolig' [kata] bo'lganda uylanturub, andin ham bir o'g'ul farzand tavallud topib, nomini Muhammadamin qo'yub, ul ham balog'atga yetgandin keyin, xotun olib, andin bir o'g'ul tavallud topib, nomini Abu-l-Qosim qo'yub, ul ham bolig' bo'lub, uylangandin keyin andin bir o'g'ul farzand tavallud topib, oning nomini Shohmastbiy ko'yubdurlar. Alhol Chamashbiy nom ilan Farg'ona aholilari orasida mashhurdur. Shahmast [Shohmast, Shamast] biydan Shahruxbiy (Shohrux) va andin Hojibiy va andin Ashurbiy tavallud topib, Ashurbiydin ikkinchi Shohruxbiy³⁰¹ tavallud topibdur va Oltun beshik ilan bu Shohruhxon miyona [o'rtasida o'n pusht abovu ajdod ikki yuz yil muddatda o'tib, Shohruhxon olami vujudga kelib, shu o'zbaklar orasida tarbiyat topib, haddi balog'atga yetganidin keyin oning jabhasidin shukuh-u davlat va shijoat zohir-u namoyon bo'lub,

³⁰¹ Shohruxbiy – minglar urug'idan, Qo'qon xonligiga asos solgan. 1700-1721 yillarda hukmronlik qilgan.

hamisha shikor qilmoqga va asb(ot)u-aslaha va tiru kamon ila mashg'ul bo'lar ekan.

O'shal vaqtdagi o'zbeklarni naqli bo'yincha, ittifoqo bir podshoh batariqai shikor [ov uchun] bul viloyatga kelibdur. Ul vaqtda Shohruhxon o'n sakkiz yoshda ekan. Shikorning qiziq vaqtida bir yo'lbarsni nayza ilan yarador aylab, sayd qilib, podshohga manzur aylab marhamat va shafqat va mukarram hurmatga mustahiq bo'lubdur.

Podshoh aning g'ayratu shijoat va mardonligini ko'rub, lutf va marhamat aylab, o'shal muzofotning hukmronligini Shohruhxonga tafviz (tortiq) aylabdur. Shohruhxon hukmdorligini ibtidosidin oxiri umricha Targ'ova va Chamashda umr o'tkarib, hukumat yurguzub, vafot qilibdur. Andin Abdurahimbiy va Abdulkarimbiy va Shodibiy degan uch o'g'ul olami vujudga kelib, ulug' o'g'li Abdurahimbiy³⁰² oning o'rniga xonlik mansabiga o'lturub, Xo'qandning qal'a va ark va eski qo'rg'onini bino qilibdur va ba'zi o'zbeklar so'zi bo'yincha Xo'qand shahri avval vaqtlarda tartib topmay, Chodak mavzesida xo'ja jamoalari turub, ba'zi atrof javoniblardan, chunonchi, Targ'ova Chamashbiy, Chankat va Pillaxon va To'qaytepa va Purtak va Tepa-qo'rg'on va Qaynar, bularga o'xshash boshqa bir necha kentlar alarni taxti hukumatlarida bo'lub, xo'jalar hukmronlik qilar ekanlar.

Mirzo Olim Maxdum Hoji. Tarixi Turkiston. Qarshi, 1992.

³⁰² Abdurahimbiy – Qo'qon xonligi hukmdori (1721-1739).

IZOHLI ATAMALAR

Abrlig' – xarobalari Ohangaron daryosining chap sohilida, Oqchasoyning etagida Abliq qishlog'ida topilgan, Toshkent viloyati hududida.

Avol – Avval qishlog'i, Marg'ilon yaqinida, Farg'ona viloyati hududida.

Ardlonkas – Burchmulla, Toshkent viloyatida.

Arbob – qabila yoki urug' oqsoqoli, arbobi. Urug' zodagolaridan tayinlangan.

Aymoq – Aymoq deyilganda bir hududda yashovchi qarindosh oilalar tushuniladi, urug' va aymoq so'zlari bir xil ma'noda qo'llaniladi. «Aymoq» atamasi qalmoq, barmoq, tarmoq, maymoq kabi qadimiy turkiy so'zlardan bo'lib, bugungi kunda Buryatiston va Oltoy o'lkalarida kichik ma'muriy hududlartuman ma'nosida ishlatiladi. Bu so'z mo'g'ul tilida ham bo'lib, nisbatan kattaroq ma'muriy-hududiy birlikni bildiradi. XV-XVI asrlada Farg'ona vodiysida, Qashqadaryo vohasida yashagan turkiy qabilalardan biri aymoqlar edi. Asrlar o'tishi bilan ular o'zbek millati tarkibiga singib ketishgan, faqat kichik bir bo'lagi XX asr boshlarida o'z nomlarini saqlab qolishgan. «Aymoq» atamasi turkiy qabilalardan birini bildirishdan tashqari, bir qancha qabila va urug'lar ittifoqi ma'nosiga ham ega. Ko'rinadiki, aymoq atamasi elat bilan xalq o'rtasidagi bir tarixiy tuzilma ma'nosini bildiradi.

Axsikat – Sirdaryo bo'yidagi o'rta asr shahri; uning xarobalari Namangan viloyatidagi Zadaryo tumanining Aysi qishlog'ida.

Baykand (Paykand) – o'rta asrlarda Buxoro viloyatidagi yirik shahar va mashhur savdo markazi. Somoniylar davlati inqi-

rozidan soʻng xarobaga yuz tutdi. Buxorodan 44 km janubi-gʻarbda joylashgan. Hozirgi paytda xarobalari Paykandi Koʻhna nomi bilan maʼlum.

Barot – koʻchmanchi aholidan olinadigan soliq turi.

Banjikas (Panjikas, Panjikat) – hozirgi Tojikiston hududidagi Panjikent shahri, shu nomdagi nohiya markazi.

Bazda – taxminan, hozirgi Fazli qishlogʻi, Qashqadaryo viloyatining Nishon tumanida.

Baratakin qishlogʻi – Amudaryoning quyi havzasidagi aholi punkti.

Balx daryosi – hozirgi nomi Balxob.

Bikas (**Binkat**) – bu shahar oʻz vaqtida hozirgi Toshkentning Eski shahar qismida joylashgan edi.

Bosund – hozirgi Boysun tumani markazi, Surxondaryo viloyati hududida.

Boysun – (Surxon vohasi) da joylashgan shahar va togʻ nomi.

Buxoro daryosi – Zarafshon daryosining oʻrta asrlardagi bir nomi.

Bulgʻor – X-XIV asrlarda Volga daryosining oʻrta havzasida tashkil topgan davlat.

Buloʻr – (boshqacha yozilishi: Balur, Balor, Baluriston, Borloriston) Afgʻonistonning shimoli-sharqiy qismiga toʻgʻri keladi.

Boʻmikas (**Boʻmijkas**, **Numijkas**, **Numijkat**) – uning oʻrni hozirgi Vobkent shahri yaqinida boʻlgan, Buxoro viloyati. Jazgʻankas (Xarjankas boʻlishi mumkin) – oʻrta asrlarda Buxorodan gʻarbroqda joylashgan shaharcha.

Bovard, **Niso**, **Farov** va **Dehiston** – hozirgi Turkmanistonning janubiy qismida joylashgan oʻrta asr aholi maskanlari.

Varagʻsar – bu shaharchaning oʻrni Dargʻom kanali boshlanishida aniqlangan.

Varzoʻl, **Kabariya**, **Bagʻravonak** – bu uchala shaharcha, shuningdek, yuqorida qayd etilgan Kurol, Gʻazak, Xayvol

shaharchalari hozirgi Oqsoqotasoy vodiysida bo'lgan, Toshkent viloyati Bo'stonliq tumani hududida.

Vaxsh – Xatlon viloyati tarkibida, Tojikiston.

Vaxon – Vaxon tizmasi.

Gelon, Daylamon, Tabariston, Gurgon – Kaspiy dengizining janubiy sohilidagi viloyatlar.

Gurgonj – arabcha manbalarda "Jurjoniya", mo'g'ul va turkiy talaffo'zda keyinchalik "Urganch" deb atalgan. Turkmanistondagi hozirgi Ko'hna Urganch xarobalari.

Go'zgonon (Go'zgon, Jo'zjon, Jo'zjonon) – Shimoliy Afg'onistondagi tarixiy viloyat.

Dabusiy – o'rta asrlardagi Dabusiyning o'rni Samarqand viloyatidagi Ziyouddin temir yo'l bekatidan sharqda, deb aniqlangan.

Daron – Samarqanddan ikki farsax uzoqlikda.

Dando'na (Zanduna, Zandana) – hozirgi Zandon qishlog'i, Romitan tumani hududida, Buxoro viloyati.

Daxkas (Daxket) – Ohangaron daryosi vodiysining yuqori havzasida joylashgan eng baland tog' manzilgohi. Dukentsoyning o'ng sohilida; hozir u yerda Dukent qishlog'i bor.

Damonkas (Danfag'ankat) – Yangiyo'l temir yo'l bekatidan 4 km Sharqda, Niyozboshi qishlog'i yaqinidagi Yo'g'on-tepa manzilgohi, Toshkent viloyatida.

Dorzangiy – Uning o'rni hozirgi Jarqo'rg'on tuman markazining janubi-g'arbi yaqinida qayd etilgan.

Dehinav – Jankent manzilgohi; Sirdaryoning quyi havzasida bo'lgan

Digar – taxminan hozirgi Regar (Tursunzoda shahri), Tojikiston hududida.

Dizak – hozirgi Jizzax shu nomdagi viloyat markazi.

Daryoja – Zarafshon daryosining yuqori qismi.

Dizaq – Jizzax – Jizzax/Dizak (kichik qal'a degani) – qadimiy Istaravshanga tegishli istehkom, qal'a. Samarqand-

Xo'jand yo'lidagi muhim harbiy strategik joy bo'lgan. Hozir viloyat markazi.

Diyat - xunbaho, qon haqqi.

Yolopon – Qorasuv kanalining o'ng sohilida joylashgan Qulqoratepa manzilgohi.

Jabg'o'kas – Toshkent shahrining shimoli-sharqiy qismidagi Oqota manzilgohi.

Jazg'ankas (matnda yozilishini Xarjankas deb ham o'qish mumkin) – o'rta asrlarda Buxoro yaqinida, g'arbda joylashgan shaharcha.

Jand – Jonqal'a manzilgohi; Sirdaryoning quyi havzasida bo'lgan.

Josht – Zarafshon tizmasidan janubda Vaxsh daryosigacha bo'lgan hudud.

Zirah dengizi – hozirgi Zirra sho'rxogi va ko'llari, Afg'oniston hududida.

Ziyoyiddin/Ziyovuddin – hozirgi kunda Samarqand viloyatidagi Paxtachi tumanining markazi.

Iloq – Ohangaron vodiysi, Toshkent viloyati hududida.

Iloq daryosi – Ohangaron daryosi, Toshkent viloyati hududida.

Isko'k dengizi – Issiqko'l.

Isbijob (Isfijob) – hozirgi Sayram, Qozog'iston hududida.

Ishtixan – hozirgi Ishtixon, Samarkand viloyatida.

Karjokas (Xarjankat, Xargankat) – Chirchiqning chap sohilida, hozirgi Xo'jakent o'rnida joylashgan shahar.

Kash (Kesh) – qadimgi Kesh, hozirgi Kitob shahri o'rnida bo'lgan, IX–X asrlarda hozirgi Shahrisabz hududida rivojlangan.

Kasba – Qarshi shahridan 40 km g'arbda joylashgan Kasbitepa, hozirgi Kasbi qishlog'ining o'rnida, Qashqadaryo viloyati.

Kattaqo'rg'on – hozirgi kunda Samarqand viloyatidagi tuman. Markazi Payshanba shaharchasi.

Kalashijak – Sijjak qishlog‘i, Toshkent viloyatida.

Kardar – Chimboy yoki Xayvonqala.

Kardaranxas, Amudaryoning quyi havzasidagi aholi punkti.

Karmina – hozirgi Karmana shahri, Navoiy viloyatidagi Karmana tumanining markazi.

Kushoniy (Kushaniya) – Kushonota manzilgohi, Kattaqo‘rg‘on tumani Samarqand manzilgohi.

Kenagasiya – o‘zbek xalqi tarkibiga kirgan qabilalardan biri. Xorazm, Buxoro viloyati, Farg‘ona vodiysi, Qoraqalpog‘iston va Shimoliy Afg‘onistonda yashagan, tarkibida bir qancha kichik qabila va urug‘lar bo‘lgan. Bulardan eng yiriklari ochamayli, kirey, abak kirey, ovoqli, taroqli, chuyut, qayri soli va hokazo. Shahrisabz va Kitob atrofida hukmron qabila bo‘lgan.

Koj(to‘g‘risi:Kos, ya‘ni Kot) – Janubiy Xorazmning IX–X asrlardagi poytaxti, hozirgi Beruniy shahri, Qoraqalpog‘iston Respublikasi hududida.

Kuhisim – Nishboshsoyning bo‘yida, Qurama tog‘lari etagida joylashgan o‘rta asr aholi maskani. Hozirgi aholi qadimgi shahar o‘rnini Qo‘rg‘ontepa deydi.

Kurol (Kijol) – hozirgi G‘ijol qishlog‘i, Toshkent viloyatida.

Livkand (Livakand) – Qo‘rg‘ontepadan g‘arbda Sangto‘da qishlog‘i yonida bo‘lgan, Tojikiston.

Loyish – hozirgi kunda Samarqand viloyatidagi Oqdaryo tumanining markazi.

Madyomijkas – o‘rta asrlarda Karmina yaqinida, g‘arbda joylashgan shaharcha. Hozir saqlanmagan.

Millat – kishilarning jins tarixiy birligi, umumiy qisqartirish turlari, til, hudud birligi, madaniyat, ong, ruhiyat uyg‘unligi va mushtarakligi millat demakdir. Millat faqat bir xalq vakillaridagina iborat tarzda shakllanmaydi. Hozirgi o‘zbek millatining tarkib topishida barcha turkiy qabila va urug‘lar, olis o‘tmish, tarixdan ilgarigi zamonlardan boshlab Turonzaminda yashab kelayotgan ajdodlarimiz, Shuningdek, qadim So‘g‘d eli,

Xorazm eli va boshqalar ham ishtirok etganlar. Ma'lumki, o'zbek millati kelib chiqish jihatidan turkiydir. Lekin qonimizda boshqa irq qoni tomchilari ham yo'q emas.

Medminiya(yoki Medkaminiya), Amudaryoning quyi havzasidagi aholi punkti.

Marv daryosi – hozirgi Murg'ob daryosi.

Marrud (Marvarrud, Marvrud) – Murg'ob daryosi bo'yida joylashgan o'rta asr shahri, hozirgi Maro'choq qishlog'i, Afg'oniston.

Marv – hozirgi Turkmanistondagi Mari shahri yaqinida mavjud bo'lgan o'rta asr shahri.

Mu'kon (Mug'kon) – o'rta asrlarda Buxoro yaqinida, g'arbda joylashgan shaharcha.

Mutavalliy – vaqf mulklari ustidan, kirim va chiqimlari, xarajatlarini tekshiruvchi amaldor. U xon tamonidan vaqf qilingan mulklarga mutavalliylik qilgan.

Mehtar – ulug', katta degani. Eng ulug' amaldor sifatida vazir (i a'zam) shunday sifatga ega bo'lgan.

Moniso tog'i – O'rta Tyanshan tizmalari.

Navkas (Nukas, Nukat, Tunkat) – O'rta asrlardagi Tunkat shahri, uning o'rnini Ohangaron daryosi havzasida, Olmaliq yaqinida qayd etilgan, Toshkent viloyatida.

Navqat-Quraysh – bu shaharchaning o'rnini Kamaytepa yaqinida aniqlangan, Qashqadaryo viloyati.

Naxshab – Naxshab xarobalarining o'rnini Shulluktepa deyiladi. Qarshi shahridan 8 km shimoli-g'arbda, Qashqadaryo viloyati.

Navijkas (Navijkat) – Xonobod manzilgohi, Toshkentdan janubda.

Naxnoh – Nanay qishlog'i, Toshkent viloyatida.

Naqib – sayid va xo'jalar jamoasi boshlig'i. Xonga yaqin shaxs bo'lgan.

Nihom daryosi – Sherkent daryosi, Surxondaryoning o‘ng irmog‘i.

Nujokat (Najokas, Unjakat) – Uljakat qishlog‘i (hozirgi Gul qishlog‘i, Quyi Chirchiq tumani), Toshkent viloyatida.

Otil daryosi – Volga daryosi.

Ozarbodgon – Ozarbayjon.

Oq kiyimlilar – Movarounnahrda Muqanna (Hoshim ibn Hakim) boshchiligida Arab xalifaligiga qarshi ko‘tarilgan qo‘zg‘olon (769-783); qo‘zg‘olonchilar oq kiyimda bo‘lganliklari sababli, ularni shunday ataganlar. Bu harakat tarixda Muqanna qo‘zg‘oloni nomini oldi.

Parak daryosi – Chirchiq daryosi.

Rishton – shu nomli aholi maskani, Farg‘ona viloyatida.

Satbag‘vo – Bog‘iston qishlog‘i, Toshkent viloyatida.

Somisibrak (Samsirak) – hozirgi Bo‘ka shahri o‘rnida bo‘lgan, Toshkent viloyati hududida.

So‘nax – X –XII asrlar arab tilidagi manbalarda "So‘bax" va "So‘naj" shakllarida yozilgan. Uning o‘rni taxminan G‘ozor yaqinidagi O‘liktepaga to‘g‘ri keladi, Qashqadaryo viloyati.

So‘x – hozirgi So‘x qishlog‘i, Farg‘ona viloyati Rishton tumanida.

So‘g‘d – qadimda va o‘rta asrlarda Zarafshon va Qashqadaryo havzalarida joylashgan viloyat. Tojikistonning shimoliy hududlari hozirda So‘g‘d viloyati deb nomlangan.

Tunkat-Buxorxon – Iloq manzilgohi, Olmaliq yaqinida Toshkent viloyati.

Tarko‘s – Toshkentdan 42 km o‘zoqlikda, Chirchiqning o‘ng sohilida, Pargostepa qishlog‘idagi Pargostepa manzilgohi.

Tirmiz – hozirgi Termiz.

Tukas (Tukat) – uning qoldiqlari Olmaliq shahri yaqinidagi Qulota qishlog‘i yonida qayd etilgan.

Tuxoriston – O‘zbekiston va Tojikistonning janubiy hamda Afg‘onistonning shimoliy qismini o‘z ichiga olgan tarixiy viloyat.

Toriqon – hozirgi Toliqon, Afgʻoniston hududida.

Toʻlas togʻi – Talas Olatovi tizmasi.

Rabinjan – shaharcha oʻrni hozir Ramijantepa deb ataladi, Kattaqoʻrgʻon tumani hududida, Samarqand viloyati.

Parvonachi – saroyda parvona (kapalak)dek xon huzuriga kirib chiqib, xizmat qiladigan amaldor.

Panjshanba – mavze, Samarqand gʻarbidagi 90 km. Masofada joylashgan manzil. Tuman markazi.

Urugʻ – juda qadim zamonlarda bir ota-onadan tarqalgan qon-qarindoshlarning uyushuvi natijasida shakllangan jamoa urugʻ deyiladi.

Farab – Amudaryoning oʻng sohilida, Amul shahri (hozirgi Chorjoʻy) roʻparasida joylashgan oʻrta asr shahri; uning oʻrni hozirgi Forob temir yoʻl stansiyasi yaqiniga toʻgʻri keladi, Buxoro viloyati.

Farnkas – hozirgi Parkent shahri (Eshqoʻrgʻon manzilgohi). Abradkas va Bagʻvikas hozirgi Namdanak va Zarkent aholi maskanlari boʻlishi mumkin, Toshkent viloyati hududida.

Farnkas – hozirgi Parinkant, Samarqanddan gʻarbda, Ishtixonga ketadigan yoʻnalishda joylashgan.

Xashart daryosi – Sirdaryo.

Xavokand – hozirgi Qoʻqon shahri.

Xos – qoldiqlari Jumabozor aholi maskani hududidagi Dalvarzintepada qayd etilgan, Toshkent viloyati Bekobod tumani hududida.

Xambarak – Xumson qishlogʻi, Toshkent viloyatida.

Xayvol – bu toponim hozirgi vaqtda Qayroqsoy shaklida saqlanib qolgan, Oqsoqotasoyning irmogʻi, Toshkent viloyatida.

Xalq – ushbu atamaga falsafiy nuqtai nazaridan yondashsak, uning taʼrifi bunday: tarixning hamma bosqichlarida jamiyat vazifalarini hal etishga qodir, yurt yumushiga yaroqli va qobiliyatli qatlam, ijtimoiy birlik, tarix ijodkori.

Xazar dengizi – Kaspiy dengizi.

Xazarlar – ko‘chmanchi turkiy xalqlar; VII – X asrlarda Shimoliy Kavkaz va Quyi Volga bo‘yida Xazar xoqonligini tashkil qilgan.

Xorazm dengizi – Orol dengizi.

Xallux tog‘i – Farg‘ona va Oloy tizmalari.

Xatlom daryosi – Norin daryosi, Sirdaryoning yirik o‘ng irmog‘i.

Xotunkas (Xotunkat) – Do‘rmon qishlog‘idan 4 km janubdagi To‘g‘aytepa manzilgohi, Toshkent viloyatida.

Xarsankat – Toshkent viloyatining Oqqo‘rg‘on tumanidagi Qanqa manzilgohi.

Xarajkat (Chinachkat) – Chinoz shahri (Chinoz manzilgohi).

Xashmisan – hozirgi Shovot yaqinida bo‘lgan, Xorazm viloyati.

Xorazm va G‘o‘z Cho‘li – hozirgi Qoraqum va Qizilqum cho‘llari.

Xujodiy – o‘rta asrlarda Buxoro yaqinida, g‘arbda, Paykand shahriga boradigan yo‘l yonida joylashgan shaharcha. Hozir saqlanmagan.

Xirsob (Xurshob) daryosi – Kurshob daryosi, Qoradaryoning irmog‘i, u o‘z navbatida Sirdaryoning asosiy irmoqlaridan biridir.

Charqon – uning o‘rni hozirgi G‘allaorol temir yo‘l bekati atrofida, deb aniqlangan.

Chadg‘al – hozirgi Chatqol tizmasi (G‘arbiy Tyanshanda).

Chag‘oniyon – uning o‘rni hozirgi Denov shahridan 6 km janubi-g‘arbda Qizilsuvning Surxondaryoga quyilish joyida joylashgan. Badrachtepada aniqlangan.

Chag‘onrud – Surxondaryo (Surxon daryosi)

Chiniston – asosan Xitoy.

Chig‘atoy inoqi – gegemon kuchli bo‘lgan o‘zbek to‘pasidan tayinlangan inoq.

Chelak – hozirgi kunda Samarqand viloyatidagi tuman markazi.

Choch – Toshkent viloyati.

Choch daryosi – Sirdaryo.

Shahrisabz – (Kesh) – bugungi kunda Shahrisabz tumani, Qashqadaryo viloyatidagi shahar.

Sherobod – Sheroboddaryoning o‘ng sohili (Surxon vohasi) da joylashgan shahar.

Shturkas – Yangiyo‘l tumani, Paxta temir yo‘l bekati yaqinidagi Eski Toshkent manzilgohi.

Shumon – taxminan, Kofarnihon daryosining yuqori havzasi.

Shaknon – hozirgi Shug‘non, Tojikiston hududi.

Elat – Bu atama, eng avvalo, qabilalar ittifoqini, kishilarning til, hudud, iqtisodiy va madaniy jihatidan tarixan tarkib topgan birligini bildiradi. Uni xalqning millat bo‘lib shakllanishidan oldingi bosqichi deb ham ataydilar. Elatning kelib chiqishiga bir-biriga ko‘p jihatdan yaqin bir necha qabilalarning uyushuvi asos bo‘lgan .

El – El eng qadimgi tub turkiy so‘zlardandir. Avvalo bir joyning odamlari ma‘nosini bildiradi: Xorazm eli, Qashqar eli. Bir qabilaga mansub kishilarga qo‘llaniladi: qipchoq eli, mang‘it eli. El so‘zi millat, xalq ma‘nolarini ham ifodalaydi. Yurt, mamlakat ma‘nolarida ham qo‘llaniladi. Masalan, qozoq eli deganda qozoq xalqini ham, Qozog‘istonni ham tushunish mumkin. El iborasida, shuningdek, ittifoq, totuvlik, ahillik ma‘nolari ham bor. El yovning ziddidir. «El bo‘ldi», deganda do‘stlashdi, birlashdi ma‘nosi anglashiladi. Elning ana shu mazmunidan elat atamasi kelib chiqqan.

Yamudlig‘ (Namudlig‘) – xarobalari Angren shahrining shimoliy chekkasida topilgan, Toshkent viloyati hududida.

Yangiqo‘rg‘on – hozirgi kunda Navoiy viloyatidagi Navbahor tumanidagi qishloq.

Yag'mo – 1) O'rta Tyanshan; 2) turkiy qabila. X asrda ulardan katta qismi O'rta Tyanshan, asosan, Norin daryosi havzasida yashagan. Qoraxoniylar davlati tarkibida; bir qismi XI asrda Movarounnahrda ham ko'chib o'tgan.

O'sh daryosi – Okbura daryosi.

O'rta Butamon (Buttamon) – Zarafshon tizmasi.

O'sh – hozirgi O'sh, Qirg'izistondagi O'sh viloyatining markazi.

O'zgand daryosi – Sirdaryoning yuqori irmog'i, Qoradaryo.

O'ratepa/Istaravshan – Qo'qon va Buxoro davlati chegarasida joylashgan mulkning markazi. Farg'ona, Zarafshon, Iloq vodiylarini bir-biri bilan bog'lab turgan katta savdo yo'li ustida joylashgan qadimiy shahar. Hozirda Tojikistondagi Sug'd viloyatida tuman markazi. Qadimda Ushrushona/ Istaravshan tarixiy-jug'rofiy hududning markazi shu shaharning yaqini (qadimiy Kiropol)da joylashgan edi.

Qasaba – (ko'p: qasabot) – katta qishloq, «qo'rg'on», «qal'a» kabi ma'muriy hududni anglatuvchi atamalarga sinonim sifatida ham ishlatiladi.

Qabila – Qabila qon-qardosh, tildosh va dindosh bir necha urug'ning uyushmasidir, Shuningdek, bir urug' tabiiy ravishda ko'payib, atrofidagi o'zidan ojiz urug' va urug'larni bo'ysundirib, o'z tarkibiga singdirib yuborishi oqibatida qabila tarzida shakllangan ham bo'lishi mumkin.

Qalos devori – ko'chmanchi qabilalar chopqiniga qarshi qurilgan qadimiy mudofaa devori; mazkur devor Toshkent shahridan shimolda, hozirgi Keles aholi maskani yonidan o'tgan.

Quchand – Erondagi hozir Quchon deb ataluvchi shahar.

Qubo – Quva, Farg'ona viloyatidagi shahar.

Qubo daryosi – Quvasoy.

Qirq-yuz urug'i – o'zbek xalqi tarkibiga kirgan yirik qabilalardan biri. Tarqoq holda Samarqand atrofida, Panjikentning janubida, hozirgi G'allaorol, Jizzax, Zomin va O'ratepa

hududlarida yashaganlar. Qirq urug'i ko'pincha yuzlar bilan aralashgan holda yashaganlar. Shuning uchun ham ko'pchilik manbalarda «qirq yuz» nomi bilan ham ma'lum. Qirq, yuz va ming qabilalari marqa degan umumiy nom bilan atalgan. Qirqlarning etnogenezi Dashti Qipchoq o'zbeklari bilan bog'liq. Qirqlar o'tmishda bir qancha urug'larga bo'lingan. Shulardan eng yiriklari: oq-qo'yli, qora-qo'yli, qora-sirak, qoracha, olmasaun, chaparashli va boshqalar. Ular XX asrning boshlariga qadar yarim o'troq holda yashab, chorvachilik bilan, bir qismi tog' yon bag'rida, adirlarda yashab lalmikor va sug'orma dehqonchilik bilan shug'ullangan.

Qizilbosh – Eronda ko'chmanchi turk qabilalarining birlashmasi. Ular 12 shia imomi sharafiga o'n ikki yo'llik qizil matodan salla o'rab yurishlari uchun shunday nom olganlar. Ular safaviya tariqatining asosiy harbiy tayanchi bo'lib, safaviya shayxlari boshchiligida qo'shni mamlakatlarga hujum qilgan.

Qipchoq – bu yerdagi qipchoqlar etnik guruh sifatida o'zbek xalqi tarkibiga kirgan guruhdir. Bularning O'zbekiston hududlariga kelishlari mug'ullar bosqini bilan bog'liq. Noma'lum muallif davrida qipchoqlar, xitoy-qipchoq, qirg'iz-qipchoq etnik guruhlari Farg'ona vodiysida, Zarafshon vodiysi, Sirdaryo bo'ylarida hamda Xorazm vohasida yashaganlar. Aslida qipchoqlar – (rus manbalarida – poloveslar, Vizantiya manbalarida – kumanlar) – turkiy xalqlarning eng yirik qabilalaridan biri; o'zbek xalqi etnik tarkibidagi asosiy komponentlardan biri. Qipchoqlar nafaqat o'zbek xalqi entogenezida, balki qator boshqa turkiy xalqlar – qozoqlar, qirg'izlar, qoraqalpoqlar, turkmanlar, tatarlar, boshqirdlar, oltoyliklar va Shimoliy Kavkazdagi ayrim xalqlar (no'g'oylar, qo'miqlar, qorachoylar va b.) shakllanishida muhim rol o'ynagan. Qipchoqlarga xos etnik belgilar usmonli turklar, vengerlar va boshqa qator xalqlar tarkibida ham mavjud.

Qipchoqlarning Movarounnahr madaniy mintaqalariga yalpi ko'chib kelishi Shayboniyxon davrida XVI asrda va keyinchalik

XVII asrda ashtarxoniylar davrida yuz bergan. Shuningdek, Qipchoqlar XVI ning ikkinchi yarmi – XVIII ning boshlarida, jung'arlarning Qozog'istonning janubiy hududlariga bostirib kirishi jarayonida ham Zarafshon vohasi va Farg'ona vodiysiga ko'chib kelganlar. Qoraqalpoqlar, qozoqlar bilan birga Qipchoqlarning O'rta Osiyo hududlariga kirib kelishi ikki yo'nalishda bo'lib, ularning bir qismi Sirdaryoning yuqori oqimi bo'ylab Toshkent vohasi va Mirzacho'l zonalarida joylashgan. Qipchoqlarning ikkinchi qismi esa O'rta Zarafshon bo'ylab ketgan. XVIII asrning 20-30-yillarida Qipchoqlar Shimoliy Farg'onaning tog' oldi mintaqalariga kelib o'rtnashganlar. Faqatgina ma'lum miqdordagi qipchoqlargina Toshkent vohasida qolgan. Bu davrda qipchoqlar 4 ta asosiy guruhga: qora qipchoq, sariq qipchoq, xitoy qipchoq va qulon qipchoqlarga bo'lingan. Ularning har biri, o'z navbatida, mayda guruhlariga bo'lingan. Qipchoqlarning ayrim guruhlari XX asrning boshlarigacha o'zlarining urug'-qabilaviy bo'linishlarini saqlab qolganlar.

G'azak – G'azalkent, Toshkent viloyatida.

Hamdod – Hozirgi Xandud qishlog'i, Panj daryosining chap sohilida, Afg'oniston hududida.

Halovard–Tojikistondagi Qo'rg'ontepa shahri o'rnida bo'lgan.

Hisor – **Hisori Shodmon** – arab manbalaridagi Shuman. Xonaqo daryosining Kofarnihonga quyilishi joyida barpo etilgan shahar.

Hirmand daryosi – hozirgi Xilmand (Gilmand) daryosi, Afg'oniston hududida.

Hiri daryosi – hozirgi Herirud daryosi (quyi oqimida Tajan deb ataladi), Afg'oniston hududidan boshlanadi va Turkmaniston hududida daryo suvi to'la sug'orishga sarflanadi.

XRONOLOGIK JADVAL

- M.avv. 1,2 mln. – 100 000 yillar – ilk paleolit
- M.avv. 100-40 000 yillar – o‘rta paleolit
- M.avv. 40-12 000 yilliklar – quyi paleolit
- M.avv. 12-7 000 yilliklar – mezolit
- M.avv. 6- 4 000 yilliklar – neolit
- M.avv. 4-3 000 yilliklar – eneolit
- M.avv. 3-2 000 yilliklar – bronza davri
- M.avv. 1 000 yillik boshlaridan-temir davri
- M.avv. VII-VI asrlar – Qadimgi Xorazm
- M.avv. VII-VI asrlar – Qadimgi Baqtriya va So‘g‘diyona
- M.avv. 540-330 yillar – O‘rta Osiyoda ahmoniyalar hukmronligi davri
- M.avv. 329-327-312 yillar – Aleksandr bosqini va yunonlar hukmronligi davri
- M.avv. 312-290 yillar – O‘rta Osiyo salavkiylar davlati tarkibida
- M.avv. 290-140-130 yillar – Yunon-Baqtriya davlati
- M.avv. 290-mil 220-Parfiya (Arshakiylar) davlati
- M.avv. III-Mil. III-Xorazm davlati
- M.avv. III-Mil. III- Qang‘ davlati
- M.avv. III – Mil. II- Dovon davlati
- Mil. I asr oxiri-III asrlar – Kushon davlati
- 305-995 yillar – Xorazmshoh (Afrig‘iylar) davlati
- 353-456 yillar – Xioniylar davlati
- 420-456 yillar – Kidariy(Tohar)lar davlati
- V asr II yarmi – VI asr I yarmi – Eftaliylar davlati
- 551-Turkiy xoqonlikning tashkil topishi
- 556-580-603 yillar – Turkiy xoqonlik davri
- 603-650 yillar – G‘arbiy turk xoqonligi davri

651-704 yillar – Arablar bosqini va siyosiy tarqoqlik davri

704-715 yillar – Qutayba ibn Muslimning bosqinchilik yurishlari

715-749 yillar – Xuroson va Movaraunnahr Ummaviylar xalifaligi tarkibida

750-1258 yillar – Abbosiylar hukmronligi davrida Oʻrta Osiyo

821-873 yillar – Tohiriylar sulolasi

873-900 yillar – Xurosonda Safforiylar hukmronligi

874-888-900-999 – Somoniylar davlati

995-996-999-1212 yillar – Qoraxoniylar davri

995-1017 yillar – Xorazmshoh – Maʼmuniylar davri

997-1040-1186 yillar – Gʻaznaviylar sulolasi

1017-1044 – Xorazmshoh Oltuntoshlar davri

1038-1157 yillar – Saljuqiylar sulolasi

1044-1097-1138 yillar – Xorazm saljuqiylar davlati tarkibida

1097-1231 yillar – Xorazmshoh (Anushteginiylar) davlati

1219-1224 yillar – Moʻgʻullar bosqini davri

1224-1370 yillar – Chigʻatoy ulusi (moʻgʻullar hukmronligi)

davri

1336-1409 yillar – Amir Temur yashagan yillar

1370-1506 yillar – Temur va Temuriylar davlati

1500-1601 yillar – Shayboniylar davlati

1511-1770 yillar – Xorazm Shayboniylari davlati

1601-1753 yillar – Buxoro Ashtarxoniyalar davlati

1753-1920 yillar – Buxoro amirligi davlati

1770-1804 yillar – Xorazm Qoʻngʻirot inoqlari

1709-1876 yillar – Qoʻqon xonligi davlati

1804-1920 yillar – Xiva xonligida Qoʻngʻirot xonlari davri

1867-yil 14 iyun – 1917 yil mart – Turkiston general-gubernatorligi

1868-1918 yillar – Vassal Buxoro amirligi

1873-1918 yillar – Vassal Xiva xonligi

- 1917 yil fevral – oktyabr - Turkiston qo‘mitasi
- 1917 yil 15 noyabr – 1918 yil aprel – Turkiston xalq komissarligi
- 1917 yil 28 noyabr – 1918 yil 22 fevral – Turkiston muxtoriyati
- 1918-1920 yillar – Buxoro amirligi
- 1918-1920 yillar – Xiva xonligi
- 1918 yil 30 aprel – 1924 yil – Turkiston avtonom sovet socialistik respublikasi
- 1920-1924 yillar – Xorazm xalq sovet respublikasi
- 1920 yil sentyabr – 1924 yillar – Buxoro xalq sovet respublikasi
- 1925-1991 yil 31 avgust – O‘zbekiston Sovet Socialistik respublikasi
- 1991 yil 1 sentyabr – O‘zbekiston mustaqilligi kuni

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Karimov I.A Ma'naviy yuksalish yo'lida. T.: O'zbekiston, 2000.
2. Karimov I.A Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. T.: Ma'naviyat, 2008.
3. Karimov I.A. Yevropa – Kavkaz – Osiyo (TRASEKA) transport tarmog'ini rivojlantirishga bag'ishlangan xalqaro anjuman-da so'zlangan nutq. 1998 yil 8 sentabr, Boku // Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. 7-jild. T.: O'zbekiston, 1999. 174-179-betlar.
4. Abdurazzoq Samarqanday. Matlai Sa'dayn va Majmai Bahrayn. T.: O'zbekiston, 2008.
5. Abu Bakr Muhammad ibn Ja'far an-Narshaxiy. Buxoro tarixi. Rasulov A. tarjimai T.: Kamlak, 1991.
6. Abulg'oziy. Shajarayi turk. T.: Cho'lpon, 1992.
7. Abu Rayxon Beruniy. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar.//Tanlangan asarlar,1-jild.T.: Fan,1968.
8. Alouddin Atomalik Juvayniy Tarixi jahongushoydan (terma tarjimalar). // Jaloliddin Manguberdi. T.: Sharq, 1999.
9. Muqaddas kitob INJIL-TAVROTdan Muso payg'ambarning birinchi kitobi. IBTIDO-ZABUR. Stokgolm,1993.
10. Jabborov I. O'zbek xaqi etnografiyasi. T.:O'qituvchi, 1994.
11. Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. T.: Sharq, 2002.
12. Ibn al-Asir. Al-komil fi-t-tarix // Jaloliddin Manguberdi. T.: Sharq, 1999.
13. Ibn Arabshoh. Amir Temur tarixi. I kitob. T.: Mehnat, 1992.

14. Ibrohimov A., Sulstonov X., Jo'raev N. Vatan tuyg'usi. T.: O'zbekiston, 1996.
15. K. Marks va F. Engels. Tanlangan asarlar (3-jild). T.: O'zbekiston, 1981.
16. Kabirov J., Sagdullaev A. O'rta Osiyo arxeologiyasi. T.: O'qituvchi, 1990.
17. Mirzo Olim Maxdum Hoji. Tarixi Turkiston. T.: Yangi asr avlodi, 2008.
18. Mirzo Olim Maxdum Hoji. Tarixi Turkiston. Qarshi, 1992.
19. Munis va Ogahiy. Firdavs ul-iqbol. T.: Yangi asr avlodi, 2010.
20. Ogahiy. Zubdat ut-tavorih. T.: O'zbekiston, 2008.
21. Sagdullaev A. Qadimgi O'zbekiston ilk yozma manbalarda. T.: O'qituvchi, 1996.
22. Temur tuzuklari. Forschadan Alixon Sog'uniy va Habi-bullo Karomatov tarjimasini. Bo'riboy Ahmedov tahriri ostida. T.: G'afur G'ulom, 1991.
23. Ulug'bek Mirzo. To'rt ulus tarixi. /B. Ahmedovning kirish so'zi izohlari va tahririda; Fors tilidan B. Ahmedov va boshq. tarj./ - T.: Cho'lpon, 1993.
24. Sharafuddin Ali Yazdiy. Zafarnoma. T.: Sharq, 1997.
25. Shihobiddin Muhammad an-Nasaviy. Sulton Jaloliddin Manguberdi. T.: O'zbekiston, Yozuvchi, 1999.
26. Shoniyozov Sh. O'zbek xalqining shakllanish jarayoni. T.: Sharq, 2001.
27. Xo'jaev Ablat. Buyuk ipak yo'li. T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2007.
28. Xorazm safari kundaliklari. T.: Yangi asr avlodi, 2009.
29. Qadimgi tarixchilar O'rta Osiyo haqida. T.: Yurist-Media markazi, 2008.
30. Qur'oni karim. T.: Cho'lpon, 1992.
31. Hudud ul-olam. T.: O'zbekiston, 2008.

MUNDARIJA

Kirish	3
Birinchi bo'lim	6
Ikkinchi bo'lim.....	19
Uchinchi bo'lim.....	47
To'rtinchi bo'lim.....	82
Beshinchi bo'lim	101
Oltinchi bo'lim.....	130
Yettinchi bo'lim.....	165
Sakkizinchi bo'lim	195
To'qqizinchi bo'lim.....	223
O'ninchi bo'lim.....	254
O'n birinchi bo'lim.....	308
Izohli atamalar.....	381
Xronologik jadval.....	394
Foydalanilgan adabiyotlar.....	397

N.T. Polvonov

**O‘ZBEKISTON TARIXIDAN
XRESTOMATIYA**

O‘quv qo‘llanma

1-kitob

Nashriyot direktori: Baxodir Xusanov

Muharrir: Durдона Odilova

Sahifalovchi: Oygul Fozilova

Texnik muharrir: Muhiddin Xoldarov

Litsenziya raqami: AI №207, 08.28.2011 yilda berilgan.

Bosishga 30.11.2018 yilda ruxsat etildi.

Bichimi 60x84 ¹/₁₆. Nashr tabog‘i 25,0.

«PT-Serif» garniturası.

Ofset usulida bosildi. Adadi 100 nusxa.

Ushbu qo‘llanma bo‘yicha fikr-mulohazalaringizni
quyidagi manzilga yuborishingizni so‘raymiz:

“Info Capital Group” nashriyoti, 100128,

Toshkent shahri, Labzak ko‘chasi, 29/55

Tel.: (+998 71) 241-32-21, 241-01-69

Faks: (+998 71) 241-01-73

Elektron pochta qutisi: publishing@infocapital.uz